

90 *yil*  
TDIU

# EMPIRIK

## IQTISODIYOT



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MASXUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**U.V.G‘AFUROV, Q.B.SHARIPOV, X.X.REJAPOV,  
D.S.SALAYEV**

## **EMPIRIK IQTISODIYOT**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi  
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

**Toshkent – 2021**

**U O‘K: 334.75 (575.1)**  
**KBK 67.404.1**

**U.V.G‘afurov, Q.B.Sharipov, X.X.Rejapov, D.S.Salayev.**  
**EMPIRIK IQTISODIYOT. O‘quv qo‘llanma. – T.:**  
**«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 456 b.**

**ISBN 978-9943-7395-0-5**

O‘quv qo‘llanma “Empirik iqtisodiyot” fani dasturiga muvofiq tayyorlangan bo‘lib, unda iqtisodiy farovonlik, iqtisodiy o‘shish, tarixiy istiqbolda iqtisodiy o‘shish nazariyasi, qashshoqlik, tengsizlik va zaiflik, iste‘mol, vaqtni taqsimlash va ishlab chiqarishni tanlash, uy xo‘jaligi, mahalliy tovarlar va xizmatlar, ishchi kuchi bozori, investitsiya va moliyaviy bozorlar, xalqaro bozorlar va umumiy muvozanat, institut va korporatsiyalar, siyosat, boshqaruv va siyosiy iqtisod, maqsadli uzatish dasturlari, qishloq xo‘jaligiga bozor aralashuvi va islohotlar, infratuzilma siyosati va dasturlari, ta‘lim, qishloq xo‘jaligini tadqiq qilish va kengaytirish, mikromoliya, jamoat salomatligi, sog‘liqni saqlash masalalari yoritib berilgan. O‘quv qo‘llanma 5A230101-Iqtisodiy nazariya mutaxassisligi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi.

\*\*\*

The textbook was prepared in accordance with the course “Empirical Economics”, which covers the methodological problems of the subject of empirical economics, economic well-being, economic growth, the theory of economic growth in a historical perspective, poverty, inequality and vulnerability, choice of consumption, distribution of time and production, household, local goods and services, labor market, investment and financial markets, international markets and general equilibrium, institutions and corporations, politics, management and political economy, targeted transfer programs, market intervention and reforms in agriculture, policies and programs in the field of infrastructure, education, agricultural research and expansion, microfinance, public health. The textbook is recommended as a textbook in the specialty 5A230101 - Economic theory.

**U O‘K: 334.75 (575.1)**  
**KBK 67.404.1**

**ISBN 978-9943-7395-0-5**

© U.V.G‘afurov, Q.B.Sharipov, X.X.Rejapov, D.S.Salayev 2021,  
© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

## KIRISH

Mamlakatimizda barqaror va demokratik bozor iqtisodiyotini shakllantirish ko‘p jabhalardagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni taqozo etmoqda. Jamiyatdagi yangilanish va o‘zgarishlarning pirovard natijasi ko‘p jihatdan fuqarolarning mazkur jarayonlardagi ongli va faol ishtirokiga, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini chuqur anglashga bog‘liq bo‘lib, ularni tushuntirishda iqtisodiy fanlarning roli beqiyosdir.

Ma‘lumki, bugungi kunda iqtisodiy hodisa va jarayonlar, ularni maqsadga muvofiq tartibga solish, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va tushuntirib berishga xizmat qiluvchi ko‘plab iqtisodiy fanlar mavjud. Ko‘p hollarda o‘quvchilar, talaba va tadqiqotchilar, olim va mutaxassislar bu boradagi nazariy va amaliy ma‘lumotlarga tayangan holda o‘zlari uchun tegishli xulosalar chiqaradilar, zarur hollarda, xo‘jalik qarorlarini qabul qiladilar.

Hozirda ko‘plab nazariy ahamiyatdagi fanlar bilan bir qatorda amaliyotga, xususan, tajriba orqali chiqariluvchi qoida va xulosalarga tayanuvchi fanlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Iqtisodiyot sohasidagi shunday fanlardan biri “Empirik iqtisodiyot” fani hisoblanadi. Mazkur fan rivojlanish iqtisodiyotining asosiy muammolari, jumladan, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, mehnat sharoitlari, ichki va xalqaro siyosat, bozor sharoitlari kabi jihatlarni rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti va tajribalari asosida o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Mazkur fan barqaror iqtisodiyotni shakllantirish yo‘ldagi asosiy chora-tadbirlar yo‘nalishlarini ko‘rsatib berish bilan bir qatorda talabalarda bunyodkorlik g‘oyalarini shakllantirish, ma‘naviy dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiy madaniyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Shuning uchun magistratura talabalari uchun “Empirik iqtisodiyot” fanidan o‘quv qo‘llanmaning tayyorlanishi ham bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu o‘quv qo‘llanmaning tarkibiy tuzilishi jihatidan puxtaligi, fanning barcha asosiy mavzu-muammolarini qamrab olishi, ularning yoritilishidagi izchilligiga ham asoslangan. Jumladan, o‘quv qo‘llanmada iqtisodiy farovonlik, iqtisodiy o‘sish, tarixiy istiqbolda iqtisodiy o‘sish nazariyasi, qashshoqlik, tengsizlik va zaiflik, iste‘mol,

vaqtni taqsimlash va ishlab chiqarishni tanlash, uy xo'jaligi, mahalliy tovarlar va xizmatlar, ishchi kuchi bozori, investitsiya va moliyaviy bozorlar, xalqaro bozorlar va umumiy muvozanat, institut va korporatsiyalar, siyosat, boshqaruv va siyosiy iqtisod, maqsadli uzatish dasturlari, qishloq xo'jaligiga bozor aralashuvi va islohotlar, infratuzilma siyosati va dasturlari, ta'lim, qishloq xo'jaligini tadqiq qilish va kengaytirish, mikromoliya, jamoat salomatligi, sog'liqni saqlash kabi masalalar alohida mavzular doirasida bayon etilgan. Ushbu o'quv qo'llanma yangi davlat standarti talablari bo'yicha tuzilgan va Respublika muvofiqlashtirish komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan yangi namunaviy o'quv dasturi asosida yozildi. Unda dasturdagi barcha mavzular qamrab olingan. Asosiy iqtisodiy tushunchalarni soddaroq qilib, oddiy tilda misollar, jadvallar, grafiklar asosida tushuntirishga harakat qilingan.

Ushbu o'quv qo'llanmani tayyorlashda o'qitishning yangi pedagogik va informatsion texnologiyalar talablari va xususiyatlari hisobga olinib, har bir mavzudan keyin asosiy tayanch tushunchalar va atamalar, shuningdek, takrorlash va munozara uchun savollar ham berildi.

“Empirik iqtisodiyot” fani bo'yicha mazkur o'quv qo'llanma, asosan, 5A230101 – Iqtisodiy nazariya mutaxassisligi bo'yicha magistratura talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan iqtisodiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari o'qituvchi va talabalari, aspirantlar va iqtisodiyot nazariyasi sohasidagi bilimlarga qiziquvchi barcha kitobxonlar ham foydalanishi mumkin.

## 1-BOB. FANGA KIRISH

**1.1. Rivojlanish maqsadini aniqlash va jarayonini tushunish.**

**1.2. Rivojlanish siyosatini tahlil qilish.**

**1.3. Iqtisodiyot va siyosatning to‘g‘ri tahliliga ehtiyoj.**

### 1.1. Rivojlanish maqsadini aniqlash va jarayonini tushunish

Hozirgi davrda milliy iqtisodiyotning rivojlanishi jarayonlarini tahlil qilishda empirik asoslarning kengayib borishi muhim tendensiyalardan biri hisoblanadi. Shunga ko‘ra empirik iqtisodiyot fanining ahamiyati tobora oshib, u tadqiq etadigan predmet tobora kengayib boradi.

K.Makkonnell va S.Bryu “Iqtisodiy fan boshqa fanlar singari kuzatiluvchi hamda tekshirilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlardagi o‘zgarishlar orqali ifodalanuvchi dalillarga tayanadi. Demak, birinchi bosqichda u tavsifiy, ya’ni empirik iqtisodiy fan hisoblanadi”<sup>1</sup> deb ta’kidlagan.

Bundan ko‘rinadiki, iqtisodiyot **empirik**, ya’ni dalillarga, kuzatish va tekshirib ko‘rish mumkin bo‘lgan ma’lumot o‘zgarishlariga asoslanuvchi fan hisoblanadi.

Empirik iqtisodiy fanning vazifalari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

- 1) dalillarni topish;
- 2) muayyan iqtisodiy muammoni hal etuvchi iqtisodiy dalillar to‘plamidagi iqtisodiy dalillarni noiqtisodiy dalillardan ajratish;
- 3) iqtisodiy dalillarni tasvirlash;
- 4) dalillar yordamida gipotezalarni tekshirib ko‘rish orqali aniqlangan tamoyillar yoki nazariyalarning to‘g‘riligini tasdiqlash yoki inkor etish.

Yuqoridagi fikrlarning tasdig‘i sifatida V.Leontev: “Iqtisodiyot – empirik fan, ya’ni barcha insonlarning kundalik tajribasidan kelib chiquvchi hodisalar bilan ish ko‘ruvchi fandir” deb ta’kidlaydi. Shuningdek, u iqtisodiy fandagi **“induktiv tahlil va argumentatsiya”**

---

<sup>1</sup> Макконнелл К. Р., Брю С.Л. Экономика: принципы, проблемы и политика. — М.: Республика, 1992. — Т. 1. — С. 20—21. — 399 с. — ISBN 5-250-01534-4.

hamda **“deduktiv tahlil va argumentatsiya”** o‘rtasidagi nisbat va ziddiyatga alohida urg‘u beradi.

Ya’ni, induksiya (lot. *inductio* – to‘g‘rilash, tartibga keltirish) – ayrim fikrlardan umumiy xulosalar chiqarishda va mantiqiy tadqiqotlarga qo‘llaniladigan muhokama usuli. Xususiylikni o‘rganib, umumiylik bilib olinadi. Umumiylik predmet va hodisalar bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Umumiylikning eng muhim tomonlaridan biri induktiv xulosa chiqarishdir. Induksiyaning o‘rganish fanda qadimdan, hind, yunon mantiqshunosligida, Lao-szi maktabida boshlangan. Induksiya masalalari Aristotel, Abu Ali ibn Sino asarlarida uchraydi. XVII-XVIII asrlarda empirik tabiatshunoslik yuzaga kelgach, olimlar bu masalaga alohida e’tibor berdilar. Induksiyaning rivojlantirishga F. Bekon, G. Galiley, I. Nyuton, J. Mill kabi olimlar katta hissa qo‘shdilar. Induksiya bilimlarning tashkil topishida, qonuniyatlarni ochishda, tushunchalarni maydonga chiqarish jarayonida, gipotezani olg‘a surishda fan uchun muhim ahamiyatga ega.

Induksiya to‘liq, to‘liq bo‘lmagan va ilmiy xulosa chiqarishga bo‘linadi. To‘liq induktiv xulosa chiqarish biror narsani sinchiklab o‘rganish va tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. To‘liq induksiya doimo to‘liq bo‘lmagan induksiya bilan bog‘liq. To‘liq bo‘lmagan induksiyada aniq faktlar asosida noaniq faktlar keltirib chiqariladi va natijada ong boyitiladi. Induksiyaning oliy shakli ilmiy induksiyadir. Ilmiy induksiya asosida narsalarning sababiy bog‘lanishini tekshirish uslubi yotadi<sup>2</sup>.

“Deduksiya (lot. *deductio* — xulosa chiqarish) — mantiq qoidalariga ko‘ra xulosa chiqarish. Dastlab formal mantiqda umumiylikdan xususiylik, ayrimlik tomon muhokama yuritish deduksiya deb atalgan. Hozirgi zamon fanida “Deduksiya” termini keng ma’nodan qo‘llanilib, muayyan hukmdan mantiq qonunlari asosida xulosa chiqarish tushuniladi. Agar asos qilib olingan hukm haqiqiy va deduksiya qonunlariga rioya qilingan bo‘lsa, undan chiqariladigan xulosa ham haqiqiy bo‘ladi. Deduksiya – isbotning asosiy vositasidir. Shuning uchun fandagi nazariyalar deduktiv metod natijasida yaratiladi. Odatda, deduktiv metod ma’lum sohada faktik materiallar

---

<sup>2</sup> <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/induksiya-uz/>

to‘plangandan so‘ng, ularni chuqur o‘rganish, tizimga solish va b. maqsadlarda qo‘llaniladi”<sup>3</sup>.

Bundan ko‘rinadiki, uzoq vaqt davomida yetakchilik qilib kelgan induktiv tahlil va argumentlash usullaridan asta-sekin deduktiv tahlil va argumentlash usullariga ustunlik berish empirik iqtisodiyotning ahamiyatini yanada oshiradi.

Mazkur fanning ahamiyati talabalarning real hayotda tadqiqotchi, siyosatchi, tadbirkor, saylovchi sifatidagi ishtiroki bilan ham izohlanadi. Ular o‘zlari duch kelayotgan va kundalik hayotda tajriba sifatida ko‘rayotgan voqea va hodisalarning ichki mazmunini anglash hamda bu orqali iqtisodiy hodisa va jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini aniqlashga harakat qiladilar. Ushbu jarayonlarda empirik iqtisodiyot fani muhim nazariy va uslubiy asos sifatida xizmat qiladi.

Empirik iqtisodiyot fanining vazifasi – nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, ijodiy fikrlash jarayoniga uslubiy yondoshuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish hisoblanadi.

Odatda fan masalalarni hal qilish omili bo‘lib, nazariyalar ishlab chiqish, borliq obyektiv qonunlarini ochish, ilmiy faktlarni aniqlash va hokazolar hisoblanadi. Bular ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridir.

Umumiy usullar uch guruhga bo‘linadi:

- *empirik tadqiqot usullari* (kuzatish, qiyoslash, o‘lchash, tajriba);
- *nazariy tadqiqot usullari* (mavhumdan aniqlikka tomon borish va b.);
- *empirik va nazariy tadqiqot usullari* (tahlil va sintezlash, induksiya va deduksiya, modellashtirish, abstraktlash va b.).

**Kuzatish** – bilish usuli. Bunda obyektни o‘rganish unga aralashuvsiz amalga oshiriladi. Mazkur holda faqat obyektning xossasi, uning o‘zgarish tavsifi qayd etiladi va o‘lchanadi (masalan, binoning cho‘kish jarayonini kuzatish). Tadqiqot natijalari real mavjud

---

<sup>3</sup> <https://qomus.info/encyclopedia/cat-d/deduktsiya-uz/>



obyektlarning tabiiy xususiyatlari va munosabat (bog‘liqlik)lari xususida bizga ma’lumot beradi.

Bu natijalar subyektning irodasi, sezgilari va istaklariga bog‘liq emas.

**Qiyoslash** – bilishning keng tarqalgan usuli, “barcha narsalar qiyoslanganda bilinadi” tamoyiliga asoslanadi. Qiyoslash natijasida bir qancha obyektlar uchun umumiy va xos bo‘lgan jihatlar aniqlanadi. Bu ma’lumki, qonuniyatlar va qonunlarni bilish yo‘ldagi birinchi qadamdir.

Qiyoslash samarali bo‘lishi uchun ikki asosiy talabga amal qilinishi zarur:

- birinchidan, bunda o‘rtasida muayyan obyektiv umumiylik bo‘lishi mumkin bo‘lgan obyektlargina taqqoslanishi kerak;
- ikkinchidan, obyektlarni taqqoslash ahamiyatli (bilish vazifasi sifatida) xossalar, belgilar bo‘yicha amalga oshirilishi lozim.

**O‘lchash** – qiyoslashdan farqli o‘laroq, bilishning ancha aniq vositasi hisoblanadi. Bu usulning qimmatini shundan iboratki, atrof borliqdagi obyektlar haqida yuqori aniqlikka erishiladi. Ilmiy bilishning empirik jarayonida o‘lchash kuzatish va qiyoslashdagiga o‘xshashdir.

**Eksperiment** – empirik tadqiqotning yuqorida ko‘rib o‘tilgan usullaridan farqli o‘laroq ancha umumiy ilmiy qo‘yilgan tajriba hisoblanadi. Bunda faqat kuzatib va o‘lchabgina qolinmay, balki obyekt yoki tadqiqot obyektining o‘zi mavjud bo‘lgan sharoit muayyan tarzda o‘zgartiriladi. Eksperiment natijasida bir yoki bir necha omillarni boshqa yoki boshqalarga ta’sirini aniqlash mumkin. Kuzatishdan farqli o‘laroq eksperiment tajriba takrorlanishini ta’minlaydi, obyekt xususiyatini turli sharoitlarda tadqiq etish va obyektini “sof holda” o‘rganishga imkon beradi.

Empirik tadqiqot usullari ilmiy bilishda muhim ahamiyatga ega.

Ular faqat farazni dalillash uchun asos bo‘libgina qolmay, balki ko‘pincha yangi ilmiy kashfiyotlar, qonunlar va boshqalarning manbayi hamdir.

Empirik va nazariy tadqiqotlarda tahlil va sintez, deduksiya va induksiya, abstraktlash kabi universal usullar keng qo‘llanadi.

Mazkur empirik iqtisodiyot fani o‘z mohiyatiga ko‘ra rivojlanish iqtisodiyoti fanining mazmunini namoyon etadi. Rivojlanish

iqtisodiyoti (ingl. *development economics*) – nisbatan past daromad darajasiga ega mamlakatlardagi hayot darajasi o‘shining siyosiy va iqtisodiy strategiyasini shakllanishi bilan bog‘liqlikda bo‘lgan amaliy fan. Rivojlanish iqtisodiyoti ommaviy qashshoqlikning tabiati va sabablari bilan ish ko‘rib, iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish uchun omillar, tendensiyalar va vositalar bilan ish ko‘radi. Rivojlanish iqtisodiyotining asosiy maqsadi bo‘lib past daromadli mamlakatlarda kambag‘allikni bartaraf etish imkoniyatlarini tahlil qilish hisoblanadi.

## **1.2. Rivojlanish siyosatini tahlil qilish**

Rivojlanish iqtisodiyoti - rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan iqtisodiyotning bir bo‘limi. Rivojlanish iqtisodiyoti sog‘liqni saqlash, ta‘lim, mehnat sharoitlari, ichki va xalqaro siyosat, bozor sharoitlari kabi omillarni dunyoning eng qashshoq mamlakatlaridagi sharoitlarni yaxshilashga qaratadi.

Shuningdek, ushbu soha rivojlanayotgan iqtisodiyotlar tuzilishi va ichki va xalqaro iqtisodiy o‘sh bilan bog‘liq bo‘lgan makroiqtisodiy va mikroiktisodiy omillarni o‘rganadi.

Rivojlanish iqtisodiyoti - bu rivojlanayotgan mamlakatlarning moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan iqtisodiyotning bir bo‘lagi.

Rivojlanish iqtisodiyoti yo‘naltirilgan yo‘nalishlarga sog‘liqni saqlash, ta‘lim, mehnat sharoitlari va bozor sharoitlari kiradi.

Rivojlanish iqtisodiyoti qashshoq mamlakatlarni qashshoqlikdan olib chiqish uchun makro va mikroiktisodiy siyosatni tushunishga va shakllantirishga intiladi.

Rivojlanish iqtisodiyotining qo‘llanilishi murakkab va xilma-xildir, chunki har bir millatning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy doiralari har xil.

Rivojlanish iqtisodiyotining to‘tta keng tarqalgan nazariyasiga merkantilizm, millatchilik, o‘sh modelining chiziqli bosqichlari va tarkibiy o‘zgarish nazariyasi kiradi.

Rivojlanish iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarning yanada farovon davlatlarga aylanishini o‘rganadi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotni o‘zgartirish strategiyasi o‘ziga xosdir, chunki mamlakatlarning

ijtimoiy va siyosiy kelib chiqishi keskin farq qilishi mumkin. Nafaqat u, balki har bir millatning madaniy va iqtisodiy doiralari ham har xil, masalan, ayollar huquqlari va bolalar mehnati to'g'risidagi qonunlar.

Iqtisodiyot talabalari va professional iqtisodchilar amaliyotchilarga ichki va xalqaro siyosat darajasida ishlatilishi va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan amaliyot va siyosatni aniqlashda rahbarlik qiluvchi nazariyalar va uslublarni yaratadilar.

Rivojlanish iqtisodiyotining ayrim jihatlari aholi sonining tez o'sishi taraqqiyotga qanchalik yordam berayotgani yoki to'sqinlik qilayotgani, iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishi va taraqqiyotda ta'lim va sog'liqni saqlashning o'rni kiradi.

Ular, shuningdek, xalqaro savdo, globallasuv, barqaror rivojlanish, OIV kabi epidemiyalarning ta'siri va falokatlarning iqtisodiy va inson taraqqiyotiga ta'sirini o'z ichiga oladi.

Rivojlanish iqtisodiyotining turlari:

**1. Merkantilizm.** Merkantilizm taraqqiyot iqtisodiyotining dastlabki shakllaridan biri bo'lib, u millat muvaffaqiyatini targ'ib qilish amaliyotini yaratgan. Bu XVI-XVIII asrlarda Yevropada amal qilgan hukmron iqtisodiy nazariya edi. Nazariya raqib milliy kuchlar ta'sirini kamaytirish orqali davlat hokimiyatini kuchaytirishga yordam berdi.

Siyosiy absolyutizm va mutlaq monarxiyalar singari merkantilizm ham mustamlakalarning boshqa xalqlar bilan muomala qilishini taqiqlab, hukumat tomonidan tartibga solishni targ'ib qildi.

Merkantilizm asosiy savdo portlari bo'lgan bozorlarni monopolashtirgan va oltin va kumush eksportini taqiqlagan. U oltin va kumushni yetkazib berish qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik boyroq bo'lishiga ishongan. Umuman olganda, u savdo profitsitini izladi (eksport importdan kattaroq), savdo uchun xorijiy kemalardan foydalanishga yo'l qo'ymadi va ichki resurslardan foydalanishni optimallashtirdi.

**2. Iqtisodiy millatchilik.** Iqtisodiy millatchilik tariflarni yoki boshqa to'siqlardan foydalangan holda kapitalni shakllantirish, iqtisodiyot va ishchi kuchini ichki nazoratga yo'naltirilgan siyosatni aks ettiradi. Bu kapital, tovar va ishchi kuchi harakatini cheklaydi.

Iqtisodiy millatchilar globallasuv va cheksiz erkin savdo afzalliklari bilan umuman rozi emaslar. Ular bir mamlakat ichidagi

tarmoqlar boshqa mamlakatlarda tashkil etilgan kompaniyalar tomondan raqobat tahdidisiz o'sishi uchun izolyatsiya siyosatiga e'tibor berishadi.

Dastlabki Amerika Qo'shma Shtatlari iqtisodiyoti iqtisodiy millatchilikning yorqin namunasidir. Yangi millat sifatida u tashqi ta'sirga ko'p ishonmasdan o'zini rivojlantirishga intildi. U yuqori tariflar kabi choralarni qabul qildi, shuning uchun o'z sanoat tarmoqlari to'siqsiz o'sib borishi mumkin edi.

**3. Ikkinchi jahon urushidan keyingi nazariyalar.** Zamonaviy rivojlanish iqtisodiyotining kelib chiqishi ko'pincha Ikkinchi jahon urushidan keyin Sharqiy Yevropani sanoatlashtirish bilan bog'liq muammolar va ehtimol muammolardan kelib chiqadi.

**4. O'sishning chiziqli bosqichlari modeli.** Rivojlanish iqtisodiyotining dastlabki nazariyasi, o'sishning chiziqli bosqichlari modeli birinchi bo'lib 50-yillarda W.Rostov tomonidan "O'sish bosqichlari: kommunistik bo'lmagan manifest", Marks va Listning asarlaridan keyin ishlab chiqilgan. Ushbu nazariya Marksning rivojlanish bosqichlarini o'zgartiradi va iqtisodiy o'sishni va shu tariqa rivojlanishni rag'batlantirishning asosiy vositasi sifatida ichki va xalqaro jamg'armalarni investitsiyalarni jalb qilish vositasi sifatida foydalanish orqali kapitalni jadal to'plashga qaratilgan. O'sishning chiziqli bosqichlari modeli barcha mamlakatlar rivojlanish jarayonida beshta ketma-ket rivojlanish bosqichlarini mavjudligini anglatadi. Ushbu bosqichlar "an'anaviy jamiyat, parvoznig oldingi shartlari, parvozi, yetuklikka intilishi va katta ommaviy iste'mol davri" Harrod-Domar modelining sodda versiyalari matematikani ta'minlaydi kapital qo'yilmalarning yaxshilanishi iqtisodiy o'sishga olib keladi degan dalilning tasviri.

Bunday nazariyalar, zarur bo'lganda kapital to'plash rivojlanish uchun yetarli shart emasligini tan olmaganligi uchun tanqid qilindi. Ya'ni ushbu dastlabki va soddalashtirilgan nazariya taraqqiyot yo'ldagi siyosiy, ijtimoiy va institutsional to'siqlarni hisobga olmadi. Bundan tashqari, ushbu nazariya Sovuq urushning dastlabki yillarida ishlab chiqilgan va asosan Marshal rejasining muvaffaqiyatlaridan kelib chiqqan. Bu nazariyani rivojlanayotgan mamlakatlarda Ikkinchi jahon urushidan keyingi sharoitlar bir xil deb taxmin qiladi degan tanqidni keltirib chiqardi.

**5. Strukturaviy o'zgarish nazariyasi.** Strukturaviy o'zgarish nazariyasi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy tuzilmalarini, asosan, hayotiy qishloq xo'jaligi amaliyotlaridan iborat bo'lishidan "zamonaviyroq, shaharlashgan va sanoat jihatidan har xil ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti" ga aylantirishga qaratilgan siyosat bilan bog'liq. Strukturaviy o'zgarishlar nazariyasining ikkita asosiy shakli mavjud: V.Lyuisning agrar jamiyatlarni shaharlashgan sanoat sektorini rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ortiqcha ishchi kuchidan iborat deb hisoblaydigan ikki sektorli ortiqcha modeli va Xollis Cheneri turli mamlakatlar turli traektoriyalar orqali boyib borishini ta'kidlaydigan rivojlanish yondashuvining naqshlari. Ushbu doirada ma'lum bir mamlakat amal qiladigan model uning hajmi va resurslariga va potentsial boshqa omillarga, shu jumladan hozirgi daromad darajasi va boshqa xalqlarga nisbatan qiyosiy afzalliklarga bog'liq. Ushbu doiradagi empirik tahlil "rivojlanmagan iqtisodiyotning iqtisodiy, sanoat va institutsional tuzilishi vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradigan ketma-ket jarayon" ni o'rganib chiqadi, bu esa an'anaviy ravishda qishloq xo'jaligini iqtisodiy o'sish mexanizmi sifatida almashtirishga imkon beradigan yangi tarmoqlarga imkon beradi.

Rivojlanish iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlarning yondashuvlari qishloqni rivojlantirish hisobiga shaharni rivojlantirishga qaratganligi uchun tanqidlarga duch keldi, bu esa mamlakatning ichki hududlari o'rtasida tengsizlikning sezilarli darajada oshishiga olib kelishi mumkin. O'tgan asrning 50-yillarida ishlab chiqilgan ikki tarmoqli ortiqcha model, asosan, agrar jamiyatlar ishchi kuchining ortiqcha qismidan aziyat chekadi degan asosiy taxmin uchun yana tanqid qilindi. Haqiqiy empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bunday ortiqcha ish kuchi faqat mavsumiydir va bunday ish kuchini shaharlarga jalb qilish qishloq xo'jaligi sektorining qulashiga olib kelishi mumkin. Rivojlanish yondashuvining naqshlari nazariy asosga ega emasligi uchun tanqid qilindi.

**6. Xalqaro qaramlik nazariyasi.** Xalqaro qaramlik nazariyalari o'tgan asrning 70-yillarida oldingi nazariyalarning xalqaro taraqqiyotda keng yutuqlarga olib kelmasligiga reaksiya sifatida mashhurlikka erishdi. Avvalgi nazariyalardan farqli o'laroq, xalqaro qaramlik nazariyalari o'zlarining kelib chiqishi rivojlanayotgan mamlakatlarda

kelib chiqadi va rivojlanish yoʻldagi toʻsiqlarni ichki emas, balki asosan tashqi tabiat deb biladi. Ushbu nazariyalar rivojlanayotgan mamlakatlarni iqtisodiy va siyosiy jihatdan oʻzlarining ustun mavqeini saqlab qolishdan manfaatdor boʻlgan yanada qudratli, rivojlangan mamlakatlarga qaram deb hisoblaydi. Xalqaro qaramlik nazariyasining uch xil, asosiy formulalari mavjud: neokolonial qaramlik nazariyasi, yolgʻon-paradigma modeli va dualistik-qaramlik modeli. Xalqaro tobelik nazariyasining birinchi formulasi neokolonial qaramlik nazariyasi kelib chiqishi marksizmdan kelib chiqadi va koʻplab rivojlanayotgan davlatlarning muvaffaqiyatli rivojlanmayotganligini xalqaro kapitalistik tizimning tarixiy rivojlanishi natijasi deb biladi.

**7. Neoklassik nazariya.** 1980-yillarda rivojlangan dunyoda bir necha konservativ hukumatlar paydo boʻlishi bilan birinchi oʻrinni egallagan neoklassik nazariyalar Xalqaro qaramlik nazariyalaridan tubdan burilishni anglatadi. Neoklassik nazariyalar hukumatlar iqtisodiyotga aralashmasligi kerak; boshqacha qilib aytganda, ushbu nazariyalar toʻsiqsiz erkin bozor tez va muvaffaqiyatli rivojlanishni ragʻbatlantirishning eng yaxshi vositasi deb daʼvo qilmoqda. Haddan tashqari davlat tomonidan tartibga solinmagan, cheklangan raqobat-bardosh erkin bozorlar tabiiy ravishda resurslarning taqsimlanishini maksimal darajada samaradorlik bilan amalga oshirilishini va iqtisodiy oʻsishni koʻtarish va barqarorlashtirishni tabiiy ravishda taʼminlashga qodir deb qaraladi.

Shuni taʼkidlash kerakki, neoklassik nazariya sohasida bir nechta turli xil yondashuvlar mavjud, ularning har biri bozorni tartibga solinmaslik darajasiga nisbatan ularning qarashlarida nozik, ammo muhim farqlarga ega. Bu neoklassik nazariyani oʻziga xos jihatlari erkin bozor yondashuvi, jamoatchilik tanlovi nazariyasi va bozorga qulay yondashuvdir. Uchtadan erkin bozor yondashuvi ham, jamoatchilik tanlovi nazariyasi ham bozor mutlaqo erkin boʻlishi kerak, degan maʼnoni anglatadi, yaʼni hukumat tomonidan har qanday aralashuv yomon boʻlishi kerak. Ommaviy tanlov nazariyasi, shubhasiz, liberalizm bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan hukumatlarning oʻzi kamdan-kam hollarda yaxshi boʻlishi va shuning uchun imkon qadar minimal boʻlishi kerak degan qarashlari bilan ikkalasining yanada radikalidir.

Akademik iqtisodchilar rivojlanayotgan mamlakatlar hukumatlariga turli xil siyosiy tavsiyalar berishdi. Masalan, Chili iqtisodiyoti (Arnold Xarberger), Tayvanning iqtisodiy tarixi (Sho-Chieh Tsian). Anne Krueger 1996-yilda jahon miqyosidagi siyosat bo'yicha tavsiyalarning muvaffaqiyatsiz va muvaffaqiyatsizligi savdo va taraqqiyotga oid amaldagi ilmiy yozuvlarga doimiy ravishda kiritilmaganligini ta'kidladi.

Bozorga mos keladigan yondashuv, ikkinchisidan farqli o'laroq, so'nggi rivojlanish bo'lib, ko'pincha Jahon banki bilan bog'liq. Ushbu yondashuv hanuzgacha erkin bozorlarni himoya qiladi, ammo ko'plab rivojlanayotgan davlatlar bozorlarida ko'plab kamchiliklar mavjudligini angelaydi va shu bilan hukumatning ba'zi aralashuvi bu kamchiliklarni bartaraf etishning samarali vositasi deb ta'kidlaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ba'zi muhim xususiyatlari quyida keltirilgan:

- past sanoat bazasi;
- inson taraqqiyotining past ko'rsatkichi (inson taraqqiyoti indeksi);
- kapitalning yuqori marjinal samaradorligi;
- kam mehnat unumdorligi;
- kambag'al muassasalar;
- nomukammal bozorlar;
- kam texnologiya tarqalishi;
- xomashyoni eksport qilish;
- nisbatan yer mo'lligi;
- ko'plab muammolar.

Sanoat bazasi pastligi sababli rivojlanayotgan mamlakatlarni kam daromadli mamlakatlar deb ham atash mumkin. Shuning uchun "past va o'rta daromadli mamlakatlar" atamasi odatda rivojlanayotgan mamlakatlarni ham anglatishi mumkin.

**Kapitalning yuqori marjinal samaradorligi.** Rivojlanayotgan mamlakatlar kapital masalasida juda past baza bilan ajralib turadi. Bu shuni anglatadiki, kapital birligi rivojlangan mamlakatlarda qila olgandan ko'ra ko'proq narsani qila oladi. Rivojlangan mamlakatlar kapitalning to'yinganligi bilan ajralib turadi va bu shuni anglatadiki, investorlar mablag'lari / qarz mablag'lari bozorda o'zlarining ta'minotida juda ko'p, investor har doim ham eng yaxshi daromad olish

loyihasida birinchi imkoniyatni qo‘lga kirita olmaydi. Boshqa tomondan, rivojlanayotgan mamlakatlar kapitaldan aziyat chekmoqda va juda yaxshi loyihalar mablag‘jalb qilishdan oldin bir necha yil sarf qilishi mumkin. Shunday qilib, rivojlanayotgan mamlakatlarda kapital eng yaxshi “yuqori rentabellik” loyihalarini moliyalashtirishi mumkin (boshqa omillarni doimiy ravishda ushlab turish). Ikkinchidan, texnologiyaning nisbatan yo‘qligini hisobga olgan holda, oz miqdordagi kapital ishlab chiqarish, daromad va farovonlikka muhim multiplikator ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan texnologik investitsiyalarning sakrashini ta’minlashi mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatdagi dehqonlar hududida ho‘kiz chizilgan somonga sarmoya kiritish, foyda oluvchilar oilasini ochlikdan himoya qilishi, shuningdek, ortiqcha mahsulotni bozorga sotish imkoniyatini yaratishi mumkin. “Ekilgan” shudgor endi faqat muzeylarda topilgan yodgorlik bo‘lishi mumkin bo‘lgan rivojlangan mamlakatda bir xil bo‘lmaydi.

**Kam mehnat unumdorligi.** Mehnatni to‘ldiradigan texnologiyalarning kam yoki umuman tarqalmaganligi sababli rivojlanayotgan mamlakatlarda juda past mehnat unumdorligi (ish birligiga to‘g‘ri keladigan mahsulot) mavjud. Biroq, mehnatni to‘ldirish bu hikoyaning faqat bir qismidir. Inson kapitali nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, rivojlanayotgan G‘arb mamlakatlarida har bir xonadonda bolalar kam bo‘lib, ularga har bir bolaga o‘qitish va ta’lim sohasida ko‘proq mablag‘ ajratish imkoniyatini beradi, shu bilan birga bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda jamiyatlar hali ham bir oilaga ko‘proq bolaga mablag‘ ajratmoqdalar - shuning uchun ularning miqdori kamayadi har bir bolaga sarmoya kiritilishi mumkin bo‘lgan pul. Demak, past mehnat unumdorligi.

**Kambag‘al muassasalar.** Institutlar qonun ustuvorligi, oshkoralik, mulk huquqining ta’minlanishi va korrupsiya bilan bog‘liq (boshqa masalalar qatorida). Ruttan va Xayami (1984) institutlarni jamiyat / tashkilot a’zolariga o‘zaro ta’sirning asosini tashkil etadigan kutishlarni rivojlantirishga yordam berish orqali koordinatsiyani yengillashtirishga yordam beradigan tashkiliy yoki ijtimoiy qoidalar deb ta’riflaydi. Korrupsiya, oshkoralik va qonun ustuvorligi rivojlanish nutqining muhim mavzularidir, chunki ularsiz rivojlanish kam yoki umuman bo‘lmaydi. Demsetz (1967) so‘zlari bilan aytganda, “mulk huquqi odamlarga qanday foyda keltirishi va zarar ko‘rishi



mumkinligini, shuning uchun shaxslar tomonidan qilingan harakatlarni kim o'zgartirishi uchun kimga to'lashi kerakligini belgilaydi". Demsetz (1967) fikriga ko'ra, mulk huquqi rag'batlantirishga to'g'ri rahbarlik qilish orqali tashqi ta'sirlarni ko'proq ichkilashtirishni ta'minlash orqali ishlaydi. Tashqi (keyingi mavzularda batafsilroq muhokama qilinishi kerak) – bu, shaxslar o'zlari ishtirok etmaydigan bitim ta'siriga tushadigan ssenariylar. Ushbu ta'sirlar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Misol tariqasida, agar siyosatchilar biznesdan kelib chiqadigan "himoya to'lovlari" dan nohaq foyda ko'rishlari mumkin bo'lsa, unda mulk huquqlari aniq belgilanmagan va muassasalar bunday yurisdiksiyada yaxshi shakllanmagan.

**Nomukammal bozorlar.** Mukammal bozorlar uchun uchta aniq shart – bu, erkin bozorga kirish va chiqish, ko'plab xaridorlar va sotuvchilar va mukammal (keng tarqalgan) ma'lumotlar. Mukammal bozorlar – bu, har qanday ekzogen to'siqlar va cheklovlarsiz erkin bozorlar. Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda texnologik tarqalishning past darajasi bozorning nomukammalligiga olib kelishi mumkin. Bozor nomukammalligi – bu, haqiqiy bozor muvozanatini aks ettirmaydigan buzilgan bozorlar. Masalan, ma'lum bir siyosiy maqsadlar uchun hukumat ba'zi mafkuraviy o'quv dasturlarini (diplomlar va darajalar) hech qanday tarzda bozor buyrug'iga mos kelmaydigan tarzda amalga oshirishi mumkin va shu bilan bitiruvchilarning haddan tashqari ko'pligini yaratish orqali bozor buzilishlarini keltirib chiqaradi. Texnologik tarqalish darajasi pastligi sababli (masalan, Internet), rivojlanayotgan mamlakatda yaqinda bitiruvchi bo'lishi mumkin.

### **1.3. Iqtisodiyot va siyosatning to'g'ri tahliliga ehtiyoj**

Iqtisodiyot va siyosat tahlili har qanday kontekstning siyosiy o'lchamlarini tushunishga qaratilgan va ushbu ma'lumotdan siyosat va dasturlarni xabardor qilish uchun faol ravishda foydalanish. Siyosat rasmiydir va jamiyatda raqobatlashish yoki hamkorlikning norasmiy usullari. Siyosiy jarayonlar dinamik va jamiyatning barcha darajalarida sodir bo'ladi.

Iqtisodiyot va siyosat tahlili tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirchanlikni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi, qarorlar qanday qabul qilinishini tushunish uchun muassasalar va manfaatdor tomonlar:

**1. Tuzilmalar.** Tuzilmalar o'zgaruvchan kontekstning eng o'ziga xos xususiyati asta-sekin, masalan, global ta'sirlar, tabiiy resurslar bilan t'minlanish, demografik siljishlar, tarixiy meros, ijtimoiy-madaniy omillar va texnologik taraqqiyot.

**2. Tashkilotlar** bilan aralashmaslik kerak, muassasalar "o'yin qoidalari", insonni shakllantiradigan mahalliy qonunlar, konvensiyalar va an'analar, xulq-atvor. Norasmiy institutlar rasmiy institutlar singari muhim ahamiyatga ega. Ular statik emas va ko'pincha yordam tadbirlarining markazidir.

**3. Manfaaddor tomonlar.** Manfaaddor tomonlar yakka shaxslar, tashkilotlar yoki jamoatchilik koalitsiyalari, xususiy yoki fuqarolik jamiyati sektorlari bo'lishi mumkin. Ularning manfaatlari, motivatsiyasi, tarmoqlari va vaqt o'tishi bilan ta'sir o'tkazish. Ularning xatti-harakatlarini "qoidalar doirasida o'yinlar" deb hisoblash mumkin.

Yordam tadbirlari barqaror natijalarga erishish uchun ular siyosiy va texnik jihatdan ham yaxshi bo'lishi kerak. Buning sababi taraqqiyot siyosiy jarayon - barqaror, mahalliy qonuniy institutlar vaqt o'tishi bilan mahalliy siyosiy jarayonlar orqali vujudga keladi.

So'nggi o'n yilliklarda jahon iqtisodiyotining eng yorqin xususiyatlaridan biri bu, dunyoning turli qismlari o'rtasida resurslarni taqsimlashdagi tengsizlikning kuchayishi. Dunyodagi eng ko'p aholiga ega bo'lgan Xitoy misli ko'rilmagan darajada iqtisodiy o'sishga erishdi va Hindiston ham sezilarli yutuqlarga erishdi. Ayni paytda Afrikaning Saxaradan janubidagi mamlakatlar turg'unlashdi va turmush darajasidagi farq tobora oshib bormoqda.

Rivojlanish iqtisodiyoti dunyodagi eng qashshoq mamlakatlarga xos bo'lgan ayrim iqtisodiy muammolarni o'rganishga harakat qiladi. Ushbu modulda siz ushbu global tengsizlikni keltirib chiqargan omillarni o'rganasiz.

Ushbu o'quv dasturining bir qismi sifatida siz XXI-asrning ba'zi muhim muammolari, shu jumladan, iqtisodiyotni tushunishimizga yordam beradigan usulni ko'rasiz:

-aholining tez o'sishi rivojlanishga qay darajada yordam beradi yoki to'sqinlik qiladi?

- iqtisodiyotlar uchun tarkibiy o'zgartirish jarayoni o'tishi zarurmi  
- va bu qanday amalga oshiriladi?

- taraqqiyot jarayoniga hissa qo'shishda ta'lim va sog'liqni saqlashning o'rni qanday?

- globallashtirilgan iqtisodiyot sharoitida xalqaro savdo bilan shug'ullanish mamlakatlar uchun qanchalik muhim?

- kam rivojlangan mamlakatlar qanday qilib barqaror rivojlanishga erishishlari mumkin?

- OIV/OITS epidemiyasi iqtisodiy va inson rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatdi?

Rivojlanish iqtisodiyotini o'rganish orqali siz iqtisodiy tahlil vositalarini kam rivojlangan mamlakatlar oldida turgan muammolar va muammolarga qo'llash va ba'zi davlatlar nima uchun iqtisodiy va inson taraqqiyoti jarayonidan o'tib ketganligini tushunishga kirishish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

## **Asosiy tayanch tushunchalar**

**Empirik fan** – dalillarga, kuzatish va tekshirib ko'rish mumkin bo'lgan ma'lumot o'zgarishlariga asoslanuvchi fan.

**Induksiya** (lot. *inductio* – to'g'rilash, tartibga keltirish) – ayrim fikrlardan umumiy xulosalar chiqarishda va mantiqiy tadqiqotlarga qo'llaniladigan muhokama usuli.

**Deduksiya** (lot. *deductio* – xulosa chiqarish) – mantiq qoidalariga ko'ra xulosa chiqarish.

**Kuzatish** – obyektning o'rganish unga aralashuvsiz amalga oshiriladigan bilish usuli.

**Qiyoslash** – bilishning keng tarqalgan usuli, “barcha narsalar qiyoslanganda bilinadi” tamoyiliga asoslanadi.

**O'lchash** – qiyoslashdan farqli o'laroq, bilishning ancha aniq vositasi hisoblanadi. Bu usulning qimmatini shundan iboratki, atrof borliqdagi obyektlar haqida yuqori aniqlikka erishiladi.

**Eksperiment** – empirik tadqiqotning yuqorida ko'rib o'tilgan usullaridan farqli o'laroq ancha umumiy ilmiy qo'yilgan tajriba hisoblanadi.

**Rivojlanish iqtisodiyoti** (ingl. *development economics*) – nisbatan past daromad darajasiga ega mamlakatlardagi hayot darajasi

o‘shining siyosiy va iqtisodiy strategiyasini shakllanishi bilan bog‘liqlikda bo‘lgan amaliy fan.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Empirik iqtisodiyot fanning vazifalari nimalardan iborat?
2. Empirik tahlil usullariga nimalar kiradi?
3. “Induktiv tahlil va argumentatsiya” hamda “deduktiv tahlil va argumentatsiya” o‘rtasidagi nisbat va ziddiyat nimani anglatadi?
4. Rivojlanish maqsadi nimani anglatadi?
5. Rivojlanish iqtisodiyoti qanday xususiyatlarga ega?
6. Rivojlanish iqtisodiyotining asosiy turlari nimalardan iborat?
7. Rivojlanish maqsadini aniqlash va jarayonini tushunishni izohlang.
8. Rivojlanish siyosatining ahamiyati nimada?
9. Rivojlanish siyosatini tahlil qilish jarayoni qanday amalga oshiriladi.
10. Iqtisodiyot va siyosatning to‘g‘ri tahliliga ehtiyoj nimalar orqali namoyon bo‘ladi?

## **2-BOB. IQTISODIY FAROVONLIK**

**2.1. Kambag‘allar orasida hayot va obod turmush ta‘rifi.**

**2.2. Rivojlanayotgan mamlakatlarda uy xo‘jaliklari farovonigi va uni empirik o‘rganish.**

**2.3. Uy xo‘jaliklarining jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlari va real iste‘mol xarajatlari.**

### **2.1. Kambag‘allar orasida hayot va obod turmush ta‘rifi**

Ijtimoiy himoya qilishning samarali tizimi zamonaviy iqtisodiyotga xos xususiyat hisoblanadi. U har bir kishining ijtimoiy-iqtisodiy maqomidan qat‘i nazar, mehnat imkoniyatlaridan to‘laroq foydalanish va ayni bir vaqtda jamiyatdagi barqaror holatni kafolatlash imkonini beradi, inson salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Hozirgi sharoitda inson salohiyatidan samarali foydalanishga hamda jamiyatda ijtimoiy tanglik yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslikka aynan shunday erishish mumkin. Bunday himoya ta‘minlanmas ekan kishilarni qayta o‘qitish, yangilikni o‘zlashtirish, ijod qilish kabi mehnat imkoniyatlaridan foydalanish mumkin bo‘lmay qoladi. Ijtimoiy himoya tizimining mavjudligi malakali xodimlar mehnatiga asoslanuvchi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotini shakllantirish aholini ijtimoiy himoya qilish tushunchasining kiritilishini qat‘i talab etadi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish davlatning aholiga yaxshi hayot faoliyati uchun beradigan shart-sharoitlarini ta‘minlaydigan bevosita maqsadli kafolatlar tizimidir.

Boshqacha aytganda, ijtimoiy himoya tizimi bozor tizimi samaradorligining tor tasavvurlaridan emas, balki haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash masalalarini hal qilish maqsadidan kelib chiqib tashkil etilishi kerak. Shu bilan birga ijtimoiy himoyaning har safar, o‘zi amal qilib turgan ishlab chiqarish munosabatlari tizimi tomonidan, jahon iqtisodiyotining hozirgi holati imkoniyatlaridan keng foydalanadi va hozirgi zamon talablari asosida rivojlanib boradi.

Aholining ijtimoiy turmush sharoiti – jamiyatning barcha a‘zolariga mehnat qilish, dam olish, har tomonlama jismoniy va madaniy

rivojlanishni ta'minlash hamda mehnat sharoitini yaxshi tashkil etish, kishilar salomatligi va mehnat qilish qobiliyatini saqlashni kafolatlash, vaqtincha ishga qobiliyatini yo'qotganlarni ijtimoiy ta'minot, nafaqalar bilan ta'minlash, nisbatan kam daromadli oilalarni ijtimoiy himoyalashni ifodalaydi.

Q.X.Abdurahmonov aholining iqtisodiy farovonligiga quyidagicha ta'rif bergan: "Iqtisodiy farovonligi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi"<sup>4</sup>. Y.Abdullayev tomonidan chop etilgan "Makroiqtisodiy statistika" kitobida "Aholi iqtisodiy farovonligi — ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha bo'lib, u kishilarning moddiy va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojining qondirilishi hamda turmush sharoitining yaxshilanish darajasini tavsiflaydi"<sup>5</sup>, deb ta'rif bergan.

Aholi iqtisodiy farovonligi tor ma'noda – bu iste'mol darajasi, talabni qondirilish darajasini tariflashni ifodalaydi. Keng ma'noda esa aholi iqtisodiy farovonligi – inson rivojlanish darajasini ta'riflash hayotiylik sharoitini baholashni ifodalaydi. Aholi iqtisodiy farovonligining turli komponentlari mavjud (2.1-jadval).

## 2.1-jadval

### Aholi iqtisodiy farovonligi komponentlari<sup>6</sup>

<b>BMT konsepsiyasi</b>	<b>Shved modeli</b>
1. Salomatlik	1. Mehnat va mehnat sharoiti
2. Ovqatlanish	2. Iqtisodiy imkoniyat
3. Ta'lim	3. Siyosiy imkoniyat
4. Bandlik va mehnat sharoiti	4. Maktab ta'limi
5. Turar joy sharoiti	5. Salomatlik va tibbiy yordamdan foydalanish
6. Ijtimoiy ta'minot	6. Ijtimoiy imkoniyat (oila va oila munosabatlarining shakllanishi)
7. Kiyim-kechak	7. Turar joy
8. Dam olish va bo'sh vaqt	8. Ovqatlanish
9. Inson huquqlari	9. Bo'sh vaqt va uni o'tkazish

<sup>4</sup> Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Mehnat, 2009. – 357 b.

<sup>5</sup> Abdullaev Yo. Makroiqtisodiy statistika. O'quv qo'llanma. – T.: Mehnat, 1998. – 181 b.

<sup>6</sup> Manba: Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Aholi turmush tarzi va daromadlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – B.12.

2.1-jadvalda iqtisodiy farovonligi komponentlarini aks ettiruvchi BMT konsepsiyasi (1961-y.) va shved modeli (1970-yillar) ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, BMT konsepsiyasida asosiy e'tibor salomatlik va ovqatlanishga, shved modelida esa mehnat va mehnat sharoitlariga qaratilgan.

Aholi ijtimoiy himoyasi "Iqtisodiyot inson uchun" tarzida bo'lishi lozim bo'lgan zamonaviy iqtisodiyotga o'tish uchun shunday samarali tizim zarurki, u har bir kishining mehnat salohiyatidan uning ijtimoiy-iqtisodiy maqomi, qaysi ijtimoiy-iqtisodiy guruhga mansubligidan qat'i nazar, undan foydalanish imkonini bersin. Faqat mana shundagina inson salohiyatidan samarali foydalanishga hamda "ertangi kunga ishonch" bo'lishiga erishish mumkin bo'ladi. Bunday himoya ta'minlanmas ekan, qayta tayyorlash, yangilikni o'zlashtirish, ijodiy ishlash qobiliyatiga ega bo'lish kerak bo'lgan malakali ishchi kuchidan foydalanishning imkoni bo'lmaydi yoki ancha chegaralanadi.

Boshqacha aytganda, ijtimoiy himoya tizimining mavjudligi malakali xodim mehnatiga asoslanadigan zamonaviy iqtisodiyotning tarkibiy hususiyati hisoblanadi.

Prezidentimiz aholi farovonligini oshirishning quyidagi asosiy yo'nalishini belgilab berdi (2.1-rasm).


Aholining iqtisodiy farovonligini o'rganishning eng muhim jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi hisoblangan insonning asosiy sifatli xususiyatlari bahosi (yuksak darajada davom etishiga erishish uchun sog'lom turmush tarzini olib borishga qobiliyat; ta'lim olish imkoniyatlari, munosib turmush uchun yetarli mablag'larga ega bo'lish va yuksak kasbiy sifatlarni egallash);

- nominal va real daromadlarni baholash;

- aholining uy-joy, uzoq muddatli foydalanishga mo'ljallangan iste'mol ne'matlari bilan ta'minlanish xususiyati;

- dunyoning turli mamlakatlaridagi iqtisodiy farovonligi va sifatini baholash.



## 2.1-rasm. Aholi farovonligini oshirish yo'nalishlari<sup>7</sup>

Aholining iqtisodiy farovonligi – bu aholi farovonligi, ne'matlar va xizmatlar iste'molining darajasi, insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish me'yorini tavsiflovchi sharoitlar va ko'rsatkichlar majmuyidir<sup>8</sup>. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy farovonligi jamiyatda yashovchi inson ehtiyojlarining rivojlanishi va qondirilishi darajasidan iborat bo'lib, u turli ne'matlarning iste'mol qilinishi yoki iste'mol uchun olinganlarining foydalilik darajasi bilan belgilanadi.

Aholi ehtiyojlarining xilma-xilligi, ularning cheksizligi, solishtirishning o'ziga xos qiyinchiliklari iqtisodiy farovonligini tavsiflashda tizimli yondoshuvdan foydalanishga majbur qiladi. Nihoyatda xilma-xilligi bilan ajralib turuvchi, bir tomondan, insonlar turmushi moddiy sharoitlarining tarkibiy qismlarini, boshqa tomondan esa, ularning xulqini o'z ichiga oluvchi bu kategoriyani uch darajali tizim ko'rinishida ko'rsatish maqsadga muvofiq (2.2-rasm).

<sup>7</sup> Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizni yanada erkinlashtirish va obod bo'lishiga erishish-bizning bosh maqsadimizdir. O'quv qo'llanma Toshkent-2013-yil. 75-bet.

<sup>8</sup> Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Aholi turmush tarsi va daromadlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – B.18.



<b>1-darajali aholining iqtisodiy farovonligi determinantlari</b>	<b>2-darajali aholining iqtisodiy farovonligi dominantlari</b>	<b>3-darajali aholining iqtisodiy farovonligi ko‘rinishlari</b>
Mehnat xususiyati va ijtimoiy mansublik va ijtimoiy mansublik	Oziq-ovqat	Oziq-ovqat
Yosh va jins xususiyati	Kiyim va poyafzal	Kiyim va poyafzal
Bilim darajasi	Uy-joy	Uy-joy
Oilaviy tarkibi	Sog‘liq	Sog‘liqni saqlash
Taqsimot sharoitlari	Oila va avlodning davom etishi	Ta’lim
Tabiiy-iqlim sharoitlari	Ko‘chish	Madaniyat
Milliy-etnik sharoitlar	Shaxsni rivojlantirish va takomillashtirish	Transport va aloqa
Jamoatchilik xizmati	Axborot olish va muloqot	Maishiy xizmat ko‘rsatish
Milliy boylik	Ijtimoiy g‘amxo‘rlik	Keksa va bolalarga xizmat ko‘rsatish Sport, turizm, dam olish

**2.2-rasm. Aholi iqtisodiy farovonligining ichki tuzilishi**

2.2-rasmdan ko‘rinib turganidek, birinchi daraja aholining iste‘mol sohasidagi hayoti va faoliyati sharoitlarining tashqi majmuyini aks ettiradi. Bu sharoitlar birlamchi, boshqa tarkibiy qismlarga nisbatan aniqlovchidir. Shuning uchun determinantlar deb ataladi. Determinantlar keng tushuncha hisoblanib, insonlar faoliyatining barcha, nafaqat iqtisodiy, balki tarixiy, axloqiy, siyosiy sharoitlarini o‘z ichiga oladi. Shu ma’noda ular “iqtisodiy farovonligi” kategoriyasini boshqa ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar bilan birlashtiradi. Iqtisodiy farovonligining markaziy xususiyati ushbu kategoriyaning dominant bo‘lib chiquvchi va uning yuzaga kelish mexanizmini tavsiflashda ikkinchi daraja mohiyatini tashkil qiluvchi aholi ehtiyojlaridir. Uchinchi daraja insonlarning iste‘mol sohasidagi xulqi bo‘lib, u iste‘molchilarning muayyan harakatlarida, iste‘molida, ularning turmush uslubi va tarzida haqiqiy timsolini topuvchi turli-tuman ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Shuni qayd qilish maqsadga muvofiqki, aholi iqtisodiy farovonligi nafaqat alohida oilalar, jamoalarning mehnati va iqtisodiy faolligi bilan, balki iqtisodiyotni rivojlantirish samaradorligi va umuman milliy boylik darajasi, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ahvoli va rivoji, ijtimoiy maqsadga qaratilgan qonuniy asosning borligi yoki yo‘qligi bilan belgilanadi.

Iqtisodiy farovonligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar har xil va iqtisodiy farovonligi konsepsiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ba’zi eng muhim ko‘rsatkichlar 2.2-jadvalda ko‘rsatilgan.

Iqtisodiy farovonligini insonlarning iqtisodiy va moddiy sharoitlar hamda imkoniyatlar hisobiga erishiladigan, iste‘mol orqali amalga oshiriladigan, eng avvalo, daromadlar darajasi va turmush qiymatining o‘zaro nisbati bilan belgilanuvchi moddiy hamda ma’naviy ehtiyojlarini qondirish darajasi sifatida qabul qilish kerak.

Iqtisodiy farovonligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar xilma-xil. Avvalo, aholining iqtisodiy farovonligi ko‘rsatkichlari umumiy va xususiy ko‘rsatkichlarga bo‘linadi.

## 2.2-jadval

### Aholi iqtisodiy farovonligining asosiy ko'rsatkichlari

Hajmiy (mutlaq)	Solishtirma (o'rtacha)
1. Milliy daromad hajmi	1. Iste'mol fondining milliy daromaddagi ulushi
2. Aholining milliy daromadlari	2. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar
3. Ish haqi fondi	3. O'rtacha va eng kam ish haqi
4. Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar	4. Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan o'rtacha daromad
5. Pensiya fondi hajmi	5. O'rtacha va eng kam pensiya miqdori
6. Tovar aylanish hajmi	6. Aholi jon boshiga tovar aylanishi
7. Bajarilgan xizmatlar hajmi	7. Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi
8. Uy-joy fondi kattaligi	8. Bir kishiga uy-joy bilan ta'minlanganlik (kv.m, xona)
9. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan aholi soni	9. Iqtisodiy faol aholida ishsizlar ulushi
10. Aholining tabiiy o'sishi	10. Umrning davomiyligi

Umumiy ko'rsatkichlarga quyidagilarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdorlari kiradi:

- milliy daromad;
- iste'mol fondi (bevosita iste'molchilar maqsadlariga ketuvchi iqtisodiyot tarmoqlari mahsulotlari);
- milliy boylikning iste'mol fondi (to'plangan iste'molchilar mulklari – uy-joy, madaniy-maishiy binolar, madaniy-maishiy, xo'jalik predmetlari).

Bu ko'rsatkichlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umumiy yutuqlarini tavsiflaydi.

Xususiy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- iste'mol darajasi va usullari;
- mehnat sharoitlari;
- uy-joy bilan ta'minlanganlik;

- ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish darajasi;
- bolalarni tarbiyalash sharoitlari;
- ijtimoiy ta'minot.

Ushbu ko'rsatkichlar jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq, lekin katta batafsillikka ega va aholining (xodimlarning) muayyan guruhlari, hududlar bo'yicha aniqlashtiriladi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar jamiyat va inson hayoti hamda faoliyatining iqtisodiy tomonini, ehtiyojlarni qondirishning iqtisodiy imkoniyatlarini tavsiflaydi. Ularga jamiyat iqtisodiy rivojlanishining darajasini hamda har bir inson boyligini (nominal va real daromadlar, bandlik) tavsiflovchi ko'rsatkichlar kiradi. Bu ko'rsatkichlar ishchi kuchining (aholining) iqtisodiy asosini tavsiflab, ularni takror ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'liq, bu aholi daromadlari o'lchami va darajalanishida, ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar aholining jins va yosh, kasb-malakaviy tarkibini, ishchi kuchining jismoniy takror barpo bo'lishini tavsiflaydi. Ular ijtimoiy ko'rsatkichlarda (kengroq talqin) o'z aksini topadi, ijtimoiy soha va umuman iqtisodiyotning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu omillar ommaning tabiiy asosi haqida tasavvur beradi va aholining, uning alohida guruhlari sonining o'zgarishida hamda umr davomiyligida yaqqol ko'rinadi.

Obyektiv va subyektiv ko'rsatkichlar insonlar hayoti va faoliyatidagi o'zgarishlarning asoslanishi bilan bog'liq: birinchisi obyektiv (iqtisodiy, texnik) asosga, ikkinchisi – alohida shaxslar va aholi guruhlarning subyektiv fikriga, mehnat, oilaviy munosabatlar, daromadlar, turmush tarzidan qoniqishining subyektiv bahosiga ega. Subyektiv baho turmush sifati konsepsiyasida hisobga olinadi.

Qiymat va natural ko'rsatkichlar. Qiymat ko'rsatkichlariga daromadlarning barcha ko'rsatkichlari va pul shaklidagi boshqa ko'rsatkichlar (tovar aylanishi, xizmatlar, yuk tashish hajmi, pul qo'yilmalari va jamg'armalar) kiradi. Natural ko'rsatkichlar aniq moddiy boyliklar va xizmatlarni iste'mol qilishning natural ko'rsatkichlardagi (kg, dona, kv.m, kub) miqdorini – oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish, uy-joy, madaniy-maishiy tovarlar bilan ta'minlanishni tavsiflaydi.

Iqtisodiy farovonligining tavsifi uchun miqdoriy va sifatiy ko'rsatkichlar katta ahamiyatga ega. Miqdoriy ko'rsatkichlar aholi farovonligining sifatiy tomonini ta'riflab berishga imkon beradi. Bular

– boyliklar, xizmatlar, oziq-ovqatning iste'mol tarkibi, ta'lim, malaka, uzoq muddatga foydalanish uchun mo'ljallangan ijtimoiy-maishiy predmetlar bilan ta'minlanish darajasidir.

Qayd qilinganidek, iqtisodiy farovonligi ko'p sonli, xilma-xil sabablarga bog'liq bo'lgan ko'p qirrali hodisadir. Istalgan insonning hayoti va faoliyati havo va suv muhitining, uy-joy, maishiy hamda ishlab chiqarish sharoitlarining, iste'mol tovarlari miqdori va sifatining ahvolidan boshlab, umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyatlar, shuningdek, siyosiy institutlar ahvoliga qadar bo'lgan tabiiy va ijtimoiy omillarning keng spektri bilan belgilanadi. Omillarning eng ahamiyatli guruhi – siyosiy va iqtisodiy omillar, ijtimoiy soha, ilmiy-texnik jarayon, ekologik muhitning rivojlanish omillaridir.

Siyosiy omillar. Har bir mamlakatda aholining iqtisodiy farovonligi jamiyat (davlat) tuzumi xususiyatiga, huquq institutining mustahkamligiga va inson huquqlariga rioya etilishiga, hokimiyat turli tarmoqlarining o'zaro nisbatiga, uning boshqa mintaqalar (korxonalar) bilan o'zaro munosabatlariga, qarshi kuchlar, har xil partiyalar mavjudligiga bog'liq.

Ijtimoiy munosabatlar har qanday mamlakatda millatning kuch-qudratidan foydalanish imkoniyatini belgilaydi, shu bilan birga, davlat yetakchi rol ni o'ynaydi. Aynan davlat umummilliy rivojlanish, ularni amalga oshirishning turli bosqichlarida va mexanizmlarida jamiyatning ijtimoiy yo'nalishlari dasturini ishlab chiqadi. Bu g'oyalar ijtimoiy rivojlanish, iqtisodiy farovonligi, fan-texnika taraqqiyotining turli konvensiyalarida, dasturlarida, qonun hujjatlarida mujassamlanadi.

Iqtisodiy omillar. Aholi iqtisodiy farovonligining muhim tarkibiy qismi hisoblangan milliy boylik iqtisodiy imkoniyatlarga bog'liqdir. U moddiy boyliklar, mehnat hisobiga jamg'arilgan mahsulotlar hamda jamiyat tasarrufidagi hisobga olingan va iqtisodiy muomalaga jalb qilingan tabiiy boyliklarning yig'indisidir. Milliy boylikning uzluksiz to'lib borishi ishlab chiqarish mahsuloti hisobiga amalga oshiriladi.

Iqtisodiy omillar orasida milliy daromadning o'sishi alohida rol o'ynaydi. Uning kattaligi hozirgi avlod mehnatining natijasi va aynan iste'molning o'sish manbayidir.

Milliy daromad – bu ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan mehnat vositalari va moddiy xarajatlardan istisno umumiy ijtimoiy mahsulotning bir qismi bo'lib, u yangidan yaratilgan qiymat, ya'ni

ushbu yildagi ishlab chiqarishning jamiyat farovonligi uchun qo'shganidir. Bu jamiyatning sof "ishlab topilgan" daromadidir.


Aholi turmush sifatining tarkibiy qismlariga iqtisodiy farovonligi va turmush sharoitlari kiradi. O'z navbatida, iqtisodiy farovonligi aholi daromadlari, keksalar ta'minoti, aholi omonatlarining to'planishi, sug'urta, sog'liqning ahvoli, bo'sh vaqt, jamoat xavfsizligi, ta'lim saviyasi, transportda harakatlanish xavfsizligi, fuqarolarning huquqiy himoyasi, migratsiyaning o'sish ko'rsatkichlari, qashshoqlik, ishsizlik, kundalik iste'mol darajasi, aholining iqtisodiy aktivlar bilan ta'minlanganligi kabi ko'rsatkichlar, aholining turmush sharoiti esa ijtimoiy-ruhiy iqlim, yashashning tabiiy-iqlim va ekologik sharoitlari bilan belgilanadi.

## **2.2. Rivojlanayotgan mamlakatlarda uy xo'jaliklari farovonligi va uni empirik o'rganish**

Aholining ish bilan bandligini ta'minlash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim iqtisodiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi va u iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilash va farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda mehnatga layoqatli aholining bandligini ta'minlash maqsadida yangi ish o'rinlari yaratayotgan ish beruvchilar rag'batlantirilmoqda, ularga soliq, kredit va boshqa imtiyozlar berilmoqda; mehnat bozorida ishchi kuchi sifati va raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlari ko'rilmogda; aholini ish bilan ta'minlashning eng samarali vositalari bo'lgan kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va servis sohasi yanada jadal sur'atlarda rivojlantirilmoqda; aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan toifalari moddiy qo'llab-quvvatlanmoqda, ular uchun ish o'rinlarini kvotalash tartibi yo'lga qo'yildi; davlat va mahalliy budjet mablag'lari hisobidan vaqtinchalik va jamoat ishlari tashkil etilmoqda; tashqi va ichki migratsiyani tartibga solishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Hozirda ko‘plab mutaxassis va ekspertlar tomonidan jahon moliyaviy inqirozining global tus olishi va iqtisodiy inqiroz jarayonlarining kuchayishi iqtisodiy pasayishni, investitsiyaviy faollik ko‘lami cheklanib borishini, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi hamda jahonning ko‘plab mamlakatlariga ta’sir ko‘rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo‘lishi mumkinligi e’tirof etilmoqda. Xususan, jahon yalpi ichki mahsulotining pasayishi, bevosita xorijiy investitsiyalar ko‘lamining yanada pasayishining kuzatilishi hamda xalqaro savdo hajmi qariyb 15% ga pasayishi ehtimol qilinmoqda. Bu holat esa ishsizlik darajasining ortishi bilan bog‘liq jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin (2.3-rasm).



### 2.3-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik darajasi<sup>9</sup>


AQSH Federal zaxira tizimi tomonidan olib borilgan noratsional pul-kredit siyosati hamda qayta moliyalashtirish stavkasining surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida banklar tomonidan kredit berish ko‘lami keskin o‘sdi. Federal zaxira tizimining ekspansion pul-kredit siyosati tijorat banklariga taqdim etadigan kreditlari bo‘yicha foiz stavkalarini 1,25% gacha pasaytirilishida namoyon bo‘lgan edi.

<sup>9</sup> <https://data.worldbank.org/indicator/SL.UEM.TOTL.ZS?view=chart>

Federal zaxira tizimining ipoteka bozorlariga e'tiborsizligi, ipoteka kreditlari berish talablarining haddan ziyod erkinlashtirilishi natijasida bozorda ko'chmas mulklarga talab ortdi va uy-joy bozorida narxlarning qisqa muddat ichida keskin o'sishi kuzatildi.

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining nomuvofiqligi natijasida banklar tomonidan kreditlash tizimi talablari o'ta yengillashib, bu holat kreditlardan foydalanishda to'lovga layoqatlik darajasining hisobga olinmasligiga imkon yaratdi.

Jahondagi yetakchi mamlakatlar iqtisodiy o'sish sur'atlarining beqarorligiga, bir tomondan, inqirozga qarshi kurashish choralari bo'yicha davlatlar rahbarlari o'rtasidagi o'zaro yakdillikning yo'qligi, iqtisodiy siyosatda uyg'unlikka erishmaslik zamin yaratsa, boshqa tomondan, yirik iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlarning ichki siyosiy beqarorligi ham bunga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada rivojlangan mamlakatlar YaIMning o'sish sur'atlari keyingi yillarda ahamiyatli darajada pasayib ketdi (2.4-rasm).



**2.4-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda YaIMning o'sish sur'atlari<sup>10</sup>**

Shuningdek, 2016-yil noyabr oyida Xitoyda, jahon yalpi mahsulotining 80 foizini ishlab chiqaradigan 20 ta yirik davlat

<sup>10</sup> <http://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.KD.ZG>



ishtirokida bo‘lib o‘tgan sammit global moliyaviy inqirozning ko‘lami tobora kengayib borayotganini tasdiqlagani, ushbu sammitda bo‘lib o‘tgan muhokamalar bugun jahon moliyaviy inqirozining oldini olish haqida emas, balki undan qanday qilib chiqish yo‘llari izlanayotganligidan darak berishini ta’kidlab o‘tdilar.

Respublikada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilganligi bois bu sohada ish bilan band bo‘lgan aholi soni yil sayin ortib bormoqda.

Bugungi kunda dehqon xo‘jaliklarini tashkil etishda qator yutuqlarga erishilmoqda va ularni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- xo‘jalikni tashkil etishning ixchamligi va ularning bozor muhitiga tezda moslanuvchanligi;

- xo‘jalik a’zolarining ma’lum bir oilaga mansubligi;

- oila mablag‘lari hisobidan ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatining mavjudligi;

- mehnatni tashkil qilishdagi va xo‘jalikni boshqarishdagi qulayliklar.

Shunday qilib, mamlakatda amalga oshirilayotgan oqilona iqtisodiy siyosat tufayli ish bilan bandlikning kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik kabi aholining tadbirkorlik qobiliyati va bunyodkorlik mehnati salohiyatini namoyon qilishga ko‘maklashuvchi samarali shakllari rivojlandi. Bu esa, o‘z navbatida, aholining iqtisodiy farovonligining oshishiga yordam beradi.

Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta’lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir. Shu borada nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki budjet tashkilotlarida ham, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ham o‘rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko‘paytirish maqsadga muvofiq.

### **2.3. Uy xo‘jaliklarining jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlari va real iste’mol xarajatlari**

Davlatning ijtimoiy ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda uning sifat xususiyatlarini ifodalashning miqdoriy indikatorlari ham mavjud

bo‘lib, ularga turli indeks va standartlar kiradi. Miqdoriy ijtimoiy ko‘rsatkichlar nafaqat qiyosiy ahamiyatga ega va ijtimoiy siyosat me‘yorlari vazifasini bajaradi, balki sifatning rivojlanish yo‘nalishlari hamda tarkib darajalarini belgilovchi omillar ham hisoblanadi.

Eng ko‘p qo‘llaniluvchi integral miqdoriy ko‘rsatkichlardan biri – BMTda qabul qilingan inson salohiyatini rivojlantirish indeksidir. Unda sog‘liq va umr davomiyligi darajasi, katta yoshdagi aholining savodlilik darajasi va aholining o‘quv yurtlariga jalb etilishi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM umumlashtirib baholanadi. Inson salohiyatini rivojlantirish indeksi aholi turmush sifati va darajasini xalqaro taqqoslash uchun foydalaniladigan ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi paytda ushbu indeks bo‘yicha dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarini qiyoslash mumkin.

Turmush sifatining integral ko‘rsatkichlaridan tashqari, ijtimoiy boshqaruv amaliyotida ijtimoiy sohaning alohida tarkibiy qismlarini rivojlantirishning aniq indikatorlari ham muhim ahamiyatga ega. Bunday indikatorlarga, eng avvalo, quyidagilar kiradi:

- tirikchilik minimumi;
- o‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad;
- ijtimoiy to‘lovlar, pensiya, nafaqa, stipendiya, ish haqi miqdorlari;
- iste‘mol narxlari indeksi;
- ishsizlik darajasi;
- Djini koeffitsiyenti (eng ko‘p va eng kam ta‘minlangan aholi detsillarining o‘zaro nisbati);
- eng kam ish haqi;
- yagona tarif setkasining (YTS) birinchi toifasi;
- pensiya yoshi;
- yagona ijtimoiy soliq me‘yori yoki davlat ijtimoiy fondlariga jami to‘lovlar;
- jami daromadlarga nisbatan kommunal to‘lovlar ulushi<sup>11</sup>.

Aholi iqtisodiy farovonligini ta‘minlash ijtimoiy himoya mexanizmini takomillashtirishda sifat jihatidan yangi bosqich zarurligi jihatdan etildi. Shu munosabat bilan endi umumiy ijtimoiy himoya

---

<sup>11</sup> Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Aholi turmush tarzi va daromadlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2011. – B.29.

tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga izchil o‘tish maqsadga muvofiq bo‘lib qoldi.

Bir iqtisodiy tizimdan ikkinchi tizimga o‘tish oson ish emas va u jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy murakkabliklarga olib kelishi mumkin.

Yo‘nalish va sohalaridan qat’i nazar, bozor mexanizmini joriy etish bilan bog‘liq har qanday islohotlar kishilar manfaatlariga dahldor bo‘lib, aholi turmush darajasining u yoki bu ko‘rsatkichlari o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Shuning uchun ham bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tishning O‘zbekiston modelida kuchli ijtimoiy siyosat asosiy bo‘g‘in qilib belgilangandir. Bu esa bozor iqtisodiga o‘tish birdan-bir maqsad emasligini, barcha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy islohotlar inson hayoti va faoliyati uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilishini bildiradi.

Ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- fuqarolarning iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, kasb va mehnat sohasini erkin tanlash bo‘yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqlarni ta‘minlash. Mehnatga layoqatli aholining o‘zi mehnat faoliyati shaklini erkin tanlash huquqidan foydalana borib, o‘zini va o‘z oilasini moddiy jihatdan zarur darajada ta‘minlashi, oilasining farovonligi uchun, sog‘lom avlodni kamol toptirish uchun javobgar bo‘lishi kerak;

- ijtimoiy himoyalash aniq va maqsadli yo‘naltirilgan bo‘lish kerak. Aholining turli qatlamlariga alohida-alohida yondashish – ijtimoiy himoya yangi tizimining o‘ziga hos xususiyati bo‘lib qolmog‘i lozim;

- aholini ijtimoiy himoyalash chora tadbirlari tizimida real ishchi kuchi bozorini shakllantirish, mehnatga layoqatli har bir kishiga o‘z mehnati bilan oilasining turmush darajasini yaxshilash imkonini beradigan sharoitni yaratish asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.

Jamiyatning taraqqiyoti mamlakat iqtisodiy potensialining qanchalik yuksakligi bilan emas, balki bu potensial har bir kishining har tomonlama rivojlanishi uchun yo‘naltirilganligi bilan baholanadi. Xalqaro aloqalarda O‘zbekiston malakali ishchi kuchiga, ulkan tabiiy resurslarga ega bo‘lgan siyosiy jihatdan barqaror davlat sifatida qaralmoqda, bu esa to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun juda qulay imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Ijtimoiy islohotlarni o‘tkazishning taktik jihatlari quyidagilarni nazarda tutadi:

- bozor mexanizmlarini joriy etishdan oldin aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish bo‘yicha qat’i chora-tadbirlar ko‘rish;

- ijtimoiy soha aholini davlat tomonidan nazorat qilish va qo‘llab-quvvatlash;

- bozor iqtisodiyotiga kirib borgan sari yuzaga keladigan vaziyat va yangi imkoniyatlarni hisobga olgan holda aholini ijtimoiy muhofaza qilish ustuvorliklari va mexanizmlarining o‘zgarishi.

Ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni o‘tkazishga ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning o‘zaro bir-biriga bog‘liqligi va ta’sirini ta’minlash natijasida:

- kishilarning turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishga, respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlashga muvaffaq bo‘lindi;

- aholini manzilli ijtimoiy himoyalashning qat’i tizimi yaratildi;

- aholi bozor iqtisodiy sharoitlariga ko‘niktirildi;

- iqtisodiy faollik oshdi, tadbirkorlik rivojlanmoqda, aholini ish bilan bandlik tizimi bozor tizimiga yaqinlashmoqda;

- inson manfaatlarini yanada kengroq ro‘yobga chiqarishni ta’minlash uchun yangi sharoitlar va imkoniyatlar yaratildi;

- mutlaq yangicha yondashuvlar asosida zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqildi.

Ijtimoiy himoyaning ayrim funksiyalarini davlat idoralari: vazirliklar, ularning joylardagi idoralari va muassasalari nogironlarni kasbga o‘qitish va ishga joylashtirish, bolalar uylarida bolalarga qarash va ularni tarbiyalash funksiyalarning yana bir qismini kasaba uyushmalari tashkillashtiradi. Bundan tashqari, ixtiyoriy ijtimoiy sug‘urta tadbirlari rivoj topmoqda, natijada Respublika jamoalari, jamoa birlashmalari tashabbus bilan va fuqarolarning shaxsiy mablag‘lari hisobiga maxsus guruhlar va fuqarolarga davlat ijtimoiy ta’minotiga qo‘shimcha ravishda moddiy yordam ko‘rsatish imkoniyati tug‘iladi. Davlat ta’minotiga qo‘shilgan ijtimoiy imtiyozlar korxonalarining iqtisodiy imkoniyatlariga qarab jamoa shartnomalariga kiritilishi mumkin. Ijtimoiy himoyalash tuzulmalaridan yana biri nodavlat pensiya fondlaridir. Yaqin kelajakda ular davlat pensiyalariga qo‘shimcha pensiyalar to‘lay boshlaydilar.

Shunday qilib, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti yo‘lni vujudga keltirish ijtimoiy-iqtisodiy himoyalashning shunga mos keladigan yaxlit tizimini barpo etishni talab qiladi. Bu tizim fuqarolarning erkinliklari va huquqlarini ta‘minlashning iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlarini o‘z ichiga olishi lozim.


#### 2.4-jadval

**Uy xo‘jaliklarning o‘rtacha kattaligi to‘g‘risida ma‘lumot (uy xo‘jaliklari tanlama kuzatuvlari ma‘lumotlariga asosan), kishi<sup>12</sup>**

	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	5,4	5,1	5,3	5,0	5,1	5,1	5,0	5,0	5,0

2.4-jadvaldan ko‘rinadiki, uy xo‘jaliklari tanlama kuzatuvlari ma‘lumotlariga asosan uy xo‘jaliklarning o‘rtacha kattaligi 2000-yilda 1 ta uy xo‘jaligiga o‘rtacha 5,4 kishi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2016-2017 yillarda 5,1 kishi, 2018-2020 yillarda esa 5,0 kishi to‘g‘ri kelgan.

Yurtimizda kechayotgan o‘zgarishlar aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real pul mablag‘lari, o‘rtacha nominal va real ish haqi miqdori belgilangan eng kam ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar ko‘rsatkichlarini yaqqol namoyon etmoqda (2.5-rasm).




**2.5-rasm. Aholi jon boshiga umumiy daromadlarining o‘tgan yilga nisbatan real o‘shish sur‘ati<sup>13</sup>.**

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (stat.uz) ma‘lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga umumiy daromadlari 11728,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019 yilning mos davriga nisbatan 0,7 % ga o'sdi.

Mamlakatimizda kuchli ijtimoiy siyosatning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, aholi daromadlari va hayot darajasini muntazam oshirib borish, xalqimizni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlar aholi jon boshiga umumiy va real umumiy daromadlarning oshishini ta'minladi (2.6-rasm).



**2.6-rasm. O'zbekiston Respublikasida aholi daromadlari tarkibi, %<sup>14</sup>**

Aholi daromadlari tarkibida ishlab chiqarishdan olingan daromadlar salmoqli o'rinni egallaydi va sning hissasi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2010 yilda aholi daromadlari tarkibida ishlab chiqarishdan olingan daromadlar 73,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda bu ko'rsatkich 71,5 foizni tashkil etdi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning ancha faol o'sishi asosan 2000 yildan so'ng, mamlaka-

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (stat.uz) ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (stat.uz) ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

timizda ularni ishlab chiqarishni rag‘batlantiradigan shart-sharoitlar bosqichma-bosqich yaratila boshlanganidan keyin kuzatildi. Mamlakatimizda amalga oshilayotgan samarali iqtisodiy islohotlar natijasida aholining uzoq muddat foydalaniladigan buyumlar bilan ta‘minlanganligi darajasi yildan-yilga ortib bormoqda (2.5-jadval).

## 2.5-jadval.

### Aholining uzoq muddat foydalaniladigan buyumlar bilan ta‘minlanganligi (100 ta uy xo‘jaligiga) (uy xo‘jaliklari tanlama kuzatuvlari ma‘lumotlariga asosan), dona<sup>15</sup>.

	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.
Televizorlar	132	133	136	146	151	152	153	154	155	160	162
Sovutgich va muzlatgichlar	99	100	100	100	101	101	102	101	103	106	107
Konditsionerlar	19	20	27	29	30	32	34	34	35	39	40
Elektr changyutgichlar	37	38	45	51	51	53	54	54	55	58	60
Shaxsiy kompyuterlar	12	16	22	32	37	47	49	50	52	55	60
Kir yuvish mashinalari	75	77	78	78	78	79	80	80	81	89	90
Mobil telefonlar	145	158	186	210	228	234	246	257	262	282	287
Yengil avtomobillar	21	24	27	35	41	42	43	44	44	47	49

Yurtimizdagi oilalarni uzoq muddat foydalanishga mo‘ljallangan tovarlar bilan ta‘minlash borasidagi ahvol ham tubdan o‘zgardi. Xonadonlarni sovutgich va muzlatgichlar, kondisioner, shaxsiy komp’yuter, televizor, mobil’ telefon va boshqa zamonaviy maishiy texnika vositalari bilan ta‘minlash darajasi oshmoqda.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda aholining o‘zimizda ishlab chiqarilgan yengil avtomobillar bilan ta‘minlanish darajasi o‘sgani e‘tiborlidir. Agar 2000 yilda har 100 ta oilaga o‘rtacha 20 ta yengil avtomobil’ to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bugungi kunda bu raqam 49 taga yetdi.

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (stat.uz) ma‘lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizdagi oilalarning 11 foizdan ortig'i ikkitadan yengil avtomobilga ega.

Qayd etilgan davrda mutlaqo yangi mahsulotlar paydo bo'ldi. Bugun ularni xonadon egalari katta qiziqish bilan sotib olmoqda: raqamli televizor va mobil' telefonlar, komp'yuter va unga qo'shimcha qurilmalar, noutbuklar va boshqa elektron texnikalar, qurilish materiallarining yangi turlari, qadoqlash buyumlari va boshqa ro'zg'or ashyolari shular jumlasidandir. Fotoapparat va videokameralar, videomagnitofon, videopleyer va DVD pleyerlar singari ayrim turdagi mahsulotlar esa ma'naviy eskirganligi bois iste'mol tovarlari tarkibidan chiqib ketmoqda. Shunisi e'tiborliki, xonadonlarning zamonaviy maishiy va elektrotexnika bilan ta'minlanish sur'atlari yurtimizning barcha hududlarida bir maromda, mutanosib tarzda o'sib bormoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan buyumlar bilan ta'minlanish bo'yicha mamlakatimizda yuksak darajaga erishilgan. Buni har 100 xonadonga 160 ta televizor, 106 ta sovutgich, 282 ta mobil' telefon to'g'ri kelishi tasdiqlaydi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

**Iqtisodiy farovonligi** – aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi

**Aholi iqtisodiy farovonligi** – ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha bo'lib, u kishilarning moddiy va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojining qondirilishi hamda turmush sharoitining yaxshilanish darajasini tavsiflaydi.

**Aholi iqtisodiy farovonligi tor ma'noda** – bu iste'mol darajasi, talabni qondirilish darajasini tariflashni ifodalaydi.

**Keng ma'noda esa aholi iqtisodiy farovonligi** – inson rivojlanish darajasini ta'riflash hayotiylik sharoitini baholashni ifodalaydi.

**Iqtisodiy rivojlanish** – ko'p qirrali jarayon bo'lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotida o'z ifodasini topadi.

**Kambag'allik** – bu, hayot uchun muhim bo'lgan, eng zarur minimal ehtiyojlarni qondira olmaydigan, ishga layoqatli bo'lib, o'z naslini davom ettirishi mumkin bo'lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhni iqtisodiy holatining o'ziga xos xususiyatidir.



**Ijtimoiy to'lovlar** – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan turli xil to'lovlar.

**Ijtimoiy siyosat** – davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni, iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Davlatning aholi daromadlarini shakllantirish siyosati deganda nimani tushunasiz? Ijtimoiy adolatni ta'minlashda bu siyosatning roli qanday?

2. Aholi daromadlari tushunchasini va uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab ko'rsating.

3. Turmush darajasi va uning tushunchasiga izoh bering. Turmush darajasini qanday ko'rsatkichlar tavsiflab beradi?

4. Daromadlar tengsizligining asosiy sabablarini sanab ko'rsating va tushuntirib bering.

5. Keyingi yillarda O'zbekistonda aholi daromadlarini oshirish borasida qanday natijalar qo'lga kiritilmoqda?

6. Mamlakatimizdagi aholi daromadlari tarkibining o'zgarishida qanday tendensiyalar kuzatilmoqda?

## 3-BOB. IQTISODIY O‘SISH

**3.1. Iqtisodiy o‘shning o‘lchovlari.**

**3.2. Iqtisodiy o‘shning manbalari va uni aniqlovchi omillari.**

**3.3. Mamlakatlararo o‘shning regressiyasi bo‘yicha tadqiqotlar**

### 3.1. Iqtisodiy o‘shning o‘lchovlari

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo‘lganligi sababli uning mezonlaridan biri bo‘lgan iqtisodiy o‘sh ko‘proq tahlil qilinadi.

**Iqtisodiy o‘sh bevosita yalpi ichki mahsulot hajmining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari har bir birligi hisobiga o‘shisi, sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi.**

Iqtisodiy o‘shni YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali yoki aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o‘lchash buning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga bog‘liq bo‘ladi. Odatda biron bir mamlakat iqtisodiy o‘shini YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali o‘lchash uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o‘lchash esa mamlakatdagi turmush darajasini taqqoslashda qo‘llaniladi.

Mamlakatning iqtisodiy o‘sh sur‘atini tavsiflaydigan mazkur ko‘rsatkichlar (real YaIM va aholi jon boshiga real YaIMning o‘shisi) miqdoriy ko‘rsatkichlar bo‘lib, ular birinchidan, mahsulot sifatining oshishini to‘liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy o‘shini to‘liq tavsiflab berolmaydi; ikkinchidan, real YaIM va aholi jon boshiga YaIMning o‘shisi bo‘sh vaqtning sezilarli ko‘payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko‘rsatilishiga olib keladi; uchinchidan, iqtisodiy o‘shni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof-muhitga va inson hayotiga salbiy ta‘sirini hisobga olmaydi. Shunga ko‘ra, iqtisodiy o‘shning barcha tavsifi yillik o‘sh sur‘atlarining foizdagi o‘lchovida to‘liq o‘z ifodasini topadi:

$$O'S = \frac{YaIM_{joriy\ davr} - ЯИМ_{basis\ davr}}{ЯИМ_{basis\ davr}} \times 100\% ,$$

bu yerda:

O'S – iqtisodiy o'sish sur'ati, foizda;

YaIM<sub>basis davr</sub> – taqqoslanayotgan davr (yil)dagi real YaIM hajmi;

YaIM<sub>joriy davr</sub> – joriy davr (yil)dagi real YaIM hajmi.

Fikrimizcha ushbu formulada ba'zi noaniqliklar mavjud. Birinchidan, iqtisodiy o'sish faqat YaIM miqdoriga bog'liqligi ko'rsatilgan. Ikkinchidan, bu formula aholi sonining o'zgarishini hisobga olmaydi. Uchinchidan, zanjirsimon holatda iqtisodiy o'sish sur'atini aniqlaydigan bo'lsak, taqqoslanayotgan davrdagi YaIM miqdori o'zgarmas narxlarda emas, balki shu yildagi joriy narxlarda hisoblanishi kerak. Ya'ni, taqqoslanayotgan davrda real YaIM miqdori emas, balki nominal YaIM olinishi kerak. To'rtinchidan, iqtisodiy o'sish bo'lishi uchun joriy davrdagi o'zgarmas narxlarda hisoblangan YaIM miqdori bilan basis davrda nominal narxlarda hisoblangan YaIM miqdori o'rtasidagi farq musbat bo'lishi kerak. Aks holatda ushbu formula iqtisodiy pasayishni ham ifodalashi mumkin. Beshinchidan, bu formulani iqtisodiy o'sishni aniqlaydigan formula deb emas, balki YaIM miqdori o'zgarishini ifodalovchi formula sifatida qarash lozim.

Iqtisodiy o'sish faqat YaIM miqdorining o'zgarishiga bog'liq bo'lmaydi. Bu yerda aholi sonining o'zgarishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Deylik, YaIM miqdorining aholi sonining o'sishiga nisbatan past sur'atlarda o'sishi aholi jon boshiga nisbatan iqtisodiy pasayishga olib kelishi mumkin. Bu formulada esa aholi soni o'zgarmas sifatida qaraladi.

Shundan kelib chiqqan holda iqtisodiy o'sish sur'atini YaIM mahsulot miqdorining o'sish sur'ati deb formulaga kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi va u quyidagicha hisoblanadi.

*YaIM*<sub>O'sish yoki pasayish sur'ati</sub>

$$= \left( \frac{Real\ YaIM_{joriy} - Nominal\ YaIM_{basis}}{Nominal\ YaIM_{basis}} \right) \times 100\%$$

Yoki shartli belgilar asosida YaIMning har yillik o'sish yoki pasayish sur'ati formulasini yuqoridagi formulaga asoslangan holda quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

$$Y_t = \left( \frac{Y_t^{real} - Y_{t-1}^{nominal}}{Y_{t-1}^{nominal}} \right) \times 100\%$$

Bu yerda:

$Y_t$  – joriy (t) davrdagi YAIMning o‘shish yoki pasayishi sur‘ati;

$Y_t^{real}$  – joriy (t) davrdagi real YAIM miqdori;

$Y_{t-1}^{nominal}$  - bazis (t-1) davrdagi nominal YAIM miqdori.

Bu formula bo‘yicha joriy davr bilan bazis davr faqat (zanjirsimon) 1 yilga farq qiladi. Deylik, joriy davr 2019 yil bo‘lsa, bazis davr 2018 yil hisoblanadi.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi YAIMning o‘shish yoki pasayish formulasi bizningcha quyidagicha aniqlanadi.

$$Y_t = \left( \frac{\frac{Y_t^{real}}{A_t} - \frac{Y_{t-1}^{nominal}}{A_{t-1}}}{\frac{Y_{t-1}^{nominal}}{A_{t-1}}} \right) \times 100\%$$

Bu formulani soddalashtirib, quyidagi tenglikka ega bo‘lamiz:

$$Y_t = \left( \frac{A_{t-1} \times Y_t^{real}}{A_t \times Y_{t-1}^{nominal}} - 1 \right) \times 100\%$$

Bu yerda:

$Y_t$  – joriy (t) davrdagi YAIMning o‘shish yoki pasayishi sur‘ati;

$Y_t^{real}$  – joriy (t) davrdagi real YAIM miqdori;

$Y_{t-1}^{nominal}$  – bazis (t-1) davrdagi nominal YAIM miqdori.

$A_t$  – joriy (t) davrdagi aholi soni;


$A_{t-1}$  – bazis (t-1) davrdagi aholi soni.

Bu yerda YAIMning o‘shish sur‘ati bilan aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi YAIMning o‘shish sur‘ati bir-biridan farqlanadi. Aholi soni o‘zgarmas bo‘lgan holatdagina ushbu ko‘rsatkichlar miqdori bir xil bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan nashr etilayotgan ko‘plab statistik to‘plamlarda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘shish sur‘atlari 100% qo‘shilgan ( $Y_t + 100\%$ ) holatda beriladi. Deylik, biz taklif etayotgan formula yordamida real YAIMning o‘shish sur‘atini hisoblaydigan bo‘lsak, 2019 yilda 5,6 foizni tashkil etadi. Ammo, rasmiy statistikada 105,6 foiz ko‘rinishida beriladi. Bu matematik jihatdan mutlaqo noto‘g‘ri. Bu yerda bazis

davrdagi nominal (YAIM  $Y_{t-1}^{nominal}$ ) miqdorini 100% deb belgilab, keyinchalik joriy davrdagi real YAIM ( $Y_t^{real}$ ) bazis davrdagi nominal YaIM (YaIM  $Y_{t-1}^{nominal}$ )ning 105,6 foizini tashkil etdi deyilsa to‘g‘ri bo‘ladi. Yoki O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasini tomonidan nashr etilayotgan ko‘plab statistik to‘plamlarda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘shish sur‘atlari 100% qo‘shilmagan holatda berilishi kerak. SHundagina, talabalar, ilmiy tadqiqotchilar, doktorantlar, aholining keng qatlamlari o‘rtasida ushbu makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblashda ko‘plab tushunmovchiliklar va noaniqliklar bartaraf etiladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar natijasida 1996-yildan boshlab oldingi yilga nisbatan, 2001-yildan boshlab esa 1991-yildagi darajaga nisbatan YaIM hajmining barqaror ravishda o‘shishiga erishildi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta‘sirida yuzaga kelgan muammo va qiyinchiliklarga qaramay, 2008-yilda yalpi ichki mahsulotning o‘shish sur‘atlari 9 foizni tashkil etdi. Koronavirus pandemiyasi sabab, 2020-yilda mamlakatimizda YaIMning o‘shish sur‘ati 1,6 foizni, uning aholi jon boshiga nisbatan o‘shish sur‘ati esa pasayib, -0,3 foizni tashkil etdi. (3.1-rasm).



**3.1-rasm. O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillar davomida o‘shish dinamikasi, foizda<sup>16</sup>**

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (stat.uz) ma‘lumotlari asosida ishlab chiqilgan..

Mamlakatimizda 1997-2020 yillar davomida nominal YaIMning qiymati, real YaIMning o'sish sur'ati hamda uning aholi jon boshiga o'sishi to'g'risidagi ma'lumotlarni quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin (3.1-jadval).

**3.1-jadval**

**O'zbekistonda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi<sup>17</sup>**

Yillar	Ko'rsatkichlar		
	Nominal YaIM, mlrd.so'm	Real YaIMning o'sish sur'ati, %	YaIMning aholi jon boshiga o'sishi, %
1997	976,8	5,2	3,3
1998	1416,2	4,4	2,6
1999	2128,7	4,3	2,8
2000	3255,6	4,0	2,5
2001	4868,4	4,2	3,1
2002	7469,3	4,2	3,2
2003	9664,1	4,4	3,2
2004	12189,5	7,7	6,5
2005	15923,4	7,0	6,0
2006	20759,3	7,3	6,2
2007	28186,2	9,5	7,9
2008	38 969,8	9,0	7,3
2009	49 375,6	8,1	6,2
2010	74 042,0	7,3	4,3
2011	96 949,6	7,8	4,9
2012	120 242,0	7,4	5,8
2013	144 548,3	7,6	5,9
2014	177 153,9	7,2	5,4
2015	210 183,1	7,4	5,6
2016	242 495,5	6,1	4,3
2017	302 536,8	4,5	2,7
2018	406 648,5	5,4	3,6
2019	510 117,2	5,8	3,8
2020	580 203,2	1,6	-0,3


<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (stat.uz) ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Shuningdek, iqtisodiy o‘shish mamlakat ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayib borishini ham anglatadi. Milliy ishlab chiqarish natijalarining miqdor jihatidan ko‘payishi va sifat jihatidan takomillashib borishi pirovardida ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘ining o‘ng tomonga qarab siljishiga olib keladi.

Aytaylik, 2020-yildagi milliy ishlab chiqarish hajmi ( $Y_{2020}$ ) 2000-yildagi ( $Y_{2000}$ )ga nisbatan o‘sdi. Bu o‘shish o‘z navbatida milliy ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘ining ham kengayishiga olib keladi (3.2-chizma).

### 3.2-chizma

#### Iqtisodiy o‘shish natijasida milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi



Chizmadan ko‘rinadiki, iqtisodiy o‘shish natijasida ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulot miqdori ortadi, bu esa aholi turmush farovonligining oshishiga olib keladi. Iqtisodiyot mavjud ehtiyojlarni yanada to‘laroq qondirish imkoniga ega bo‘ladi.

Iqtisodiy o‘shishning ahamiyati to‘g‘risida gapirilganda uning darajasini ham e‘tiborda tutish lozim. Iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining ahamiyatlilik darajasi turli mamlakatlar real YaIMning hajmidan kelib chiqqan holda farqlanadi. Real YaIM hajmi nisbatan kichik bo‘lgan mamlakatlar uchun 8-10% darajasidagi iqtisodiy o‘shish sur‘ati me’yordagi holat sanalishi, real YaIM hajmi juda katta bo‘lgan

mamlakatlar uchun 2-3% darajasidagi iqtisodiy o'sish sur'ati esa ahamiyatli ko'rsatkich hisoblanishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish sur'atining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo'llaniluvchi **"70 miqdori qoidasi"** yordamida ham ochib berish mumkin. Bu qoidaga ko'ra, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan YaIM hajmini 2 baravarga oshirishda qancha vaqt talab etilishini aniqlash uchun 70 sonini yillik o'sish sur'atiga bo'lish kerak bo'ladi. Masalan, mamlakatimizdagi o'sish sur'atining 9% darajasida YaIMni 2 baravar oshirish uchun 7,7 yil talab etiladi (70:9). Xolbuki, iqtisodiy o'sishning 2000-yildagi 4,0% darajasida bu ko'rsatkichga 17,5 yilda (70:4) erishish mumkin edi. Keyingi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atining yanada oshirilishi bu muddatning ahamiyatli ravishda qisqarishiga olib keladi.

Ijtimoiy mahsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

**Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi.** Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun ishlab chiqarish omillari miqdori ikki barobar ko'paytirilishi lozim, sodda qilib aytganda mavjud korxonalar bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha xuddi o'shanday yana korxonalar qurilishi lozim. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

**Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, yanada ilg'or ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo'l bilan erishiladi.** Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida-alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikda, bir-biri bilan qo'shilgan



tarzda bo‘ladi. Shu sababli ko‘proq ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o‘shish turlari haqida so‘z yuritiladi.

Iqtisodiy o‘shishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlari ham mavjud bo‘lib, ulardan asosiylari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligining o‘shishi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi.


### 3.2. Iqtisodiy o‘shishning manbalari va uni aniqlovchi omillari

Iqtisodiy o‘shishga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar **taklif omillari** deb ham atalib, iqtisodiyotning o‘shish layoqatini belgilab beradi:

- 1) tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
- 2) ishchi kuchi resurslari miqdori va sifati;
- 3) asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi;
- 4) texnologiya va fan-texnika taraqqiyoti.

### 3.3-chizma

#### Iqtisodiy o‘shish omillari



Bu omillar har birining yalpi mahsulot hajmiga ta'sirini baholash orqali iqtisodiy o'sishni tavsiflash mumkin.

Ma'lumki, yalpi ichki mahsulot ishchi kuchi, kapital va tabiiy resurslar sarflarining funksiyasi hisoblanadi, ya'ni:

$$Y = f(L, K, N),$$

bu yerda:

Y – yalpi ichki mahsulot;

L – ishchi kuchi sarflari;

K – kapital sarflari;

N – tabiiy resurslar sarflari.

Bu funksional bog'lanishdan kelib chiqqan holda iqtisodiy o'sishni belgilab beruvchi bir qator xususiy ko'rsatkichlarni keltirib chiqarish mumkin:

1) **mehnat unumdorligi (Y/L)** – mahsulot ishlab chiqarish hajmining jonli mehnat sarflariga nisbati;

2) **mehnat sig'imi (L/Y)** – jonli mehnat sarflarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

3) **kapital samaradorligi (Y/K)** – mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan kapital xarajatlariga nisbati;

4) **kapital sig'imi (K/Y)** – kapital xarajatlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

5) **tabiiy resurslar samaradorligi (Y/N)** – mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo'llanilgan tabiiy resurslar miqdoriga nisbati;

6) **mahsulotning resurslar sig'imi (N/Y)** – tabiiy resurslar sarfining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

7) **ishchi kuchining kapital bilan qurollanganlik darajasi (K/L)** – ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilayotgan kapital hajmining ishchi kuchi miqdoriga nisbati.

Iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda yuqorida ko'rib chiqilgan ko'rsatkichlardan tashqari yana **keyingi qo'shilgan ishlab chiqarish omillari unumdorligi** ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkichlar, boshqa omillar sarfi o'zgarmagani holda, har bir alohida omil sarfining qo'shimcha o'sishi ta'sirida mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo'shimcha o'sishi hajmini belgilab beradi:

1) keyingi qo'shilgan mehnat unumdorligi ( $\Delta Y/\Delta L$ );

2) keyingi qo'shilgan kapital unumdorligi ( $\Delta Y/\Delta K$ );

3) keyingi qo'shilgan tabiiy resurslar unumdorligi ( $\Delta Y/\Delta N$ ).

Bu ko'rsatkichlar yalpi mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmining o'sishida har bir omilning hissasini namoyon etib, u quyidagicha aniqlanadi:


$$Y = (\Delta Y / \Delta L)L + (\Delta Y / \Delta K)K + (\Delta Y / \Delta N)N .$$

Iqtisodiy o'sishga **taqsimlash omillari** ham ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi, balki juda samarali ishlatilishi ham zarur. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning yuqori miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zarur bo'ladi.

Real mahsulot ikki asosiy usulda ko'paytirilishi mumkin: 1) resurslarning ko'proq hajmining jalb etilishi; 2) ulardan ancha unumli foydalanish yo'l bilan (3.4-chizma).

### 3.4-chizma

#### Real mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillar



Amaliy hayotda iqtisodiy o'sishni susaytirib turuvchi omillar ham mavjud bo'ladiki, ular mehnat muhofazasi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi holatlar natijasida kelib chiqadi. Keyingi yillarda respublikamizda davlat tomonidan atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, xodimlar mehnat sharoitini yaxshilash va sog'lig'ini muhofaza qilishni tartibga solishda muhim tadbirlar amalga oshirildi. Bu o'z navbatida iqtisodiy o'sish sur'atiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki bunday tadbirlarni amalga oshi-

rish tegishli xarajatlarni taqozo qiladi. Shu orqali mehnat unumdorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar boshqa tomonga jalb qilinadi.

### 3.3. Mamlakatlararo o‘shning regressiyasi bo‘yicha tadqiqotlar

O‘zbekistonda samarali investitsiya siyosatini olib borish asnosida barqaror o‘sh sur‘atlarini ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijalarini YAIM va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘sh sur‘atlari orqali kuzatish mumkin (3.2-jadval).

#### 3.2-jadval

#### O‘zbekistonda YAIM va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘sh sur‘atlari, % da

Yillar	YAIMning o‘sh sur‘ati, foiz	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘sh sur‘ati, foiz
2000	3,8	4,6
2001	4,2	5,1
2002	4	3,8
2003	4,2	5,2
2004	7,4	7,3
2005	7,0	5,7
2006	7,5	9,3
2007	9,5	25,8
2008	9,0	34,1
2009	8,1	24,8
2010	7,3	8,7
2011	7,8	3,8
2012	7,4	12,7
2013	7,6	12,1
2014	7,2	9,9
2015	7,4	9,6
2016	6,1	7,7
2017	4,5	19,4
2018	5,4	29,9
2019	5,6	33,9
2020	1,6	-8,2

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlaridan foydalangan holda investitsiyalarning o‘sh sur‘atlari bilan YAIM o‘sh sur‘atlari o‘rtasidagi

o‘zaro bog‘liqlikni korrelyatsion-regression tahlilini amalga oshiramiz. Mamlakatda yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmining o‘shishi asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘shish sur‘atlariga nisbatan funksiya deb olindi. Buning uchun bu o‘zgaruvchilar orasida korrelyatsiya koeffitsienti hisoblab chiqiladi. O‘zgaruvchilar orasidagi korrelyatsiya matritsasi quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi (3.3-jadval).

**3.3-jadval**

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hamda YAIMning o‘shishi o‘zgaruvchilari orasidagi korrelyatsiya matritsasi**

O‘zgaruvchilar	YAIMning o‘shishi, %	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘shishi, %
Y	1	
X	0,323404	1

Keyinchilik yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmining o‘shishi iqtisodiy rivojlanishni nisbatan to‘laroq ifodalagani sababli uni natijaviy ko‘rsatkich sifatida ekonometrik modelga kiritdik va “Y” bilan belgiladik. Funksiyaga ta’sir etuvchi omil sifatida X - asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘shishi (%) qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2000-2019 yillardagi yuqorida ko‘rsatilgan ma’lumotlar asosida Microsoft Excel dasturidagi hisob-kitoblar natijasida quyidagi ekonometrik modelni tuzib oldik:

$$Y = 6,086303 + 0,042412 \times X$$

Modeldan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiyotda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 1%ga o‘shishi YAIMning 0,042412%ga o‘shishiga olib kelar ekan.

Mamlakatning iqtisodiy o‘shishida investitsiyalarning roli beqiyos. Shuning uchun biz investitsiyalarning o‘shishini YAIM o‘shishiga ta’sir etuvchi navbatdagi omil sifatida belgilab oldik.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2000-2019 yillardagi yuqorida ko‘rsatilgan ma’lumotlar asosida Microsoft Excel dasturida ekonometrik modelning quyidagi parametrlari aniqlandi (3.4-jadval).

### 3.4-jadval

#### Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hamda YaIMning o'sishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ekonometrik modelining parametrlari

	Koeffitsientlar	Standart xatolik	t-statistika	Past 95%	Yuqori 95%
Ozod had (a)	6,086303	0,635644	9,575025	4,745212	7,427393
O'zgaruvchi (X)	0,042412	0,036539	1,160739	-0,03468	0,119502

Tahlil davomida O'zbekistonda 20 yillik (2000-2019 yillar) davr mobaynida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlarini markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar kesimida ko'rib chiqamiz (3.5-jadval).

### 3.5-jadval

#### Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan foizda)

Yillar	t (yillar)	Investitsiyalar	Investitsiyalar	
			Markazlashgan investitsiyalar	Markazlashmagan investitsiyalar
2000	1	4,6	7,6	-1,7
2001	2	5,1	7,9	-1,3
2002	3	3,8	8,3	3,2
2003	4	5,2	9,4	3,6
2004	5	7,3	-3,6	10,9
2005	6	5,7	-16,1	15,1
2006	7	9,3	1,7	11,7
2007	8	25,8	0,5	33,1
2008	9	34,1	49,8	30,7
2009	10	24,8	24,4	25
2010	11	8,7	-10,6	13,7
2011	12	3,8	5,4	3,6
2012	13	12,7	30,6	9,1
2013	14	12,1	8,2	13,1
2014	15	9,9	4,8	11,1
2015	16	9,6	16,7	5,3
2016	17	7,7	18,6	4,3
2017	18	19,4	28,5	17,2
2018	19	29,9	71,5	18,1
2019	20	33,9	20	39,8

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida investitsiyalar hajmining o'sishiga markazlashgan investitsiyalar va markazlashmagan investitsiyalar o'sish sur'atlariga nisbatan funksiya deb olindi. Mazkur funksiyaning regression statistikasi ma'lumotlarini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin (3.6-jadval).

**3.6-jadval**

**Regression statistika va dispertsiyon tahlil ma'lumotlari**

<i>Regression statistika</i> a)					
Ko'p miqdorli R	0,993462				
R-kvadrat	0,986966				
Norma R-kvadrat	0,985337				
Sandart xatolik	1,259475				
Kuzatuvlar	19				
<b>Dispertsiyon tahlil</b>				b)	
	<i>df</i>	<i>SS</i>	<i>MS</i>	<i>F</i>	
<b>Regressiya</b>	2	1921,927	960,9635	605,798	
<b>Qoldiq</b>	16	25,38043	1,586277		
<b>Jami</b>	18	1947,307			
s)					
	<i>Koeffitsientlar</i>	<i>Standart xatolik</i>	<i>t-statistika</i>	<i>Past 95%</i>	<i>YUqori 95%</i>
<b>Ozod had (a)</b>	0,746884	0,485719	1,537689	-0,28279	1,776561
<b>O'zgaruvchi (X<sub>1</sub>)</b>	0,229585	0,014929	15,37821	0,197937	0,261234
<b>O'zgaruvchi (X<sub>2</sub>)</b>	0,715464	0,027619	25,90462	0,656914	0,774015

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, R-kvadrat bu korrelyatsiya koefficienti bo'lib, u omillar o'rtisidagi bog'lanish zichligini ko'rsatadi. YA'ni, markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar o'rtasidagi bog'lanish zichligi boshqa shart-sharoitlar o'zgarmas bo'lgan holatda 0,993462 ga teng ekan. Bu ko'rsatkich ushbu omillar o'rtasida kuchli bog'lanish bor ekanligini ko'rsatadi.

Microsoft Excel dasturidagi hisob-kitoblar natijasida quyidagi ekonometrik modelni tuzib oldik.

$$Y = 0,746884 + 0,229585 \times X_1 + 0,715464 \times X_2$$

$$R = 0,993462 \quad R^2 = 0,986966 \quad F = 605,798$$

Modeldan ko‘rinib turibdiki, markazlashgan investitsiyalarning 1%ga o‘shishi investitsiyalarning 0,229585%ga o‘shishiga, markazlashmagan investitsiyalarning 1% ga o‘shishi esa investitsiyalarning 0,715464%ga o‘shishiga olib kelar ekan.

Prognozlashning eng sodda usullaridan biri bo‘lgan trend funksiyasi orqali markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning istiqbolli davr uchun prognoz qilamiz. Bunda trend  $y=a_0+b_1 \times t$  funksiyasida o‘zgaruvchilarni yillar qilib olamiz hamda chiziqli funksiya hosil qilamiz. Unga ko‘ra o‘zgaruvchilar yillar hisoblanadi.

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida markazlashgan investitsiyalarning trend funksiyasi quyidagini tashkil etdi.

$$Y = -5,22544 + 1,795614 \times X$$

Markazlashmagan investitsiyalarning trend funksiyasi esa quyidagini tashkil etdi.

$$Y = 6,953158 + 0,646842 \times X$$

Endi bu funksiyalardan foydalanib, markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar o‘shishini istiqbolli davr uchun prognoz qilamiz. So‘ngra natijalarni yuqoridagi investitsiyalar o‘shishi modeliga qo‘yib, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘shishini ham istiqbolli davr uchun prognoz qilamiz (3.7-jadval).

### 3.7-jadval

#### Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning tarkibi bo‘yicha istiqbolli davr uchun prognoz ko‘rsatkichlari (o‘tgan yilga nisbatan foizda)

Yillar	t (yillar)	Investitsiyalar	Investitsiyalar	
			Markazlashgan investitsiyalar	Markazlashmagan investitsiyalar
2020	21	22,9	32,5	20,5
2021	22	23,8	34,3	21,2
2022	23	24,6	36,1	21,8
2023	24	25,5	37,9	22,5
2024	25	26,4	39,7	23,1
2025	26	27,3	41,5	23,8
2026	27	28,1	43,3	24,4
2027	28	29,0	45,1	25,1
2028	29	29,9	46,8	25,7
2029	30	30,8	48,6	26,4
2030	31	31,6	50,4	27,0



Mamlakatimizda xorijiy va mahalliy investorlar uchun yanada qulay investitsiyaviy muhit yaratilishi natijasida iqtisodiyotga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda. - jadvaldan ko'rinib turibdiki, bizning hisob-kitoblarimiz bo'yicha iqtisodiyotga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi yaqin o'n yillikda barqaror o'sish tendentsiyasiga ega bo'ladi. 2030 yilgacha yillik o'rtacha o'sish o'rtacha 27,2 foizni tashkil etar ekan.


Endi yuqorida aniqlangan YAIM o'sishiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning (X) o'sish sur'atlarini modelga kiritib, YAIMni istiqbolli davr uchun o'sish sur'atlarini aniqlaymiz (3.8-jadval).

### 3.8-jadval

#### O'zbekistonda YAIM va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning istiqbolli davr uchun prognoz ko'rsatkichlari

Yillar	YAIMning o'sish sur'ati, foiz	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati, foiz
2021	7,1	23,8
2022	7,1	24,6
2023	7,2	25,5
2024	7,2	26,4
2025	7,2	27,3
2026	7,3	28,1
2027	7,3	29,0
2028	7,4	29,9
2029	7,4	30,8
2030	7,4	31,6

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bizning hisob-kitoblarimiz bo'yicha YAIM hajmi yaqin o'n yillikda barqaror yuqori o'sish tendentsiyasiga ega bo'ladi. 2030 yilgacha yillik o'rtacha o'sish sur'ati 7,2 foizni tashkil etib, YAIMing  $(1,07211 = 2,15)$  2,15 barobarga oshishiga olib keladi (3.3.1-rasm).



**3.3.1-rasm. O‘zbekistonda YAIM va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning istiqbolli davr uchun prognoz ko‘rsatkichlari, %**

### Asosiy tayanch tushunchalar

**Iqtisodiy rivojlanish** – ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotida o‘z ifodasini topadi.

**Iqtisodiy o‘sish** – YaIM, SMM, MD miqdorining mutlaq hajmi va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko‘payishida va sifatining yaxshilanishida ifodalanadi.

**Iqtisodiy o‘sish mezoni** – iqtisodiy o‘sishni nisbatan to‘liq darajada baholash imkonini beradigan ko‘rsatkichni xarakterlaydi.

**Iqtisodiy o‘sishning ko‘rsatkichlari** – iqtisodiy o‘sishni aniqlashda foydalaniladigan qiymat, ijtimoiy naflilik va natural (jismoniy) ko‘rsatkichlar tizimidan iborat.

**Ekstensiv iqtisodiy o‘sish** – ishlab chiqarishga qo‘shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishi.

**Intensiv iqtisodiy o‘sish** – ishlab chiqarish omillarini rivojlantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko‘payib borishi.

**Iqtisodiy o‘sish omillari** – iqtisodiy o‘sishga ta‘sir ko‘rsatishda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va uni aniqlab beruvchi talab, taklif va taqsimlash omillarini bildiradi.

## **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o‘shish tushunchalarining ta’rifini bering hamda ularning umumiy tomonlari va farqlarini ko‘rsating.

2. Iqtisodiy o‘shishning ekstensiv va intensiv turlari qanday aniqlanadi?

3. Nima uchun real hayotda sof ekstensiv yoki sof intensiv iqtisodiy o‘shish turlari uchramaydi?

4. Mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga, aholisining turmush darajasiga va ishlab chiqarishining samaradorligiga baho berishda iqtisodiy o‘shishning qanday ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi?

5. Iqtisodiy o‘shishga ta’sir qiluvchi taklif, taqsimlash va talab omillarini tushuntiring hamda ularning ahamiyatini baholang.

## **4-MAVZY. TARIXIY ISTIQBOLDA IQTISODIY O‘SISH NAZARIYASI**

**4.1. Iqtisodiy rivojlanish modellari.**

**4.2. Neoklassik istiqbollar.**

**4.3. Iqtisodiy o‘shishga texnologiyalar va inson kapitalining ta’siri.**

**4.4. Bozorning nomukammalligi, daromadlarning oshishi va qashshoqlik tuzoqlari.**

### **4.1. Iqtisodiy rivojlanish modellari**

Barqaror iqtisodiy o‘shishga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni umumlashtirish asosida O‘zbekiston uchun quyidagi omillarni muhim deb hisoblaymiz: investitsiya muhiti, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, innovatsiyalar, biznes muhiti va tadbirkorlik sharoiti, axborot kommunikatsiya tizimi va ta’lim darajasi, aholining iqtisodiy savodxonligi, samaradorlik.

Yuqori rivojlangan davlatlar tajribasining ko‘rsatishicha, iqtisodiy o‘shishning muhim jihati uning sifati va uni ta’minlovchi omil esa – innovatsiya hisoblanadi. SHuningdek, zamonaviy nazariy yondashuvlarning ko‘rsatishicha, iqtisodiy o‘shishni asosiy harakatga keltiruvchi kuch – texnologik taraqqiyot hisoblanadi. O‘z navbatida, ta’lim, fan va yuqori texnologiyalar iqtisodiy o‘shish manbaining, farovon hayot va davlat taraqqiyotining asosidir.

Demak, barqaror iqtisodiy o‘shishga ta’sir ko‘rsatuvchi etakchi omil investitsiya muhitidir. Asosiy kapitalni o‘stirish, inson kapitalini jamg‘arish, texnika taraqqiyotini birgalikda qo‘llash natijasida tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshiriladi. Ular negizida esa moliyaviy mablag‘lar yotadi. Bu jarayon investitsiya asosida amalga oshiriladi. SHuning uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va takomillashtirish barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlashga qaratilgan muhim omillardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda texnika taraqqiyotini jadallashtirish, yuqori texnologiyalarni iqtisodiyotga olib kirish va inson omilini zamonaviy malaka va ko‘nikmalarini oshirish uchun iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni kiritishni kengaytirish zarur.

## 4.1-jadval

### Barqaror iqtisodiy o‘shish omillariga bo‘lgan turli yondashuvlar<sup>18</sup>

Mualliflar	Barqaror iqtisodiy o‘shish omillari sharhi
O‘zbekistonlik bir guruh olimlar	texnika taraqqiyotini amalga oshirish; qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish; tarkibiy o‘zgarishlarni sifat darajasini ta’minlash; investitsiyalarni oqilona taqsimlash.
A.Vaxobov, A.O‘lmasov	ishlab chiqarishdagi moddiy kapital; inson kapitalining sifat darajasi; ishlab chiqarishning texnologik usullari; investitsiyalar miqdori va tarkibi; ta’lim darajasi; iqtisodiy erkinlik darajasi; iqtisodiyotning ochiqligi; xalqaro bozordagi holat; demografik vaziyat <sup>19</sup>
A.Rasulov, A.Qodirov, R.Alimov	investitsiya muhiti, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, innovatsiyalar <sup>20</sup>
SH.Yuldashev	Barqaror iqtisodiy o‘shishga asosiy ta’sir etuvchi omil sifatida xorijiy investitsiyalarga to‘xtalib o‘tgan <sup>21</sup>
SH.SHodmonov, U.G‘afurov	- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlarini kuchaytirish; - iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish; - ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash; - eksportga ixtisoslashgan yangi tarmoq va korxonalarini barpo etish; - kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama puxta o‘ylangan siyosatni amalga oshirish <sup>22</sup>
С.Чепель	samaradorlik, aholi savodxonligi, ishbilarmonlik muhiti, institutsional jihatlar va davlat institutlari <sup>23</sup>
I.Qayumova	innovatsiyalar, biznes muhiti va tadbirkorlik sharoiti, axborot kommunikatsiya tizimi va ta’lim darajasi <sup>24</sup>
T.SHodiev	aholi savodxonligi, axborot texnologiyalari, samaradorlik <sup>25</sup>

<sup>18</sup> Mualliflar tomonidan tuzilgan.

<sup>19</sup> Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr). A.O‘lmasov, A.Vaxobov. TDIU. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2014. - 424 b.

<sup>20</sup> O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot / Mualliflar jamoasi: R.O.Alimov, A.F.Rasulev, A.M.Qodirov va boshq. // S.S.G‘ulomov taxriri ostida.

– T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. - 440 b;

<sup>21</sup> Юлдашев Ш.Г. Иностранные инвестиции как фактор экономического роста в либерализации национального воспроизводства Республики Узбекистан: Дис...док.экон.наук.: Нац. унв. Узб., – Т.: 2001. – 350 с.

<sup>22</sup> Shodmonov Sh.Sh., G‘ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – 728 bet.

<sup>23</sup> Экономический рост и инновации: теория, практика и моделирование // Колл. авт. Под общей редакцией

С.Чепель. –Т.: 2010; Влияние экономического роста на сокращение доли малообеспеченного населения Узбекистана. Колл. Авт. Под ред. Чепель С. – Т.: 2012.

<sup>24</sup> Kayumova I.O. O‘zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning yangi sifat bosqichi jarayonlarini ekonometrik tadqiqoti. Iqt. fan. dok. dis. – T.: 2012. - 289 b.

Ular o'z navbatida, mehnat unumdorligining o'sishiga va barqaror o'sish davomiyligiga hamda uning ijtimoiylashuviga, innovatsion tizimning shakllanishi bilan barqaror iqtisodiy o'sish sifatining oshishiga olib keladi.

Solou modeli jamg'arish normasi kapital bilan qurollanganlikning barqaror darajasiga erishishning o'ta muhim omili ekanligini ko'rsatadi.

Jamg'arish normasining o'sishi investitsiyalar hajmining oshishini keltirib chiqaradi. Bu esa asosiy kapital miqdorining ortishiga, o'z navbatida kapital bilan qurollanganlik darajasining (k) ko'tarilishi orqali, pirovard natijaga, ya'ni ishlab chiqarish hajmining (Y) ko'payishiga olib keladi.

Shunday qilib, jamg'arish normasining oshishi barqaror muvozanat sharoitida yuqoriroq ishlab chiqarish va kapital zaxirasi darajasiga erishish imkonini beradi. Ammo jamg'arish normasining ortishi qisqa muddatdli davrda, iqtisodiyot yangi barqaror muvozanat nuqtasiga etgunga qadar, iqtisodiy o'sishni jadallashishiga olib keladi.

Jamg'arish jarayoni ham, jamg'arish normasining oshishi ham barqaror muvozanat holatida aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmining uzluksiz o'sishi mexanizmini tushuntirish uchun yetarli emas. Ular muvozanatning bir holatidan ikkinchi holatiga o'tilishini ko'rsatadi xolos.

Solou modelini keyingi rivojlantirilishida navbat bilan ikki shart olib tashlanadi: aholi soni va uning ish bilan band qismi sonining o'zgarmasligi hamda texnik taraqqiyotning mavjud emasligi.

Aholi doimiy (n) sur'at bilan o'sadi deb tasavvur qilamiz. Ishchilar sonining ko'payishi boshqa teng sharoitlarda mehnatning kapital bilan qurollanishi darajasining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Natijada bir ishchiga to'g'ri keladigan kapital zaxirasi o'zgarishini ko'rsatuvchi tenglama quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:


$$\Delta k = I - dk - nk \text{ yoki } \Delta k = I - (d+n)k$$

Mehnatning kapital bilan qurollanganligi pasayishi tufayli uni oldingi darajada saqlab turish uchun investitsiyalarning kapital chiqib ketishini qoplaydigan hajmi zarur. Kapital jamg'arish normasi yuqori

---

<sup>25</sup> Shodiev T.Sh. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, intellektuallashtirish va diversifikatsiyalash asosida iqtisodiy o'sish sifatini oshirish / "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – T.: 2011, № 1, sentyabr'

bo'lmasa kapitalning chiqib ketishi, aholi sonining o'sishi tufayli kapital bilan qurollanganlik darajasi o'zgarasdan qolishi yoki pasayib ketishi mumkin.



#### 4.1-chizma. Aholi soni o'sishining iqtisodiy muvozanatga ta'siri.

Matematik jihatdan o'zgaras kapital bilan qurollanganlik sharoitidagi iqtisodiyotda barqaror muvozanat sharti quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Delta k = sf(k) - (d+n)k = 0 \quad \text{yoki} \quad sf(k) = (d+n)k$$

Tenglamadagi  $(d+n)k$  investitsiyalarning kritik kattaligini xarakterlaydi. Ya'ni bir ishchiga to'g'ri keladigan kapitalni doimiy o'zgaras darajada saqlab turadigan hajmini ifodalaydi.

Aholi o'sishining hisobga olgan holda R. Solou modelini grafik jihatdan ifodalash uchun mehnatning kapital bilan qurollanganligi barqaror darajasini ( $k^*$ ) deb belgilaymiz. Aniqlaganimizdek, agar bir ishchiga to'g'ri keladigan kapital ( $k = \text{const}$ ) bo'lsa iqtisodiyot muvozanat holatida bo'ladi. Agar  $k_1 < k^*$  bo'lsa unda amaldagi investitsiyalar ularning kritik kattaligidan yuqori va ( $k_1$ )  $k^*$  ga qadar o'sadi. Agar  $k_2 > k^*$ , unda investitsiyalar ularning kritik darajasidan past va ( $k_2$ )  $k^*$  ga qadar pasayadi.

Model iqtisodiyot barqaror holatda bo'lishi uchun investitsiyalar  $sf(k)$  kapital chiqib ketishi va aholining o'sishi  $(d+n)k$  oqibatlarini qoplashi kerakligini ko'rsatadi. Bu holda kapital bilan qurollanganlik ( $k$ ) va mehnat unumdorligi ( $y$ ) o'zgaras qoladi. Lekin aholi o'sishida

kapitalning doimiyligi kapital ham aholiga mos sur'atda o'sishi kerakligini anglatadi: ya'ni:

$$\Delta Y/Y = \Delta L/L = \Delta K/K = n$$

Bundan quyidagi xulosa kelib chiqadi: aholining o'sishi – iqtisodiyotning barqarorlik holati sharoitdagi uzluksiz iqtisodiy o'sishning sabablaridan biri.

Biroq agar aholining o'sishi investitsiyaning oshishi bilan birga bormasa, unda bu bir ishchiga to'g'ri keladigan kapital zaxirasining kamayishiga olib keladi. Aholining  $n$  dan  $n_1$  ga o'sishi  $(d+n)k$  chizig'ini yuqoriga  $(d+n_1)k$  holatiga siljitadi. Bu esa kapital bilan qurollanganlikni  $k^*$  dan  $k_1^*$  gacha qisqartiradi. Shunday qilib, R.Solou modeli aholi o'sishining yuqori sur'atlarga ega bo'lgan davlatlarda kapital bilan qurollanganlik past – demakki, daromadlar ham past bo'lishini tushuntirib beradi.

R.Soluning fikriga ko'ra, barqaror muvozanat sharoitida kapital, mehnat va milliy daromad darajasi bir xil, aholi soni o'sishiga teng sur'atda o'sib boradi. Aholi sonining tez o'sishi iqtisodiyotning o'sish sur'atlari jadallashishiga ta'sir etadi, ammo barqaror muvozanat holatida aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish kamayadi. O'z navbatida, jamg'arish normasining oshirilishi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdorini oshiradi va kapital bilan qurollanganlik koeffitsiyentini ko'tarilishiga olib keladi, lekin barqaror holatdagi o'sish sur'atiga ta'sir ko'rsatmaydi. Shu sababli barqaror holatdagi iqtisodiy o'sishning yagona sharti texnik taraqqiyotning o'sish sur'ati hisoblanadi.

**J.Midning iqtisodiy o'sish modeli ham** neoklassik asoslarga ega. U iqtisodiy o'sishni chekli unumdorlik qonuni qo'llaniladigan marjinalistik yondoshuvlar bilan tushuntiradi. O'z konsepsiyasini J. Mid "Iqtisodiy o'sishning neoklassik nazariyasi" (1961-y.) kitobida bayon etdi. Kobb-Duglas funksiyasining zamonaviylashtirilgan variantidan foydalanib, J.Mid barqaror dinamik muvozanat imkoniyati tenglamasini keltirib chiqardi.

$$U = \alpha k + \beta L + r$$

bu yerda  $Y$ -milliy daromadning o'rtacha yillik o'sish sur'ati:



- k- kapitalning o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati;
- L- mehnatning o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati;
- $\alpha$ - milliy daromadda kapitalning ulushi;
- $\beta$ - milliy daromadda mehnatning ulushi;
- r- texnik taraqqiyot sur‘ati.

Tenglama, milliy daromadning o‘shish sur‘ati milliy daromadda ega bo‘lgan ulushi bo‘yicha mehnat va kapital o‘shish sur‘atlarining yig‘indisiga texnik taraqqiyot sur‘ati qo‘shilishidan paydo bo‘lgan miqdorga teng bo‘lishini ko‘rsatadi. Mehnat va texnik taraqqiyot o‘shish sur‘atlarini doimiy deb taxmin qilib J. Mid quyidagi xulosaga keldi: iqtisodiy o‘shishning barqaror sur‘ati kapital o‘shishning barqaror sur‘atlari va uning milliy daromad o‘shish sur‘atlari bilan tengligi sharoitida erishiladi. Agar kapitalning o‘shish sur‘atlari milliy daromadning o‘shish sur‘atlaridan oshsa, unda bu jamg‘arish sur‘atlarining o‘z-o‘zidan pasayishiga olib keladi.

Bunday bog‘liqlik J.Midning jamg‘arishning milliy daromaddagi ulushi doimiy deb shart kiritganligining natijasidir. Shu sababli kapital jamg‘arishning (investitsiyalarning) yuqoriroq sur‘atlarini moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan jamg‘armalarning qo‘shimcha o‘shishi birinchisidan orqada qoladi va unga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Agar kapitalning o‘shish sur‘ati milliy daromadning o‘shish sur‘atidan orqada qolsa teskari holat ro‘y beradi.

Mehnat unumdorligi o‘shish sur‘atlarining dinamik muvozanatga ta‘sirini ko‘rib chiqib J. Mid agar ular kapital jamg‘arish sur‘atidan oshsa, unda chekli mehnat unumdorligining pasayishi natijasida mehnatning kapital bilan almashtirilishi hosil bo‘ladi, degan xulosaga keldi. Ishlab chiqarish jarayonida ularning yangi nisbati esa mehnatning ham, kapitalning ham to‘liq bandligini ta‘minlaydi. Shu bilan birga J. Mid real holatda mehnatning va kapital jamg‘arilishining o‘shish sur‘atlari o‘rtasida muvofiqlikka amal qilish zarurligiga e‘tibor qaratgan. Aks holda, agar mehnatning o‘shishi shunga muvofiq kapital oshishi bilan birga bormasa ishlab chiqarishning o‘shishi ro‘y bermaydi, chunki ishchi kuchining o‘shishi ortiqcha bo‘lib ishsizlik vujudga keladi. Agar kapital mehnat unumdoligini o‘shish sur‘atlaridan tezroq o‘ssa, unda ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari hosil bo‘ladi. Biroq bu holda ham dinamik muvozanatga erishish usullari mavjud. J.Mid bozorlarning neoklassik nazariyasiga asoslanib ularni ko‘rsatadi.

Bunda, mehnat bozorida ishsizlikning vujudga kelishi raqobatni kuchaytiradi, bu esa o'z navbatida ish haqi stavkalarining pasayishiga va kapitalning foydaliligining o'sishiga olib keladi. Natijada jamg'arish sur'atlari oshadi va ishchi kuchining o'sish sur'atlari bilan tenglashadi. J. Mid modelida davlat pul-kredit siyosatidan foydalanган holda faqatgina bilvosita barqarorlashtiruvchi rolini bajarishi kerak. Faqat shugina daromadlar va jamg'armalarni qayta taqsimlashning, resurslarning zarur bandligi va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, samarali mexanizmini yaratish imkonini beradi.

A. Lyuis o'z modelida ishchi kuchi zaxirasi (rezerv) ni iqtisodiy o'sishning asosi sifatida ko'rib chiqadi. Shuning uchun uning fikricha, bu model "aholi zichligi yuqori, kapital taqchil, tabiiy resurslar esa cheklangan" davlatlar uchun qo'l keladi. Bunday mamlakatlarga A. Lyuis Hindiston, Pokiston, Misr va boshqalarni kiritadi.

A. Lyuis o'z konsepsiyasida erkin bozor g'oyasiga asoslanganligi tufayli, tahlil markaziga tadbirkor shaxsini qo'yadi. U bozorda mavjud ishlab chiqarish omillaridan, ya'ni mehnat, yer va kapitaldan foydalanish xususida qarorlar qabul qiladi, Model iqtisodiyotning ikki sektori: agrar va sanoat sektorlarini hisobga olgan holda quriladi. Agrar sektorda mehnat resurslarining taklifi cheklanmagan, mehnat unumdorligi juda past, chekli mahsulot esa nolga teng deb taxmin qilinadi. Bu esa qishloq xo'jaligidan ishchi kuchining "olinishi" ishlab chiqarish qisqarishiga olib kelmasligini anglatadi. Qishloq xo'jaligida ishchilarning ish haqi yashash minimumi darajasida bo'lgani sababli, bu ishchi kuchidan sanoatda foydalanish hech qanday muammo tug'dirmaydi. Bu sektordagi mehnat unumdorligi agrar sektordagidan ancha yuqori.

Shunday qilib, A. Lyuis modelining vazifasi mehnat resurslarining bir qismini qishloq xo'jaligidan sanoatga qayta taqsimlash va bu bilan iqtisodiy o'sish sur'atining tezlanishiga erishish hisoblanadi. Bu jarayonda asosiy mexanizm bo'lib tarmoqlararo bozor xizmat qiladi.

Sanoat ishlab chiqarish mashtablarini kengaytirib, o'z ishchilari-ning daromadlari o'sishini ta'minlaydi, bu esa ichki talabni oshishiga ko'maklashadi. Bunda tadbirkorlar o'sib borayotgan daromadlarni ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltiradilar. Bu daromadlar keyinchalik iqtisodiy o'sishga dinamik ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy o‘shning o‘zini A. Lyuis ikki turga ajratadi: sanoatda uning manbasi bo‘lib qo‘shimcha ishchi kuchidan foydalanish hisoblanadi (ekstensiv tur), qishloq xo‘jaligida esa, chekli mehnat unumdorligining oshishi (intensiv tur). Iqtisodiy o‘shning bu ikki turi investitsiyalashning ikki turli xil funksiyalariga muvofiq keladi. Sanoatda gap, asosan, kapitalni kengaytirish ustida boradi. Shuning uchun investitsiyalarning berilgan funksiyasi yakuniy sanoat mahsulotiga talabga bog‘liq bo‘ladi. Uning o‘shishi daromadlar oshishi va investitsiyalar kengayishini rag‘batlantiradi. Qishloq xo‘jaligida, aksincha, investitsiyalar daromadlarning qisqarishiga bog‘liq holda kengayadi: ish haqiga xarajatlarning ko‘payishi fermerlarni qo‘l mehnatini mashina mehnati bilan almashtirishga majbur qiladi.

O‘z modelini rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ishlab chiqib A. Lyuis uni industrial bosqichni o‘tgan g‘arbiy mamlakatlar uchun to‘g‘ri kelmaydi, deb hisoblagan. Boshqa mualliflar esa, aksincha, uni rivojlangan iqtisodiyot sharoitlari uchun maqbul deb hisoblashadi. Sh. Kindlberger o‘z tahlilida ko‘rsatganidek, iqtisodiy o‘shning mehnat va kapital bilan bog‘liqligining eng yaxshi namunasi bo‘lib GFR, Italiya, Shveysariya va Niderlandiya hisoblanadi. Buyuk Britaniya, Belgiya, Shvetsiya, Norvegiya va Daniya kabi mamlakatlar ham A. Lyuis modelini teskari bog‘liqlikda bo‘lsa-da, tasdiqlashdi: bu mamlakatlarda iqtisodiy o‘shning past sur‘atlari mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan cheklangan holda foydalanish bilan bog‘liq edi. Yana bir guruhni sezilarli ishchi kuchi ortiqchaligini boshidan kechirgan mamlakatlar tashkil etadi (Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Yugoslaviya, Turkiya). Ularning iqtisodiy o‘shishi ham SH. Kindlberger fikricha A. Lyuis modeliga to‘g‘ri keladi. Bu mamlakatlar nafaqat o‘z sanoatini, balki boshqa Yevropa davlatlari sanoatini ham ishchi kuchi bilan ta‘minlar edi va butun qit‘a uchun o‘ziga xos mehnat zaxirasi fondi vazifasini bajargan edi.

## **4.2. Neoklassik istiqbollar**

Iqtisodiy o‘shning dastlabki neoklassik modellari 1950–1960-yillarda, ya‘ni dinamik muvozanat muammosiga e‘tibor susaygan va birinchi planga nafaqat foydalanilmagan quvvatlar hisobiga, balki shu bilan birga yangi texnikani joriy qilish, unumdorlikni oshirish va

ishlab chiqarishni tashkil qilishni yaxshilash hisobiga potensial mumkin bo'lgan o'sish sur'atlariga erishish muammosi chiqqan davrda paydo bo'ldi.

Shu sababli iqtisodiy o'sish muammosining nafaqat nazariy asoslari, balki uni tahlil qilishning uslublari ham o'zgardi. Bu davrda rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida yirik firmalarning roli keskin o'sdi. Bu firmalar o'z investitsiyalarini strategik rejalashtirish uchun iqtisodiy o'sishning neokeynscha modellariga tayangan holda, mikrodarajada o'sishning dinamik modellarini tuza boshlashdi. Ta'kidlangan modellarni tuzishda firmalar chiziqli dasturlash uslublari va V.Leontevning ishlab chiqarish funksiyasidan foydalanishdi.

Yirik firmalarning mustaqil iqtisodiy siyosat yuritishga va iqtisodiy o'sishga erishishga intilishlari neoklassik yo'nalish vakillarini iqtisodiy o'sishning neokeynscha modellariga muqobil bo'lgan o'sish modellarini yaratishga faol kirishishga undadi.

Bu yo'nalish vakillari ( amerikalik iqtisodchi R. Solou va ingliz iqtisodchisi J.Mid hamda boshqalar), bozor raqobati sharoitida yirik firmalarga o'z resurslaridan potensial o'sishga erishish maqsadi to'laroq foydalanish imkonini berish uchun iqtisodiyotga davlat aralashuvini qat'i cheklash lozim degan fikrni olg'a surishdi.

Ular yaratgan modellarning metodologik asoslari bo'lib, shuningdek, mehnat, kapital va yerni ijtimoiy mahsulotni yaratishning mustaqil omillari deb qarovchi ishlab chiqarish omillarining klassik nazariyasi xizmat qildi.

Neoklassik modellarning navbatdagi metodologik asosi bo'lib chekli (chegaralangan) unumdorlik nazariyasi hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, ishlab chiqarish omillari egalari oladigan daromad, bu omillarning chekli mahsulotlari (omillarning qo'shimcha birligi hisobiga yaratilgan qo'shimcha mahsulot) bilan belgilanadi.

Neoklassik maktab nazariyotchilari iqtisodiy o'sishning neokeynscha nazariyalarini uch jihat bo'yicha tanqid qildilar:

- birinchidan, ular e'tiborni faqat iqtisodiy o'sishning bir omiliga-kapital jamg'arishga (investitsiyalarning qo'shimcha o'sishiga) qaratishdi. Boshqa omillar (ayniqsa, texnik taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan holatlar, ya'ni ishchi kuchining ma'lumot darajasi va malakasining o'sishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning yaxshilanishi hamda boshqalar) ular e'tiboridan chetda qoldi. Neoklassiklar bo'sh

turgan ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish uchun yangi ishchi kuchini jalb qilish hisobiga ham ishlab chiqarishning qo'shimcha o'sishini ta'minlash mumkin deb hisobladilar;

- ikkinchidan, neokeynschilar ishlab chiqarishning kapital talabchanligi koeffitsiyenti- $s$  ( $s = I / \Delta Y$ )ni o'zgarmas deb qaradilar. Neoklassik modellar esa ikki ishlab chiqarish omilini (kapital va mehnatni) hisobga olgan holda va ularning o'zaro bir-birini almashtirishini (substitut ekanligini) ko'zda tutib bu koeffitsiyent o'zgarishi mumkinligini nazarda tutadilar. Bundan esa, ishlab chiqarishning berilgan texnik qurollanishi darajasida, belgilangan ishlab chiqarish hajmiga resurslarning turli kombinatsiyalarini qo'llab erishish mumkin degan xulosa chiqadi;

- uchinchidan, neokeynschilar bozor mexanizmining muvozanatni avtomatik tiklash qobiliyatini yetarlicha baholamadilar. Neokeynschilardan farqli ravishda, neoklassiklar faqatgina raqobatga asoslangan bozor tizimigina iqtisodiy o'sishning balanslashganligini ta'minlashi mumkin deb hisobladilar. Ular iqtisodiy o'sishning balanslashganligini ta'minlash raqobat mexanizmidan tashqari barqaror pul tizimiga ham bog'liq, raqobat mexanizmi va barqaror pul tizimi bozor muvozanatini avtomatik tiklaydi, deb hisoblashdilar. Shu sababli ular, davlatning iqtisodiyotga aralashuviga barqarorlikni buzuvchi omil sifatida qarab, inflyatsion davlat xarajatlariga qarshi chiqdilar.

Neoklassik modellar barcha iqtisodiy jarayonlarning aniq holatini qamrash xususiyatiga egadir.

Birinchi neoklassik model R. Solou tomonidan 1956-yilda "Iqtisodiy o'sish nazariyasiga hissa" asarida tasvirlab berildi va so'ngra 1957-yilda "Texnik taraqqiyot va agregativ ishlab chiqarish funksiyasi" nomli asarida rivojlantirildi.

R.Solou modeli mutanosib iqtisodiy o'sishning zarur sharti yalpi talab va yalpi taklifning tengligi hisoblanadi.

Modelda yalpi taklif Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiya bilan ifodalangan. Bu funksiya bir tomondan ishlab chiqarish hajmi va ikkinchi tomondan foydalanilayotgan omillar hamda ularning o'zaro kombinatsiyalari o'rtasidagi funksional bog'liqlikni aks ettiradi, ya'ni:

$Y = f(L, K, N)$ , modelda yuqori texnik rivojlanish bosqichida yerning kichik ahamiyatga egaligi tufayli ishlab chiqarish faqat mehnat resurslari va kapitalga bog‘liq deb olinan.

$Y = f(L, K)$ , funksiyaning kengaytirilgan ko‘rinishi quyidagicha:

$$Y = (\Delta Y / \Delta L) L + (\Delta Y / \Delta K) K$$

bu yerda:  $\Delta Y / \Delta L$  - mehnatning chekli mahsuloti (MPL);


$\Delta Y / \Delta K$  - kapitalning chekli mahsuloti (MPK).

Solou modeliga ko‘ra yalpi ishlab chiqarish hajmi mehnat unumdorligini bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan mahsulot ishlab chiqarish hajmini ( $y = Y/L$ ) o‘stirish hisobiga ta‘minlanishi mumkin.

Ayni paytda mehnat unumdorligi kapital bilan qurollanganlik darajasining  $k = K/L$  funksiyasi, ya‘ni  $y = f(k)$

Bu yerda  $f(k) = F(k, l)$

Kapital (fond) bilan qurollanganlik darajasining o‘sishi esa jamg‘arish normasiga bog‘liq.



#### 4.2-chizma. Bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish(Y) va talab (c+i).

Modelda yalpi talab investitsion va iste‘mol xarajatlari bilan belgilanadi deb olinadi.

$$Y = C + I$$

Davlat xarajatlari va sof eksport ko‘rsatkichlari ham iste‘mol va investitsiyalar tarkibiga kiritib yuboriladi.

Daromad, shakllangan jamg‘arish normasiga ko‘ra, iste‘mol va jamg‘arishga bo‘linishini hisobga olib, iste‘mol funksiyasini quyidagi ko‘rinishda yozishimiz mumkin:

$$S=(1-s)Y$$

Bu yerda  $s$ -jamg'arish normasi.

Bundan  $Y = C + I = (1-s)Y + I$ , o'z navbatida  $I = sY$  kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, muvozanat holatida investitsiyalar jamg'armalarga teng va daromadga proporsionaldir.

Talab va taklifning tengligi shartini quyidagicha yozish mumkin:

$f(k) = C + I$     $f(k) = I/s$    Ishlab chiqarish funksiyasi tovarlar bozorida taklifni, kapital jamg'arish esa ishlab chiqarilgan mahsulotga talabni belgilaydi.

Ishlab chiqarish hajmi dinamikasi kapital (kapital bilan qurollanganlik) hajmiga bog'liq. Kapital hajmi esa uning chiqib ketishi va investitsiyalar ta'sirida o'zgaradi.

Investitsiyalar kapital zaxirasini orttiradi, chiqib ketish (amortizatsiya) esa uni kamaytiradi.

Investitsiyalar fond bilan qurollanganlik va jamg'arish normasiga bog'liq. Bu iqtisodiyotda talab va taklif tengligi shartidan kelib chiqadi:  $I = sf(k)$ . Jamg'arish normasi ( $s$ )  $k$  ning har qanday miqdorida mahsulotning investitsiya va iste'molga bo'linishini belgilaydi:

$$Y = f(k), \quad I = sf(k), \quad S = (1-s)f(k)$$

### 4.3. Iqtisodiy o'sishga texnologiyalar va inson kapitalining ta'siri

Iqtisodiy o'sishning investitsiyalar va bandlar sonining oshishidan keyingi uchinchi manbasi bo'lib, texnik taraqqiyot hisoblanadi. Neoklassik nazariyada texnik (texnologik) taraqqiyot deganda ishlab chiqarishning mashinalashtirilishi emas, balki ishlab chiqarishdagi sifat o'zgarishlari (ishchilarning ma'lumot darajalari va malakalarining o'sishi, ishlab chiqarishni tashkil qilishning yaxshilanishi, ishlab chiqarish ko'lamining kengayishi) tushuniladi.

Modelga texnik taraqqiyotning kiritilishi ishlab chiqarish funksiyasini o'zgartirib, u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:


$$Y = f(K, L \times E)$$

Bu yerda  $(E)$  - mehnat birligi samaradorligi (ishchi kuchining salomatligi, ma'lumoti va malakasiga bog'liq):

$(L \times E)$  - doimiy samaradorlik  $E$  ga ega shartli mehnat birliklari soni.

E qanchalik katta bo'lsa, mavjud ishchilar soni bilan shuncha ko'p mahsulot ishlab chiqarilishi mumkin.

Texnik taraqqiyot mehnat samaradorligi(E) ning doimiy surat (g) bilan o'sishga olib keladi. Shuning uchun  $g = 2\%$  bo'lganda, mehnatning har bir birligidan qaytim yiliga 2% ga oshadi, bu esa ishlab chiqarish hajmining ishchi kuchi yiliga 2% o'sgandagi kabi o'sishiga 16



**4.3-chizma. Felsning “oltin qoidasi” bo'yicha iste'molning barqaror darajasi.**

“Oltin qoida” darajasiga mos keladigan kapital bilan qurollanganlik holatida  $f(k^*)$  ishlab chiqarish funksiyasi va  $dk^*$  chizig'i bir xil og'maga ega va iste'mol maksimal darajaga erishadi.

$k^{**}$  kapital bilan qurollanganlik darajasida kapital zaxirasining bir birlikka oshishi ishlab chiqarish o'sishini keltirib chiqaradi (kapitalning chegaraviy mahsulotiga teng keladigan) va kapitalning d kattalikka chiqib ketishini oshiradi. Shunday qilib, “Oltin qoida”ga mos keladigan  $k^{**}$  kapital bilan qurollanganlik darajasida  $MPK=d$  shart bajariladi. Aholi o'sishi va texnik taraqqiyotni hisobga olgan holda esa  $MPK=d+n+g$  shart bajariladi.

Agar iqtisodiyot “Oltin qoida” bo'yicha ega bo'lishi mumkin bo'lgan kapital zaxirasidan ortiqcha kapital zaxirasi bilan rivojlanayotgan bo'lsa, unda bu holatda jamg'arma me'yorini pasaytirishga yo'naltirilgan siyosatni amalga oshirish zarur. Jamg'arma me'yoring kamayishi iste'molning oshishi va unga muvofiq ravishda



investitsiyalarning pasayishiga olib keladi, demak kapital zaxirasining barqaror darajasining pasayishiga ham olib keladi.

Agar iqtisodiyot barqarorlik holatida “Oltin qoida” dagidan kam kapital bilan qurollanganlik bilan rivojlanayotgan bo‘lsa, unda jamg‘arma me‘yorini oshirish zarur. Bu investitsiyalarni oshirib iste‘molni pasaytiradi, lekin kapitalning jamg‘arilib borishi bo‘yicha qandaydir vaqtdan boshlab yana o‘sa boshlaydi. Natijada iqtisodiyot yana yangi muvozanat holatiga erishadi, ammo oltin qoidaga muvofiq bo‘lgan holda, bunda iste‘mol dastlabkiga nisbatan yuqoriroq darajaga ega bo‘ladi.

R.Solou modeli texnik taraqqiyotni farovonlikni barqaror oshiruvchi va o‘shishning optimal variantini topishga imkon yaratuvchi yagona asos sifatida ko‘rsatadi. Biroq u texnik taraqqiyotni tashqi (ekzogen) omil sifatida ko‘rib chiqadi, demakki uni tushuntirmaydi. Ayrim olimlarning fikricha, texnik taraqqiyotning determinantlari bugungi kunda yetarlicha aniq emas. Biroq davlat siyosati turli xil instrumentlardan, shu jumladan, ilmiy tadqiqot va loyiha – konstruktorlik ishlaridan foydalanib texnik taraqqiyotni rag‘batlantirishi mumkin. Masalan, patent qonunchiligini mukammallashtirib, ayrim rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Yaponiya, Germaniya) uzoq muddat davomida yangi mahsulotni ishlab chiqarish huquqiga monopoliyani berishdi. Soliq to‘g‘risidagi qonunlar ko‘pgina mamlakatlarda ilmiy tadqiqot tashkilotlariga bir qancha imtiyozlar beradi. Maxsus tashkil etilgan milliy ilmiy fondlar fundamental ilmiy tadqiqotlarga subsidiyalar beradi. Hozirgi kunda mablag‘larni inson kapitaliga yo‘naltirish ham muhim masalalardan biri bo‘lib kelmoqda, texnik taraqqiyotida u asosiy rolni o‘ynaydi.

#### **4.4. Bozorning nomukammalligi, daromadlarning oshishi va qashshoqlik tuzoqlari**

Bozor mexanizmi jamiyat uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy ne‘matlarni yaratib bera olmaydi, resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlay olmaydi. Bu holatni biz bozorning nomukammalligi deb ataymiz. Bozorning nomukammalligi iqtisodiy adabiyotlarda bozorning uzilishi, bozorning ojizligi va bozorning layoqatsizligi tushunchalari bilan bir xil mazmunda keladi.

Bozor mexanizmining resurslarni qayta taqsimlashdagi layoqatsizligi ikki holatda ko‘rinadi, ya’ni raqobatli bozor tizimi: 1) ma’lum tovarlar va xizmatlarning kam miqdorini ishlab chiqaradi; 2) ishlab chiqarishi o‘zini oqlagan ayrim tovarlar va xizmatlarga resurslarning har qanday turini ajratish holatida bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bozor iqtisodiyotining ham o‘ziga xos kamchilik va ziddiyatlari mavjud. Bozor iqtisodiyotining asosiy ziddiyati shundan iboratki, u o‘zining bosh nazorat mexanizmi – raqobatning kuchsizlanishiga yo‘l qo‘yadi va hatto buni rag‘batlantiradi. Bunday iqtisodiyotda raqobat kuchsizlanishining ikkita asosiy manbai mavjud:

1) bozor iqtisodiyoti sharoitidagi erkin muhitda tadbirkorlar foyda ketidan quvib va o‘z iqtisodiy mavqelarini yaxshilashga intilib, raqobatning cheklangan yo‘ldan ozod bo‘lishga harakat qiladilar. Firmalarning qo‘shilib ketishi, kompaniyalarning xufyona kelishuvi, raqobatlashuvning noqonuniy usullari (masalan, jismoniy kuch ishlatish, zo‘ravonlik, tazyiq o‘tkazish va h.k.)ni qo‘llash – bularning barchasi raqobatning kuchsizlanishi va uning tartibga soluvchilik ta’sirining pasayishiga olib keladi;

2) bozor tizimi rag‘batlantiradigan texnika taraqqiyoti ham raqobatning zaiflashishiga olib keladi. Eng yangi texnologiya, odatda: a) juda katta miqdordagi real kapitaldan foydalanishni; b) yirik bozorlar bo‘lishini; v) kompleksli, markazlashgan va qat’ian bir butun bo‘lib birlashgan bozorning tarkib topishini; g) boy va ishonchli xomashyo manbalarini talab qiladi. Bunday texnologiya bozorning hajmiga nisbatan keng miqyosdagi hisoblanuvchi ishlab chiqaruvchilar mavjud bo‘lishi zarurligini bildiradi. Boshqacha aytganda, eng yangi texnologiyani qo‘llash asosida ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligiga erishish, aksariyat hollarda ko‘p miqdordagi mayda firmalar emas, uncha ko‘p bo‘lmagan yirik ishlab chiqaruvchilar mavjud bo‘lishini taqozo qiladi.

Bozor tizimi jamiyatning yuqori ehtiyojli tovarlar bilan ta’minlanishiga ham kafolat bermaydi. Raqobatning kuchsizlanib borishi iste’molchining erkinligiga ham putur yetkazadi. Bozor tizimi o‘zining iste’molchining xohishiga ancha mos keluvchi resurslarni taqsimlash layoqatini ham yo‘qotib borishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotning navbatdagi ziddiyati jamiyat a'zolari daromadlaridagi tengsizlikning kuchayib borishi va aholining tabaqalanishi bilan bog'liq. Bunday iqtisodiyot har qanday yuksak darajada rivojlanmasin daromadlar tengsizligini bartaraf qila olmaydi, faqat uni ma'lum darajada yumshatish mumkin.

Bozor iqtisodiyotining umumiy e'tirof qilingan kamchiliklaridan yana biri shundan iboratki, u ijtimoiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarib, bozorga taklif qilishga qodir emas. Shu sababli jamiyat a'zolarini bunday ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlash davlat zimmasida bo'ladi.

Tovarlar hajmi bilan pul massasi o'rtasidagi ro'y berib turadigan nomuvofiqlikni bartaraf eta olmaslik ham bozor iqtisodiyotining ziddiyati hisoblanadi. Bu pulning qadrsizlanishi, ya'ni inflyatsiya jarayoni orqali namoyon bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy ziddiyatlari bilan bir qatorda quyidagi **kamchilik yoki salbiy jihatlari** ham mavjud:

- atrof-muhitni ishlab chiqarish va boshqa faoliyat turlari ta'siridan muhofaza qilish mexanizmining mavjud emasligi;

- resurslarning qayta tiklanmaydigan turlarini saqlash imkoniyatining yo'qligi;

- mehnat qilish bilan bog'liq kafolatlarning mavjud emasligi;

- fanda fundamental va amaliy tadqiqotlarning rivojlanishiga ko'maklashuvning yo'qligi;

- rivojlanishning beqarorligi hamda ijtimoiy ishlab chiqarishning pasayish holatlarining mavjudligi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bozor uzilishi(ojizligi)ni ko'rsatuvchi bir qator vaziyatlar mavjud va bu vaziyatlar samarasiz vaziyat hisoblanadi: monopoliya, asimmetrik axborot, tashqi samara va ijtimoiy ne'mat.

Ushbu vaziyatlarda bozorga davlatning aralashuvi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Bu muammolarni davlat monopoliyaga qarshi siyosat yuritish, ijtimoiy sug'urtalash, salbiy tashqi samaraga ega bo'lgan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishni cheklash va ijobiy tashqi samaraga ega bo'lgan ishlab chiqarish va iste'molni rag'batlantirish orqali yechishga harakat qilib kelmoqda.

Iqtisodiyotda monopoliyaning ijobiy tomoni bilan birga uning salbiy tomoni ham mavjud bo‘ladi va buni biz quyidagi holatlarda ko‘rsatishimiz mumkin:

**1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi.** Bu holat monopoliyalarning yuqori foyda ketidan quvib, sun‘iy ravishda ishlab chiqarishni cheklash vositasida narxlarni ko‘tarishi, mahsulotlarning u qadar yaxshi bo‘lmagan turlarini, past texnikaviy darajasini, past sifati hamda sotishning yomon sharoitlarini vujudga keltirishi orqali namoyon bo‘ladi. Natijada, raqobat sharoitida amal qiluvchi iqtisodiyot samaradorligini bozor vositasida tartibga solish mexanizmi ishdan chiqadi.

**2) daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi.** Bu holat ham narxlarning monopol tarzda oshirilishi (pasaytirilishi) hamda yuqori foyda olinishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu aholi qolgan qismi daromadlarining nisbatan kamayishiga olib keladi;

**3) iqtisodiy turg‘unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi.** Bunday holatning vujudga kelishi monopolistlarning raqobatchilar bosimini sezmasliklari hamda aksariyat hollarda yuqori foydani qo‘shimcha urinishlarsiz o‘zlarining bozordagi hukmronliklari hisobiga olishlari mumkin. Bu esa ularni ishlab chiqarishni ratsionallashtirish, uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini qidirish, mahsulot sifatini oshirish, uning assortimentini kengaytirish, FTTni rivojlantirish va xaridorlar manfaatlari to‘g‘risida qayg‘urish kabi xatti-harakatlardan qaytaradi;

Shunga ko‘ra, bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish choratadbirlari qo‘llanilib, bu **monopoliyaga qarshi siyosat** deb ataladi. Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati asosini **monopoliyaga qarshi qonunchilik** tashkil etib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan bo‘ladi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

**Iqtisodiy rivojlanish** – ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotida o‘z ifodasini topadi.

**Iqtisodiy o‘sish** – YaIM, SMM, MD miqdorining mutlaq hajmi va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko‘payishida va sifatining yaxshilanishida ifodalanadi.

**Iqtisodiy o‘shish mezon** – iqtisodiy o‘shishni nisbatan to‘liq darajada baholash imkonini beradigan ko‘rsatkichni xarakterlaydi.

**Iqtisodiy o‘shishning ko‘rsatkichlari** – iqtisodiy o‘shishni aniqlashda foydalaniladigan qiymat, ijtimoiy naflilik va natural (jismoniy) ko‘rsatkichlar tizimidan iborat.

**Ekstensiv iqtisodiy o‘shish** – ishlab chiqarishga qo‘shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishi.

**Intensiv iqtisodiy o‘shish** – ishlab chiqarish omillarini rivojlantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko‘payib borishi.

**Iqtisodiy o‘shish omillari** – iqtisodiy o‘shishga ta‘sir ko‘rsatishda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va uni aniqlab beruvchi talab, taklif va taqsimlash omillarini bildiradi.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Iqtisodiy o‘shishning neoklassik modellari neokeynscha modellar-dan qaysi jihatlariga ko‘ra farq qiladi?

2. R. Solouning iqtisodiy o‘shish modeli qanday nazariy asoslarga ega?

3. Barqaror dinamik muvozanat deganda iqtisodiyotning qanday holati tushuniladi?

4. R. Solouning iqtisodiy o‘shish modelida jamg‘arish normasining iqtisodiy o‘shishga ta‘siri qanday izohlangan?

5. Kapitalning chiqib ketishini iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini tushuntirib bering?

6. Aholi sonining o‘shishi kapital bilan qurollanganlik darajasiga va ishlab chiqarish hajmiga qay yo‘sinda ta‘sir ko‘rsatadi?

7. R. Solou modelida ifodalangan texnik taraqqiyotning mohiyatini izohlab bering.

8. Felpsning “oltin qoidasi” mohiyatini tushuntirib bering.

9. J. Mid o‘z modelida mehnat unumdorligi va kapital jamg‘arishining o‘shish sur‘atlari o‘rtasidagi bog‘liqlik qanday ifodalangan?

10. A. Lyuis modeliga ko‘ra, iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash shartlari nimalardan iborat?

## **5-BOB. QASHSHOQLIK, TENGSIZLIK VA ZAIFLIK**

### **REJA:**

**5.1. Qashshoqlik, tengsizlik, nochorlikning iqtisodiy o‘shishga ta’siri.**

**5.2. Qadriyatlar, e’tiqodlar va rivojlanish maqsadlari.**

**5.3. O‘shish, tengsizlik va qashshoqlikni bog‘laydigan matematik munosabatlar.**

**5.4. O‘shish, tengsizlik va qashshoqlik ijtimoiy-iqtisodiy tizimning qo‘shma natijalari sifatida**

### **5.1. Qashshoqlik, tengsizlik, nochorlikning iqtisodiy o‘shishga ta’siri**

Aholi daromadlari o‘rtasidagi tengsizlikning vujudga kelishiga iqtisodiy tizim ham ta’sir ko‘rsatadi. Bozor iqtisodiyoti iqtisodiy tizimlar ichida eng samaralisi, mukammali sifatida tan olinsa ham, biroq uning bir qator ziddiyatli va kamchilik tomonlari bor. Bozor iqtisodiyotining eng katta ziddiyatli tomonlaridan biri jamiyat a’zolari daromadlaridagi tengsizlikning kuchayib borishi va aholining tabaqalanishi hisoblanadi.

Bunday iqtisodiyot har qanday yuksak darajada rivojlanmasin daromadlar tengsizligini bartaraf qila olmaydi, faqat uni ma’lum darajada yumshatish mumkin.

Demak, bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar taqsimlanishi o‘rtasidagi tengsizlikning vujudga kelishi obyektiv holat hisoblanadi. Daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar ham mavjud bo‘ladi. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar SH.SHodmonov, Y. G‘ofurovlar tomonidan chop etilgan “Iqtisodiyot nazariyasi” darsligida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar sifatida quyidagilar ajratilib ko‘rsatiladi:

– kishilarning umumiy (jismoniy, aqliy va estetik) layoqatidagi farqlar;

– ta’lim darajasi va malakaviy tayyorgarlik darajasidagi farqlar;

– tadbirkorlik mahorati va tahlikaga tayyorgarlik darajasidagi farqlar;

– ishlab chiqaruvchilarning bozorda narxlarni o‘rnatishga layoqatliligi (bozordagi hukmronlik darajasidan kelib chiqib) darajasidagi farqlar<sup>26</sup>.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromad olish cheklanmagan. Demak, kishilarning jismoniy, aqliy va estetik layoqati yuqori bo‘lsa, ta‘lim darajasi va malakaviy tayyorgarlik, tadbirkorlik mahorati va tahlikaga tayyorgarlik darajalari yuqori bo‘lsa, uning daromadi shunchalik darajada yuqori bo‘ladi. Matematik til bilan aytganda ularning daromadi plyus cheksizlikka ( $+\infty$ ) qarab intiladi. Aksincha, kishilarning jismoniy, aqliy va estetik layoqati past bo‘lsa, ta‘lim darajasi va malakaviy tayyorgarlik, tadbirkorlik mahorati va tahlikaga tayyorgarlik darajalari past bo‘lsa, ularning daromadi shunchalik darajada past bo‘ladi. Matematik til bilan aytganda ularning daromadi minus cheksizlikka ( $-\infty$ ) qarab intiladi. Qo‘pol qilib aytganda, kimningdir hisobiga kimdir boy yoki qashshoq (kambag‘al) bo‘ladi.


Bunday sharoitda davlatning daromadlarni qayta taqsimlash vazifasi daromadlar tengsizligidagi farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a‘zolari uchun ancha qulay moddiy hayot sharoitini ta‘minlashga qaratiladi.

Daromadlar tabaqalanishini aniqlashning ko‘proq qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlaridan biri ditsel koeffitsiyenti hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich 10 foiz eng yuqori ta‘minlangan aholi o‘rtacha daromadlari va 10 foiz eng kam ta‘minlanganlar o‘rtacha daromadi o‘rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Masalan, AQSH va Buyuk Britaniyada bu nisbat 13:1ga, Shvetsiyada esa 5,5:1ga teng.

O‘zbekistonda 2000-2020-yillarda detsil koeffitsiyentining 21,1 barobardan 6,9 barobargacha, kvintil koeffitsiyentining esa 9,9 barobardan 4,5 barobargacha kamayish tendensiyasini keltirish mumkin (5.1-rasm).

---

<sup>26</sup> Shodmonov Sh.Sh., G‘ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – 728 bet.



**5.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida detsil va kvintil koeffitsiyentining o‘zgarishi, barobar**


Mutaxassislar fikricha, detsil koeffitsiyenti 5-7 barobar atrofida bo‘lishi eng maqbul holatdir. Masalan, Germaniya, Fransiya, Avstriya kabi rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich 5-7 barobar, AQSHda – 15, Braziliyada – 39 barobarni tashkil etadi.

Yalpi daromadning aholi guruhlarida o‘rtasida taqsimlanishini tavsiflash uchun aholi daromadlari tengsizligi Djini indeksi ko‘rsatkichi qo‘llaniladi. Uning aniqlanish sohasi 0 bilan 1 oralig‘ini ( $0 < Djini\ indeksi < 1$ ) tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich qanchalik katta bo‘lsa, ya‘ni 1,0 ga intilsa, tengsizlik shuncha kuchli bo‘ladi. Aksincha, 0 ga intilsa, jamiyat a‘zolari daromadlari tenglashib boradi. Masalan, keyingi yarim asr davomida Djini indeksi Buyuk Britaniyada 0,39 dan 0,35 ga qadar, AQSHda esa 0,38 dan 0,34 ga qadar pasaygan.

Mamlakatimizda yaqin yillargacha bo‘lgan davrda iqtisodiy atamashunoslikda “kambag‘allik” degan tushuncha qo‘llanilmas edi. Xuddi, O‘zbekistonda umuman kambag‘al aholi yo‘qday. Uning o‘rniga uzoq yillardan beri “kam ta‘minlanganlik” degan tushuncha qo‘llanilib kelindi. Mamlakatimizda amalga oshiralayotgan samarali ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida kam ta‘minlangan aholi ulushi yildan yilga kamayib bormoqda. Xususan, uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma‘lumotlariga asosan 2001-yilda O‘zbekistonda jami



aholi tarkibida kam ta'minlanganlarning ulushi 27,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda 11,0 foizni tashkil etdi. Ya'ni, 2,5 barobarga kamaygan (5.2-rasm).



**5.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida kam ta‘minlangan aholi ulushi, foiz**

5.2-rasmda keltirilgan raqamlarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Jahon banki tavsiyasiga ko‘ra kam ta‘minlanganlik darajasi ko‘rsatkichi kunlik 2100 kkaldan kelib chiqib hisoblagan.

Avvalo, iqtisodiy kategoriya sifatida “qashshoqlik”, “kambag‘allik” va “kam ta‘minlanganlik” degan tushunchalarning farqiga borish kerak. Bizningcha, “qashshoqlik” va “kambag‘allik” tushunchalari bir xil mazmuni ifodalaydi.

**Qashshoqlik (kambag‘allik)** – bu hayot uchun muhim bo‘lgan, eng zarur minimal ehtiyojlarni qondira olmaydigan, ishga layoqatli bo‘lib, o‘z naslini davom ettirishi mumkin bo‘lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhni iqtisodiy holatining o‘ziga xos xususiyatidir.

Qashshoqlik ma‘lum bir jamiyatdagi umumiy hayot standartlariga bog‘liq. Ma‘lum bo‘lgan qashshoqlik me‘yorlarining asosini, pul ta‘minoti ko‘rsatkichlarini umumlashtiruvchi, masalan, eng minimal

darajada imkoniyati bo'ladigan oilaviy daromad yoki iste'mol xarajatlarining minimal miqdori kabi ko'rinishda bo'ladi.

Xuddi marksistlarniki kabi, g'arb liberal nazariyasida ham, qashshoqlik, shaxs yoki uning oilasi asosiy hayotiy ehtiyojlarni qondirish uchun vositalar bo'lmagandagi xolatni anglatadi.

Turli mamlakatlarda va turli xil tarixiy davrlarda, bu ehtiyojlar turli yo'llar bilan baholanadi.

**Mutlaq qashshoqlik**, aholining turli guruhleri daromadlarining ma'lum bir minimal qiymatga yetib bormaganligi bilan izohlanadi, endi u rasmiy ravishda eng kam ish haqi hisoblanadi.

**Nisbatan qashshoqlik** yoki sovet terminologiyasida, ishchilarning nisbiy qashshoqligi – bu shaxsning yoki oilaning daromadi ma'lum bir mamlakatning o'rtacha daromadidan yoki xarajatlaridan pastroq bo'lishi tushuniladi. Ya'ni, odamlar ocharchilikda qolmaydilar, ammo «o'rtacha pastda» yashaydilar, o'zlarini ko'p narsadan mahrumday his qiladilar.

**Qashshoqlik darajasi** – bu, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan, xayot kechirish uchun daromadi past bo'lgan, odamlar sonining butun aholiga nisbatidir.

**Qashshoqlikning tubi** – bu, kabag'al oilalarning hayot kechirish uchun eng kam daromaddan ham pastga tushib ketish darajasidir.

**Faqirlikning chegarasi** – kambag'allik chegarasining 50% dan, ya'ni iste'mol minimumidan oshmaydigan jonboshi daromadi<sup>27</sup>.

## 5.2. Qadriyatlar, e'tiqodlar va rivojlanish maqsadlari

Kambag'allik chegarasi nima va u qanday aniqlanadi, degan savol tug'iladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining kambag'allik chegarasini asosiy tovar va xizmatlar (oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turar-joy haqini to'lash, suv bilan ta'minlash, elektr energiyasi, maktab ta'limi, tibbiy xizmat) uchun zarur bo'lgan daromadlar sifatida belgilaydi. Kambag'allik darajasi nisbiy tushuncha sanaladi va muayyan mamlakatdagi umumiy farovonlik darajasiga bog'liq. Kambag'allik mutlaq va nisbiy kabi turlarga bo'linadi. Mutlaq

---

<sup>27</sup> <https://tarjumon.uz/5637>

kambag'allikda kun kechiruvchi odamlar biologik tirik qolishni ta'minlaydigan minimal ehtiyojlarnigina qondirishlari mumkin.

Hukumat mahalliy organlari aholining kam ta'minlangan qatlamlarini, ijtimoiy himoya sohasidagi vazifalarni aniqlash maqsadida kambag'allik chegarasini belgilaydi. Bunda turli mezonlardan foydalaniladi, boy mamlakatlarda qashshoqlik chegarasi, kambag'al mamlakatlarga qaraganda yuqoriroq.

Hozirgi kunda Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 736 million kishi o'ta kambag'allik sharoitida kun kechirmoqda.

1990 – yilda Jahon banki ekspertlari kambag'al davlatlarda qo'llanadigan standartlardan foydalanib, dunyodagi kambag'al aholi sonini o'lchashni taklif qilishgandi. 15 ta davlatdagi kambag'allikning milliy darajasini o'rganib, xarid qobiliyati asosida valyuta kurslarini qo'llagan holda (xarid qobiliyati butun dunyodagi ana shu narxlar asosida hisoblanadi) qayta hisoblashdi. Tovar va xizmatlar to'plami narxini barcha mamlakatlarda to'g'ri taqqoslash uchun ana shunday qilingan.

Natijada ekspertlar o'rganilayotgan qashshoq mamlakatlarning oltitasida kambag'allik darajasi kuniga bir kishi uchun 1 dollarga yaqin ko'rsatkichni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich ilk xalqaro qashshoqlik chegarasi sifatida qabul qilinadi.

Dunyo mamlakatlaridagi hayot qiymatidagi tafovutlar ortib borgani sababli Jahon banki global kambag'allik ko'rsatkichini vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqish zaruriyatiga duch keldi. 2005 – yilda bank dunyoning eng qashshoq mamlakatlarida qabul qilingan kambag'allik darajasi asosida ana shu ko'rsatkichni qayta hisobladi. Natijada global qashshoqlik chegarasi 1,25 dollargacha ko'tarildi. 2015 – yilda chegara qayta ko'rib chiqildi va 1,9 dollargacha ortdi.

Bundan tashqari, Jahon bankida o'rtadan past, o'rta va yuqori– 3,2 dollar, 5,5 dollar va 21,7 dollar daromadlarga ega mamlakatlar uchun kambag'allikning yuqori darajalari qabul qilingan. Bank mutaxassislari bu ko'rsatkichlar pul mezonlariga asoslangani va ular ta'lim olish, sog'liqni saqlash xizmatlari va suv hamda elektr energiyasi bilan ta'minlanganlik kabi jihatlarni hisobga olmasligini ta'kidlashadi.

1990 – yildan boshlab har yili Jahon bankining “Kambag'allik va yalpi farovonlik” ma'ruzalari e'lon qilinadi. So'nggi ma'ruza 2018–yilning oktyabr oyida chiqarilgan. Undagi asosiy ko'rsatkich

qashshoqlikning xalqaro chegarasi bir kishi uchun kuniga 1,9 dollar miqdorida ekanidir. Biroq qashshoqlik bo'yicha yangi ta'rif va o'lchamlar kiritilmoqda. Jumladan, ijtimoiy kambag'allik. Bu ko'rsatkich mutlaq va nisbiy kambag'allik konsepsiyasini birlashtiradi.

Bundan tashqari, kambag'allik daromadlar darajasi bo'yicha kommunal xizmatlar (suv, elektr energiyasi), sog'liqni saqlash yoki ta'lim olish imkoniyatini aks ettirmagani uchun ko'p o'lchamli kambag'allik ko'rsatkichi kiritildi. Ana shu tushunchaga mos ravishda global darajadagi kambag'allar ulushi monyetar kambag'allik bilan taqqoslaganda taxminan 50 foizga yuqoriroq.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 736 million kishi (aholining 10 foizi) o'ta qashshoqlik sharoitida (kuniga 1,9 dollardan kam kirimga ega), dunyo aholisining deyarli yarmi – 3,4 mlrd kishi – kuniga 5,5 dollardan kam tushumga ega. Qashshoqlik darajasi eng yuqori qit'a Afrika, sayyoradagi eng qashshoq mamlakatlar – Kongo demokratik respublikasi (o'ta qashshoqlik darajasi – 77,1 foiz) va Madagaskar (77,6 foiz)<sup>28</sup>.


### **5.3. O'sish, tengsizlik va qashshoqlikni bog'laydigan matematik munosabatlar**

Dunyodagi barcha mamlakatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar darajasi bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Bu turli mamlakatlar aholisining daromadlari darajasi o'rtasida tengsizlik mavjudligini bildiradi. Shu bilan birga alohida olingan mamlakatlar aholisining turli qatlam va guruhleri o'rtacha daromadlari darajasida ham farq mavjud bo'ladi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi darajasi ham daromadlaridagi farqlarni bartaraf eta olmaydi.

O'z-o'zidan aniqki, iqtisodiy o'sish daromadlarning ko'payishiga olib keladi. Bunda butun aholi daromadlari mutlaq miqdorda asta-sekin o'sib boradi. Daromadlarning mutlaq miqdori ko'payib borsa-da, har doim ham daromadlar tengsizligi darajasiga ta'sir ko'rsatmasligi mumkin. Daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy aniqlash uchun jahon amaliyotida **Lorens egri chizig'idan** foydalaniladi (5.1-chizma).

---

<sup>28</sup> <https://tass.ru/info/7525997>



### 5.1-chizma. Lorens egri chizig‘i

Chizmaning yotiq chizig‘ida aholi guruhlarining foizdagi ulushi, tik chizig‘ida esa, bu guruhlar tomonidan olinadigan daromadning foizdagi ulushi joylashtirilgan. Nazariy jihatdan daromadlarning **mutlaq teng taqsimlanishi imkoniyati** (burchakni teng ikkiga bo‘luvchi) OE chiziqda ifodalangan bo‘lib, u oilalarning har qanday tegishli foizi daromadlarning mos keluvchi foizini olishini ko‘rsatadi. Ya’ni aholining 20 foizi barcha daromadlarning 20 foizini, aholining 40 foizi daromadlarning 40 foizini, aholining 60 foizi daromadlarning 60 foizini olishini bildiradi va h.k. Demak, OE chizig‘i daromadlarning taqsimlanishidagi mutlaq tenglikni ifodalaydi. Shuningdek, nazariy jihatdan **mutlaq tengsizlikni** ham ajratib ko‘rsatish mumkin. Bunda aholining ma’lum guruhleri (20 foiz, 40 yoki 60 foiz va h.k.) hech qanday daromadga ega bo‘lmay, faqat bir foizi barcha 100 foiz daromadga ega bo‘ladi. Chizmadagi OFE siniq chizig‘i mutlaq tengsizlikni ifodalaydi.

Real hayotda mutlaq tenglik va mutlaq tengsizlik holatlari mavjud bo‘lmaydi. Balki aholining ma’lum guruhleri o‘rtasida daromadlarning taqsimlanishi notekis ravishda boradi. Bunday taqsimlanishini Lorens egri chizig‘i deb nomlanuvchi OE egri chizig‘i orqali kuzatish mumkin. Aholi guruhleri ulushi va daromad ulushini birlashtiruvchi egri chiziqdan ko‘rinadiki, aholining dastlabki 20 foiziga daromadlarning juda oz (taxminan 3-4 foizgacha) qismi to‘g‘ri keladi. Keyingi guruhlarga to‘g‘ri keluvchi daromad ulushi ortib boradi. Daromadning eng katta qismi (deyarli 60 foiz) aholining so‘nggi 20 foiziga to‘g‘ri keladi. Bu guruh chegarasi

ichida ham daromadlar notekis taqsimlangan, ya'ni dastlabki 10 foiz taxminan 20 foiz daromadga ega bo'lsa, keyingi 10 foizga daromadning deyarli 40 foizi to'g'ri keladi va h.k.

Mutlaq tenglikni ifodalovchi chiziq va Lorens egri chizig'i o'rtasidagi tafovut daromadlar tengsizligi darajasini aks ettiradi. Bu farq qanchalik katta bo'lsa, ya'ni Lorens egri chizig'i OE chizig'idan qanchalik uzoqda joylashsa, daromadlar tengsizligi darajasi ham shunchalik katta bo'ladi. Agar daromadlarning haqiqiy taqsimlanishi mutlaq teng bo'lsa, bunda Lorens egri chizig'i va bissektrisa o'qi bir-biriga mos kelib, farq yo'qoladi.

Daromadlar tabaqalanishini aniqlashning ko'proq qo'llaniladigan ko'rsatkichlaridan biri **ditsel koeffitsiyenti** hisoblanadi. Bu ko'rsatkich 10 foiz eng yuqori ta'minlangan aholi o'rtacha daromadlari va 10 foiz eng kam ta'minlanganlar o'rtacha daromadi o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Masalan, AQSH va Buyuk Britaniyada bu nisbat 13:1ga, Shvetsiyada esa 5,5:1ga teng.

Yalpi daromadning aholi guruhlari o'rtasida taqsimlanishini tavsiflash uchun **aholi daromadlari tengsizligi indeksi (Jini koeffitsiyenti)** ko'rsatkichi qo'llaniladi. Jini koeffitsiyenti chizmadagi Lorens egri chizig'i bilan mutlaq tenglik chizig'i o'rtasidagi yuzaning OFE uchburchak yuzasiga nisbati orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkich qanchalik katta bo'lsa, (ya'ni 1,0 ga yaqinlashsa) tengsizlik shuncha kuchli bo'ladi. Jamiyat a'zolari daromadlari tenglashib borganda bu ko'rsatkich 0 (nol)ga intiladi. Masalan, keyingi yarim asr davomida Jini indeksi Buyuk Britaniyada 0,39 dan 0,35 ga qadar, AQSHda esa 0,38 dan 0,34 ga qadar pasaygan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiy beqarorlik tufayli qarab chiqilgan bu ko'rsatkich o'sish tamoyiliga ega bo'ladi. Umumiy daromadning tabaqalanishi alohida tarmoqlar va faoliyat sohalarida ish haqi darajasidagi farqlarning ortishi bilan birga boradi. Milliy iqtisodiyotda o'rtacha ish haqining tarmoqlar, korxonalar va ishlovchilar toifalari bo'yicha yuqori tengsizligi tarkib topadi. Daromadlar tengsizligida katta farqlar mavjud bo'lishining asosiy sababi bozor tizimiga asoslangan iqtisodiyotning o'z xususiyatlaridan kelib chiqadi. Respublikamizda ham bozor iqtisodiyotiga o'tish daromadlar tengsizligi muammosini keskinlashtiradi. Bu yerda asosiy rolni mol-mulk (uy-joy, ko'chmas mulk, aksiya va boshqalar)ga ega

bo‘lish omili o‘ynay boshlaydi. Daromadlarning tabaqalanish jarayoni yetarli darajada tez boradi, minimal darajadan bir necha o‘n baravar yuqori daromadga ega bo‘lgan ijtimoiy qatlam shakllanadi. Daromadlarning tabaqalanishi mulkiy tabaqalanishni keltirib chiqaradi. Vaqt o‘tishi bilan oilalarning o‘z mol-mulkini meros qilib qoldirishi natijasida daromadlar tabaqalanishining kuchayishi ro‘y beradi. Har xil oilalar uchun turlicha iste‘mol muhiti yaratiladi. Ijtimoiy tenglik va daromadlar taqsimotida adolatni ta‘minlashda muhim muammolar vujudga keladi.

Kambag‘allikning asosiy ko‘rsatkichlari Jeyms Foster (James Foster), Joel Grier (Joel Greer) va Erik Torbeke (Erik Thorbecke) lar tomonidan taklif etilgan formula bo‘yicha aniqlanadi.

$$P_a = \frac{1}{H} \sum_{h=1}^q \left( \frac{Z_h - Y_h}{Y_h} \right)^a$$

Bu yerda:

$P_a$  – umumiy kambag‘allik darajasi (ko‘rsatkichi);

$a$  – qaysi kambag‘allik ko‘rsatkichi to‘g‘risida gap borayotganligini ko‘rsatuvchi parametrlar;

$Z_h$  – alohida uy xo‘jaligining  $h$  tarkibiga bog‘liq bo‘lgan kambag‘allik darajasi;

$Y_h$  – alohida olingan  $h$  uy xo‘jaliklarining daromadlilik darajasi;

$q$  – kambag‘al uy xo‘jaliklari soni;

$H$  – umumiy uy xo‘jaliklari soni.

Foster – Grier – Torbekelarning formulasi asosida kambag‘allikning asosiy ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

- Kambag‘allik koeffitsiyenti va kambag‘allik darajasi ( $a = 0$ );
- Kambag‘allik chuqurligi indeksi ( $a = 1$ );
- Kambag‘allik jiddiy (o‘tkir)ligi indeksi ( $a = 2$ ).

**Kambag‘allik koeffitsiyenti** (kambag‘al uy xo‘jaliklari sonining umumiy uy xo‘jaliklari sonidagi ulushi).

$$P_0 = \frac{1}{H} \sum_{h=1}^q \left( \frac{Z_h - Y_h}{Y_h} \right)^0$$

Kambag'allik koeffitsiyenti faqat kambag'allikning tarqalish darajasini tavsiflaydi va kambag'al uy xo'jaliklarining daromadi kambag'allik chegarasidan pastligini aniqlashga imkon bermaydi.

**Kambag'allik chuqurligi indeksi:**

$$P_1 = \frac{1}{H} \sum_{h=1}^q \left( \frac{Z_h - Y_h}{Y_h} \right)^1$$

Kambag'allik chuqurligi indeksi kam ta'minlangan uy xo'jaliklari daromadlarining kam ta'minlanganlik chegarasiga nisbatan qanchalik pastligini aniqlash imkonini beradi.

**Kambag'allik jiddiy (o'tkir)ligi indeksi:**

$$P_2 = \frac{1}{H} \sum_{h=1}^q \left( \frac{Z_h - Y_h}{Y_h} \right)^2$$

Hind iqtisodchisi, 1998 – yilgi iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati Amartiya Kumar Sen uchta omilni o'zida mujassam etgan kambag'allikning sintetik ko'rsatkichi bo'lgan indeksni taklif qildi. Bu omillar sifatida kambag'allikning tarqalishi, kambag'al odamlarning moddiy yetishmovchiligi va ularning daromadlar bo'yicha tabaqalanish darajasi olinadi. U quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$S = L \left( N + \frac{d}{P} G_p \right)$$

Bu yerda:

$S$  – Sen indeksi;

$L$  – kambag'al aholi ulushi;

$N$  – o'rtacha daromad tanqisligi (defitsit)ning kambag'allik chegarasiga nisbati;

$d$  – kambag'al uy xo'jaliklarining o'rtacha daromadlari;

$P$  – kambag'allik chegarasi;

$G_p$  – kambag'al uy xo'jaliklari uchun Jini koeffitsiyenti (indeksi).



Kambag‘allik chegarasi deganda daromadning shunday darajasi tushuniladiki, undan pastda odam oxirigacha hamma narsadan mahrum bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, uning daromadi yashash darajasidan ortmaydi.

#### **5.4. O‘shish, tengsizlik va qashshoqlik ijtimoiy-iqtisodiy tizimning qo‘shma natijalari sifatida**

Rossiyalik iqtisodchi olimlar Natalya Evgenevna Tixonova va Mixail Konstantinovich Gorshkovlar Rossiyada aholining kambag‘allik sabablari bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan (5.1-jadval).

#### **5.1-jadval.**

#### **Rossiyaliklarning kambag‘allik sabablari anglash (tushunish) dinamikasi, %<sup>29</sup>**

<b>Kambag‘allik sabablari</b>	<b>2003</b>	<b>2013</b>	<b>2015</b>
<b>Alkogolizm, giyohvandlik</b>	35	39	39
<b>Kasallik, nogironlik</b>	37	40	35
<b>Uzoq muddatli ishsizlik</b>	41	41	31
<b>Dangasalik, yashashga qodir emaslik</b>	22	23	31
<b>Oiladagi muammolar, baxtsizliklar</b>	25	31	29
<b>Ijtimoiy ta‘minot bo‘yicha davlat imtiyoz (posobiya)larining yetishmasligi</b>	38	32	25
<b>Ish haqini to‘lamaslik, pensiyaning kechiktirilishi</b>	47	19	24
<b>Kam (yomon) ma‘lumot, past malaka</b>	23	21	19
<b>Odatiy turmush tarzini o‘zgartirishni xohlamaslik</b>	19	18	18
<b>Qarindoshlar, do‘stlar, tanishlarning yordami (qo‘llab-quvvatlash) yo‘qligi</b>	20	20	15
<b>Ular ota-onalarining turmush darajasining pastligi</b>	20	19	13
<b>Kambag‘al hududda yashash</b>	17	17	12
<b>Ko‘p sonli qaramlikning mavjudligi</b>	17	17	10
<b>Omadsizlik</b>	14	13	10
<b>Migrantlar va qochqinlarni ayblash</b>	5	4	5

<sup>29</sup> Тихонова Н.Е., Горшкова М.К. Бедность и бедные в современной России. — Весь Мир, 2014. — 304 с.

Rossiyada kambag'allikka olib keluvchi eng asosiy sabablardan bir alkogolizm va giyohvandlik hisoblanadi. Bu eng salbiy holat sifatida qaraladi.

Undan keyingi o'rinlarda kasallik va nogironlik, uzoq muddatli ishsizlik turibdi. Bu endi ko'proq obyektiv omillar bilan bog'liq.

Eng yomoni dangasalik, yashashga qodir emaslik omili hisoblanadi. Eng achinarlisi jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratar ekanmiz, bu ko'rsatkich yildan yilga ortib bormoqda. Sharqda bir dono gap bor: "Kambag'allikka yalqovlik qo'shilsa, buning davosi yo'qdir". Shu sababli kambag'allarni yalqovlikdan forig' etish talab qilinadi. Muhimi, kambag'allarga ishlab pul topib, to'q yashashga sharoit va imkoniyat yaratish kerak"<sup>30</sup>.

24/7 Wall St. ekspertlari Jahon bankining yalpi milliy daromad (GNI) bo'yicha mamlakatlar reytingi asosida dunyodagi eng boy va qashshoq mamlakatlar reytingini aniqlagan (5.2-jadval).

## 5.2-jadval.

### Dunyodagi eng kambag'al 25 ta mamlakat<sup>31</sup>

O'rne	Mamlakatlar	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi milliy daromad (MD) (2014), \$	YaIM, mlrd.\$/	Aholi soni, kishi	Kutilayotgan umr, yil
1.	Markaziy Afrika Respublikasi	600	1,8	4 804 316	50,1
2.	Kongo demokratik Respublikasi	650	33,0	74 877 030	49,9
3.	Liberiya	700	2,0	4 396 554	60,5
4.	Burundi	770	3,1	10 816 860	54,1
5.	Malavi	790	4,3	16 695 253	55,2

<sup>30</sup> <https://review.uz/oz/post/> - R.R. Xasanov. O'zbekistonda kambag'allik va uni qisqartirish yo'llari.

<sup>31</sup> <https://wfin.kz/novosti/ekonomika/item/30202-internet-sayti-ma-lumotlari-asosida-mualliflar-tomonidan-ishlab-chiqilgan>.

## 5.2-jadval davomi

6.	Niger	920	8,2	19 113 728	58,4
7.	Gvineya	1120	6,6	12 275 527	56,1
8.	Mozambik	1140	16,4	27 216 276	50,2
9.	Togo	1290	4,5	7 115 163	56,5
10.	Gvineya-Bissau	1380	1,0	1 800 513	54,3
11.	Madagaskar	1400	10,6	23 571 713	64,7
12.	Efiopiya	1490	54,8	96 958 732	63,6
13.	Komor orollari	1490	0,6	769 991	60,9
14.	Eritreya	1520	3,9	5 110 444	62,8
15.	Mali	1530	12,1	17 086 022	55,0
16.	Gambiya	1560	0,8	1 928 201	58,8
17.	Zimbabve	1630	13,7	15 245 855	59,8
18.	Ruanda	1630	7,9	11 341 544	64,0
19.	Burkina-Faso	1650	12,5	17 589 198	56,3
20.	Gaiti	1730	8,7	10 572 029	63,1
21.	Uganda	1740	26,3	37 782 971	59,2
22.	Serra-Leone	1800	4,9	6 315 627	45,6
23.	Benin	1850	8,7	10 598 482	59,3
24.	Afg'oniston	1960	20,8	31 627 506	60,9
25.	Janubiy Sudan	2000	13,1	11 911 184	55,2

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, dunyodagi eng kambag'al mamlakat Markaziy Afrika Respublikasi hisoblanadi. Bu yerda 2014 – yil ma'lumotlari bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi milliy daromad (MD) 600 \$ ni tashkil etadi. Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi esa 50,1 yilni tashkil etadi. Bu juda achinarli holat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020 – yilning 27 – fevral kuni tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev mamlakatdagi real kambag'allik holatiga baho berib, *“Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy*

*savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg‘otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o‘qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to‘lash tizimini joriy qilish kerak*”<sup>32</sup>, deb ta’kidlab o‘tdilar.

Davlat rahbarining qayd etishicha, odamlarga pul emas, ish berish kerak. 30 yil davomida ularga pul berish bilan hech narsa o‘zgarmagan. Kambag‘allar uyida yotmasligi kerak. *”Ularni ham o‘rgatish kerak. Har bir O‘zbekiston fuqarosi yashashga, dunyodagi bo‘layotgan globallashuv, o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishi kerak. Kambag‘allarning ham dunyoqarashini o‘zgartirish kerak. Uyida yotish tizimi tugadi endi. Inontirish kerak, ishontirish kerak, hayrixoh qilish kerak. Unda ham ertangi kunga umid uyg‘otish kerak. Endi pul emas, ish berishimiz kerak. Imkon yaratishimiz, o‘qitishimiz kerak. Pul berish bilan hech narsa o‘zgarmadi 30 yilda. Endi manzilli ishga o‘tamiz. Har bir xonadonga asalarichilik, quyonchilik, chorvachilik, uzumchilik, limonchilik, tadbirkorlik, uddaburonlik, hunarmandchilik – hammasini o‘rgatamiz. O‘rgatmasak, bo‘lmaydi. Pul berib, tashlab ketish bilan natija bo‘lmadi. Mana shunday muhit yaratsak, o‘shanda o‘zgarish bo‘ladi”*.

*“Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, 12-15 foiz yoki 4-5 million aholimiz kambag‘al. Bu ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so‘mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo‘lishi mumkin, lekin bir kishi og‘ir kasal bo‘lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolashga ketadi. Xo‘sh bunday oilani o‘ziga to‘q deyish mumkinmi? Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o‘qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bo‘layapti, degan savol har kuni qiynaydi,”*<sup>33</sup> – deb ta’kidlaydi Shavkat Mirziyoyev.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish borasidagi ishlarni samarali amalga oshirish maqsadida Prezidentning 2020 – yil 18–fevraldagi Farmoni hamda Faroriga muvofiq, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Mahalla – tuman (shahar) –

---

<sup>32</sup> <https://www.pv.uz/uz/news/tadbirkorlikni-rivozhlantirish-va-kasbga-tajerlash-orali-kambagallikni-kamajtirish-choralari-belgilandi>

<sup>33</sup> <https://sputniknews-uz.com/society/20200227/13557112/Mirzиеv-kambaallikni-isartirish-masalasida-videoselektor-tkazdi.html>

viloyat – respublika darajasida tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allikni kamaytirishga mas’ul lavozimlar joriy qilinib, vertikal tizim yaratildi.

Bosh vazirning moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi hamda hukumatda alohida kotibiyat tashkil etildi.

O‘zbekiston Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi sifatida qayta tashkil etildi.

Vazirlikning axborot xizmati xabar berishicha, ushbu qaror liberalizatsiya va bozor sharoitida iqtisodiyotni maqsadli boshqarishning shaffof mexanizmlarini yaratish zaruriyati tug‘ilganligi sababli qabul qilingan.

Bundan tashqari, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo‘yicha tizimni ishlab chiqish, barcha idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish talab etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 26 – martdagi PQ-4653-son qaroriga, asosan, “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi to‘g‘risida” NIZOM ishlab chiqildi. Unda, asosan, yangi tashkil etilgan vazirlikning kambag‘allikni qisqartirish borasidagi vazifalari quyidagilar etib belgilandi:

- iqtisodiy o‘shishning inklyuzivligini tahlil qilish va ta’minlash, davlat boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va muvofiqlashtirish;

- kambag‘allikni qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorij tajribasini inobatga olgan holda kambag‘allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyotini, ijtimoiy ta’minotning minimal standartlari me’yoriy asoslarini ishlab chiqish;

- milliy barqaror rivojlanishning maqsad va vazifalariga erishish chora-tadbirlarini amalga oshirish, yashash minimumi va minimal iste’mol savatchasini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish hamda aholi daromadlari tabaqalashuvini o‘rganish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish hamda ularning davlat maqsadli dasturlari bilan o‘zaro muvofiqligini ta’minlash;

– O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda mehnat bozori va uning tarkibini sifat jihatdan rivojlantirish, ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarini tahlil qilish, takomillashtirish hamda mehnat resurslarini taqsimlash borasida o‘zaro muvofiqlikdagi ishlarni olib borish;

– O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Madaniyat vazirligi bilan birgalikda inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Hozirgi kunda koronavirus pandemiyasi keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy inqiroz davrida kambag‘allik darajasi yanada ortib ketishi mumkin. Bu haqda Jahon bankining rahbari Devid Malpass ma’lum qildi. Uning so‘zlariga ko‘ra, “bu yil jahon iqtisodiyotini “chuqur retsessiya” kutmoqda.

Dunyodagi 60 millionga yaqin odam koronavirus pandemiyasi tufayli o‘ta kambag‘allashadi. Jahon bankining ta’rifiga ko‘ra, kunlik daromadi 1,9 dollar va undan past bo‘lgan odamlar “o‘ta kambag‘allik” holatida”<sup>34</sup>.

Malpassning tushuntirishicha, “iqtisodiyotni rivojlantirish uchun tibbiy favqulodda vaziyatlarga qanday munosabatda bo‘lishni tezda o‘rganish kerak. Bundan tashqari, hukumat kambag‘allar va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashi zarur”<sup>35</sup>.

Uning qo‘shimcha qilishicha, “bank 15 oy ichida eng himoyasiz mamlakatlarga subsidiya va boshqa iqtisodiy yordam shaklida 160 milliard dollar ajratishni va’da qilmoqda. Hozirga qadar mablag‘lar dunyo aholisining 70 foizi joylashgan 100 ta mamlakat o‘rtasida taqsimlangan. 100 ta mamlakatdan 39 tasi Afrika mamlakatlariga to‘g‘ri keladi”<sup>36</sup>.

Yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalarga asoslanib, mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha tavsiyaviy xarakterdagi quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqdik.

– kambag‘allikni darajasini aniqlash uchun milliy daromadning aholi jon boshiga ulushi, aholi daromadlari va xarajatlari kabi bir

<sup>34</sup> <https://www.kommersant.ru/doc/4349503>

<sup>35</sup> <https://www.kommersant.ru/doc/4349503>

<sup>36</sup> <https://www.kommersant.ru/doc/4349503>

qator ko'rsatkichlardan tashqari, aholining uy-joy va boshqa moddiy boyliklar bilan ta'minlanganlik darajasi, yashash qiymati, natural daromadlar, davlat tomonidan ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlashga qatilgan chora-tadbirlar bilan bog'liq boshqa ko'rsatkichlarni ham kiritish kerak. Buning uchun milliy xususiyatlarni hisobga olgan kambag'allik darajasini aniqlashning metodologiyasini ishlab chiqish yoki takomillashtirish zarur;

- kambag'alikka olib keluvchi alkogolizm, giyohvandlik, qimorbozlik, odam savdosiga qarshi keskin kurashish;

- aholining sog'ligi jamiyat boyligi hisoblanadi. Shuning uchun aholiga sifatli va arzon tibbiy xizmatlarni ko'rsatish, nogironligi bor insonlarga ularga mos ish topishga ko'maklashish, imtiyozlar berish;

- aholini ijtimoiy muhofaza qilish aholida boqimandalik, dangasalik hissini uyg'otishi kerak emas. Shuning uchun ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholini manzilli ravishda qo'llab-quvvatlash;

- kishilardagi dangasalik, yalqovlik xususiyatini kamaytirish, ularni o'z qiziqishlari bo'yicha mehnat qilib daromad topishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- aholining ma'lumotlilik (ayniqsa, oliy ma'lumotlilik) darajasini oshirish, kasbiy-malaka darajasini oshirish bo'yicha masofaviy (online) ta'limni rivojlantirish;

- aholining tadbirkorlik qobiliyatini oshirish, yo'qolib ketgan mulkdorlik hissini qayta uyg'otish, maqsadli yo'nalishlarda ularga imtiyozli kreditlar va soliq bo'yicha imtiyozlar berish;

- aholining mavjud imkoniyatlaridan (deylik qishloq joylarida tomorqa yerlaridan) samarali foydalanmasligi uchun javobgarlikni kuchaytirish;

- aholi sonining keskin darajada oshib ketishini oldini olish;

- aholi o'rtasida an'anaga aylangan o'zbekchilikka xos bo'lgan dabdabali to'ylar, tarbirlar uchun xarajatlarni qisqartirish va buning uchun javobgarlikni oshirish;

- aholini tadbirkorlikka qiziqtirish, o'qitish, ularni tadbirkorlik sohasidagi bilimlarini oshirish maqsadida televidenie orqali o'z sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan yetakchi tadbirkorlar orqali master-klasslar va suhbatlar tashkil etish, tadbirkorlikni talqin etuvchi filmlarni ko'proq namoyish etish va boshqalar.

## Asosiy tayanch tushunchalar

**Qashshoqlik (kambag'allik)** – bu hayot uchun muhim bo'lgan, eng zarur minimal ehtiyojlarni qondira olmaydigan, ishga layoqatli bo'lib, o'z naslini davom ettirishi mumkin bo'lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhni iqtisodiy holatining o'ziga xos xususiyatidir.

**Mutlaq qashshoqlik**, aholining turli guruhlari daromadlarining ma'lum bir minimal qiymatga yetib bormaganligi bilan izohlanadi, endi u rasmiy ravishda eng kam ish haqi hisoblanadi.

**Nisbatan qashshoqlik** yoki sovet terminologiyasida, ishchilarning nisbiy qashshoqligi – bu shaxsning yoki oilaning daromadi ma'lum bir mamlakatning o'rtacha daromadidan yoki xarajatlaridan pastroq bo'lishi tushuniladi. Ya'ni, odamlar ocharchilikda qolmaydilar, ammo «o'rtacha pastda» yashaydilar, o'zlarini ko'p narsadan mahrumday his qiladilar.

**Qashshoqlik darajasi** – bu, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan, hayot kechirish uchun daromadi past bo'lgan, odamlar sonining butun aholiga nisbatidir.

**Qashshoqlikning tubi** – bu, kabag'al oilalarning hayot kechirish uchun eng kam daromaddan ham pastga tushib ketish darajasidir.

**Faqirlikning chegarasi** – kambag'allik chegarasining 50% dan, ya'ni iste'mol minimumidan oshmaydigan jonboshi daromadi<sup>37</sup>.

**Aholi daromadlari** – aholining ma'lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori.

**Nominal daromad** – aholi tomonidan pul shaklida olingan daromadlari summasi.

**Ixtiyorida bo'lgan daromad** – barcha soliqlar to'langandan keyin, qolgan daromad, ya'ni shaxsiy iste'mol va jamg'arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan daromad.

**Real daromad** – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib aholi ixtiyoridagi daromadning zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni sotib olishga yetadigan quvvati, ya'ni aholi daromadining xarid quvvati.

**Lorens egri chizig'i** – daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy jihatdan ifodalovchi geometrik egri chiziq.

---

<sup>37</sup> <https://tarjumon.uz/5637>



**Ijtimoiy to'lovlar** – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan turli xil to'lovlar.

**Ijtimoiy siyosat** – davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni, iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Davlatning aholi daromadlarini shakllantirish siyosati deganda nimani tushunasiz? Ijtimoiy adolatni ta'minlashda bu siyosatning roli qanday?

2. Aholi daromadlari tushunchasini va uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab ko'rsating.

3. Turmush darajasi va uning tushunchasiga izoh bering. Turmush darajasini qanday ko'rsatkichlar tavsiflab beradi?

4. Daromadlar tengsizligining asosiy sabablarini sanab ko'rsating va tushuntirib bering.

5. Lorens egri chizig'i nimani anglatadi? Uning mazmunini misollar yordamida bayon qiling.

6. Jini koeffitsiyenti qanday aniqlanadi? Rivojlangan mamlakatlarda mazkur koeffitsiyent qiymatining o'zgarish tendensiyalari nima bilan izohlanadi?

7. O'zbekistonda davlat yordam dasturlari tizimini isloh qilish va uni hozirgi davrdagi asosiy yo'nalishlarini izohlang.

8. Mamlakatimizda «Ijtimoiy himoya yili» davlat dasturi doirasida qanday ishlar amalga oshirildi?

9. Keyingi yillarda O'zbekistonda aholi daromadlarini oshirish borasida qanday natijalar qo'lga kiritilmoqda?

10. Mamlakatimizdagi aholi daromadlari tarkibining o'zgarishida qanday tendensiyalar kuzatilmoqda?

## **6-BOB. ISTE'MOL, VAQTNI TAQSIMLASH VA ISHLAB CHIQRISHNI TANLASH**

**6.1. Tanlash, rivojlantirish va rivojlanish iqtisodiyoti.**

**6.2. Oziq-ovqat bilan ta'minlash siyosatining iste'mol qilishga ta'siri.**

**6.3. Ish bilan ta'minlash, bolalar mehnatidan foydalanish motivatsiyasi.**

**6.4. Asosiy ishlab chiqaruvchilar nazariyasi: maksimal foyda, Yashil inqilobning qishloq mehnatiga ta'siri.**

### **6.1. Tanlash, rivojlantirish va rivojlanish iqtisodiyoti**

Ba'zi tovarlarning narxi tushganda ba'zi tovarlarning narxi ko'tarilishiga nima sabab bo'ladi? Narxlarni aniqlash biz ushbu kitobda o'rganadigan narsalardan biridir. Biz iqtisodiyotning ozmi-ko'pmi tez o'sishiga olib keladigan omillarni, ishsizlik darajasini aniqlashni va hattoki hukumatlar tomonidan qarzning o'tmishi bilan duch kelgan ikkilanishga olib kelishi mumkin bo'lgan tanlovlarni ko'rib chiqamiz.

Ushbu muammolarni tekshirish, albatta, iqtisodiyot sohasiga tegishli bo'lsa-da, iqtisodiyot ancha keng doiradagi masalalarni qamrab oladi. Oxir-oqibat, iqtisod bu tanlovni o'rganadi. Tanlovlar insoniyat tajribasining har qanday tasavvur qilinadigan jihatlaridan kelib chiqqanligi sababli, iqtisodiyot ham o'zgaradi. Iqtisodchilar oilaviy hayot, san'at, ta'lim, jinoyatchilik, sport va huquqning mohiyatini o'rganishdi - bu ro'yxat deyarli cheksizdir, chunki bizning hayotimizning aksariyati tanlov qilishni o'z ichiga oladi.

Siz duch keladigan ba'zi tanlovlarni ko'rib chiqing. Yaxshi baho olishni xohlaysizmi? Dam olish uchun ko'proq vaqt bormi? Film tomosha qilishga ko'proq vaqt kerakmi? Yaxshi o'qish uchun ko'proq vaqt kerak bo'ladi, ehtimol kamroq dam olish va ko'ngil ochish kerak. Biz nafaqat shaxs sifatida, balki jamiyat sifatida ham tanlov qilishimiz kerak. Biz toza muhitni xohlaymizmi? Iqtisodiy o'sish tezroqmi? Ikkalasi ham ma'qul bo'lishi mumkin, ammo atrof-muhitni tozalash bo'yicha harakatlar tezroq iqtisodiy o'sishga zid bo'lishi mumkin. Jamiyat tanlov qilishi kerak.

Iqtisodiyot iqtisodchilar tekshiradigan subyektlar tomonidan kamroq aniqlanadi, bu ularni iqtisodchilar tomonidan tekshirilish uslubiga qaraganda kamroq. Iqtisodchilarning dunyoga qarash uslubi bor, ular boshqa fanlarning olimlarining dunyoga qarashlaridan farq qiladi. Bu iqtisodiy fikrlash uslubi va ushbu bob shu fikrlash uslubini taqdim etadi.

Iqtisodiyot - bu odamlar o'zlari uchun mavjud bo'lgan muqobil variantlarni qanday tanlashini tekshiradigan ijtimoiy fan. Bu ijtimoiy, chunki u odamlar va ularning xatti-harakatlarini o'z ichiga oladi. Bu ilm, chunki u iloji boricha tanlovni tekshirishda ilmiy yondashuvdan foydalanadi.

Barcha tanlovlar shuni anglatadiki, bitta alternativ boshqasiga tanlangan. Muqobil variantlardan birini tanlash iqtisodiyot uchun markaziy uchta g'oyani o'z ichiga oladi: kamlik, tanlov va imkoniyat narxi.

Bizning resurslarimiz cheklangan. Hozir bizda shunchaki yer, shuncha zavod, shuncha neft, shuncha odam bor. Ammo ushbu resurslar orqali ishlab chiqarishimiz mumkin bo'lgan narsalarga istaklarimiz cheksizdir. Biz har doim tobora yaxshilanadigan uy-joy, ko'proq va yaxshiroq ta'lim olishni istaymiz. Agar bizning resurslarimiz ham cheklanmagan bo'lsa, biz har bir istagimizga "ha" deyishimiz mumkin edi va iqtisod bo'lmadi. Bizning resurslarimiz cheklanganligi sababli, biz hamma narsaga ha deya olmaymiz. Bir narsaga "ha" deyish, boshqasiga "yo'q" deyishimizni talab qiladi. Biz xohlaymizmi yoki yo'qmi, biz tanlov qilishimiz kerak.

Bizning cheksiz istaklarimiz doimo bizning resurslarimiz chegaralari bilan to'qnashib, bizni ba'zi harakatlarni tanlashga va boshqalarini rad etishga majbur qiladi. Kamlik - muqobil variantlardan birini tanlash sharti. Kam miqdordagi tovar bu tovarning muqobil ravishda ishlatilishini tanlash boshqasidan voz kechishni talab qiladigan narsadir.

Yer uchastkasini ko'rib chiqing. Uydagi hamma qavatlar bizga bir nechta muqobil foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi. Uning ustiga uy qurishimiz mumkin edi. Unga yonilg'i quyish shoxobchasini qo'yishimiz mumkin edi. Unda kichik park yaratishimiz mumkin. Qanday qilib undan foydalanish to'g'risida qaror qabul qilish uchun biz yerni o'zlashtirilmagan holda qoldirishimiz mumkin edi.

Aytaylik, biz yerni uy-joy qurish uchun foydalanishga qaror qildik. Bu katta va qimmatbaho uymi yoki bir nechta oddiy uylarmi? Deylik, bu katta va qimmatbaho uy bo'lishi kerak. Uyda kim yashashi kerak? Agar Lilar unda yashasa, Nguyenlar bunga qodir emaslar. Yerdan foydalanishning ma'nosi bo'yicha ham, undan kim foydalanishi ma'nosida ham muqobil foydalanish mavjud. Yerning kamligi, jamiyat undan foydalanishda tanlov qilishi kerakligini anglatadi.

Deyarli hamma narsa kam. Biz nafas olayotgan havoni ko'rib chiqing, u biz uchun juda ko'p miqdorda bepul. Ehtimol, bu kam bo'lishi mumkinmi?

Havoning kamligi yoki yo'qligi sinovi uning alternativ foydalanish imkoniyatlariga ega ekanligi. Havodan qanday foydalanishimiz mumkin? Biz nafas olamiz. Biz avtoulavlarimizni haydashda, uylarni isitishda yoki fabrikalarimizda ishlayotganimizda uni ifloslantiramiz. Aslida, havodan bir marta foydalanish axlatxonaga o'xshaydi. Biz, albatta, nafas olishimiz uchun havoga muhtojmiz. Ammo, albatta, biz unga axlat tashlashni tanlaymiz. Ushbu ikkita foydalanish bir-biriga aniq alternativadir. Biz havoga qancha ko'p axlat tashlasak, shuncha kamroq nafas olishimiz kerak bo'ladi. Agar biz toza havodan nafas olishni xohlasak, ifloslanishni keltirib chiqaradigan faoliyatni cheklashimiz kerak. Havo kamdan-kam foydali, chunki u muqobil foydalanishga ega.

Biroq, barcha tovarlar bizni bunday tanlovga duch kelmaydi. Bepul tovar bu bitta foydalanishni tanlash ikkinchisidan voz kechishimizni talab qilmaydigan narsadir. Erkin tovarning bir misoli bu tortishishdir. Gravitatsiya sizni yerga tutib turishi, qo'shningiz kosmosga uchishga majbur bo'lganligini anglatmaydi! Bir kishining tortishish kuchini ishlatishi, boshqa odamning ishlatilishiga muqobil emas.

Bepul tovarlar ko'p emas. Masalan, tashqi makon bepul mol edi, agar biz undan foydalangan bo'lsak, unga qarash edi. Ammo endi bizning bo'sh joydan foydalanishimiz shu darajaga yetdi, bir foydalanish boshqasiga muqobil bo'lishi mumkin. Aloqa sun'iy yo'ldoshlari uchun orbital uyalarni ajratish bo'yicha ziddiyatlar allaqachon paydo bo'lgan. Shunday qilib, kosmosning hatto qismlari ham kam. Biz undan foydalanishning yangi usullarini topganimiz

sayin bo'shliq shubhasiz qisqaradi. Kamlik deyarli hamma narsani xarakterlaydi. Binobarin, iqtisodiy sohalar haqiqatan ham kengdir.

Kamlik natijasida biz duch keladigan tanlov uchta muammolarni keltirib chiqaradi. Har bir iqtisodiyot quyidagi savollarga javob berishi kerak:

Nima ishlab chiqarish kerak? Bir narsani ishlab chiqarish uchun iqtisodiyotning kam resurslaridan foydalanish boshqasidan voz kechishni talab qiladi. Masalan, yaxshiroq ta'lim ishlab chiqarish uchun sog'liqni saqlash kabi boshqa xizmatlarni qisqartirishni talab qilish mumkin. Cho'l zonasini saqlab qolish to'g'risida qaror qabul qilish uchun yerdan boshqa foydalanishdan voz kechish kerak. Har bir jamiyat kam resurslari bilan nimani ishlab chiqarishi to'g'risida qaror qabul qilishi kerak.

Tovarlar va xizmatlar qanday ishlab chiqarilishi kerak? Tovarlar va xizmatlar qanday ishlab chiqarilishi kerakligini aniqlashda barcha turdagi tanlovlar mavjud. Firma bir nechta malakali yoki ko'plab malakasiz ishchilarni ish bilan ta'minlashi kerakmi? O'z mamlakatida ishlab chiqarishi kerakmi yoki xorijiy o'simliklardan foydalanishi kerakmi? Ishlab chiqaruvchi firmalar o'z mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yangi yoki qayta ishlangan xomashyodan foydalanishi kerakmi?

Tovarlar va xizmatlar kim uchun ishlab chiqarilishi kerak? Agar tovar yoki xizmat ishlab chiqarilgan bo'lsa, uni kim olishi to'g'risida qaror qabul qilinishi kerak. Biror kishiga yoki guruhga tovar yoki xizmatni olish to'g'risidagi qaror, odatda, bu boshqa birovga mavjud bo'lmasligini anglatadi. Masalan, yer yuzidagi eng qashshoq davlatlarning vakillari ko'pincha Qo'shma Shtatlarda bir kishiga energiya iste'moli dunyodagi eng qashshoq mamlakatlarning bir kishiga sarflanadigan energiya sarfidan bir necha baravar ko'p ekanligidan shikoyat qiladilar. Tanqidchilarning ta'kidlashicha, dunyo energiyasi teng ravishda taqsimlanishi kerak. Kerakmi? Bu "kim uchun" degan savol.

Har qanday iqtisodiyot nimani ishlab chiqarish kerakligini, uni qanday ishlab chiqarish kerakligini va kim uchun ishlab chiqarishni belgilashi kerak. Biz ushbu savollarga yana va yana qaytamiz.

Aynan tanqislik sharoitida iqtisodchilar barcha iqtisodiy sohalarda, ehtimol, eng muhim konsepsiya - imkoniyat tannarxi

tushunchasini aniqlaydilar. Imkoniyat narxi – bu, har qanday tanlovni amalga oshirishda unutilgan eng yaxshi alternativning qiymati.

Ushbu bobning qolgan qismini o‘qish uchun sizga sarflanadigan imkoniyat uchun sarflagan vaqtingizni sarflagan eng yaxshi foydalanish qiymati bo‘ladi. Agar siz qozonli o‘simlikka 20 dollar sarflashni tanlasangiz, siz bir vaqtning o‘zida 20 dollarni pitsalar, qog‘ozli kitoblarga yoki kinolarga tushishga sarflashning afzalliklaridan voz kechishni tanladingiz. Agar kitob ushbu muqobil variantlarning eng qadrlisi bo‘lsa, u holda o‘simlikning imkoniyat narxi siz kitobdan boshqacha tarzda kutgan zavqning qiymati hisoblanadi.

Imkoniyat qiymati tushunchasini buyumni sotib olish narxi bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Kollej yoki universitet ta‘limi narxini hisobga oling. Bunga o‘qish, to‘lovlar va kitoblar uchun sarflangan pullardan eng yaxshi alternativ foydalanish qiymati kiradi. Ammo kollejda ta‘lim olishning eng muhim qiymati vaqtni boshqa ishlarda sarflash o‘rniga, o‘qish va sinfga borishga sarf qilingan vaqtni unutilgan muqobil foydalanish qiymati hisoblanadi. Talabalar kelajakda ko‘proq daromad olish umidida yoki o‘rganish imkoniyatiga ahamiyat bergani uchun o‘sha vaqtni qurbon qiladilar. Yoki shifokorga borish narxini ko‘rib chiqing. Ushbu xarajatlarning bir qismi, shifokorga murojaat qilish uchun zarur bo‘lgan pulni eng yaxshi alternativ foydalanish qiymatidir. Ammo xarajat, shuningdek, shifokorni ko‘rish uchun zarur bo‘lgan vaqtni eng yaxshi alternativ ishlatish qiymatini ham o‘z ichiga oladi. Imkoniyat xarajatlari konsepsiyasida ko‘rish uchun zarur bo‘lgan narsa konsepsiya nomidan topilgan. Imkoniyat narxi – bu, ma‘lum bir tanlovda unutilgan eng yaxshi imkoniyatning qiymati. Bu shunchaki bu tanlovga sarflangan mablag‘ emas.

Kamlik, tanlov va imkoniyat narxlari tushunchalari iqtisodiyotning asosidir. Agar bitta alternativni tanlash boshqasidan voz kechishni talab qilsa, yaxshilik kam. Muqobil usullardan foydalanish bizni tanlov qilishga majbur qiladi. Har qanday tanlovning imkoniyat qiymati - uni amalga oshirishda unutilgan eng yaxshi alternativning qiymati.

## **6.2. Oziq-ovqat bilan ta'minlash siyosatining iste'mol qilishga ta'siri**

Oziq-ovqat xavfsizligiga ierarxiya darajalari bo'yicha aniq tarkiblashtirilgan maqsadlarga ega bo'lgan ko'p darajali tizim sifatida qarash zarur.

Mazkur muammoni hal qiluvchi subyektlarga ko'ra global, xududlararo, davlatlararo, davlat, mahalliy, aholi guruhlari va oila (uy xo'jaliklari), ya'ni 7 ta darajalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Oziq-ovqat xavfsizligi muammosini global (jahon) miqyosda xalqaro tashkilotlar va maxsus organlar (FAO, Xalqaro savdo tashkiloti, Oziq-ovqat xavfsizligi qo'mitasi) hal qiladilar. Ularning asosiy vazifasi insoniyat rivojlanishini ta'minlash maqsadida davlatlar iqtisodiyotini barqarorlashtirishga ko'maklashishdir. Mazkur vazifalarni amalga oshirish:

- ishlab chiqarish hajmini oshirib borishga ta'sir ko'rsatuvchi uzoq muddatli dastur va loyihalarni ishlab chiqish va joriy etish;

- zaxiralarni yaratish va noqulay iqtisodiy va ekologik vaziyatlar-da yordam tashkil qilish orqali amalga oshiriladi.

Davlat va davlatlaro darajada oziq-ovqat xavfsizligining asosiy maqsadi iqtisodiyotning barqaror rivojlantirish va oziq-ovqat mahsulotlari bozorlarini muvozanatlashtirishdan iborat. Mintaqaviy darajadagi asosiy maqsad-aholining barcha guruhlari oziq-ovqatlarni o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq iste'mol qilinishini kafolatlaydigan darajadagi daromadlar bilan ta'minlashdir. Aholining ijtimoiy guruhlari (oilalar) darajasida oziq-ovqat mahsulotlarining miqdori, assortimenti, sifati bo'yicha ratsional me'yorlarga muvofiq ovqatlanishini ta'minlash zarur. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning har bir darajasida mazkur jarayonni boshqarish tegishli ma'muriy organlar tomonidan amalga oshirilishi kerak. Ushbu organlarning vazifalari zarur mahsulotlarni samarali ishlab chiqarish uchun; ularga qarashli hududlarda yashovchi aholining tavsiya etilgan miqdorda mahsulotni sotib olish imkonini beradigan daromadga ega bo'lishlari uchun; savdo tarmoqlariga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berilishini ta'minlash uchun; mahsulotlarning sifati va xavfsizligini nazorat qilish uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Davlatlararo darajada oziq-ovqat muammolarini hal qilish boshqa mamlakatlarda

oziq-ovqat taqchilligini bartaraf etishga ko‘maklashishi bilan bog‘liq. Bu uchun mamlakatlar davlatlararo hamkorlikda ishtirok etadilar, xalqaro oziq-ovqat xavfsizligini yaratishga hissa qo‘shadilar. Bunda ular o‘zlarining raqobatbardosh ishlab chiqarishlarini rivojlantirishni va hududlarning hamda barcha ijtimoiy guruhlarning (masalan, MDH) o‘z-o‘zini ta‘minlashlarini rag‘batlantiradi. Oziq-ovqat xavfsizligining har bir darajasi o‘zaro bog‘liq va o‘zaro bir-birini taqozo etuvchi ichki va tashqi omillar ta‘sirida shakllanadi. Ichki oziq-ovqat bozorida talab va taklif muvozanatini ta‘minlash va davlat fondini shakllantirish, iqtisodiy rivojlanishni barqarorlashtirish davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan siyosatida o‘z aksini topadi.

Oziq-ovqat xavfsizligiga erishish quyidagi muhim vazifalarni davlat tomonidan amalga oshirishni taqozo etadi

1. Barqaror iqtisodiy sharoitni yaratish.
2. Samarali agrar siyosatni olib boorish.
3. Barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun teng imkoniyatlarni yaratish.
4. Aholi bandligi sohasida samarali siyosatni olib boorish.
5. Oziq-ovqatga ega bo‘lishda tengsizlik va qashshoqlikni bartaraf etishga yo‘naltirilgan ijtimoiy siyosatni olib boorish.
6. Oziq-ovqat mahsulotlarini turli-tuman, barqaror va intensiv ishlab chiqarishga erishish, uning samaradorligini oshirish.
7. Xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashda ilg‘or texnologiyalarni joriy etishga ko‘maklashish.
8. Hududlarni xomashyo va oziq-ovqat mahsuloti bilan o‘zini ta‘minlash va xalqaro mehnat taqsimoti afzalliklardan samarali foydalangan holda qishloq xo‘jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirishni takomillashtirish.
9. Faol tashqi iqtisodiy siyosatni olib borish, eksport-import faoliyatini optimallashtirish.
10. Agrar sektorni investitsiyalash.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashni aholi oziq-ovqat mahsulotlarini olishidagi tegishli tahlikalarga sabab bo‘luvchi tahdidlarning ta‘siri bilan ham bog‘lash zarur. Tahdidlarni quyidagicha tasniflash mumkin:



- manbalari bo'yicha: ichki manbalar - ASM uchun yoki mamlakat hududida vujudga keladigan tahdidlar; tashqi - ASM dan mamlakatdan tashqarida joylashgan joyi;

- insonning hayot faoliyatiga munosabati bo'yicha: obyektiv-uning faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tahdidlar (tabiiy ofatlar); subyektiv-bevosita insonning hayot faoliyati bilan, mehnat, ishlab chiqarish va boshqarishni nooptimal tashkil etish biln bog'liq tahdidlar;

- bashoratlash imkoniyati bo'yicha: bashorat qilish mumkin bo'lgan va bashorat qilib bo'lmaydigan tahdidlar;

- ro'y berish ehtimoli bo'yicha: real (istalgan vaqtda amalga oshishi mumkin), potensial (ma'lum bir sharoitda yuz berishi mumkin) tahdidlar;

- oqibatlari bo'yicha: barcha uchun umumiy bo'lgan (mamlakatning butun hududida yoki uning ko'pchilik subyektlarida namoyon bo'ladigan) va hududiy (hudud darajasida) hamda lokal (mahalliy miqyosdagi) tahdidlar;

- kutilayotgan zararning miqdori bo'yicha: uncha katta bo'lmagan (ahamiyatsiz darajada), katta (ahamiyatli darajada), qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan va halokatli zararlar;

- namoyon bo'lish sohasi bo'yicha: qishloq xo'jaligi xomashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish; hududlar aholisining oziq-ovqat ta'minoti; oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish uchun iqtisodiy imkoniyatlarning mavjudligi; mamlakatlarda ishlab chiqarilayotgan tovarlarning raqobatbardoshligi (xarajatlar, sifat bo'yicha); faoliyatning yo'nalishi va ta'sir ko'rsatuvchi omillarga bog'liq bo'lgan boshqa turlar.

### **6.3. Ish bilan ta'minlash, bolalar mehnatidan foydalanish motivatsiyasi**

Iqtisodiy o'sish sur'ati, bandlik va mehnat unumdorligi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikka asoslangan holda sanoati rivojlangan mamlakatlarda aholi bandligini rag'batlantirish siyosatida bir qancha modellar mavjud. Jumladan, bandlik va mehnat bozorini tartibga solishning beshta: Amerika modeli(AQSH), Skandinaviya modeli (Shvetsiya, Finlyandiya, Daniya, Norvegiya), anglo-saksoniya modeli

(Buyuk Britaniya, Kanada, Irlandiya), kontinental yoki nemis modeli (Germaniya, Avstriya, Belgiya, Niderlandiya, Shveysariya, qisman Fransiya) va yapon modellarini ajratish mumkin.

1. Amerika modeli asosini ijtimoiy-mehnat munosabatlarining subsidiya ko‘rinishi, xodimning shaxsiy yutuqqa erishishi va o‘zini namoyon qilishi tashkil etadi. Ushbu model mehnat bozori markazlashmaganligi hamda bandlik va ijtimoiy ta‘minotning qonuniyligi; ish beruvchi tomonidan yollanma ishchiga nisbatan nazorat yuqori darajadali; ishchilarning yuqori darajadagi jug‘rofiy va kasbiy mobilligi; nisbatan yuqori darajadagi ishsizlik bilan xarakterlanadi. Kasbiy karyera, eng avvalo, ish joyi o‘zgarishi bilan bog‘liq, shunga mos ravishda ushbu model qolganlariga nisbatan yuqori darajadagi mobilligi bilan farq qiladi. Ish haqi miqdori ish ixtisosligi va murakkabligiga asosan belgilanadi, xizmat pog‘onalarida siljish, odatda, kasbiy-malakaviy profilini kengaytirishga bog‘liq emas. Kasbiy yo‘nalish masalalariga katta e‘tibor qaratiladi. Universitet va kollejlarda kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maxsus markazlar va xususiy agentliklar tashkil etilgan. AQSH mehnat vazirligi qoshida 1200 dan ortiq davlat hisobidan faoliyat yurituvchi kasbga yo‘naltirish va kasb tanlash markazlari ish olib borib, har yili ular orqali 1 milliondan ortiq yoshlar ro‘yxatdan o‘tishadi. Natijada mutaxassis tayyorlash xarajatlari 30-40 %ga kamayadi, kasbiy tanlov testlariga sarflangan bir dollar ming dollarlik iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlaydi [10]. Ma‘lumki, AQSH an‘anaviy ravishda haddan tashqari yuqori darajadagi ishsizlikka ega mamlakat hisoblanadi. Uning darajasiga friksion ishsizlik yaxshigina ta‘sir etmoqda. Buni keng va dinamik mehnat bozorida, ishchilar faol ravishda nafaqat ish joyini, balki ixtisosligini ham o‘zgartirishi bilan tushuntirish mumkin. Masalan, mamlakatda har yil 10 % ishchi o‘z ixtisosligini o‘zgartiradi. Bundan tashqari, ushbu mamlakat ko‘p yillardan beri har yilgi yangi ish joyi yaratish bo‘yicha dunyoda birinchi pog‘onani bermay kelmoqda. Ushbu omillar aholi ishsizlikni xatarli hodisa sifatida emas, balki keng tarqalgan bir holat sifatida qabul qilishiga imkoniyat yaratadi. Modomiki, AQSHda ko‘pincha malakasiz yoki malakasi kam ishchilar ishsizlikka tushishadi, ular uchun yaratiladigan ish joylari ham shunga yarasha past darajadagi sifatga egadir. AQSHning zamonaviy bandlik siyosatidagi asosiy yo‘nalishlarga: ish haqi

darajasini oshirish jihatidan ish joylari sifatini oshirish, kelajakda kasbiy ulg'ayishni ta'minlash, ish joylarini saqlash va ularni ko'paytirishdir. AQSH siyosati, eng avvalo, bandlik o'sishini rag'batlantirish va ish joylarini ko'paytirish, ishchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash, yollanma ishchi kuchiga ko'maklashishga qaratilgan. Yevropa davlatlari va AQSHda aholi bandligi muammosini hal etishga ma'lum bir darajada ko'maklashuvchi mintaqaviy rivojlanish agentliklarini tashkil etish va faoliyat yuritishi bo'yicha yetarlicha tajriba to'plangan. Keng tarqalgan mintaqaviy rivojlanish agentligining shunday shakllaridan biri, bu davlat investitsiya korporatsiyasidir. Uning faoliyati asosiga shaharni rivojlantirishga qaratilgan davlat investitsiyalarini konsentratsiyalash qo'yilgan bo'lib, shahar esa o'z navbatida qolgan periferiyalarga iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2. Skandinaviya yoki shved modeli quyidagi uchta tamoyilga asoslanadi:

- mehnatga layoqatli aholining to'liq bandligini ta'minlashga erishish;

- aholiga ijtimoiy kafolatlarni taqdim etish;

- farovonlikka erishishda teng imkoniyatlarni ta'minlash.

Ma'lumki Shvetsiyada iqtisodiy siyosat kompaniyalar foydasi haddan tashqari ortib ketishini chegaralashga qaratilgan bo'lib, mamlakatda ishsizlar uchun ham, ish bilan band xodimlar uchun ham kasb tayyorgarligi va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi amal qiladi. Bu yo'l bilan ishchi kuchining mintaqaviy va kasbiy harakatchanligi rag'batlantiriladi. Shvetsiyaning bu sohadagi tajribasi noyob ekanligini ta'kidlash kerak. Shvetsiyada mehnat bozorida cheklovchi (fiskal) siyosat, ya'ni ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantirish va selektiv (tanlanma) tarzdagi iqtisodiy yuksalish elementlariga tayanch holda shakllanib bormoqda. Ish bilan to'liq bandlikni yuzaga keltirishning an'anaviy strategiyasi muqarrar ravishda inflyatsiyaning yuqori darajasiga chiqishga va ish haqi borasida siljishlar ro'y berishiga olib kelishi e'tirof etilgan. Shved modeli ishsizlik darajasini minimumga keltirgan davlatning bandlik sohasidagi faol siyosati bilan xarakterlanadi. Mazkur modelning o'ziga xos jihati ishsizlik oqibatlari bilan kurashish emas, balki ishsizlarni ogohlantirishdir. Mamlakat hukumati ijtimoiy siyosatga katta e'tibor qaratadi, jumladan, 70%

mablagʻni, asosan iqtisodiyot davlat sektorida yangi ish oʻrinlarini yaratishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish; aholi migratsiyasi va ishchi kuchini, oilalarga ishchi kuchi zich boʻlgan hududlardan vakant joylar boʻlgan xududlarga koʻchib oʻtishida subsidiya va kreditlar berish yoʻl bilan koordinatsiya qilish; aholining mavjud boʻsh ish joylari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarga tezkor murojaatini taʼminlash; ishsiz qolgan yoki ishidan ajralib qolish xavf solayotgan shaxslarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlashni amalga oshirish kabi tadbirlarga sarflaydi. Toʻliq bandlikka erishish quyidagi ishlarni amalga oshirish orqali amalga oshiriladi.

- cheklovchi fiskal siyosat yurgizish. Bu siyosat ish haqini oshirishda firmalararo inflyatsiya raqobatini kamaytirish uchun kam foydali korxonalarni qoʻllab-quvvatlash va yuqori daromadli firmalar foydasini toʻxtab turishga qaratilgan;

- ish haqining “Hamjihatlik siyosati”. Ushbu siyosat u yoki bu firma moliyaviy imkoniyatidan qatʼi nazar, teng mehnatga teng ish haqi toʻlash maqsadini koʻzda tutadi. Bu esa kam foydali (daromadli) korxonalarining ishchilar sonini qisqartirishga va oʻz faoliyatini toʻxtatish yoki qayta oʻzgartirishiga, yuqori daromadli firmalar - oʻz imkoniyati darajasidan kam boʻlgan ish haqi bilan chegaralanishiga olib keladi;

- zaif raqobat qobiliyatga ega ishchilarni mehnat bozorida qoʻllab-quvvatlash boʻyicha faol siyosat. Buning uchun tadbirkorlar koʻpgina subsidiyalar oladi;

- ish faoliyati natijasi past boʻlgan, ammo ijtimoiy masalalarni hal etishni taʼminlovchi iqtisodiyot sektorlarida bandlikni qoʻllab-quvvatlash. Bandlik sohasidagi siyosatni amalga oshirish bilan bogʻliq tadbirlarga taxminan YaIMning 3% va budjetning 7 % sarf etiladi. Shvetsiyada toʻliq bandlikni taʼminlashdagi yutuqlar aynan shular hisobigadir. Shvetsiya mehnat bozorida bandlik siyosati masalalari sifatida yana quyidagilarni keltirish mumkin:

- ish va kompetensiya strategiyasini ilgari surish;

- mehnat bozorida samaradorlik va egiluvchanlikni taʼminlash;

- maxsus mutaxassisliklar boʻyicha insonlar ishlarida diskriminat siya holatlariga yoʻl qoʻymaslik;

- mehnat bozorida ayol va erkaklar oʻrtasidagi teng huquqlilikka erishish boʻyicha faoliyat. Bular esa ishga joylashtirish dasturini

bajarish, kasbiy rehabilitatsiya, o‘qitish, ya’ni mehnat bozorida bandlik bo‘yicha faol siyosat dasturi hamda bandlik bo‘yicha sug‘urtani nazoratga olish orqali amalga oshiriladi. Ular ichida quyidagi to‘tta dasturni alohida ajratish mumkin:

- ishchi kuchiga talab va aholi bandligini oshirishni rag‘batlantirish;
- ish kuchi taklifiga ta’sir etish;
- nogironlarni qo‘llab-quvvatlash;
- ishsizlikda pul mablag‘lari bilan yordam ko‘rsatish.

Ishchi kuchiga talab va aholi bandligini oshirishni qo‘llab-quvvatlash dasturi maqsadi ko‘ngildagidek bo‘lmagan holatlarda ishchi kuchiga talabni qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. Ular ishsizlarga vaqtinchalik ishga joylashish va katta bo‘lmagan ishlab chiqarish ish staji taklif etadi. Bu esa ularning ochiq mehnat bozorida ish izlashlarini osonlashtiradi yoki biror-bir kasbiy ta’limni tanlashiga asos qo‘yadi. Bunday dasturlar, jumladan, yakka tartibda subsidiyalar berish dasturi, o‘z ishini boshlash uchun subsidiya berish dasturi, 20 yoshdagi yoshlar uchun tuman dasturlari, kompyuter ustaxonalari va markazlarini, katta yoshlilar uchun vaqtinchalik ish joy yaratish dasturlari, resursli ishlar bo‘yicha dasturlar. Shvetsiyada imkoniyati chegaralangan insonlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari keng tarqalgan. Ushbu dasturlarda nogironlar uchun tadbirlar va ish beruvchilarning ishlash qobiliyati chegaralangan insonlar uchun ish joyi sharoitlarini yaratish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplashlari uchun kompensatsiyalar ajratish ko‘zda tutilgan. Shvetsiya qonunchiligida bandlik masalasida ish beruvchilarga qat’i talab belgilangan. Diskriminatsiyani yo‘qotish uchun davlat monitoringi o‘rnatilgan. Finlandiya va Niderlandiyada mehnat sohasida ayollar huquqi buzilishi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Umuman aytganda, skandinaviya mamalakatlarida bandlikning yuqori darajasi va tug‘ilishning normal darajasini birgalikda olib borishga erishilgan. Shvetsiyaning amalda bo‘lgan “Mehnat sohasida erkaklar va ayollarning teng imkoniyatlari to‘g‘risida”gi qonunida (1991– yil) ish beruvchilarning ishchi o‘rinlari erkaklar va ayollar o‘rtasida teng taqsimlanishini ta’minlash majburiyati nazarda tutiladi. Bu esa ishlovchi erkaklar va ayollar nisbati bir xilda bo‘lmagan korxonalarda ish beruvchi mazkur korxonada vakilligi yetarli darajada bo‘lmagan jinsdagi shaxslarni

qo'shimcha ravishda ishga qabul qilishi shart ekanligini ifodalaydi. Ushbu model amalda jami ish kuchi uchun davlat sektorida o'rtacha, qoniqarli ish haqi va mehnat sharoitiga ega ish o'rinlari yaratishga mo'ljallangan. Mazkur siyosatni salbiy jihati uni faqat davlat moliyaviy mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi, ammo mablag'larning esa chegaralanganligi yoki kamayishi ishlab chiqarish pasayishi va ish o'rinlarining keskin qisqarishiga olib keladi.

3. Kontinental yoki Yevropa modeli ham shved modeli kabi, mehnat qilayotgan aholining ish bilan bandlar sonini ish unumdorligi oshishi va daromadi o'sishi vaqtida qisqartirishga asoslangan. Shuning uchun bandlik va ishsizlik masalalariga birinchi navbatda e'tibor berilmoqda. Buning sababi davlatning mehnat bozori ahvoli va ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi sabablar bo'yicha mas'uliyatini anglashi, ayniqsa, mahalliy ishchilar uchun raqobatni yaratadigan ko'plab mehnat muhojirlari mavjudligidir. Fransiyadagi ushbu hodisani tartibga solish, xususan, "Yangi xizmatlar - yangi ish o'rinlari" dasturini amalga oshirishga qaratilgan. Boshqa tadbirlar qatorida davlat yoshlarga yangi ish joylarini yaratish uchun korxonalar xarajatlarining 80 foizigacha qoplanishini ta'minlaydi. Fransiya aholi bandligi siyosatini amalga oshirish tizimi ham diqqatga sazovordir. Ish bilan bandlik masalalari nafaqat davlat va mintaqaviy, balki tarmoq darajada ham ko'rib chiqiladi. Germaniya (yoki neoliberal) ish bilan bandlik modeli faol ish bilan bandlik siyosatiga asoslanadi - davlat yangi ish joylari yaratadigan barcha ishlab chiqaruvchilarni (ish beruvchilarni) rag'batlantiradi, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilishda bandlikning mavjud darajasini saqlab turadi, ishchilarni ommaviy ishdan bo'shatishdan qochgan korxonalariga imtiyozlar beradi. Bunday siyosat oshib borayotgan ishsizlar soni uchun qimmatga tushuvchi nafaqa tizimini yaratishni talab etadi. Ushbu siyosatni salbiy natijasi uzoq, turg'un ishsizlik va ular bilan bog'liq bo'lgan katta ijtimoiy, moliyaviy hamda iqtisodiy xarajatlardir. Germaniyada subsidiyalarning asosiy qismi, ma'lum bilimga ega bo'lgan, lekin biznesni tashkil qilishda ko'nikmaga ega bo'lmagan ishsizlarning bankrot korxonalari asosida tashkil etilgan kooperativlarga yo'naltiriladi. Germaniyadagi aholi bandligini tartibga solish asosining tashkiliy-boshqaruvi bo'yicha ijobiy tajribani qo'llash yangi ish o'rinlari yaratish orqali ishsizlik darajasini qisqartirishga olib

keladi va ikki tomonlama samarani, ham iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi. Birinchidan, yangi raqobatbardosh mahsulotlar yaratiladi, ikkinchidan, postsovet mamlakatlarida ishsizlik va ijtimoiy keskinlik pasayadi.

4. Anglosaksoniya modeli ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishda, asosan, davlatning bandlik siyosatdagi passivligi, xususiyl korxonalar va jamoat tashkilotlari ulushi yuqori ekanligini nazarda tutadi. Davlat miqyosida e'lon qilingan mehnat tartib-qoidalari birinchi marta aynan Buyuk Britaniya tomonidan kiritilganligi sababli, ularning umumiy yo'nalishini tarixiy jihatdan ko'rib chiqaylik. Buyuk Britaniyaning sobiq Bosh vaziri T.Bler hamkasblariga yangi ish o'rinlarini yaratishda statistika yomon yordamchi ekanini ta'kidladi. Uning fikricha, ishga joylashish - bu shaxsiy muammodir, hisob-kitob va raqamlar ma'lum bir ishsiz kishiga hayotda o'z o'rnini topishiga yordam bera olmaydi. XX asr 30-yillari o'rtalarida J.M.Keyns tomonidan Angliya hukumatiga taqdim etgan tavsiyalarni bajarish maqsadida mamlakatda iqtisodiy rivojlanish bo'yicha Milliy Kengash tashkil etildi. Iqtisodiyotni inqirozdan chiqarish uchun Keyns, hukumatning bamisoli qat'i aralashuvi sifatida davlat xarajatlaridan sun'iy ravishda foydalanishni taklif qildi, masalan, yo'llarni qurish, ish o'rinlari yaratish maqsadida (jamoat ishlari) yangi hududlarni o'zlashtirish va hokazo. Milliy Kengashning vazifalaridan yana biri, davlatning asosiy maqsadlarga erishishi ishchi kuchining to'liq bandligini ta'minlash va aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarini ishlab chiqishdan iborat edi. Hozirgi paytda Buyuk Britaniyada ish bilan bandlikning zamonaviy modeli ta'sirchan va samarali hisoblanadi. Unda bir nechta o'zaro bog'liq bloklar mavjud: mehnat bozorida talab va taklifning holati, kasbiy ta'lim va ish bilan ta'minlashning yaxlit tizimi, kadrlar bozorida ayol va yoshlarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha o'quv va qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish, maqsadli jamoat ishlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, ishsizlik sug'urtasi jamg'armalarini rivojlantirish, ijtimoiy ta'minot tizimini rivojlantirish. Buyuk Britaniyada iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha institutsional tizim keng miqyosli yarim hukumat tashkilotlari tarmog'iga ega. Ish bilan bandlik va ishsizlik masalalari hukumatga nisbatan maslahatchi vazifasini bajaruvchi mehnat komissiyasi

tomonidan ko‘rib chiqiladi. Bugungi kunda davlat miqyosida bandlikni tartibga solish Mehnat Departamenti tomonidan amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyaning kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha tajribasi e‘tiborga loyiqdir. Kasb-hunarga oid faoliyatning asosiy muvofiqlashtiruvchi organi 3,6 mingdan ortiq konsultant va ularning yordamchilaridan tashkil topgan, yoshlarni ish bilan ta‘minlash xizmati hisoblanadi. Ushbu sohadagi trening 1949 – yildan buyon Buyuk Britaniyada o‘tkaziladi. Buyuk Britaniyada 2016 – yilning boshida ishsizlik darajasi oxirgi 7 yil davomida eng minimal qiymatga (5,3 %), band bo‘lganlar soni esa rekord qiymat(31,2 mln.kishi)ga ko‘tarilib, mehnat bozoridagi sharoitlar ijobiy tomonga o‘zgarganligini ko‘rsatdi.

5. Yapon modelida mehnat munosabatlari tizimi umrbod yollanish tizimiga asoslanib, xodimlarning korxonada ishlaydigan eng yuqori (55-56) yoshga yetgunlariga qadar ish bilan ta‘minlanishi kafolatlangan. Umrbod yollanishning bunday tizimi ishga yollanuvchilar ish haqi, mukofotlar, rag‘batlantirish hamda ijtimoiy to‘lovlar tarzidagi moddiy taqdirlash miqdorlari o‘sib borishiga qulay asos hisoblanadi. Bu esa xodimlarda mehnatga ijobiy munosabatda bo‘lish va yuqori darajada sifatli mehnatga intilishni tarbiyalashga qaratilgan siyosatni barqarorligini ta‘minlashga asoslanadi. So‘nggi yillarda Yaponiyada ishsizlik darajasi 3-3,5 foizni tashkil etmoqda. Yaponiyada xodimlardan uzoq vaqt davomida foydalanishni ko‘zlash, ularning kasb tayyorgarligi va malakasini oshirishni ish o‘rinlari tarkibi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini hisobga olgan holda, ichki firma darajasida amalga oshirish, avvaldan xodimning firma ichida kasbiy harakatchanligini nazarda tutishi, xodimlarda mehnatga, yuqori ish sifati darajasiga erishishga ijobiy yondashishni tarbiyalash imkoniyatini yaratadi. Mazkur rivojlanish modelida mehnatni rag‘batlantirish va tartibotni shakllantirishning muhim belgisi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash masalalarining barcha xodimlar tomonidan ishlab chiqilishi, ishchilarning tashabbuskorligini taqdirlashdir. Mehnatga munosabat va samarali ishlash, ratsionalizatorlik takliflari, uzoq yil bir joyda ishlashga qo‘shimcha haq belgilash, nafaqaga chiqayotganda yirik to‘lovlar orqali rag‘batlantiriladi. Tadbirkorlar ishlab chiqarishni qisqartirish masalasini personalni qisqartirish bilan emas, balki ish vaqti davomligini



qisqartish yo‘l yoki ishchilarning ma‘lum bir qismini boshqa korxonaga, ular bilan kelishgan holda, o‘tkazish bilan hal etadi. Yaponiyada an‘ana bo‘yicha boshqaruvning yuqori bo‘g‘inida erkaklar imtiyozga ega bo‘lganligi, o‘tgan asrning 50-yillarida boshlangan va 70-yillarda yanada faollashgan “feminizatsiyalash” jarayoni natijasida 80-yillarda menejerlar orasida ayollar paydo bo‘la boshladi. Ayollarning mehnat faolligi oshishiga quyidagi omillar o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi:

- xizmat ko‘rsatishning elektronlashishi tufayli ayollarning uy xo‘jaligini yuritish va bola parvarishi ishlari yengillashishi;
- oila va oila munosabatlari tuzilishiga nisbatan qarash va qadriyatli mo‘ljallar o‘zgarishi;
- turmush qurganlar umumiy sonida yolg‘iz ayollar ulushi oshishi;
- ajralishlar soni ko‘payishi;

Fikrimizcha, oltinchi model sifatida Xitoy modelini tavsiya etish mumkin. Xitoyda XX asr ikkinchi yarmidagi amalga oshirilgan islohotlar davrida ikkita tadbir o‘tkazildi, ular mamlakat qishloq joylaridagi aholi bandligi katta ta‘sir o‘tkazdi. Birinchidan, dehqonlarga kasbni tanlash va xo‘jalik yuritishda mustaqillik berildi. Ikkinchidan, dehqonlarga shaharda tadbirkorlik bilan shug‘ullanishiga ruxsat berildi. Natijada, birinchi tadbir 125 mln. kishining qishloq joylardagi korxonalarga ishga joylashishini ta‘minladi. Ikkinchisi - taxminan 60-80 mln. dehqonlarning qishloq joylaridan shaharga ko‘chishiga olib keldi. Islohotlarning 23 yillik (1978–2001-yy.) davrida qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlar ulushi umumiy bandlar sonida 70,5 % dan 50 % ga tushdi.

Xitoyda bandlik siyosatining o‘ziga xos xususiyati quyidagilardan iborat:

- davlat sektorida mehnatning qat‘i tartibga solinishi;
- xususiy sektorda qonuniy tartibga solinishning mutlaq yo‘qligi;
- mehnat resurslari bahosi pastligi va ortiqchaligi;
- aholining mehnatsevarligi;
- siyosiy turg‘unlik va avtoritar tartib;
- erkin iqtisodiy zonalar ko‘pligi.

Uzoq vaqtdan beri Xitoyda malakali mehnatga bo‘lgan talabning taklifdan ko‘pligi kuzatilmoqda. Murakkab iqtisodiy holat, tabiiy resurslar taqchilligi, xo‘jalik boshqaruvi zamonaviy tizimi shakllanishi

tugallanmaganligi, bularning barchasi samarali bandlikni ta'minlash imkoniyatini chegaralaydi va ikkilamchi bandlikka ma'lum bir darajada ta'sir etmoqda. Xitoyda sotsialistik bozor iqtisodiyotini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilingan bo'lsada, ular korxonalar xo'jalik mexanizmlari faoliyat ko'rsatishini bir muncha jonlantirdi. Xitoyda iqtisodiy o'sish ishchi kuchi va investitsiya hajmini oshirish hisobiga erishiladi, mehnat unumdorligi past darajada qoldi. Bunga sabablardan biri - yaxshi kasbiy tayyorgarlik va katta qaytimli mehnat qilish imkoniyatiga ega, yuqori darajadagi bilim va malakaga ega xodimlarning rag'batlantirish mexanizmi zaifligi. Mamlakatda hozircha kompetentlik va mehnatga ijodiy munosabat uchun moddiy rag'batlantiradigan ijtimoiy-iqtisodiy muhit yaratilmagan. Har qanday mamlakat aholisining kasbiy tayyorgarlik darajasi mazkur mamlakat mehnat salohiyatini tasvirlovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Bugungi kunda Xitoyda bu ko'rsatkich oldingi yillarga qaraganda ancha yuqori darajaga ko'tarilgan bo'lsa-da, ammo iqtisodiy resurslardan foydalanish va o'zlashtirish, xalq xo'jaligi samaradorligini oshirish uchun yetarli emas. Bundan tashqari, malaka darajalari mintaqa va tarmoqlar bo'yicha bir xil emas. Mehnatga haq to'lashning harakatdagi mexanizmi ishchi xodimlar o'z mehnat salohiyatini to'liq namoyon etish imkonini bermaydi, ya'ni ularni malaka darajasi ko'pincha global raqobat belgilaydigan talablarga javob bermaydi. XXI asr boshiga kelib, Xitoy bandlik bilan qator muammolarga duch kelmoqda. Jumladan, iqtisodiyoti rivojlangan barcha mamlakatlarga xos bo'lgan muammo - aholining "keksayishi", yoshlar o'rtasida bandlik darajasi pasayish tendensiyasi, mutaxassislar yetishmasligi va hokazo.

#### **6.4. Asosiy ishlab chiqaruvchilar nazariyasi: maksimal foyda, Yashil inqilobning qishloq mehnatiga ta'siri**

Yashil inqilobni yaratuvchisi amerikalik agronom Norman Borlaug edi. Bu har xil turdagi o'simliklar orasidagi xochlar natijalarini yanada chidamli va samarali qilish niyatida o'rganib chiqilgan. Dastlab, maqsad uchinchi dunyo mamlakatlarida ochlikni to'xtatish edi. U bir nechta xalqaro qishloq xo'jaligi tashkilotlari bilan hamkorlikda makkajo'xori, sholi va bug'doy o'simliklari bilan tajriba

o‘tkazdi. Shunday qilib, u rivojlanayotgan mamlakatlarda ularni samaraliroq qilish maqsadida tanlangan xochlarni amalga oshirishni boshladi.

USAIDning sobiq direktori Uilyam Gaud tomonidan ishlatilgan yashil inqilob konsepsiyasi. Ushbu atama 1960 – yildan 1980 – yilgacha Qo‘shma Shtatlarda qishloq xo‘jaligi mahsuldorligining o‘shishini tavsiflash uchun ishlatilgan. Keyinchalik yuqori mahsuldorlik boshqa mamlakatlarga ham tarqaldi.

Qo‘shma Shtatlarda Yashil inqilob texnikasi muvaffaqiyatli bo‘lganidan so‘ng, keyingi qadam ularni boshqa mamlakatlarga tarqatish edi. Buning uchun intensiv turdagi “texnologik paketlar” deb nomlangan bir qator qishloq xo‘jaligi amaliyotlari amalga oshirila boshlandi. Ushbu uslublar qishloq xo‘jaligi jamoalari va ishlab chiqaruvchi kompaniyalar ko‘magi bilan har bir mamlakat hukumatlari tomonidan ilgari surilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari borasida importga qaramlik muammosini hal etish uchun so‘nggi yillarda bu qaramlik qanday rivojlanganini tahlil qilish kerak bo‘ladi. Kishi boshiga to‘g‘ri keladigan oziq-ovqat miqdori Hindiston, Tailand, Vetnam kabi Osiyo mamlakatlarida o‘sgan va Afrika mamlakatlarida esa tushgan. Bunga asosiy sabablardan biri “Yashil inqilob” bo‘lib, u, asosan, Lotin Amerikasi va Osiyo mamlakatlarida yangi texnologiyalar qo‘llanilishi, guruch va don kabi ekinlar hosilini oz vaqt ichida katta miqdorda yig‘ib olish, irrigatsiya tizimining takomillashishi kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Hindistonda bu jarayon fermerlar uchun turli xizmat turlarini kengaytirish, subsidiyalar, kafolatlangan narxlar hamda oziq-ovqat importini cheklash kabi yo‘llar bilan qo‘llab-quvvatlangan. Shu bilan birga Yevropa va AQSH fermerlari ham subsidiyalar, kafolatlangan narxlar kabi omillar bilan qo‘llab-quvvatlangan. Oziq-ovqat yetishtirishdagi bunday yaxshilanishlar Urugvay raundida bo‘lib o‘tgan ko‘p tomonlama muzokaralar natijasida Jahon savdo tashkiloti (WTO) nazorati ostida qabul qilingan Qishloq xo‘jaligi kelishuvi (Agreement on Agriculture) doirasida savdoni erkinlashtirish jarayonlarining chuqurlashishi bilan yanada kuchayib bordi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining “Umumiy qishloq xo‘jaligi siyosati” (SAR) va Yevropa oziq-ovqat mahsulotlarining jahon bozorlariga kirib borishi ham bu rivojlanish jarayonlarini

tezlashtirdi. Keyingi yillarda asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ayrim davlatlar va kompaniyalar qo'lida to'planganini kuzatishimiz mumkin. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ham qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosida yetakchilik qiladi. Biroq keyingi yillarda boshqa mamlakatlarning kuchli raqobati ostida o'zining bu pozitsiyasini yo'qotib bormoqda. Bunga misol qilib, Braziliyaning Afrikaga katta miqdorda jo'ja eksport qilishini keltirish mumkin. Bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarning 2/3 qismi savdo defitsiti va g'alla mahsulotlari, sut mahsulotlari va o'simlik yog'iga bo'lgan xarajatning ortib borishidan aziyat chekmoqda. Qolaversa, qishloq xo'jaligi rivojini qo'llab-quvvatlamaslik, narx raqobati, ya'ni arzon import mahsulotlarining bozorni egallashi dehqonlar faoliyatini cheklab qo'ydi. Rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligi oziq-ovqat mahsulotlari eksporti va importida yetakchilik qilishi bilan birga bu mahsulotlar mazkur davlatlar eksporti va importida unchalik katta ulushni tashkil etmaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlar esporti va importida esa oziq-ovqat mahsulotlari asosiy qismni tashkil etadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramlik mamlakatlar uchun quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

- oziq-ovqat xavfsizligini jahon bozorlari konyunkturasiga bog'liq qilib qo'yadi. Ular esa juda o'zgaruvchan, monopollashgan, spekulyatsiya, ob-havo kabi taqchilik va narxlarning keskin o'sishiga sabab bo'ladigan omillarga beriluvchandir;

- bunday mamlakatlar narxlar o'sgan taqdirda ularni to'lash imkoniyatiga ega emas;

- import bunday mamlakatlarda raqobatlasha olmaydigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va fermerlarga salbiy ta'sir qiladi;

- asosan qishloq joylarda istiqomat qiladigan oziq-ovqat xaridorlari bo'lgan uy xo'jaliklari yetarli oziq-ovqat xarid qila olmaydi va ochlik va boshpanasizlik darajasi oshadi. Jahon banki (WB) va Jahon savdo tashkiloti (WTO) kabi tashkilotlar savdoni erkinlashtirish orqali oziq-ovqat taklifi yuqori bo'lishini va natijada oziq-ovqat mahsulotlari narxi pasayishiga erishish mumkinligini e'tirof etganlar. O'zbekiston mustaqillika erishgandan so'ng katta iqtisodiy muammolar va yetishmovchiliklarga qaramay, qisqa muddatda bug'doy va boshqa strategik oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha mustaqillikka erishdi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligini faqat va faqat yuksak agrotexnika talablari va qoidalariga qat'i amal qilish, fan-texnika yutuqlarini, ilg'or tajribalarni keng joriy etish, eng muhimi, barchamizni boqadigan dehqonga, ishlab chiqaruvchiga erkinlik, munosib sharoit yaratib berish, uning mehnatini o'z vaqtida va odilona rag'batlantirish hisobidan rivojlantirish mumkin. Negaki, hozirgi vaqtda fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarali shakli ekanini hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda.

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi talab darajasida bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini-o'zi to'liq ta'minlaydi. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, shu jumladan, dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususiy fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi yerlari yangidan tashkil etilgan ijara asosida yer uchastkalari ajratish orqali, davlat tomonidan zarur imtiyoz va preferensiyalar yaratish yo'l bilan beriladi. Xususan, fermerlar soddalashtirilgan soliq tizimidan foydalanmoqda, fermerlar uchun ajratiladigan kreditlar stavkasi 5 %dan oshmaydi. Fermer xo'jaliklariga barcha turdagi zarur xizmatlar ko'rsatadigan ishonchli bozor infratuzilmasi tashkil etilgan. Qishloq joylarda 1,5 mingdan ziyod minibank, 2 mingga yaqin mashina-traktor parki, yoqilg'i va mineral o'g'it sotish bo'yicha 2,5 mingga yaqin punkt xizmat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, 1,5 mingta suvdan foydalanuvchilar uyushmasi, 350 dan ortiq konsalting markazlari tashkil etildi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini zamonaviy texnika bilan ta'minlash uchun Germaniyaning "Klaas" va "Lemken" kompaniyalari bilan hamkorlikda mamlakatimizda eng zamonaviy traktorlar, g'alla o'radigan kombaynlar, plug va boshqa tirkama uskunalar ishlab chiqarilmoqda. O'zbekistonning ko'plab mintaqalari qisqa muddatda jahon bozorida xaridorgir bo'lgan meva va sabzavot mahsulotlari yetishtiradigan va eksport qiladigan hududlarga aylandi. Yurtimizda yuqori hosil beradigan intensiv bog'lar tashkil etildi, tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilmoqda.

Keyingi yillarda eksport tarkibida raqobatbardosh tayyor mahsulot salmog'ining barqaror o'sish tendensiyasi va xomashyo yetkazib beruvchi tarmoqlar mahsulotlari ulushining kamayib borayotgani

ko'zga tashlanmoqda. Shuningdek, O'zbekiston so'nggi yillarda asosiy bug'doy yetishtiruvchi mamlakatlar guruhidan ham o'rin egallab kelmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 barobardan ziyod oshdi. Bu mamlakat aholisining qariyb 10 million kishiga yoki 30 foizdan ortiq ko'payishiga qaramasdan, jon boshiga to'g'ri keladigan go'sht iste'molini 1,3 barobar, sut va sut mahsulotlarini 1,6 karra, kartoshkani 1,7 barobar, sabzavotlarni 2 martadan ziyod, mevalarni qariyb 4 barobar oshirish imkonini berdi. Mamlakatimizda har yili 16 million tonnaga yaqin meva va sabzavot yetishtiriladi. Aholi jon boshiga qariyb 300 kilogramm sabzavot, 75 kilogramm kartoshka va 44 kilogramm uzum to'g'ri kelmoqda. Bu optimal iste'mol me'yoridan uch barobar ko'pdir. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan Oziq-ovqat dasturi aholining to'laqonli va mutanosib tartib asosida ovqatlanishini ta'minlashdek muhim vazifani hal etish imkonini berdi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston qiymati 5 milliard AQSH dollariga yaqin bo'lgan oziq-ovqat, birinchi navbatda, meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilmoqda. So'nggi uch yilda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3 barobardan ziyod oshdi. O'zbekiston dunyoning 80 ta davlatiga 180 turdan ortiq meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qiladi. O'zbekiston o'rik, olxo'ri, uzum, yong'oq, karam va boshqa ko'plab meva va sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmi bo'yicha dunyoda shunday mahsulotlarni yetkazib beradigan o'nta yetakchi davlat qatoriga kiradi.

Bunda birinchi navbatda, qishloq xo'jaligini isloh etish va modernizatsiya qilish, yerlarning meliorativ holati va irrigatsiya tizimini yaxshilash, tuproq unumdorligi va hosildorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlarni davom ettirish va chuqurlashtirish zarur. Bu borada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, shuningdek, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni saqlash, logistika va iste'molchilarga yetkazib berishning zamonaviy tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Qo'lga kiritilgan natijalar, avvalambor, qonunchilik bazasini shakllantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, fermerlikni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va hukumat qarorlari qishloq xo'jaligini rivojlantirishga turtki bo'ldi.

Jahon tajribasiga asosan, barcha mamlakatlarda iqtisodiy xavfsizlikning muhim segmenti bo'lgan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalarini har tomonlama tahlil qilish va uning mexanizmini takomillashtirish yuzasidan aniq nazariy, uslubiy va amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish amalga oshirilmoqda. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash mamlakat oziq-ovqat xavfsizligining strategik maqsadi hisoblanadi. Oziq-ovqat va xomashyo ichki resurslari, yetarli zaxira fondlarinig mavjudligi esa barqarorlik kafolati hisoblanadi. Ichki va tashqi shart-sharoitlar o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan holatda asosiy vazifalar qatoriga aholini mahalliy resurslar asosida asosiy oziq-ovqat turlari bilan ta'minlash, oziq-ovqat iste'moli xavfsizligi va yuqori sifatini davlat tomonidan kafolatlash, oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha ichki va tashqi tahdidlarning oldini olish kabilarni kiritish mumkin. Bunda iqtisodiyotning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sektori bir qator to'siqlarga duch keladi, jumladan, demografik siljishlar, oziq-ovqat ratsionining o'zgarishi, iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslarning cheklanganligi va boshqalar. Oxirgi yillarda ekologik o'zgarishlar, jumladan, iqlim o'zgarishlarining mamlakatlar oziq-ovqat xavfsizligi darajasiga ta'siri yaqqol ko'rinmoqda. Hozirgi kunda Yevropa qit'asidagi bir qator mamlakatlar, jumladan, Rossiya, Qozog'iston, Ukraina va boshqalar iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bir qator salbiy oqibatlarga duch keldi. Shuning uchun mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy modellariga yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalarini asos sifatida kiritmoqda. O'zbekiston qisqa vaqt mobaynida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha katta yo'lni bosib o'tdi. Boshqa mamlakatlardan farqli ravishda o'z agrosanoat majmuasini qayta yo'naltirish va bu borada tub islohotlar olib borishga erishdi. Shu bilan birga oziq-ovqat xavfsizligi masalalarini hal qilish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar qatorida inson rivojlanishi uchun zarur bo'lgan optimal oziq-ovqat savatchasi tarkibini shakllantirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni jalb qilish bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirish bo'yicha investorlar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha infratuzilma va logistika tizimini takomillashtirish kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Xalqaro

huquq normalari asosida oziq-ovqat xavfsizligi tizimini shakllantirish, zamonaviy fan-texnika va texnologiyalar yutuqlari barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha asosiy shart-sharoit hisoblanadi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi holatini yanada yaxshilash, meva va sabzavot mahsulotlari, uzum yetishtirish bo'yicha istiqbol rejalarini amalga oshirish, ko'zlangan yuqori natijalarga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish muhimdir: qishloq xo'jaligini isloh etish va modernizatsiya qilish, yerlarning meliorativ holati va irrigatsiya tizimini yaxshilash, tuproq unumdorligi va hosildorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamlı ishlarni davom ettirish va chuqurlashtirish. Bu borada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga jahon bozoridagi talabni oshirish, ularni saqlash, logistika va iste'molchilarga yetkazib berishning zamonaviy tizimini shakllantirish. Oziq-ovqat mahsulotlari, birinchi navbatda, sabzavot, meva va uzumni daladan iste'molchiga yetkazib berishda nobudgarchiliklarning oldini olish bo'yicha jiddiy ishlarni davom ettirish. Meva va sabzavotlarni saqlaydigan ombor va muzlatkichlar tizimi yetarli darajada rivojlanmagani, logistika va yo'l xarajatlari bilan bog'liq ko'pgina muammolarni yechishga e'tibor qaratish. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va uning samaradorligini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, ularning turini kengaytirish va sifatini oshirish bo'yicha oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish, xalqaro moliya institutlari va bank tuzilmalarining yordami va qo'llab-quvvatlashiga tayanish. Ajratilgan moliyaviy mablag'lar bilan birga, birinchi navbatda, ilg'or agrosanoat texnologiyalarini jalb etish, qishloq xo'jaligi infratuzilmasi, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini rivojlantirish va rekonstruksiya qilish, marketing va jahon bozorlariga chiqish bo'yicha yangi texnologiyalarni joriy qilish borasida ko'rsatilgan amaliy yordam va hamkorliklarni yanada kengaytirish. Jahon aholisini oziq-ovqat bilan barqaror ta'minlash masalasida bir qancha asosiy omillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Har bir mamlakatda qishloq xo'jaligi sektorining barqaror o'sishiga erishish.



2. Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan mehnat taqsimoti va fermer xo‘jaliklari ko‘lami o‘zgarishi bilan bog‘liq holda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgartirishlarni amalga oshirish.

3. Jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan biotexnologiyalar.

4. Agrar tadqiqotlar tizimi rivojlanishi va uning natijalarini amaliyotga tatbiq etishga bo‘lgan yuqori talab.

5. Qishloq joylar infratuzilmasida aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgartirishlar.

Mamlakatlar ichida oziq-ovqat xavfsizligi holati va chegaralarini aniqlashda milliy oziq-ovqat xavfsizligi modelini tashkil etuvchi, turli xususiyat va mezonlarni qamrab oluvchi yetarli va maqbul ovqatlanishning fiziologik me‘yor va ko‘rsatkichlari asos bo‘luvchi uslubiy yondashuvlardan foydalanish maqbulroqdir.

### **Asosiy tayanch tushunchalar:**

**Iqtisodiy faoliyat** – cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste‘molchilarga yetkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog‘liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar majmuyi.

**Iqtisodiyot** – mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo‘jaliklardan, xo‘jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo‘shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o‘rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o‘ta murakkab ijtimoiy tizim.

**Ishlab chiqarish** – kishilik jamiyatining mavjud bo‘lishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy ne‘matlarni yaratish jarayoni.

**Taqsimot** – ishlab chiqarish omillari va uning natijalarini iqtisodiyotning turli qism va subyektlari o‘rtasida taqsimlash jarayoni.

**Ayirboshlash** – jamiyat a‘zolarining iqtisodiy faoliyat turlari yoki ishlab chiqarish natijalari bo‘yicha o‘zaro almashish jarayoni.

**Iste‘mol** – ehtiyojlarni qondirish maqsadida mahsulot va xizmatlarning ishlatilishi jarayoni.

**Iqtisodiy resurslar** – tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarida foydalanish mumkin bo‘lgan barcha vosita va imkoniyatlar majmuyi.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:**

1. Iqtisodiyot tushunchasi va uning bosh masalasi nima?
2. Ehtiyoj nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
3. Iqtisodiy resurs tushunchasiga va uning turlariga ta'rif bering.
4. Nima uchun hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va yetkazib berish insonning turli xil faoliyatlari ichida eng asosiysi hisoblanadi?
5. Iqtisodiy tanlov nimani anglatadi? U boshqa iqtisodiy jarayonlar ichida qanday o'rin tutadi?
6. Tanlash, rivojlantirish va rivojlanish iqtisodiyoti o'rtasidagi bog'liqlikni izohlang.
7. Oziq-ovqat bilan ta'minlash siyosatining iste'mol qilishga ta'siri qanday?
8. Ish bilan ta'minlash, bolalar mehnatidan foydalanish motivatsiyasi nimani anglatadi?
9. Asosiy ishlab chiqaruvchilar nazariyasidagi maksimal foydaga izoh bering.
10. Yashil inqilob nima va uning qishloq mehnatiga ta'siri qanday

## 7-MAVZU. UY XO‘JALIGI

**7.1. Rivojlanish va siyosat tahlilidagi xilma-xillik.**

**7.2. Uy xo‘jaligining yagona nazariyalari.**

**7.3. Uy xo‘jaligining yagona modellarida gender.**

**7.4. Kooperativ savdolar va jamoaviy qarorlarni qabul qilish modellari.**

### 7.1. Rivojlanish va siyosat tahlilidagi xilma-xillik

Uy xo‘jaligi iqtisodiy faoliyatning muhim subyektlaridan biri hisoblanib, nafaqat oila yoki xo‘jalik, balki butun mamlakat aholisining farovonligi uning natijalariga bog‘liq. Uy xo‘jaligi iqtisodiyotning yirik sektori sifatida tijorat korxonalarini va davlat bilan bir qatorda barcha makroiqtisodiy tartibga solish jarayonlarida ishtirok etadi. Shu nuqtayi nazardan uy xo‘jaligining tarkibi, maqsadi va asosiy vazifalarini o‘rganish oila biznesi (tadbirkorligi)ni tashkil etish va uni yuritish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularning turlarini taqqoslash uy xo‘jaligining bozor munosabatlariga mos turini va uning tarkibini tanlash imkonini beradi.

Uy xo‘jaligi to‘g‘risida so‘z yuritganda, ikki tushuncha – oila va uy xo‘jaligi tushunchalarni chegaralash lozim. **Oila deganda**, bir uyda yashashi oila-qarindoshchilik aloqalarining umumiylik bilan birlashgan guruh tushuniladi. **Uy xo‘jaligi** esa umumiy vazifalar, yashash joyi, budjet va odatda oila-qarindoshchilik aloqalari bilan birlashgan kishilar guruhini o‘zida namoyon qiladi.

**Umuman uy xo‘jaligining maqsadi** – o‘z a‘zolariga kutilmagan holatlar yuzaga kelishidan qat’i nazar kafolatlangan farovonlik darajasini ta’minlashdan iborat. Uy xo‘jaligining himoya funksiyasi o‘zaro yordam va oila a‘zolarini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashning rasmiy va norasmiy me‘yorlariga asoslanadi.

Ikkinchi tomondan, uy xo‘jaligi shunday tarzda tashkil etilishi mumkinki, ya’ni u o‘z xususiyatiga ko‘ra a‘zolarining mulkiy va boshqa huquq va majburiyatlari aniq belgilangan yollash to‘g‘risidagi shartnomaga yaqin keladi. Bunday holda birgalikda xo‘jalik yuritish to‘g‘risida qaror qilish farovonlikning ma’lum darajasiga rozi bo‘lishni emas, balki uni ko‘paytirishga intilishni aks ettiradi. Unda umr

yoʻldoshini tanlash va bolalarning tugʻilishi toʻgʻrisida qaror qabul qilish sotuv haqida shartnoma tuzish yordamida isteʼmol tanlovining alohida holati boʻlib qoladi. Lekin, soʻnggi holatda biz uy xoʻjaligidan yiroqlashamiz, chunki birgalikda mulkka egalik qilish rejimidan va birgalikdagi budjetni shakllantirishdan voz kechish ehtimoli paydo boʻlishi mumkin. Shuning uchun bundan buyon uy xoʻjaligini hokimlik munosabatlarining, binobarin, tashkilotning alohida varianti sifatida koʻrib chiqamiz.

**Uy xoʻjaligi** – bu inson kapitalini ishlab chiqarishning umumiy vazifalari, yashash, budjet va oila-qarindoshchilik aloqalari bilan birlashgan kishilar guruhidir. Uy xoʻjaligining asosida hokimlik munosabatlari yotadi. Mutaassibliklar rolini izohlash yoʻllari bir nechta. **Birinchi**dan, oʻz atrofida oʻziga maʼqul keladigan muhitni yaratishga boʻlgan ehtiyoj insonga xos xususiyatdir. Bozorda yoki fuqarolik kelishuvi sohasida harakat qila turib, inson xoh u bozor konyunkturasi yoki siyosiy beqarorlik boʻlsin, oʻzgaruvchan holatlar bilan bogʻliq asablarning taranglashuviga doimiy ravishda duch kelib turadi. Oila va uy xoʻjaligini tashkil etish insonga oʻzini kundalik hayotining bir qismini mutaassiblik yordamida, yaʼni uzluksizlik va oldindan bilish tamoyillariga muvofiq ravishda tashkil etish imkonini beradi. Odatiy kundalik hayot monandlik, insonning shaxsiy xususiyatlariga moslashgan holda xarakatlarning ajrimligi va oldindan aytib berilishini taʼminlovchi mutaassibliklar doirasida kechadi.

Aynan mutaassiblik bilan himoyalangan kenglik doirasida dastlab ishonch meʼyori paydo boʻladi. Olimlarning fikriga koʻra, bolada atrofdagi odamlarga boʻlgan ishonchning paydo boʻlishi otionalarning hatti-xarakatlariga bogʻliq, chunki ular bola unda oʻzini juda qulay his qiladigan tashqi muhitdan himoyalangan kenglikni hosil qilgan holda u haqida qaygʻurishadi. Ushbu kenglikda bola oʻz xatti-harakatlarini toʻliq nazorat qila oladi, harakatlari natijasiga tashqi omillar deyarli taʼsir qilmaydi.

**Ikkinchi**dan, atrofdagi odamlar bilan oʻzaro hamkorlikdagi koʻplab “oʻyin qoidalari” (kelishuvlar: bozor, industrial, fuqarolik va b.) mavjud sharoitda insonda u oʻzi bilan oʻzi yolgʻiz qolishi mumkin boʻlgan sohani shakllantirishga ehtiyoj tugʻiladi. Boshqacha aytganda, insonda oʻzi uchun kundalik hayotning uning boshqa kishilar va tabiat bilan muloqot aloqalari, uning shaxsiyatli oʻxshashlikka erishishi va

uni saqlashga ko‘maklashuvchi muhitni yaratish ehtiyoji mavjud. Ushbu talab ikki sohani – shaxsiy va oshkora hayotni chegaralash orqali amalga oshiriladi.

Uy xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatishidagi mutaassibliklar rolini tahlil qilish uning tarkibining u harakat qilayotgan institutsional muhitning o‘ziga xos xususiyatlari bilan shartlanganligini tushunishga yordam beradi. SHu munosabat bilan uy xo‘jaligining **uchta xilini yoritishga harakat qilamiz:** bozor instituti hukmronligi sharoitida faoliyat ko‘rsatuvchi, buyruqbozlik iqtisodiyoti instituti hukmronligi sharoitida faoliyat ko‘rsatuvchi va buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida faoliyat ko‘rsatuvchi.

***Buyruqbozlik iqtisodiyotida uy xo‘jaligi.*** Buyruqbozlik iqtisodiyotida inson kapitalini tiklash bir qator muammolarga duch keladi. Tashqi muhitning barqaror xususiyatga egaligiga qaramasdan, uy xo‘jaligining kundalik hayoti iste‘mol tovarlari va xizmatlarning tanqisligi bilan murakkablashadi. Boshqa holatda mahsulotlar yoki kiyim-kechak xarid qilishning mutaassiblik tadbiri ko‘p vaqt, kuch va ruhiy xayajonlarni talab qiluvchi jarayonga aylanadi.

***Bozor iqtisodiyotida uy xo‘jaligi.*** Bozor instituti uy xo‘jaligini kamyob tovarlar va xizmatlarni qidirish hamda ular uchun navbatda turish bilan bog‘liq vaqtning yo‘qotilishidan xalos etadi – xarid qilish jarayoni mutaassiblikka aylanadi. Masalan, shanba kuni kechqurun va dam olish kuni ertalabdan savdo do‘nonlarida xaridorlar ko‘p bo‘ladi, shu kunlari odamlar an’anaviy tarzda keyingi xaftaga Yetadigan miqdorda xarid qilishadi. Uy xo‘jaligining asosiy daromad manbalarini bozor bilan belgilanadigan sohaga yo‘naltirish uning davlatdan kam qaram bo‘lishini ta‘minlaydi. Davlatning faoliyati uy xo‘jaligini faqatgina davlat mehnat bozorida bitimlar kafolati sifatida ishtirok etish darajasida va u (soliq kodeksi orqali) uy xo‘jaligi daromadining bir qismiga da’vogar bo‘lishi me‘yorida qiziqtiradi.

***O‘tish iqtisodiyotida uy xo‘jaligi.*** Uy xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatadigan institutsional muhitning noaniqligi va beqarorligi mutaassibliklarning mavjud bo‘lishini shubha ostiga qo‘yadi. Bunday sharoitda mutaassibliklar doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqilishini talab qiladi, ya‘ni ular inson ongining ongsiz sohasidan ongli va doimiy e‘tiborni talab etuvchi sohasiga o‘tadi. Islohotlar qanchalik faol amalga oshirilsa, ularning mutaassibliklarga nisbatan emiruvchi ta‘siri

shunchalik kuchli bo‘ladi. Bundan o‘tish iqtisodiyotida uy xo‘jaligining maqsadi kelib chiqadi: uy xo‘jaligining himoya funksiyasini saqlab qolishga intilish borgan sayin ortib boruvchi sa’y-harakatlarni va imkon qadar ko‘p e‘tiborni talab etadi.

## **7.2. Uy xo‘jaligining yagona nazariyalari**

Uy xo‘jaligi xususidagi ilmiy qarashlar qadimdan mavjud bo‘lib iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot saboqlarini hisobga olgan holda rivojlanib kelgan. Uy xo‘jaligi oilaga asoslanganidan dastlabki qarashlarda “oila xo‘jaligi” degan tushuncha qo‘llanilgan. Ular Sharqda, jumladan, O‘rta Osiyoda vujudga kelgan. Bu qarashlar oilaning mehnat qilishi, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishi, topganini sarflab iste‘molini qondirishi xususidagi qarashlar bilan cheklangan. Oilaning asosiy vazifasi bolalarni tarbiyalab voyaga yetkazish, ya‘ni hozirgi ibora bilan aytganda mehnat resurslarini tayyorlash hisoblangan. Sharq allomalari uy xo‘jaligida ishga yaroqlilar va yaroqsizlar bo‘lishini, lekin iste‘mol umumiy ehtiyoj ekanligini ta‘kidlashgan. Ular kattalarni, bolalarni boqishda ishtirok etishni, ota-onalar qariganida bolalar g‘amxo‘rlik qilishini qonda, deb qaraganlar.

Agar ilgari uy xo‘jaliklari an‘anaviy tizimning tarkibiy qismi sifatida qaralsa, so‘ngra ular bozor tizimi nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida paydo bo‘lishi munosabati bilan uy xo‘jaligiga oid tarqoq fikrlar konseptual shakl olib nazariya darajasiga ko‘tarildi. Klassik va neoklassik nazariyada uy xo‘jaliklari bozor munosabatining agenti sifatida qarala boshlandi. Merkantilistlar savdo – sotiqqa urg‘u berib, xonadonlarning asosiy vazifasi pul to‘plab boylik orttirish deb qaraganlar.

Turli nazariy qarashlarda uy xo‘jaliklarining tabaqalanishiga e‘tibor berilib, ularning turli toifalarini tavsiflash ham bo‘lgan. Ingliz iqtisodchisi Ch.But oilaviy xo‘jaliklarni klassifikatsiyasini ishlab chiqib, ularni quyi o‘rta va yuqori sinflarga ajratadi, ularni budjetlari o‘rtasidagi farqlanish xususiyatlarini ko‘rsatib beradi. Fransuz olimi F.Lepile oila xo‘jaligini statistik tahlilini o‘tkazib uning budjet daromadlari va xarajatlarini o‘rganadi, u xarajatlar miqdori va tarkibini

daromadlar belgilashini ko'rsatib beradi<sup>38</sup>. Undan so'ng oila budjetini atroflicha o'rgangan Avstriyalik iqtisodchi olim E.Engel bo'ladi. U oila daromadlarining miqdori bilan uning xarajatlari tarkibi o'rtasidagi aloqadorlikni asoslab beradi va keyinchalik nazariy qonun Engel qonuni nomini oladi.

Iqtisodiyot nazariyasi rivojida turli mualliflar uy xo'jaliklarining farovonligi va unga erishishdagi muqobil tanlovga tayangan hatti-harakatlar tahliliga ham e'tibor beriladi. Shu o'rinda iqtisodchilardan V.Pareto va A.Pichuning farovonlik nazariyasi e'tiborga loyiqdir, ular nazariyasiga ko'ra individual va umumiy farovonlik uzviy bog'lanadi, uni ta'minlashda bozorning o'zidan tashqari davlatning tadbirlari ham ishtirok etadi. V.Poreto eng yuqori farovonlikni ta'minlashga raqobatli bozor qodir, chunki bu yerda iste'molchi nimani afzal ko'rsa shunga erisha oladi deb hisoblaydi. Uning "Pareto optimumi" nomini olgan g'oyasi, asosan, hech kimning farovonligi ma'lum bir kishining farovonligini yomon qilmasdan turib yaxshi bo'lishi mumkin emas, deb ko'rsatadi. Bu bilan u bozor kuchlarining farovonlikdagi tengsizligiga olib keladi va shu sababli ijtimoiy farovonlikni oshirish uchun bozor beradigan daromad bilan cheklanmay, davlat yo'l bilan (soliqlar, narxlarni tartiblash) daromadlarni qayta taqsimlash zarur deb ta'kidlaydi. A.Pichu kishilar farovonligi milliy devident (daromad) bilan aniqlanib, unga bir oylik o'z topgan puliga sotib oladigan narsalarni va uy-joyni kiritadi. Pichu xonadonga tegadigan devident miqdorini uning resurslari beradigan so'ngi natija bilan bog'laydi<sup>39</sup>.

Neoklassik nazariyada eng katta e'tibor beriladigan narsa bu - uy xo'jaliklarining iqtisodiy sa'y-harakatlari va ularni belgilovchi motiv ko'rinishidagi omillardir. Bunga birinchilar bo'lib marjinalistlar kirishgan, ular klassiklardan farqli o'laroq, iqtisodiyot subyektlarining xatti-harakatlarini faqat obyektiv sharoit bilan emas, balki subyektiv intilishlar ham yuzaga keltirishini qayd etadi. Avstriya olimi B.Baverk uy xo'jaliklari o'z tanlovida "optimizm"ga berilib uzoqni ko'ra bilmaydilar, hozirgi ne'matlarga ustuvorlik berilib bo'lg'usi ne'matlarning yuqori nafliligini ko'ra bilmaydilar, deb hisoblaydi. Ammo, bu fikrni boshqa marjinalistlar K.Menger va F.Vizerlar ma'qullamagan. K.Menger uzoqni ko'rabilmaslik joriy iste'molga

<sup>38</sup> М.Блауг экономическая мысль в ретроспективе М.1996г. стр-543

<sup>39</sup> М.Блауг экономическая мысль в ретроспективе М.1996г. стр-551

emas, balki meros qoldirish va noaniq kelajak uchun jamg'arish bilan bog'liq deb hisoblaydi<sup>40</sup>.

Marjinalistlardan shvetsariyalik olim L.Valras barcha subyektlar o'z maqsadiga erishish yo'lda o'z harakatini ratsional qilib uni optimallashtirishga intiladilar, ammo buning uchun axborotlar yetarli bo'lishi talab qilinadi, chunki shunga tayanib nima ish qilishi Haqida iqtisodiy qarorga kelinadi. Uning fikriga ko'ra bozor hech kimga ustuvorlik bermaydi, lekin hammaga nimani afzal ko'rsa shuni tanlab olish uchun imkon yaratadi. L.Valras g'oyasini inobatga olgan holda K.Errou va J.Debre modeli yaratildi. Bunga ko'ra uy xo'jaliklari o'z ehtiyoji uchun kerak bo'lgan tovarlarni bozordan topib oladi va bunda ularning nafliligidan kelib chiqadi<sup>41</sup>.

Neoklassik maktabning atoqli namoyondasi A.Marshall uy xo'jaliklari talabiga faqat daromad emas, balki kishilarning xohishi ham ta'sir etishini etirof etib, ular tanlovida subyektivlik mavjud ekanini ko'rsatadi. A.Marshall oila iste'mol uchun qo'shimcha qoniqish bo'lishini aytib uni iste'moldagi ortiqchalik bilan izohlaydi, buni iste'molchi tovarlarni xarid etish uchun pulini to'lash mumkin bo'lgan narxlar bilan amaldagi xarid narxlari o'rtasidagi farq sifatida baholadi<sup>42</sup>.

J.M.Keyns nazariyasida iste'molchining nimani kutishiga e'tibor beriladi, bunda bozordagi noaniqlik sharoitida iste'molchining kutishiga asoslangan xatti-harakatlar oqilona bo'ladi, deb qaradi. Uning fikriga ko'ra muvozanatli narxlardan amaliy narxlar katta farqlanganda uy xo'jaliklarining iste'mol xarajati bilan jamg'arishi o'zgaradi. M.Keyns nazariyasining muhim tomoni shundaki, u xo'jaliklarining iste'moli va jamg'arish qarama-qarshi yo'nalishda o'zgarishini e'tirof etadi, bu bilan ularning ziddiyatini ko'rsatadi<sup>43</sup>. M.Keyns fikriga ko'ra uy xo'jaliklarida likvidlilikni afzal ko'rish bo'ladi va bu "likvidlilik tuzog'ini" hosil etadi. Xo'jalik qo'lidagi pul faqat xarid vositasi emas, balki "boylik zaxirasi bo'lib, bu noaniqlik sharoitida to'lovga noqobil bo'lishi riskdan himoya qilishi va kelajakni

---

<sup>40</sup> Е.М. Майбурд в ведение в историю экономической мысли от пророков до профессоров. М.1996.г. стр-373.

<sup>41</sup> Я.С.Ядгаров История экономических учений. М.2006г. стр-301.

<sup>42</sup> А.Маршалл Основыэкономической науки. М.2008г. стр-166.

<sup>43</sup> Дж.М.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. Избранное М.2008г. стр-89.



noto'g'ri baholashdan himoya qiladi"<sup>44</sup> Likvidlilik tuzog'iga ilinib qolish "jamg'arish paradoksini" hosil etadi, ya'ni jamg'arishga berilib ketish iste'mol xarajatini qisqartirib ichki bozorni torayishiga olib keladi.

Boshqa iqtisodchi olimlardan I.Fisher xo'jaliklarni iste'molchilar sifatida e'tibor qaratib ularning tanlovidagi xatti-harakatlari bugungi va ertangi kun iste'mol orasida yuzaga kelishini ko'rsatib beradi. Uning fikricha, xo'jaliklar o'z pulini sarflaganda faqat hozirgi kunni emas, balki kelajakni ham ko'zlab jamg'arishga moyil bo'ladilar va bu bilan "ham kelajak iste'moli, ham daromadlarini diskontlash orqali amalga oshiriladi"<sup>45</sup>

Neoklassik iqtisodchilardan farqliroq institutsiolizm vakillari xo'jaliklar bozorda o'zini qanday tutishiga subyektiv omillar bilan birga institutsional o'zgarishlar ham ta'sir etishini nazarda tutadilar. Institutsionalizmning otasi T.Veblen ta'kidlashicha, kishilarning iste'mol tanloviga ularga xos bo'lgan raqobatchilik muhit sharoiti ham ta'sir etadi, ular iste'molchiligida manmanlik qoidasi ham bor, unga ko'ra o'z iste'molini maksimumlashtirish bilan cheklanmay, o'z iste'molini ko'z-ko'z qilib boshqalardan ajralib turishga intiladilar va bu instinkdan iborat bo'ladi. T.Veblen jamiyatda bema'ni va tekinox'rlarga iste'mol bo'lishini e'tirof etdiki, bu bekorchi sinfga xos bo'ladi va bu sinfni magnatlar, oligarxlar va rante oilalar tashkil etadi<sup>46</sup>. U daromad va iste'moldagi tengsizlikni qoralab, uni o'zgartirish uchun institutsional islohotlar olib borishni yoqlab chiqadi.

T.Saymon kishilar tanlovida oqilonalik cheklanganligini va bu bozordan kelgan axborotni ko'pligi va uni qayta ishlab qaror qabul qilish qiyin kechishini hisobga oladi shulardan kelib chiqib u tanlovni xonadon uchun qoniqarli variantini yoqlab chiqadi. T.Saymon iste'molchi nimaga davo qilsa, ya'ni nimaga erishishga haqli bo'lsa, shu uning qoniqarli tanlovi bo'lishini asoslaydi.

Neoklassik va institutsionalizm vakillarining qarashlarida umumiylik va farqlar borligini ko'rish mumkin. Neoklassik qarashlarda uy xo'jaliklari bozor qonuniga binoan amal qiluvchi mustaqil subyekt sifatida baholanadi, uning faoliyatini obyektiv sharoit

---

<sup>44</sup> Дж.М.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. Избранное М.2008г. стр-194.

<sup>45</sup> М.Блауг экономическая мысль в ретроспективе М.1996г. стр-489.

<sup>46</sup> Я.С.Ядгаров История экономических учений. М.2006г. стр-337.

belgilashini, ammo oqilona tanlov asosida o'z faoliyatini bozor talabiga moslashtirib borish, uning nimani afzal ko'rishi imkoniyatlari darajasida chegaralanib turishini e'tirof etdi. Biroq xo'jaliklarning ichki munosabatlari tahlildan chetda qolgan. Bundan farqliroq institutsionalizm vakillari xo'jaliklarning ichki tuzilishini o'rganib ular xarakatiga xos bo'lgan motivlarni tahlil etishdi, xo'jaliklar subyekt sifatida ma'lum ijtimoiy strukturani hosil etishi, uning faoliyatiga institutsional muhit, hatto, subyektiv ruhiy omillar ta'sir etishini ko'rsatib berdilar.

Rossiya olimlari ishlarida xo'jaliklarning mehnat, iste'mol tovarlari va moliya bozorida o'zini qanday tutishlari ko'rsatiladi. Bularda xo'jaliklarni iqtisodiy – ijtimoiy guruhlariga ajratishning ilmiy mezonlari, ular xatti-harakatlarining, eng avvalo, iste'moli va jamg'arishdagi moyilliklar transformatsiyasi, bunga Rossiya mentalitetining ta'siri va shunga bog'liq xolda ichki bozorning o'zgarishi asoslab beradilar.

Uy xo'jaligi to'g'risida so'z yuritganda, ikki tushuncha – oila va uy xo'jaligi tushunchalarni chegaralash lozim. Oila deganda, bir uyda yashashi oila-qarindoshchilik aloqalarining umumiyliigi bilan birlashgan guruh tushuniladi. Uy xo'jaligi esa umumiy vazifalar, yashash joyi, budjet va odatda, oila-qarindoshchilik aloqalari bilan birlashgan kishilar guruhini o'zida namoyon qiladi. Boshqacha aytganda, oila faoliyati ko'plab o'lchamlarni o'z ichiga oladi: biologik, demografik, ruhiy, ijtimoiy va b. Uy xo'jaligi faoliyati esa oilani faoliyat sohasining birgina-iqtisodiy turiga yo'naltiradi. Uy xo'jaligining asosiy funksiyasini *inson kapitalini* shakllantirish, undan foydalanish va saqlash deb belgilash lozim. Bu o'z navbatida, insonning bilimlari, amaliy ko'nikmalari va mehnatga tirishqoqligining yig'indisi sifatida tushuniladi. Uy xo'jaligini yuritish uning a'zolarining oila biznesida ishtiroki hamda oila kapitalini uni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirish asosiy masala hisoblanadi.

Uy xo'jaliklarini O'zbekistonda ham keng o'rganilmoqda, shu o'rinda birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning g'oyalari alohida e'tiborga loyiq, ular umumilmiy ahamiyatga ega. Uning asarlarida oilaviy biznes, oila farovonligini oshirish masalalariga urg'u berilgan. Ushbu fikrlarning dalili sifatida Respublikamizda 2012-yilni "Mustahkam oila" yili deb e'lon qilindi. O'zbekistonlik iqtisodchi

olimlar ishlarida oilaning iqtisodiy faoliyati ular xo‘jaligining daromadlari, jamg‘arishlari va investitsiyalari hatto-ki, mehnat masalalari ko‘riladi. Bu ishlarning e‘tiborli tomoni shundaki, ularda O‘zbekistonda uy xo‘jaliklari faoliyatining o‘ziga xosligi ochib beriladi.

Hozir uy xo‘jaliklari o‘rganilganda to‘plangan nazariy merosga tayaniladi, biroq hozirgi davrdagi o‘zgarishlar ham hisobga olinadi. Uy xo‘jaliklarining mazmuni mohiyati tavsiflanganda neoklassik yoki institutsionalizm tamoyillariga asoslanadi. Ma‘lumki, qarashlarda uy xo‘jaliklari iste‘molchi va resurslar yetkazib beruvchi iqtisodiy birlik sifatida qaraladi. Bunday yondoshuv milliy hisob tizimiga asos qilib olingan. Unga binoan uy xo‘jaligi bir yerda istiqomat qiluvchi, o‘zini tirikchilik vositalari bilan birgalikda qondiruvchi va mablag‘larini birlashtiruvchi ikki va undan ortiq kishilar guruhi va uy joyda yashab tirikchilik qiluvchi va mablag‘ini birlashtirmaydigan bir kishidan iborat.

Respublikamizda uy xo‘jaligi to‘g‘risidagi fikrlarni asosan “Iqtisodiyot nazariyasi” ixtisosligi tomonidagina qisman o‘rganishga harakat qilingan. Masalan, Sh.Shodmonov va Y.G‘afurovlar uy xo‘jaligini bozor iqtisodiyoti subyekti sifatida “uy xo‘jaliklari – iqtisodiyotning iste‘mol sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi asosiy tarkibiy birlik”<sup>47</sup> deb qaraydi va ular doirasida moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida yaratilgan tovar va xizmatlar iste‘mol qilinadi deb hisoblashadi.

D.Tojiboyeva o‘zining asarida “Uy xo‘jaligi tarkibi bir yoki bir necha kishidan iborat iqtisodiy birlik — oiladan iborat. Uy xo‘jaligi: a) ishlab chiqarishni mehnat resurslari bilan ta‘minlaydi; b) mustaqil qarorlar qabul qiladi; v) ishlab chiqarish omillarining: kapital, yer, mehnat, tadbirkorlikning egasi hisoblanadi; g) o‘z xo‘jaligi ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga intiladi”<sup>48</sup> deb ko‘rsatib o‘tadi.

Professor B.Berkinov va M.Sunnatovlar uy xo‘jaliklari va oilani ikkiga ajratadi. Ularning fikricha, “Uy xo‘jaligi to‘g‘risida so‘z

---

<sup>47</sup> Shodmonov Sh., G‘afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. 154 b.

<sup>48</sup> D.Tojiboyeva. Iqtisodiyot nazariyasi. To‘ldirilgan, 2-nashri. O‘quv qo‘llanmasi. T.:TMI, 2005. 140 b.

yuritganda, ikki tushuncha – oila va uy xo‘jaligi tushunchalarni chegaralash lozim. Oila deganda, bir uyda yashashi oila-qarindoshchilik aloqalarining umumiyligi bilan birlashgan guruh tushuniladi. Uy xo‘jaligi esa umumiy vazifalar, yashash joyi, budjet va odatda oila-qarindoshchilik aloqalari bilan birlashgan kishilar guruhini o‘zida namoyon qiladi”<sup>49</sup>.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda ko‘rishimiz mumkinki, bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo‘jaliklari asosiy subyekt sifatida ham iste’mol jarayonini, ham ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiruvchi tarkibiy birlik sifatida qaraladi.

Ko‘pchilik hozirgi “Ekonomiks” larda ham uy xo‘jaligi tavsiflanganda u iqtisodiy subyekt sifatida qaraladi. K.R.Makkonnell va S.Bryu qayd etishicha, uy xo‘jaligi “bir yoki ikki kishidan ziyod bo‘lgan kishilar tashkil etuvchi iqtisodiy birlik bo‘lib, u iqtisodiyotni resurslar bilan ta‘minlab, buning uchun olingan daromadlarni inson moddiy ehtiyojlarini qondiruvchi tovar va xizmatlarni olish uchun ishlatadi degan g‘oyadan kelib chiqadilar. Ular uy xo‘jaligini birinchi navbatda daromad oluvchi, ikkinchi navbatda xarajat qiluvchi guruh”<sup>50</sup> sifatida qaraydilar. Bunday qarash boshqa “Ekonomikslarda” ham uchraydi. Eng so‘nggi Ekonomikslarda ham uy xo‘jaligi iste’molchilar guruhi sifatida qaraladi. MDX mamlakatlaridagi nazariy qarashlar G‘arb “Ekonomiks”lari ta‘sirida bo‘lgandan uy xo‘jaliklari talqinida ham bu seziladi. Rossiyada chop etilgan iqtisodiyot nazariyasi darsliklaridan birida uy xo‘jaligiga g‘oyat keng, uning barcha funksiyalarini qamrab olgan ta‘rif beriladi: uy xo‘jaliklari tarkibida bir yoki bir necha shaxsni birlashtiruvchi iqtisodiy birlik bo‘lib, bu mustaqil qaror qabul qiladi, o‘z ehtiyojini ma‘lum darajada afzal ko‘rib ularni maksimal darajada qondirishga intiladi, qaysi bir ishlab chiqarish omillarining (ko‘proq ish kuchining) egasi hisoblanadi, inson kapitalini hosil etadi va takroran yaratadi<sup>51</sup>. Agar G‘arb “Ekonomiks”larida uy xo‘jaliklari iste’molchilik jihatdan qaralsa, boshqa yerda u ta‘riflanganda uning barcha funksiyalarini aks

---

<sup>49</sup> B.B. Berkinov, M.N. Sunnatov. *Institutsional iqtisodiyot (Ma‘ruzalar matni)* – T. TDIU, 2011. 138 b.

<sup>50</sup> Макконнелл Р.М. *Экономикс: Принципы, проблемы и политика* / Р.М. Макконнелл, С.Л. Брю : в 2 т. - М. : Прогресс, 1992. 936-б.


<sup>51</sup> *Экономическая теория (политэкономия) учебник “прома медия”* м. 1995. 275 б.

ettirishga intilish bor. Bunda ko‘pincha neoklassik yondoshuvga ustivorlik beriladi. Shundan kelib chiqqan holda xo‘jaliklarni iste‘mol bozoriga talab bilan chiquvchi, resurslar bozoriga esa ishchi kuchi taklifi bilan chiquvchi subyekt sifatida qaraladi. Bizningcha, uy xo‘jaliklari ta‘riflanganda uni iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari birgalikda qaralishi ma‘qul bo‘ladi, gap shundaki ilgari iqtisodiyot sof holda, faqat unga xos qonuniyatlar doirasida o‘rganilsa endilikda unga siyosat, ijtimoiy va hatto ruhiy omillar ta‘sirini ham nazarda tutish lozim. Ayrim mualliflar uy xo‘jaligiga institutsional jihatdan yondashib uni “inson kapitalini takroran yaratish, yashash joyining umumiyliigi, budjeti, oilaviy qarindoshchilik aloqalari birlashtiradi. Uy xo‘jaligi asosida hokimiyat munosabatlari bo‘lib, birgalikdagi iqtisodiy faoliyatni nazorat qilish uning a‘zolaridan biriga, oila boshlig‘iga bo‘linadi”<sup>52</sup>. Bu yerda oilaviy aloqalarga ustunlik berilgani holda uy xo‘jaliklarining iqtisodiy jihatlari yetarlicha aks ettirilmagan shu sababli bizningcha uy xo‘jaliklari ta‘riflanganda bunga kompleks, ya‘ni iqtisodiy va ijtimoiy institutsional jihatdan qarash lozim. Shundan kelib chiqqan holda uy xo‘jaligiga quyidagicha ta‘rif berdik: uy xo‘jaligi bu iqtisodiyotdagi kishilarning mini guruhidan iborat maxsus subyekt bo‘lib, u ma‘lum iqtisodiy tizim va ijtimoiy institutsional vaziyatda iste‘molchilik, ishchi kuchini takroran yaratish va jamg‘arish borasida boshqa subyektlar bilan munosabatga kirishadi.

Uy xo‘jaligining subyektlari uni tashkil etuvchi individlar hisobidagi resurs egalari hisoblanadi, ular umumiy manfaat yo‘lda birgalikda xo‘jalik yuritishadi. Uy xo‘jaligi ishtirok etadigan munosabatlarning subyekt, moddiy resurslar ish kuchi, moliya resurslari, iste‘mol tovarlari hisoblanib, bularni quyida keltirilgan 7.1-rasmda ham yaqqol ko‘rish mumkin.

---

<sup>52</sup> Олейник А. Институциональная экономика : учеб.-метод. пособие. Тема 12. Домашнее хозяйство и другие организационные структуры // Вопросы экономики. - 1999. 127 б.



**7.1-rasm. Uy xo'jaliklari iqtisodiyot subyekti sifatida**

Uy xo'jaligi munosabatlari subyekti unga birlashgan kishilar bo'lib, ular har xil iqtisodiy - ijtimoiy maqomga ega bo'ladi. Munosabatlar obyekti ham bir xil emas, faqat yerga xususiy mulk bor yerda uy xo'jalik resursini hosil etadi. Boshqa moddiy resurslar ko'chmas mulkdan iborat bo'ladi. Moliya resurslarini pul va qimmatli qog'ozlar tashkil etadi.

Ishchi kuchi resurs sifatida uy xo'jaligida istiqomat qiluvchilarning ishlash qobiliyati, intellektual salohiyati va tadbirkorlik qobiliyatidan iboratdir. Mulkiy obyekt bo'lgan tirikchilik ne'matlari xarid etilgan va xo'jalikni o'zida yaratilgan iste'mol buyumlaridir. Xo'jalikning ichki munosabatlari, asosan, daromadlarni taqsimlash va iste'molni qondirish jarayonida yuzaga keladi va u shakllangan odat va tartibga binoan yuz beradi. Xo'jaliklarning tashqi munosabatlari uchun obyektiv kuch va bozor qonunlari asosi amal qiladi.

Uy xo'jaliklarining mazmun-mohiyati ularning vazifasida namoyon bo'ladi. Bu vazifalar iqtisodiy tizim xarakteristikasida muhim ahamiyatga ega, shu sababli uning tahliliga katta e'tibor beriladi. Ular xususida iqtisodchi olimlarning fikr mulohazasi turlicha.

Ayrim rossiyalik iqtisodchi mualliflar uy xo'jaliklarida takror ishlab chiqarish, daromad topish va xarajat qilish o'z manfaatini

himoya qilish va ijtimoiy funksiyalari<sup>53</sup> bor deb hisoblaydilar, hatto iqtisodiy mehnat va iqtisodiy mehnatsiz funksiyalarini ajratadilar. Hozirgi adabiyotlarda esa uy xo‘jaliklari ishlab chiqarish omillariga egalik qilish, inson kapitalini yaratish, axborot resurslarini tiklash, tizim mohiyatini ifodalash funksiyalari ham borligi qayd etiladi<sup>54</sup>. Bizningcha, xo‘jaliklar iqtisodiy, ijtimoiy va demografik funksiyalari uzviy bog‘langan bo‘lsa-da, ularni alohida o‘rganish, buning uchun e‘tiborni asosiy funksiyalarga qaratish lozim. Uy xo‘jaliklari funksiyalari baholanganda ular mini guruh bo‘lib, o‘z ichida munosabat hosil etishni boshqalar bilan mikro va makro darajadagi munosabatlarga kirishni nazarda tutishi lozim. Ichki munosabatlar jihatdan u daromadlarni taqsimlash, ehtiyojlarni qondirish, bolalar tarbiyasini moliyalashtirish o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish, o‘zi uchun ishlab chiqarish kabi funksiyalarni bajaradi. Mikro darajada u bir-biriga kredit berish, ish kuchini bozorga taklif etish, bozordan tovarlar xarid etish, kredit bozorida faoliyat yuritish kabi funksiyalarni bajaradi.

### **7.3. Uy xo‘jaligining yagona modellarida gender.**

Uy xo‘jaligi va boshqa subyektlar tarixiy muayyan iqtisodiy munosabatlar va ularga muvofiq manfaatlarning manbayi hisoblanadi. Mulkchilik munosabatlari va iqtisodiy manfaatdorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik sabab-oqibatli aloqasini bildiradi. Bu aloqa barcha iqtisodiy manfaatlar shakli va turlarida namoyon bo‘lib, ularning mazmuni va amalga oshirish uslublari mulkchilik munosabatlari bilan belgilanadi. “Iqtisodiy manfaat” kategoriyasi ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va moddiy boyliklarni iste‘mol qilish kabi munosabatlarning ifodasi sifatida xizmat qiladi.

Uy xo‘jaliklari mustaqil subyektlar bo‘lsalar-da, obyektiv iqtisodiy muhitda ish yuritishadi, uning qonunlari ta‘sirida bo‘lishadi. Ular faoliyatida Robinzonlarcha xo‘jalik yuritish usuli bo‘lmaydi, ya‘ni ular boshqa subyektlardan ajralgan holda hayot kechira olmaydilar, chunki ular iqtisodiy tizimning bir qismi. Bas shunday

---


<sup>53</sup> Жеребин В.М. Классификация, функции и значение деятельности домашних хозяйств // Вопросы статистики. - 1997. - № 2. - С. 69.

<sup>54</sup> Жеребин В.М. Экономика домашних хозяйств / В.М. Жеребин, А.Н. Романов. - М.: Финансы, 1998. - С. 62-63.

ekan, ularning boshqa iqtisodiy subyektlar bilan munosabatga kirishi tabiiydir.

Uy xo'jaliklari iqtisodiy subyekti sifatida qaralganda ularning bozor munosabatlaridagi ishtirokiga urg'u berish zarur. Ular xo'jalik yurituvchi subyektlar sifatida ijtimoiy takror ishlab chiqarishda ishtirok etadi. Buni xo'jaliklarni makroiqtisodiy oborotdagi ishtirokidan ko'rish mumkin (1.3-rasm).

Uy xo'jaligi boshqa subyektlar bilan tovar-pul munosabatiga bevosita kirishadi. Bu takror ishlab chiqarishning hamma bosqichlarida mavjud bo'lib, eng avvalo, resurslar egasi sifatida maydonga chiqadi. Uning ixtiyoridagi moddiy, moliyaviy resurslar va ishchi kuchi resurslari bozorga taklif etiladi. Bu yerda ular pulga almashtiriladi, ya'ni firmalar, davlat va nodavlat tashkilotlariga sotiladi. Bundan tushgan pul iste'mol bozoriga chiqib tovar va xizmatlarni sotib olishga sarflanadi.



### 7.3-rasm. Iqtisodiyotda tovar pul oqimida uy xo'jaliklari ishtiroki

Bozordan olingan tovarlar iste'mol etilib ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Uy xo'jaliklari makroiqtisodiy oborotda faol qatnashadi. Bu esa takror ishlab chiqarishdan o'zga narsa emas. Ular takror ishlab chiqarishning hamma bosqichlarida – fazalaridagi iqtisodiy aloqalarni ishtirokchisi hisoblanadi. Ammo ayrim fazalarda bu aloqalar o'z



xususiyatiga ega. Birinchi ishlab chiqarish fazasida ular resurslari ishlab chiqarish omillariga aylanib tovar va xizmatlar yaratiladi. Bu jarayonda uy xo‘jalik ikki xil ishtirok etadi: birinchidan ular o‘z resurslarini firmalardagi ishlab chiqarish jarayoniga kiritadi; ikkinchidan ularni o‘zlari mustaqil ishlatadilar. Ulardan chiqqan insoniy omil nafaqat milliy, balki boshqa yerdagi ishlab chiqarishga ham kiritiladi. Bunga xo‘jaliklar ish kuchi eksporti orqali erishadilar, ya’ni ular hozir modaga kirgan ibora bilan aytganda “gosterbayterlar”ni ya’ni mehmon ishchilarni yetkazib berishadi. Aytilgan ishlarni bajarish yuzasidan uy xo‘jaliklari firmalar bilan bozor munosabatlariga kirishadi.

Uy xo‘jaliklari takror ishlab chiqarishning taqsimlash fazasida ishtiroki g‘oyat murakkab kechadi, chunki taqsimlashning o‘zi ko‘p bosqichli bo‘lib, unda ko‘pchilik subyektlar qatnashadi. Taqsimlash jarayonida uy xo‘jaligi yaratilgan mahsulot va xizmatlar bozor qiymatidan o‘z ulushini oladiki, bu bozor iqtisodiyotidagi taqsimlash qonuniga binoan yuz beradi. Bu ulushning miqdori uy xo‘jaliklarini takror ishlab chiqarishda naqadar ishtirok etishiga bog‘liq bo‘ladi. Taqsimlash jarayonida mahsulot va xizmatlarning bir qismi uy xo‘jaliklari olsa, boshqa qismi firmalarga tegadi. Bu qismlar qayta taqsimlanib ulardan olingan chegirmalar davlat va nodavlat tashkilotlarning ulushiga aylanadi. Taqsimlashdan so‘ng keladigan ayirboshlash fazasida tovar va mahsulotlar pulga ayirboshlanadi, ya’ni bu yerda oldi-sotdi munosabatlari paydo bo‘ladi. Shuni aytish o‘rinliki, taqsimlash jarayonida uy xo‘jaliklari mahsulot va xizmatlarning o‘zini emas, balki ularning bozor narxi belgilaydigan pul-qiymat shaklidagi ekvivalentini oladilar, bozor orqali bu pulni real tovar va xizmatlarga ayirboshlaydilar. Iste’mol tovarlari bozorida uy xo‘jaliklari tovarlarga talab bildiruvchi bo‘lsa, firmalar tovarlarni, sotuvchi-taklif etuvchi vazifasini o‘taydilar. Bu yerdagi munosabat talab va taklif qonuniga binoan kechadi.


Iste’mol fazasida tovar va xizmatlarni muayyan maqsad yo‘lda ishlatilishi, ya’ni sarflab yuborilishi yuz beradi. Bu jarayonda tadbirkorlarning ishlab chiqarish iste’moli qondiriladi, ya’ni ular ilgari sarflangan resurslar o‘rnini to‘ldiradilar va yangidan qo‘shimcha resurslarni ishlab chiqarishga yuboradilar. Uy xo‘jaliklarining iste’mol jarayonidagi munosabati boshqa subyektlar bilan emas, balki

xo'jalikni o'zida birlashgan iste'molchilar o'rtasida bo'ladi, ammo iste'mol ishchi kuchini takroran yaratib tadbirkorlarga yetkazib berishga xizmat qiladi. Uy xo'jaligida qisman bo'lsa-da ishlab chiqarish iste'moli bo'ladi va bu oilaviy ishlab chiqarishdagi resurslarni tiklash va ularni ko'paytirishga qaratiladi.

Cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlarni yaxlit qilib, bir so'z bilan, iqtisodiy faoliyat deb ataladi.

Qadimda iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli uy xo'jaligi tarzida bo'lgan. Lekin, hozirgi davrda iqtisodiyot faqat uy yoki individual xo'jalikdan iborat emas, balki yirik xususiy xo'jalik, jamoa, hissadorlik, jamiyatlari davlat xo'jaliklaridan, moliya va bank tizimlaridan, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo'shma korxonalar, davlatlar o'rtasidagi turli iqtisodiy aloqalardan iborat bo'lib, juda murakkab soha hisoblanadi. Buning ustiga barcha resurslarimiz pul mablag'lari, tabiiy boyliklar, malakali ishchi kuchlari hammasi cheksiz emas. Mana shu cheklangan resurslardan oqilona foydalanib, aholining to'xtovsiz o'sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish, unga eng kam resurs sarflab, ko'p samaraga erishish, resurslar va mahsulotlarni to'g'ri taqsimlash yo'llarini topish iqtisodiyotning asosiy mazmunidir.

Uy xo'jaliklarining tadbirkorlik sektori bilan bo'ladigan munosabati mikrodarajada bo'lib tovar, xizmat va pul oqimlarining qarama-qarshi harakatini keltirib chiqaradi. Tadbirkorlarga resurs berib, ulardan buning haqi sifatida pul oladilar (7.4-rasm.)



**7.4-rasm. Uy xo'jaliklari va tadbirkorlarning o'zaro aloqalari**

Uy xo'jaliklarining tadbirkorlik sektori bilan munosabati ko'p qirralidir, chunki turli tipdagi xo'jaliklar turlicha maqsadni ko'zlagan holda funksional farqlanuvchi xar xil firmalar bilan munosabatda bo'ladilar. Bularning obyekti pul, tovar, xizmatlar, kapital va ko'chmas mulk bo'lsa, ularning subyektlari bir tomondan tadbirkor, ishchi-xizmatchi pensionerlar xonadoni, ikkinchi tomonda esa tovar chiqaruvchi tadbirkorlar, fermer xo'jaliklari, banklar, sug'urta, investitsiya va trust kompaniyalari kabilardir. Ularning aloqalari tovarlar bozori bilan cheklanmay pul kapital, moliyaviy aktivlar, ko'chmas mulk bozorida ham amal qiladi. Bu bozorlarda ishtirok etishdan maqsad o'z manfaatlarini yuzaga chiqarish, ya'ni ish haqi, foyda, dividend, foiz va renta olinishidir. Bu bilan kundalik hayotiy ehtiyojlar qondirilibgina qolmay kapital hosil etib boylik orttirishga ham erishiladi.

Uy xo'jaliklarining makroiqtisodiy munosabatlari nodavlat va notijorat tashkilotlari bilan ham yuz beradi, ammo bu munosabatlar cheklangan bo'lib, bularda xo'jaliklarning kichik saylangan qismi, ya'ni ular xizmatidan foydalanadigan qismi qatnashadi. Bu yerda xizmatlar uchun badal to'lanadi, lekin xizmatlarni pulga ayirboshlashda ekvivalentlik qoidasi amal qilmaydi, chunki xizmatlar qiymati badallardan oz yoki ko'p bo'lishi mumkin.


Uy xo'jaliklarini boshqalar bilan munosabati aksariyat hollarda bozor munosabati tavsifiga ega, ammo nobozor munosabatlari ham bor. Hozirgi adabiyotda nobozor munosabatlarning mavjudligi ham e'tirof etiladi.<sup>55</sup>

Nobozor munosabatlari uy xo'jaliklarining davlat bilan bo'lgan aloqalariga xos. Ularning davlat tashkilotlariga ish kuchi yetkazib berib, uning bozor qiymatini ish haqi shaklida olishi bozor munosabati, albatta. Biroq ularning davlatga soliq to'lashi va davlatning bepul ijtimoiy xizmatlaridan foydalanishida nobozor munosabatlari gavgavdalanadi. Bir qarashda soliqlar davlat xizmatlarining haqi sifatida ko'rinadi. Biroq, ayrim xo'jaliklar to'lagan soliq summasi bilan ular oladigan bepul xizmatlar qiymati o'rtasida tenglik yo'q, demak ayirboshlashdagi ekvivalentlik bo'lmaydi. Davlat xizmatlari xususiy

---

<sup>55</sup> К.Р.Макконел, С.Л.Брю экономика, принципы, проблемы и политики м.1992 стр .... П.Самуэльсон экономика том 1 м.1992, стр... Р.Хасанов Бозор даромадлари мохияти, таркибий тузилиши ва табақаланиши. Т.: 2004 86-бет

xizmatlardan farqliroq bozor narxiga ega emas, ular aholi uchun tekin. Bas shunday ekan, bu yerda bozor munosabatlari bo‘lishi mumkin emas. Ayrim tadqiqotlarda davlat ijtimoiy xizmatlari tovar emasligi, ularni yaratish taqsimlash va ulardan foydalanish nobozor munosabatlar sifatida talqin etiladi. Shu fikrga qo‘shilgan holda uy xo‘jaliklarining davlat bilan munosabatlarida nobozor munosabatlarini ustuvor ekanligini ta’kidlash o‘rinli bo‘lsa kerak. Davlat bilan bo‘lgan munosabatlarning yana bir jihati ularni makroiqtisodiy harakterda bo‘lishidir. Bular pul va tovar xizmatlar oqimining bir-biriga qarab yo‘nalishini bildiradi. (7.5-rasm).



**7.5-rasm. Uy xo‘jaliklari va davlat o‘rtasidagi munosabatlar.**

Chizmada uy xo‘jaliklari va davlat o‘rtasidagi ayirboshlash ko‘rsatilgan bo‘lib, bu yerda ish kuchini davlatga yetkazib berib uning haqini olishga asoslangan bozor munosabatlari, pul shaklida soliqlar to‘lash, lekin bepul xizmatlardan foydalanish tariqasidagi nobozor munosabatlari ko‘rsatildi. Uy xo‘jaliklari o‘zaro munosabatga ham kirishadi. Bu g‘oyat cheklangan kredit munosabatidir, u minidarajada yuz beradi. Turli tadqiqotlar ko‘rsatishicha, bu yerda tanish-bilish, qavm-qarindoshlar o‘rtasida pulni oldi-berdisi yuz beradi. Bu yerda pul bo‘la turib undan foiz undirilmaganda nobozor munosabati paydo bo‘ladi, foizli o‘zaro kredit berilganda bozor munosabati paydo bo‘ladi. Demak, xo‘jaliklararo munosabatlar obyektu pul bo‘lgani holda aloqalar tabiatan nobozor bo‘lishi mumkin. Munosabatlarning xarakterini ular obyektining o‘zi emas, balki ularni bozor qoidalariga binoan bo‘lishi yoki bo‘lmasligi belgilab beradi. Xo‘jaliklarning ichki aloqalari minidarajada va ular vakillari o‘rtasida bo‘ladi. Ular nobozor munosabati tasnifiga ega, chunki bu yerda ayirboshlash munosabati yo‘q. Bu birinchidan, ikkinchidan uy xo‘jaliklarida o‘zi uchun, ya’ni

natural ishlab chiqarish, iste'molni notovar shakli bor, bu ham nobozor munosabatining bir ko'rinishidir.

Uy xo'jaliklarining iqtisodiy munosabatlari tashqi bo'lganda ular o'zgalalar bilan bo'ladi, ichki bo'lganda xo'jalikni tashkil etuvchi kishilar o'rtasida bo'ladi. Bular miqyosan va tabiatan bir xil emas. Boshqalar bilan aloqalar keng ko'lamlı bo'lsa, ichki aloqalar tor doirada kechadi.

Uy xo'jaliklari qatnashadigan munosabatlar bir joyda qotib qolmay, aksincha ular iqtisodiy tizimning rivojlanishiga qarab takomillashib boradi. Bular yosh mustaqil mamlakatlarda bozor islohotlari natijasida yangicha mazmun va shakl kasb etadilar. Bu yerda ularning rivojlanishi liberallik, ya'ni iqtisodiy erkinlik darajasining o'zgarishi tomon qarab boradi, chunki xo'jaliklar obyektiv tarzda iqtisodiy tizimning unsurlariga aylanadi. Bozor munosabatlari shakllanib ulgurgan va rivojlangan mamlakatlarda uy xo'jaliklariga aloqador munosabatlar iqtisodiy islohotlar natijasida rivojlanadi. Hozirgi tajriba ko'rsatishicha, ular davlat tartiblab turadigan, tartibsizlik minimal darajaga keltiradigan munosabatlarga aylanib boradi.

#### **7.4. Kooperativ savdolar va jamoaviy qarorlarni qabul qilish modellari**

Uy xo'jaliklari yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, bozorning eng faol ishtirokchisi hisoblanadi. Ma'lumki, bozor tovar-pul munosabatlarini ifodalovchi kategoriya bo'lib, ayirboshlash munosabatlarini bildiradi. Unda xonadonlardan tashqari firmalar, xo'jaliklar, davlat idora va tashkilotlari nodavlat tashkilotlari va chet ellik subyektlar qatnashadi. Uy xo'jaliklarining bozordagi ishtiroki ikkiyoqlama, birinchi ularni xaridorgirligi bo'lsa, ikkinchisi ularning sotuvchi bo'lishidir. Ular xaridor sifatida o'z puli bilan iste'mol tovarlari bozoriga chiqsa, sotuvchi sifatida resurslar bozoriga kirib boradi. Ular iste'mol tovarlari bozoriga talab bildirsa, resurslar bozoriga o'z taklifini bildiradi. Demak, uy xo'jaliklari ham talab ham taklif omili hisoblanadilar. Ularning iqtisodiyotdagi asosiy funksiyasi iste'molchilik bo'lar ekan, ularning talabi milliy bozorga jiddiy ta'sir etadi. Bozorda ular ehtiyojining talabiga transformatsiya yuz berib, bu pul

vositasida kechadi. Bozor uchun iste'molchi talabi birlamchidir shunga qarab bozor hajmi o'zgarib turadi.

Uy xo'jaliklarining iste'molchilik talabi o'sgan sharoitda bozor kengayadi, aksi yuz berganda bozor torayadi. Birinchi holat iqtisodiyot uchun ijobiy bo'lsa, ikkinchisi salbiydir. O'zbekiston sharoitida birinchi holat muhim bo'lganidan ichki bozor o'zining barqarorligi va doimo kengayib borishi bilan tavsiflanadi. Xo'jaliklari iste'molini takror ishlab chiqarishning asosiy sharti deb aytish mumkin. Iste'mol xonadonda yuz berib takror ishlab chiqarishni yakunlaydi. Ularning xaridi tovarlarni bozor qiymatiga binoan sotilishini, bundan tushgan pul oqimi tovar ishlab chiqaruvchilar tasarrufidan keladi, shu pul hisobidan ular o'z xarajatlarini qoplaydilar. Bu pul qaytadan resurslarga ayirboshlanadi, natijada sarflangan resurslar qaytadan tiklanadi. Bu esa oddiy takror ishlab chiqarishning shartidir. Xonadonlar puli bundan ortib qoladi va investitsiya resursini hosil etadi. Bu pul bozordan qo'shimcha resurs olish uchun sarflanadi. Bu resurslar ishlab chiqarish omillarini ko'payganini bildiradi, natijada ishlab chiqarish kengayadi, ammo bu qo'shimcha tovarlarga talab bo'lganda yuz beradi. Iste'molchilar puli ishlab chiqarishning o'sishiga olib keladi. Demak, xo'jaliklar iste'moli nafaqat oddiy, balki kengaytirilgan ishlab chiqarishning hal qiluvchi shartidir.

Uy xo'jaliklari ko'pchilik bo'lib tarqoq faoliyat yuritganidan ulardan har bir bozordagi individual talabni hosil etadi. Bozor ularni birlashtiradi, individual talabni umumiy talabga aylantaradi, umumiy talab faqat ayrim bozor sigmentlari emas, balki milliy bozorga ham xosdir.

Tovarlar taklifi ortgan sharoitda o'rinbosar tovarlar ko'payadi, bir tovar o'rnini boshqasi bilan bosish doirasi kengayadi, o'rinbosarlik talabni bir tovardan boshqasiga ko'chiradi, lekin bu jami talab miqdorini o'zgartirmaydi. U o'zgarishi uchun narxlar va xarid qobiliyati nomutanosib bo'lishi kerak. Umumiy talabni qondirilishi YaIM ni katta qismini tashkil etuvchi iste'mol tovarlari realizatsiya etilishini bildiradi.

Aholi talabiga javoban ishlab chiqarishi va import hisobidan bozorga taklifni chiqarish yuzaga keladi. Biroq savdo aylanmasi tarkibida davlat tashkilotlarining ham xaridi mavjud, lekin uning hissasi oz, shu sababli undan xonadon iste'moli ko'rsatgichi sifatida

foydalanish mumkin. Chakana savdo aylanmasini xonadonlar xarid puliga qarab o'sishi ularning iste'mol bozorida realizatsiyada ishtirokini ko'rsatadi. Ma'lumotlarga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi xarid qurbidan jadalroq o'sadi, chunki bu yerda davlat tashkilotlari iste'molini qondirish ham yuz beradi.

Uy xo'jaliklari iste'moli talab orqali bozorning signalini ishlab chiqarishga yetkazadi va u shu signalga moslashadi. Demak, xo'jaliklar faoliyati bozor mexanizmi vositasida iqtisodiyotni o'sishiga ta'sir etadi.

Ma'lumki, milliy bozor ko'p segmentli. Uni 2 yirik segmentga ajratish mumkin. Birinchisi, iste'mol tovarlari bozori. Bu aholining YaIM dagi aytilgan hissasi shu bozordagi realizatsiyani ta'minlaydi. Ikkinchisi, ishlab chiqarish vositalari bozori. Bularning realizatsiyasida ham xonadonlar qatnashadi. Bunda ular mayda ishlab chiqaruvchilar sifatida bozordan o'z ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur narsalarni, xususan, xomashyo, yoqilg'i, elektroenergiya va turli asbob uskunalarni sotib oladi va bozorni kengaytiradi. Biroq milliy bozorni kengayishida uning iste'molchilik faoliyati bosh rol o'ynaydi. Shuni aytish joizki, xonadonlar o'zining xarid qurbi jihatidan jiddiy farqlanadi, natijada ularning bozorga chiqqan talabi ham miqdor ham tarkib jihatidan farqlanadi, natijada ularning turli bozor segmentida har xil ishtirok etadilar, bozorning kichik segmentlarida bu yaqqol ko'zga tashlanadi. Arzon oziq-ovqat, kiyim-kechak va xizmatlar bozorida aholining puli kam qatлами faol qatnashadi. Aksincha, aholining puldor qatلامي sifatli tovar va xizmatlar bozoridagi realizatsiyani ta'minlaydi.

Uzoq muddatli iste'mol tovarlari bozorining hajmiga birinchidan, ularni jismoniy eskirishi tufayli almashtirilib turishi, ikkinchidan, ularni modadan qolib ma'naviy eskirishi va yangisi bilan almashtirilishi ta'sir etadi. Birinchi turdagi almashtirish puli kamlarga xos bo'lsa, ikkinchi turdagi almashtirish puldorlarga xosdir. Demak, tovarlar realizatsiyasida serdaromadli xonadonlar faol qatnashadi.

Turli toifaga mansub xo'jaliklar xizmatlar bozoridagi realizatsiyani ham turlicha ta'minlaydilar. Ularning kommunal xizmatlar bozori xarididagi farq 2,6 marta bo'lib, bu uzoq muddatli tovarlar iste'molining har xilligidan kelib chiqadi, chunki bular iste'molni to'ldiruvchi tovarlar bo'lib, ularda o'rinbosarlikday

xususiyat bo'lmaydi. Xonadonlarning realizatsiya jarayonidagi ishtiroki jihatdan farqlanishi ijtimoiy xizmatlar bozorida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu bozor O'zbekiston uchun mutlaqo yangi bozor bo'lib, bu ijtimoiy xizmatlar sohasida ham erkin tadbirkorlikka yo'l berilishi natijasida shakllandi va rivoj topdi. Bu bozordagi taklif davlat tashkilotlarining kommertsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi bo'g'inlari, xususiy xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonida bo'ladi. Talabni esa daromadi jihatidan farqlanuvchi aholi bildiradi. Talabning asosiy qismi bu yerda ham puldorlar tarafida bo'ladi, chunki ijtimoiy xizmatlarga talab oshganidan ular narxi ortib boradi va bunday narxni puldorlar ko'tara oladi. Buni shundan ko'rish mumkinki, jon boshiga hisoblaganda puli ko'p xo'jaliklar puli kamlarga nisbatan ta'lim xizmati xaridi uchun pulni 29,7 marta, sog'liqni saqlash xizmati uchun 4 marta, madaniy va sport xizmatlari uchun esa 4,8 marta ko'p sarflaydilar.

Aholining bozordagi ishtirokini farqlanishi ichki bozordagi realizatsiyani katta qismi puldorlar hissasiga to'g'ri keladi degan gap emas, chunki xonadonlarning ko'pchiligi puli kam va o'rtacha puli bor xonadonlar eng so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, daromadi o'rtacha xonadonlarda aholining 60% istiqomat qiladi, puli kamlari esa 22%ni tashkil etadi. Demak puldorlar faqat 18%ga teng. Shu sababli ularni xonadon yoki jon boshi hisobidagi xaridi qanchalik ko'p bo'lmasin, ular realizatsiya jarayonini yetakchi elementi bo'lolmaydi, lekin ular katta jamg'arish hosil etib kapital bozorida yetakchi rol o'ynaydilar.

Xo'jaliklar iste'molining takror ishlab chiqarishiga ta'sirini bilish uchun ular iste'mol hajmini YaIM qiymati bilan qiyoslash lozim. Bunda bozorning joriy narxlardan foydalanishi kifoya qiladi. Bu narxlar iste'mol bilan ishlab chiqarish hajmini baholashda xatolikka olib kelmaydi. Bozor hajmining o'zgarish dinamikada ko'rilganda esa bu usuldan voz kechib, taqqosiy narxlarni yoki qattiq valyutada hisoblangan narxlarni qo'llashga to'g'ri keladi.

Xo'jaliklarni milliy bozor hajmiga ta'sirini anglash uchun ular xaridini boshqa subyektlar xaridi bilan qiyoslash lozim. Iste'mol bozorida uy xo'jaliklaridan so'nggi o'rinni davlat tashkilotlari egallaydi. Ular aholiga bepul ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadi, bu esa joriy va kapital sarflarni talab qiladi. Ular hisobidan ijtimoiy xizmat tashkilotlari iste'mol buyumlarini bozordan sotib oladilar. Ammo ular



iste'molining hajmi katta emas. Ayni paytda ular kapital xarajatlarni moddiylashtirish uchun vositalar bozorida kerakli tovarlarni sotib oladilar. Ular iste'moli miqdoran ko'payib borsada, ularni jami iste'moldagi hissasi kamayishga qaratilgan hozirgi paytda (2012 – yil) 1 mlrd. so'mlik xonadonlar iste'moliga 250 mln so'mlik davlat iste'moli to'g'ri keladi. Biroq davlat iste'moli bepul ijtimoiy xizmatlarni aholiga yetkazib berish orqali aholi ehtiyojini qondiradi, bu esa xizmatlarning xususiy bozorini chegaralab turadi. Uy xo'jaliklarining iste'mol xaridi miqdoran o'sgani holda jami iste'moldagi hissasi unchalik katta emas. Buni xalqaro taqqoslash ko'rsatib turadi.

O'zbekistonda xususiy iste'mol hissasi boshqa mamlakatlardagidan kichik, buni davlat iste'molidan ko'proq kelajakni ta'minlash uchun katta mablag' zarurati yuzaga keltirgan. Hozirgi davrda xususiy iste'molning YaIM dagi ulushining ortishi kuzatiladi. Bu tendensiyani kuchaytirish uchun inflatsiya shiddatini yanada pasaytirish, aholi hamma toifalari daromadini oshirish talab qilinadi. Buning sharti, birinchidan, bandlikni ikkinchidan, mehnat unumdorligini oshirish va uchinchidan, xorij kapitalini ko'proq jalb etish yo'l bilan milliy jamg'arish hissasini kamaytirishdir.

Uy xo'jaliklarining takror ishlab chiqarish jarayonidagi ishtiroki ishlab chiqarish vositalari bozorida ham kuzatiladi. Agar ular iste'mol bozorida asosiy rol o'ynasa vositalar bozorida ularning roli katta emas, bu ularning ishlab chiqarish faoliyatining kichik miqyosida bo'lishidan kelib chiqadi. Ilgari qayd etganimizdek, ularning ishlab chiqarishi serkapital emas, balki sermehnatdir. Buning natijasida ularning vositalar bozoridagi talabi cheklangan, mehnat bozorida esa talab bildirmaydilar, chunki o'z ish kuchidan foydalanadilar. Xonadon ishlab chiqarishining kengayib borishi mehnat massasi hisobidan bo'ladi, ularni bozordan xarid etadigan ishlab chiqarish vositalari asosiy fondlarni o'stirishdan ko'ra ko'proq ularni cheklashga yuboriladi, ayniqsa, bu dehqon xo'jaliklariga xosdir. Bu yerda ishlab chiqarishdan chiqib ketgan asosiy fondlarga nisbatan yangidan kiritilgan fondlar miqdoran deyarli farqlanmaydi. Asosiy fondlarni yangilanib turishi ko'pincha yakka mehnat faoliyatiga xosdir. Bu yerda fondlarning ham tiklanishi, ham o'sishi kuzatiladi. Binobarin uy xo'jaliklaridagi ishlab chiqarish kapital sig'imi jihatidan bir xil emas. Shu bois vositalar bozoridagi realizatsiya jarayonida, asosan, yakka

mehnat sektori ishtirok etadi, lekin buning salmog‘i katta emas, chunki bu yerda asosiy fondlarning o‘zi ko‘p emas.

Uy xo‘jaliklarining milliy takror ishlab chiqarishdagi ishtiroki ularning investorlik faoliyati orqali ham yuz beradi. Ular investitsiya-sining asosiy manbayi jamg‘arishdir. Jamg‘arishni o‘shishi investitsion salohiyotni ortishini bildiradi, bu esa ularni ishlab chiqarish vositalari bozoridagi ishtirokini faollashtiradi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, xo‘jaliklar investitsiyasi o‘zidan ko‘ra ko‘proq tashqariga joylashtiriladi. Birinchi holda ular vositalar bozorida bevosita ishtirok etsa, ikkinchi holda ularni o‘zi emas, ular resursini ishlatuvchilar bozor agentiga aylanadi, lekin baribir ular vositalar bozoriga pul yuborib, u yerdagi realizatsiyada ishtirok etadilar. Xo‘jaliklar investitsiyasi fond bozori va banklar orqali bozorga kirib boradi. Shuni hisobga olib ularning YaIM realizatsiyasidagi o‘rniga baho berish lozim. Bunda xo‘jaliklarning iste‘mol sarfi va moliya institutlaridagi jamg‘armasini birgalikda hisobga olish va ular summasini YaIM qiymati bilan qiyoslash zarur.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

**Uy xo‘jaligi** – bu inson kapitalini ishlab chiqarishning umumiy vazifalari, yashash, budjet va oila-qarindoshchilik aloqalari bilan birlashgan kishilar guruhidir.

**Iste‘mol** – kishilarning iqtisodiy talablarini qondirish jarayonida ijtimoiy mahsulotdan foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi bosqichi.

**Iste‘mol xarajatlari** – tovarlar va xizmatlarni yakuniy iste‘mol qilish maqsadida xarid qilish uchun qilingan xarajatlar. Uy xo‘jaliklari va davlatning iste‘mol xarajatlariga bo‘linadi. YaIMning xarajatlariga ko‘ra tarkibida eng katta va barqaror komponent.

**Iste‘mol narxlar indeksi** – o‘rtacha oila tomonidan, odatda, iste‘mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxining bazis davriga nisbatan o‘zgarishi o‘rtacha darajasini aks ettiradigan ko‘rsatkich, inflyatsiya ko‘rsatkichi sifatida ishlatiladi.

**Iste‘molga o‘rtacha moyillik** – iste‘mol xarajatlarining daromaddagi (yoki shaxsiy tasarrufdagi daromad hajmidagi) hissasi.

**Iste'molga ( jamg'arishga) chegaralangan moyillik** – iste'mol xarajatlaridagi (jamg'arish hajmigi) o'zgarishning bu o'zgarishni keltirib chiqargan daromadlarning (SHTDdagi) o'zgarish miqdoridagi ulushi.

**Inson (mehnat) resurslarini rivojlantirish** Ish bilan bandlik va ishsizlik, daromad bilan ta'minlanish, ta'lim va o'qitish hamda sog'liqni saqlash bilan bog'liq bo'lgan dasturlar va yondoshuvlardir. Ushbu sohalarning hammasi birgalikda «ijtimoiy sektor» deb ataladi.

**Inson salohiyati** Insonda mujassamlashgan ko'nikma va belgilar bo'lib, u qisman insonning ta'lim va ma'lumot natijasi hisoblanadi.

**Oila nafaqasi (Bola uchun nafaqa)** Ushbu nafaqa turi har oy to'lanib, odatda u soliqqa tortilmaydi va daromadlarning miqdoriga kiritilmaydi. Ushbu nafaqa turi bola ma'lum bir yoshga to'lguncha to'lanadi.

**Mehnat bozori** – bu ish kuchini oldi-sotdi qilish munosabatini bildiradi. Bu yerda tovar bozoridan farqli o'laroq, insonning o'zi emas, balki uning mehnat qilish qobiliyati, oldi-sotdi tuzish asosida, ma'lum muddatga sotiladi. Ish kuchi avval iste'mol etilib, so'ngra uning haqi to'lanadi.

**Mehnat unumdorligi** – tirik mehnat xarajatlari va natijalarining vaqt birligidagi munosabati.

**Mehnat resurslarini rejalashtirish** – bu korxonaning faoliyati tizimini rejalashtirishning asosiy qismidir. Kadrlarni rejalashtirish qo'yidagi 3 bosqichdan iborat:

- A) mavjud mehnat resurslarni baholash;
- B) kadrlarga bo'lgan talabni baholash;
- V) mehnat resurslarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Uy xo'jaligi ta'rifini keltiring va uning tashkilot sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iboratligini ayting.
2. Oila bilan uy xo'jaligi o'rtasidagi farq nimada?
3. Uy xo'jaligini yuritish va inson kapitalini shakllantirishda qanday vazifalar (funksiyalar) amalga oshiriladi?
4. Uy xo'jaligining qanaqa shakllari mavjud va ularning bir-biridan farqi nimada?

5. Inson kapitalini shakllantirish bo'yicha uy xo'jaligi faoliyatining xususiyatlarini sharxlab bering?
6. Uy xo'jaligi faoliyat ko'rsatishida mutaassiblikning rolini sharxlab bering?
7. Uy xo'jaligining turllariga tavsif bering?
8. Uy xo'jaligi iqtisodiyoti va oila boshqarishning konseptual asoslarini aytib bering?
9. Uy xo'jaliklari daromadi va xarajatlari tarkibi va ularning o'zgarish tendensiyasini sharxlab bering?
10. Uy xo'jaligi va ularning eng asosiy shakllarining o'ziga xos tavsiflarini aytib o'ting?

## **8-BOB. MAHALLIY TOVARLAR VA XIZMATLAR**

### **8.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bozor.**

### **8.2. Transfyer xarajattlarining bozor muvozanati modeli.**

### **8.3. Bozor rivojlanishi iqtisodiyoti.**

#### **8.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bozor**

Oxirgi o‘n yilliklarda iqtisodiyotni boshqariladigan adabiyotlarda rivojlanayotgan bozorlar muammosini muhokamasi keskin ortib bormoqda. Ushbu mavzu bo‘yicha birinchi ilmiy izlanishlar 1960 – 1970 – yillardan boshlangan. Ushbu davrlarda “rivojlanish darajasi past mamlakatlar” tushunchasi mamlakatlar iborasi AQSH, G‘arbiy Yevropa, Yaponiya mamlakatlariga nisbatan qiyoslangan. “Rivojlanayotgan bozorlar”- atamasi birinchi marotaba u yoki bu mamlakatda moliyaviy bozorlarning rivojlanish darajasiga nisbatan foydalanilgan. Ayrim muddatdan so‘ng bu atama transformatsiya qilinib, iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan foydalana boshladi.

Rivojlanayotgan bozorga ega bo‘lgan mamlakat - bu mustabid davlatdan erkin bozorga yo‘naltirilgan iqtisodiyotga o‘tish davri, bu iqtisodiy erkinlikning ortishi, jahon bozori va rivojlanayotgan bozorning boshqa a‘zolari bilan bosqichma-bosqich integratsiyalashuvi bilan ajralib turadi, o‘rta sinfni kengaytirish, turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy barqarorlik va bag‘rikenglik, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirishni tushinish mumkin.

Rivojlanayotgan bozorlar investorlarni nisbatan jozibali baholari, global o‘shishni tiklash istiqboli bilan o‘zining jozibadorligini oshirib kelmoqda.

Rivojlanayotgan bozorlarga investitsiya kirituvchilar ko‘pincha hafsalasi pir bo‘lishadi. Ekspert J.P. Morgan ta’kidlashicha, kuchli o‘shish va qulay demografik va iste’mol tendensiyalariga qaramay, 2010 va 2019 – yillar mobaynida rivojlanayotgan bozorlarda aksiyalarning qaytishi yiliga o‘rtacha atigi + 3.6%.

2020 – yilda kayfiyat o‘zgardi: MSCI rivojlanayotgan bozorlar indeksi 2017 – yildan beri birinchi marta S&P 500 dan ustun bo‘ldi ((Emerging Markets — EM-Rivojlanayotgan bozor-RB) EM S&P 500 + 18,4% ga nisbatan + 18,5% o‘sdi). Bundan tashqari, Osiyo

rivojlanayotgan bozorlar dunyodagi eng muvaffaqiyatli bo'ldi, Xitoy, Tayvan va Koreya yiliga + 40% atrofida o'sdi (dollar bilan hisoblaganda).

Rivojlanayotgan bozorlarni rivojiga, asosan, uchta asosiy omillar hisobiga sodir bo'ldi<sup>56</sup>:

1. Rivojlanayotgan bozorlar global savdo yaxshilanganida, tovarlarning narxi barqaror bo'lganida va AQSH dollari zaif bo'lganida yaxshi ko'rsatkichlarga ega bo'lindi. Eksport ko'pincha rivojlanayotgan bozor o'sish siklining eng o'zgaruvchan qismidir va kompaniyalar foydasi va iqtisodiyot valyutalari uchun muhimdir. Hozirgi vaqtda tovarlarga RB eksportining atigi 30% to'g'ri keladi, bu o'tgan yillarga qaraganda sezilarli darajada kam, tovarlarning narxi global o'sishni ko'rsatmoqda. Ushbu narxlar tavakkalchilik darajasi ettiradi va RB ko'rsatkichlari bilan bog'liqdir (xavfli aktivlar klassi sifatida).

Ko'pgina RBlar AQSH dollaridagi qarzni ushlab turishadi va zaifroq dollar mamlakatlarning qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarini yanada boshqaruvchan qilib, o'sishga turtki beradi. Tovarlar ham dollar bilan baholanadi - dollar zaiflashganda, boshqa valyutalarda tovarlar arzonlashadi va tovarlarga talab o'sishga intiladi.

2. Mamlakatdagi fundamental omillar muhim ahamiyatga ega. Rivojlanayotgan bozorlar - juda keng atama bo'lib, 20 dan ortiq mamlakatlarni qamrab oladi, bular Lotin Amerikasidan Sharqiy Yevropa va Osiyoga qadar.

Rivojlanayotgan bozorlar ikkita alohida o'ziga xos xususiyat ega bo'lib ular:

- xomashyo blogi – bular, asosan, Janubiy Amerika, Afrika, Rossiya va Yaqin Sharq mamlakatlari. Blok juda xilma-xil va kuchli sikllik o'sishga bo'ysunadi. Ushbu rivojlanayotgan mamlakatlar, ayniqsa, infratuzilma sohasida AQSHning kuchli moliyaviy rag'batlantirishini kutishmoqda.

- ishlab chiqarish blogi – bu Osiyo, markaziy va Sharqiy Yevropa va Meksika mamlakatlari. Blok rivojlangan bozor biznes sikllari va global aksiyalar bilan birgalikda harakatlanishga intiladi.

RB sarmoyadorlari ushbu farqlarni tushunishlari kerak, shu bilan birga mutaxassislar har ikkala faoliyatning alohida segmentlariga

---

<sup>56</sup> <https://bcs-express.ru/novosti-i-analitika/razvivaiushchiesia-rynki-glavnaia-torgovaia-ideia-na-2021>

sarmoya kiritishda diversifikatsiya qilish imkoniyatlari va afzalliklarini ko'rishadi.

3. Yangi iqtisodiyot bozorlari rivojlanmoqda.

Uchinchi blok: yarimo'tkazgich blogi, xususan, Koreya va Tayvan. Yarimo'tkazgichlar raqamli evolyutsiyaning markazida bo'lib, ular smartfonlardan tortib elektr transport vositalariga qadar qo'llaniladi.

Rivojlanayotgan bozorlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha turkumlanadi: (1-jadval).

**1- jadval**

**Rivojlanayotgan bozorlarni turlarini keng tarqalgan klasifikatsiyalari<sup>57</sup>**

№	Mamla- katlar	MBФ, OOH*	BRICS ba N-11	EMGP (Kolumbiya universiteti)	MSC	FTSE	S&P**	BBVA
	Ro'yxatga olingan yillar	2013	2011	2014	2013	2010	2014	2014
<b>Barcha ro'yxatga kirgan mamlakatlar</b>								
1	Braziliya	+	+	+	+	+	+	+
2	Hindiston	+	+	+	+	+	+	+
3	Xitoy	+	+	+	+	+	+	+
4	Meksika	+	+	+	+	+	+	+
5	Rossiya Federatsiyasi	+	+	+	+	+	+	+
6	Turkiya	+	+	+	+	+	+	+
<b>6 yoki 7 ta guruhga kirgan rivojlanayotgan mamlakatlar</b>								
1	Indoneziya	+	+		+	+	+	+
2	Polsha	+		+	+	+	+	+
3	Tayland	+		+	+	+	+	+
4	Fillippin	+	+		+	+	+	+
5	Chili	+		+	+	+	+	+
<b>Boshqa mamlakatlar</b>								
1	Argentina	+		+				+
2	Qozog'iston							+
3	Qatar							+
4	Birlashgan Arab Amirliklari							+
5	Ukraina	+						

<sup>57</sup> Алканова О.Н., Смирнова М.М. Маркетинг на развивающихся рынках: подходы к определению и направления исследований // 222-Текст%20статьи-438-1-10-20171023.pdf

## 8.2. Transfyer xarajatlarning bozor muvozanati modeli.

TRANSFERT, transfer (frans. transfert — o‘tkazish, ko‘chirish) -

1) chet el valutasini yoki oltinni bir mamlakatdan boshqasiga o‘tkazish;

2) nomi yozilgan qimmatli qog‘ozlarga egalik huquqini bir shaxs tomonidan boshqa shaxsga berish;

3) kelishuvlarga doir to‘lovlarni bir xisobvaraقدan boshqasiga o‘tkazish;

4) markaziy hokimiyat tomonidan undirilgan soliqlarning bir qismini mahalliy hokimiyat organlariga o‘tkazish. Amaliyotda o‘tkazma to‘lovlar, ya’ni davlat byudjetidan ijtimoiy ehtiyojlar uchun aholiga to‘lanadigan nafaqa va pensiyalar, tadbirkorlarga to‘lanadigan subsidiyalar, davlat qarzi bo‘yicha to‘lanadigan foizlar ham Transfert («**transfert to‘lovlari**») deb ataladi.

Dunyo bo‘ylab 100 milliondan ortiq kambag‘al odamlar hukumat transferti to‘lovini oladilar. Hisob-kitoblarga ko‘ra, yuqori daromadli davlatlarning 90% ushbu to‘lovlarni elektron o‘tkazmalar usuli orqali amalga oshirmoqda, dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlarning yarmidan ko‘pi naqd pul yoki chek kabi qog‘oz to‘lovlardan foydalanmoqda. Pulni naqd pul bilan to‘lash - bu nafaqa oluvchilarga imtiyozlarni o‘tkazishning eng mashhur usuli. Biroq, naqd pul o‘tkazish dasturlari uchta omil bilan cheklanadi: moliyaviy resurslar, institutsional imkoniyatlar va mafkura, xususan mamlakatlarda Global Janubiy. Naqd pul o‘tkazmalari eng ta’sirchan ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan kambag‘al mamlakatlarning ko‘plab hukumatlari ko‘pincha bunday dasturlarni amalga oshirishni xohlamaydilar.

Tabiiy transfer to‘lovlari davlat organlari va uy xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatadigan notijorat tashkilotlari (NPISH) tomonidan uy xo‘jaliklariga ko‘rsatiladigan, ular bozorda sotib olinadigan yoki davlat organlari yoki NPISHlar tomonidan bozorda bo‘lmagan mahsulot sifatida ishlab chiqariladigan alohida tovar va xizmatlardan iborat.

Kiritilgan narsalar:

- Ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari, to‘lovlarni qoplash
- Naturadagi boshqa ijtimoiy ta’minot imtiyozlari (masalan, oziq-ovqat tovarlari)
- Ijtimoiy yordam nafaqalari



• Bozorga tegishli bo‘lmagan alohida tovarlar yoki xizmatlarni o‘tkazish

### ***Ijtimoiy ta’minot***

Birinchi navbatda, ijtimoiy ta’minot nafaqasi mehnatga layoqatsizlik tufayli (jismoniy nogironlik yoki ruhiy shikastlanish), ish topa olmaganligi yoki qarilik (pensiya) tufayli ishdan bo‘shatilgan shaxslarning daromadlarini uzluksizligini ta’minlashga mo‘ljallangan.

Bunga quyidagilar kiradi, lekin ular bilan chegaralanmaydi:

- Ishsizlik uchun tovon puli
- Qarilikni sug‘urtalash
- Davlat xizmatining pensiyalari
- Davlat va mahalliy hokimiyatning pensiyalari
- Omon qolganlarga foyda keltiradi
- Xavfsizlik bo‘yicha qo‘shimcha daromad

Davlat byudjetining asosini daromadlar va xarajatlar tashkil etadi. Moliyaviy inqiroz va noqulay iqtisodiy sharoitlar muvozanatni buzadi va uni tiklash choralari talab etiladi.

Qayta taqsimlashning transfer shaklidan foydalanish eng qulaydir. Transfer to‘lovlari zarar ko‘rgan aholini qo‘llab-quvvatlashning eng maqbul usuli hisoblanadi.

Natijada, ushbu to‘lovlar maqsadli hisoblanadi. Soliq tizimini isloh qilish, ularning maqsadlari uchun ishlatiladigan transfert to‘lovlarining ko‘payishiga olib keladi.

To‘lovlar kichik biznesdagi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va innovatsion texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. Ular har xil turdagi stipendiya va imtiyozlarni oladigan uy xo‘jaliklari va kam ta’minlangan odamlarga mo‘ljallangan.

Transferring ijtimoiy yo‘nalishi shubhali emas. Ular o‘ttizinchi yillarda shakllana boshladilar. Ammo rivojlanish Ikkinchi Jahon Urushining oxirida yuz berdi. Ushbu nuqtada, transfert to‘lovlari davlat qarzini va ijtimoiy sug‘urta xarajatlarini to‘lash uchun ajratilgan foizlar ko‘rinishidagi miqdorlarni o‘z ichiga oladi.

Ayniqsa zaif strategik tarmoqlar va sanoat ishlab chiqarishini, shu jumladan muhim strategik ob‘ektlarni qo‘llab-quvvatlash amalga oshirila boshlandi. To‘lovlar byudjetning 30 foiziga etgani sababli, ellikinch yillarda paydo bo‘ldi.

Endi biz 15 foiz raqami haqida gapirishimiz mumkin. Shvetsiya hukumati barni 32 foizga ko'tardi. AQShda ular so'nggi o'ttiz yil ichida 30 foizdan 12 foizga tushdi. Buning sababi samarasiz tarqatish tizimi edi.

Ishlab chiqarish va daromadlarning o'sishi muqarrar ravishda transfer xarajatlarining kamayishiga olib keladi. Qarama-qarshi rasm ularning ko'payishini ko'rsatadi. Ushbu davlat to'lovlari asosan uchta toifaga bo'linadi.

1. Birinchi tur ishsizlar, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar uchun imtiyozlarni o'z ichiga oladi. Ular nafaqaxo'rlar, nogironlar va faxriylarga ajratmalar sifatida qayd etiladi.

2. Ikkinchi guruhga xususiy to'lovlar kiradi. Sovg'alar va pullar ixtiyoriy ravishda bir fuqarodan boshqasiga o'tkaziladi. Ushbu kategoriya boshlang'ich ishbilarmonlarga va rivojlanish istiqbollari bo'lgan qishloq xo'jaligiga, innovatsion texnologiyalarga, mudofaa va tibbiyotga yo'naltirilgan subsidiyalarga ta'sir qiladi.

3. Uchinchi turdagi pul o'tkazmalarining odatiy misoli bu pensiya fondlariga va qimmatli qog'ozlarni sotib olgan moliya institutlariga badallardir. Davlat qarzlari bo'yicha foizlarni to'lash.

Transfer hududlarning asosiy va mahalliy byudjetlariga ta'sir qiladi. Boy kishilar bu jarayonlarning ishtirokchilari bo'lib, tashkilotlarga va muhtoj odamlarga bir martalik yoki doimiy yordam ko'rsatadilar.

Pul o'tkazmasi to'lovi balansni tiklash va daromadlarni adolatli taqsimlash uchun murosali variantdir. Aholining keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslik va yashash darajasidan past bo'lmagan holda munosib darajada yashash imkoniyatini berish juda muhimdir.

Pul o'tkazishning ushbu shaklini tanqid qilish to'lovlardan faol foydalanishga xalaqit bermaydi va ularning ulushini yuqori darajada ushlab turadi. Transferlar har qanday davlatning soliq siyosatining samarali vositasiga aylanadi.

Davlat idoralari va jamiyat a'zolaridan resurslarni xarajatlarsiz va qiymat yaratmasdan berish. To'lovlar aktsiz va bojxona to'lovlari, tariflar va soliqlar, kredit operatsiyalari va qarzlarni bo'yicha foizlar to'lovlariga kiritiladi.

Davlat siyosati ikki maqsadga ega. Aholi xazinaga soliq to‘lashi kerak. Shu bilan birga, aholining muhim foiziga to‘lovlarning teskari harakati kuzatilmoqda.

Inqiroz barcha mamlakatlarga ta’sir qiladi. To‘lovlarni rad etish shunchaki ruxsatsizdir. Ajratilgan mablag‘lar hanuzgacha aniq emas, hukumatning bevosita rejasida vaziyatni yumshatish uchun pul o‘tkazish foizini oshirish.

### **8.3. Bozor rivojlanishi iqtisodiyoti**

2018 – yil boshidan buyon dollar jahon valyuta bozorida yetakchilik qilib, valyutalar, aksiyalar va rivojlanayotgan bozorlar obligatsiyalariga katta miqdorda bosim o‘tkazmoqda. Deyarli barcha valyutalar zaiflashdi.

Ko‘p yillar davomida kapital qo‘yilmalar tarixi AQSHning pul-kredit siyosati va miqdoriy yumshatishiga ijobiy munosabatda bo‘lgan, bu ko‘plab yangidan paydo bo‘layotgan bozorlarning ortiqcha qarzdorligiga olib kelgan. Bugungi kunda inflyatsiya bosimining o‘sishi, qator Markaziy banklar tomonidan trendlarga ulgurishmaydi. Foiz stavkalari hamon juda past darajada qolayotgan bo‘lishi mumkin, bunga narx bosimi va o‘sib borayotgan dollar tufayli mahalliy valyutalar zaifligi sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, Turkiya, qachonlardir investorlarning eng yaxshi ko‘rgan davlati, hozirgi kunda haqiqiy inqirozni boshidan kechirmoqda. Turk lirasi dollarga nisbatan o‘z qiymatining 45%ini yo‘qotdi, qisqa muddatli foiz stavkalari esa kapital ustidan nazorat kuchayishi bo‘yicha xavotirlar fonida 19%dan oshib ketdi<sup>58</sup>.

Mamlakatimizda ham 2018 – yilda o‘zbek so‘midan tashqari deyarli barcha valyutalar zaiflashgan. Bunga sabablardan biri mamlakatda deyarli qarzlarni yo‘qligi hamda u o‘z eshiklarini endi ochishga kirishayotganida.

Mutaxassislarining ta’kidlashicha “2018 – yilda O‘zbekiston 300 million dollarlik yevroobligatsiyalar sotishni rejalashtirmoqda. Agar chiqarilish muvaffaqiyatli o‘tishi, ko‘plab xalqaro investorlar radarlari tomonidan ilgari payqalmagan mamlakat rivojlanayotgan bozorlarning

<sup>58</sup> Райнер М.П. «Ўзбекистон евробондлар чиқарганидан сўнг ривожланаётган бозорлар инкирозига тушиб қолиши мумкин» <https://kun.uz/10346435?q=%2F10346435>

keng ko‘lamli inqiroziga tushib qolishi mumkin”. Rivojlanayotgan bozorlarda yuz berayotgan holat jahon likvidliligi bilan bog‘liq vaziyat keskinlashgani natijasidir. Bu dinamik inflyatsiya, joriy amaliyotlar bo‘yicha defisit oshib ketgani hamda budjet tanqisligining xavfli birikmasidir. Turkiyaning muammosi juda jiddiy bo‘lishi mumkin, u katta xatarlardan darak beradi. Sababi asosiy Markaziy banklar o‘z siyosatini tuzatishga harakat qilmoqda, shuningdek, savdo urushining kuchayishi bo‘yicha xatarlar bor.

2020 – yilda global iqtisodiyotning o‘shish darajasi biroz tezlashadi va 2,5 foizga yetadi. Xususan, rivojlangan davlatlar guruhida o‘shish darajasi 1,4 foizgacha pasayishi va rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 4,1 foizgacha ko‘tarilishi mumkin. Biroq bunday o‘shish darajasi barcha rivojlanayotgan davlatlar uchun ham haqli bo‘lmaydi: ularning tahminan uchdan bir qismida, eksport va investitsiya ko‘rsatkichlari kutilgandan ko‘ra past bo‘lganligi sababli o‘shish sur‘atlarining pasayishi kutilmoqda. Jahon bankining prognozlariga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyoti tarkibiy islohotlarni amalga oshirish natijasida yuqori sur‘atlarda barqaror o‘shib boradi. Mazkur bankning 2019 – yil iyun oyida e‘lon qilingan prognozlari bilan taqqoslaganda, mintaqa bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich, shuningdek, mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotining o‘shishi prognozi qayta ko‘rib chiqilgan. Xususan, O‘zbekiston va Qozog‘iston bo‘yicha bu ko‘rsatkichlar ko‘tarilgan, Qirg‘iziston va Tojikiston bo‘yicha – pasaygan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotining o‘shishi barqarorlashishi kutilmoqda, ammo ushbu mintaqa davlatlarida siyosiy noaniqliklar kam emas. Shuningdek, mintaqa mamlakatlarning yirik savdo hamkorlarida o‘shish sur‘atlari past yoki uning pasayishi kutilmoqda. Xususan, Xitoy iqtisodiyotining o‘shish sur‘atlari tobora sekinlashmoqda, Rossiyada esa past darajada saqlanib turibdi. Markaziy Osiyo davlatlarining asosiy savdo hamkorlaridan biri bo‘lmish Turkiyada esa aksincha, o‘shish sur‘atlarining tiklanishi va 2021 – yilga borib 4 foizgacha etishi kutilmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasidan tashqarida joylashgan Xitoy, Rossiya va Turkiya O‘zbekiston tovarlarining yirik “iste‘molchilari” sanaladi. Respublika eksportining umumiy hajmida mazkur 3 ta davlatning umumiy ulushi

36 foizdan 46 foizgacha yetadi (oxirgi 3 yillik statistik ma'lumotlarga ko'ra).

Mazkur mintaqa iqtisodiyoti bo'yicha prognozlar sezilarli darajada pasayish xavfi ostida qolmoqda, jumladan, asosiy savdo hamkorlarda o'sish sur'atlarining sekinlashishi, geosiyosiy beqarorlik, iqtisodiy siyosatdagi noaniqliklar, moliyaviy bozorlarning tartibsiz rivojlanishi va uzoq muddatli istiqbolda samaradorlikning o'sish sur'atlarini pasayishi bunga asosiy sabablardir. Yevro hududi iqtisodiyotida kutilganidan ko'ra keskin pasayish savdo va moliyaviy aloqalar bilan bog'liq bo'lgan mamlakatlar iqtisodiyotida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Xitoy iqtisodiyoti o'sishining sekinlashishi Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, jumladan ushbu mamlakatga eksport hajmining kamayishi yoki eksport qilinadigan tovar va xomashyo narxlarining pasayishi orqali seziladi. Ayniqsa, Hitoyga energiya manbalari eksport qiluvchi mamlakatlar uchun buning ta'siri ko'proq bo'lishi aniq.

Rossiyaga nisbatan qo'shimcha sanksiyalarning joriy qilinishi mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ayniqsa, ushbu davlatdan yuboriladigan pul o'tkazmalariga ko'proq bog'liq bo'lgan mamlakatlarda. Shuningdek, Rossiya va Qozog'istonda aholi daromadlarining pasayishi ham boshqa Markaziy Osiyo davlatlariga yuboriladigan pul o'tkazmalarining kamayishiga olib keladi.

### **Assosiy tayanch tushunchalar**

**Rivojlanayotgan bozorlar** – juda keng atama bo'lib, 20 dan ortiq mamlakatlarni qamrab oladi. Bular Lotin Amerikasidan Sharqiy Yevropa va Osiyoga qadar.

**Xalqaro savdo** – bu, turli davlat milliy xo'jaliklari o'rtasidagi tovar va xizmatlarning ayirboshlash jarayonidir.

**Eksport** – bu, tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

**Nominal daromad** – aholi tomonidan ma'lum vaqt oralig'ida olingan daromadlarining pul ko'rinishidagi miqdori hisoblanadi.

**Tarmoqlar inqirozi** – milliy xo‘jalikning biron-bir tarmog‘ini qamrab, ishlab chiqarishning tarkibiy o‘zgarishi yoki normal xo‘jalik aloqalarining buzilishi tufayli yuz beruvchi inqiroz. Ishlab chiqarishning ayrim sohalari bilan tarmoqlar rivojlanishi o‘rtasidagi chuqur nomutanosibliklar oqibatida kelib chiquvchi inqirozlar tarkibiy inqirozlar deyiladi.

**Pul-kredit sohasidagi inqiroz** – mamlakat pul-kredit tizimining tang ahvolga tushishi bo‘lib, bunda tijorat va bank krediti keskin qisqaradi, qimmatli qog‘ozlar kursi, bank foizi tushib ketishi natijasida banklar sinib, yalpi holda bankrotlikka uchraydilar.

**Valyuta inqirozi** – bu, milliy valyuta obro‘sining tushib ketishi, bankda valyuta zaxirasining tugab, milliy valyuta kursining keskin pasayishi holati. **Birja inqirozi** – birjada qimmatli qog‘ozlar kursining tezda tushib ketishi, ularni emissiya qilishning qisqarishi, fond birjalari faoliyatidagi chuqur tushkunlik, tanglik holati.

**Iqtisodiyotning siklli rivojlanishi** – deb vaqti-vaqti bilan obyektiv qonunlarning o‘zgartirib bo‘lmaydigan ta’siri ostida takror ishlab chiqarish xarakatida uzilishlar paydo bo‘lishi va ularning iqtisodiyot nomutanosibliklarining keskin shaklda namoyon bo‘lishi holatiga aytiladi.

**Iqtisodiy sikl deganda** – odatda iqtisodiyot rivojlanishining bir holatidan boshlanib, birin-ketin bir necha fazalarni bosib o‘tib, o‘zining dastlabki holatiga qaytib kelgunga qadar o‘tgan davr tushuniladi.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Rivojlanayotgan bozorlar muammosini muhokamasi qaysi davrlardan boshlandi?
2. Rivojlanayotgan bozorlar rivoji qanday asosiy omillar hisobiga erishildi?
3. Rivojlanayotgan bozorlar turlari qanday klasifikatsiyalarga ajratiladi?
4. 2020 – yilda global iqtisodiyotning o‘sish darajasini izohlab bering.

## 9-BOB. ISHCHI KUCHI BOZORI

**9.1. Ishchi kuchi bozori rivojlanishi.**

**9.2. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ishchi kuchi bozoridagi harakatchanlik.**

**9.3. Rivojlanishdagi ishchi kuchi harakatchanligining oddiy modeli.**

### 9.1. Ishchi kuchi bozori rivojlanishi

Bozor munosabatlari sharoitida ishchi kuchini takror hosil qilishda ishchi kuchi bozori muhim o‘rin tutadi.

**Ishchi kuchi bozori – bu xo‘jalik faoliyati jarayonida ishchi kuchi tovari egalari va uning asosiy iste‘molchilari – davlat korxonalari, tashkilotlari va turli xil tadbirkorlar o‘rtasidagi oldi-sotdi munosabatlaridir.** U mehnat sharoitlari va unga haq to‘lash miqdorlari, ishchilarning malaka darajasi, ular tomonidan bajarilayotgan ishlarning hajmi, intensivligi va mas‘uliyat darajasi bo‘yicha tarkib topuvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkab tizimini namoyon etadi.

Har qanday bozor singari ishchi kuchi bozorida ham ikki qarama-qarshi tomon – talab va taklifning o‘zaro ta’siri amal qiladi. **Ishchi kuchi talabi – bu muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida turli ish beruvchilar tomonidan ishchi kuchi miqdori va sifatiga bildirilgan talab.** Odatda ish beruvchilar bo‘lib davlat, jamoa va xususiy mulkka asoslangan korxonalar va tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirkor va boshqalar hisoblanishi mumkin.

**Ishchi kuchi taklifi – bu muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida ishga yollanishga tayyor bo‘lgan mehnatga layoqatli ishchi kuchi miqdori.** Ishchi kuchi taklifi mehnat qilish yoshidagi turli kasb va mutaxassislikka ega bo‘lgan kishilarning ishlashga bo‘lgan layoqatini namoyon etadi.

Ishchi kuchi bozorini tavsiflashdan oldin uning asosiy va o‘ziga xos tovari bo‘lgan ishchi kuchining qiymati va iste‘mol qiymati (nafliligi) to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish zarur.

**Ishchi kuchining qiymati nafaqat ishchining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, balki ishchi kuchini takror ishlab chiqarish hamda uning sifatini oshirish jarayonlarini, uning oilasini yetarli darajada**

**ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha hayotiy ne'matlarning qiymatini o'z ichiga oladi.** Ishchi kuchi qiymati o'zgaruvchan ko'rsatkich bo'lib, u turli omillar ta'sirida oshib yoki pasayib turishi mumkin. Ishchi kuchi qiymatini oshiruvchi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ish kunining, mehnat intensivligining oshishi; turli xil tabiiy va tarixiy sharoitlar, fan-texnikaning rivojlanishi, o'qish va kasbiy bilimlar olishga sarflarning ko'payishi va h.k. Ishchi kuchi qiymatini pasaytiruvchi asosiy omil bo'lib ishlab chiqarish sohasidagi ijtimoiy mehnat unumdorligining o'sishi hisoblanadi. U ishchi va uning oilasi ehtiyojlarini qondiruvchi hayotiy vositalar qiymatining pasayishiga olib keladi.

**Ishchi kuchi tovarining nafliligi uning,** mehnat qilish jarayonida o'z qiymatidan ortiqcha, ya'ni qo'shimcha mahsulot qiymatini yaratib, **kapital egasining foyda olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish layoqati orqali namoyon bo'ladi.**

Ishchi kuchi bozori tovar va kapitallar bozori bilan birgalikda bozor xo'jaligining iqtisodiy tizimini tashkil etadi. Umumiy iqtisodiyot bozor mexanizmining tarkibiy qismi hisoblangan ishchi kuchi bozori talab va taklif qonuniga muvofiq iqtisodiyot tarmoq va sohalari bo'yicha ishchi kuchi resurslarini taqsimlash va qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Bunda ishchi kuchi bozori subyektlarining sifat jihatidan farq qiluvchi manfaatlarini o'zaro uyg'unlashtirish va bog'lashni qiymat tamoyillari asosida shakllantiriladi.

Shunga ko'ra, ishchi kuchi bozori o'zining maxsus tovari – ishchi kuchi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos o'rin tutadi. Ishchi kuchining bu bozordagi harakati esa bir qator ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarga ega bo'ladi.

**Birinchidan,** ishchi kuchi bozori ikki mustaqil subyekt – kapital egasi va ishchi kuchi egasi manfaatlarining to'qnashib, o'zaro kelishadigan munosabatlari hisoblanadi. Ularni bozorga o'zaro qarama-qarshi istak va maqsadlar etaklaydi, ya'ni ularning biri ishchi kuchini sotib, daromad olishni istasa, boshqa biri uni xarid qilib, ishlatib foyda ko'rishni istaydi. Ular o'rtasidagi savdo bitimi ishchi kuchi egasining o'zi bo'yicha emas, balki uning mehnat qilish layoqati, undan foydalanish shartlari va davomiyligi bo'yicha boradi. Bitim natijasi bo'lib kapital egasi tomonidan sotib olingan ishchi kuchi evaziga to'lanadigan ish haqi miqdori hisoblanadi.



**Ikkinchidan**, boshqa har qanday tovar bozorlarida bo'lgani singari, ishchi kuchi bozorida ham ishchilar o'rtasida bo'sh ishchi o'rnini egallash borasida raqobat kurashi vujudga keladi.

**Uchinchidan**, ishchi kuchi bozori ishchi kuchi yalpi taklifining unga bo'lgan yalpi talabdan doimiy ravishda ko'proq bo'lishi tendensiyasi bilan tavsiflanadi. Bu esa bozorda ishchilar band bo'lmagan qismi (ishsizlar)ning paydo bo'lishiga olib keladi.

**To'rtinchidan**, bozor iqtisodiyotining siklli rivojlanishi odatda inflyasiya va ishsizlik bilan birga boradi. Bu ikkala jarayon o'rtasida ma'lum o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, u pirovardida ishchilar ommasi hayot darajasining ahamiyatli darajada pasayib ketishi (narxlarning oshishi, ish haqining qisqarishi, to'lovga qodir talabning pasayishi va h.k.) orqali namoyon bo'ladi. Muayyan iqtisodiy sharoitlarda ishchi kuchi bozoridagi umumiy holat inflyasiyaning o'sishi uchun asosiy sabab bo'lishi ham, yoki, aksincha, uning o'sishiga to'sqinlik qilishi ham mumkin. Mamlakatdagi ishsizlik darajasi qanchalik past bo'lsa, inflyasiya ta'sirida narxlarning o'sish sur'atlari shunchalik yuqori bo'ladi. Ingliz iqtisodchisi A.Fillips ishsizlik va inflyasiyaning o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib berib, bu bog'liqlikni ifodalovchi egri chiziq **Fillips egri chizig'i** deb nom oldi (9.1-chizma).


Fillips egri chizig'iga ko'ra, inflyasiya darajasini 1%ga pasaytirish uchun ishsizlikni 2%ga o'stirish lozim bo'ladi. Ishsizlik va inflyasiya darajasidagi nisbatni tartibga solishda davlatning iqtisodiy siyosati asosiy rol o'ynaydi. Davlat ish bilan bandlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi va ish haqi darajasi o'rtasidagi oqilona nisbatni ta'minlash orqali nafaqat ishsizlik va inflyasiya darajasini nazorat qilishi, balki ularning iqtisodiyot rivojlanishi va aholi turmush darajasiga salbiy ta'sirining oldini olishi ham lozim.

Shunday qilib, ishchi kuchi bozori bozor xo'jaligi tizimida etakchi o'rin tutib, uni yuqori darajada tashkil etmasdan turib iqtisodiyotning samarali amal qilishiga erishib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti tizimida ishchi kuchi bozorining roli u bajaradigan ikkita vazifa orqali belgilanadi. Birinchi vazifasi bevosita mehnat jarayonida ishchining ishlab chiqarish vositalari bilan birlashtirish mexanizmi hamda band bo'lmagan ishchi kuchining harakatini samarali tartibga solish bilan bog'liq. Ikkinchi vazifasi esa yalpi ishchi kuchining sifatini yanada takomillashtirgan holda takror ishlab chiqarish orqali amalga oshiriladi.

## 9.1-chizma

### Fillips egri chizig'i



O'zbekistonda ishchi kuchi bandligini oshirish va aholini ijtimoiy himoyalash borasida davlat tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida yildan-yilga ish bilan ta'minlanish darajasi o'sib bormoqda (9.2-jadval).

## 9.2-jadval

### O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni <sup>59</sup>

	Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi	ulardan:		Aholining iqtisodiy faollik darajasi, foizda	Aholining bandlik darajasi, foizda	Ishsizlik darajasi, foizda
		iqtisodiyotda bandlar	ishsizlar			
<b>2020</b>	14797,9	13239,6	1558,4	73,9	66,1	10,5
<b>2019</b>	14876,4	13541,1	1335,3	75,0	68,3	9,0
<b>2018</b>	14641,7	13273,1	1368,6	74,3	67,4	9,3
<b>2017</b>	14357,3	13520,3	837,0	73,5	69,2	5,8
<b>2016</b>	14022,4	13298,4	724,0	72,5	68,7	5,2
<b>2015</b>	13767,7	13058,3	709,4	71,9	68,2	5,2
<b>2014</b>	13505,4	12818,4	687,0	71,3	67,7	5,1
<b>2013</b>	13163,0	12523,3	639,7	70,5	67,1	4,9
<b>2012</b>	12850,1	12223,8	626,3	70,0	66,6	4,9
<b>2011</b>	12541,5	11919,1	622,4	69,7	66,2	5,0
<b>2010</b>	12286,6	11628,4	658,2	70,7	66,9	5,4
<b>2005</b>	10224,0	10196,3	27,7	67,9	67,7	0,3
<b>2000</b>	9018,4	8983,0	35,4	69,7	69,4	0,4

<sup>59</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (stat.uz) ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

9.2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2000-2020 yillar davomida ish bilan band aholi soni 4256,6 ming kishiga yoki 47,4 foizga ortgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 27 maydagi “Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo‘lmagan aholini hisobga olish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 106-sonli qaroriga asosan ish bilan bandlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish bilan bandlar;
- iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan bandlar;
- respublikadan tashqariga ishlash maqsadida ketgan fuqarolar.

## **9.2. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ishchi kuchi bozoridagi harakatchanlik**

Iqtisodiyotning samarali amal qilishiga mamlakatdagi ishsizlik darajasi ahamiyatli ta‘sir ko‘rsatadi.

**Ishsizlik – iqtisodiy faol aholi bir qismining o‘z ishchi kuchidan foydalana olmasligini namoyon etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa. Mehnatga layoqatli bo‘lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta‘minlanmaganlar ishsizlar deyiladi.** Namoyon bo‘lish xususiyati va vujudga kelish sabablariga ko‘ra ishsizlik friksion, tarkibiy, sikllik, institutsional, texnologik, regional, yashirin va turg‘un ishsizlik turlariga bo‘linadi.

Kishilar turli sabablar (yangi yashash joylariga ko‘chib o‘tish, ishining mazmuni va tavsifi yoqmay qolishi, nisbatan yuqoriroq ish haqi olishga intilish va boshqalar)ga ko‘ra o‘z ishlarini almashtirib turadilar. Biroq bir ishdan bo‘shab, boshqa biriga joylashgunga qadar orada ma‘lum vaqt o‘tadi (ba‘zi adabiyotlarda bu muddat 1 oydan 3 oygacha davom etishi ko‘rsatiladi). Aynan shu vaqt oralig‘idagi, ya‘ni **bir ishdan bo‘shab yangi ishga joylashgunga qadar bo‘lgan davrdagi ishsizlik friksion (oraliq) ishsizlik deyiladi.**

Fan-texnika taraqqiyoti, yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishga qo‘llanishi natijasida ba‘zi bir tarmoq va soha mahsulotlariga bo‘lgan talab qisqarib, zamonaviy mahsulot turlariga talab o‘sadi. Natijada ba‘zi bir kasb yoki mutaxassislik turlaridagi ishchilarga talabning qisqarishi yoki umuman yo‘qolishi ularning o‘z kasb va mutaxassisliklarini o‘zgartirish yoki shunday kasblarga talab saqlanib qolgan joylarga ko‘chib o‘tishga majbur qilib qo‘yadi. **Yangi**

**kasb va mutaxassislikni o'zlashtirib yoki boshqa joyga ko'chib o'tib, yangi ishga joylashgunga qadar bo'lgan ishsizlik tarkibiy ishsizlik deb ataladi.** Tarkibiy ishsizlik friksion ishsizlikka qaraganda uzoqroq davom etadi hamda ko'proq ma'lum xarajatlarni taqozo etadi. Uning uzoq muddat (odatda 6 oydan ko'proq) davom etishi yangi kasb turini o'zlashtirish yoki malaka oshirish bilan, ma'lum xarajatt talab qilishi esa, eski kasb turi bilan shug'ullanish istagi saqlanib qolgan holda, yashash joylarini o'zgartirish bilan bog'liq bo'ladi.

Friksion va tarkibiy ishsizlik, iqtisodiyotdagi rivojlanishning har qanday holatidan qat'i nazar, ma'lum darajada barcha mamlakatlarda mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra, **friksion va tarkibiy ishsizlik birgalikda ishsizlikning tabiiy darajasini tashkil qiladi.**

**Sikllik ishsizlik – iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog'liq bo'lib, u ishlab chiqarishning pasayishi va yalpi talabning qisqarishi natijasida vujudga keladi.** Bunda o'z tovar va xizmatlariga nisbatan talabning qisqarishiga duch kelgan tadbirkorlar ishlab chiqarish hajmini kamaytirish maqsadida ishchilarni ishdan bo'shata boshlaydilar. Sikllik ishsizlik haqiqiy darajadagi ishsizlikning tabiiy darajadan farqlanishini ko'rsatadi. Ishsizlikning bu turi majburiy ishsizlik hisoblanadi va siklning yuksalish fazasida mavjud bo'lmaydi.

**Institutsional ishsizlik ishchi kuchi bozori infratuzilmasi, ya'ni ishchi kuchini ish bilan ta'minlashga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi yoki samarali faoliyat ko'rsatmasligi natijasida paydo bo'ladi.** Uni ham tabiiy ishsizlik tarkibiga kiritish mumkin.

**Texnologik ishsizlik ishlab chiqarish jarayoniga texnologik usullarning kirib kelishi bilan bog'liq bo'ladi.** Ularning ichida asosiylari ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, robotlashtirish va informatsion texnologiyani qo'llash hisoblanadi.

**Hududiy ishsizlik muayyan hududdagi tarixiy, demografik, madaniy, milliy va ijtimoiy-ruhiy xususiyatdagi bir qator kompleks omillar ta'siri ostida ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi nomutanosiblik natijasi hisoblanadi.**

**Yashirin ishsizlik uchun ish kuni yoki ish haftasi davomida to'liq band bo'lmaslik xos.** Iqtisodiyot rivojlanishi darajasining pasayishi korxonalaridagi ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib

keladi. Biroq korxonalar egalari o'z ishchilarini birdaniga ishdan bo'shata olmaydilar. Buning natijasida ishchilarning ma'lum qismi rasman ish bilan band bo'lsalarda, amalda to'liq holda ishlamaydilar. Buning natijasida mehnat unumdorligi pasayib, korxonalar moliyaviy natijalariga ta'sir ko'rsatadi. Yashirin ishsizlik mamlakatda vujudga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy keskinlikka yo'l qo'ymaslikka intilish natijasida ham paydo bo'ladi.

**Turg'un ishsizlik mehnatga layoqatli aholining ish joyini yo'qotgan, ishsizlik bo'yicha nafaqa olish huquqidan mahrum bo'lgan va faol mehnat faoliyatiga hech qanday qiziqishi bo'lmagan qismini qamrab oladi.**

«To'la bandlik» tushunchasi iqtisodiyotda ishsizlikning mutlaq mavjud bo'lmashini bildirmaydi. Iqtisodchilar friksion va tarkibiy ishsizlikning bo'lishini tabiiy deb hisoblaydilar, shu sababli to'la bandlik ishchi kuchining 100% dan kam qismini tashkil qiluvchi miqdor sifatida aniqlanadi. Aniqroq aytganda, to'la bandlik sharoitida ishsizlik darajasi friksion va tarkibiy ishsizlar soniga teng bo'ladi. Siklik ishsizlik nolga teng bo'lganda to'la bandlik sharoitidagi ishsizlik darajasiga erishiladi. **To'la bandlik sharoitidagi ishsizlik darajasi ishsizlikning tabiiy darajasi deb ataladi.** Ishsizlikning tabiiy darajasi bilan bog'liq bo'lgan milliy ishlab chiqarishning real hajmi, iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini ko'rsatadi.

To'la bandlik yoki ishsizlikning tabiiy darajasi ishchi kuchi bozori muvozanatiga erishganda, ya'ni ish izlovchilar soni bo'sh ishchi o'rinlari soniga teng kelganda vujudga keladi. Ishsizlikning tabiiy darajasi qandaydir darajada iqtisodiy jihatdan maqbul hisoblanadi. Chunki «friksion» ishsizlarga mos keluvchi ish o'rinlarini topish, «tarkibiy ishsizlarga» ham yangi kasbni o'zlashtirish yoki yangi yashash joyida ish topish uchun ma'lum vaqt kerak bo'ladi.

«Ishsizlikning tabiiy darajasi» tushunchasi ma'lum bir aniqliklar kiritishni talab qiladi.

**Birinchi**dan, bu tushuncha iqtisodiyot har doim ishsizlikni tabiiy darajasida amal qilishi va shu orqali o'zining ishlab chiqarish imkoniyatini ro'yobga chiqarishini bildirmaydi. Chunki, ko'pincha ishsizlik darajasi tabiiy darajadan ortiq, ayrim hollarda, masalan, ish vaqtidan ortiqcha ishlash va o'rindoshlik ishlarida band bo'lish natijasida tabiiy darajadan past ham bo'lishi mumkin.

**Ikkinchidan**, ishsizlikning tabiiy darajasi o‘z-o‘zicha doimiy miqdor hisoblanishi shart emas, u tarkibiy o‘zgarishlar (qonunlar va jamiyat urf-odatlaridagi o‘zgarishlar) oqibatida o‘zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSHda ishsizlikning tabiiy darajasi dastlab XX asr 60-yillarining o‘rtalarida 4,5% deb belgilangan bo‘lsa, 70-yillarning boshiga kelib 5,5%, 80-yillarning boshida esa 6% gacha o‘sdi.

**Ishsizlik darajasi ishsizlar sonining ishchi kuchi tarkibidagi foizi sifatida hisoblanadi.**

$$\text{Ishsizlik darajasi} = \frac{\text{Ishsizlar soni}}{\text{Ishchi kuchi soni}} \times 100\%.$$

Ishsizlik darajasini baholash bilan birga uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ham hisobga olish zarur bo‘ladi. Chunki ishsizlikning o‘zi haddan tashqari yuqori darajasi bilan katta iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

**Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari** uning ta’sirida ishlab chiqarilmay qolgan mahsulot hajmi orqali baholanadi. Iqtisodiyot barcha ishlashni xohlagan va ishlay oladiganlar uchun yetarli miqdorda ish joylarini yaratish holatiga ega bo‘lmasa mahsulot ishlab chiqarish potensial imkoniyatining bir qismi yo‘qotiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bu yo‘qotish yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmining orqada qolishi sifatida aniqlanadi hamda u haqiqiy YaIMning potensial YaIMdan kam bo‘lgan hajmi sifatida ko‘rinadi. Ishsizlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, YaIM hajmining orqada qolishi shunchalik katta bo‘ladi.

Makroiqtisodiyot sohasidagi taniqli tadqiqotchi A.Ouken ishsizlik darajasi va YaIM hajmining orqada qolishi o‘rtasidagi nisbatini matematik ifodalab beradi. **Bu nisbat iqtisodchilar orasida Ouken qonuni sifatida tanilgan bo‘lib, agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foizga ortiq bo‘lsa, YaIM hajmining orqada qolishi 2,5% ni tashkil qilishini ko‘rsatadi.**

Ayrim hollarda milliy mahsulotning haqiqiy hajmi potensial hajmidan ortib ketishi ham mumkin. Bunday hol ishsizlik darajasi tabiiy darajadan ham past bo‘lgan davrlarda ro‘y beradi. Ishlab chiqarishga ishchilarning qo‘shimcha smenalarini jalb qilish, kapital uskunalardan belgilangan me’yordan ortiqcha darajada foydalanish,

ish vaqtidan keyin qo‘shimcha ishlash va o‘rindosh ishlarda band bo‘lish kabilar buning asosiy sabablaridir.

**Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari** ham mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta‘sir o‘tkazishi mumkin. Jumladan, ishsizlikni ba‘zi turlarining uzoq muddatli tavsifi ishchilarning o‘z malakalarini yo‘qotishlari hamda daromad va ijtimoiy mavqeyi jihatidan aholining nisbatan past toifasiga o‘tib qolishiga olib keladi. Bu esa ularda o‘z turmush tarzidan qoniqmaslik, ijtimoiy faollikning yo‘qolishi, atrofdegilarga nisbatan loqaydlikning paydo bo‘lishi kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Natijada uzoq davom etgan, surunkali ishsizlik millatning ruhiy sog‘lomligiga putur yetkazadi. Ishsizlik o‘shining muqarrar oqibati bo‘lib mamlakatdagi jinoyatchilikning o‘shishi va ijtimoiy keskinlik darajasining kuchayishi hisoblanadi.

Shunga ko‘ra, mamlakatdagi ishchi kuchi bandligini ta‘minlash va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o‘tish davrida davlatning ijtimoiy siyosati faqat jamiyat a‘zolarining manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat bo‘lmasdan, balki mavjud ishchi kuchlarining ish bilan bandligini ta‘minlashni ham o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, aholining o‘shishi yuqori sur‘atlar bilan borayotgan va o‘ziga xos aholi tarkibiga ega bo‘lgan respublikamizda ishchi kuchining ish bilan bandlik masalasi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlar jarayonida ushbu masalani hal etish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

**Birinchi**dan, keng faoliyat turlari, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlikni kengaytirish uchun sharoit yaratish. Birinchi navbatda qishloq xo‘jalik xomashyosini qayta ishlash, xalq iste‘mol mollarini, mahalliy xomashyodan qurilish materiallari tayyorlovchi xususiy kichik korxonalarni faol rivojlantirishni rag‘batlantirish.

**Ikkinchi**dan, xizmat sohasini rivojlantirish, aholiga ko‘rsatiladigan ijtimoiy-maishiy xizmat va qurilish bo‘yicha xizmat turlarini yanada kengaytirish. Bunda ham qishloq joylarda xizmat sohasini rivojlantirishga ustunlik beriladi.

**Uchinchi**dan, qishloqda keng tarmoqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratib, shu orqali yangi ish joylarini ochish, yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun respublikamizda qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish bo'yicha ishlar uzluksiz davom ettirilmoqda.

**To'rtinchidan,** ishdan bo'shagan xodimlarni qayta tayyorlash va qayta o'qitishni tashkil etishni tubdan o'zgartirish. Bunda ishdan bo'shayotgan va ixtisosi bo'lmagan shaxslarga qisqa davrda, bozor iqtisodiyotiga hamda iqtisodiyotning o'zgarib borayotgan tuzilishiga muvofiq keluvchi kasbkorni o'rgatishga e'tibor qaratish. Shu maqsadda maxsus maslahat va o'quv markazlari, biznes maktablarning keng tarmog'ini yanada rivojlantirish ko'zda tutiladi.

**Beshinchidan,** vaqtincha ishga joylashtirish imkoni bo'lmagan ishchi kuchlarini davlat tomonidan ishonchli ravishda ijtimoiy himoyalash. Bu siyosat ularning o'ta zarur ehtiyojlarini qondirish va kafolatli tirikchilik manbalariga ega bo'lishga qaratiladi.

Ishchi kuchining ish bilan bandligi muammosi ko'p qirrali bo'lib, u barcha odamlarga o'z qobiliyatlarini ishga solish, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun dastlabki teng imkoniyatlarni ta'minlovchi davlat va bozor mexanizmini vujudga keltirish; ishchi kuchini unumli va samarali ish bilan band qilish; zarur hollarda ishchi kuchini iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o'rtasida qayta taqsimlash kabi masalalarni ham o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda ishchi kuchi bandligi samaradorligini ta'minlash uchun davlatni bandlik siyosatining quyidagi yo'nalishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir:

- oilaviy biznes va kichik xususiy korxonalarni rivojlantirishni jadallashtirishni ta'minlash;

- mazkur maqsadlarda mikrokreditlash tizimini rag'batlantirish;

- yirik sanoat korxonalari va nisbatan kichikroq bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari bilan kasanachilikni kengaytirish asosidagi kooperatsiyani rivojlantirish imkoniyatlaridan keng qamrovli foydalanish;

- mahalliy xomashyoni puxta qayta ishlashga va tayyor, raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan yengil va oziq-ovqat qayta ishlash sanoatining ko'p mehnat talab qiladigan tarmoqlarini jadal rivojlantirish;



- xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, qishloq joylarida qishloq xo'jaligiga taalluqli bo'lmagan bandlik sohalarini kengaytirish masalalarini hal etishga e'tiborni kuchaytirish;

- ishsizlarni kasbiy o'qitish va jamoat ishlari tizimlarini takomillashtirish bilan shug'ullanadigan xizmatlar ishini faollashtirish.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi xalqimizning farovon turmushini ta'minlash manbayi bo'lgan ish bilan bandlik darajasining yanada oshishiga, aholining ijtimoiy muhofazasining kuchayishiga yanada keng yo'l ochib beradi.

### **9.3. Rivojlanishdagi ishchi kuchi harakatchanligining oddiy modeli**

Ishchi kuchining bandligi to'g'risidagi nazariyalar muammoga nisbatan yondashuv, qo'llanilgan tadqiqot usullari va vositalari jihatidan bir-biridan farqlanadi. Darslik va o'quv qo'llanmalarda ishchi kuchi bandligi bo'yicha neoklassiklar, keynschilar, monyetarizm, institutsional-sotsiologik va boshqa ilmiy maktab vakillarining qarashlari bayon etiladi<sup>60</sup>.

**Neoklassik maktab konsepsiyasi** A.Smitning klassik nazariyasi qoidalari asosida shakllantirilib, D.Gilder, A.Laffer, M.Feldstayn, R.Xoll kabi bir qator olimlarning fikr-mulohazalari orqali namoyon bo'ladi. Bu maktab namoyondalari ishchi kuchi bozorini maxsus qonunlarga bo'ysunuvchi aloqalar tizimi sifatida ko'rib chiqib, ular bozor mexanizmi orqali boshqarilishini ta'kidlaydilar. Ish haqi darajasi ishchi kuchining narxi sifatida ko'rsatiladi. U ishchi kuchi talab va taklifiga ta'sir ko'rsatib, ular o'rtasidagi nisbat va zarur muvozanatni ta'minlaydi. Ishchi kuchining narxi bozor konyunkturasiga tezlik bilan javob qaytaradi, ya'ni bozordagi talab va taklifning o'sishi yoki kamayishiga qarab o'zgaradi. Shunga ko'ra, ishchi kuchi bozoridagi taqchillik yoki taklif ortiqchaligi ish haqi darajasini o'zgartirish orqali bartaraf etiladi. Ishchi kuchi bozorining klassik modeli uning o'zini-o'zi tartibga solish tamoyiliga asoslanadi.

---

<sup>60</sup> Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 485-489-бетлар.

**Keynscha maktab vakillari** ishchi kuchi bozorini harakatsiz, o'zgarmas tizim sifatida baholab, unda ishchi kuchining narxi qat'i belgilangan bo'lishini ta'kidlaydilar. Bandlik va ishsizlik darajasi, ishchi kuchiga bo'lgan talab, real ish haqi darajasi kabi asosiy ko'rsatkichlar ishchi kuchi bozori orqali emas, balki tovar va xizmatlar bozoridagi samarali talab miqdori orqali belgilanadi. Ishchi kuchi bozorida esa faqat ish haqi darajasi va unga bog'liq bo'lgan ishchi kuchi taklifi miqdori shakllanadi. Biroq ishchi kuchi taklifi amaldagi bandlikning shakllanishida yetakchi rol o'ynamay, balki faqat uning ish haqining muayyan hajmidagi eng yuqori mumkin bo'lgan darajasini tavsiflaydi. Ishchi kuchiga bo'lgan talab yalpi talab, investitsiya va ishlab chiqarish hajmi orqali tartibga solinadi. Ishsizlikning mavjud bo'lishi yalpi samarali talabning yetishmasligi bilan shartlanib, uni budget va pul-kredit siyosatining iqtisodiy faollikni oshiruvchi chora-tadbirlari orqali bartaraf etish mumkin. Davlat yalpi talabni kengaytirish tadbirlarini amalga oshira borib, ishchi kuchiga bo'lgan talabning o'sishiga imkon yaratadi va buning natijasida bandlikning o'sishi hamda ishsizlikning qisqarishi ro'y beradi.

**Monyetar maktab namoyandalari** (M.Fridmen, E.Felps va boshqalar) bozor iqtisodiyotini o'z-o'zidan tartiblanuvchi tizim sifatida baholab, undagi narx mexanizmining o'zi bandlikning oqilona darajasini belgilab berishini ta'kidlaydilar. Bunday tizimga davlat tomonidan har qanday aralashuv bozorning o'zini-o'zi tartibga solish mexanizmini ishdan chiqaradi. Davlatning pul vositasida yalpi talabni rag'batlantirishi esa pirovardida inflyatsiya jarayonlarining kuchayishini keltirib chiqaradi.

Monyetaristlar iqtisodiyotda doimo ma'lum darajada ishsizlik mavjud bo'lishini ta'kidlab, uni «ishsizlikning tabiiy me'yor» deb ataydilar. Bandlikning bu «tabiiy daraja»dan chetlanishi faqat qisqa muddatli tavsif kasb etadi. Agar bandlik darajasi muvozanat darajasidan ortiq bo'lsa, bu inflyatsiyaning jadallashuviga, agar kam bo'lsa, deflyatsiyaning jadallashuviga olib keladi. Bandlikni barqarorlashtirish bo'yicha siyosat ishsizlik darajasini uning tabiiy me'yoridan chetlanishiga, ishlab chiqarish hajmi va band bo'lganlar sonining tebranishlariga qarshi kurashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Ishchi kuchi bozorini muvozanatga keltirish uchun monetaristlar, asosan, pul-kredit siyosati dastaklaridan foydalanishni tavsiya etadilar.

**Institutsional-sotsiologik maktab namoyandalari** (T.Veblen, J.Danlop, J.Gelbreyt, L.Ulman va boshqalar) ishchi kuchi bandligi borasidagi muammolar turli ko‘rinishdagi institutsional islohotlar yordamida hal etilishi mumkin, degan qoidaga asoslanadilar. Ular bu muammoning faqat makroiqtisodiy jihatdan tahlili bilan chegaralanmaydilar. Shuningdek, ular ishchi kuchi tarkibi va unga tegishli holda ish haqi darajasidagi ijtimoiy, kasbiy, tarmoq, yosh, jins, etnik va boshqa tafovutlar ta‘sirida ishchi kuchi bozorida vujudga keladigan nomuvofiqliklarni izohlashga harakat qildilar.

**Shartnomaga asoslangan bandlik nazariyasi** (M.Beyli, D.Gordon, K.Azariadis) o‘zida neoklassik hamda keynscha talqinlarni uyg‘unlashtiruvchi konsepsiya hisoblanadi. Konsepsiya mualliflari, bir tomondan, pul ko‘rinishidagi ish haqi qat‘iligi to‘g‘risidagi keynscha qoidani qabul qiladilar va ishchi kuchi bozoridagi muvofiqlashuv narxlar (ya‘ni, ish haqi) hisobiga emas, balki ishlab chiqarish moddiy hajmi va bandlikning o‘zgarishi hisobiga amalga oshirishini ta‘kidlaydilar. Boshqa tomondan, bu qat‘ilikning o‘zi xususiy iqtisodiy manfaatlar ostida harakat qiluvchi individlarning xatti-harakatidan keltirib chiqariladi. Mazkur nazariyaning asosida tadbirkorlar va ishchilar o‘zaro uzoq muddatli shartnoma munosabatlariga kirishishlari to‘g‘risidagi qoida yotadi. Mazkur shartnoma huquqiy jihatdan taqozo etilgani uchun emas, balki har ikkala tomon uchun ham iqtisodiy jihatdan foydaliligi sababli paydo bo‘ladi. Firma ishlab chiqarishning pasayib ketishi davrida mehnatga haq to‘lash hajmini kamaytirmaydi, ishlab chiqarishning o‘sishi davrida esa malakali ishchilarga ish haqini oshirmaydi. Pul ko‘rinishidagi ish haqining o‘zgarishi bir tekisda boradi. Ish haqi darajasi individlar xatti-harakatining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq natijasi sifatida ma‘lum me‘yorda qat‘i tus oladi.

**Moslashuvchan ishchi kuchi bozori konsepsiyasi** (R.Buae, G.Stending) 70-yillarning oxirida, nisbatan rivojlangan G‘arb mamlakatlarida iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish amalga oshirilayotgan davrda keng tarqaldi. Uning asosida ishchi kuchi bozorini tartiblashdan voz kechish, bandlikning moslashuvchan, funksional jihatdan individuallashtirilgan va nostandart shakllariga (qisman bandlik, to‘liq bo‘lmagan ish haftasi yoki ish kuni, qisqa muddatli

shartnomalar, uyga ish olish va h.k.) o'tishning zarurligi to'g'risidagi qoidalar yotadi. Bunday yondoshuv iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish xarajatlarini kamaytirishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ishga yollash, ishdan bo'shatish va bandlik shakllarining turtiligi va moslashuvchanligi; ish vaqtini tartibga solishning moslashuvchanligi; ish haqini tabaqalashtirish asosida tartibga solishning moslashuvchanligi; ishchilarni ijtimoiy himoyalash usul va shakllari, shuningdek, ishchi kuchi bozoridagi talab va taklifning tebranishiga ishchi kuchi hajmi, tarkibi, sifati va narxini muvofiqlashuvining moslashuvchanligi hisobiga erishiladi.

Umuman olganda moslashuvchan ishchi kuchi bozori konsepsiyasi tadbirkor va ishchilar o'zaro munosabatlarning turli shakllarini mavjudligini taqozo etib, ishchi kuchi bozorining yalpi xarajatlarini ratsionallashtirish, foydalilik darajasini oshirish va yuqori harakatchanligini ta'minlashga qaratilgan.

### **Asosiy tayanch tushunchalar:**

**Ishchi kuchi** – insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi.

**Ishchi kuchini takror hosil qilish** – insonning mehnatga bo'lgan jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklash va ta'minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o'sishini ta'minlash, qarigan ishchilar o'rnini bosadigan yosh ishchilar avlodini etishtirish jarayoni.

**Yalpi ishchi kuchi** – jamiyat yoki alohida olingan mamlakat miqyosida qiymat va iste'mol qiymatlarini yaratishda ishtirok etuvchi bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda faoliyat qiluvchi ishchi kuchlarining umumlashtirilgan majmuyi.

**Ishchi kuchi talabi** – muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida turli ish beruvchilar tomonidan ishchi kuchi miqdori va sifatiga bildirilgan talab.

**Ishchi kuchi taklifi** – muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida ishga yollanishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli ishchi kuchi miqdori.

**Aholining tabiiy o‘sishi** – bu aholining emigratsiya va immigratsiyadan tashqari harakati.

**Emigratsiya** – fuqarolarning o‘z mamlakatlaridan boshqa mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko‘chib o‘tishi.

**Immigratsiya** – xorijiy fuqarolarning doimiy yashash uchun mamlakatga ko‘chib kelishi.

**Ishsizlik** – mehnatga layoqatli bo‘lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta‘minlanmagan ishchi kuchi.

**Friksion ishsizlik** – malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o‘rinlar bo‘shlashini kutayotganlarni namoyon etuvchi ishsizlik.

**Tarkibiy ishsizlik** – ishlab chiqarish va yalpi talab tarkibidagi o‘zgarishlar natijasida vujudga keladigan ishsizlik.

**Siklik ishsizlik** – iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog‘liq ravishda vujudga keladigan ishsizlik.

**Ishsizlik darajasi** – ishsizlarning ishchi kuchi tarkibidagi foizli nisbati.

**Ouken qonuni** – ishsizlik darajasi va YaIM hajmining orqada qolishi o‘rtasidagi nisbatning matematik ifodasi.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Ishchi kuchini takror hosil qilish deganda nimani tushunasiz va uning xususiyatlari qanday?

2. Ishchi kuchining sifati nima? U qanday omillarga bog‘liq? Fan-texnika taraqqiyotida ishchi kuchining sifatiga qanday talablar kuchayadi?

3. Ishchi kuchi bozori amal qilishining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

4. Ishchi kuchi qiymati va iste‘mol qiymati qanday aniqlanadi? Ularga ta‘sir etuvchi omillarni sanab bering.

5. Ish bilan to‘la bandlik nima uchun nisbiy ma‘noda tushuniladi? Qanday qilib ishchi kuchidan samarali foydalanishga erishiladi?

6. Ishsizlikning asosiy turlariga tavsif bering.

7. Ishsizlik darajasi qanday hisoblanadi?

8. Ishsizlikning tabiiy darajasi nimani anglatadi va u qanday tartibda aniqlanadi?

9. Ouken qonunining mohiyati nimada namoyon bo‘ladi?

10. Ishsizlikning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini tushuntirib bering.

## **10-BOB. INVESTITSIYA VA MOLIYAVIY BOZORLAR**

**10.1. Investitsiyalar va moliyaviy bozorlar rivojlanishi.**

**10.2. Investorlar va investitsiya loyihalari.**

**10.3. Moliyaviy bozorning asosiy funksiyalari.**

**10.4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy bozorlar.**

### **10.1. Investitsiyalar va moliyaviy bozorlar rivojlanishi**

**Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko‘paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko‘rinishidir.** U pul mablag‘lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida amalga oshiriladi. Pul mablag‘lari ko‘rinishidagi investitsiya **nominal investitsiya**, ana shu pul mablag‘lariga sotib olish mumkin bo‘lgan investitsion resurslar **real investitsiya** deyiladi.

**Investitsiyalarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha amaliy harakatlar – investitsion faoliyat, investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs – investor deyiladi.**

Investitsiyalarning manbalaridan biri bo‘lib aholi keng qatlamlarining jamg‘armalari hisoblanadi. Shuni ta’kidlash lozimki, amalda jamg‘arma egasi va investor bir shaxsda namoyon bo‘lishi va bo‘lmasligi ham mumkin. Odatda, jamg‘arma jamiyatdagi ko‘pchilik subyektlar tomonidan amalga oshirilib, ulardan investitsiya sifatida foydalanish esa butunlay boshqa subyektlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi sanoat, qishloq xo‘jalik va boshqa korxonalar jamg‘armasi ham investitsiya manbasi bo‘lib hisoblanadi. Bu o‘rinda “jamg‘aruvchi” va “investor” bir subyektda mujassamlashadi.

Investitsiya faoliyati quyidagi manbalar hisobiga amalga oshirilishi mumkin:

- investorlarning o‘z moliyaviy resurslari (foyda, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg‘armalari va h.k.);

- qarz olingan moliyaviy mablag‘lar (obligatsiya zayomlari, bank kreditlari);

- jalb qilingan moliyaviy mablag‘lar (aksiyalarni sotishdan olingan mablag‘lar, jismoniy va huquqiy shaxslarning pay va boshqa to‘lovlari);

- davlat budjeti mablag‘lari;
- chet elliklar mablag‘lari.

Investitsiyalarga sarflar darajasini ikkita asosiy omil belgilab beradi:

- 1) investitsiya sarflaridan kutilayotgan foyda normasi;
- 2) foiz stavkasi.

Investitsiyalarga qilinadigan sarflarning harakatlantiruvchi motivi **foyda** hisoblanadi. Tadbirkorlar ishlab chiqarish vositalarini qachonki ular foyda keltiradigan bo‘lsa, sotib oladilar.

Investitsiyalar darajasini belgilaydigan ikkinchi omil **foizning real stavkasi** hisoblanadi. **Foiz stavkasi – real asosiy kapitalni sotib olish uchun zarur bo‘lgan, bankdan olingan ssuda kapitaliga korxonaga to‘lashi lozim bo‘lgan pul miqdori.**

Investitsiya darajasiga kutilayotgan sof foyda normasi va foiz stavkasidan tashqari boshqa quyidagi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi:

- 1) mashina va uskunalarni xarid qilish, ishlatish va ularga xizmat ko‘rsatish xarajatlari;
- 2) tadbirkorlardan olinadigan soliq miqdori;
- 3) texnologik o‘zgarishlar.

O‘zbekistonda investitsiya muhitiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning SWOT tahlili amalga oshiildi. Uning asosiy natijalarini quyidagi jadval orqali kuzatish mumkin (10.1-jadval).

### 10.1-jadval

#### O‘zbekistondagi investitsiya muhitiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning SWOT tahlili<sup>61</sup>

Kuchli tomonlari (Strengths)	Kuchsiz tomonlari (Weaknesses)
<ul style="list-style-type: none"> <li>– mamlakatning geografik jihatdan qulay joylashganligi;</li> <li>– ma’lumotli, nisbatan arzon ishchi kuchining mavjudligi;</li> <li>– boy tabiiy resurs bazasining mavjudligi;</li> <li>– ishlab chiqarish omillarining nisbatan past xarajatlari;</li> <li>– ichki bozor xarid qobiliyatining o‘sib borishi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– ochiq dengiz havzasiga chiqish imkoniyatining cheklanganligi;</li> <li>– xorijiy investitsiyalarni jalb etishda ma’muriy to‘siqlarning saqlanib qolganligi;</li> <li>– biznes yuritishni tartibga solish bilan bog‘liq to‘siqlarning mavjudligi;</li> <li>– ayrim hududlarda investitsiya infratuzilmasining etarli darajada rivojlanmaganligi.</li> </ul>

<sup>61</sup> Муаллиф ишланмалари асосида тузилган.

Imkoniyatlar (Opportunities)	Xavflar (Threats)
<ul style="list-style-type: none"> <li>– iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini ta‘minlash;</li> <li>– investorlar huquqlarini himoya qilishda davlatning kafil sifatida maydonga chiqishi;</li> <li>– mamlakatda makroiqtisodiy va siyosiy barqarorlikning mavjudligi;</li> <li>– tizimli tarkibiy islohotlarning amalga oshirilishi;</li> <li>– moliya tizimining taomillashib borishi;</li> <li>– investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari tizimining takomillashuvi;</li> <li>– erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– makroiqtisodiy o‘shishning jahon xom ashyo bozorlaridagi vaziyatga nisbatan bog‘liqligi;</li> <li>– hududlarda ekologik vaziyatning yomonlashuvi;</li> <li>– ayrim qo‘shni mamlakatlarda ijtimoiy keskinliklar tufayli xavfsizlikning yomonlashuvi;</li> <li>– investitsiya jarayonlarida davlat monopol hukmronligining saqlanib qolishi;</li> <li>– zamonaviy texnologiyalar va texnik vositalar jihatidan qaramlikning kuchayishi;</li> <li>– ishchi kuchi tarkibining malaka va kasb jihatidan iqtisodiyotning haqiqiy talabiga muvofiq kelmasligi.</li> </ul>

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo‘nalishlardan biri investitsiyalarni keng jalb etish, jumladan, xorijiy investorlar uchun yanada qulay investitsiya muhitini yaratishga e’tibor qaratilmoqda.

Xorijiy investitsiyalar mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlariga jalb etilgan takdirida ushbu tarmoqlar bosqichma-bosqich rivojlanadi, va qator iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy samaralarga erishiladi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat (10.1-rasm).


Investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish barqaror iqtisodiy o‘shishga erishishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb etishni boshqarish, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash siyosati, jumladan, investitsiya muhitini takomillashtirish kompleks tarzda amalga oshirilmoqda.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi eng avvalo davlat, uning turli mintaqa va hududlari, iqtisodiyotning tarmoq va sohalari, ishlab chiqarish birliklari, aholi turli qatlamlari o‘rtasidagi pul



mablagʻlari oqimining samarali tashkil etilishiga bogʻliq boʻladi. Bunday pul oqimlari jamiyat real hayoti jarayonlarini aks ettirib, mamlakatdagi fuqarolar va yuridik shaxslar oʻrtasida oʻzaro iqtisodiy munosabat va aloqalarni oʻrnatadi.




### 10.1-rasm. Xorijiy investitsiyalar jalb qilinganda vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy samaralar<sup>62</sup>

Davlat korxonalar va tashkilotlar, turli moliyaviy muassasalar, aholi bilan olib boriladigan oʻzining barcha vazifalarini aynan moliya mexanizmi orqali amalga oshiradi. Moliya milliy iqtisodiyot va aholi farovonligining oʻsishini aks ettirib, korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi va ularning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishini ragʻbatlantiradi, ishlab chiqarish tuzilmasini, tarmoqlararo va hududiy nisbatlarni shakllantiradi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asosan xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining barqaror va samarali rivojlanishini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasini iqtisodiy oʻsishning muhim omili sifatida koʻrib chiqish lozim.

<sup>62</sup> Муаллиф ишланмаси.

Xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyoti uchun ta'siri borasida qarama-qarshi fikrlar borligini, ya'ni: ular ijobiy bo'lishi bilan birga salbiy ta'siri ham borligini inkor etib bo'lmaydi. Xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi davlat iqtisodiyoti uchun ta'sirini quyidagi rasm orqali ko'rishimiz mumkin (10.2-rasm). Xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, u mamlakatning moliya qatlamida ichki jamg'armalarni etishmayotgan mablag'lar bilan to'ldirishda qo'l keladi.



**10.2-rasm. Xorijiy investitsiyalarning qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri<sup>63</sup>**

Ushbu jarayonning mazmuni shundaki, xorijiy investitsiyalar davlat tomonidan rejalashtirilgan xarajatlarni (davlat jamg'armalari, valyuta zahirasi, davlat daromadlarini to'ldirish) amalga oshirish uchun zarur bo'lgan investitsiya mablag'larini jalb etish orqali etishmayotgan mablag'larni qoplash, ushbu xarajatlarni amalga oshirishda uzilishlarni oldini olish imkonini beradi.

**Moliya – iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag'laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tizimidir. Uning vositasida turli darajada**

<sup>63</sup> Муаллиф ишланмаси асосида тузилган.

**pul mablag‘lari fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi.**

Moliya pul bilan bog‘liq munosabatlar bo‘lib, uning moddiy asosini pul tashkil qiladi, lekin u pul emas yoki pul bilan bir xil narsa tushuncha emas. Bundan ko‘rinadiki, iqtisodiyotning samarali va barqaror ravishda amal qilishi, yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash maqsadida davlat ko‘plab boshqa iqtisodiy subyektlar bilan moliyaviy munosabatlarga kirishadi. Moliyaviy munosabatlar – davlat, mintaqalar, tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar hamda alohida fuqarolar o‘rtasida pul mablag‘lari fondlarining harakati bilan bog‘liq holda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmuyi.

Moliyaviy munosabatlarning obyektlari va subyektlari farqlanadi. **Moliyaviy munosabatlarning obyektlari** bo‘lib iqtisodiyotning turli darajalarida tarkib topuvchi va harakat qiluvchi pul mablag‘lari fondlari hisoblanadi. **Moliyaviy munosabatlar subyektlari** tarkiban murakkab bo‘lib, ularga barcha tashkilotlar, korxonalar, yuridik va jismoniy shaxslar, fuqarolar kiradi. Ular orasida doimo moliyaviy munosabatlar bo‘lib turadi. Bu munosabatlarning asosiylari sifatida quyidagi munosabatlarni ko‘rsatish mumkin:

- davlatlararo moliyaviy munosabatlar;
- davlat va turli xalqaro tashkilotlar, xorijiy firma va korxonalar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- boshqaruvning turli darajalaridagi davlat organlari o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- davlat va korxonalar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- davlat va aholi o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- korxonalararo moliyaviy munosabatlar;
- korxonalar va banklar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- korxonalar ichidagi xo‘jalik aloqalariga xizmat qiluvchi moliyaviy munosabatlar va boshqalar.

Moliya iqtisodiyot doirasida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan quyidagi **vazifalarni** bajaradi:

- 1) iqtisodiy jarayonlarni, loyihalar va tadbirlarni pul resurslari bilan ta‘minlash va unga xizmat ko‘rsatish vazifasi;

- 2) taqsimlash vazifasi;
- 3) rag‘batlantirish vazifasi;
- 4) nazorat qilish vazifasi.

Jamiyat miqyosidagi iqtisodiy faoliyat turli jarayon va tadbirlarning, jumladan, mamlakatni boshqarish, mudofaa qobiliyatini ta‘minlash, huquq-tartibot ishlarini yo‘lga qo‘yish, sog‘liqni saqlash, madaniy-ma‘rifiy ishlar va boshqalarning amalga oshirilishini taqozo etadi. Buning uchun, eng avvalo, ularni moliyaviy resurslar bilan ta‘minlash kerak bo‘ladi. Shunga ko‘ra, moliya iqtisodiy jarayon va tadbirlarni **moliyaviy ta‘minlash, ularga xizmat ko‘rsatish vazifasini** bajaradi.

Moliyaning **taqsimlovchi vazifasi** moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan Yalpi milliy mahsulotni, ayniqsa, uning milliy daromadni tashkil qiluvchi qismini davlat va mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, iqtisodiyot tarmoqlari, moddiy ishlab chiqarish sohalari, mamlakat hududlari o‘rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashda namoyon bo‘ladi.

Moliyaning **rag‘batlantiruvchilik vazifasi**, birinchidan, yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash jarayoni orqali, ikkinchidan, pul fondlarini tashkil qilish va sarflash mexanizmi orqali amalga oshiriladi.

Moliyadan ishlab chiqarish, taqsimlash va iste‘mol ustidan **nazorat qilish vositasi** sifatida foydalaniladi. Moliyaviy nazorat korxonalar (firma)larning moliya intizomiga rioya qilish uchun moddiy javobgar bo‘lish tizimi, turli soliqlar undirib olish va mablag‘ bilan ta‘minlash tizimi orqali amalga oshiriladi.

**Moliyaviy munosabatlar va ularga xizmat qiluvchi maxsus muassasalar jamiyatning moliya tizimini tashkil qiladi.** Bu tizim davlat va boshqa turli darajadagi budjetlarni, ijtimoiy, mol-mulk va shaxsiy sug‘urta fondlarini, davlatning valyuta zaxiralarini, banklar, pul muomalasi, kredit va soliq tizimi, korxonalar va firmalar, tijorat va notijorat tuzilmalarining pul fondlarini, boshqa maxsus pul fondlarining harakatini o‘z ichiga oladi.

Moliya bozori moliyaviy aktivlarni muomalaga chiqarish, oldi-sotdi qilish va aylanmasi bilan bog‘liq iqtisodiy va huquqiy munosabatlar tizimini namoyon etadi.

Moliya bozori – bu, turli iqtisodiy subyektlar tomonidan o‘zgarib turuvchi talab va taklif ta’sirida doimiy harakatda bo‘lgan barcha pul resurslarining yig‘indisi.

Moliya bozori xo‘jalik subyektlarining ehtiyojlari va bozor kon’yunkturasining o‘zgarishlariga muvofiq pul mablag‘larini taqsimlash va qayta taqsimlash kanali hisoblanadi.

Moliya bozorlarining asosiy turlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

1. Pul bozori.
2. Kredit bozori (ssuda kapitali bozori).
3. Valyuta bozori.
4. Qimmatli qog‘ozlar bozori (fond bozori).
5. Sug‘urta bozori.
6. Oltin bozori.

## **10.2. Investorlar va investitsiya loyihalari**

**Investor** – bu kelgusida foyda olish maqsadida o‘z tasarrufidagi bo‘sh aktivlardan kapital qo‘yilma sifatida foydalanuvchi jismoniy yoki yuridik shaxslar, davlat.

Investorlar tarkibiga kiruvchi subyektlar sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

- brokerlar;
- dilerlar;
- kredit va sug‘urta tashkilotlari;
- xususiy pensiya fondlari;
- notijorat fondlari;
- investitsiya fondlarini boshqaruvchi kompaniyalar.

Investorlarni quyidagi asosiy jihatlar bo‘yicha turkumlash mumkin:

### **1) faoliyat strategiyasiga ko‘ra:**

- **strategik investorlar** – muayyan aksiyadorlik kompaniyasi ustidan to‘liq nazoratni qo‘lga kiritishga harakat qiluvchi investorlar;

- **portfel investorlar** – moliyaviy vositalarning muddati, risk va likvidlik darajasini hisobga olgan holda o‘zining xususiy portfelini shakllantiruvchi investorlar. Bunda har bir investor o‘z kapitalini ko‘paytirish maqsadida portfel investitsiyalarga mablag‘ kiritadi;

- **spekulyativ investorlar** – tranzaksiyalardan daromad olish maqsadida qisqa muddatli bitimlarni tuzish orqali fond bozoridagi moliyaviy vositalar muomalasida ishtirok etuvchi investorlar.

## 2) investitsiyalash taktikasining tanlanishiga ko‘ra:

- **riskli investorlar** – o‘zining qo‘rquv va riskiga ko‘ra nisbatan yuqori daromadli, demak, riskli moliyaviy vositalarni tanlovchi va ularga pul mablag‘larini kirituvchi investorlar. Bunday yondashuvda ikkita mutlaq qarama-qarshi natijaga erishish mumkin: investor investitsiya operatsiyasidan maksimal foyda oladi yoki u umuman foyda olmaydi;

- **konservativ investorlar** – mablag‘larni investitsiya qilishda eng past riskli vositalarni tanlovchi fond bozori ishtirokchilari. Bunday investorlarning portfeli uzoq vaqt mobaynida shakllanib, ularning vositalari deyarli o‘zgarmaydi;

- **mo‘tadil investorlar** – dastlab o‘zi uchun investitsiyalash riskining maqbul darajasini tanlab olib, shundan kelib chiqqan holda o‘zining investitsiya portfelini shakllantiruvchi bozor ishtirokchilari.

**Investitsiya loyihasi** – yo‘naltirilgan maqsadni amalga oshirish uchun texnologik, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish, obyektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi tizim.

Investitsiya loyihasi quyidagi jihatlarga ega:

- o‘z maqsadi;
- yo‘nalishi;
- amal qilish sohasi;
- muddati va chegarasi.

Investitsiya loyihasi to‘liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjatlar to‘plamidir. U investitsion tadbirkorlik va tashabbusning natijasi sifatida yaratilgan investitsion hujjat bo‘lib, investitsiyalar bilan ta‘minlangan har qanday tadbirlar majmuasi hisoblanadi, ya‘ni u cheklangan muddat davomida foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish yo‘ldagi bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq tadbirlar yig‘indisi hisoblanadi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

- birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

- ikkinchidan, import o‘rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo‘naltirish va pirovardida aholining me‘yordagi turmush darajasini ta‘minlash imkonini yaratadi;

- uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o‘shib borayotgan aholini ish joylari bilan ta‘minlaydi;

- to‘rtinchidan, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;

- beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko‘maklashadi va h.k

Iqtisodiyotga investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb etish omillari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

Birinchi, investitsiya quvvatining mavjudligiga. Uni tabiiy, mehnat zaxiralari, shuningdek, ishlab chiqarish, iste‘mol, moliyaviy, innovatsiya, institutsional va infratuzilmaviy quvvatlar tashkil qiladi.

Ikkinchi, mamlakatdagi mavjud investitsiya sharoitlari muhim ahamiyatga egadir. Bularga: umumiy iqtisodiy, bozor, me‘yoriy-huquqiy, axborot bilan ta‘minlanish, ekologik, ijtimoiy, madaniy va ijtimoiy-madaniy sharoitlar kiradi.

Uchinchi, investitsiya tavakkalchiligi omillaridir. Ular xorijiy investorlarning investitsiya quvvati va investitsiya sharoitlarining qulay afzalliklaridan foydalanish bo‘yicha vazifalariga qarama-qarshi turadi.

Mamlakatda investitsiyalarning samaradorligini baholashda jahon amaliyotida ICOR (Incremental Capital-Output Ratio) indeksidan foydalaniladi (yalpi ichki mahsulot o‘shishining kapital sig‘imi). U quyidagicha aniqlanadi.

$$ICOR = \frac{\left(\frac{I}{Y} * 100 \%\right)}{\Delta Y\%}$$

Bu yerda:

**I** – asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar


**Y** – Mamlakatda YAIM hajmi

**ΔY%** – YAIM miqdorining o‘shish sur‘ati, foizda

Mamlakatda investitsiyalarning samaradorligini baholashda jahon amaliyotida ICOR (Incremental Capital-Output Ratio) indeksidan foydalaniladi (yalpi ichki mahsulot o‘shishining kapital sig‘imi). ICOR

indeksi qanchalik past bo'lsa, mamlakatning iqtisodiy o'sishida investitsiyalardan foydalanish samaradorligi yuqori bo'ladi. Bu yerda mamlakatning iqtisodiy o'sishida investitsiyalarning ahamiyati yuqoriligini, o'zlashtirilgan har bir birlik investitsiya o'zidan oldingi darajadan yuqori bo'lgan miqdorda mahsulot yaratish imkonini beradi. Bu esa mavjud holatda iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishni yanada kuchaytirish kerakligini taqozo etadi.

ICOR indeksi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakatning iqtisodiy o'sishida investitsiyalardan foydalanish samaradorligi past bo'ladi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy o'sishida investitsiyalarning ahamiyati pastligidan guvohlik beradi, o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan iqtisodiy o'sish o'zaro muvofiqlashmagan. O'zbekistonda ICOR indeksi 2005 yilda 2,8 ni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yildan boshlab o'sish tendentsiyasini tashkil etib, 6,7 ni tashkil etdi.



### 10.3-rasm. O'zbekistonda va industrial rivojlangan mamlakatlarda ICOR (Incremental Capital-Output Ratio) indeksining o'zgarishi, koeffitsentda<sup>64</sup>

Industrial rivojlangan mamlakatlarda bu indeks 2,5 ni tashkil etadi. 2.3.2-rasmdan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda bu indeks 2007 yilda 2,2 tashkil etib, industrial rivojlangan mamlakatlar darajasidan past bo'lgan. 2013 yildan boshlab bu indeks ko'tarilish darajasiga ega bo'lib, eng yuqori cho'qqiga 2019 yilda chiqqan, ya'ni 2019 yilda 6,7 ni tashkil etgan. Biz ICOR (Incremental Capital-Output Ratio)

<sup>64</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (stat.uz) ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.



indeksini hududlar kesimida ham o‘rganishimiz mumkin. Bu yerda u quyidagicha aniqlanadi.

$$ICOR = \frac{\left(\frac{I_h}{Y_h} * 100 \%\right)}{\Delta Y_h \%}$$

Bu yerda:

$I_h$  – hududlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar;

$Y_h$  – hududlarda YAHM (yalpi hududiy mahsulot) hajmi;

$\Delta Y_h\%$  – YAHM (yalpi hududiy mahsulot) miqdorining o‘shir sur‘ati, foizda.

Agar 2005-2017 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlarida esa, aksincha, ushbu indeksning qiymati oshib borishini ko‘rish mumkin. Bu esa hududlarning iqtisodiy o‘shirida investitsiyalarning ahamiyati pastligidan guvohlik beradi (10.2-jadval).

## 10.2-jadval

### O‘zbekistonda hududlar bo‘yicha ICOR indeksining o‘zgarishi, koeffitsent<sup>65</sup>

	2005 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil
O‘zbekiston Respublikasi	2,8	2,8	2,8	2,8	3,0	2,9	3,5	5,3	5,6	6,7	21,8
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4,1	3,3	3,0	7,2	8,4	8,7	3,5	4,6	8,2	6,6	14,8
Andijon	1,1	1,6	2,2	1,7	1,7	4,3	29,6	3,7	1,8	3,8	8,2
Buxoro	2,6	4,7	4,6	4,3	4,2	3,9	6,4	28,6	8,4	6,1	20,3
Jizzax	1,8	2,3	2,7	2,9	2,8	2,4	2,4	4,7	7,4	8,9	46,5
Qashqadaryo	4,3	4,8	6,2	5,6	4,9	5,3	6,9	14,4	29,9	45,0	27,4
Navoiy	9,5	4,9	5,5	5,0	3,4	4,5	6,9	20,8	10,1	9,3	4,6
Namangan	2,2	1,9	2,1	2,2	2,7	2,7	3,0	7,0	10,0	7,5	9,4
Samarqand	2,9	2,1	1,8	2,2	2,0	2,1	2,2	12,4	39,8	6,4	13,2
Surxondaryo	4,3	1,9	1,8	2,4	2,1	2,3	3,2	7,4	8,6	8,7	9,4
Sirdaryo	1,3	3,6	2,3	5,1	3,8	3,1	3,2	-5,5	9,5	16,5	588,7
Toshkent	4,9	2,7	3,4	3,3	3,5	3,4	3,9	21,8	4,1	8,2	11,7
Farg‘ona	1,8	2,6	2,5	2,6	2,3	2,2	2,8	-12,3	2,7	5,1	10,3
Xorazm	3,1	2,5	1,8	2,3	3,0	1,9	3,3	4,1	6,3	3,8	13,9
Toshkent shahri	5,9	1,9	4,2	3,1	2,4	2,6	2,4	2,9	4,0	5,3	33,7

Demak, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar bilan

<sup>65</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (stat.uz) ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

iqtisodiy o‘shish o‘zaro muvofiqlashmagan. YUzaga kelgan bu holat viloyatlar iqtisodiyotini sarmoyalashda xorijiy investitsiyalar salmog‘ining keskin oshishi va ularning yuqori mujassamlashuvi, asosan maqsadli loyihalarni amalga oshirilishi hisobiga yuz berganligi sababli investitsiyalarni ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta’siri past bo‘lib qolayotganligi bilan izohlanadi.

Ikkinchi tomondan, bu vaziyat viloyat hududlaridagi mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanilmayotganligi va bu o‘rinda hududiy dasturlar doirasida mavjud mineral xom ashyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni tayyorlashda mahalliy tashabusskorlar va kichik biznes sub’ektlarining roli juda pastligi bilan bog‘liq. SHuningdek, bu xususda ko‘pchilik shahar va tumanlarida joylashgan korxonalar ishlab chiqarishini rag‘batlantirish va modernizatsiya qilish maqsadida to‘g‘ridan- to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish juda sust darajada kechayotganligini ham aytib o‘tish lozim.

SHu yerda masalaga boshqa tomondan yondashish kerakligini tavsiya etamiz. ICOR indeksi asosida biz hududda ma’lum bir davrda investitsiyalar samaradorligini to‘g‘ri baholay olmasligimiz mumkin.

Birinchidan, yangi tashkil etilayotgan ishlab chiqarish korxonalarining qurilishiga ma’lum bir vaqt, masalan 3 yil muddat sarflandi deylik. Natijada 3 yilgacha bo‘lgan oraliqda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hududning jami investitsiyalar tarkibida aks ettiriladi, lekin ishlab chiqarish boshlanmaganligi sababli viloyat YAHMning hajmining yuqori darajada oshishiga olib kelmaydi. Bu esa bu oraliqda ICOR indeksining yuqori bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida amalga oshirish va ularni qoplash muddati ustidan, ya’ni, biznes rejada nazarda tutilgan muddatlarda qurilishini o‘z vaqtida yakunlash, kerakli zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta’minlash, o‘z muddatida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali kiritilgan investitsiyadan iqtisodiy samara olishga erishiladi. Agar yuqorida ko‘rsatilagn vazifalar o‘z vaqtida bajarilmasa, ICORindeksining salbiy yuqori ko‘rsatkichini saqlab qoladi. Bu esa o‘z navbatida kiritilgan investitsiyaning samaradorligi pastligini ko‘rsatadi. Investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida amalga oshirishni kechiktirilishi kapitalning daromad olish maqsadida

kiritilgan kapitalning bir joyda harakatsiz turib qolishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida samarasiz kapitalga aylanib, iqtisodiyotni o‘shir sur‘atini kamaytiradi.

Ikkinchidan, ayrim hududlarga turli ko‘rinishda investitsiya kiritilib, yangi korxonalar tashkil etiladi, lekin bu korxonalarning yaratgan mahsuloti hudud YAHMda aks ettirilmaydi. Bu holat ham o‘sha hududda ICOR indeksining yuqori bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Investitsiyalash borasidagi qo‘shma loyihalar va qo‘shma korxonalarni tashkil etishdagi risklarni hisobga olishda ko‘pchilik xorijiy investorlar Beri indeksidan foydalanadilar (10.3-jadval).

### 10.3-jadval

#### BERI indeksi<sup>66</sup>

Mezonlar	Salmog‘i, %
Siyosiy barqarorlik: kutilmagan hukumat to‘ntarishlari imkoniyatlari va ularning tadbirkorlik faolligiga ta‘sirini baholaydi	12
Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat: xususiy tadbirkorlarga tegishli ijtimoiy ehtiyojlarga bo‘lgan xarajatlar hajmi	6
Milliylashtirish: beg‘araz ekspropriatsiya imkoniyatlaridan to mahalliy xomiyatlarga imtiyozlar berishgacha	6
Devalvatsiya: devalvatsiya ta‘siri hamda korxonalar faoliyatiga devalvatsiyaning ta‘sirini yumshatuvchi choralarining hayotiyliigi	6
To‘lov balansi: hisoblar balansi va umumiy balansga hamda xorijiy investorlarning daromadlariga ta‘sir etuvchi omillar	6
Rasmiyatchilik masalalari: davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi, bojxona rasmiyatchiliklarini amalga oshirilishi, valyuta o‘tkazishlari va boshqa shunday operatsiyalar	4
Iqtisodiy o‘shir sur‘atlari: yillik yalpi mahsulot ishlab chiqarish sur‘atlarining o‘shishi 3%, 3-6%, 6-10% va 10%dan yuqori chegaralarda	10
Valyutaning konvertirlangani:	

<sup>66</sup> Имомов Х.Х. Инвестицияларни ташкил этиш ва молиялаштириш: Ўқув қўлланма. – Т.: - ТДИУ, 2010.

milliy valyutaning xorijiy valyutaga almashtirish imkoniyati hamda milliy valyutaning (korxonalariga zarur bo'lgan darajada) valyutalar bozoridagi o'rni	10
SHartnomani amalga oshirish imkoniyati: shartnomaga amal qilish imkoniyati hamda til va urf-odatlardagi farq natijasida qiyinchiliklarning yuzaga kelishi	6
Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar: ish haqi darajasi, mehnat unumdorligi, ishga qabul qilish tartibi	8
Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati: korxonalariga yuridik, buxgalteriya, marketing bo'yicha maslahatlar berish, texnologiya va qurilish ishlarini amalga oshirish sohalarida maslahatlar kutish imkoniyati	2
Aloqa va transportni tashkil etish: faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va ularning filiallari orasidagi transport yo'llari va aloqa tizimini (mamlakat ichidagini ham) tashkil etish va foydalanish imkoniyati. Transport infratuzilmasini baholash	4
Mahalliy boshqaruv va hamkor: boshqaruvning turli masalalarini echishda o'z kapitali bilan qatnashish va hamkorlikda faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan mahalliy hamkorlarning soni va imkoniyatlari	4
Qisqa muddatli kredit: xorijiy hamkorlarga qisqa muddatli kreditlar berish va ulardan foydalanish imkoniyati	8
Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital: hamkorlar tomonidan nizom kaptaliga o'z ulushlarini qo'shish shartlari va milliy valyutada uzoq muddatli kredit berish shartlari	8

Ushbu indeks mamlakatdagi investitsiya muhitini turlicha salmoqqa ega bo'lgan 15 ta baholash mezonlari asosida hisoblanadi. Har bir mezonga 0 dan (to'g'ri kelmaydi) 4 gacha (o'ta qulay) baho beriladi. To'plangan yuqori ball "barqaror mamlakat"ni anglatadi. Mamlakat to'plagan ball qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalashdan olinishi mo'ljallangan foyda ham shuncha yuqori bo'lishi zarur, aks holda investitsiyalash asossiz hisoblanadi. Beri indeksining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga nisbatan Beri indeksi asosida investitsiya muhiti imitatsion jihatdan quyidagicha baholadik (10.4-jadval).

**10.4-jadval**

**O‘zbekiston Respublikasi investitsiya muhitining imitatsion baholanishi<sup>67</sup>**

<b>BERI indeksi mezonlari</b>	<b>Bahosi</b>	<b>Salmog‘i,%</b>	<b>Indeks</b>
Siyosiy barqarorlik	4	12	0,48
Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat	3	6	0,18
Milliylashtirish	3	6	0,18
Devalvatsiya	3	6	0,18
To‘lov balansi	2	6	0,12
Rasmiyatchilik masalalari	2	4	0,08
Iqtisodiy o‘shir sur‘atlari	4	10	0,4
Valyutani konvertirlanganligi	4	10	0,4
SHarnomani amalga oshirish imkoniyati	3	6	0,18
Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar	2	8	0,16
Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati	3	2	0,06
Aloqa va transportni tashkil etish	3	4	0,12
Mahalliy boshqaruv va hamkor	2	4	0,08
Qisqa muddatli kredit	3	8	0,24
Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital	3	8	0,24
<b>JAMI</b>		<b>100</b>	<b>3,1</b>

10.4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, bizning hisob-kitoblarimiz bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga nisbatan Beri indeksi 3,1 bahoni tashkil etyapti. Bu esa investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan ishlarning ko‘pligini, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish zaruriyatini taqozo etadi.

### **10.3. Moliyaviy bozorning asosiy funksiyalari**

Turli xil moliyaviy bozorlarning keng doirasi mavjud. Ularning har biri boylik va likvidlikni iqtisodiyotga o‘tkazishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu bozorlarning barchasi bir-birlariga qandaydir tarzda tegishadi va har birining o‘zi qanday ishlashini va umuman iqtisodiyotning bir qismi sifatida qanday ishlashini bilishga arziydi. Moliya bozorlarining asosiy funksiyalari va ularning maqsadlari:

<sup>67</sup> Muallif ishlanmasi

1. Pul bozorlari. Pul bozorlari yuqori likvidli qisqa muddatlidir. Ular qisqa muddatli kreditlar va boshqa qarz mablag'larini aks ettiradi. Pul bozori katta moliyaviy iqtisodiyotning muhim ustunidir, chunki u banklar va korporatsiyalar o'rtasida naqd almashinuvni ta'minlash uchun zarur bo'lgan moddiy likvidlikni ta'minlaydi. Pul bozoridagi sarmoyalar odatda bir yildan kam vaqt ichida to'liq ta'minlanadi. Pul bozorining asosiy vazifasi ko'plab boshqa moliyaviy bozorlarni likvidligini ta'minlashdir.

2. Kapital bozorlari. Kapital bozorlari - bu investorlar va kompaniyalar moliyaviy vositalarga naqd pul almashadigan joy. Ya'ni kapital qo'yilmalar (aksiyalar) yoki qarzдорlik qimmatli qog'ozlari (obligatsiyalar). Ikkalasi ham kompaniyalar uchun kapitalni jalb qilish vositalari va boylik orttirish uchun investitsiya vositalari.

2a. Qimmatli qog'ozlar bozori (kapital). Qimmatli qog'ozlar bozori ikkilamchi bozor va spot bozorning bir qismidir. Bu investorlar o'rtasida sotib olingan, sotilgan va savdoga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar bozori. Qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy vazifasi investorlarga transport vositalarini taqdim etish va kompaniyalar uchun kapital jalb qilish imkoniyatlaridan iborat. Kapital aksiyalari (aksiyalar) ikkala maqsadga xizmat qiladi. Investorlar o'zlarining boyliklarini oshirish uchun kompaniyaning daromad kuchidan foydalanadilar; kompaniyalar investitsiya kapitalidan o'sish va aksiyadorlarga qiymatni qaytarish uchun foydalanadilar.

Amalga oshirilgan sotib olish va sotish, shuningdek, qimmatli qog'ozlar narxini belgilashga yordam beradi. Qimmatli qog'ozlar faqat xaridorlar sarflashga tayyor bo'lgan va sotuvchilar o'z pozitsiyalaridan chiqib ketishga tayyor bo'lgan narsalarga arziydi. Doimiy talab va taklif qimmatli qog'ozlar narxi har doim o'zgarib turishini anglatadi.

2b. Obligatsiya bozori (qarz). Obligatsiya bozori kapitalni jalb qiladigan qarz bozoridir. Ko'pgina investorlar buni fond bozori oynasi - qarzдорlik va aksiyadorlik qimmatli qog'ozlari deb o'ylashadi. Qarz qimmatli qog'ozlarining nisbatan belgilangan shartlari tufayli obligatsiyalar bozori fond bozoriga qaraganda ancha barqaror.

Qimmatli qog'ozlar bozori singari, obligatsiyalar bozori ham korporatsiyalar va davlat tashkilotlari uchun moliyalashtirish yo'ldir. Emitentlar kapitalni taklif qilish o'rniga, obligatsiya muddati tugagandan so'ng investitsiyalarni qaytarishini va'da qilgan qarz

yo'zuvlarini taklif qilishadi. Investitsiya darajasidagi obligatsiyalar deyarli kafolatlanadi, bu esa ularni bemor investorlar uchun uzoq muddatli sarmoyaga aylantiradi. Ushbu kafolat, kompaniyaning faoliyatiga bog'liq bo'lgan qimmatli qog'ozlarga qaraganda past rentabellikga ega.

3. Valyuta bozori. Valyuta bozori kunlik savdo hajmi va qiymati bo'yicha eng katta bozor hisoblanadi. Investorlar dunyodagi istalgan ikki valyutaning kurslarini 24 soat davomida almashtirishlari mumkin. Shunday qilib, ular valyuta konvertatsiyasini ta'minlash orqali xalqaro savdo va investitsiyalarga yordam berishadi. Har qanday yagona valyutaning qiymati boshqalarni kuzatib boradi, ya'ni valyuta bozori adolatli va halol valyuta kurslarini o'rnatishga yordam beradi. Bu markazsizlashtirilgan butunlay o'zini o'zi boshqaradigan bozor. Forex asosiy moliyaviy moliya iqtisodiyotining asosiy ishtirokchisi.

4. Birjadan tashqari bozor. Birjadan tashqari bozorlar birjalarda bo'lmagan moliyaviy mahsulotlarni aks ettiradi. Ushbu bozor investorlarga ro'yxatga olinmagan moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyatini beradi. Masalan, bunga aksiyalar, obligatsiyalar va hosilalar kiradi. Sotib olish va sotish to'g'ridan to'g'ri sodir bo'ladi. Bu kichik, venchur va xorijiy kompaniyalarga investorlar bilan bog'lanish imkonini beradi. Shuningdek, bu investorlarga yanada qulayroq bo'lgan bozorda ishtirok etishlariga imkon beradi. Birjadan tashqari bozorlar ham an'anaviy investitsiyalarni to'sish uchun joydir.

5. Derivativlar bozori. Derivativlar bozori uchun uchta asosiy maqsad mavjud. Birinchidan, xavfni kamaytirish. Uning foyda keltiradigan imkoniyatlaridan foydalanish uchun asosiy aktivni ushlab turishning hojati yo'q. Ikkinchidan, bu ma'lumotni topishdir. Derivativlar qimmatli qog'ozlar narxining kelajagiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillar to'g'risida tushuncha beradi. Uchinchisi va oxirgi narsa – bu, taxmin. Investorlar asosiy xavfsizlikdagi narxlarning o'zgarishini kapitalizatsiya qilish orqali pul ishlashlari mumkin.

5a. Fyuchers bozori. Fyuchers bozori – bu, shartnomalar bo'yicha defolt xavfini kamaytiradigan lotin bozori. Bu kelishilgan narx bo'yicha mol-mulkni ma'lum bir sanada sotib olish yoki sotish to'g'risidagi bitim. Fyucherslar diversifikatsiya qilish va xedjlash uchun juda yaxshi. Bundan tashqari, ular chayqovchilarga mol-mulkka bevosita egalik qilmasdan pul ishlashga imkon beradi. Fyuchers

shartnomalari, shuningdek, investorlarni aktivlarning qadrsizlanishidan himoya qilishi mumkin.

5b. Opsion bozori. Boshqa bir lotin bozori, opsionlar bozori o‘zining monikeriga mos keladi. Variantlar investorlarga ma’lum bir aktivni ma’lum narxda sotib olish shartnomasini amalga oshirish huquqini beradi. E’tibor bering, u majburiyatni emas, balki huquqni kafolatlaydi. Investorlar o‘zlarining imkoniyatlaridan foydalanishni tanlashlari yoki shunchaki uning amal qilish muddati tugashiga yo‘l qo‘yishlari mumkin. Ushbu bozor, boshqa hosilalar singari, o‘zgaruvchanlikka qarshi himoya vositasidir. Variantlarni sotib olish arzon va ularni katta yo‘qotishlardan himoya qilish mumkin.

7. Kripto-valyuta bozori. Eng yangi moliyaviy bozor paydo bo‘lgan – bu, kripto-valyuta bozori. Ushbu bozor chakana investorlarga fiat valyutasi yordamida markazlashmagan valyutani sotib olishga imkon beradi. Kripto valyuta emas, balki xavfsizlik kabi harakat qiladi. Shuning uchun, ko‘pincha bu o‘zgaruvchan sarmoyadir. Uning qiymati kompadan tashqari boshqa valyutaga bog‘langan emas.

Moliyaviy bozorning asosiy funksiyalarini umumlashtirgan holda quyidagi holatlar orqali ifodalash mumkin:

1. Davlat, mintaqalar, korxonalar va aholining pul va boshqa moliyaviy resurslar shaklidagi vaqtinchalik bo‘sh kapitalini safarbar etish.

2. Vaqtinchalik bo‘sh moliyaviy resurslarni pirovard iste’molchilar o‘rtasida taqsimlanishini optimallashtirish.

3. Vaqtinchalik bo‘sh moliyaviy resurslardan foydalanishning nisbatan daromadli soha va yo‘nalishlarini aniqlash.

4. Moliyaviy resurslar aylanishini tezlashtirish.

5. Moliya bozorining o‘zgaruvchan konyunkturasiga muvofiq holda moliyaviy vosita va xizmatlarning bozor narxlarini shakllantirish.

6. Moliyaviy va tijorat riskini minimallashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish.

7. Moliyaviy vositalar sotuvchi va xaridorlari o‘rtasidagi moliyaviy vositachilik hisobiga xarajatlarni minimallashtirish.



#### **10.4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy bozorlar**

Iqtisodchilar moliya bozorlari evolyutsiyasi haqidagi nazariy bilimlarini tez sur'atlar bilan oshirib borishmoqda. Shu bilan birga, rivojlanish tashkilotlari va mamlakatlar moliyaviy bozorlarni tarkibiy takomillashtirishni ishlab chiqish va taklif qilishga ko'proq e'tibor berishdi. Ushbu maqola yaqinda ushbu sohada sodir bo'lgan voqealarni sarhisob qilishga urinadi. Birinchidan, moliyaviy bozorlarni o'rganish va tahlil qilish usullari ko'rib chiqiladi. Ikkinchidan, ularning faoliyatiga oid ba'zi vakolatli masalalar ko'rib chiqilmoqda. Va nihoyat, inflyatsiya savdo va investitsiyalarni nazorat qilish kabi ba'zi dolzarb muammolar moliya bozorlariga yo'naltirilgan siyosat bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi.

Ushbu moddaning maqsadi uchun "moliya bozori" qisqa muddatli vositalar (masalan, tijorat banklarining depozitlari va kreditlari, shuningdek, bank tizimi) va uzoq muddatli vositalar (masalan, obligatsiyalar, ipoteka) uchun bozorni anglatadi. Nima uchun moliya bozorlari umuman o'rganiladi. An'anaviy iqtisodiy nazariyada moliya sektori neytral hisoblanadi. Haqiqiy resurslar u orqali iqtisodiyotning samarali tarmoqlariga ushbu sohalarda mavjud bo'lgan daromadga muvofiq oqadi deb taxmin qilinadi. Keynes birinchilardan bo'lib obligatsiyalar va pul bozorlaridagi muvozanatni umuman iqtisodiyotdagi umumiy muvozanat bilan bog'lab, moliya sektorining ahamiyatiga e'tibor qaratdi. Neoklassiklar va miqdor nazariyotchilarining "yangi" iqtisodiyoti ham moliya sektoriga katta e'tibor beradi. Biroq ushbu yondashuvlarning barchasi juda umumiy yoki juda to'plangan bo'lishga moyildir. Hech biri moliyaviy bozorlar evolyutsiyasi - ayniqsa nomukammal yoki rivojlanmagan mamlakatlar - iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatlarni batafsil o'rganish uchun yetarli asos emas. Yaqinda iqtisodchilar ushbu munosabatlarni sinchkovlik bilan o'rganmoqdalar va xususan, moliya sektoriga yo'naltirilgan siyosatdan rivojlanish maqsadlariga erishish uchun qanday foydalanish mumkinligini so'rashdi.

Har bir bozor o'ziga xos tarixiy va institutsional omillarni aks ettirganda moliyaviy bozorlarni umumiy ma'noda muhokama qilish mumkinmi? Nazariyani qo'llash har bir iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Shunga qaramay, moliyaviy

bozorni rivojlantirish “nazariyasi” umumiy ma’noda qiziqarli tushunchalarni berishi mumkin.

Dunyo miqyosida qiyosiy moliyaviy bozorni rivojlantirish bo‘yicha kashshof tadqiqot Raymond V. Goldsmitning “Moliyaviy tuzilish va rivojlanish” (New Haven: Yale University Press, 1969). Goldsmit, bozor iqtisodiyoti mamlakatlari o‘rtasida iqtisodiy rivojlanishning doimiy ravishda kuzatiladigan xususiyati - moliya institutlari sonining va turlarining ko‘payishi, shuningdek, pul ulushi va barcha moliyaviy aktivlarning umumiy qiymatining Yalpi milliy mahsulotga nisbatan ulushi sezilarli darajada oshishi ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu jarayon biz moliyaviy bozorlarni “rivojlantirish” deb ta’riflaymiz. Goldsmith boshqa ko‘rsatkichlar qatorida moliyaviy rivojlanish darajasi o‘lchovi sifatida “moliyaviy o‘zaro bog‘liqlik nisbati” tushunchasini ishlab chiqdi.

Goldsmitning ishi bilan bir vaqtning o‘zida mablag‘ oqimi hisobvarag‘idan foydalangan holda moliyaviy bozorni tahlil qilishning alohida yondashuvi ishlab chiqilgan edi. Milliy buxgalteriya hisobi tizimi sifatida mablag‘lar oqimi tahlilining asoslari Morris A. Kopelandning “AQShda pul oqimlarini o‘rganish” (Nyu-York: Milliy iqtisodiy tadqiqotlar byurosi, 1952) bo‘lgan. Xuddi shu yili AQSH Federal zaxira tizimi birinchi navbatda Qo‘shma Shtatlardagi mablag‘lar aylanmasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni nashr etishni boshladi. Yaqinda bir qator rivojlanayotgan mamlakatlar uchun mablag‘lar oqimining hisobvarag‘i to‘plandi. Bir tomondan ushbu hisoblar moliyaviy sektor uchun kirish-chiqarish jadvallari sifatida qaralishi mumkin. Pul oqimlari hisobvarag‘ida moliya sektori o‘rtasida balans moddalarining o‘zgarishi ko‘rsatilgan, ular moliyaviy resurslar iqtisodiyotda qayerda harakat qilishini xaritasini taqdim etadi. Ular resurslarning qayerda paydo bo‘lishini (va, albatta, nima uchun) aniqlamaydilar, ammo tahlil vositasi sifatida ular moliyaviy sektor tahlilini ancha rivojlantirdilar.

Goldsmit faoliyati bilan bir qatorda va ma’lumotlar bazasini taqdim etishda mablag‘lar oqimini o‘rganishni rivojlantirish bilan bir qatorda, bir qator nazariy tadqiqotlar rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy vositalarning kuzatilayotgan o‘sishi o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqligini batafsil bayon qilishga urindi. Ularning aksariyati moliya sektori rivojlanishi natijasida tejash-investitsiya jarayonining samara-

dorligini oshirishga asoslangan. Barter iqtisodiyotida o'z-o'zini moliyalashtirish ustunlik qiladi. Bu mablag'larni milliy iqtisodiyot uchun eng katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarga yo'naltirish imkoniyatini cheklaydi. Har qanday tejamkor (yoki jamg'armalar guruhi) tomonidan to'planishi mumkin bo'lgan resurslar miqdori cheklovlari miqyosni tejashga hamda tashkilotning yanada rivojlangan (masalan, korporativ) shakllarini rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Omonatlarni to'plash va unumli foydalanishga yo'naltirish uchun bank tizimi va uning institutsional qo'shimchalari shaklida muammosiz ishlaydigan jamg'arma-kredit tizimining rivojlanishi jarayonning muhim qismi bo'lishi mumkin bo'lgan ushbu dalillar asosida ko'rsatilishi mumkin. Shubhasiz, ushbu sohadagi nazariy ishlar bilan eng ko'p bog'langan ismlar Jon G. Gurli va Edvard S. Shou ismlari. Gurli va Shouning asosiy asari – "Moliya nazariyasidagi pul" (Vashington: Brukings instituti, 1960). Keyinchalik Shou umumiy model bo'lgan ushbu kitobning yondashuvini, xususan, iqtisodiy rivojlanishda moliyaviy chuqurlashishda rivojlanayotgan iqtisodiyotlar kontekstiga moslashtirdi (Nyu-York: Oxford University Press, 1973).

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moliya bozorlariga nisbatan siyosatning rivojlanishning turli maqsadlariga erishishga ta'siri alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina amaliy tadqiqotlar ushbu masalalarga qaratilgan. Masalan, moliya bozorining rivojlanishi xususiy sektor jamg'armalari darajasini to'g'ridan to'g'ri rag'batlantiruvchi narsa degan qiyin savolga jiddiy tadqiqotlar o'tkazilgan. Ushbu masala aniq ahamiyatga ega, chunki tejashning yuqori darajasi odatda iqtisodiy o'sishni jadallashtirishning muhim omili hisoblanadi.

Ishonch bilan aytish mumkinki, bilvosita munosabatlar mavjud. 1950-yillarda Tayvan va 1960-yillarning oxirlarida Koreya moliyaviy sektor tomonidan resurslarni jalb qilish va taqsimlash darajasini oshirishga qaratilgan siyosatni qabul qildilar. Ikkala mamlakatda ham omonat depozitlari bo'yicha nominal foiz stavkalari keskin oshirildi va bu bank sektoriga katta miqdordagi moliyaviy resurslarni jalb qilishga muvaffaq bo'ldi. Shu bilan birga, xususiy sektorning jami jamg'armalari (joriy narxlarda YaMM ulushi sifatida o'lchanadi) deyarli bir oz o'zgarishni ko'rsatmadi. Ko'rinib turibdiki, qisqa vaqt ichida katta miqdordagi tejamkorlik oltin va xazinalar kabi boshqa moliyaviy bo'lmagan jamg'arma shakllaridan moliyaviy tejashga o'tkazildi.

Shunga qaramay, har ikkala mamlakatda ham yangi siyosat qabul qilinganidan keyin o'tgan yillar davomida jami xususiy jamg'arma mablag'larining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.

Xuddi shunday, 1960-yillarda Braziliyada xususiy sektorning jami mablag'lari u yerda moliya bozorini rag'batlantirishga yo'naltirilgan siyosatga bilvosita javob berganga o'xshaydi (qarang: U Tun Vay va Xyu T. Patrikning Kam rivojlangan mamlakatlarda aksiyalar va obligatsiyalar chiqarilishi va kapital bozori, XVF xodimlarining hujjatlari, 1973 – yil iyul). U Tun Vay yaqinda bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy vositachilik darajasi va jami milliy jamg'armalarning o'sishi o'rtasidagi munosabatlarni batafsil rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy vositachilar va rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy jamg'armalarni o'rganib chiqdi (Nyu-York: Praeger, 1972).

Foiz stavkalarini tazyiq qilish natijasi, aslida, mablag'larni tejashni moliyaviy bo'lmagan va shuning uchun ko'pincha samarasiz bo'lgan mablag'larga qaytishga undashdir.

Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, takomillashtirilgan moliyaviy tizimning afzalliklaridan biri, hech bo'lmaganda, jamg'arma shakli yaxshilanganligi degan xulosaga kelish oqilona bo'lib tuyuladi. Mamlakatlarda moddiy boylikning katta qismi odatda qimmatbaho metallar yoki boshqa samarasiz aktivlar sifatida saqlanadi. Agar, masalan, jami boylikning 10 foizi iqtisodiyotni moliyalashtirishni ko'payishi natijasida samarasiz shakllardan ishlab chiqarish shakllariga qayta taqsimlangan bo'lsa, bu - doimiy ishlab chiqarish koeffitsiyentini hisobga olgan holda - Yalpi ichki mahsulotni 10 foizga oshirish (shuningdek, albatta, joriy sarmoyalar ko'payishi bilan joriy iste'mol kamayadi). Bu ishlab chiqarish hajmining bir martalik o'sishi bo'lishi mumkin, ammo bu sezilarli hisoblanadi.

Moliya sektori faoliyatiga haddan tashqari nazoratning, xususan foiz stavkalari ustidan ta'siri, hozirgi paytda katta qiziqishning yana bir yo'nalishi hisoblanadi. Haddan tashqari nazoratga duchor bo'lgan bozorlar ko'pincha "bosilgan" deb ta'riflanadi, chunki bunday nazorat odatda moliyaviy sektorning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Masalan, hukumatlar ko'pincha jamg'arma tashkilotlarini (xususan, tijorat banklari tizimini) bozor narxlaridan past bo'lgan davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olishga majbur qilishadi. Bu davlat sektoriga arzon

mablag‘lar oqimini ta‘minlasa-da, banklar kam daromadli aktivlarga ega bo‘lganda omonatchilarga mos ravishda kamroq to‘laydilar. Foiz stavkalarini bostirish natijasi, aslida, mablag‘larni tejashni moliyaviy bo‘lmagan va shuning uchun ko‘pincha samarasiz bo‘lgan mablag‘larga qaytishga undashdir.

Hukumat qarzdorlik vositalari ko‘pincha past rentabellikda narxlanishini taxmin qilish qiyin emas. Yuqori stavkalarni to‘lash o‘zboshimchalik bilan hukumatga moliya xarajatlarini oshirishga o‘xshaydi. Ammo moliya bozori uni o‘z ixtiyori bilan singdirishi uchun davlat sektori qarzlarning rentabelligini oshirish, omonatchilarga yuqori rentabellikni keltirib chiqaradi. Davlat sektori qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha foizlarning yuqori rentabelligi oshgan “tannarxi” shu tariqa faqat to‘lovlarni o‘tkazish shakli sifatida qaralishi mumkin.

Agar davlat sektori qarzlari bozor stavkalari bo‘yicha baholansa, bir nechta bilvosita iqtisodiy “dividendlar” mavjud bo‘lar edi. Hukumat o‘z investitsiya loyihalari uchun kapitalni past baholash ehtimoli kamroq bo‘ladi; iqtisodiyotda ishchi kuchidan yanada samarali foydalanish natijasi bo‘lishi mumkin. Hukumat o‘z qarzini sotib oluvchi sifatida Markaziy bankni chaqirish majburiyatini kamroq bajarishi mumkin; bu hech bo‘lmaganda inflyatsion moliyalashtirishning bir turiga bo‘lgan ishonchni kamaytiradi. Va nihoyat, davlat sektori obligatsiyalarini yanada kengroq qabul qilish, pul massasini boshqarish vositasi sifatida “ochiq bozor” operatsiyalaridan samarali foydalanishga imkon beradi.

Foyda foiz stavkasini ko‘tarish, masalan, foiz stavkalarini boshqarishni olib tashlash natijasida paydo bo‘lishi - xususiy sektor investitsiyalarini sezilarli darajada susaytiradimi yoki yo‘qmi, bu umumiy muammolardan biri. Ko‘pgina iqtisodchilarning fikriga ko‘ra, bunday siyosat moliyaviy xarajatlarni kamaytirishga ta‘sir qilishi mumkin - hech bo‘lmaganda ko‘plab muhim qarz oluvchilarga. Agar bu yuqori foiz stavkalari “uyushmagan” moliya bozorlari stavkalari tarkibini birlashtirgan bo‘lsa, odatda ko‘plab qarz oluvchilar to‘lashga majbur bo‘lgan juda yuqori stavkalar bilan tavsiflangan bo‘lsa, amal qiladi - bu moliya stavkalari ancha past bo‘lgan rasmiy moliya bozori bilan tartibga solinadigan shiftlarning natijasidir.

Rasmiy sektorda past ko‘rsatkichlar yetarli bo‘lmagan depozitlarni jalb qilishga olib keladi. Buning uchun hokimiyat qarz mablag‘larini

ratsion bilan ta'minlashni talab qiladi. Bunday sharoitda yirik zamonaviy sanoat ko'proq an'anaviy va mehnat talab qiladigan sohaga qaraganda moliyalashtirishda ustunlikka ega. Nazorat qilinadigan uyushmagan bozor bilan bitta erkin bozorga birlashishi, hozirda uyushmagan bozorlarga murojaat qilishga majbur bo'lgan ko'plab ichki qarz oluvchilarga arzonroq mablag' taqdim etishi mumkin. Aksincha, yirik zamonaviy sanoat kapital uchun ko'proq pul to'lashi kerak edi. Aniq ta'sir iqtisodiyotda kapitalning yanada oqilona narxlanishiga olib kelishi mumkin.

### **Asosiy tayanch tushunchalar:**

Jamg'arish – aholi, korxonalar (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadida to'plab borilishi.

Iste'molga o'rtacha moyillik – shaxsiy daromadning iste'molga ketadigan ulushi.

Jamg'arishga o'rtacha moyillik – shaxsiy daromadning jamg'arishga ketadigan ulushi.

Iqtisodiy jamg'arish – milliy daromadning bir qismining asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ehtiyot va zaxiralarni ko'paytirish uchun sarflanib borishi.

Jamg'arish normasi – jamg'arish summasining milliy daromadga nisbatining foizdagi ifodasi.

Investitsiya – ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirishga, ya'ni asosiy va aylanma kapitalga pul shaklidagi qo'yilma.

Investitsiyalar samaradorligi – milliy daromad (foyda) o'sgan qismining investitsion sarflar summasiga nisbatining foizdagi ifodasi.

Moliya – pul mablag'larining harakati, ya'ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan munosabatlar.

Moliyaviy munosabatlar – davlat, mintaqalar, tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar hamda alohida fuqarolar o'rtasida pul mablag'lari fondlarining harakati bilan bog'liq holda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmuyi.

Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

Moliyaviy siyosat – davlatning o‘z vazifalarini amalga oshirish uchun moliyani tashkil etish va foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuyi.

Davlat ichki qarzi – davlatning mamlakat ichida qimmatli qog‘ozlarini chiqarish, turli nobudjet fondlaridan olgan qarzi.

Davlat tashqi qarzi – xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz.

Davlat krediti – davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga tushadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmunini qisqacha ta’riflang.
2. Investitsiyalarga sarflarning darajasini qanday omillar belgilab beradi? Ularning qisqacha tavsifini bering.
3. Yalpi investitsiya va amortizatsiya nisbati o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri qanday?
4. Moliyaning iqtisodiy mazmunini tushuntiring va uning iqtisodiy vazifalarini bayon qiling.
5. Jamiyat va davlat moliya tizimlari asosiy bo‘g‘inlarining tavsifini bering. Moliya tizimida davlat budjetining o‘rni qanday?
6. Davlat budjeti milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashda qanday rol o‘ynaydi? Bunda qanday usullardan foydalaniladi?
7. Budjet taqchilligi nima? Ijobiy va salbiy budjet taqchilligini tushuntiring.
8. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring va uning turlarini, asosiy vazifalarini ko‘rsating.
9. Moliyaviy siyosat va fiskal siyosatning umumiy va farqli jihatlarini tavsiflang.
10. Davlatning ichki va tashqi qarzlari manbalarini izohlab bering.

## **11-BOB. XALQARO BOZORLAR VA UMUMIY MUVOZANAT**

### **11.1. Xalqaro savdoning qisman muvozanat modeli.**

**11.2. Savdo, ishlab chiqarish tarkibi va daromadlarni taqsimlashning umumiy muvozanat modellari.**

### **11.3. Savdo, investitsiya, innovatsiya va iqtisodiy o‘shish.**

### **11.4. Savdo siyosati va so‘nggi yillarda o‘shishi.**

#### **11.1. Xalqaro savdoning qisman muvozanat modeli**

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning an’anaviy va eng rivojlangan ko‘rinishlaridan biri tashqi savdo hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan xalqaro iqtisodiy munosabatlar umumiy hajmining 75-80%i tashqi savdoning ulushiga to‘g‘ri keladi. Dunyoda mavjud bo‘lgan har qanday mamlakat uchun tashqi savdoning roli kattadir. Iqtisodchi olim J.Saksning fikricha “dunyodagi har qanday davlatning iqtisodiy muvaffaqiyati tashqi savdoda ko‘rinadi. Hozirgi kunga qadar hech bir mamlakat jahon iqtisodiy tizimidan ajralgan holda sog‘lom iqtisodiyotni hosil qila olgani yo‘q”. Xalqaro savdoda xalqaro mehnat taqsimoti asosida paydo bo‘ladigan turli davlatlarni tovar ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi aloqalarning bir shakli bo‘lib, ular o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikni namoyon qiladi. Mamlakatlar iqtisodiyotida ITI ta’siri ostida ro‘y berayotgan tuzilmaviy o‘zgarishlar, (sanoat ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi) milliy xo‘jaliklarning o‘zaro hamkorligini kuchaytirmoqda. Bu esa xalqaro savdoni faollashuviga imkon yaratmoqda.

Xalqaro savdo ishlab chiqarishga nisbatan tezroq o‘smoqda. Tashqi savdo aylanmasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, jahonda ishlab chiqarish 10%ga ko‘paygan holda jahon savdosi 16%ga o‘smoqda. “Tashqi savdo” deganda bir mamlakatning boshqa bir mamlakat bilan haq to‘lanadigan olib kirishi, ya’ni import va haq to‘lanadigan olib chiqish, ya’ni eksportdan iborat savdosi nazarda tutiladi. Dunyodagi barcha mamlakatlarning haq to‘lanadigan tovar aylanmasi yig‘indisi xalqaro savdo deb ataladi. Xalqaro savdo tushunchasi torroq ma’noda ham ishlatilishi mumkin. Masalan, sanoati rivojlangan davlatlarda tovar aylanmasining yig‘indisi, rivojlanayotgan



davlatlarda tovar aylanmasining yigʻindisi va x.k. Jahonning barcha davlatlari oldida tashqi savdo boʻyicha milliy siyosat muammosi yotib, 200 yillar mobaynida bu mavzuda qizgʻin tortishuvlar boʻlib turibdi. Erkin savdo yoki proteksionizm siyosatini tanlash yoki uni qanday boʻlsa shu holda saqlash oldingi asrlarning xarakteri edi. Bizning davrimizda bu ikki yoʻnalish oʻzaro bogʻliqdir. Ammo koʻp hollarda bu qarama-qarshi birlik erkin savdo tamoyilining bosh vazifasini bajaradi. Jahon iqtisodiyotida erkin savdo siyosatiga birinchi boʻlib Adam Smit “ayirboshlash har bir mamlakat uchun foydali boʻlib, har bir mamlakat bunda mutloq ustunlikka ega boʻlishini” taʼkidlagan edi. Adam Smitning tahlillari klassik nazariyaning asosi boʻlgan va erkin savdo siyosatining har qanday shakli uchun asos boʻlib kelgan. David Rikardo “Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi” (1817–yil) nomli asarida boshi berk koʻchadan klassik nazariyani keltirib chiqardi. U xalqaro ixtisoslashuv mezonlarini ajratgan holda, davlatlar uchun qanday holatlarda davlatlararo ayirboshlash manfaatli ekanini koʻrsatib berdi. Har bir davlat uchun ustunlik qilgan yoki kuchsizligi nisbatan kamroq boʻlgan sohaga ixtisoslashish manfaat keltiradi, degan fikrni berdi. Uning qarashlar konsepsiyasi taqqoslanishi nazariyasi yoki prinsipida oʻz aksini topdi. D. Rikardo oʻz taʼlimotida xalqaro ayirboshlash barcha davlatlar uchun mumkin va manfaatligini, ayirboshlash barcha uchun foydali boʻlgan narx zonalarini aniqlab bergan boʻlsa, Jon Styuart Mill oʻzining “Siyosiy iqtisod asoslari”(1848–yil) nomli asarida qanday narxda ayrboshlashni amalga oshirilishini foydali ekanligini koʻrsatgan edi. Styuart Millning taʼlimoti boʻyicha, ayirboshlash narxi talab va taklif qonuniga koʻra, har bir davlatning yalpi eksport miqdori yalpi import miqdorini qoplaydigan daraja bilan belgilanadi. Jon Styuart Millning muhim xizmatlaridan biri uning xalqaro narx qonuni yoki “xalqaro narx nazariyasi”dir. Xalqaro narx qonunida taʼkidlanishicha, shunday narx mavjudki u davlatlar orasidagi tovar ayirboshlashni optimallashtiradi. Bu bozor narxi boʻlib, u talab va taklifga bogʻliqdir. Klassik siyosiy iqtisodchilarning nazariyasini rivojlantirib Gotfrid Xaberler oʻz qarashlar konsepsiyasini nafaqat mehnatga, balki ishlab chiqarishning barcha omillariga eʼtiborni qaratgan edi. Xalqaro savdo oqimini nima bilan aniqlanishi va uning tarkibini Eli Xeksher va Bertil Olinlar oʻzlarining zamonaviy qarashlarida aks ettirdilar. Ular nisbiy ustunlik

tushunasini izohlab u yoki bu davlatning ma'lum bir tovarlarga ixtisoslashishi ularning ishlab chiqarish omillariga egalik darajasiga bog'liqdir deyilgan edi. E.Xeksher va B.Olin "narxlarning ishlab chiqarish omillariga tenglashtirish" nazariyasini ilgari surdilar. 1948 – yilda amerikalik iqtisodchilar P. Samuelson va V. Stolper o'z nazariyalarini kiritib Xeksher-Olin ta'limotining isbotini yanada mukammallashtirib, ishlab chiqarish omillaridan biri, texnika asosan bir mukammal raqobat va tovarlarning to'la harakatchanligi mavjud bo'lganda, xalqaro ayirboshlash ishlab chiqarish omillarining davlatlar orasidagi narxini tenglashtiradi, degan edi. Xalqaro savdoning zamonaviy nazariyalari o'z tarixiga ega, albatta. Mamlakatlarning nima sababdan o'zaro oldi-sotdi qilishi masalasi XVII asrning boshlaridanoq iqtisodchi olimlarni qiziqtirib kelgan. Endigina vujudga kelgan iqtisodiy ta'limot maktablari tashqi savdoni rivojlantirishga o'z e'tiborlarini qaratishgan. Xalqaro savdo nazariyasining asoslari XVIII asrning oxirlari XIX asrning boshlarida mashhur ingliz iqtisodchilari Adam Smit va David Rikardlar tomonidan qo'yilgan. A.Smit o'zining «Xalqlar boyligi tabiati va 26 sabablari haqida» (1776 – yil) nomli kitobida mutlaq ustunlik nazariyasini yoritib berdi, ya'ni merkantilistlarni tanqid qilgan holda, mamlakatlarning xalqaro savdoni erkin rivojlanishidan manfaatdorligini, ularning eksport qiluvchi yoki import qiluvchi ekanliklaridan qat'i nazar xalqaro savdoda ishtirok etishlaridan yutishlarini ko'rsatib berdi.

A.Smit modelini ko'rib chiqayotganda tahlil uchun foydalaniladigan ba'zi shartlarni keltirish talab etiladi:

1. Dunyoda faqat ikkita mamlakat mavjud.
2. Mamlakatlarda faqat ikkita mahsulot ishlab chiqariladi.
3. Mamlakatlar orasida tovarlar savdosi cheklashsiz amalga oshiriladi.
4. Xalqaro savdo muvozanatlashtirilgan (import eksport bilan to'lanadi).
5. Faqatgina mehnat tovar bahosiga va unumdorlikka ta'sir ko'rsatadi.
6. Ishlab chiqarish omillari mamlakat orasida ko'chib yurmaydi.
7. Mehnat va mahsulotni chiqishi orasidagi nisbat doimiy.
8. Ishlab chiqarish omillari tarmoqlar orasida mutlaq ko'chib yurishi mumkin.

9. Har ikki mamlakatda va ikki tarmoqda sof raqobat muhiti mavjud bo'ladi.

Endi mutlaq ustunlik modelini ko'rib chiqaylik. Mutlaq ustunlik - bu xalqaro savdoning afzalligini tushuntiruvchi, har bir mamlakatda shunday tovar borki, bunda bir birlik xarajat bilan boshqa davlatlarga nisbatan ko'proq tovar ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan tamoyildir. D. Rikardoning solishtirma ustunlik nazariyasi A.Smitning mutlaq ustunlik nazariyasida biror-bir davlatning hamma tovarlar bo'yicha mutlaq ustunlikka ega bo'lgan holati ko'rib chiqilmagan edi. Bu holatni esa David Rikardo o'zaro manfaatli savdoning va xalqaro ixtisoslashuvning umumiyroq (A.Smitning modelini xususiy hol sifatida o'z ichiga oluvchi) tamoyilini shakllantirgan «Siyosiy iqtisodning va soliqqa tortishning boshlanishi» (1819 – yil) asarida ko'rib chiqdi. D.Rikardo xalqaro iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xosligini ta'kidlab, A.Smitning tamoyilini amal qilmasligi o'zaro manfaatli savdoga to'sqinlik bo'la olmasligi ko'rsatib berilgan modelni yaratdi. D.Rikardo solishtirma ustunlik qonunini yaratdi, ya'ni davlat ishlab chiqarishda eng yuqori mutlaq ustunlikka ega bo'lgan (agar u har ikki tovar bo'yicha mutlaq ustunlikka ega bo'lsa) yoki eng kam mutlaq ustunlikka ega bo'lgan (agar u birorta tovar bo'yicha hech qanday ustunlikka ega bo'lmasa) tovarlar eksportiga ixtisoslashishi kerak. O'z zamonasining ko'pchilik iqtisodchilari singari u o'z konsepsiyasini rivojlantirishni aniq bir misol orqali: vino va jun hamda ikki mamlakat: Angliya va Portugaliya o'rtasidagi savdodan boshlaydi. Angliyada ma'lum bir (a) miqdorda jun ishlab chiqarish uchun yiliga 100 ta ishchi mehnati talab etiladi. Ushbu miqdordagi junga Angliya ma'lum bir (v) miqdorda portugal vinosini sotib oladi. Angliyaning o'zi vino ishlab chiqarganda yiliga 120 ishchining mehnati talab etilgan bo'lar edi. Bundan Angliyaning Portugaliyadan jun hisobiga vino sotib olishi manfaatli ekanligi kelib chiqadi. Ushbu tovarlarni ishlab chiqarish uchun Portugaliya mos ravishda yiliga 90 va 80 ishchining mehnatini sarflaydi. Shuning uchun unga vino hisobiga jun olib kelish manfaatli. D.Rikardoning fikricha, 100 ingliz ishchisining mehnati va Portugaliya ishchisining mehnatiga noekvivalent almashinuvi ishlab chiqarish omillarining mamlakatlar o'rtasida harakatining qiyinligi bilan tushuntiriladi. D.Rikardoning modeliga binoan Portugaliya Angliya oldida har ikki tovar ishlab chiqarish

bo'yicha mutlaq ustunlikka ega, ammo Portugaliya vino ishlab chiqarish bo'yicha nisbiy ustunlikka ega. Shunday qilib, nisbiy ustunlik – bu, shu haqidagi tasdiqki, mamlakat uchun u eng katta samaradorlikka erishgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi kerak va ularni mamlakatning ustunligi minimal bo'lgan tovarlarga ayirboshlagan holda eksport qilishi kerak. Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi, ishlab chiqarish omillari bilan notekis ta'minlanganligi nazariyasi xalqaro savdo uchun asos sifatida bir-biri bilan o'zaro bog'liq ikki nazariya ko'rinishida ifodalanishi mumkin: Xeksher-Olin nazariyasi va ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi nazariyasi. Xeksher-Olin nazariyasi (Heckscher—Ohlin Theorem) — har bir mamlakat o'z ishlab chiqarishlarida nisbatan katta hajmga ega bo'lgan omillarni talab etuvchi mahsulotlarni ustun darajada ishlab chiqarish va eksport qilishga ixtisoslashadi, binobarin, bu mamlakatlar milliy xo'jalik nuqtayi nazaridan nisbatan kamchil omillar bilan ta'minlangan tovarlarni import qiladilar. Haqiqiy olamda ishlab chiqarish omillari narxi umuman muvozanatlashmagan. Misol uchun turli mamlakatlarda mehnatga to'lanadigan ish haqi ular o'rtasida faol savdo aloqalari olib borilishiga qaramay sezilarli farq qilib kelmoqda. Buning bosh sababi yuqorida oldindan qabul qilingan shartlardir:

- har ikki tovar har ikki mamlakatda ishlab chiqarilishi nazarda tutilgan;

- savdo olib boruvchi mamlakatlarda texnologiya bir xil deb faraz qilingan;

- ishlab chiqarish omillari va tovarlar mamlakat ichida to'liq harakatchan deb faraz qilingan;

- ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati mavjud emas deb faraz qilingan;

- ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi nazariyasi barcha cheklanishlari va kamchiliklariga qaramasdan, xalqaro iqtisodiyot tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, omillar sig'im ma'lum bir tovarni yaratish uchun ishlab chiqarish omillari nisbiy sarfini, omillar serobligi mamlakatning ishlab chiqarish omillari bilan nisbiy ta'minlanganligini belgilab beradi. Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasiga ko'ra, turli mamlakatlarda tovarlar nisbiy narxidagi farq, o'z navbarida

ular o'rtasidagi savdo ularning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta'minlanmaganligi bilan tushuntiriladi. Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi o'zining barcha kamchiliklari va mavhum tabiatiga qaramay hozirgi kungacha xalqaro savdoning rivojlanishini tushuntiruvchi eng mashhur nazariyalarning biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham bu nazariyaning turli mamlakatlar, tovarlar va ichlab chiqarish omillariga nisbatan ulkan statistik massivlar yordamida empirik yo'llar bilan tekshirilishiga ajablanmasa ham bo'ladi. Ba'zi empirik testlar nazariyani tasdiqlar, boshqalari rad yetar edi. Xeksher-Olin-Samuelson xulosalarini rad etgan tadqiqotlarning eng mashhuri 1953 – yilda kelib chiqishi Rossiyadan bo'lgan amerikalik olim Vasiliy Leontev tomonidan amalga oshirilgan. Leontev bir necha empirik testlar yordamida Xeksher-Olin nazariyasi shartlari amalda bajarilmasligini ko'rsatib berdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSH eng boy va kapital serob bo'lgan mamlakatlarning biri bo'lib, boshqa mamlakatlar bilan solishtirganda mehnatga haq to'lash me'yori ham yuqori bo'lganligi bois ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasiga muvofiq ravishda kapital sig'imli tovarlarni eksport qilishi kerak edi. Leontev bu gipotezani tekshirish uchun 1 million dollar qiymatiga ega bo'lgan eksportga mo'ljallangan tovarlar va shuncha qiymatli import bilan bevosita raqobat qiluvchi tovarlarni ishlab chiqarish uchun qancha kapital va ishchi kuchi zarurligini hisoblab chiqdi. U har bir sanoat tarmog'i kapital va ishchi kuchi sarfini hisobladi, bunda faqatgina tayyor mahsulotlar (masalan, avtomobillar) bilan cheklanmadi, balki oraliq mahsulotlar (po'lat, oyna, rezina) uchun ham kerakli hisob-kitoblarni amalga oshirdi. Shundan so'ng AQSHning 1947 – yildagi eksport tarkibidan foydalangan holda 1 million dollar summadagi eksport tovarlarga sarflangan kapital va mehnat xarajatlarining nisbatini hisoblab chiqdi. Leontev AQSHning shu yildagi import tarkibi bo'yicha (import tovarlari ro'yxatiga AQSHda ishlab chiqarilmaydigan tovarlar kiritilmadi) import o'rnini bosuvchi AQSH tovarlarini ishlab chiqarishga sarflangan kapital va mehnat xarajatlari nisbatini aniqladi. Leontev, Xeksher-Olin nazariyasiga muvofiq, eksport tovarlar import o'rnini bosuvchi tovarlarga (deyarli AQSH importi) nisbatan har bir ishchi kuchi hisobiga ko'proq kapital talab qilishini kutgan edi. Natija buning qarama-qarshisi bo'lib chiqdi: AQSH

importining kapital sig‘imliliği uning eksporti kapital sig‘imliliğidan 30 foizga ko‘p chiqdi, bu esa AQSH kapital serob bo‘lgan mamlakat emas, balki mehnat serob mamlakat ekanligidan dalolat berardi, ushbu holat mavjud tasavvurlarga umuman mos kelmas edi. Leontev paradoksi (Leontief paradox) — bu Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasining amalda bajarilmasligi – mehnat serob mamlakatlarning kapital sig‘imli, kapital serob mamlakatlarning mehnat sig‘imli tovarlarni eksport qilishidir. O‘sha paytda yetakchi bo‘lgan yondashuvning inkor etilishi uning tushuntirilishini talab qilardi. Munozaralar Xeksher-Olin nazariyasi to‘g‘ri, Leontev tomonidan olingan natijalar noto‘g‘ri ekanligini isbotlashga harakatlar doirasida bo‘ldi. Leontev paradoksiga qarshi keltirilgan ba‘zi dalillar quyidagilar: Ishchi kuchini malakali va malakasiz ishchi kuchi guruhlariga ajratish kerak hamda eksport tovarlarga sarflangan xarajatlarni har ikki guruh uchun alohida hisoblash kerak. AQSH qazib olinishida katta miqdorda kapital xarajatlarini talab qiluvchi xomashyoni katta hajmda import qiladi. Shuning uchun AQSHning eksport tovarlari katta hajmdagi kapital sig‘imli xomashyoni talab qiladi, bu esa eksportni kapital sig‘imliga aylantiradi. Leontev testi AQSHda mavjud bo‘lgan import tariflarini inobatga olmagan, bu tariflar AQSH sanoatining mehnat sig‘imli tarmoqlarini xorijiy raqobatdan himoyalash uchun joriy qilingan, natijada mehnat sig‘imli tovarlar importiga to‘siq qo‘yilgan.

## **11.2. Savdo, ishlab chiqarish tarkibi va daromadlarni taqsimlashning umumiy muvozanat modellari**

Oxirgi o‘n yilliklarda jahon savdosida xalqaro savdoning klassik nazariyalari bilan tushuntirib bo‘lmaydigan sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bunday vaziyatning yuzaga kelishi mavjud nazariyalarni rivojlantirishni va shuningdek, muqobil nazariya konsepsiyalarni ishlab chiqishga da‘vat etadi. Mahsulotning hayotiylik davri nazariyasi. 60- yillarning o‘rtalarida amerikalik iqtisodchi R.Vernon mahsulotning hayotiylik davri nazariyasini olg‘a surdi. Ushbu nazariyasida R. Vernon tayyor mahsulotlar jahon savdosining rivojlanishini ularning hayotiy bosqichlari asosida, ya‘ni mahsulot bozorda hayotga ega va sotuvchining o‘z maqsadlariga erishishini

ta'minlashi vaqt davri asosida tushuntirishga harakat qildi. Mahsulotning hayotiylik davri to'tta bosqichni o'z ichiga oladi, ya'ni tadbiq etish, o'sish, yetuklik va pasayish. Birinchi bosqichda mamlakat ichida yuzaga kelgan ehtiyojni hisobga olgan holda yangi mahsulotni ishlab chiqarish yuz beradi. Shuning uchun ushbu bosqichda yangi mahsulotni ishlab chiqarish kam seriyali xarakterga ega bo'ladi, yuqori malakali mutaxassislarni talab etadi hamda yangilik kashf etilgan mamlakatda konsentratsiyalanadi. Ishlab chiqaruvchi esa deyarli monopol mavqega ega bo'ladi va mahsulotning kichik qismigina iqtisodiy bozorga chiqariladi. Yetuklik davrida ko'p seriyali ishlab chiqarish oldingi o'ringa chiqadi. Raqobat kurashida esa narx omili birlamchi ahamiyat kasb eta boshlaydi. Ushbu bosqichda bozorlarning kengayib borishi va texnologiyaning tarqalishi natijasida yangilik kashf etilgan mamlakat raqobat ustunligiga ega bo'lmay qoladi. Ishlab chiqarish ishchi kuchi arzon bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'cha boshlaydi. Standartlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlarida arzon ishchi kuchidan samarali foydalanish mumkin. Mahsulot hayotiylik davri pasayish bosqichiga o'tishi munosabati bilan unga bo'lgan talab qisqaradi. Bu holat, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda kuzatiladi. Mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish, asosan, rivojlanayotgan mamlakatlarda to'planadi. Mahsulot yaratilgan mamlakat esa sof importyorga aylanadi. Mahsulotning hayotiylik davri nazariyasi ko'pchilik tarmoqlar evolyusiyasini ifodalab beradi, ammo ushbu nazariya xalqaro savdo rivoji tendensiyalarining universal ta'rifi hisoblanmaydi. Miqyos ta'siri nazariyasi. 80-yillarning boshlarida P.Krugman, K.Lankaster va ayrim boshqa iqtisodchilar klassik nazariyaga muqobil ravishda, miqyos ta'siriga asoslangan xalqaro savdo nazariyasini taklif etdilar. «Mikroiqtisodiyot» kursidan yaxshi ma'lum bo'lgan miqyos ta'siri tushunchasining mohiyati shundan iboratki, aniq bir yaratilgan texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etishda mahsulot chiqarish hajmi o'sgan sari uzoq muddatli o'rtacha xarajatlar qisqaradi, ya'ni ommaviy ishlab chiqarish natijasida iqtisod qilish holati yuzaga keladi. Mazkur nazariya mualliflarining nuqtayi nazariga ko'ra ko'pgina mamlakatlar (xususan, sanoati rivojlangan) asosiy ishlab chiqarish omillari bilan bir-biriga yaqin bo'lgan nisbatda ta'minlanganlar. Ushbu sharoitda ular uchun miqyos ta'siriga ega tarmoqlarga ixtisoslashgan holda o'zaro savdo aloqalarini yo'lga

qo'yish manfaatli hisoblanadi. Bunday ixtisoslashish ishlab chiqarish hajmining oshishiga, mahsulotni eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqarishga va natijada uning narxi past bo'lishiga imkon beradi. Ommaviy ishlab chiqarish ta'siri amalga oshishi uchun yetarli darajada keng bozor talab etiladi. Xalqaro savdo esa bunda hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Chunki u mahsulot sotiluvchi bozorlarni kengayishiga imkon yaratadi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, xalqaro savdo yagona integratsiyalashgan bozorni vujudga keltiradi, bu esa o'z navbatida alohida olingan mamlakat bozorida ko'ra iste'molchilarga ko'proq miqdordagi mahsulotni arzonroq narxda taklif qilish imkoniyatini tug'diradi. Biroq shular bilan bir qatorda miqyos ta'sirining amalga oshirilishi sof raqobat muhitining buzulishiga olib kelishi mumkin. Chunki u ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi, firmalarning yiriklashuvi, ularning monopolga aylanishi bilan bog'liq. Maykl Porterning raqobat ustunligi nazariyasi. 1991 – yilda amerikalik iqtisodchi Maykl Porter o'zining «Mamlakatlarning raqobat ustunliklari» deb nomlangan tadqiqotini nashr qildi. Ushbu tadqiqotda xalqaro savdo muammolariga umuman yangicha yondashuv ishlab chiqilgan. Bu yondashuvning shartlaridan biri: «Xalqaro bozorda mamlakatlar emas, firmalar raqobatlashadi. Bu jarayonda mamlakatning o'rnini aniqlab olish uchun firma raqobat ustunligini qanday yaratishi va uni qanday ushlab turishini tushunish talab etiladi» degan tezisdir. Iqtisodiy bozordagi muvaffaqiyat to'g'ri tanlangan raqobat strategiyasiga bog'liq bo'ladi. Raqobat ustunligi strategiyasi. M. Porterning fikricha, raqobatning asosiy birligi - bu tarmoqdir, ya'ni tovar ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi va o'zaro raqobat qiluvchi raqobatchilar guruhi hisoblanadi. Tarmoqda firma uchun raqobat strategiyasini tanlashda ikki muhim omil ta'sir etadi:

1. Firma faoliyat yuritayotgan tarmoq tuzilmasi, ya'ni raqobatning o'ziga xosliklari.

Tarmoqdagi raqobatga beshta omil ta'sir qiladi:

- yangi raqobatchilarning paydo bo'lishi;
- o'rinbosar tovar va xizmatlarning paydo bo'lishi;
- yetkazib beruvchilarning savdolashish qobiliyati;
- xaridorlarning savdolashish qobiliyati;
- mavjud bo'lgan raqobatchilarning o'zaro raqobati.



Bu besh omil tarmoqning daromadlilikini belgilaydi. Chunki, u bahoga, xarajatga, kapital qo'yilmalarga va boshqalarga ta'sir qiladi.

2. Firmaning tarmoqda tutgan o'rni. Firmaning tarmoqdagi o'rni, avvalo, raqobat ustunligi bilan aniqlanadi. Agar firma barqaror raqobat ustunligiga ega bo'lsa, u o'z raqiblarini ortda qoldiradi:

- firmaning raqobatchilariga nisbatan kam xarajatchilar bilan tovarlarni ishlab chiqara olish va sota olish qobiliyati haqida dalolat beruvchi, juda past xarajatchilar;

- tovarlar differensiyasi, ya'ni firmaning iste'molchi ehtiyojini qondira olish qobiliyati.

Firmaning tarmoqda tutgan o'rniga ta'sir qiluvchi boshqa bir muhim omil – bu, firmaning o'z tarmog'i doirasida mo'ljalga oluvchi raqobat muhiti yoki firma maqsadining kengligi hisoblanadi. Firma o'zi uchun necha turdagi tovarlarni chiqarishini, qanday sotish kanallaridan foydalanishini, qanday xaridorlarga xizmat ko'rsatishini, dunyoning qaysi joylarida o'z mahsulotini sotishini va qaysi milliy tarmoqlarda raqobatlashishini hal qilib olishi kerak. Xalqaro raqobatning xususiyatlari. Raqobat va raqobat strategiyasi haqida yuqorida ta'kidlanganlarning barchasi ichki bozor bilan bir qatorda tashqi bozorga ham taalluqlidir. Lekin shu bilan birga xalqaro raqobat ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlarga ham ega.

M.Porter mavjud raqobatning o'ziga xosligiga ko'ra ikki turdagi tarmoqlarni ajratadi:

- 1) Ko'pmilliy tarmoqlar. Ushbu tarmoqlar uchun alohida mamlakatlarda raqobatning turlicha kechishi xosdir. Bunday tarmoqlarda yagona strategiyani qo'llash mumkin emas. Misol uchun, jamg'arma banklari.

- 2) Global tarmoqlar. Ushbu tarmoqlar dunyo bo'yicha yagona raqobat maydoniga ega bo'ladilar. Aynan shunday tarmoqlarda oddiy raqobat ustunligini emas, balki global raqobat ustunligini yaratish kerak bo'ladi. M. Porter global strategiya sharoitida raqobat ustunligiga erishishning va undan foydalanishning ikki usulini ajratadi:
  - 1) faoliyatni tartibga solish (konfiguratsiya), ya'ni o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanish maqsadida turli mamlakatlarda faoliyatning turli ko'rinishlarini joylashtirish. Faoliyat turlarini davlat quyidagi mezonlardan kelib chiqib joylashtiradi: omillarning minimal qiymati; maxsus ko'nikmalarning mavjudligi; mijozlar bilan munosa-

batlarning rivojlanganlik darajasi va boshqalar. 2) filiallar faoliyatini muvofiqlashtirish. Bu o‘z ichiga -ma’lumot almashinuvini; javobgarlikni taqsimlashni; xatti-harakatlarni kelishishni oladi. **Raqobat ustunligining determinantlari.** Har bir tarmoq doimo yangilanib va zamonaviylashtirib ko‘riladi. Bu jarayonni rag‘batlantirishda asoslanuvchi mamlakat muhim o‘rin tutadi. Asoslanuvchi mamlakat bu asosiy mahsulot va texnologiya strategiyasi ishlab chiqariladigan va kerakli tajribaga ega bo‘lgan ishchi kuchi mavjud mamlakatdir.

Omillar avvaldan mavjud bo‘lishi, shuningdek, inson faoliyati natijasida yaratilishi mumkin. Shuning uchun raqobat ustunligiga erishish va uni rivojlantirish uchun nafaqat mavjud omillar zaxirasi, balki uning yaratilishi tezligi ham muhimdir. Bundan tashqari, omillarning ortiqchaligi raqobat ustunligini yo‘qotilishiga olib kelishi, ularning yetishmasligi esa, aksincha, yangilanishni yuzaga keltirishi va bu bilan uzoq muddatli raqobat ustunligiga olib kelishi mumkin. Shunday bo‘lsada omillar bilan ta’minlanganlik o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi va shuning uchun ham u birinchi parametrdir (inson resurslar, moddiy resurslar, bilim resursi, moliyaviy resurslar, infratuzilma). Omillar turli tarmoqlarda turli miqdorlarda qo‘laniladi. Firmalar o‘z ixtiyorlarida o‘z tarmoqlaridagi raqobat kurashida zarur bo‘ladigan arzon va yuqori sifatli omillarga ega bo‘lsalargina raqobat ustunligiga erishadilar. Ikkinchi parametr bu – omillar ierarxiyasidir. Omillar asosiy (tabiiy resurslari, iqlimiy sharoitlar, geografik joylashuv, malakasiz ishchi kuchi va h.k.) va rivojlangan (zamonaviy infratuzilma, malakali ishchi kuchi va h.k.), umumiy (barcha tarmoqlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan) va ixtisoslashgan omillarga ajratiladi.

Omillar, ular tabiiy yuzaga kelganliklari va sun‘iy ravishda yaratilganliklari bilan farqlanadilar. Yuqori darajadagi raqobat ustunligiga erishishga ko‘mak beruvchi barcha omillar sun‘iy omillardir. Mamlakatlar, ular zarur omillarni eng maqbul tarzda yarata oladigan va mukammallashtiradigan tarmoqlardagina muvaffaqiyatga erishadilar. Ichki bozordagi talab miqyos ta’siri vositasida yangiliklarning tadbiq etilishining xarakterini va tezligini belgilaydi.

Talab quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- tuzilishi bilan;
- o‘shish xarakteri va hajmi bilan;
- baynalminallashuv bilan.

Talab quyidagi asosiy xususiyatlarga ega bo'lgan taqdirdagina, firmalar raqobat ustunligiga erishishi mumkin bo'ladi:

- ichki talabning katta ulushi bozorning global segmentlariga to'g'ri kelsa;

- xaridorlarning yuqori talablari firmalarni yana ham sifatli mahsulot tayyorlashga, xizmatlarni ko'rsatishga hamda tovarning iste'mol xususiyatlarini oshirishga majbur qilsa;

- mahsulot yaratilgan mamlakatda talab boshqa mamlakatlarga nisbatan erta yuzaga kelsa.

Milliy raqobat ustunligini aniqlovchi uchinchi determinant – bu mamlakatda jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan yetkazib beruvchi yoki aralash tarmoqlarning mavjudligidir.

Raqobatbardosh yetkazib beruvchi tarmoqlar mavjud bo'lganda:

- qimmatbaho resurslarga samarali va tez yetishish;

- ichki bozorda yetkazib beruvchilarni muvofiqlashtirish;

- yangilik kiritish jarayoniga yordam ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Milliy firmalar, ularning mol yetkazib beruvchilari jahon bozorida raqobatbardosh bo'lsalar, ko'proq foyda oladilar. Firmalar ichki bozordagi raqobat xususiyatiga qarab tuziladi, tashkil etiladi hamda boshqariladi va bunda turli strategiya va maqsadlar ishlab chiqiladi. Bularning barchasi firmaning raqobat ustunligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hodisa shunday holatki, u mamlakatdagi rivojlanish sharoitlari bilan bog'liq bo'lmaydi va unga firmalar ham, milliy hukumatlar ham ta'sir ko'rsata olmaydilar. M.Porterning fikricha, ularga:

- saylov;

- yirik texnologik yutuqlar;

- resurslar narxining keskin o'zgarishi;

- jahon moliya bozorlaridagi yoki almashuv kurslarining sezilarli o'zgarishi;

- jahon yoki mahalliy talabning keskin oshishi;

- chet davlatlar hukumatlarining siyosiy qarorlari;

- urushlar kiritiladi. Ushbu xodisalar raqobatlashayotgan firmalarning tutgan o'rinlariga ta'sir etgani uchun muhim ahamiyat kasb etadilar.

Hukumatning milliy ustunlikni yaratishdagi roli shundan iboratki, u «romb» ning barcha to'tta determinantiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

### **11.3. Savdo, investitsiya, innovatsiya va iqtisodiy o‘shish**

JST (ingl. WTO, World Trade Organization)ning asosiy maqsadlaridan biri o‘zini o‘zi himoya qilishni kuchaytirish va proteksionizm qo‘llanishini bekor qilishdan iborat. Mazkur tashkilot xalqaro tijorat uchun qulay huquqiy tizimni taqdim eta oladigan cheksiz imkoniyat eshigi. O‘zaro qabul qilingan muhim hujjatlar davlatlarning o‘z savdo siyosatlarini kelishilgan mezonlarda olib borishlarida mas’uliyat yuklaydi. Bundan ko‘zlangan maqsad – jahon bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiquvchilar, eksportyor va importyorlarga ko‘mak berishdir.

Xalqaro savdoni liberallashtirish, savdo bitimlarining odilligini ta’minlash, iqtisodiy o‘shish va xalq farovonligini oshirish JSTning asosiy funksiyalari sirasiga kiradi. JST unga a’zo bo‘lgan mamlakatlardan ichki bozorni erkinlashtirishni qat’i talab qiladi. Ushbu vazifani bajarish esa unchalik oson kechmaydi. Sababi arzon va sifatli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi chet el korxonalariga raqobat qila olmagan milliy korxonalar tanazzulga uchrashi ayni haqiqatdir.

Albatta, har bir ishning samaradorligi o‘sha – davlat, muhitdagi yaratilgan sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga chambarchas bog‘liq kechadi. Buning uchun:

- iqtisodiyotni erkinlashtirish va sanoat tarmoqlari baravar rivojlanishini tartibga solish;
- narx-navoni tartibga solish va maqbul soliq tizimini vujudga keltirish;
- alohida sektorlar va ishlab chiqarishda subsidiyalarni saqlash;
- tovarlarni standartlash va sertifikatlash qilish tizimini tartibga solish;
- xorij sarmoyalari jozibadorligini oshirish;
- import va eksport boj to‘lovlari tarifini tartibga solish talab qilinadi.

Har bir davlatning bu tashkilotga a’zo bo‘lish jarayoni o‘rtacha 8-10, ba’zi davlatlar uchun esa 10-15 yilni tashkil etadi. O‘zbekiston 1995-yilda ariza topshirgan bo‘lishiga qaramasdan, faqat 2017 – yildan boshlab, ijobiy siljish kuzatilyapti. Lekin ustuvor sohalarning boshqaruvi 30 yildirki, monopolistlarning qo‘lida turibdi. Masalan, transport sohasida yagona aviakompaniya, temir yo‘l kompaniyasi

xohlagan narxini oʻrnatadi, jamiyat, davlatchilik ular bilan samarali kurasha olmaydi. Bundan Oʻzbekiston iqtisodiyoti koʻp yildirki, aziyat chekmoqda.

Shuni ham taʼkidlash lozimki, dunyoning eng katta iqtisodiyot egalari — AQSH, Gʻarbiy Yevropa davlatlari, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlar JST dan unumli foydalana oladi. Kichik davlatlar, jumladan, Oʻzbekiston ham bu imkoniyatlardan toʻliq foydalana olmasligi ularning umumiy resurslariga borib taqaladi. Mamlakatimizning JST ga aʼzoli EOII ning tartib-qoidalari va monopoliyasiga tushib qolmaslikning oldini oladi, deb hisoblaymiz. Ichki monopolistlardan qutulish muammosi hal boʻladi. Xalqaro darajada erkin raqobat tizimi oʻz-oʻzidan yaratiladi.

JST ga 1995 – yil yanvarda asos solingan. 1994 – yil 15 – apreldagi Marokash deklaratsiyasida «uning natijalari jahon iqtisodiyotini mustahkamlaydi va butun dunyoda savdoni, investitsiyalarni kengaytirib, ishchi kuchi bandligi, daromadlarning oʻsishiga olib keladi. Shuningdek, u jamoaviy bahslar, muzokaralar va taqdimlash orqali mamlakatlar orasidagi savdo aloqalarini rivojlantiruvchi platforma hisoblanadi», deb yozib qoʻyilgan.

1994 – yildagi mahsulotlar savdosi haqidagi bitim, xizmatlar savdosi haqidagi bosh bitim, intellektual mulk haqidagi bitim Jahon savdo tashkilotining tarkibiy qismlariga kiradi. Mazkur hujjatlar aʼzo mamlakatlarning parlamentlari tomonidan tasdiqlangan.

1995 – yildan faoliyatini boshlagan bu tashkilotga ayni vaqtda aʼzo boʻlgan 164 davlat uchun yangi bozorlar ochiq hisoblanadi. Oʻndan ziyod turli yoʻnalishdagi bitimlar uning normativ-huquqiy bazasini tashkil etyapti. Mazkur hujjatlar talabini bajarish tashkilotning barcha aʼzolari uchun majburiy sanaladi. Aʼzo boʻlishni istagan davlatlar oʻz milliy qonunchiligini ularga muvofiqlashtirishi kerak.

Tashkilotda qarorlar ishtirokchi mamlakatlar yordamida konsensus — umumiy ovoz berish orqali qabul qilinadi. Nizomda qaror koʻpchilik ovozlar evaziga qabul qilinishi belgilab berilgan boʻlsa-da, hozir bunday voqea tashkilot tarixida yuz bermadi. Qarorlar qoidaga koʻra, ikki yilda bir marta chaqiriladigan Vazirlar konferensiyasi tomonidan qabul qilinadi. Borayotgan ishlar borasida javobgar boʻlgan Bosh kengash yigʻinlarini tashkilotning maʼmuriy qarorgohi joylashgan Jeneva shahrida bir yilda bir marta oʻtkazadi. Yigʻilishlarda

tashkilotga a'zo mamlakatlar vakillari, elchilar ishtirok etadi. Bosh kengash qoshida nizolarni hal etish va savdo siyosati tahlillari bilan shug'ullanadigan organlar bor (jami 650 xodim ishlaydi). Bundan tashqari, uning tarkibida savdo va rivojlanish bo'yicha qo'mita, savdo balansi borasida cheklovlar o'rnatuvchi qo'mita hamda budjet, moliya va ma'muriy masalalar bilan shug'ullanadigan qo'mita faoliyat yuritadi. Bosh kengashdan quyi pog'onada yana uchta kengash: tovarlar savdosi bo'yicha kengash, xizmatlar savdosi bo'yicha kengash va intellektual mulk huquqi bo'yicha kengash faoliyat yuritadi.

Tashkilotga a'zo bo'lishning ijobiy jihatlari:

Birinchidan, uning zamirida iqtisodiy manfaat turadi. Ya'ni to'siqlarsiz o'zaro mahsulot ayirboshlashga erishiladi va tovar ayirboshlanishi yuksak texnologiyalarning qo'llanilishi hamda rivojiga hissa qo'shadi.

Ikkinchidan, xalqning turmush darajasini yaxshilashga turtki beradi, insonlarga sifatli mahsulot iste'mol qilish imkonini yaratadi.

Uchinchidan, eksport qilinayotgan mahsulotlar hisobiga milliy mahsulotlar tannarxi tushirilishiga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, milliy ishlab chiqarish hajmini oshirib, budjetga pul tushumlarini ko'paytiradi, savdo liberallasuvi mamlakat va alohida vatandoshlarimizning daromadlarini oshiradi.

Beshinchidan, mehnat bandligiga ijobiy ta'sir etadi.

BMTga a'zo aksar davlatlar JST ga ham a'zo bo'lib kirgan. Masalan, Rossiya Federatsiyasi 19 yillik kutishlardan keyin 2012 – yilda, Qirg'iziston 1998 – yilda, Tojikiston 2012 – yilda, Qozog'iston 2015 – yilda a'zolikka qabul qilindi. Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon JST ga a'zolikni «energetika mustaqilligiga erishish va aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash» sari tashlangan muhim qadam, deb baholagan. Ammo bu jarayon silliq kechadi, degani emas. Demak, hukumat birinchi navbatda mahalliy shirkatlarni himoya qilishga qaratilgan jiddiy tadbirlarni ishlab chiqishi kerak bo'ladi.

Bu o'rinda tashkilotga a'zolikning afzalliklarini Xitoy davlati misolida ko'rib chiqish ayni muddaodir. Xitoy 15 yillik murakkab muzokaralar olib borgandan so'ng, ushbu kelishuvlar asosida 2001 – yil 11 – dekabrda tashkilotga 143-a'zo bo'ldi. Biroq hukumatga bu borada qator og'ir va mashaqqatli talablarni ilgari surishdi. Tarifni pasaytirish, AQSH kompaniyalari uchun zarur bo'lgan sanoat

mahsulotlari tariflarini 25 foizdan 7 foizgacha qisqartirish, Amerika fermerlari uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxini 31 foizdan 14 foizgacha arzonlashtirish, bank sektori, sug'urta, telekommunikatsiya va kasbiy xizmatlar kabi muhim sohalardagi qator tarmoqlarni keng miqyosda ochish, tizimli islohotlar olib borish, oshkoralik masalasida chuqur islohotlarni o'tkazish, Xitoyda faoliyat yuritayotgan xorijiy kompaniyalarga to'siqlarni bartaraf etish shular jumlasidandir.

Ko'rinib turibdiki, Xitoyning JST ga a'zo bo'lishi bilan bog'liq asosiy muammo bozorga kirish imkoniyati emas, balki iqtisodiy rejimning shaffofligi, huquqiy, ma'muriy va institutsional tizimni shakllantirish majburiyatlarini bajarish mexanizmi bo'lgandi.

Muzokaralarning yakuniy bosqichida XXRga yana ushbu vazifalar ham qo'yildi: eksportni rejalashtirish va eksport-import rejalarini amalga oshirish siyosatini rejalashtirish tizimini bekor qilish; tashqi savdo rejimining shaffofligi, litsenziyalash va kvota tizimi, davlat xaridlari bozori, xorijiy ishbilarmonlarga ichki bozor xizmatlaridan foydalanishni erkinlashtirish; eksport subsidiyalarini olib tashlash; davlat korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan voz kechish va qishloq xo'jaligini himoya qilish.

Mazkur tahlildan xulosa shuki, O'zbekiston zimmasiga ham JST tomonidan siyosat va iqtisodda ochiqlikni ta'minlash, eksport-import va boshqa iqtisodiy tizimlarda rejalashtirishdan voz kechish, qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarini import qilish bo'yicha davlat monopoliyasini bekor qilish yuklanadi. Ammo Xitoy bu shartlarni qabul qilishni davr zarurati, jahon iqtisodi qoidasini hurmat qilish, deb tushundi. Shunchalik murakkablik bo'lishiga qaramasdan, Xitoy hukumati JSTga a'zo bo'lishning qiyinchiliklaridan ko'ra, imkoniyatlari ko'proq bo'lishiga qattiq ishondi.

Tarixiy qarorga kelganidan so'ng, mamlakat ikki masalada yutdi: JST ga a'zolik tufayli 2008 – yilda boshlanib, hozirga qadar davom etayotgan jahon moliyaviy inqirozi sharoitida arzon bo'lgan Xitoy mollari uchun cheklovli kvotalar olib tashlandi, xalqaro mehnat taqsimotidagi eng foydali jihati – arzon ishchi kuchini eksport qilishga erishildi. Hozirgi kunda xorijda ishlayotgan 70 million muhojir (Gonkong va Tayvandan tashqari) yiliga taxminan 70 milliard dollar mablag'ni Xitoyga yuborib turadi.

Shu o‘rinda mamlakatimiz uchun bu borada qanday muammolar yuzaga keladi, degan haqli savol tug‘iladi. Birinchidan, O‘zbekistonning JST ga a‘zoli bo‘jxona soliqlarini 8-10 foizgacha qisqartirishga olib keladi. Bundan esa Davlat budjeti zarar ko‘radi. Biroq, o‘z navbatida, bo‘jxona tariflarining keskin qisqarishi O‘zbekiston bozorlarida mahsulotlarning arzonlashuviga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotni liberallashtirish, sanoatni xususiylashtirish, bozor erkinligiga davlat aralashuvini cheklash borasida tugallanmagan ishlar turibdi.

Uchinchidan, respublika ichkarisida zamon talabiga mos bozorbop mahsulot ishlab chiqaruvchilar, xususan, paxta ishlab chiqarishga ixtisoslashgan o‘zbek fermerlari arzon va sifatli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi Xitoy, Hindiston, BAA savdo shirkatlariga raqobat qila olmasligi xavfi tug‘iladi. Oqibatda qishloq xo‘jaligi daromadsiz sohaga aylanib qolishi, bu esa 49,5 foizi qishloqlarda yashaydigan aholi uchun yangi infratuzilmani yaratish zaruratini keltirib chiqaradi. Qishloqqa sanoat tarmoqlari kirib kelishi G‘arb mamlakatlarida bo‘lganidek, fuqaroning tafakkur dunyosi jiddiy o‘zgarishiga va ijtimoiy faolligiga olib keladi.

Intellectual mulk huquqi tizimi va bozorining shakllanmaganligi, ixtirolarni amaliyotda qo‘llash, qaroqchi (pirat) mahsulotlar bozorining avj olganligini bartaraf etish yo‘nalishida ham muammolar to‘plangan.

Xususan, adabiy va badiiy asarlarni himoya qilishga doir Bern konvensiyasi (1971 – yil 24 – iyulda qabul qilingan Parij hujjati), «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida»gi Qonunga zid ravishda respublikamizdagi va chet el mualliflarining yaratilgan asarlarini noqonuniy takrorlash – litsenziyasiz (qaroqchi) mahsulotdan foydalanish, kontrafakt mahsulotlarni CD, DVD, VCD, VHS, mp3 shaklidagi disklarga ko‘chirib, qalbaki nusxasini bozorlarda bemalol sotib, daromad ko‘rish holatlari mamlakatimiz miqyosida avj olgan. Savdoga oid intellektual mulk huquqlari haqidagi bitim (TRIPS), g‘oya va ixtirolar uchun adolatli raqobat muhitini yaratish, nohalol raqobat majburiyatlari bo‘yicha ham qator vazifalar hamon yechilmagan.

Endi O‘zbekiston tajribasida JST ga a‘zo bo‘lish afzalliklari va ayrim kamchiliklarimiz xususida mulohaza yuritsak. Bugungi kunda ekspertlar guruhi («Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo‘yicha



Idoralararo komissiya tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2018 – yil 24 – dekabrda hukumatning 1040-son qarori) tayyorgarlik ishlarini boshlab yuborgan.

JST – global platforma, undan mamlakat yaxshi foyda ko‘radi. O‘zbekistonning JST ga a‘zo bo‘lishdagi imkoniyatlarini qisqacha baholasak, bular – keyingi yillarda jiddiy islohotlarni boshidan kechirgan turizmning rivojlanishi, integratsiyalashuv imkoniyatlari ortishi, notarif cheklovlarning kamayishi, iqtisodiyotda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushining oshishi, davlat monopoliyasining qisqarishida ko‘zga tashlanadi. Lekin bu masalaning tashqi tarafi, shakli, xolos. Bizningcha, asosiy masala ichki tashkiliy-tuzilmaviy va texnologik tarafida – mazmunida bo‘lib qolgan.

#### **11.4. Savdo siyosati va so‘nggi yillarda o‘sishi**

Iqtisodiyotda shunday holatlar mavjudki, bunda davlatlar iqtisodiy savdo siyosatini o‘tkazish yo‘lda birlashadilar va bir-birlariga imtiyozlar yaratilishi natijasida bojxona bojlari olib tashlanadi. Agar mamlakatlar bir-birlariga imtiyozlar belgilashi natijasida uchinchi mamlakatga nisbatan kelishilgan holda boj belgilansa, bunday kelishuvni erkin savdo hududi (free trade area) deyish mumkin: Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (EAST, 1959). Agar mamlakatlar bir birlari uchun bojxona bojlarini olib tashlashi natijasida uchinchi mamlakatga nisbatan bir xil boj belgilansa, bunday kelishuvni bojxona ittifoqi (customs union) deyish mumkin: Fransiya-Monako (1865), Shveytsariya-Lixtenshteyn (1923). Endi bojxona ittifoqi tuzilishi natijasida xalqaro savdo aloqalarida qanday o‘zgarishlar bo‘lishini ko‘rib chiqamiz.

1. Yangi tovar oqimlarining vujudga kelishi. Tasavvur qilaylik, biror bir tovarni uch mamlakat har xil X narxlarda ishlab chiqaradi: A mamlakat-100; V mamlakat-105; S mamlakat-110. V mamlakatda importga 20% li boj qo‘yilgan. Bu holatda V mamlakat bu tovarga bo‘lgan ehtiyojni o‘zi qondiradi, chunki A va S mamlakatdan ushbu tovarni eksportga subsidiyasiz import qilish mumkin emas. Agar A va V mamlakatlar o‘zaro bojxona ittifoqini tuzsa, V mamlakatda X tovarni ishlab chiqarish hajmi A mamlakatdan import qilish hisobiga kamayadi.

2. Tovar oqimlarining o'zgarishi. Faraz qilaylik, yana o'sha uch mamlakat U tovarni har xil narxlarda ishlab chiqaradi: A mamlakat-130; V mamlakat-105; S mamlakat-100. Bojxona ittifoqi tuzilgunga qadar A mamlakat importga 20 foizli boj belgilashi natijasida, U tovarga bo'lgan talabni S mamlakatdan import qilishi hisobiga qondirar edi. Biroq A va V mamlakat o'rtasida bojxona ittifoqi tuzilishi natijasida A mamlakat U tovarni ishlab chiqarish S mamlakatga nisbatan qimmatga tushushiga qaramay V mamlakatdan sotib ola boshladi. Shunday qilib bojxona ittifoqi tuzilgan mamlakatlar hududida uchinchi mamlakatlar mahsulotlarining raqobatbardoshligi past bo'ladi.

Jahon xo'jaligida kechayotgan jarayonlarni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoni erkinlashtirish jahon xo'jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalaridan biriga aylanmoqda. Barcha mamlakatlarda bojxona bojlarining pasayishi, ko'plab turdagi cheklashlar va kvotalarning bekor qilinishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga ayrim tovarlar bo'yicha unga aks tendensiya ham mavjud bo'lib, u, eng avvalo, proteksionistik chora-tadbirlarning saqlanib qolayotganligi va hatto kuchayayotganligi bilan tavsiflanadi. Xususan, to'qimachilik sanoati va qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosida tariflarning yuqoriligi kuzatilmoqda. Masalan, AQSHda hozirga qadar kiyim-kechaklar importiga o'rtacha 14,6 foiz miqdorida boj belgilanadi. Bu esa o'rtacha soliq yig'imidan 5 marta yuqori demakdir. Qishloq xo'jalik mahsulotlariga belgilanadigan boj stavkalari 67 % jahon bo'yicha o'rtacha 40 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, ko'plab mamlakatlar yashirincha proteksionistik chora - tadbirlardan ham keng foydalanadilar. Bunday chora-tadbirlar jumlasiga milliy ishlab chiqarish turlariga dotatsiyalar berish, eksportni subsidiyalash, turli xil me'yorlar va standartlar joriy qilish va boshqalarni kiritish mumkin. Jahon xo'jaligida erkin savdo va proteksionizm o'rtasida vujudga kelayotgan ziddiyatlarni hal etishda, xalqaro savdoni boshqarish, uning taraqqiyotiga bo'lgan to'siqlarni yo'q qilish va erkinlashtirishida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, xususan, Butunjahon savdo tashkiloti (BST) muhim o'rin egallaydi. BST o'z tashkiliy tuzilishi va mohiyati jihatdan ko'p tomonlama savdo tizimining huquqiy va institutsional asosi hisoblanadi. U davlat tomonidan ichki qonunchilik va savdoga oid qarorlar qanday shakllantirilishi va

hayotga tatbiq etilishini belgilovchi asosiy shartnoma majburiyatlarini ta'minlab beradi. BST 1995 – yil 1– yanvarda tashkil topgan bo'lib, u Urugvay raundi natijalarining hayotga tatbiq etilishi hamda Tarif va Savdo to'g'risidagi Bosh bitim (GATT, ya'ni GATT - General Agreement Tariffs and Trade)ning qonuniy vorisi hisoblanadi. BSTdan oldin faoliyat ko'rsatgan GATT ikkinchi jahon urushidan so'ng vaqtinchalik asosida tashkil topdi. 47 yillik faoliyati davomida GATTning huquqiy matni deyarli 1948 – yildagi kabi saqlanib qolmadi, faqatgina unga shartnomalar shaklida ba'zi bir o'zgartirishlar kiritildi va doimo tariflarni pasaytirishga harakat qilindi. Unda savdo muzokaralari raundlari muhim rol o'ynadi. Savdo muzokaralari raundlari uzoq davom etsa-da, ularda kompleks, ya'ni majmuaviy yondashuv ta'minlandi. Bunday yondashuv alohida masalalar bo'yicha muzokaralarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, savdo muzokaralari raundlari unda qatnashuvchilarga keng turdagi masalalar bo'yicha qulayliklarni izlab topish va ta'minlash imkoniyatini beradi. Ikkinchidan, ichki siyosat nuqtayi nazaridan asoslash qiyin, ammo zarur bo'lgan yon bosishlarni siyosiy va iqtisodiy nuqtayi nazardan qulayliklarni o'zida aks ettirgan takliflar paketi doirasida amalga oshirish osonroq. Uchinchidan, muzokaralar raundlari doirasida rivojlanayotgan mamlakatlar yoki boshqa “kam ta'sirga ega bo'lgan” qatnashchilar ko'p yoqlama tizimga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. To'rtinchidan, jahon savdosining siyosiy nuqtayi nazardan “ta'sirchan” sohalarini umumiy isloh qilishni global takliflar paketi doirasida hal etish ehtimoli yuqoriroq hisoblanadi. Bunga Urugvay raundi davomida qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosini isloh qilish yaqqol misol bo'la oladi.

GATT faoliyati davomida 8 ta savdo muzokaralari raundlari o'tkazildi va to'qqizinchi raund (Doha raundi) 2000 – yilda boshlanib, hozirgi kunda ham davom etmoqda. GATT dastlabki savdo muzokaralari raundlarining katta qismi tariflarni yanada pasaytirishga bag'ishlandi. Ammo, 60-yillarning o'rtalarida bo'lib o'tgan Kennedi raundining natijalari GATTning yangi antidemping bitimlarini qamrab oldi. Tokio raundi 1973 – yildan 1979 – yilgacha davom etdi, unda 102 ta mamlakat qatnashdi. Bu raund GATTning tariflarni pasaytirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarining davomi bo'ldi. Mazkur raund natijasida to'qqizta asosiy jahon sanoat tovarlari bozorlarida

bojxona bojlari uchdan birga qisqartirildi. Natijada tayyor mahsulotlarga bo'lgan o'rtacha tariflar GATT tashkil topgan vaqtdagi 40 foizdan 4,7 foizgacha qisqardi. Tariflarni pasaytirish bosqichma-bosqich sakkiz yil davomida amalga oshirildi. Shartnomaga muvofiq, eng yuqori tariflar eng past tariflarga nisbatan yuqoriroq sur'atlarda bosqichma - bosqich pasaytirildi. Tokio raundi natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi bilan bog'liq muammolar hal etilmadi, shuningdek, "muhofaza choralari" to'g'risidagi yangi shartnoma ham imzodanmadi. Shunga qaramasdan, muzokaralar davomida notarif to'siqlar bo'yicha qator shartnomalar ishlab chiqildi. Tokio raundida erishilgan cheklangan miqdordagi muvaffaqiyatlar qiyin davrlar kelayotganligidan dalolat berar edi, GATT tomonidan tariflarning pasayishiga erishilishi, shuningdek, o'tgan asrning 70 – yillarida va 80 – yillarining boshlarida iqtisodiyotdagi pasayishlar davlatlar tomonidan iqtisodiyot tarmoqlarini muhofaza qilishning yangi shakllarini ishlab chiqishga turtki bo'ldi. Ishsizlik darajasining yuqoriligi va ko'plab korxonalarining yopilishi Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari hukumatlarini bozorlarni bo'lib olish va qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosida o'z o'rinlarini saqlab qolish uchun subsidiyalarga alohida e'tibor berishga majbur qildi. Bularning barchasi esa GATTning xalqaro maydondagi obro'siga aks ta'sir ko'rsatdi. Jahondagi umumiy vaziyatning yomonlashuvidan tashqari, o'tgan asrning 80 – yillari boshlarida shu narsa aniq bo'ldiki, GATT jahon savdosi talablariga javob bermay qoldi. Birinchidan, jahon savdosi 40 yil ilgarigiga qaraganda ancha murakkablashdi va uning ahamiyati ortib bordi. Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlari chuqurlashdi, xalqaro investitsiyalar ko'lami kengaydi, GATT qoidalari tegishli bo'lmagan xizmatlar savdosi ko'plab mamlakatlar uchun qiziqish uyg'otdi va jahondagi tovarlar savdosiga kuchli ta'sir ko'rsata boshladi. Masalan, 1960–1980-yillar davomida jahon miqyosida jami savdo aylanmasi 15,7 martaga, jahon eksporti qariyb 16 martaga, jahon importi esa 15,5 martaga o'sdi. 1960–1970-yillarda jahon miqyosida tashqi savdo aylanmasining o'rtacha o'sish sur'atlari 9,5 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1970–1980-yillarda bu ko'rsatkich 20,5 foizga teng bo'ldi. Mazkur omillar boshqa omillar bilan birgalikda GATT a'zolarini ko'p tomonlama tizimni kengaytirish va mustahkamlash uchun yangi sa'y-harakatlar boshlashga undadi. Bu sa'y-

harakatlar Urugvay raundining boshlanishiga olib keldi. Urugvay raundini o'tkazish g'oyasi 1982– yilning noyabr oyida GATTga a'zo mamlakatlar savdo vazirlarining Jenevadagi uchrashuvida tug'ildi. Muammolarni o'rganish va aniqlash hamda konsensusga kelish bo'yicha amalga oshirilgan to'rt yillik mehnatdan so'ng savdo vazirlari yana 1986 – yilning sentyabr oyida Urugvayning Puntadel-Este shahrida yig'ildilar. Ular muzokaralar kun tartibiga savdo siyosatining barcha hal etilmagan masalalarini, shu jumladan, savdo tizimini bir qator ilgari tegishli bo'lmagan sohalarga, xususan, xizmatlar savdosi va intellektual mulk sohasiga yoyish masalalarini ham kiritishga erishdilar. 1993 – yilning 15 – dekabrda kun tartibiga qo'yilgan barcha masalalar hal etildi. 1994 – yilning 15 – aprelida Marokashdagi yig'ilishda 125 a'zo mamlakat savdo vazirlari shartnoma imzoladilar. Shuni ta'kidlash lozimki, 47 yillik faoliyati davomida GATT sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi. Faqatgina tarif stavkalarining doimiy tarzda pasaytirilishi natijasida XX asrning 60–80-yillarida jahon savdosining yillik o'sish sur'atlari o'rtacha 8 foizni tashkil etdi. Savdoni erkinlashtirish tufayli olingan impuls natijasida GATT faoliyati davomida jahon savdosi o'rtacha yillik o'sish sur'ati jahon ishlab chiqarishining o'sish ko'rsatkichlaridan yuqori bo'ldi. 1995 – yilning 1 – yanvaridan boshlab esa, GATT o'rniga boshqa tashkilot - Jahon savdo tashkiloti faoliyat ko'rsata boshladi. BSTga potensial a'zo bo'lishi mumkin bo'lgan 152 mamlakatning 76 tasi birinchi kundanoq, BST a'zosiga aylandi. 1996 – yilning boshida mazkur tashkilotga a'zo bo'lganlar soni 130 taga yaqinlashdi. 1998– yilda esa 132 taga etdi. 2013 – yil 2 – mart holatiga ko'ra 159 tani tashkil etgan. Sobiq Ittifoq mamlakatlari BSTga a'zo bo'lgani: Qirgiziston 20- dekabr 1998 – yil (133- BST a'zosi); Latviya, 10 – fevral 1999 – yil (134- BST a'zosi); Estoniya, 13 – noyabr 1999 – yil (135- BST a'zosi); Gruziya, 14-iyun 2000-yil (137- BST a'zosi); Litva, 31 –may 2001–yil (141- BST a'zosi); Moldaviya, 26 – iyul 2001 – yil (142- BST a'zosi); Armeniya 5 – fevral 2003 – yil (145- BST a'zosi); Ukraina 16 – may 2008 – yil (152- BST a'zosi); Rossiya, 22-avgust 2012 – yil (156- BST a'zosi); Tojikiston 2 – mart 2013 – yil (159- BST a'zosi). Jahoning boshqa mamlakatlari ham unga a'zo bo'lish shart-sharoitlari to'g'risida muzokaralar olib bormoqdalar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, garchi

Jahon savdo tashkiloti GATTning rasmiy vorisi hisoblansada, bir qator ko‘rsatkichlari bo‘yicha undan farq qiladi.

1. GATT qoidalar majmuyidan iborat bo‘lib, uning doimiy faoliyat yurituvchi organi faqat uning kotibiyati hisoblanar edi. BST esa doimiy faoliyat yurituvchi tashkilot bo‘lib, a‘zo mamlakatlarga o‘ziga xos majburiyatlarni taqdim etadiki, uni barcha a‘zo mamlakatlar bajarishga majburdirlar.

2. GATT vaqtinchalik asos sifatida qo‘llanilar edi, BST majburiyatlari esa to‘laqonli va doimiydir.

3. BST nafaqat GATTga nisbatan ko‘proq a‘zolarini qamrab olishi mumkin, balki u savdo faoliyati va savdo siyosati nuqtayi nazaridan kengroq sohalarni o‘z ichiga oladi. Xususan, GATT faqat tijorat tovarlari savdosiga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lsa, BST tovarlar va xizmatlar savdosi, “g‘oyalar savdosi” yoki intellektual mulk savdosini ham qamrab oladi.

BSTning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ko‘p tomonlama savdo bitimlarini tartibga solish va amalga oshirish;

- ko‘p tomonlama savdo muzokaralari uchun forum sifatida faoliyat ko‘rsatish;

- savdo sohasida vujudga keladigan bahs–munozaralarni hal etish yo‘llarini izlash;

- milliy savdo siyosati ustidan nazorat yuritish;

- global iqtisodiy siyosat shakllanishida qatnashuvchi boshqa xalqaro muassasalar bilan hamkorlik yuritish. BST bitimlari 29 ta alohida me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘z ichiga oladi. Bu matnlar BSTga a‘zo mamlakatlar vazirlari kafolatlari darajasida qabul qilingan yana 25 ta qo‘shimcha bayonotlar, qarorlar va kelishuvlar bilan mustahkamlangan. Bu barcha hujjatlar bir butun hujjatlar tizimini tashkil etadi. Bu shuni anglatadiki, BSTga a‘zo bo‘layotgan barcha mamlakatlar ushbu hujjatlarni hech bir istisnosiz qabul qilishlari shart. Bu sohadagi yagona imtiyoz kelishuvlarni amalga oshirish muddatining turlichaligidir: rivojlanayotgan mamlakatlar va ba‘zi holatlarda o‘tish davri mamlakatlari uchun mazkur muddat birmuncha uzoqroq qilib belgilangan. BSTning oliy organi Savdo vazirlari konferensiyasi hisoblanadi. U ikki yilda kamida bir marta chaqiriladi. Vazirlar konferensiyasi har qanday ko‘p tomonlama savdo bitimlari

doirasida barcha masalalar bo'yicha qaror qabul qila oladi. Vazirlar konferensiyasi sessiyalari oralig'ida, BSTga a'zo mamlakatlar vakillaridan tashkil topgan Bosh kengash asosiy ishlarni olib boradi. U joriy masalalarni hal etish uchun zaruriyatga qarab chaqiriladi (bir yilda 8-10 marta). Bundan tashqari, Bosh kengash Bahslarni hal etish organi va Savdo siyosati bo'yicha organ faoliyatini tartibga solib turadi. BSTning Vazirlar konferensiyasi Savdo va rivojlanish bo'yicha qo'mitani, to'lov balansining muvozanatini ta'minlash maqsadida Cheklovlar bo'yicha qo'mitani, budjet, moliya va ma'muriyat bo'yicha qo'mitani, Savdo va atrof-muhit bo'yicha qo'mitani, shuningdek, mintaqaviy savdo bitimlari bo'yicha qo'mitani ta'sis etadi. Vazirlar konferensiyasi BSTning Bosh direktorini tayinlaydi. Bosh kengash rahbarligida Tovarlar savdosi bo'yicha kengash, Xizmatlar savdosi bo'yicha kengash va Intellektual mulk huquqining savdo jihatlari bo'yicha kengash faoliyat ko'rsatadi. Ushbu kengashlar doirasida Bitimlar bo'yicha Qo'mitalar va muzokara guruhlarini ta'sis etiladi. Tashkilotning ijroiya organi Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan BST kotibiyati hisoblanadi. BSTning huquqiy mexanizmi uchta asosiy qismdan iborat: 1994 – yilgi tahrirdagi Savdo va tariflar bo'yicha Bosh bitim (GATT-1994), Xizmatlar savdosi bo'yicha Bosh bitim (General Agreement of Trading of Service) va Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari bo'yicha bitim (General Agreement of Trading of Intellectual Property). Urugvay raundi hujjatlarining katta qismi 50 yil davomida faoliyat ko'rsatgan GATT davrida shakllantirilgan tamoyillarni rivojlantirish va takomillashtirish asosida vujudga kelgan. BST huquqiy hujjatlari hajmining beshdan to'rt qismi "GATT – 1994" hissasiga to'g'ri keladi. Ayni vaqtda BST tarkibiga kirgan "GATT-1994" huquqiy nuqtayi nazardan ungacha amal qilgan "GATT-1947"ga nisbatan boshqa hujjat hisoblanadi. Bu ikki hujjat o'rtasidagi asosiy farq, "GATT-1994" ning integratsiyalashgan xarakterda ekanligi bilan bog'liq. Agar "GATT-1947"da kelishuvlar va hujjatlar ularni imzolagan davlatlar uchun majburiy bo'lgan bo'lsa, BSTga a'zo mamlakatlar barcha huquqiy hujjatlar paketini hech bir istisnalarsiz qabul qilishlari shart. "TATT-1994" va "GATT-1947" o'rtasidagi yana bir farqli jihat shundan iboratki, "GATT-1947" ga a'zo mamlakatlar GATT qoidalaridan milliy qonunchilik yo'l qo'ygan darajadagina foydalanishlari mumkin edi. Endilikda esa

BSTga a'zo barcha mamlakatlar o'z milliy qonunchilik tizimlarini "GATT-1994" ga muvofiqlashtirishlari lozim.

BSTning asosiy tamoyillari va qoidalari quyidagilardan iborat:

- BSTga a'zo mamlakatlar o'zaro savdoda bir-birlariga eng qulay shart-sharoitlar rejimini taqdim etishi;

- savdoni tartibga solishda bojxona tariflaridan ustun darajada foydalanish. BSTga a'zo mamlakatlarda miqdoriy cheklashlar emas, balki bojxona tariflari tashqi savdo siyosatining, milliy bozorlar va sanoat tarmoqlarini himoya qilishning asosiy vositasi hisoblanadi;

- xorijiy tovarlar uchun o'zaro milliy rejimni taqdim etish;

- alohida kelishilgan holatlardan (masalan, to'lov balansi mutanosibligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora- tadbirlar) boshqa paytlarda savdoda miqdoriy cheklovlardan voz kechish;

- savdo siyosatining oshkoraligi, xususan, BSTga a'zo har bir mamlakat tashqi savdo faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va qarorlarni ochiq nashr qilishi va BSTga taqdim etishlari lozim;

- BSTga a'zo mamlakatlarning bojxona ittifoqlari va erkin savdo zonalarini tashkil etish huquqlari. BST shartnomalari rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar uchun muhim qoidalarni o'zida aks ettiradi. Mazkur mamlakatlarga BSTga a'zo bo'lgan vaqtdan boshlab yetti yil davomida zaruriy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun subsidiyalardan foydalangan holda chora- tadbirlar va dasturlar qo'llashga ruxsat beriladi. Urugvay raundining muhim natijalaridan biri umumiy hajmi 1,4 trln. dollarga teng xalqaro xizmatlar savdosini tartibga solish bo'yicha chora- tadbirlarning qabul qilinganligi bo'ldi. Ko'p tomonlama savdo tizimini mustahkamlashning muhim yo'nalishlaridan biri BST tomonidan tartibga solinadigan sohalarda savdoni yanada erkinlashtirish hisoblanadi. Bu esa quyidagilarni ko'zda tutadi:

– birinchidan, tariflarning yanada pasayishi. Garchi rivojlangan mamlakatlarda tarif stavkalari past bo'lsada, ko'plab turdagi alohida tovarlarga nisbatan tariflar foizi yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Rivojlangan mamlakatlarga nisbatan tarif stavkalari yuqori bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar oldiga ham tarif himoyasini pasaytirish vazifasi qo'yilgan;

– ikkinchidan, barcha mamlakatlarda miqdoriy cheklashlarga barham berilishi;



– uchinchidan, to‘qimachilik va qishloq, xo‘jaligi mahsulotlari savdosini erkinlashtirish. Intellektual mulk huquqi sohasida BST ba‘zi bir umumiy xarakterdagi masalalarga alohida e‘tibor qaratishi lozim. Xususan: intellektual mulk huquqi himoyasining minimal standartlarini ta‘minlash, ushbu sohada yuzaga keladigan bahsli vaziyatlarni hal etishning qonuniy jihatlarini ishlab chiqish. Hozirgi kunda BST ishtirok etishi lozim bo‘lgan masalalar qatoriga antitrest qonunlari, xorijiy investorlar uchun cheklashlar, yollanma ishchilar huquqlari va atrof- muhitni muxofaza qilish va mazkur jarayonlarda BST qay darajada ishtirok etishini hal etishdan iborat. BST tashkil topgandan so‘ng bir qator rivojlangan mamlakatlar savdo rejimini mehnat va ekologiya standartlari bilan bog‘liqlikda amalga oshirish taklifi bilan chiqmoqdalar. Bu taklifning mohiyati shundan iboratki, mazkur standartlar past bo‘lgan mamlakatlar ishlab chiqarish xarajatlarining pastligi xufayli “nobo‘zor” raqobat afzalligiga ega bo‘lmoqdalar. Bu me‘yorlarning BST tomonidan qabul qilinishidan, eng avvalo, rivojlanayotgan mamlakatlar ko‘proq zarar ko‘radilar. Bundan tashqari, BST tomonidan yana bir qator masalalar hal etilishi lozimki, ular jumlasiga Osiyo mamlakatlari tomonidan kiritilayotgan to‘qimachilik mahsulotlariga AQSH va Yevropa Ittifoqi tomonidan joriy etilgan cheklovlarni bekor qilish, “regionalism”, ya‘ni mamlakatlar guruhlari o‘rtasida imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitimlarning keng tarqalishi, farmasevtika bozorini erkinlashtirish, davlat xarid narxlarini isloh qilish, ishchi kuchining migratsiyasi muammosi, dengiz transportidan foydalanish va boshqalarni kiritish mumkin. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, aloqa va kompyuter ta‘minoti sohasida xarajatlarning pasayishiga olib kelgan axborot inqilobi fenomenining yuzaga kelishi jahon iqtisodiyotidagi vaziyatga sezilarli darajada ta‘sir o‘tkazishi mumkin. Ushbu omilning mavjudligi nafaqat telekommunikatsiya, moliyaviy xizmatlar, axborot texnologiyalari bo‘yicha BST bitimlarining ahamiyatini ko‘rsatadi, balki BST oldiga yangi muammolar qo‘yadi. Bugungi kunda BST unga a‘zo mamlakatlar uchun ko‘p tomonlama savdo shartnomalari vazifasini ham bajaradi va bir necha minglab ikki tomonlama shartnomalar va bitimlar tizimining o‘rnini bosadi. Bu esa BSTga a‘zo mamlakatlarga ko‘plab afzalliklarni taqdim etadi. Bundan tashqari, jamoaviy muhokamalar, kelishuvlar va kelishmovchiliklarni hal etish jarayonida BST mamlakatlar o‘rtasida

savdo munosabatlari shakllanadigan forum ham hisoblanadi. Shunday qilib, hozirgi kunda ichki va tashqi tovar almashuvi o'rtasidagi tafovutlar tobora pasayish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Natijada milliy iqtisodiy tizimlar o'rtasidagi aloqalar tobora chuqurlashib bormoqda. Bu esa ko'plab mamlakatlar va ko'plab tashqi savdo munosabatlari shakllarini o'z ichiga olgan yagona huquqiy va ma'muriy kenglik barpo etish yo'nalishida muhim qadam qo'yilayotganligini bildiradi. Bunday sharoitda BSTga a'zo mamlakatlar xalqaro savdo munosabatlarining yengillashishi, unga a'zo bo'lmagan mamlakatlar tashqi iqtisodiy faoliyatining murakkablashuvi kuzatiladi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Eksport – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

Import – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish.

Reeksport – biror bir mamlakat boshqa mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun xarid qilishi.

Reimport – iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarlarni sotib olish.

Xalqaro valyuta tizimi – xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

Valyuta kursi – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan narxi.

To'lov balansi – mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt oralig'ida (odatda bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

Iqtisodiy bitimlar – qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya'ni tovarlar ko'rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o'tishi bo'yicha kelishuvlar.

## **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Ichki va tashqi savdoning o'xshashliklari nimadan iborat? Ularning farqi-chi?
2. Xalqaro savdo qanday ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi?
3. Nima uchun xalqaro savdoda sun'iy to'siqlar mavjud bo'ladi? Ularning tavsifini bering.
4. Proteksionistik siyosatning ijobiy va salbiy tomonlari qanday? Ularni taqqoslang.
5. Xalqaro savdoda iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati qandayligi va unda O'zbekistonning ishtirok etishi imkoniyatlarini aniqlang.
6. Xalqaro valyuta tizimini tushuntiring. Har bir tizim qanday ustunlik va kamchiliklarga ega?
7. Davlat valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun qanday usullardan foydalanadi?
8. Chet el valyutalariga talab va taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
9. Jahon valyuta tizimining mazmuni nimadan iborat? Uning rivojlanish bosqichlari va ularga mos xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilish tiplarini izohlang.
10. Valyuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlarga qaysi tashkilotlar kiradi? Ularning asosiy faoliyatlarini tavsiflab bering.

## 12-MAVZY. INSTITUT VA KORPORATSIYALAR

**12.1. Institutlar, hamkorlik va rivojlanish, hamkorlik va institutlar.**

**12.2. O‘yin nazariyasi va xatti-harakatlar iqtisodiyotining asosiy tushunchalari.**

**12.3. Jamiyat darajasidagi muassasalarning iqtisodiy tahlili.**

**12.4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda jamoatchilik darajasidagi institutlarni tadqiq qilish.**

**12.5. Sug‘urta tashkilotlari va boshqa institutlar.**

### **12.1. Institutlar, hamkorlik va rivojlanish, hamkorlik va institutlar**

**Institutlar o‘zi nima?** Turli davrlar tadqiqotchilari institutlar mohiyatini va ularning faoliyat ko‘rsatish mexanizmini yorituvchi bir necha ta’riflarni asoslashgan. T. Veblen institutlarni quyidagicha ta’riflagan: “*Institutlar* – bu insonlar ularga amal qilgan holda turmush kechiradigan odatiy tafakkur tarzi” yoki “*Institutlar* – bu o‘tmishda sodir bo‘lgan jarayonlar natijasi bo‘lib, ular o‘tmish sharoitlariga moslashgan va, o‘z navbatida, hozirgi vaqt talablariga to‘liq moslashmagan”.

Institutlarning yana boshqa bir ta’rifi B.Z. Milner tomonidan D. Nort [46] yozgan so‘zboshishida keltirilgan: “*Institutlar* – bu, insonlar tomonidan ishlab chiqilgan cheklovlar hamda ularning o‘zaro hamkorligini tarkiblashtiruvchi majburlash omillari. Bularning barchasi birgalikda jamiyat va iqtisodiyotning undovchi tarkibini hosil qiladi”.

Yuqorida keltirilgan ta’riflar institutlarning asosiy xususiyatlarini qamrab olgan holda, ularning asosiy funksiyalarini hamda rivojlanish qonunlarini aks ettiradi hamda jamiyatni rivojlantirish uchun institutlarning muhimligini ta’kidlaydi. Yuqorida ko‘rsatilgan barcha holatlarni umumlashtirgan holda, institutsionalizmning hozirgi zamon talqinlariga asosan institutlarni quyidagicha ta’riflash mumkin:

**Institut** – bu jamiyat a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni belgilab beruvchi rasmiy qoidalar va norasmiy normalar tizimi. Institutlar asosini uning tarkibiy qismlari hisoblangan normalar tashkil etadi.

**Norma** – institutsional muhitda individlarning o‘z tanlovini amalga oshirishda foydalaniladigan asosiy unsur hisoblanadi. Ushbu unsur: tartibni saqlash funksiyasiga ega; o‘zaro hamkorliklar tizimida majburiy xatti-harakat bajarilishini talab etadi; shaxslar xatti-harakatidagi ijtimoiy, iqtisodiy, yuridik sanksiyaga tayanuvchi muntazamlik hamda muqarrarlikni aks ettiradi; shaxsning turli vaziyatlarda o‘zini qanday tutishi lozimligini belgilaydi. Norma amal qilishi uchun talab etiladigan tarkib beshta unsurdan iborat:

- ◆ individlarning guruhlanish belgilari;
- ◆ muqarrarlik omili (kerak yoki kerak emas);
- ◆ maqsad;
- ◆ norma harakatda bo‘lgan shart-sharoitlar;
- ◆ sanksiyalar.

Institutsionalizm asoschilaridan biri D.Nort institutlar tarkibida ularni uchta asosiy qismga ajratadi:

- **rasmiy qoidalar** (konstitutsiyalar, qonunlar, sud qarorlari, ma‘muriy hujjatlar va b.);
- **norasmiy normalar** (an‘analalar, urf-odatlar, ijtimoiy shartlilik);
- **qoidalarga amal qilinishini ta‘minlovchi** (sudlar, politsiya va h.k.) majburlash mexanizmlari (masalan, jazolash tizimi).

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘p holatlarda norasmiy normalar jamiyatda “tartibni” ta‘minlashda rasmiy qoidalarga qaraganda g‘oyat katta rol o‘ynaydi. Bunga qator omillar xizmat qiladi:

1. Har qanday jamiyatda faoliyatning alohida sohalari rasmiy qoidalar mavjud bo‘lmaganda faqat norasmiy normalar bilan tartibga solinadigan vaziyatni kuzatish mumkin. Xo‘jalik yuritishning jamoa shakli paydo bo‘lishi davrida urug‘doshlik va ular a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar yoki mafiya (kriminal) guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar, O‘zbekistonda mahallada yashovchi aholi orasida keng tarqalgan odatlar va qoidalar bunga misol bo‘lib xizmat qiladi.

Qoidalarga zarurat hamma vaqt, bittadan ko‘p subyekt mavjud bo‘lib, ular o‘rtasida qandaydir munosabatlar yuzaga kelgan taqdirda, tug‘iladi. Bunda subyektlarning turli guruhlaridagi qoidalar bir xil bo‘lishi ham, bir-biridan yaqqol farq qilishi ham mumkin. Alohida oila yoki alohida jamoa doirasidagi munosabatlar ana shunday qoidalarga eng oddiy misol bo‘lib xizmat qiladi. Oila doirasidagi munosabatlar

norasmiylikicha qoladi, jamoaning qarindoshlar bo‘lmagan a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar esa, aksariyat hollarda shartnoma yoki boshqa hujjat ko‘rinishida (fuqarolik kodeksida davlat doirasida) rasmiy tarzda mustahkamlandi.

2. Norasmiy normalar jamiyatda rasmiy qoidalarga qaraganda ancha oldin paydo bo‘lib, ko‘p jihatdan rasmiy, qonunchilik bilan mustahkamlangan normalar uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Norasmiy normalarning rasmiy qoidalar sifatida mustahkamlanishiga istalgan mamlakatning tarixida ko‘plab misollarni uchratish mumkin.

**Institutsional matritsa** – bu, tarixan barqaror shakllangan, dastlabki davlatlarning paydo bo‘lishini va barcha keyingi institutsional tuzilmalarning rivojlanishini belgilab bergan, o‘z navbatida, mohiyati hamon saqlanib qolgan birlamchi modelni takror yaratishga xizmat qiluvchi bazaviy ijtimoiy institutlar tizimi.

Bu yerda institutlar sotsium yashovchanligining tashqi sharoitlari bilan shartlangan jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi muayyan va muqarrar aloqalar tizimi sifatida tushuniladi. Ushbu holatda gap insonning takror shakllanishini tartibga soluvchi ijtimoiy institutlar (ular jumlasiga oila, salomatlik va boshqa institutlar kiradi) haqida emas, balki davlatlarning takror shakllanishini va ijtimoiy hayotning asosiy sohalarini tartibga soluvchi sotsial institutlar haqida bormoqda.

Institutlar jamiyatning uning tarixiy barqarorligini va ijtimoiy yaxlitlikning takror shakllanishini ta‘minlovchi o‘ziga xos tuzilishini (qobirg‘asini) hosil qiladi. Institutsional matritsa chizma ko‘rinishida jamiyatda teng ahamiyatli mavqeni egallab turgan yagona uchta: siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sohalarini birlashtiruvchi ijtimoiy shakl sifatida namoyon etilgan. Asosiy matritsalar S.Kirdinaning “Institutsional matritsalar va Rossiyaning rivojlanishi” kitobidan olingan. Biroq ularga ayrim o‘zgartirishlar kiritilgan, xususan siyosiy va mafkuraviy sohalar birlashtirilgan, chunki jamiyatda mafkura ko‘p jihatdan boshqaruvchi siyosatchilarga bog‘liq bo‘lib, ular faoliyatining natijalaridan biri hisoblanadi. Matritsada ijtimoiy soha alohida ajratilgan va institutsional tizimni shakllantirishda u katta rol o‘ynaydi.

Matritsalarining asosiy va qo‘shimcha institutlarning muayyan to‘plami bilan tavsiflanuvchi ikki xili mavjud – g‘arbiy (bozor, demokratik) va sharqiy (buyruqbozlik, diktatura yoki despotiya) matritsalar.

Institutlar qanday ishlayotganligini, nima uchun ular asrlar mobaynida mavjud bo'lishi va rivojlanishini, ularning "hayotiyli" yoki barqarorligini tushunish uchun institutsional o'zgarishlarga olib keluvchi sabablarni o'rganib chiqish lozim.

Institutsional o'zgarishlar eski va yangi institutlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik xususiyati ham katta rol o'ynaydi. D.Nort bog'liqlikning quyidagi turlarini ta'kidlaydi.

**Birinchisi** – rivojlanishning avvalgi yo'lga bog'liqlik – chuqur aloqa, yangi institutlarning faqatgina eski institutlar negizida paydo bo'lishini ta'minlovchi yangi institutlarning eski institutlarga kuchli bog'liqligi.

**Ikkinchisi** – mutlaq yangi institutlarning paydo bo'lishiga bo'shliq mavjudligi orqali belgilanadigan nisbatan kamroq.

**Rasmiy qoidalar va norasmiy normalarni muvofiqlashtirish.** Rasmiy qoidalar va norasmiy normalarning muvofiqlashtirilishi jamiyatda muhim rol o'ynaydi, chunki u institutlar mavjud tizimi faoliyat ko'rsatishining samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Eski va yangi institutlar o'rtasidagi inqilobiy bog'liqlik doirasida ular rivojlanishining uchta ehtimoliy yo'lni ta'kidlash lozim:

- **birinchisi** – mavjud institutsional matritsaga qarama-qarshi bo'lgan rasmiy institutlarning paydo bo'lishi (odatda, hamma joyda chuqur islohotlar davrida, masalan, o'tish iqtisodiyotida qonunlar, farmonlar ko'rinishida) va ularning ildiz otishi (kengayib borishi) hamda qabul qilingan rasmiy normalarga mos keluvchi yangi norasmiy normalarning shakllanishi;

- **ikkinchisi** – qabul qilinayotgan rasmiy qoidalarning norasmiy normalarga to'liq mos kelmasligi shunga olib keladiki, norasmiy normalar ancha "hayotiy" bo'lib chiqadi va buning natijasida yangi qabul qilingan rasmiy qoidalarning norasmiy institutsionallasuvi yuz beradi;

- **uchinchisi** – yangi rasmiy qoidalar ildiz otmaydi, bu ularning yo'qolib ketishiga olib keladi.

Institutsional tizim samaradorligiga institutlar bilan bir qatorda tashkilotlar ham ta'sir ko'rsatadi. D.Nortning fikriga ko'ra, institutlar iqtisodiy nazariya bilan yoritiladigan standart cheklovlar bilan bir qatorda jamiyat a'zolarining imkoniyatlarini ham shakllantiradi.

## 12.2. O‘yin nazariyasi va xatti-harakatlar iqtisodiyotining asosiy tushunchalari

Institutsional iqtisodiyot formal modellarni tuzish uchun Jon fon Neyman va Oskar Morgenshternning “O‘yinlar nazariyasi va iqtisodiy xatti-harakat” (1944) kitobidagi fikrlarga asoslangan *o‘yinlar nazariyasidan* foydalanadi. Ushbu nazariyaning rivojlanishi Jon Nesh 1950 – yilda kiritgan muvozanat vaziyati tushunchasi bilan bog‘liq. Bu bilan nokoalitsion o‘yinlarning yechish usuli ishlab chiqildi. 1994 – yilga kelib, birdaniga uch tadqiqotchi “**nokooperativ o‘yinlar**” nazariyasidagi muvozonatni birinchi bor tahlil qilib chiqqanligi uchun iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldilar. Bular: **Raynxad Selten (Germaniya), Jog Nesh (AQSH), Jon S.Xarsani (asli vengriyalik – AQSH)**. Ushbu tadqiqot usulining o‘ziga xos asosiy belgilari ichida quyidagilarni ajratish lozim.

**Birinchidan**, o‘yinlar nazariyasi individlarning o‘zaro shartlashilgan xatti-harakatlari vaziyatini tahlil qilish bilan shug‘ullanadi: har bir shartning hal etilishi o‘zaro hamkorlik natijasiga va o‘z navbatida, qolgan individlarning qarorlariga ta’sir ko‘rsatadi. Individ o‘z harakatlari masalasini hal etayotib, o‘zini kontragentlar o‘rniga qo‘yib ko‘rishi kerak.

**Ikkinchidan**, o‘yinlar nazariyasi, mukammal kalkulyator sifatidagi indviddan tortib to robot sifatidagi indvidgacha qator modellardan foydalangan holda, individlarning to‘liq ratsionalligini talab qilmaydi.

**Uchinchidan**, o‘yinlar nazariyasi o‘zaro hamkorliklardagi muvozanatning mavjudligi, yagonaligi va Pareto-optimalligini nazarda tutmaydi. Ushbu sabablar o‘yinlar nazariyasi yordamida qurilgan institutlarning formal modellariga bo‘lgan qiziqishni orttiradi.

O‘yinlar nazariyasi tarkibiy jihatdan **kooperativ (koalitsiyali) va nokooperativ (koalitsiyasiz)** nazariyalarga ajratiladi. Bunda o‘yin ishtirokchilarining o‘zaro kelishuvi darajasiga ko‘ra, kooperativ (koalitsiyali) va nokooperativ(koalitsiyasiz) o‘yinlar nazarda tutiladi.

Har bir o‘zaro hamkorlik uchun muvozanatlarning turli xillari mavjud bo‘lishi mumkin: *ustun strategiyali muvozanat, Nesh bo‘yicha muvozanat, Shtakelberg bo‘yicha muvozanat va Pareto bo‘yicha muvozanat*.



**Ustun strategiyali muvozanat** – boshqa ishtirokchining harakatlariidan *qat'i nazar ishtirokchiga* eng yuqori foydalilikni ta'minlovchi harakatlar rejasini.

**Nesh bo'yicha muvozanat** – o'yinchilarning hech biri o'z harakatlari rejasini o'zgartirgan holda o'z yutug'ini bir tomonlama oshira olmaydigan vaziyat.

**Shtakelberg bo'yicha muvozanat** – hech bir o'yinchi o'z yutug'ini bir tomonlama tartibda oshira olmaydigan vaziyat. Bunda qaror dastlab birinchi o'yinchi tomonidan qabul qilinadi, so'ngra ikkinchi o'yinchiga ma'lum bo'ladi.

**Pareto bo'yicha muvozanat** – o'yinchilardan birining holatini, ikkinchi o'yinchining holatini yomonlashtirmagan holda, yaxshilab bo'lmaydigan vaziyat.

Ustun strategiya deb ishtirokchiga boshqa ishtirokchining harakatlariidan *qat'i nazar* o'yinchining maksimum foydaliligini ta'minlovchi harakatlar rejasiga aytiladi. O'z navbatida o'yindagi ikkala ishtirokchi ustun strategiyalarining o'zaro kesishuvi ustun strategiyalar muvozanati bo'ladi. Nesh bo'yicha muvozanat – har bir o'yinchining strategiyasi boshqa o'yinchining harakatiga yaxshi javob bo'ladigan vaziyat. Shtakelberg bo'yicha muvozanat o'yin ishtirokchilari tomonidan qarorlar qabul qilinishida vaqt omili mavjud bo'lganda yuzaga keladi, ya'ni ulardan biri boshqasi qanday yo'l tutganligini bilgan holda qaror qabul qiladi.

O'yinlar nazariyasi uchun bir necha tayanch modellar mavjud. Ushbu modellar Nesh bo'yicha muvozanat nuqtalarining soni bilan va ularning Shtakelberg bo'yicha va Pareto bo'yicha muvozanat nuqtalariga mos kelishi yoki mos kelmasligi bilan farq qiladi.

Yuqorida izohlangan modellarni ko'rib chiqish individlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik jarayonida yuzaga keladigan qator muammolarni aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi:

- ***muvofiqlashtirish muammosi*** Nesh bo'yicha ikkita nuqta mavjud bo'lgan hollarda paydo bo'ladi (I, IV modellar). Muvofiqlashtirish muammosining hal etilishi qo'shimcha institutsional shart-sharoitlar joriy etilishi, «fokal nuqtalar» yoki kelishuvlar mavjud bo'lishini talab qiladi. Masalan, er-xotinning qiziqishlari bir joydan chiqqan hollarda, ular o'z harakatlarini muvofiqlashtirishi ancha osonlashadi;

- *birga bo'la olishlik muammosi* Nesh bo'yicha muvozanat mavjud bo'lmagan vaziyat uchun xosdir (VII, VIII modellar). Agar institutlar strategiyalarni tanlashni cheklamasa va «yo'naltirmasa», individlar o'z harakatlarini muvofiqlashtira olishmaydi. Masalan, davlat bilan sarmoyador o'rtasidagi o'zaro munosabatga davlatning nufuzi omilining joriy etilishi (2, 3) yakunda to'xtalish imkonini beradi;

- *kooperatsiya muammosi* - Nesh bo'yicha muvozanat mavjud, u yagona, lekin Pareto bo'yicha optimal emas (III model - «mahbuslar dilemmasi»). Ushbu vaziyatda ham institutsional cheklovning joriy etilishi Pareto bo'yicha optimal natijaga erishishni ta'minlaydi;

- *adolatlilik muammosining dolzarbligi* - Nesh bo'yicha yagona muvozanat asimmetrik, yutuqning o'zaro hamkorlik ishtirokchilari o'rtasida adolatsiz taqsimlanishi bilan tavsiflanadi (V, VI modellar). Adolatsizlik muammosini hal etish variantlaridan biri takrorlanadigan o'yinlarga o'tish va «aralash» strategiyalar asosida normalarni ya'ni,  $t_0$  vaqt lahzasida individ A strategiyani,  $t_1$  vaqt lahzasida esa B strtegiyani tanlaganda bo'ladi.

### 12.3. Jamiyat darajasidagi muassasalarning iqtisodiy tahlili

Firmalarni eng maqbul (benuqson) xillarga bo'lish real tashkilotlar to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish imkonini bermaydi, balki faqat tashkiliy tuzilmaning barqaror qismini ajratib ko'rsatadi. Ammo ushbu fikr institutsional yondashuv faqatgina tashkilot ichida yuz berayotgan jarayonlarni tushunishga qodir ekanligini anglatmaydi. Muayyan tashkilot holatini tekshirish va muayyan amaliy tashkiliy muammolarni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda institutsional yondashuv bilan bir qatorda, transaksiya xarajatlari nazariyasi, kelishuvlar nazariyasi va mulkchilik huquqlari nazariyasini ham bemalol amaliy qo'llash mumkin.

**Transaksiya xarajatlarini** o'lchashdagi qiyinchiliklar muayyan iqtisodiy tahlil uchun asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi. Birinchi galda transaksiya xarajatlari barcha xillari pul ekvivalentida baholanishi mumkinmi degan savol ochiqlicha qolmoqda. Hatto transaksiyani amalga oshirish uchun vaqt sarfini pul ekvivalentida ifodalashning oddiy tadbiri ham ko'plab holatlarda transaksiyaning

(masalan, muzokaralar yuritishning) u yoki bu jihatlarini ta'minlashga ixtisoslashgan vositachilarning yo'qligi tufayli takomillashmagan. Shuningdek, ilgari ishonchga ega bo'lgan sherikning opportunistik xatti-harakati yoki mulkchilik huquqlarining himoyalanganligi munosabati bilan yuzaga keladigan ruhiy tashvish tufayli xarajatlarni pul shaklida baholashga urinishda undanda kattaroq murakkabliklar paydo bo'ladi.

**Transaksiya xarajatlarini** o'lchash o'tgan asr oxirida foydalilikni o'lchash yuzasidan munozaralar jarayonida qo'yilgan muammoga o'xshash muammoni keltirib chiqaradi. Agar foydalilikni sifat jihatdan funksional bog'liqlikdagi aniqlik bilan o'lchash mumkin bo'lsa, u holda birinchi va ikkinchi hosila naflilik ma'nosini kasb etadi; birinchi hosilaning miqdori eng yuqori naflilikning ko'rsatkichi hisoblanadi, manfiy belgili ikkinchi hosila esa eng yuqori nafni kamaytiruvchi qonunning amal qilishini anglatadi.

Ekspert baholaridan tashqari, transaksiya xarajatlarining nisbiy miqdori va tashkiliy tuzilmaning optimallik darajasi haqidagi axborot manbai bo'lib, buxgalteriya hisobotlarining, birinchi galda balans hamda foyda va zararlar haqidagi hisobot (daromadlar haqidagi hisobot)ning ma'lumotlari xizmat qilishi mumkin. Balansdan foydalanishning bunday yo'nalishi, asosan, firmaning kreditga layoqatliligini imkoniyatli kreditorlar nuqtayi nazaridan baholashga qaratilgan moliyaviy tahlilning oddiy texnologiyasidan farq qiladi. **Institutsional tahlil** uchun biz taklif etayotgan balansdan foydalanish metodologiyasi, albatta, to'liq emas, shuning uchun unga nisbatan mutlaq aniq va to'la-to'kis xususiyatga da'vogarlik qilmaydigan xomaki variant singari munosabatda bo'lish lozim.

Buxgalteriya hisobotining institutsional tahlilidagi dastlabki nuqta sifatida biz daromadlar haqidagi hisobot asosida aniqlanadigan firma mahsulotini sotish narxining tarkibi «axborotning uchta xilini: tashkilotning ichki tafsilotlari haqidagi, bozordagi raqobat darajasi haqidagi va firma strategiyasi haqidagi axborotni sintez qiladi», degan tezisni qabul qilamiz. Haqiqatan ham, tannarx tarkibi nafaqat ishlab chiqarish va texnologik xarajatlarni, balki tashkilot *ichida* yuzaga keladigan transaksiya xarajatlarini ham aks ettiradi. Ikkinchi tomondan, daromadlar tarkibi firma faoliyat ko'rsatadigan *tashqi muhit* haqidagi: talabning holati va dinamikasi, raqobatchilar

tovarlarining narxi va sifati, raqib firmalarning savdo tajovuzkorligi darajasi, mazkur sektorda transaksiya xarajatlarining miqdori haqidagi axborotni ham o'zida mujassam etadi.

Tashkilotni amaliy tahlil qilishga kelishuvlar nazariyasi ham o'z ulushini qo'shadi. Uning yordamida tashkilot ichidagi nizolar tabiatini, optimal shartnoma nazariyasi va transaksiya xarajatlari nazariyasining tarafdorlari taklif etganidek, «**prinsipal**» va «**agent**» manfaatlarining qarama-qarshi qo'yilishiga yo'yish mumkin emas. Kelishuvlar nazariyasi tashkilot tuzilmasining *murakkabligidan* kelib chiqadi – u turli xildagi kelishuvlar unsurlarini o'z ichiga oladi. Odatda, har qanday tashkilotning faoliyat ko'rsatishi kamida quyidagi kelishuvlar imperativiga javob berishi lozim: bozor, industrial, an'anaviy, fuqarolik, ijodiy faoliyat va ijtimoiy fikr. Har qanday tashkilot, hatto foyda ko'rmay ishlayotgan korxonada ham, o'zining daromadlarini xarajatlarga muvofiqlashtirishi va o'zining moliyaviy majburiyatlarini bajarishi zarur (bozor kelishuvining unsurlari). Har qanday tashkilotni boshqarishda mehnatni ilmiy tashkil qilish va, o'z navbatida, industrial kelishuv unsurlaridan foydalaniladi. Tashkilot ichida o'zining alohida madaniyati, eskilik to'plamining shakllanishi uning faoliyatida an'anaviy kelishuvlar unsurlarining paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Tashkilotda «agentlar» birlashgan manfaatlari - kasaba uyushmasi vakilining ishtiroki, shuningdek, tashkilot *ichki* hayotining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga bo'ysunishi fuqarolik kelishuvi imperativini o'zida aks ettiradi. Tashkilotning ishbilarmonlik doiralaridagi obro'si yoki iste'molchilar o'rtasida uning tovar belgisining mashhurligi bizni ijtimoiy fikr imperativiga amal qilishga undaydi. Va nihoyat, keng ma'nodagi innovatsiyalarga intilish (yangi tovar yoki xizmatlar ishlab chiqarishdan tortib to tashkiliy tuzilmani optimallashtirishgacha) tashkilotning faoliyat ko'rsatishida ijodiy faoliyat imperativini aks ettiradi. Shunday qilib, tashkilot asosida turli imperativlar o'rtasidagi *nizolar* yotadi.

Mulkchilik huquqlari nazariyasi har qanday tashkilotni mulkchilik huquqlarining ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishini belgilab beruvchi shartnomaga olib keladi. «**Firma**» atamasi shartnoma kelishuvlari asosida faoliyatni tashkil etishning qisqartirilgan ta'rifi hisoblanadi. Kouz nazariyasiga muvofiq erkin almashuv natijasida erishilgan huquqlar taqsimoti eng optimal variant

(transaksiya xarajatlari nolga teng) bo'lib, o'zaro hamkorlik ishtirokchilari uni o'zgartirishdan manfaatdor emaslar. Shu sababli tashkiliy tuzilmani amaliy tahlil qilish uchun mulkchilik huquqlari nazariyasini qo'llashga bo'lgan qiziqish shu bilan shartlanganki, haqiqatda transaksiya xarajatlari nolga teng emas, demak, huquqlar taqsimoti resurslardan foydalanish samaradorligiga *ta'sir ko'rsatadi*. Mulchilik huquqlari nazariyasi tashkilot faoliyatining o'ziga xosligiga qarab mulkdorlar o'rtasida huquqlar taqsimotining eng optimal variantini tanlashga yordam beradi. Bundan tashqari, korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli to'g'risidagi ma'lumotlar asosida sheriklarni tanlash imkoniyati ochiladi.

Ulushli mulk huquqi esa quyidagi subyektlar o'rtasida taqsimlanadi: uning ishtirokchilari, ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi, ijro etuvchi organ va davlat. Qonunda qayd etilgan huquqlarning bunday taqsimlanishi iqtisodiy faoliyatni ta'minlash nuqtayi nazaridan qanchalik optimalligiga oid savolga javob berish uchun tashkiliy-huquqiy shaklni tanlash mezonlaridan foydalanish mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shaklni tanlash mezonlari sifatida quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi.

1. Mulkiy huquqlarning tafsirlanish (aniq va bir xil ma'noda belgilanish) darajasi.

2. Egalik qilish va qoldiq qiymatni olish huquqlarining iqtisodiy subyektlararo taqsimlanishi.

3. Huquqlar to'plami doirasini o'zgartirishga nisbatan cheklovlar mavjudligi.

4. Mulkiy huquq triadasining turli iqtisodiy subyektlarga («*Prinsipal*» va «*agent*») tegishliligi.

5. Xatarlarni bo'lish va o'tkazish darajasi.

6. Kapitalni jamg'arish darajasi.

Tashkiliy-huquqiy shakl nafaqat firmaning tashkiliy tuzilishi haqidagi, balki shartnomani amalga oshirish jarayonidagi ehtimoliy xatti-harakati haqidagi axborotni ham o'zida mujassam etadi.

**Garov shakllari.** Shartnoma majburiyatlarining bajarilishini kafolatlash uchun bitim tomonlari an'anaviy tarzda garovdan foydalanadi.

***Mulkning rasmiy va haqiqiy tarkiblarini muvofiqlashtirish shakllari.*** Tashkiliy-huquqiy shakl mulk huquqlari to'plamining rasmiy - qonunda qayd etilgan va haqiqiy konfiguratsiyasini muvofiqlashtirishning ehtimoliy variantlari haqidagi axborotni ham o'zida mujassam etadi. Ushbu axborot qayta tashkil etilgan mulk asosida faoliyat ko'rsatuvchi o'tish xilidagi korxonalar (*O'* korxonalar)ga nisbatan muhim ahamiyat kasb etadi. Evristik tarzda tashkiliy-huquqiy shakl va mulk huquqlari to'plamining rasmiy - qonunda qayd etilgan va haqiqiy tarkiblarini muvofiqlashtirish ehtimoli o'rtasidagi quyidagi bog'liqliklarni ifodalash mumkin.

Birinchidan, qonunda huquqlar qanchalik kam tafsirlangan bo'lsa (1-mezon), «agentlar» (ijroiya organi) opportunisti va ular tomonidan firmaning faoliyati ustidan nazorat qilish funksiyalarining o'zlashtirilishi ehtimoli shunchalik yuqori. Ikkinchidan, korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli «prinsipal-agent» muammosini hal etish mexanizmlarining qanchalik kam sonidan foydalanishga yo'l qo'ysa (4-mezon), «Agentlar» tomonidan real nazorat qilish ehtimoli shunchalik yuqori.

#### **12.4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda jamoatchilik darajasidagi institutlarni tadqiq qilish**

Davlatni fuqarolar bilan davlat apparati o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma orqali ta'riflash «prinsipal-agent» muammosini oldingi o'ringa suradi. Bu yerda birinchi galda kim «prinsipal» va kim «agent» ekanligini aniqlab olish talab etiladi. Javob umuman aniq emas. Fuqaro ham, davlat ham ikki taraflama rol o'ynaydi. Bir tomondan, fuqaro davlatga ayrim funksiyalarning bajarilishini yuklagan holda uning tarkibini belgilaydi, ya'ni u «prinsipal», davlat esa «agent» hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, fuqaro «agent» rolda ishtirok etib, shartnomalar bajarilishining kafili sifatida davlatning qarorlariga bo'ysunadi. J.Byukenen ushbu ikki taraflamalilikni «bo'ysunuvchining paradoksi» deb nomlagan: inson o'zini bir vaqtning o'zida ham davlat boshqaruvining ishtirokchisi – obyekt sifatida, ham o'zi tanlamagan xatti-harakat me'yorlariga amal qilishga majbur etiladigan subyekt sifatida qabul qiladi.

«Prinsipal-agent» modeli davlatning faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq quyidagi xavf-xatarlarni aniqlash imkonini beradi. Birinchidan, davlat o'z nazorati sohasini tomonlar bilan aniq kelishilgan bitimlar doirasidan tashqariga ham yoymaydimi, degan xavf-xatar haqida 1651– yildayoq mashhur ingliz faylasufi Tomas Gobbs o'zining aynan «Leviafan», deb nomlanuvchi kitobida ogohlantirgan edi. Ikkinchidan, bir tomondan, davlat kuch ishlatishni qo'llash uchun monopoliya huquqidan foydalangan holda, fuqarolarning manfaatlarini inkor etmaydimi? Ikkinchi tomondan, fuqarolar davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar haqini to'lashdan bosh tortishga urinib, huddi jamoat transportidagi oddiy chiptasiz kimsa kabi, o'zlarini opportunistlarcha tutishmaydimi? Chunki davlat xizmatlari va jamoat transporti xizmatlari ijtimoiy farovonlik xususiyatiga ega.

Shartnomaviy davlatning qisqacha ta'rifi shunday bo'ladi: bu – faqat unga fuqarolar tomonidan topshirilgan huquqlar doirasida va ularning manfaatlari yo'lda kuch ishlatish monopoliyasidan foydalanuvchi davlat, fuqarolar esa soliqlarni to'lashga majburiyat deb emas, balki o'z zimmasiga ixtiyoriy ravishda olingan majburiyat sifatida qaraydi.

Qanday sharoitda shartnomaviy davlat mavjud bo'ladi?

1. *Davlat faoliyatining aniq konstitutsiyaviy doiralarining mavjud bo'lishi.* Konstitutsiyada shaxslar tomonidan davlatga topshiriladigan va hech bir sharoitda begonalashtirilishi mumkin bo'lmagan huquqlar eksplitsit tarzda kelishilgan.

2. *Fuqarolarning davlat faoliyatida ishtirok etishi mexanizmlarining mavjud bo'lishi.* Fuqarolar davlat faoliyatida ishtirok etishining siyosiy mexanizmlari jumlasiga demokratik tartibotlar kiradi.

3. *Mulkchilik huquqlarini taqsimlashning asosiy muqobil mexanizmi sifatida bozor institutining mavjud bo'lishi.* Davlat mulkchilik huquqlarining bozorda nolli transaksiya xarajatlari chog'ida erishilishi mumkin bo'lgan tarzda taqsimlanishiga erishishni ko'zlaydi. SHuning uchun davlat vaqti-vaqti bilan bozorga taqqoslanmagan holda faoliyat ko'rsata olmaydi.

4. *Mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish muqobil mexanizmlarining mavjudligi.* «Ovoz»dan foydalanish, ya'ni fuqarolarning davlatning faoliyatida ishtirok etishi bilan bir qatorda «chi-

qish» - shaxslarning shartnomalar bajarilishining boshqa kafillariga murojat etishining muqobil variantlari ham mavjud bo'lishi kerak.

Shartnomaviy davlatdan farqli o'laroq ekspluatatorlik davlati o'z daromadini (soliq tushumlarini), aniqrog'i, davlat apparatini nazorat qiluvchi guruhning daromadini oshirish uchun majbur qilish monopoliyasidan foydalanadi. Ekspluatatorlik davlatining mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilishdagi asosiy maqsadi «mulkning boshqaruvchi rentasini oshiruvchi tarkibiga» erishishdan iborat, hatto agar bunga umuman jamiyat farovonligiga ziyon yetkazib erishilsada.

**Ekspluatatorlik davlati** faoliyatidan ko'riladigan zararni faqat og'ir soliqlar (nohaq yig'imlar) va mulkchilik huquqlarini taqsimlash *muntazam* va *oldindan aytib bo'ladigan* xususiyatga ega bo'lgan taqdirda qisqartirish mumkin.

Ekspluatatorlik davlatining faoliyat ko'rsatishida majbur qilish salohiyatining fuqarolar o'rtasida taqsimlanishi muhim rol o'ynaydi. Chunki aynan shaxs yoki kuch ishlatining katta imkoniyatiga ega bo'lgan guruh davlat apparatini nazorat qiladi va kuch ishlatishni qo'llash monopoliyasini qo'lga kiritadi. Aynan shuning uchun harbiy texnologiyaning rivojlanishi ekspluatatorlik davlati faoliyatining asosiy omillaridan biriga aylanadi. Bu esa, o'z navbatida, uning ichki beqarorligini nazarda tutadi. Haqiqatdan ham, harbiy texnologiyaning o'zgarishi kuch ishlatish salohiyatining turli aholi guruhlari o'rtasida qayta taqsimlanishiga, demak, davlat apparatini nazorat qiluvchi guruhning almashishiga olib keladi. Davlatning ekspluatatorlik modelidan shartnomaviy modelga o'tish ham mumkin. Bundan davlat qurilishi dinamikasining, demak, mulkchilik huquqlari tarkibi dinamikasining tebrantirib turuvchi xususiyati haqidagi taxminlar kelib chiqadi. Rentani undirishga yo'naltirilgan tizimdan keyin samaradorlikni oshiruvchi tizim kelishi muqarrar va aksincha.

Davlatning turini aniqlash (shartnomaviy yoki ekspluatatorlik) davlat budjetining tarkibini tahlil qilish imkonini beradi. Firmaning balansi kabi davlat budjeti ham institutsional tahlil uchun zarur bo'lgan yetarli miqdordagi axborotni beradi. Talab etiladigan ma'lumotlar qabul qilingan va real ijro etilgan davlat budjeti daromadlar va xarajatlar qismlarining qator moddalarida mujassamlangan. Bundan tashqari, agar budjet taqchilligi mavjud bo'lsa, uni qoplash usullari davlatning muhim tavsifi hisoblanadi. Davlatni u yoki bu xilga



kiritishning **birinchi mezon** – bu daromadlar turli moddalarining nisbati. Soliqdan tashqari tushumlarning ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi shunchalik faol bo‘ladi – bunday holatda uning roli shartnomalar bajarilishining oddiy kafili doirasidan tashqariga chiqadi. Budjet soliqdan tashqari daromadlari ulushining dinamikasi barqaror tendensiyaning mavjudligi haqida gapirish imkonini bermaydi.

**Ikkinchi mezon** – davlat xarajatlarning tarkibi va birinchi navbatda real moliyalangan hamda davlat budjeti to‘g‘risidagi qonunda qayd etilgan xarajatlar nisbati. Ekspluatatorlik davlatida uning majbur qilish salohiyatini saqlab qolish va kuchaytirish bilan bog‘liq xarajatlar («kuch ishlatuvchi» vazirliklarni saqlab turish xarajatlari) hamda bevosita davlat apparatini saqlab turish uchun yo‘naltirilgan xarajatlarni moliyalashning ustuvorligi o‘rin tutadi. Mudofaa, huquqni muhofaza qilish faoliyati va davlat apparati xarajatlarni katta tayyorgarlik bilan amalga oshiradi. **Uchinchi mezon** – budjet taqchilligini moliyalash usullari. Budjet taqchilligini qoplashning uchta asosiy usuli – Markaziy bankning hukumatga kreditlari, tashqi va ichki qarzlardan ekspluatatorlik davlati birinchisini afzal ko‘radi.

### 12.5. Sug‘urta tashkilotlari va boshqa institutlar



*“Men sug‘urta to‘lovlari tufayli xonavayron bo‘lgan oilalarni bilmayman, lekin to‘lovlar qilinmaganligi sababli xonavayron bo‘lgan oilalarni bilaman.”*

*Uinston Cherchill*

**Sug‘urta** – mol-mulk, sog‘liq yoki hayot, biznes va qiymatga ega bo‘lgan boshqa yo‘nalishdagi xatarlarning moliyaviy himoyasidir. Sug‘urta **majburiy** yoki **ixtiyoriy** bo‘ladi.

**Misol sifatida, avtomobil sug‘urtalashni ko‘rib chiqamiz:**

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish:

1. birovning avtomobiliga zarar yetkazilganda javobgarligingizni sug'urta qiladi;

2. jabr ko'rgan begunoh shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash tartibi bo'yicha g'amxo'rlik qilish orqali muhim ijtimoiy rolga ega;

3. avtomobilning quvvati va foydalanish hududiga qarab belgilangan hamda sug'urta to'lovining qat'i miqdoriga ega.

#### ***Avtomobilni ixtiyoriy sug'urta qilish (KASKO):***

- yo'llar, avtomobillar turargohi va boshqa joylarda har qanday yo'l hodisalari tufayli avtomobilingizga yetkazilgan zararni sizning aybingiz bo'lganligi yoki bo'lmaganligidan qat'i nazar qoplashni ta'minlaydi;

- avtomobil egalarining mulkiy huquqlarini himoyalash va qo'riqlash orqali ularning shaxsiy manfaatlari himoyasida turadi;

- polis narxi turli tashqi o'zgaruvchan omillarga qarab belgilanmaydi;

- sug'urta qoplamasi sug'urta shartnomasining miqdoriga bog'liq, ammo sug'urtalangan transport vositasining to'liq qiymatidan oshib keta olmaydi.

O'zbekistonda sug'urta bozori regulyatori **Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi** bo'lib, sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari faoliyatini litsenziyalaydi, sug'urta to'lovlarining normativlari va mexanizmlarini hamda ularni hisoblash tartibini ishlab chiqadi.

Sug'urta bozorining ikki asosiy ishtirokchisi mavjud: **sug'urta qiluvchi** va **sug'urta qildiruvchi**.

**Sug'urta qiluvchi** – risklarni o'ziga oluvchi va sug'urta kompensatsiyasini to'lovchi kompaniya.

**Sug'urta kompaniyalari – jismoniy (fuqarolar) va yuridik shaxslar (korxonalar) xatarlarini tuzilgan shartnoma asosida sug'urtalovchi moliyaviy tashkilotning maxsus turi.**

1 – yanvar 2021 – yil holatiga ko'ra O'zbekiston sug'urta bozorida 40 ta sug'urta kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda.

**Sug'urta qildiruvchi** - sug'urtani qabul qiluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

Sug'urta bozori ishtirokchilari sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi agent va broker vositachilari orqali ham faoliyat yuritishlari mumkin. Ular sug'urta mukofotining muayyan ulushini komissiya (xizmat

haqqi) sifatida oladilar (sug'urta qildiruvchi shartnoma bo'yicha beradigan badal).

**Agentlar** litsenziyaga muhtoj emas, ular sug'urta kompaniyasi nomidan ish yuritadi va albatta, uning manfaatlarini himoya qiladilar.

**Brokerlar** litsenziyaga ega bo'lishlari va mustaqil ishlashlari kerak, ya'ni turli xil sug'urta kompaniyalarni taklif qilish orqali mijozning ehtiyojlarini optimal darajada qondiradilar.

Sug'urta zaxirasini ko'paytirish uchun sug'urta kompaniyalari sug'urta qildiruvchilarning mablag'larini taqsimlash bilan shug'ullanadilar. Sug'urta kompaniyasining daromad manbai uning investitsion faoliyati hisoblanadi. U yiqqan pul mablag'lari, kelgusi to'lovlar uchun mo'ljallangan sug'urta zaxiralarining miqdori hisoblanadi. Bu pul mablag'larini sarflash mumkin emas, lekin ularni daromad olish maqsadida omonatlar sifatida banklarda joylashtirish orqali ishlatish mumkin.

**Sug'urta kompaniyalari tomonidan qanday sug'urta turlari taqdim etiladi?**

**Sug'urta kompaniyalari tomonidan aholi va tadbirkorlarga ko'rsatilayotgan asosiy xizmatlaridan biri:**

- Transport vositalarini sug'urtalash;
- Tibbiy sug'urta;
- Yuklarni sug'urtalash;
- Ipoteka sug'urtasi;
- Mol-mulkni sug'urtalash va boshqalar.

**Sug'urta kompaniyasini tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?**

**Litsenziya.** Sug'urta kompaniyasining sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega yoki yo'qligini tekshiring. Buni O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar Portali saytida amalga oshirish mumkin. «Sug'urta qiluvchi va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun amaldagi litsenziyalar reestri» jadvalini ko'rib chiqing.

**Tariflar.** Sug'urta tariflari qonun hujjatlarida belgilangan talablarga javob berishi kerak. Juda past tariflar firibgarlik belgisi bo'lishi mumkin. Polisning taxminiy qiymati sug'urta kompaniyalari veb-saytlarida onlayn-kalkulyator orqali hisoblanishi mumkin. Turli kompaniyalar xarajatlarini hisoblab va natijalarini solishtirib ko'ring.

E'tibor bering: shartnomada nazarda tutilgan risklar qancha ko'p bo'lsa, sug'urta narxi shuncha yuqori bo'ladi.

**Shartlar.** Sug'urta shartlarini diqqatlik bilan o'qib chiqing. Sug'urta polisidan tashqari sug'urta shartnomasini albatta ko'rib chiqing. Sug'urta hodisasi belgilari keltirilgan bandiga alohida e'tibor bering. Sug'urta nimalarni qoplamasligini bilib oling. Turli vaziyatlarda zararni qoplash tartibini aniqlashtirishni unutmang va kompensatsiya to'lash muddatlari haqida so'rang.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

**Institut** – bu, jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilab beruvchi rasmiy qoidalar va norasmiy normalar tizimi.

Insonlar tomonidan barpo etiladigan va o'zaro hamkorlikni tarkiblovchi siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy me'yorlar va qoidalar.

**Institut oprovayder** – neoinstitutsional nazariya doirasida – ishlab chiqarish institutlari va kelishuvlar ishlab chiquvchisi va tarqatuvchisi rolini, institutlar inkubatori rolini (tegishli institutsional muhitda yangi institutlarni etishtirish), yakka tartibdagi institutsional integrator rolini (ushbu normaga amal qiluvchilar tarkibiga yangi individlarni jalb qilish) bajargan holda neoinstitutsional tarkibga ta'sir ko'rsatuvchi tashkilot.

**Institutsional matritsa** – bu tarixan barqaror shakllangan, dastlabki davlatlarning paydo bo'lishini va barcha keyingi institutsional tuzilmalarning rivojlanishini belgilab bergan, o'z navbatida, mohiyati hamon saqlanib qolgan birlamchi modelni takror yaratishga xizmat qiluvchi bazaviy ijtimoiy institutlar tizimi.

**Norma** – institutsional muhitda individlarning o'z tanlovini amalga oshirishda foydalaniladigan asosiy unsur hisoblanadi

**Rasmiy qoidalar** – konstitutsiyalar, qonunlar, sud qarorlari, ma'muriy hujjatlar.

**Institutlar** – iqtisodiy subyektlar xarakatini cheklovchi, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi me'yorlar, qoidalar hamda ushbu me'yor va qoidalarni bajarilishini nazorat qilish mexanizmlari.

**Nesh bo'yicha muvozanat** – o'yinchilarning hech biri o'z harakatlari rejasini o'zgartirgan holda o'z yutug'ini bir tomonlama oshira olmaydigan vaziyat.

**Pareto bo'yicha muvozanat** – o'yinchilardan birining holatini, ikkinchi o'yinchining holatini yomonlashtirmagan holda, yaxshilab bo'lmaydigan vaziyat.

**Ustun strategiyali muvozanat** – boshqa ishtirokchining harakatlaridan *qat'i nazar ishtirokchiga* maksimum foydalilikni ta'minlovchi harakatlar rejasi

**Shtakelberg bo'yicha muvozanat** – hech bir o'yinchi o'z yutug'ini bir tomonlama tartibda oshira olmaydigan vaziyat. Bunda qaror dastlab birinchi o'yinchi tomonidan qabul qilinadi, so'ngra ikkinchi o'yinchiga ma'lum bo'ladi.

**O'yin ishtirokchisining strategiyasi** – har bir o'yin ishtirokchisining ziddiyatli vaziyatlarni hal etish borasidagi harakat dasturi o'yin ishtirokchisining strategiyasi deyiladi.

**Kooperativ (koalitsiyali) o'yinlar** – ishtirokchilar o'rtasida axborot almashish va ittifoq tuzish mumkin bo'lgan vaziyatlar.

**Nokooperativ (koalitsiyasiz)** - o'yinlarda yakka ishtirokchi tahlil qilishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi, bunda ishtirokchilar o'rtasida axborot almashish va ittifoq tuzish mumkin emas.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Institut tushunchasi va ularning asosiy tavsifini izohlab bering?
2. Institut asosiy tushucha sifatida?
3. Institutlar va qoidalarni tushuntirib bering?
4. Institutlar tipologiyasi nima?
5. Institutlar va tashkilotlar o'rtasida qanday farq bor?
6. Rasmiy va norasmiy normalar va ularning shakllanishi?
7. Institutsional matritsa?
8. Institutsional o'zgarishlar va institutlarning o'zaro bog'liqligi?
9. Matritsalarining asosiy va qo'shimcha institutlarning muayyan to'plami bilan tavsiflanuvchi nechta xili mavjud?
10. Norma amal qilishi uchun talab etiladigan tarkib nechta unsurdan iborat va ularni sanab bering?
11. Nima uchun institutsional nazariyada matematik apparat neoklassikasi uchun an'anaviy hisoblangan matematik apparat tilidan emas, balki o'yinlar nazariyasidan foydalaniladi?

12. Individlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning qaysi asosiy muammolari o'yinlar nazariyasi yordamida modellashtiriladi?

13. Kooperativ va nokooperativ nazariyalarning xususiyatlarini izohlang?

14. Ustun strategiyali muvozanatni sharhlab bering?

15. Nesh bo'yicha muvozanatni sharhlab bering?

16. Shtakelberg bo'yicha muvozanatni, Pareto bo'yicha muvozanatdan farqini tushuntiring?

17. O'yin ishtirokchisining strategiyasi deb nimaga aytiladi?

18. O'yinlar nazariyasi tarkibiy jihatdan qanday nazariyalarni o'z ichiga oladi?

## **13-BOB. SIYOSAT, BOSHQARUV VA SIYOSIY IQTISOD**

### **13.1. Siyosat, boshqaruv, siyosat va rivojlanish.**

**13.2. Aralashuvning asoslari va siyosatni tuzish, siyosatni amalga oshirishni samarali boshqarish.**

**13.3. Boshqarishdagi muvaffaqiyatsizliklar.**

**13.4. Rivojlanishning siyosiy iqtisodi.**

### **13.1. Siyosat, boshqaruv, siyosat va rivojlanish**

Bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilganligi iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning uzviy aloqada bo'lishini taqozo qiladi. Iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyot uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni yaratib bersa, o'z navbatida ijtimoiy muammolarning hal etilishi inson kapitalining rivoji orqali iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Mana shunday bog'lanishning amaliy hayotda bo'lishi iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning uyg'unlashuvini talab qiladi.

Davlatning ijtimoiy siyosati-bu kishilarning hayotiy manfaatlarini yuzaga chiqarish, insonni himoya qilish va kamol topishiga qaratilgan siyosatdir. Uning maqsadi umumiy iqtisodiy farovonlikni oshirib borishga ko'mak berishdir. Bu siyosatda ish bilan bandlik darajasini belgilash, minimal ish haqini o'rnatish, kambag'allik chegaralarini aniqlash, tirikchilik minimumini belgilash, ijtimoiy yordam me'yorlarini aniqlash kabilarga ustuvorlik beriladi. Uning asosiy yo'nalishlari bandlik, daromad va ijtimoiy yordam siyosatidir. Bandlik siyosati - mehnatga layoqatli va ishlashni xohlagan kishilarni ish bilan ta'minlash, shu orqali ularga o'zini-o'zi iqtisodiy ta'minlash uchun imkoniyat yaratishni ko'zda tutadi. Bunda davlat mamlakatda yangi ish o'rinlarini yaratish, mavjud ish o'rinlaridan to'laroq foydalanib bandlikni oshirilishini ko'zda tutadi. Yangi ish o'rinlarini yaratgan korxonalariga soliqdan imtiyozlar yoki subsidiyalar beriladi. Shuningdek, yangi ish o'rnini yaratib, uni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlab, mehnat unumdorligini va shunga ko'ra daromadlarini oshirishga erishish rag'batlantiriladi. Bandlik muammosining keskinligiga qarab uni hal etishning u yoki bu yo'lga ustuvorlik beriladi.

Iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mamlakatlarda ishsizlar nisbatan ko'p bo'lganida bandlik siyosati har qanday ish o'rnini, hatto unumi past ish o'rinlarining yaratilishini ham ko'zda tutadi. Aksincha, iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda malakali mehnatni band qiluvchi unumi yuqori ish o'rinlarini, yaratishga e'tibor qaratiladi. O'zbekistonda bandlik siyosatida yangi ish o'rinlarini yaratishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohalari, dehqon va fermer xo'jaliklarida ish o'rinlarini yaratishga ustuvorlik beriladi. O'zbekistonda maxsus bandlik fondi mablag'lari hisobidan ish o'rinlari yaratiladi, ishsizlarga nafaqa beriladi va ular yangi kasblarga o'rgatiladi.

Davlat hisobidan moliyalashtiriladigan fondlar mablag'lari ham yangi ish o'rinlarini yaratishga yo'naltiriladi. Ishsizlik darajasi yuqori bo'lganda, uni kamaytirish uchun hukumat ishchi kuchini chetga chiqarish choralari ham ko'radi. Mehnat migratsiyasi xususida davlatlararo kelishuvlar tuziladi, migratsiyaga xizmat qiluvchi firmalar tashkil etilib, ular moliyalashtiriladi. Bandlik siyosatida barcha mehnatga qobiliyatli larni ish bilan ta'minlab, 100% bandlikka erishish ko'zlanmaydi. Mazkur siyosat rivojlangan mamlakatlarda mehnatga yaroqli aholining 94-95%i band bo'lishini bildiradi.

Daromadlar siyosati mazmunan daromadlarning taqsimlanishini tartiblashga qaratiladi. Bu siyosatda ijtimoiy soliqlar, ijtimoiy dotatsiyalar va budjet transfertlari kabi dastaklar qo'llaniladi. Bandlikni, qarilik nafaqasi bilan ta'minlanish va mehnatning ijtimoiy sug'urtalanishini ta'minlash uchun korxonalar mehnat haqi mablag'laridan ijtimoiy soliqlar undiriladi. Bularning bir qismi davlat tomonidan ishsizlik nafaqasi ish qobiliyatini vaqtincha yuqotganlarga to'lovlar sifatida beriladi. Daromad siyosati soliqlarni progressiv, ya'ni daromad miqdoriga qarab oshib borishi tarzida belgilanishini nazarda tutadi. Bunda davlat budjetida to'plangan mablag'lar muhtojlarga yordam sifatida taqsimlanadi. Daromad siyosati qariyalarni nafaqa bilan ta'minlashni ham nazarda tutadi. Bunda 2 xil nafaqa tizimi mavjud bo'ladi. Birinchisida, ishlayotganlar daromadining bir qismi olinib, davlat nafaqasi sifatida beriladi. Ikkinchisi, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi bo'lib, unga ko'ra har bir xodim ishlagan paytidagi daromadining bir qismini pensiya jamg'armasiga o'tkazish orqali pensiya mablag'ini o'zi to'plab boradi.



Ijtimoiy himoya siyosati aholining nochor qatlamlariga yordam berish, ularni qo'llab-quvvatlab turishga qaratiladi. Unga ko'ra o'zi ishlab pul topishga qodir bo'lmagan kishilarga budjet mablag'lari hisobidan moliyaviy yordam ko'rsatiladi. Daromadi kam kishilar soliqlardan ozod qilinadi, ularga turli nafaqalar beriladi yoki bir yo'la yordam ham ko'rsatiladi. Ijtimoiy yordam miqyosi muhtojlar soniga va davlatning moliyaviy imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda davlatning ijtimoiy siyosati aholining muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratiladi. Davlat kommunal xizmatlarni aholiga maqbul narxda yetkazib berish uchun ularga qayd qilingan ta'riflar belgilanadi va bozor narxlari o'rtasidagi farqi budjet mablag'lari hisobidan qoplanadi. Ayrim hollarda mazkur xizmatlar narxi oshishi munosabati bilan aholi ayrim toifalariga kompensatsiyalar to'lanadi.

Davlat turli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqib, ularni moliyalashtiradi. Bular ichida kam ta'minlanganlarga yordam berish dasturlari alohida o'rin tutadi. Bu dasturlarda kam ta'minlanganlarga nafaqa berish, ularni arzon uy-joy va ish bilan ta'minlash, bepul tibbiyot xizmatlarini ko'rsatish, yangi kasblarga tayyorlashga ustuvorlik beriladi.

Ijtimoiy siyosat jamiyatdagi tengsizlikning haddan tashqari oshib ketishiga yo'l qo'ymaslikka qaratiladi. Bunda aholining haddan tashqari boy-badavlat va qashshoq-kambag'al qatlamlarga ajralishining oldi olinadi. Daromadlarning yuqori va kam ta'minlanganlar o'rtasida qayta taqsimlanishi orqali tengsizlik qisqartiriladi. Bunda daromadlarning farqlanish chegarasi belgilanadi. Bunga ko'ra boylar va kambag'allar daromadi o'rtasidagi farq 13-15 barobardan oshmasligi kerak. Aytilgan tengsizlik me'yori maqbul hisoblanadi, ijtimoiy siyosat shuni e'tiborga oladi. "O'zbekistonda eng past va eng yuqori daromad oladigan aholi guruhlari o'rtasidagi tafovut darajasi so'nggi yillarda 8 barobarga to'g'ri kelmoqda". Ijtimoiy siyosat daromadlarni tartiblash va ijtimoiy yordam berish orqali jamiyatdagi, turli ijtimoiy guruhlar hamjihatligini ta'minlashga qaratiladi. Bu bilan ijtimoiy beqarorlikning oldi olinadi va iqtisodiy o'sish uchun sharoit yaratiladi.

### **13.2. Aralashuvning asoslari va siyosatni tuzish, siyosatni amalga oshirishni samarali boshqarish**

Milliy iqtisodiyotning samaradorligi ko'p omilli ko'rsatkich bo'lib, bunda uning erishilgan darajasi ko'p jihatdan iqtisodiyotda davlat yoki bozor tizimining tutgan o'rniga bog'liq. Chunki ancha yuqori samaradorlikka, birinchidan, bozorning tartibga solish usullari orqali; ikkinchidan, iqtisodiyotni faqatgina yagona markazdan markazlashgan boshqarish yo'l bilan; uchinchidan, iqtisodiyotga davlatning aralashuvini bozor usullari bilan uyg'unlashtirish orqali erishiladi. Kishilik jamiyatining ilk davrlaridanoq davlatning iqtisodiyotga aralashuvi muammosi paydo bo'lgan. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi va pulning paydo bo'lishi sudxo'rlik kapitalini vujudga keltirgan. Sudxo'rlik o'zining yuqori foizlari bilan tovar ishlab chiqaruvchilarni xonavayron qilib, davlatni qashshoqlashishiga olib kelgan. Bu o'z navbatida davlatning o'zini va soliq to'lovchilarni himoya qilishga majbur etgan. Qadimgi Bobilda qabul qilingan Eshnun va Xammurapi qonunlari bunga misol bo'la oladi. Buyuk jug'rofiy kashfiyotlar davrida G'arbiy Yevropa mamlakatlarning mustamlakalarni bosib olish siyosati ham davlatning iqtisodiyotga aralashuvini taqozo qilgan. Chunki bunda, birinchidan, mustamlaka aholisini itoatda ushlab turish; ikkinchidan, mustamlakalarni boshqa davlatlardan himoya qilish zarurati paydo bo'lgan. XX asr boshlarida, ko'plab mamlakatlar birinchi jahon urushining ishtirokchilari bo'lganligi sababli, davlat iqtisodiyotni boshqarish bo'yicha bir qator vazifalarni o'z zimmasiga olgan. U resurslar va ishchi kuchini taqsimlagan, yirik monopolistlarga mamlakat uchun zarur bo'lgan ko'plab zaruriy tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha buyurtmalar bergan. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi asosan 1929–1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozidan keyin kuchaygan. U iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatishning har xil usullarini qo'llab, siklga qarshi tartibga solishni amalga oshirgan. Iqtisodiy tafakkur tarixidan birinchi marta davlatning iqtisodiyotdagi o'rnini masalasi A.Smit tomonidan ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Uning “Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini tadqiq qilish haqida” (1776 – yil) nomli kitobida bozor usullari orqali iqtisodiyotning o'z-o'zini tartibga solish zarurligi ta'kidlab o'tilgan. A.Smitning fikricha, xususiy tovar ishlab

chiqaruvchilar bozori davlat nazoratidan to'liq ozod bo'lishi zarur. Ana shundagina ishlab chiqaruvchilar iste'molchilar talabiga mos ravishda ishlab chiqarishni tashkil qilish imkoniga ega bo'ladi. Bunda bozor vositasida tartibga solish, har qanday chetdan aralashishsiz ishlab chiqaruvchilarni butun jamiyat manfaatlari uchun harakat qilishga rag'batlantiradi. A.Smit davlatning iqtisodiy jarayonlariga har qanday aralashuvi oxir-oqibatda faqat vaziyatni yomonlashtiradi deb hisoblaydi. Masalan, davlat tomonidan belgilangan tashqi savdo tartib – qoidalari milliy iste'molchilarga faqat zarar keltirishi mumkin. Haqiqatan ham importga boj to'lovi milliy ishlab chiqaruvchilarga ustunlik berib, ularning chet el sheriklariga nisbatan raqobatlashuv qobiliyatini oshiradi. Ammo bu oxir oqibatda ishlab chiqarishning ancha yuqori xarajatlari va mahsulotning past sifatini saqlab qolishiga olib keladi. Bunda past sifatli va narxi qimmat tovarlarni sotib olishga majbur bo'lgan milliy iste'molchilar yutqazadi. A.Smitning "Tinch qo'yish" nazariyasi, 1923–1933-yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz davrida tanqidga uchradi. Iqtisodiy tanazzul va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kuchaytirishni taqozo qilishini ko'rsatdi. Davlatning iqtisodiyotdagi boshqaruvini oshirish masalasi M.Keynsning «Ish bilan bandlilik, foiz va pulning umumiy nazariyalari» nomli kitobida o'z aksini topdi (1936). U davlat fiskal va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag'batlantirishni va aholining ish bilan bandligini ta'minlashi zarurligini isbotlaydi. Urushdan keyingi davrda Keyns nazariyasidagi ko'rsatmalar u yoki bu darajada bozor iqtisodi amalda ustun bo'lgan barcha mamlakatlarda foydalaniladi. Shu bilan birga davlatning iqtisodiyotdagi o'rnining yanada ko'proq oshib borish holati ro'y berdi. Hozirgi davrda davlat tomonidan tartibga solishning muhim maqsadi sifatida nafaqat siklga qarshi tartibga solish va ish bilan bandlilikni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishning yuqori darajasini va yaxlit ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishni rag'batlantirish tan olinadi. XX asrning 70-yillariga kelib, iqtisodiy qarashlarning monyetarizm va uning «reygonomika», «tetcherizm» kabi ko'rinishlarida davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash g'oyasi ilgari surildi. Lekin bozorning o'z-o'zini boshqarishdagi kamchiliklari natijasida 2008 – yilda boshlangan jahon moliyaviy-

iqtisodiy inqirozi bu muammoga boshqacha ko‘z bilan qarashga majbur qildi. Angliyaning London shahrida 2008 – yilning 2 – aprelida bo‘lib o‘tgan jahonning eng rivojlangan 20 ta mamlakati rahbarlarining sammitida bir ovozdan davlat iqtisodiyotga aralashuvi zarur degan fikr o‘z tasdig‘ini topdi. Davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi vazifalari. Davlat iqtisodiy siyosatining maqsadi Davlat iqtisodiy munosabatlar ishtirokchisi hisoblanadi va ayni vaqtda bozor tizimi faoliyat qilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bozor iqtisodiyotida bu davlatning iqtisodiy vazifalarida ifodalanadi. Bular quyidagilar: • bozor iqtisodiyoti me’yorida faoliyat qilish uchun huquqiy asosni vujudga keltirish va takomillashtirish; • raqobatni himoya qilish; • daromad va boylikni oqilona qayta taqsimlash; • resurslarni qayta taqsimlash; • iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya’ni inflyatsiya va bandlik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish; • tashqi samarani tartibga solish. Davlat bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishning shart-sharoiti hisoblangan huquqiy asosni ta’minlash vazifalarini o‘z zimmasiga oladi. Bozor iqtisodiyoti uchun zaruriy, huquqiy asosni quyidagi tadbirlar taqozo qiladi: xususiy korxonalar qonuniy mavqeyini berish; xususiy mulkchilik huquqini aniqlash va shartnomalarga amal qilishini kafolatlash; korxonalar, resurslarni yetkazib beruvchilar va iste’molchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonuniy bitimlarni ishlab chiqish va shu kabilar. O‘zbekiston Respublikasining korxonalar, tadbirkorlik va aksionerlik jamiyatlar to‘g‘risidagi qonunlari hamda ularga kiritilgan qo‘shimcha va tuzatishlar, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo‘yicha tadbirlari bozor iqtisodiyoti uchun zaruriy, huquqiy asosni ta’minlashga qaratilgan. Davlat tomonidan ijtimoiy muhitni ta’minlash o‘z ichiga ichki tartibni saqlash mahsulot sifati va og‘irligini o‘lchashga andozalar belgilash tovarlar va xizmatlar ayirboshlashini yengillash-tirish uchun milliy pul tizimini muomalaga kiritish kabilarni oladi. Monopoliya raqobatning o‘rnini almashtirganda, sotuvchilar bozorga ta’sir ko‘rsatishi yoki undagi narxlarni o‘z manfaatlarini ko‘zlab o‘zgartirishi mumkin. Monopoliyalar o‘zlarining takliflari umumiy hajmini tartibga solish layoqatidan foydalanib, mahsulot hajmini sun’iy cheklash orqali ularga ancha yuqori narx belgilash va shu orqali

ancha barqaror foyda olishi mumkin. Bozor munosabatlari rivojlangan sharoitda monopoliyalar ustidan ikki usulda nazorat oʻrnatiladi. Birinchi usulda, texnologiya va iqtisodiy sharoitlar “raqobatli bozor” mavjud boʻlish imkoniyatini yoʻqqa chiqaradigan tabiiy monopoliyalar deb nomlanadigan tarmoqlarda davlat narxlarini tartibga soladi va koʻrsatiladigan xizmatlarga andozalarni oʻrnatadi. Transport, aloqa, elektr quvvati ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy foydalanishdagi korxonalar maʼlum darajada shunday tartibga solinadi. Ikkinchi usulda, samarali ishlab chiqarish juda koʻpchilik bozorlarda raqobat rivojining juda yuqori darajasida taʼminlanishi sababli davlat raqobatini kuchaytirish va himoya qilish maqsadida monopoliyalarga qarshi qonunlar qabul qiladi. Respublikamizda ham monopol faoliyatni cheklash, tovarlar bozorida raqobatni rivojlantirish, isteʼmolchilar va tadbirkorlar manfaatini himoya qilishga qaratilgan qator qonunlar qabul qilingan. Bozor tizimi kishilarning tabiiy qobiliyati, orttirgan bilimi va malakasi hamda mulkka egaligini hisobga olib, ularning yuqori daromad olishini taʼminlaydi. Shu bilan birga jamiyatning moddiy vositalarga ega boʻlmagan, bilim va malaka darajasi past, layoqati ham yuqori boʻlmagan aʼzolari, qariyalar, nogironlar, ishsizlar yolgʻiz va qaramogʻida bolalari boʻlgan ayollar juda kam daromad oladi yoki bozor tizimi doirasida ishsizlar kabi umuman daromadga ega boʻlmaydi. Qisqasi, bozor tizimi pul daromadlarini va milliy mahsulotni jamiyat aʼzolari oʻrtasida taqsimlashda birmuncha tengsizliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli davlat oʻz zimmasiga daromadlar tengsizligini kamaytirish vazifasini oladi. Bu vazifa bir qator tadbir va dasturlarda oʻz ifodasini topadi. Birinchidan, transfert toʻlovlari orqasi muhtojlarni, nogironlarni va birovning qaramogʻida boʻlganlarni nafaqalar hamda ishsizlarni ishsizlik nafaqalari bilan taʼminlaydi. Ijtimoiy taʼminot dasturlari orqali pensionerlar va qariyalarga moliyaviy yordam koʻrsatiladi. Bu barcha dasturlar davlat budjeti mablagʻlarini, jamiyatning kam daromad olgan yoki umuman daromadga ega boʻlmagan aʼzolari hisobiga qayta taqsimlaydi. Ikkinchidan, davlat bozorini tartibga solish yoʻli bilan, yaʼni talab va taklif taʼsirida oʻrnatiladigan narxlarni oʻzgartirish yoʻli bilan ham daromadlarning taqsimlanishiga taʼsir koʻrsatadi. Meʼyordagi oziq-ovqat tovarlariga oʻrnatiladigan imtiyozli narxlar va ish haqining eng kam (minimal) darajasi haqidagi

qonunchilik davlatning, aholining ma'lum qatlami daromadlarini oshirishga qaratilgan tadbirlarining yana bir misolidir. Davlat jamiyat a'zolari o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlashda soliq tizimidan ham keng foydalanadi (soliq imtiyozlari orqali). Bozor mexanizmining resurslarni qayta taqsimlashdagi layoqatsizligi ikki holatda ko'rinadi, ya'ni raqobatli bozor tizimi: 1) ma'lum tovarlar va xizmatlarning kam miqdorini ishlab chiqaradi; 2) ishlab chiqarishi o'zini oqlagan ayrim tovarlar va xizmatlarga resurslarning har qanday turini ajratish holatida bo'lmaydi. Resurslarning qayta taqsimlanishi tovarlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish bilan bog'liq foyda yoki zarar, uchinchi tomonga, ya'ni bevosita xaridor yoki sotuvchi hisoblanmaganlar tomonga "joyini o'zgartirsa" vujudga keladi. Bu qo'shimcha samara deb ataladi, chunki u bozor qatnashchisi hisoblanmaganlar hissasiga to'g'ri keluvchi foyda yoki zararni ifodalaydi. Bunga atrof-muhitning ifloslanishini misol qilib keltirish mumkin. Kimyo korxonasi o'zining sanoat chiqitlarini ko'l yoki daryoga oqizsa, bu cho'miluvchilar, baliqchilar va atrofdagi aholiga zarar keltiradi. Ishlab chiqaruvchi esa muhofaza inshoot va uskunalari o'rnatmaganligi hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarining ancha past darajasini ta'minlaydi. Davlat resurslarining nomutanosib taqsimlanishi vujudga keltiradigan bu holatlarni tartibga solish uchun qonunchilik tadbirlarini qo'llaydi yoki mahsus soliq va jarimalardan foydalanadi. Masalan, atrof-muhit va suv havzalarining ifloslanishini taqiqlovchi yoki cheklovchi qonunlar, ishlab chiqaruvchilarni o'zlarining sanoat chiqitlarini ishlab chiqarish jarayonida ifloslangan suvni tozalovchi qurilmalar sotib olish va o'rnatish bilan yo'qotishga majbur qiladi. Boshqa holda davlat maxsus soliqlarni kiritish yordamida, atrof-muhitni ifloslantiruvchi korxonalariga boshqalarga keltirishi mumkin bo'lgan zararni yuklashga harakat qiladi. Davlat bir qator yo'llar bilan resurslarning nomutanosib taqsimlanishi keltirib chiqaradigan oqibatlarini yumshatishga ham harakat qiladi. Birinchidan, iste'molchilarning aniq tovar va xizmatlarni xarid qilish qobiliyatini oshirish yo'l bilan ularning talabi kengaytirildi. Masalan, bizning Respublikamizda islohotlarning dastlabki davrida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni oshiradi va shu orqali resurslarning nomutanosib taqsimlanishini bartaraf qiladi. Ikkinchidan, davlat taklifini oshirish maqsadida ishlab chiqarishni subsidiyalashi mumkin. Subsidiyalar ishlab chiqaruvchilarning

zararlarini qisqartiradi va mahsulotlarni ishlab chiqarishda resurslarning yetishmasligi bartaraf qilinadi. Uchinchidan, davlat ayrim tovarlar va ijtimoiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchisi sifatida chiqadi. Bunday tarmoqlar davlat mulkchiligiga asoslanadi va davlat tomonidan bevosita boshqariladi yoki ularni moliyalashtirishni davlat o'z zimmasiga oladi. Bular fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, milliy mudofaa, favqulodda ro'y beradigan tabiiy hodisalarga qarshi kurash, ichki tartibni saqlash shular jumlasidandir. Davlat budjet mablag'lari hisobiga resurslarni hususiy sohada qo'llanilishdan bo'shatadi hamda ularni ijtimoiy ne'mat va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltirish mumkin. Shunday qilib, davlat mamlakat milliy mahsuloti tarkibida muhim o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadida resurslarni qayta taqsimlaydi. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni iqtisodiyotning barcha sohalarini resurslar bilan ta'minlash, to'liq bandlik va narxlarning barqaror darajasiga erishishda yordam berish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish davlatning eng muhim vazifasi hisoblanadi. Iqtisodiyotda to'liq bandlikni ta'minlash uchun umumiy sarflar, ya'ni xususiy va davlat sarflarining hajmi yetarli bo'lmasa, davlat bir tomondan ijtimoiy ne'matlar va xizmatlarga o'z xarajatlarini ko'paytiradi, boshqa tomondan xususiy sektorning sarflarini rag'batlantirish maqsadida soliqlarni qisqartiradi. Agar jami sarflar to'liq bandlik sharoitida taklif hajmidan oshib ketsa, bu narxlar darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Jami sarflarning mazkur ortiqcha darajasi inflyatsion xususiyat kasb etadi. Bunday holda davlat soliqlarni oshirish orqali xususiy sektor sarflarini qisqartirish va shu yo'l bilan ortiqcha sarflarni tugatishga harakat qiladi. Iqtisodiyotda ilmsizlik mavjud bo'lganda davlat sarflarining ko'payishi jami sarflar, ishlab chiqarish hajmi va bandlilikning o'sishiga olib keladi. O'z navbatida, soliqlarning qisqarishi yoki transfert to'lovlarining ko'payishi daromadlarni ko'paytiradi. Bu daromadlar shaxsiy sarflarning o'sishini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Davlat o'z ishlab chiqarishini moliyalashtirishdan tashqari ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotning bir qator dasturlarini amalga oshiradi, iqtisodiyotning xususiy va kooperativ sektorida daromadlarni qayta taqsimlaydi. Davlat tartibga soluvchi xususiyatga ega bo'lgan bir qator vaziyatlarni ham amalga oshiradi. Bularga atrof-muhitni himoya qilish, aholi sog'lig'ini saqlash, bo'sh ishchi o'rinlariga ega bo'lishning teng

sharoitini ta'minlash va ma'lum sohalarda narx belgilash amaliyoti ustidan nazorat qilish va shu kabilarni kiritish mumkin. Tashqi samara ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti nafaqat ijobiy, balki salbiy naflilikka ega bo'lgan ne'matlarni ham ishlab chiqaradi. Ulardan foydalanish yoki iste'mol qilish atrof-muhit ifloslanishiga olib keladi yoki kishilar sog'ligiga zarar yetkazadi. Ijtimoiy tavsifdagi ne'matlar ham borki, ular faqat davlat tomonidan ishlab chiqarilib, butun jamiyat a'zolari yoki alohida kishilar guruhi bahramand bo'lishi taqazo qilinadi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ikki yo'nalishda kechadi. Birinchidan, iqtisodiyotning davlat sektorini tashkil etuvchi korxonalar va tashkilotlar milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida tovar va xizmatlar yaratib bozor munosabatlarida ishtirok etadi. Ikkinchidan, davlat umumiy manfaatlarini ifodalovchi kuch sifatida milliy iqtisodiyotni tartiblashda ishtirok etadi. Respublikamizda yaqin istiqbolda ham: "iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkning huquqlarini himoya qilish va uning istiqbolli rolini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish" nazarda tutiladi. Bunda quyidagilarga ustuvorlik beriladi: davlat mulkini xususiylashtirish tartib-tamoyillarni yanada kengaytirish va soddalashtirish; xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish; davlat mulkini xususiylashtirilgan obyektlarning bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish; korporativ boshqaruvining zamonaviy standartlari va usullarini joriy etish; davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish; nodavlat, jamoat tashkilotlar va o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish Davlatning turli muassasalari iste'molchi sifatida bozordan resurslar va iste'mol tovarlarni sotib olganda xaridor sifatida bozor aloqalarida ishtirok etadi. Davlat korxonalarini bozorga o'z tovar va xizmatlarini taklif etadi va bozordagi resurslarga talab bildiradi. Har ikki holatda davlat bozor iqtisodiyotining subyekti vazifasini o'taydi. Biroq davlat bozorga nisbatan tashqi kuch sifatida ham maydonga chiqib butun iqtisodiyotni boshqarishda ishtirok etadi va bunda butun jamiyat nomidan ish ko'radi. Davlat korxonalarini va uy xo'jaliklari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni hamda tovarlar va resurslar bozorini tartibga soladi. Davlatning oilalarga beradigan turli transferlari ularning xarid



qobiliyatini oshiradi, bu esa o'z navbatida talabni shu orqali bozorni kengaytiradi. Davlat sektori korxonalarida yaratilgan tovar va xizmatlar taklifini oshiradi. Davlat sektori butun jamiyat uchun zarur bo'lgan xususiy korxonalar ishlab chiqarilmaydigan tovar va xizmatlarni yaratadi. Aksariyat hollarda davlat sektori ishlab chiqarish infratuzilmasi, yonilg'i-energetika, transport, yo'l va suv xo'jaligi, aloqa kabi sohalarni qamrab oladi. Ularning xizmatlari milliy iqtisodiyotning rivoji uchun zarur bo'lganligi sababli shu sohalar xarajatini qoplashni davlat o'z zimmasiga olib, iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi bozor mexanizmining amal qilishiga xalaqit qilmasligi, aksincha bunga sharoit yaratib, zarur bo'lganda bu mexanizmni to'ldirib turishi ham talab qilinadi. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotini tartiblashda bozor va davlat mexanizmi birgalikda amal qiladi. Biroq ularning nisbati iqtisodiyotdagi vaziyatdan kelib chiqib turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, Italiya, Yaponiya, Avstriya, Fransiya, Shvetsiyada davlatning roli kuchli bo'lsa, AQSH va Germaniyada bozor mexanizmi ustuvorlikka ega. Davlatning tartibga solish rolini iqtisodiyot rivojining umumiy holati ham belgilaydi. Iqtisodiyot barqaror o'sayotgan va bozor mexanizmi samarali ishlab turganidan davlat iqtisodiyotga kamroq aralashadi. Aksincha, iqtisodiyot inqirozli holatda bo'lganda davlat uning oqibatlarini yumshatishga qarata aralashuvi faollashadi.

### **13.3. Boshqarishdagi muvaffaqiyatsizliklar**

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko'lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat boshqaruvining mutlaqo yangi va samarali faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni talab qiladi. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash va davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish uchun elektron portallar va ma'lumotlar bazalari yaratildi. Xususan, ruxsat beruvchi hujjatlar va litsenziya olishni soddalashtirish uchun [www.license.gov.uz](http://www.license.gov.uz), "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishni ta'minlash uchun [birdarcha.uz](http://birdarcha.uz) veb-saytlari yaratildi. Davlat xizmatlarini qayta ko'rib chiqish va optimallashtirish natijasida tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olishning tartib-taomillari 4 martaga, ro'yxatga olish uchun zarur vaqt esa 30 daqiqaga qadar qisqartirildi. Shu bilan

birga, so‘nggi yilda amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlarning obyektiv tahlili, davlat boshqaruvi organlari faoliyati, aholi bilan ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot natijalari mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli hal etishga ehtiyoj vujudga kelganligini ko‘rsatdi. Bu, birinchi navbatda, quyidagi holatlarga taalluqlidir:

- bir qator idoralarning vazifalari deklarativ xususiyatga egaligi va ularni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari yetarli emasligi;

- faqat holatlarni qayd etish va statistikasi to‘plashdan iborat bo‘lib qolgan faoliyatni baholashning samarasiz tizimi va bu ko‘pchilik hollarda joylardagi ishlarning haqqoniy holatini aks ettirmaydi;

- hududlarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va aholining eng muhim muammolarini hal qilishda mahalliy hokimiyat organlari rolining pasayishiga olib keluvchi davlat funksiyalarining haddan tashqari markazlashtirilganligi;

- byurokratashtirish va yuqori sarf-xarajatlarga olib kelayotgan innovatsion rivojlanishning past darajasi;

- xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan davlatning tartibga solish va xo‘jalik funksiyalari qo‘shib olib borilishi, sog‘lom raqobat muhitining rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi imtiyoz va preferensiyalarni tanlab taqdim etish amaliyoti;

- hududlarning rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan ayrim rahbarlarda lozim darajada mas‘uliyat va tashabbuskorlikning mavjud emasligi. Ushbu kamchiliklar iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani modernizatsiyalash, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, aholining hayot darajasi va farovonligini yuksaltirish bo‘yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Bu borada Davlat rahbari tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmon 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda muhim qadam hisoblanadi hamda mohiyatiga ko‘ra O‘zbekistonning davlat va jamiyat qurilishida yangi sahifani ochib beradi. O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta asosiy yo‘nalishi belgilab berildi.

Birinchi yoʻnalish ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bagʻishlangan. Mazkur sohadagi chora-tadbirlar quyidagilarni nazarda tutadi:

- ijro etuvchi hokimiyat organlarini tashkil etish va tugatishning aniq mezonlari hamda tartib-taomillarini joriy qilish;
- kadrlar va moddiy resurslardan oqilona foydalangan holda, ijro etuvchi hokimiyat organlarini optimallashtirish;
- ijro etuvchi hokimiyat organlarining mustaqilligini oshirish hamda ularning Vazirlar Mahkamasi bilan oʻzaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish;
- davlat xizmatlari koʻrsatish tizimini izchil takomillashtirish va “Elektron hukumat” tizimini yanada keng joriy etish;
- maʼmuriy adliyani rivojlantirish va murojaatlarni kollegial eshitishni joriy qilish.

Ikkinchi yoʻnalish ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalarini, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohalarini aniqlashtirishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan quyidagi masalalar boʻyicha chora-tadbirlar koʻriladi:

- rivojlanish dasturlarini shakllantirishda hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlarining tashabbuskorligi va rolini oshirish;
- maqsadli indikatorlarga erishishga asoslangan, barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning rahbarlari faoliyatini baholashning prinsipial yangi tizimini joriy qilish;
- xalqaro amaliyotda muvaffaqiyatli qoʻllanilayotgan, shu jumladan, sifat menejmenti, indikativ rejalashtirish, autsorsing, kraudsorsing kabi ishni tashkil etishning zamonaviy uslublaridan foydalanish;
- rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini monitoring qilishda jamoatchilik bilan oʻzaro hamkorlikning zamonaviy shakllarini joriy etish.

Uchinchi yoʻnalish iqtisodiyot tarmoqlariga maʼmuriy taʼsirni qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish hisoblanadi. Ushbu yoʻnalishda quyidagilar rejalashtirilmoqda:

- xususiy sektor samarali faoliyat koʻrsatayotgan sohalarda davlat ishtirokidagi tijorat tashkilotlarini tuzishni cheklash va amaldagi davlat korxonalarini qayta tashkil etish;

– iqtisodiy faoliyatda davlat ishtirokining aniq bozor mexanizmlarini ishlab chiqish;

– ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda ijtimoiy hamda davlat-xususiy sheriklikning huquqiy va institutsional bazasini takomillashtirish;

– ayrim davlat funksiyalarini xususiy sektorga o‘tkazish.

To‘rtinchi yo‘nalishda, jumladan, quyidagilar orqali vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish nazarda tutilgan:

– davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish;

– mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, ularning roli va javobgarligini oshirish;

– hududiy organlarning rahbar kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo‘yish masalalarida mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kuchaytirish.

Beshinchi yo‘nalish davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovatsion g‘oyalar, ishlanma va texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan. Mazkur chora-tadbirlar qatorida quyidagilarni ta’kidlash lozim:

– davlat xizmatlari ko‘rsatish tartib-taomillarini optimallashtirish va soddalashtirishni ta’minlaydigan davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini joriy etish;

– innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqishga investitsiyalarni faol jalb etish;

– zamonaviy ilmiy-tadqiqot va innovatsion yutuqlarni muvaffaqiyatli joriy qilish uchun zarur bo‘lgan rivojlangan infratuzilmani yaratish;

– tabiatni muhofaza qilish, resurs va energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish.

Va nihoyat, so‘nggi oltinchi yo‘nalishda professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning ta’sirchan mexanizmlarini o‘rnatish belgilangan. Ularga erishish uchun quyidagilar rejalashtirilgan:

– davlat xizmatining shaffofligi va ochiqligini ta’minlash, aholi bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yishning yangi mexanizmlarini joriy etish;

– davlat xizmatchilarining mehnatiga haq to‘lash va ijtimoiy ta’minotining zamonaviy tizimini kiritish orqali ularning mehnat unumdorligini oshirish. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi normalarini amaliy ro‘yobga chiqarish bo‘yicha 40 dan ortiq aniq tadbirlarni nazarda tutuvchi “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha komissiya hamda davlat boshqaruvi tizimini tanqidiy o‘rganish va uni tubdan isloh qilish yuzasidan takliflar tayyorlash bo‘yicha ishchi guruhlar tashkil etildi. Komissiya ishchi guruhlar tomonidan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari sifatli ishlab chiqilishini tashkil etadi, shuningdek, Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi va “Yo‘l xaritasi”ning to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ustidan qat’i nazorat olib boradi. Shu bilan bir qatorda, Komissiyaga davlat boshqaruvi tizimini tanqidiy o‘rganish va uni tubdan isloh qilish bo‘yicha takliflar tayyorlash jadvalini tasdiqlash vazifalari yuklatildi, unga asosan 100 dan ortiq davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish rejalashtirildi. Ma’muriy islohotlarning amalga oshirilishi quyidagi natijalarga erishishga qaratilgan.

1. Kutilayotgan islohotlarning to‘liq amalga oshirilishini ta’minlashga, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash va samarali hal etishga qodir bo‘lgan, innovatsion rivojlanishning umumjahon tendensiyalariga javob beradigan davlat boshqaruvi tizimini yaratish, shu jumladan, quyidagilar orqali yaratish:

– ortiqcha va o‘ziga xos bo‘lmagan vazifa, funktsiya va vakolatlarni bartaraf etish, takrorlash va parallellizmni tugatish hisobiga davlat boshqaruvi tizimini optimallashtirish hamda nomarkazlashtirish;

– davlat boshqaruvini byurokratiyadan holi qilish va uning sarfxarajatlarini pasaytirish, boshqaruv qarorlari qabul qilish tizimining faoliyat samaradorligini va shaffofligini oshirish;

– strategik rejalashtirish, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar tizimini joriy etish;

– iqtisodiyot tarmoqlariga ma’muriy ta’sir ko‘rsatishni yanada qisqartirish hamda boshqaruvning sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va aholining

ishchanlik faolligini oshirishga qaratilgan bozor mexanizmlarini kengaytirish;

– jamoatchilik va parlament nazoratining, eng avvalo, korrupsiya ko‘rinishlarining oldini olishga qaratilgan samarali shakllarini joriy etish.

2. Fuqarolar huquq va erkinliklarini ta’minlashning ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, ularning farovonligini va ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatidan qanoatlanganlik darajasini yanada oshirish, shu jumladan, quyidagilar orqali yanada oshirish:

– davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslar bilan huquqiy munosabatlarini aniq tartibga solishga qaratilgan ma’muriy tartib-taomillarni takomillashtirish;

– ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarorlari va harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibini takomillashtirishni, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini kollegial eshitish mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutuvchi ma’muriy adliya tizimini rivojlantirish;

– “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish orqali davlat xizmatlari ko‘rsatishning samaradorligini oshirish;

– jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash. O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, so‘zsiz, innovatsion rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari va jahon standartlarini hisobga olgan holda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishga yangi kuch bag‘ishlaydi. Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy islohotlarning amalga oshirilishi “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan ulug‘vor g‘oyani hayotga to‘liq tatbiq etishga xizmat qiladi.

#### **13.4. Rivojlanishning siyosiy iqtisodi**

Davlatning iqtisodiy siyosati — bu iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, bandlikni ta’minlash va inflyatsiyani oldini olish orqali aholi farovonligini oshirib borishga qaratilgan chora-tadbirlaridir. Davlatning iqtisodiy siyosati har doim mamlakat iqtisodiy rivojlanishining ichki va tashqi sharoitlarini hisobga oladi. Bunda eng avval mamlakat iqtisodiyotining holati, xalqaro iqtisodiy

konyunkturaning milliy iqtisodiyotga ta'siri, undan kutilayotgan o'zgarishlar, mamlakat zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlar, milliy iqtisodiyotning resurslar bilan ta'minlanish darajasi kabilarga e'tibor qaratiladi. Davlatning iqtisodiy siyosati milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ma'lum maqsadlarni ko'zlaydi. Bulardan asosiylari quyidagilar:

1. Barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish. Bu yalpi ichki mahsulotning bir maromda va yetarli sur'atlar bilan o'sishiga sharoit hozirlashni bildiradi, chunki u qanchalik tez o'ssa, mamlakat iqtisodiy qudrati shunchalik ortadi.

2. Milliy iqtisodiyotning mustaqilligini mustahkamlash. Iqtisodiyot qanchalik mustaqil bo'lsa, shunchalik milliy manfaatlarga ko'proq xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy xavfsizlikni kafolatlash. Bu iqtisodiy oqimlar uzluksizligini, ya'ni takror ishlab chiqarishning to'xtovsiz davom etishini, iqtisodiy falajlikka yo'l qo'yilmasligini bildiradi.

4. Milliy pul barqarorligini ta'minlash. Bu mamlakatdagi pul muomalasining me'yorida borishiga erishish, uni iqtisodiy aloqalarning barqaror vositasiga aylantirish imkonini beradi.

5. Aholi turmush farovonligini muttasil oshirib borish. Bu iqtisodiyotning ijtimoiyligini to'laroq yuzaga chiqarishga ko'maklashadi.

6. Milliy xo'jalikning xalqaro integratsion jarayonlarda faol ishtirok etishga erishish. Bu mamlakatning jahon iqtisodiyotida o'z o'rnini topishi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisiga aylanishiga erishishga sharoit yaratadi.

7. Bular iqtisodiy siyosatning strategik, ya'ni uzoq davrga mo'ljallangan maqsadi hisoblanadi. Davlat strategik maqsadlardan kelib chiqib qisqa davrdagi vazifalarini belgilaydi. Bular jumlasiga iqtisodiy tanglikdan chiqib ketish, narxlarning barqarorligini ta'minlash, investitsion faollikni rag'batlantirish, eksport salohiyatini oshirish, innovatsion rivojlanishni ta'minlash, yangi tashqi bozorlarga kirib borish kabilar kiradi. Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullarni umumlashtirib quyidagicha guruhlash mumkin:

- bevosita ta'sir qilish usullari;
- bilvosita ta'sir qilish usullari;

– tashqi iqtisodiy usullar.

Markazdan boshqarish tartibi ustun bo'lgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvida bevosita ta'sir qilish usullari ustun bo'lsa, bozor iqtisodiyoti esa birinchi navbatda iqtisodiy jarayonlarni bilvosita tartibga solish bilan bog'langan. Shu bilan birga barcha mamlakatlarda iqtisodiyotning davlat sektori mavjud. Davlat xilma-xil shakldagi kapitalga egalik qiladi, kreditlar beradi, korxonalariga mulkdor hisoblanadi. Bu davlatning ijtimoiy kapitalning bir qismiga egalik qilishiga olib keladi. Davlat iqtisodiyotni bevosita tartibga solishda ma'muriy vositalardan foydalaniladi. Ma'muriy vositalar davlat hokimiyati kuchiga tayanadi va taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish xususiyatidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi. Tartibga solishning ma'muriy vositalaridan foydalanilganda yaxlit takror ishlab chiqarish jarayoni yoki uning alohida tomonlarini to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish ko'zda tutiladi. Ayniqsa, ishlab chiqarish tanazzulga uchragan davrda iqtisodiyotga bilvosita ta'sir qilish tadbirlari kam samarali bo'lib, ma'muriy vositalardan foydalanishga ustunlik beriladi. Bu usullardan quyidagilarni alohida ko'rsatish mumkin:

a) iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari – transport, aloqa, atom va elektr-energetika, kommunal xizmat va boshqalarni bevosita boshqarish. Bunda davlat mulk sohibi va tadbirkor sifatida o'ziga qarashli korxonalar va tashkilotchilar iqtisodiy hayotida faol qatnashadi. Davlat tadbirkorligi, ma'lum doirada amal qilib, ko'pincha texnologiya sharoiti xususiy kapital uchun qulay bo'lmagan korxonalar doirasi bilan cheklanadi. Davlat tadbirkorligi bir tomondan, ma'lum sharoitlarda iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan, vaqt o'tishi bilan samarasiz bo'lib qolishi ham mumkin. Bunday holda ular xususiy tadbirkorlik obyektiga aylantiriladi. Respublikada "Iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa davlatning funksiyalarini qisqartirish uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga birinchi galda xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklash" hisoblanadi;

b) narxlar va ish haqini qotirib qo'yish siyosati: bu iqtisodiyotga aralashishning antiinflatsion tadbirlar hisoblanib, inflyatsiyaning yumshatishga qaratiladi. Mazkur siyosatni yuritishda narxlar va ish haqini oshirish qonun bilan taqiqlandi yoki ma'lum doira bilan cheklanadi. Antiinflatsion tadbirlar orqali inflyatsiya darajasining pasayishi investitsiyalarga rag'bat beradi;



v) ish bilan bandlilik xizmati faoliyati (mehnat birjalari) ni tashkil qilish: davlat bu faoliyatni tashkil qilish bilan ishsizlikni qisqartirish choralarini ko'radi. Ularni zarur kasblarga qayta tayyorlaydi, ish bilan ta'minlanmaganlarga nafaqa beradi, muhtojlarga yordam ko'rsatadi;

g) iqtisodiy sohani tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish (monopoliyaga qarshi qonunchilik, tadbirkorlik to'g'risidagi, bank sohalari, qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyatini tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonunlar.) Shu orqali bozor munosabatlarining rivojlanishi qonun yo'l bilan kafolatlanadi, turli mulk shakllarining daxlsizligi ta'minlanadi, monopoliyalarga yo'l berilmaydi va erkin raqobatga sharoit yaratiladi. Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beriladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda asosiy kapitalga hisoblanadigan jadallashgan amortizatsiya ajratmalari alohida o'rin o'ynaydi. U hozirgi sharoitda jamg'arish va iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni rag'batlantirishning asosiy vositasi hamda iqtisodiy sikl va bandlikka ta'sir ko'rsatuvchi muhim dastak hisoblanadi. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat kapital qo'yilmalari muhim rol o'ynaydi. Jumladan, bozor konyukturasi yomonlashgan, turg'unlik yoki inqiroz sharoitida xususiy kapital qo'yilmalar qisqaradi, davlat investitsiyalari esa odatda o'sadi. Shu orqali davlat ishlab chiqarishda tanazzul va ishsizlikning o'sishiga qarshi turishga harakat qiladi. Davlat kapital qiymatlari iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlarda ham sezilarli o'ringa ega bo'ladi, masalan, davlat, xususiy kapitalining oqib kelishi yetarli bo'lmagan mintaqalar, tarmoqlar yoki faoliyat sohalarida yangi obyektlar qurish va eskilarini qayta qurollantirish orqali iqtisodiyot tarkibiy tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi. Bulardan tashqari, davlat kapital qo'yilmalari ilmiy-tadqiqot ishlarida, kadrlar tayyorlashda, tashqi savdo va chetga kapital chiqarishda ham katta rol o'ynaydi. IDTTSning oliy shakli davlat iqtisodiy dasturlari hisoblanadi. Uning vazifasi tartibga solishning barcha usuli va vositalaridan kompleks foydalanishdan iborat. Iqtisodiy dasturlar o'rta muddatli, favqulodli va maqsadli bo'lishi mumkin. O'rta muddatli umumiqtisodiy dasturlar odatda besh yilga tuziladi. Favqulodli dasturlar tig'iz vaziyatlarda, masalan, inqiroz, ommaviy ishsizlik va kuchli inflyatsiya sharoitlarida ishlab chiqilib, qisqa muddatli xususiyatga ega bo'ladi. Bunday maqsadli dastur-

larning obyektini tarmoqlar, mintaqalar, ijtimoiy sohalar va ilmiy tadqiqotlarning har xil yoʻnalishlari boʻlishi mumkin. IDTTS tashqi iqtisodiy usullar yordamida ham amalga oshiriladi. Bunda maxsus vosita va dastaklar orqali mamlakatning tashqi dunyo bilan amalga oshiriladigan xoʻjalik aloqalariga bevosita taʼsir koʻrsatiladi. Tovarlar, xizmatlar, kapital va fan-texnika yutuqlari eksportini ragʻbatlantirish tadbirlari, eksportni kreditlash, chet ellardan investitsiyalar va eksport kreditlarini kafolatlash, tashqi iqtisodiy aloqalarga cheklashlar kiritish yoki bekor qilish, tashqi savdoda boj toʻlovlarini oʻzgartirish, mamlakat iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilish yoki cheklash boʻyicha tadbirlar, mamlakatga chetdan ishchi kuchini jalb qilish, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda va davlatlararo uyushmalarda qatnashish mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solishning asosiy vositalaridir. Shunday qilib, IDTTSning qarab chiqilgan barcha ichki va tashqi iqtisodiy usullari birgalikda milliy iqtisodiyotdagi takror ishlab chiqarish jarayoniga va mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalariga oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Davlat oʻzining iqtisodiy siyosatini tartibga solishning turli vositalari yordamida amalga oshiradi. Bular birinchidan, tartibga solishning iqtisodiy vositalar boʻlib, ularga soliqlar, subsidiyalar, hisob stavkalari, davlat buyurtmalari, investitsiyalari va transfertlari, turli iqtisodiy sanksiyalar kiradi. Ikkinchisi, huquqiy vositalar. Bu iqtisodiy faoliyat tartibi va qoidalarini, uning davlat tomonidan ragʻbatlantirilishini belgilab beruvchi qonunlarni, ularga mos ravishdagi qonun osti hujjatlarni ishlab chiqish, ularni qabul qilish va joriy etishdan iboratdir. Uchinchisi, maʼmuriy vositalar. Maʼmuriy vositalar qoʻshimcha hisoblanib, u bozor tizimida yaxshi natija bermaganida cheklangan holda qoʻllaniladi. Davlatning iqtisodiy siyosati pul-kredit, fiskal, investitsion, agrar, ijtimoiy, daromadlarni tartibga solish, tashqi iqtisodiy va global iqtisodiy siyosat kabilardan iborat boʻladi. Pul-kredit siyosati — bu davlatning monyetar siyosati boʻlib, u pul muomalasini tartiblash, tovar va pul massasi oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlash, iqtisodiyotdagi pul oqimlarini tartibga solib turishga qaratiladi. Uning maqsadi narxlarni va shunga mos ravishda milliy pul birligi xarid qobiliyatini ushlab turish, valyuta kursini barqarorlashtirish, oxir-oqibatda pulga talab bilan uning taklifini muvozanatlashtirishga qaratilgan. Monyetar siyosatni amalga oshirishda hisob

stavkasini o'zgartirish, ochiq bozordagi operatsiyalar va majburiy ehtiyoatlarni o'rnatish kabi iqtisodiy vositalardan foydalaniladi. Davlatning monyetar siyosat qattiq yoki yumshoq pul-kredit siyosat bo'lishi mumkin.

- Qattiq pul-kredit siyosatni amalga oshirishda pul massasining uni emissiya qilish hisobidan o'sib borishi qat'i chegaralanadi. Natijada pul taklifi qisqarib tovar massasiga tenglashadi. Pul taklifining qisqarishi talabni kamaytiradi, natijada narxlar va pul birligining xarid qobiliyati barqarorlashadi. Ishlab pul topishga intilish iqtisodiyotning jonlanishiga olib keladi. Bunday siyosat odatda iqtisodiyotni tanglikdan chiqarish yoki inflyatsiyani bartaraf qilish maqsadida qo'llaniladi.

- Yumshoq pul-kredit siyosatini amalga oshirishda davlat pul massasining ortishiga to'sqinlik qilmaydi, pul emissiyasi mutloq cheklanmaydi, natijada pul taklifi ko'payib, tovarlarning arzonlashuvi yuz beradi. Yumshoq pul-kredit siyosati iqtisodiyotning o'sish pallasida bo'lganda ko'proq qo'llaniladi, chunki pul massasining o'sishiga qarab tovarlar massasi ham ko'payadi. Bunda tovar-pul muvozanati pul taklifini qisqartirish hisobidan emas, balki tovarlarning ko'payishi tufayli ta'minlanib turadi. Fiskal siyosat – bu davlatning soliq-budjet siyosatidir, unga binoan soliq tushumlari belgilanadi, budjet mablag'lari aniq maqsadlar yo'lda ishlatilishi ko'zda tutiladi. Soliq siyosatini amalga oshirishda davlat soliqlar vositasida budjetga pul tushumini ta'minlaydi. Unga binoan soliq turlari, soliq stavkalari, soliq solinadigan obyektlar, soliq imtiyozlari, soliq undirish tartibi belgilanadi. Soliqlar davlatning iqtisodiyotga ta'sir etishida qo'llaniladigan asosiy moliyaviy dastakdir. “Soliq, tizimi nafaqat soliqlarni undirish, balki birinchi galda, rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lishi lozim”. Iqtisodiyotni rag'batlantirish zarur bo'lganda soliqlardan imtiyozlar beriladi. Bunda soliq yuki kamaytiriladi, soliqni undirish muddati cho'ziladi yoki umuman soliqdan ozod qilinadi. Natijada korxonalar tasarrufidagi foyda ko'payadi, uni investitsiya qilish, ya'ni qaytadan ishlab chiqarishni o'stirishga yo'naltirish imkoniyati kengayadi. Ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida O'zbekistonda foydadan to'lanadigan soliq stavkasi 2004 – yildagi 24%dan 2009 – yilda 12%, 2012 – yilda 9% va 2016 – yilda 8% ga tushirildi. Fiskal siyosat ikki xil yo'ldan amalga oshiriladi.

1. Iqtisodiyotni barqarorlashtiruvchi amaldagi moliyaviy normativlarni qo'llashni davom ettirish. Bular jumlasiga soliq stavkalarini, ishsizlik nafaqasi, daromadlarning inflyatsiyaga qarab indeksatsiyalash, ijtimoiy yordam ko'rsatish normativlarini kiritish mumkin.

2. Yangi moliyaviy normativlarni kiritish. Bu diskretsion fiskal siyosat deb yuritiladi. Mazkur siyosat doirasida yangi soliq stavkalari joriy etiladi, uning yangi turlari kiritiladi, budjet mablag'larini sarflash normativlari o'zgartiriladi. Diskretsion siyosat iqtisodiyotning o'zgargan sharoitga moslashish siyosatidir. Iqtisodiyot bir maromda o'sib borganda birinchisi, u tanglikka uchraganda diskretsion siyosat ustuvor bo'ladi. Fiskal siyosatda davlat budjeti orqali ham iqtisodiy faollikka ta'sir ko'rsatadi. Budjet mablag'lari hisobidan davlat ishlab chiqarish infratuzilmasiga katta hajmdagi investitsiyalarni ajratadi, milliy iqtisodiyot uchun ahamiyatli faoliyat (masalan, yangi texnologiyani yaratish) bilan shug'ullanuvchi korxonalariga subsidiya beriladi. Subsidiya moliyaviy yordam sifatida qaytarib olinmaydi, uning hisobidan xarajatlar qoplanib foyda ko'payadi, bu bilan korxonalar faoliyati rag'batlantiriladi. Budjet siyosati ijtimoiy ne'matlarning yaratilishini uzluksiz kerakli miqdordagi pul mablag'lari bilan ta'minlab turishga ham qaratiladi. Davlat budjeti balanslashgan bo'lishi, ya'ni taqchillikka yo'l qo'ymaslik, u yuz bergan taqdirda ham me'yorida bo'lishiga qaratiladi. Fiskal siyosat davlatning ichki va tashqi qarzlari me'yorida bo'lishini ta'minlashda ham ahamiyatli. Fiskal siyosat faol yoki passiv tavsifga ega bo'lishi mumkin.

Faol fiskal siyosatni amalga oshirishda diskretsion vositalar ishga solinadi, jumladan, soliqlar kamaytiriladi, ulardan imtiyozlar beriladi, budjetdan transfertlar berish ko'paytiriladi, firmalar subsidiyalar oladi. Bularning barchasi iqtisodiy faollikka olib keladi, korxonalar xarajati qisqarib foydasi ortadi, aholining transfertlar hisobidan xarid qobiliyati oshadi. Xullas, bu siyosat yalpi talabni rag'batlantiradi.

Passiv fiskal siyosat moliyaviy dastaklarni o'zgartirmay, ularning erkin ishlashiga yo'l berishga qaratiladi. Iqtisodiyotning barqaror yuksalib borishi tufayli moliyaviy dastaklarni o'zgartirishga zaruriyat qolmaydi. Demak, bu siyosat iqtisodiy o'sish to'xtovsiz borayotgan kezlarda naf beradi. Agrar siyosat davlatning qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatidir. U qishloq xo'jaligining barqaror o'sishini, oziq-ovqat mustaqilligi va xavfsizligini ta'min-

lashni koʻzda tutadi. Mazkur siyosat doirasida davlat qishloqda ishlab chiqarish infratuzilmasining (suv xoʻjaligi, yoʻl qurilishi, gaz va elektr energiya taʼminotining) xarajatlarini qisman oʻz zimmasiga oladi, yerni ijaraga olib ishlatilishini, uni garovga qoʻyib kredit olishni huquqiy jihatdan taʼminlaydi. Agrar siyosatda xarid narxlari, davlat subsidiyalari kabi moliyaviy dastaklar qoʻllaniladi. Dehqon va fermerlarni qoʻllab-quvvatlash uchun yer soligʻi yuki yengillashiriladi. Masalan, Oʻzbekistonda yagona yer soligʻi qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining bozor qiymatining 3-5% idan oshmaydi. Qishloq xoʻjaligida rentabellik nisbatan past boʻlganligidan kapitalning tarmoqdan chiqib ketishiga yoʻl qoʻymaslik uchun davlat fermerlarga subsidiya berib, uning hisobidan xarajatlarni qisman qoplaydi va ular meʼyordagi daromadga ega boʻlishni taʼminlaydi. Hozirgi davrda davlatning agrar siyosatida: birinchidan “...ekin maydonlari va ekinlar tarkibini optimallashtirish, ilgʻor agrotexnologiyalarni joriy etish va hosildorlikni oshirish, meva-sabzavot va uzum yetishtirishni koʻpaytirish” ikkinchidan, “fermer xoʻjaliklarining moliyaviy-iqtisodiy holatini mustahkamlash. Oxirgi 10 yil mobaynida mineral oʻgʻitlar, yoqilgʻi-moylash materiallari va urugʻlik narxining oʻsishi bilan paxta xomashyosi va gʻallani xarid qilish narxlari oʻsishi oʻrtasida keskin farq borligi kuzatilmoqda” uchinchidan, “agrotexnika tadbirlarini moliyalashtirishda ijobiy natija bermayotgan va mutlaqo chala tizimga barham berish” ga ustuvorlik qaratiladi. Tashqi iqtisodiy siyosat davlatning oʻzaro foydali tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotini jahon xoʻjaligi bilan integratsiyalashuvini taʼminlashga qaratiladi. Bu siyosatning asosiy maqsadi milliy iqtisodiyotning jahon xoʻjaligidagi mavqeyini mustahkamlab borishdan iborat. Unga binoan eksport va import, chetga kapital chiqarish va chetdan kapital kiritish, ishchi kuchi migratsiyasini tartibga solishga doir tadbirlar amalga oshiriladi. Bu siyosatda bojxona toʻlovlari, eksport-import litsenziyalari va kvotalari kabi vositalar qoʻllaniladi. Eksportni koʻpaytirish zarur boʻlsa unga litsenziyalar beriladi, eksport kvotasi oshiriladi. Importni qisqartirish maʼqul boʻlsa, uning kvotasi kamaytiriladi, import uchun boj toʻlovi oshiriladi, unga litsenziya berish chegaralanadi. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati kapital chiqarish va kapital kiritish tartibini ham belgilaydi. Kapital kiritish zarur boʻlsa, u ragʻbatlantiriladi. Kapital chiqishi maʼqul boʻlsa

davlat bunga turli imtiyozlar orqali sharoit yaratib beradi. Davlat chetga ishchi kuchini chiqarishni ham tartibga soladi. Bordi-yu, mamlakatga arzon ishchi kuchi kerak bo'lsa, uning chetdan kirib kelishi uchun migratsiya qoidalari (chegaradan o'tish, yashash va ishlash uchun ruxsat olish va hokazo.) yengillashtiriladi. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatida xalqaro iqtisodiy tashqilotlar bilan hamkorlik qilish ham ko'zda tutiladi. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining samaradorligi iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya darajasi, eksport va import holati, tashqi qarz miqdori, savdo va to'lov balansi holati kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Global iqtisodiy siyosat iqtisodiy resurslar, yaratilgan tovar va xizmatlarni dunyo mamlakatlari o'rtasida taqsimlab, ulardan samarali foydalanishni maqsad qilib qo'yadi. Bu siyosatda chetga kapitalni investitsiya sifatida chiqarib, uni yuqori rentabelli sohalarga joylashtirish uchun o'zaro kelishilgan soliqlar, bank foizlari, boj to'lovlari, kvotalar kabi dastaklardan foydalaniladi. Tovarlarning qimmatlashib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun eksport soliqlar bilan cheklanib, ularning importiga soliq belgilanmaydi. Bu ikki-tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish deb yuritiladi. Masalan, qo'shilgan qiymat yoki aksiz soliqlari tovarlar chetga chiqarilganda undirilib, ular import qilinganda olinmaydi. O'zaro kelishuvlar asosida import qilingan texnologiya ham soliqdan ozod qilinadi. Xalqaro savdo-sotiqda o'zaro kelishilgan yengillashtirilgan bojxona to'lovlari qo'llaniladi. Jumladan, xalqaro savdo tashkiloti a'zolari o'zaro savdo qilganda, mazkur to'lovlari tovar qiymatining 10 foizidan oshmasligi kerak. Xalqaro kredit berish tartibi ham birgalikda belgilanadi. Bunga ko'ra kredit kvotalari, uni berish muddati va kredit uchun foiz stavkasi o'rnatiladi. Xalqaro kreditda kelishilgan foiz stavkasi libor deb yuritiladi. Liborni yirik London banklari o'rnatadi, boshqa xalqaro banklar shunga qarab o'z foizlarini belgilaydilar. Xalqaro kredit siyosatini yirik kreditor — qarz beruvchi mamlakatlar banklari amalga oshiradi. Bular Parij va London qarz beruvchilar klubini tashkil etadi. Bu kredit siyosati kimga va qancha qarz berishni, qanday qarzlarni kechib yuborishni, qaysilarining to'lash muddatini cho'zishni belgilab beradi. Yirik xalqaro korporatsiyalar davlat ishtirokida eksport va import kvotalari o'rnatadilar. Bularga binoan qayerga qancha tovarni eksport va import qilish, hamda uning tartibi aniqlab beriladi. Integratsion ittifoqlarga kirgan mamlakatlarda, masalan, Yevropa

ittifoqida, davlatlararo eksport va import uchun qulay sharoit yaratib beriladi, bunda ayrim mamlakatlar tovarlarini diskriminatsiya qilish, ya'ni kamsitishga yo'l qo'yilmaydi. Global iqtisodiy siyosatni transmilliy, ya'ni xalqaro korporatsiya va tashkilotlar, yetakchi davlatlar hukumati, davlatlararo muassasalar va parlament belgilaydi. Bunga misol qilib Yevroparlament, Yevropa ministrlar kengashi qo'llaydigan siyosatni olish mumkin. Bu siyosatda o'zaro va boshqalar bilan bo'ladigan iqtisodiy aloqalarning qaysi yo'nalishda va qanday tartibda bo'lishi ko'rsatiladi. Global siyosat umuman yoki ayrim sohalarga tatbiqan qo'llaniladi. Transmilliy korporatsiyalar faqat o'z faoliyati doirasidagi xalqaro siyosatni belgilaydi. Masalan, OPEK tashkiloti neftni qazib olish va qayta ishlash kvotalarini, uning narxini o'z siyosatiga binoan belgilaydi. Bu yerda qabul qilingan neft narxining amal qilish doirasi o'rnatiladi. Xalqaro savdo birjalari jahon narxlarini o'rnatishga doir siyosatni amalga oshiradi. Xalqaro Valyuta fondi, Jahon banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki, Osiyo Taraqqiyot banki kabi xalqaro institutlar valyuta rejimini mustahkamlash, kreditni rivojlantirishga qaratilgan siyosatni qo'llaydilar. Ular milliy valyuta kursini barqarorlashtirish va uning tahlikasini kamaytirish uchun, milliy iqtisodiyotni rivojlantirib eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kredit siyosatini qo'llab-quvvatlaydi. Global iqtisodiy siyosat davlatlararo ishchi kuchi migratsiyasiga ham taalluqlidir. Ishchi kuchi migratsiyasini tartibga solish uchun unga oid xalqaro qoidalar ishlab chiqiladi. Turli mamlakat hukumati va parlamentlari belgilagan migratsiya qoidalari bir-biriga yaqin turadi. Migratsiya oqimini nazorat qilish tartibi ham kelishiladi, migratsiyaga oid o'zaro axborot almashib turiladi. Global siyosat tabiiy ravishda globallashuv jarayonining afzalliklaridan foydalanish, uning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratiladi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish** – qonunchilik, ijro va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish.

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi** – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy tizimni mustahkamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish.

**Davlatning iqtisodiy vazifalari** – iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o‘lishni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar.

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usullari** – tartibga solishning ma‘muriy va iqtisodiy vositalari birligi.

**Bevosita usullar** – iqtisodiyotni tartibga solishning taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish tavsifidagi ma‘muriy vositalari.

**Bilvosita usullar** – iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlicha qarashlarini baholang.
2. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi to‘g‘risidagi qanday nazariyalarni bilasiz?
3. Davlatning asosiy iqtisodiy vazifalarini sanab chiqing va ularning qisqacha tavsifini bering.
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqozo qiladi?
5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish o‘z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo‘yadi?
6. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita usullariga tavsif bering.
7. Tartibga solishning ma‘muriy va iqtisodiy vositalarini sanab ko‘rsating.
8. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda davlat sektori qanday rol o‘ynaydi?
9. Davlat ijtimoiy-iqtisodiy dasturlari nima?
10. Davlat iqtisodiy dasturlari qanday amalga oshiriladi



## **14-BOB. MAQSADLI UZATISH DASTURLARI**

**14.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda maqsadli uzatish dasturlari.**

**14.2. Maqsadli transferlar va rivojlanish.**

**14.3. Maqsadli transfer dasturining amalga oshirilishi.**

**14.4. Maqsadli transfer dasturlarini baholash.**

### **14.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda maqsadli uzatish dasturlari**

Qashshoqlikka qarshi aralashuvni amalga oshiradigan menejerlar uchun ko'plab maqsadli usullar mavjud. Qanday sharoitlarda qanday usullar mos ekanligi to'g'risida tushunchani rivojlantirishda maqsadni aniqlashning foydalari va xarajatlarini sanab o'tishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Maqsadni belgilash to'g'risida qaror qabul qilish, qanchalik aniq bo'lishi va qanday usulni ishlatish nisbiy hajmiga bog'liq bo'ladi. O'z navbatida, ushbu imtiyozlar va xarajatlarni baholash bu yerda ko'rib chiqilgan uchinchi mavzu bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlarni o'lchashni talab qiladi. Va nihoyat, biz maqsadli usullarni tasniflash uchun tuzilmani bayon qilamiz.

Maqsadni belgilash uchun asosiy holat juda sodda. Siyosat ishlab chiqaruvchi sifatida, bizda iste'mol qashshoqligini yo'q qilish uchun yetarli bo'lgan aniq transfer budjeti bor deb taxmin qiling. Bizda uy xo'jaliklarining so'rovlari bo'yicha vakolatli ma'lumotlar mavjud va bundan foydalangan holda, har qanday uy xo'jaliklarining har qanday pul o'tkazmalaridan oldin (ya'ni "asl daromad") iste'mol darajalari grafigini tuzamiz. Ularni eng yomondan eng yaxshigacha buyurtma qilish. Ushbu buyurtma ko'chirilgandan keyin uy xo'jaligi daromadi y o'qida, ya'ni "yakuniy daromad da ko'rsatilgan. So'rovda uy xo'jaliklarining maksimal va minimal daromadlari mos ravishda y max va y min, z esa qashshoqlik chegarasi. Dy min chizig'i shuni ko'rsatadiki, transfer dasturi amalga oshirilishidan oldin, uy xo'jaliklarining yakuniy daromadlari ularning dastlabki daromadlariga teng. O'tkazmaning maqbul sxemasi - bu barcha kambag'al uy xo'jaliklariga (ya'ni z dan kam daromadli oilalarga) pul o'tkazish imkoniyatini beradigan,

ularning transfer darajasi ularning individual “qashshoqlik bo‘shliqlari” ga teng bo‘lgan, ya’ni ularning asl daromadi va qashshoqlik chegarasi orasidagi masofa, z a. Ushbu transfer dasturi barcha kambag‘al uy xo‘jaliklarini qashshoqlik darajasiga yetkazadi; barcha kambag‘al bo‘lmagan uy xo‘jaliklari yakuniy va asl daromadlariga teng ravishda ega. Shunday qilib, qashshoqlik budjeti z a ymin hududi bilan ifodalanadi va bu qashshoqlikni yo‘q qilish uchun zarur bo‘lgan eng kam budjetdir. Endi bir xil transfer dasturining holatini ko‘rib chiqing, u t (= c- y min) ga teng bo‘lgan barcha uy xo‘jaliklariga, ham kambag‘al, ham kambag‘alga teng pul o‘tkazmasini beradi. Kambag‘al bo‘lmagan uy xo‘jaliklariga o‘tkazmalarining “o‘qishi” sababli, kambag‘al uy xo‘jaliklariga o‘tkazmalar ularning qashshoqligini yo‘q qilish uchun yetarli bo‘lmaydi. Yagona ko‘chirish bilan bog‘liq bo‘lgan “samarasizlik” ning ikki shakli mavjud: (i) kambag‘al bo‘lmagan uy xo‘jaliklari transfert oladi va (ii) ba’zi kambag‘al uy xo‘jaliklari (b a oralig‘idagi qatorlar) o‘zlarining qashshoqlik darajasidan kattaroq transfertlarni oladilar. Ushbu samarasizliklar natijasida yagona transfer sxemasining qashshoqlikka ta’siri optimal transfer sxemasidan kam, z c b maydoni bo‘yicha kamroq.

Umuman olganda, nishonga olish motivatsiyasi quyidagilardan kelib chiqadi: - qashshoqlikni maksimal darajada kamaytirish yoki umuman olganda, ijtimoiy farovonlikni oshirishga intilish (ya’ni maqsad); qashshoqlikni kamaytirish bo‘yicha cheklangan budjet (ya’ni budjet cheklovi); Interventsiya qamrab olingan benefitsiarlarning soni va transfertlar darajasi o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv (ya’ni imkoniyat narxi). Siyosat muhitining ushbu uchta xususiyati kambag‘al uy xo‘jaliklari uchun maqsadli transfertlarga qaytish ehtimoli borligini, ya’ni transfertga eng muhtoj deb hisoblangan uylarga o‘tkaziladigan budjet miqdorini ko‘paytirishni nazarda tutadi. 100 million odam bo‘lgan iqtisodiyotni tasavvur qiling, ulardan 30 millioni kambag‘al. Transfer dasturi uchun budjet 300 million dollarni tashkil qiladi. Hech qanday nishonga ega bo‘lmagan holda, dastur aholining barchasiga 3 dollardan berishi mumkin. Agar dastur faqat kambag‘allarga mo‘ljallangan bo‘lsa, u har bir kambag‘alga 10 dollardan berishi va budjetni to‘liq sarf qilishi mumkin edi. Yoki har bir kambag‘al odamga atigi 90 million dollarlik budjet uchun 3 dollar berishda davom etishi mumkin. Shunday qilib, maqsadli yo‘naltirish - bu kam ta’minlan-

ganlar uchun belgilangan dastur budjeti doirasida olinadigan foyda miqdorini oshirish orqali dastur samaradorligini oshirish vositasi.

Maqsadga sarflash xarajatlari maqsadning afzalliklarini ko'rsatish uchun yuqorida aytib o'tilgan ssenariyda, kimning qashshoq va kimning kamligini ajratish mumkin deb taxmin qilingan. Darhaqiqat, kimning muhtojligi haqida ma'lumot olish uchun xarajatlar talab etiladi va hatto, kamdan-kam hollarda bunday ma'lumotlar mukammaldir. Ushbu xarajatlar quyidagicha tasniflanishi mumkin: Ma'muriy xarajatlar. Ushbu xarajatlarga ma'lumot yig'ish xarajatlari kiradi, masalan, uy xo'jaliklarini sinovdan o'tkazish yoki qashshoqlik xaritasi asosida so'rov o'tkazish. Ushbu xarajatlarning mavjudligi, nafaqa oluvchilarga budjetdan kamroq mablag'ajratilishini anglatadi. Umuman olganda, biz aniq maqsadga yo'naltirilgan ma'lumot to'plash xarajatlari oshishini kutmoqdamiz. Ehtimol, aniqroq maqsadlar ko'rsatilishi nafaqa oluvchilarning umumiy sonining kamayishini anglatadi, ma'muriy xarajatlar umuman kamayadi yoki umuman xarajatlar ulushi. Bu ikki kuchdan kelib chiqadi. Birinchidan, maqsadli dastur oz sonli odamlarga xizmat qilishi mumkin, shuning uchun imtiyozlarni yetkazib beradigan texnikaning umumiy hajmi kichikroq bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, agar qat'iroq maqsadlash mijozga katta foyda keltiradigan bo'lsa, ma'muriy xarajatlarning ulushi past bo'ladi. Maqsadlar to'g'risida ma'lumot to'plash uchun har bir xonadonga 1 dollardan, foyda yetkazib berish uchun ma'muriy xarajatlar uchun har bir xonadonga 5 dollardan, 100 dollarga teng dasturni tasavvur qiling. Agar dastur 1 million mijoz uyiga xizmat ko'rsatadigan bo'lsa, unda ma'muriy xarajatlarning umumiy qiymati 6 million dollarni, umumiy qiymati 106 million dollarni va ulushi ma'muriy xarajatlar taxminan 6 foizni tashkil qiladi. Endi aytaylik, juda aniq maqsadlarga o'tishni tasavvur qiling, demografik nishonlashdan o'rtacha sinovga qadar. Ma'lumot yig'ish narxi maqsadli yo'naltirish har bir uy uchun 5 dollarga ko'tarilishi mumkin. Mijozning foydasiga foyda olish qiymati 5 \$ bo'lib qolmoqda. Ammo hozirda dastur atigi 250 ming oilaga xizmat qiladi, shuning uchun ma'muriy xarajatlar 2,5 million dollarni tashkil etadi, bu avvalgidan past. Agar nafaqa har bir oila uchun 100 dollardan saqlansa, u holda jami budjet 27,5 millionni tashkil etadi va ma'muriy xarajatlarning ulushi 10 ga yaqin bo'ladi. Agar aniq maqsadlar yordamida bo'shatilgan ba'zi manbalarni oshirish uchun

foydalanilsa har bir oila uchun 200 AQSh dollaridan foyda, shunda umumiy xarajatlar 52,5 million dollarni tashkil etadi va ularning ulushi ma'muriy xarajatlar taxminan 5 foizni tashkil etadi, bu ham mutanosib ravishda, umumiy dastur budjetining ulushi.

Shunga qaramay, maqsadga yo'naltirish nuqtayi nazaridan, ayniqsa, qiziqish borligiga e'tibor bering, maqsadli transfertlar to'g'risida qaror qabul qilinganligi sababli yuzaga kelgan xarajatlar darajasi o'rtasidagi bog'liqlik kambag'allarga va ushbu qo'shimcha xarajatlar natijasida maqsadli ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga. Shunday qilib shu nuqtayi nazardan, maqsadsizlikni kamaytirish har doim maqsadga muvofiqdir. Tegishli dastur ma'muriy xarajatlari, agar maqsad bo'lsa yuqori maqsadli xarajatlar qabul qilinadi. Transfertlarni maqsadli yo'naltirishning nisbiy hajmini talqin qilishda dasturlar bo'yicha ma'muriy xarajatlar, shuningdek, ba'zi xarajatlar mavjudligini tan olish kerak (ya'ni dasturga kiritilgan uy xo'jaliklari sonidan va / yoki mustaqil ravishda dasturlarning iqtisodiy samaradorligi nisbiy bo'lishi uchun uy xo'jaliklariga berilgan transfer darajalari) dastur hajmiga juda sezgir. Belgilangan maqsadli xarajatlarga e'tibor qaratish shuni anglatadiki, qimmat nishonga olish usullari faqat katta uchun kafolatlangan bo'lishi mumkin (ya'ni katta transfer darajalariga va yoki juda ko'p sonli dasturlarga).

Xususiy xarajatlar: Uy xo'jaliklari, shuningdek, transfertlarni amalga oshirishda xususiy xarajatlarni o'z zimmalariga olishadi. Masalan, ish haqi dasturlari uy xo'jaliklari uchun shartli xarajatlarni o'z ichiga oladi. Navbatga o'xshash narsalar kiradi, lekin odatda ancha kichikroq, imkoniyat xarajatlari. Uy xo'jaliklari sertifikatlar olish uchun naqd xarajatlarga ham duch kelishlari mumkin dastur uchun zarur (milliy guvohnoma, yashash joyi, nogironligi va hk) va dastur idoralariga olib borish va qaytarish uchun. Uy xo'jaligi tomonidan xususiy xarajatlar ko'pincha e'tiborga olinmaydi, dasturlarni baholashda juda muhim bo'lishi mumkin, ayniqsa, o'zini o'zi tanlashda, usullardan foydalanilganda yoki dasturga kirish harakatlar bilan shartlangan bo'lsa).

Rag'batlantirish xarajatlari: Bu ko'pincha bilvosita xarajatlar deb ataladi. Ular mavjud, chunki muvofiqlik mezonlari mavjudligi uy xo'jaliklarini o'z xatti-harakatlarini o'zgartirishga majbur qilishi mumkin. Masalan, dastur faqat quyidagilar uchun ochiq minimal

daromad ba'zi uy xo'jaliklarining ishchi kuchi ta'minotini va shu tariqa ularning ish haqini kamaytirishiga olib kelishi mumkin. Minimal miqdorni kafolatlaydigan pul o'tkazmalarining sabablaridan biri bu daromaddan qat'i nazar daromad istalgan deb hisoblanmaydi.

## 14.2. Maqsadli transfertlar va rivojlanish

Umumdavlat moliyasi davlat budjetini, ijtimoiy sug'urta fondini hamda davlat mol-mulk va shaxsiy sug'urtasi fondini, soliq tizimini o'z ichiga oladi. Davlat pul mablag'larining asosiy markazlashgan fondi bo'lmish davlat budjeti moliya tizimining muhim bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. **Davlat budjeti – bu, davlat daromadlari va xarajatlar hamda ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir.** Davlat daromadlari va xarajatlarning asosiy qismi davlat budjeti orqali o'tadi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdir.

Davlat budjetining ikki tomoni bo'lib, bir tomonida budjetga kelib tushadigan daromadlar tarkibi va ularning manbalari, ikkinchi tomonida esa asosiy xarajatlarning tarkibi va miqdori o'z ifodasini topadi.

Davlat mol-mulk va shaxsiy sug'urtasi umumdavlat moliyasining keyingi bo'g'ini hisoblanib, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar va fuqarolarga joriy qilinadi. U majburiy va ixtiyoriy bo'lishi mumkin. Bu maqsadlar uchun fondlar korxonalar va aholining to'lovlari hisobiga shakllanadi. Fond mablag'lari mol-mulk sug'urtasiga va shaxsiy sug'urtaga pul to'lashni ko'zda tutadi.

Shaxsiy sug'urta aholining pul jamg'armalarini tashkil qilishning shakllaridan biri bo'lib ham xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tib borish bilan jamiyat moliya tizimida turli xil sug'urta (ijtimoiy sug'urta, tibbiy sug'urta) fondlari va budjetdan tashqari moliya fondlari (pensiya fondi, aholini ish bilan ta'minlash fondi, tabiatni muhofaza qilish fondi, tarixiy yodgorliklarni saqlash fondi, tadbirkorlarga ko'mak berish fondi va boshqalar)ning ahamiyati ortib boradi.

Maqsadli ijtimoiy transfertlar yuqori turuvchi budjetdan quyi turuvchi budjetga ta'lim va tibbiyot muassasalarining ish haqi va

yagona ijtimoiy to'lovlar bo'yicha xarajatlarini qoplash uchun ajratiladi.

Maqsadli ijtimoiy transfertlarning miqdorlari:

– O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga – asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda;

– Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetidan tumanlar va shaharlar budjetlariga — Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari tasdiqlanayotganda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan belgilanadi. Foydalanilmagan maqsadli ijtimoiy transfertlar joriy moliya yili oxirida tegishli yuqori turuvchi budjetga qaytarilishi kerak.

### **14.3. Maqsadli transfer dasturining amalga oshirilishi**

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlarning chuqurlashuvi, mahalliy hokimiyat organlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi rolini yanada oshirib, moliya-budjet sohasidagi huquqlarini kengaytirish va ularning moliyaviy bazasini mustahkamlash zaruratini keltirib chiqaradi. Chunki hududlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yanada rivojlantirish, hududlarning muvozanatli rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishda budjet tizimi va uning yetakchi bo'g'ini hisoblangan mahalliy budjetlarning roli yuqoridir. Harakatlar strategiyasining "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish" qismida davlatning budjet siyosati samaradorligini oshirish va mahalliy budjetlar mustahkamligini ta'minlashga e'tibor qaratilgan. Mahalliy budjetlar daromadining shakllanishida budjetlararo transfertlarning roli yuqoridir, bu holat ularning daromad bazasini mustahkamlash bo'yicha islohotlarni olib borilishini taqozo qiladi. Bugungi kunda mahalliy budjetlar daromad bazalari barqarorligini ta'minlashda mahalliy soliqlarning roli yetakchi bo'lmay, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar, budjetlararo transfertlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizning ayrim

mintaqalaridagi dotatsiya oluvchi tumanlarda boqimandalik kayfiyatining rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda mahalliy budjet resurslarini samarali shakllantirish va mahalliy budjetlar moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish masalalari dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi hisoblanib, davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi tadbirlarni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, davlat boshqaruv organlarining tuzilishi, ularning har qaysi bo'g'iniga davlat vazifalarini bajarish bo'yicha yuklatilgan vazifalarga asoslanib, ularning ixtiyorida turli darajadagi budjetlar shakllantiriladi. Shunga asoslangan holda davlat budjetining xarajat majburiyatlari ham turli darajadagi budjetlar o'rtasida taqsimlanib, bu o'z navbatida davlat budjeti daromadlarining har qaysi budjetlar o'rtasida taqsimlanishiga asos bo'lib hisoblanadi.

Daromad va xarajatlarning budjetlar o'rtasida qonuniy tartibdagi taqsimlanishi budjetlar o'rtasidagi vertikal disbalans holatlarini vujudga keltiradi. Vertikal disbalansning vujudga kelishi bir qator omillarga bog'liqdir. Bular quyidagilar hisoblanadi:

- davlat vazifalarini moliyalashtirishdagi mandatlarning turli darajadagi hokimiyat organlari o'rtasida taqsimlanishi, mahalliy budjetlar daromad bazasining shakllanishi bilan bevosita to'g'ri kelmaydi;

- yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishdagi hududiy tafovut va soliq bazasining notekis taqsimlanish muammolarining mavjudligi;

- davlat ijtimoiy xizmatlarining barcha hududlarda bir tekisda ko'rsatish zarurati va boshqalarni hisoblash mumkin.

Hozirgi kunda davlat moliyasi sohasidagi asosiy muammolardan biri davlat budjeti daromadlarini turli darajadagi budjetlar o'rtasida qayta taqsimlash tizimi bilan ham bevosita bog'liq bo'lmoqda.

Mahalliy budjetlar O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi- ning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida aniq moliyaviy baza yaratadi. Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy talab ehtiyojlarini to'liqroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlar bilan

to'g'ri olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy budjetlarning mavqeyini yanada oshirish hukumatning budjet siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi ahamiyatga ega.

Fiskal federalizm muammosida davlat hokimiyatining turli darajalarida davlat vazifalarini taqsimlanishi, davlat tovar va xizmatlarini yetkazib berishdagi mavjud majburiyatlarni davlat hokimiyatining turli darajalarida taqsimlanishi asos bo'ladi. Uning ta'kidlashicha, ba'zida shunday holatlar bo'lishi mumkinki, xarajat majburiyatlari, yuklatilgan davlat hokimiyati organlarining mavjud vakolatiga to'g'ri kelmasligi mumkin. Bunday holatlarda vakolatlarni delegirlashtirish holatlari vujudga keladi. Shuning uchun ham bunday xarajatlarni moliyalashtirishda budjetlararo transfertlardan foydalanilishi mumkin. Xususan, O'zbekistonda ham shunday holatlar mavjud. Masalan, aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarini olib qaraydigan bo'lsak, ushbu xizmatlar bo'yicha standart me'yorlarni markaziy hokimiyat o'rnatadi. Demak, qaror qabul qilish markaziy hokimiyat organlarining vakolati hisoblanadi. Lekin moliyaviy ta'minlash mahalliy davlat hokimiyati organlarining majburiyatiga kiritilishi natijasida, hozirgi sharoitda ayrim budjetlarga subvensiyalar berilmoqda. Natijada bunday xizmatlarni respublikaning barcha hududlarida taqdim etishning standart miqdori ta'minlanadi.

Yuqoridagi omillar ta'sirida budjet tizimini gorizontal tenglashtirish tizimiga ehtiyoj vujudga keladi va bunday tenglashtirishda foydalaniladigan instrumentlarni amaldagi "Budjet kodeksi"ga muvofiq budjetlararo transfertlar deb yuritilmoqda. Har bir yuqori budjetdan quyi budjetga ajratiladigan daromadlar amaldagi budjet qonunchiligiga ko'ra "budjetlararo transfertlar" deb nomlanib, o'ziga xos ravishdagi funksional vazifalarni bajaradi. Ular hudud iqtisodiyotini rivojlantirish yoki hududlar budjet salohiyatidan oqilona foydalanish jarayoniga negativ yoki pozitiv ta'sir etadi. Buni yuqoridagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin Bunday trasfertlar "O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi" ning 134-moddasida quyidagicha ifodalangan: «Budjetlararo transfertlar subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar, budjet ssudasi va o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar shaklida amalga oshiriladi.

Budjetlararo transfertlarning hajmlari:



– joriy moliya yilida turli darajadagi budjet daromadlari va xarajatlari o'zgarishiga sabab bo'luvchi qonun hujjatlari qabul qilinganda;

– tegishli barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushishidan hamda budjetdan ajratiladigan mablag'larning o'zlash-tirilishidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Yuqori turuvchi moliya organi tashabbusi bilan yuqorituruvchi budjet quyituruvchi budjet oldidagi budjetlararotransfertning bir shakli bo'yicha majburiyatlari quyituruvchi budjetning yuqorituruvchi budjet oldidagi budjetlararo transfertning boshqa shakli bo'yicha majburiyatlarini kamaytirish evaziga hisobga olinishi mumkin». Mahalliy budjetlar daromadlari tarkibida budjetlararo transfertlarning ham salmog'i ahamiyatli bo'lmoqda. Lekin keyingi yillardagi tendensiya ushbu daromadlarning kamaytirish, ularning xususiy daromad bazasini oshirishga qaratilgan. Bu holat mahalliy budjetlarning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish bilan bog'liq islohotlarni amalga oshirish tufayli ta'minlanmoqda. Jahon amaliyotida mahalliy budjetlarning moliyaviy imkoniyatlari ularning absolyut barqarorligi orqali ifodalanadi. Ular tomonidan moliyalashtiriladigan xarajatlarni biriktirilgan daromadlar(asosan mahalliy soliqlar va yig'imlar) va me'yoriy ajratmalar shaklidagi tartibga soluvchi daromadlar hisobiga to'liq moliyalashtirish imkoniyatlari tushuniladi. Buni quyidagi formula asosida ko'rib o'tishimiz mumkin:

$$B_x < D_b + D_t;$$

$B_x$ – budjet xarajatlari;

$D_b$ -budjetning biriktirilgan daromadlari;

$D_t$ - tartibga soluvchi daromadlar;

Agar, biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlar yetishmasa, bunday sharoitda moliyaviy tenglashtirish siyosati bo'yicha yuqori budjetdan moliyaviy yordam shakllari hisobiga mablag'lar ajratiladi. Bunday holat mahalliy budjetlarning nobarqarorlik holati sifatida e'tirof etiladi.

Keyingi 5 yil mobaynida budjetlararo transfertlarning mahalliy budjetlar daromadlaridagi ulushi kamayib borgan. Xususan, 2012–yilda ularning ulushi 27 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2013–yilda 26,9%ni, 2014–yilda 26%ni, 2015–yilda 17,9%ni va 2016–yilda 13,4%ni tashkil etmoqda. Dotatsion rejimdagi budjetlar 2012–yilda faqat 1 ta viloyat,

ya'ni Namanganda qolgan bo'lib, jami budjet daromadlaridagi dotatsiyalar 23,1 mlrd. so'mni tashkil etgan. Budjetlararo transfertlarning mahalliy budjetlar daromadlaridagi ulushida subvensiyalarning roli yuqori bo'lgan. Budjetlararo transfertlarning asosiy instrumentlaridan biri dotatsiyalar hisoblanib, hozirgi sharoitda yuqori budjetdan o'rta bo'g'in budjetlarga (QQR, Toshkent shahar va viloyatlar budjetlari) dotatsiyalar ajratish amaliyoti mavjud emas. Bu amaliyot 2012–yilgacha keng qo'llanilgan. Lekin, hozirgi sharoitda o'rta bo'g'in budjetlardan ularning tarkibidagi tuman va shahar budjetlariga dotatsiyalar ajratish amaliyoti mavjud bo'lib, ushbu holat nisbatan past darajada iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan tumanlarda kuzatilmoqda. Dotatsiyalar yuqori turuvchi budjetdan quyi turuvchi budjetga quyi turuvchi budjet xarajatlarining rejalashtirilgan hajmi subvensiyalar va o'tkazib beriladigan daromadlar hisobga olingan holda mazkur budjet daromadlarining prognoz qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda ajratiladi. Budjetlararo transfertlar tizimida subvensiyalarning ham o'ziga xos ahamiyati mavjuddir. “O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi”ga muvofiq “Subvensiya — muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi budjetdan quyi turuvchi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari”. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, subvensiyalar asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilangan xarajatlarni amalga oshirish uchun ajratiladi. O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga beriladigan subvensiyalarning miqdorlari asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarining viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetidan tumanlar va shaharlar budjetlariga beriladigan subvensiyalarning miqdorlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan belgilanadi.

Hozirgi sharoitda o'rta bo'g'in budjetlardan ularning tarkibidagi tuman va shahar budjetlariga dotatsiyalar ajratish amaliyoti mavjud bo'lib, ushbu holat nisbatan past darajada iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan tumanlarda kuzatilmoqda. Mahalliy

budjetlar daromadlari tarkibida budjetlararo transfertlar ulushining mavjudligi va uning nisbatan daromadlar tarkibidagi salmog'ining yuqoriligi ularning yuqori budjetlarga moliyaviy qaramligi, o'ziga xos ravishdagi budjet xarajatlarini ta'minlash bilan bog'liq joriy xarajatlarni moliyalashtirishda "likvidlilik" muammolarini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham yaqin va o'rta istiqbolda mahalliy budjetlar daromadlari tarkibida budjetlararo transfertlar ulushini kamaytirish bo'yicha islohotlarni chuqurlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlash bir paytning o'ziga umumiy va moliyaviy omillarga bog'liqdir.

Mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlashning umumiy va moliyaviy omillari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- sanoat ishlab chiqarish sohasida yangi korxonalar va kichik korxonalarini tashkil etish;

- hudud iqtisodiyotining boshqa tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;

- xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish;

- mavjud korxonalarini sog'lomlashtirish, modernizatsiya qilish, qayta qurollantirish;

- istiqbolsiz ishlab chiqarish korxonalarini yangi mulk egalari bilan sotish orqali sog'lomlashtirish va boshqalar.

Yuqoridagi omillar hudud iqtisodiyotining barqarorlashuviga olib keladi va bu o'z navbatida mahalliy budjetlar daromad bazasiga ijobiy ta'sir etadi. Mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlashning moliyaviy omillariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- soliqlarni markazlashgan holda bosh korxonalar tomonidan to'lanishini joylarga to'lash tartibini joriy etish;

- soliq to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlarni muddati tugashi hisobiga qo'shimcha daromadlarni shakllantirish;

- soliqlar bo'yicha boqimanda qarzdorlikni kamaytirish va soliqlarni yig'uvchanligini oshirish borasidagi islohotlarni chuqurlashtirish orqali mahalliy moliya tizimini sog'lomlashtirishga erishilishi mumkin.

#### 14.4. Maqsadli transfer dasturlarini baholash

Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari muvozanatda bo'lishini taqozo qiladi. **Lekin ko'pchilik hollarda davlat budjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchaligi kuzatiladi, buning oqibatida budjet taqchilligi ro'y beradi.** Bu holning sabablari ko'p bo'lib, ularning ichida, davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz o'sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi alohida o'rin tutadi. Budjet taqchilligining o'sishi yoki kamayishi mutlaq miqdorda va uning yalpi ichki mahsulot (YaIM)ga nisbatida aniq namoyon bo'ladi.

Budjet taqchilligining o'zgarishi xo'jalik konyunkturasidagi joriy tebranishlar, ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va yuksalishlarni ham aks ettiradi, inqirozlar davrida davlat budjet mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning ma'lum sektorlarini moliyaviy ta'minlab turishga, umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarda investitsiyalar hajmini saqlab turishga majbur bo'ladi.

O'rnatilgan xalqaro standartlarga ko'ra budjet taqchilligi YaIMning 5% darajasidan oshmasligi lozim. Budjet taqchilligi, asosan, davlat qarzi hisobiga qoplanadi.

Davlat qarzi ichki va tashqi qarzlardan iborat bo'ladi. **Davlat ichki qarzi – bu, davlatning mamlakat ichida zayomlar va boshqa qimmatli qog'ozlarini chiqarish, turli nobudjet fondlari (sug'urta fondi, ishsizlik bo'yicha sug'urtalash fondi, pensiya fondi)dan qarz olish ko'rinishidagi qarzlari.**

Budjet taqchilligini moliyalashtirish (qoplash)ning muhim ko'rinishlaridan biri davlat krediti hisoblanadi. **Davlat krediti – davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga tushadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi.**

Moliyaviy resurslarni davlat tomonidan qarzga olishning asosiy shakli – bu davlat qarz majburiyatlari (zayomlari)ni chiqarish hisoblanadi. Ularni joylashtirish jarayonida davlat aholi, banklar, savdo va sanoat kompaniyalarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qiladi.

Davlat o'z majburiyatlarini nafaqat xususiy sektorda joylashtirishi, balki ularni Markaziy bankda hisobga olishi ham mumkin. Bunda bank muomalaga pulning tovar hajmining ko'payishi bilan bog'liq bo'l-

magan qo‘shimcha miqdorini chiqaradi. Mazkur holda, davlat budjetini moliyalashtirish pul muomalasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri inflyatsion ta‘sir ko‘rsatadi. Pul massasining o‘sishi jamiyat haqiqiy boyligining ko‘payishi bilan birga bormaydi.

Davlat qarzlarning to‘xtovsiz ko‘payib borishi, milliy daromadni foiz to‘lovlari shaklida tobora ko‘proq qayta taqsimlanishga olib keladi.

Katta budjet taqchilligi va davlat majburiyatlari bo‘yicha foiz to‘lovlari o‘shish sharoitida, davlat qarzlarni to‘lash vaqtini imkon darajada cho‘zishga harakat qiladi. Buning uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin. Jumladan, davlat o‘zining qisqa muddatli majburiyatlarini o‘rta va uzoq muddatli zayomlarga almashtiradi. U o‘zining qisqa muddatli majburiyatlarini, ancha yuqori foiz bo‘yicha yangi, uzoq muddatli zayomlar chiqarish hisobiga ham sotib olish mumkin. Bunday turdagi tadbirlar qisqa davrli samara berishi va vaqtincha davlatning moliyaviy ahvolini yengillashtirishi mumkin, chunki u odatda kelgusida foiz stavkasining oshishi va qarzlarning umumiy miqdorining o‘sishi bilan bog‘liq.

Xo‘jalik hayoti baynalmillashuv jarayonlarining tez o‘sishi, xalqaro kreditning jadal rivojlanishi natijasida davlat o‘ziga zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun bo‘sh pul mablag‘larining milliy chegaradan tashqaridagi manbalaridan faol foydalanadi. Buning natijasida tashqi qarz vujudga keladi. **Davlat tashqi qarzi – xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz.**

Tashqi qarzning me‘yoridan oshib ketishi milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Agar tashqi qarz bo‘yicha to‘lovlar mamlakat tovar va xizmatlari eksportidan tushumning ahamiyatli qismi, masalan, 20-25% dan oshib ketsa, bu holat mamlakatning kredit bo‘yicha reytingini pasaytirib yuboradi. Natijada, chetdan yangi qarz mablag‘larini jalb etish mushkullashadi. Shunga ko‘ra, davlatlar muntazam ravishda tashqi qarzni tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshirib boradilar. Bular qatoriga mamlakat oltin-valyuta zaxirasi hisobidan qarzlarni to‘lab borish; kreditorlarning qarz to‘lov muddatlarini o‘zgartirishlari, ayrim hollarda ularning ma‘lum qismidan voz kechishlariga erishish; qarzlarni mamlakatdagi ko‘chmas mulklar, qimmatli qog‘ozlar, kapitalda ishtirok etish va boshqa huquqlarni sotish hisobiga to‘lash; xalqaro banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlardan yordam olish va h.k.

Demak, davlat o'z faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda ssuda kapitallarining ham milliy bozorida, ham tashqi bozorida qarz olishi mumkin.

Xalqaro kreditning tez o'sishi kapitalning mamlakatlararo migratsiyasi, mamlakat va mintaqalar iqtisodiy o'zaro bog'liqligi chuqurlashuvining muqarrar natijasi hisoblanadi. Xalqaro kredit moliyaviy resurslarni ham xususiy sektorning ehtiyojlarini qondirish, ham davlat budjeti taqchilligini qoplash uchun jalb qilish imkoniyatini sezilarli kengaytiradi. Shu bilan birga tashqi qarzlarning o'sishi bir qator boshqa muammolarni keltirib chiqaradi. Bu o'rinda eng asosiy muammo milliy iqtisodiyotning kreditor va debitor mamlakatlar iqtisodiyotiga bog'liqligining kuchayib borishi hisoblanib, bu jarayonni mamlakatdagi ichki moliyaviy dastaklar bilan nazorat qilish imkoniyati bo'lmay qoladi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar:**

**Moliya** – pul mablag'larining harakati, ya'ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan munosabatlar.

**Moliyaviy munosabatlar** – davlat, mintaqalar, tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar hamda alohida fuqarolar o'rtasida pul mablag'lari fondlarining harakati bilan bog'liq holda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmuyi.

**Moliya tizimi** – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

**Moliyaviy siyosat** – davlatning o'z vazifalarini amalga oshirish uchun moliyani tashkil etish va foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar majmuyi.

**Fiskal (solliq-budjet) siyosati** – davlat tomonidan iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish maqsadida solliqqa tortish va davlat sarfi tarkibini o'zgartirish bo'yicha qo'llaniluvchi chora-tadbirlar.

**Davlat budjeti** – davlat daromadlari va xarajatlari hamda ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi.

**Budjet taqchilligi** – davlat budjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchaligi.

**Davlat ichki qarzi** – davlatning mamlakat ichida qimmatli qog‘ozlarini chiqarish, turli nobudjet fondlaridan olgan qarzi.

**Davlat tashqi qarzi** – xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz.

**Davlat krediti** – davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga tushadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Maqsadli transfertlarning iqtisodiy mazmunini tushuntiring va uning iqtisodiy vazifalarini bayon qiling.

2. Jamiyat va davlat moliya tizimlari asosiy bo‘g‘inlarining tavsifini bering. Moliya tizimida maqsadli transfertlarining o‘rni qanday?

3. Maqsadli transfertlar dasturlari milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashda qanday rol o‘ynaydi? Bunda qanday usullardan foydalaniladi?

4. Budjet taqchilligi nima?

5. Ijobiy va salbiy budjet taqchilligini tushuntiring.

6. Maqsadli transfertlar dasturlarining turlarini, asosiy vazifalarini ko‘rsating.

7. Moliyaviy siyosat va fiskal siyosatning umumiy va farqli jihatlarini tavsiflang.

8. Davlatning ichki va tashqi qarzlari manbalarini izohlab bering.

9. Maqsadli transfertlar dasturlarining iqtisodiyotga ta‘sirini ko‘rsatib bering.

10. Maqsadli transfer dasturlarini baholash qanday amalga oshiriladi?

## **15-MAVZU: QISHLOQ XO‘JALIGIGA BOZOR ARALASHUVI VA ISLOHOTLAR**

**15.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligidagi bozorga davlat aralashuvi.**

**15.2. Qishloq xo‘jaligiga bozor aralashuvlari amalga oshirish islohotlari.**

**15.3. Qishloq xo‘jaligiga bozorlar aralashish islohotlari iqtisodiyoti.**

**15.4. Qishloq xo‘jaligidagi bozor islohotlarining foyda va xarajatlari.**

**15.5. Qishloq xo‘jaligi bozorlarini erkinlashtirish.**

### **15.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligidagi bozorga davlat aralashuvi**

Markaziy Osiyo qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bo‘yicha xilma-xildir. Mintaqa respublikalari o‘rtasida hamda mamlakatlar ichkarisida ham ekin parvarishlash va agrar tuzilmalar bo‘yicha tafovut bor. 1991–yildan buyon mintaqada ekin ekishning xilma-xil usullari ko‘paydi, lekin ayrim mamlakatlar ma‘lum darajada o‘z ixtisosligini ham saqlab qoldi. Menimcha, bu kimning nimani ishlab chiqarayotganini hamda mamlakat uchun muayyan bir ekinning qay darajada muhim ekanligini bilish uchun ahamiyatlidir. Bu faqat raqamlardan iborat bo‘lgan suhbatga qaraganda juda qiziqroq va muhimroq.

Bugungi kunda paxta avvalgidek Turkmaniston, O‘zbekiston va Tojikiston iqtisodiyotining asosiy valyuta ekini hisoblanadi va uni yetishtirish ortiqcha qayta ishlovlar va qo‘shimcha haq talab etmaydi. Paxta boshqa joyda qayta ishlanadi. Oq oltin 1990–yillarda O‘zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston iqtisodiyotiga salmoqli hissa qo‘shdi. O‘zbekiston paxta tarmog‘i o‘sha paytda mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 18 foizini egallagan edi. Turkmanistonda esa bu ko‘rsatgich qariyb 25 foiz, Tojikistonda 10 foizni tashkil etgan. Bugungi kunda bu ko‘rsatgich ancha pasaydi: paxta Tojikiston va O‘zbekiston YaIMning 5 foizini, Turkmanistonda – qariyb 2 foizni tashkil etadi.



Janubiy Qozog‘iston va Qirg‘izistonning ayrim viloyatlarida ham paxta yetishtiriladi. Shunday bo‘lsada, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida muhim farqli jihatlar mavjud. Turkmaniston va O‘zbekistonda paxta xo‘jaligi bo‘yicha davlat monopoliyasi, Tojikistonda xususiy xaridor ustunlik qiladi. Qozog‘iston va Qirg‘izistonda paxta bozori va ishlab chiqarish muhiti ancha liberallashtirilgan. Paxta ishlab chiqarish kompleksining bu o‘ziga xosligi uning narxida muhim ahamiyat kasb etadi. Paxta yig‘im-terimi bilan shug‘ullanuvchi korxonalar – paxta tozalash zavodlari raqobatlashayotgan joyda paxtaning bahosi qoidaga ko‘ra, birgina xaridor bo‘lgan joyga nisbatan yuqori bo‘ladi.

Bug‘doy Markaziy Osiyodagi eng muhim ekin va mahsulot bo‘lib, uni yetishtirish uchun ajratiladigan yer maydoni 1991–yildan buyon O‘zbekiston, Turkmaniston va Tojikistonda tobora ortib bormoqda. Sovet hukumati davrida mazkur uch mamlakatdagi yirik xo‘jaliklar asosan paxta va bug‘doy yetishtirishga ixtisoslashgan edi. Ularning ayrimlarida almashlab ekish kuzatilgan. Bugungi kunda ham bug‘doy Markaziy Osiyoda tijorat fermerlari tomonidan, asosan, o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida yetishtirilayotgan asosiy ekinligicha qolmoqda. Qozog‘iston mintaqada bug‘doy yetishtirish bo‘yicha yetakchi mamlakat hisoblanadi. Ushbu mamlakat Sovet hokimiyati paytida mintaqaning g‘allaxonasi hisoblangan va bugungi kunda faqat Qozog‘iston ushbu hududda bug‘doyga to‘q davlat hisoblanib, u bug‘doy (don) va unni qo‘shni respublikalarga eksport qiladi. Shu bilan birga, Qozog‘iston uni Tojikiston uniga qaraganda ancha sifatli sanaladi ham. Tojikistonda bug‘doyga bo‘lgan talabning teng yarmi Qozog‘istondan keltirilgan mahsulot bilan qondiriladi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo xilma-xil meva-sabzavotlari bilan ham mashhurdir. Mintaqa muhiti va yeri bahordan kuz oylarigacha turli meva-sabzavotlarni yetishtirish imkonini beradi. Sovet hokimiyati paytida kolxozlarda bog‘dorchilik ancha rivojlangan edi.

Yirik fermerlar uchun tez buziladigan mahsulotni katta hajmda ishlab chiqarish va sotish ko‘pincha muammo hisoblanadi. Mintaqa infratuzilmasi va bozorlari oldingidek, katta hajmdagi meva-sabzavotlarni saqlashga u qadar mos emas. Fermerlarda ularni saqlash yoki transportirovka qilish imkoniyati yo‘q. Bunday mahsulotlar yoz oylarida yuqori haroratda tegishli tarzda saqlanmasa yoki tez sotilmasa, qisqa vaqt ichida aynib qoladi. Shu bois, ayrim fermer-

larning xarid qilish narxi nisbatan kam bo'lsada, paxta yetishtirishni afzal ko'rishlarini shundan ham bilsa bo'ladi.

Mintaqa bozori mintaqa mamlakatlari hamda uning muhim savdo sheriklari bo'lmish Rossiya, YI va Xitoy uchun muhimdir. Paxta va bug'doy Markaziy Osiyoning Rossiya, YI va Xitoyga eksport qiladigan asosiy mahsuloti sanaladi. Shuningdek, savdoda meva-sabzavotlar ham muhim o'rin egallaydi.

Turli mamlakatlarning eksport o'ziga xosligi haqida gap borganda, shuni ta'kidlash kerakki, aksariyat mamlakatlarning ishlab chiqarish andozasi bir xil. Sharqiy O'zbekistondagi Farg'ona vodiysi, Tojikiston shimoli va Qirg'iziston janubidagi fermerlik ishlab chiqarishlari bunga misol bo'la oladi. Ushbu barcha fermalarda meva-sabzavotlar, yong'oqlar yetishtirilib, ular ichki bozorga sarxil va quritilgan tarzda sotiladi. Bunda har uchala mamlakat mahsulotni mahalliy iste'molchilarga sotish va kamroq qismini eksport qilishi bilan bir-biriga o'xshab ketadi. Biroq mahsulotni qo'shni mamlakatlarga eksport qilish darajasi alohida o'rin tutadi. Qozog'istonga asosan meva-sabzavotlar, xorijga quritilgan meva va yong'oqlar eksport qilinadi. Qozog'iston mintaqadagi eng asosiy eksport qiluvchi mamlakatdir. Ushbu mamlakat Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlariga katta hajmda don va un, kamroq hajmda sut mahsulotlari eksport qiladi. Bug'doy va don mahsulotlari, jumladan un, non Qozog'iston qishloq xo'jaligi eksportining 60 foizidan ko'prog'ini tashkil etadi.

Paxta yetishtirishga ixtisoslashgan uch mamlakatda ham paxta YI va Xitoyga eksport qilinadigan muhim tovar sanaladi. Biroq paxta dalasidan zavod, savdo maydonigacha bo'lgan eksport jarayonini kuzatish mushkul. "G'arb" brendlari zavoddagi mehnat sharoitlariga katta e'tibor beradilar, lekin paxta dalalaridagi ahvol haqida kam ma'lumotga ega.

Paxta Tojikistonda ham eng muhim mahsulot hisoblanadi. Paxta (xususan paxta yog'i, kunjara singari uning qoldiqlari) mamlakat qishloq xo'jaligi eksportining 60 foizini tashkil etadi (FAOning 2016-yilgi ma'lumotlartga ko'ra). Turkmanistonda paxta eksport qilinadigan eng muhim qishloq xo'jaligi tovari sifatida ahamiyatlidir (paxta, jumladan, paxta yog'i va kunjara mamlakat qishloq xo'jaligi eksportining 80 foizini tashkil etadi). O'zbekistonda esa, qishloq

xo‘jaligi mahsulotlari eksporti xilma-xil bo‘lib, bu yerda paxta Tojikiston va Turkmanistonga qaraganda kam eksport qilinadi.

Xitoy Markaziy Osiyoda eng muhim ishtirokchiga aylanib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ba‘zi turlari Xitoyga eksport qilinyapti va ushbu eksportda paxta eng asosiy o‘rinni egallayapti. Tahlilchilarning fikricha, Xitoy bozoriga meva-sabzavotlarni yetkazib berish salohiyati mavjud. Bugungi kunda Xitoyga asosan paxta eksport qilinadi, savdo balansi esa salbiy holda turibdi: Markaziy Osiyo respublikalari Xitoyga mahsulot eksportidan ko‘ra, ko‘proq importni amalga oshiryapti. E‘tiborli jihati shundaki, Tojikiston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston qozoq bozoriga meva-sabzavot yetkazib berish bo‘yicha Xitoy bilan raqobatlashmoqda.

YI bilan savdo-sotiq qilish paxta, don va Qozog‘istondan urug‘lik mahsulotlarni eksport qilishdan iborat. Shu bilan birga Markaziy Osiyo respublikalari Yevropadan oziq-ovqat mahsulotlari, birinchi navbatda qayta ishlangan mahsulotlarni import qilmoqda. Bu mintaqa aholisining turmush darajasi yuksalganidan dalolatdir. Bu yerda «supermarketlashtrish» tendensiyasi mavjud bo‘lib, bunda bozorlar o‘z o‘rnini supermarketlarga bo‘shatib beryapti. Bunday rivojlanish, eng avvalo, shaharlarda yuz bermoqda. Qishloq joylarida kichik bozorlar avvalgidek qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotiladigan asosiy joyligicha qolyapti.

Markaziy Osiyo mamlakatlari choy, shakar; go‘sh (tovuq go‘sh); o‘simlik yog‘i; sariyog‘, pasterizatsiya qilingan sut singari sut mahsulotlari; qahva va kakao (shokolad) mahsulotlarini import qiladilar. Bu mahsulotlarning ayrimlari turli mamlakatlardan, ba‘zilari esa Qozog‘istondan import qilinadi (ayrim hollarda Qozog‘iston oziq-ovqat mahsulotlarini Markaziy Osiyoning boshqa respublikalariga qayta eksport qiladi). Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqining tuzilishi Markaziy Osiyoda savdo-sotiqni amalga oshirish uchun bir qancha yengilliklar yaratdi. Mazkur ittifoq a‘zo davlatlar o‘rtasida savdo yuritishni osonlashtirdi, biroq mintaqada ittifoqning ta‘siri u qadar sezilmayapti. Chunki chegara atrofi hududlarida ko‘plab norasmiy savdo shoxobchalari joylashgan bo‘lib, ular hudud uchun muhim o‘rin egallaydi. Bu norasmiy savdo qishloq aholisini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlash uchun ham zarur. U mamlakatlar\ makro darajada statistik qayd etib borilmaydi. Shunday bo‘lsada, Markaziy

Osiyo mamlakatlarining qo‘shni respublikalar bilan erkin savdo qilishiga qarshilik qiluvchi bir qancha to‘siqlar bor. Masalan, hali u qadar rivojlanmagan yo‘laklar, bojxona ma‘muriyati va fitosanitar standartlari tufayli savdo qilish jarayoni qiyinlashyapti. Yana bir muammo, Markaziy Osiyodagi ko‘plab mayda fermerlar o‘z urug‘larini tanlashayotganidir. Buning natijasida hosil juda geterogen bo‘lyapti, bu esa katta hajmdagi eksportni amalga oshirishni qiyinlashtirishi mumkin. YI yoki Rossiyalik xaridorlar boshqacha ishlab chiqarish tizimini talab etadigan mahsulotlarni saralashni talab qilishi mumkin.

## **15.2. Qishloq xo‘jaligiga bozor aralashuvlari amalga oshirish islohotlari**

Turli mamlakatlarda islohotlar ularni amalga oshirish sur‘ati va miqyosiga ko‘ra turlicha kechdi. Yer islohotlari Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatda tepadan pastga qarab olib borildi. Ayniqsa, Tojikiston va Qirg‘izistonda xalqaro donorlar bosimi o‘z vazifasini bajardi.

Boshlanishida ba‘zi umumiy mulohazalar:

Birinchidan, butun Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘ylab qishloq xo‘jaligini individuallashtirish boshlandi, biroq yerni xususiy lashtirish faqat Qozog‘iston (2003 – yilda mamlakatda xususiy mulk tan olindi) va Qirg‘izistonda (1998 – yilda xususiy mulk tan olindi va 2001 – yilda erni sotish bo‘yicha to‘lov muddatini uzaytirish bekor qilindi) yuz berdi. Turkmanistonda ham xususiy mulk tan olinsa-da, bu yerda ko‘pincha yerdan foydalanish huquqi qo‘llaniladi. O‘zbekiston va Tojikistonda davlat yerning yagona egasi hisoblanadi. Ushbu mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq, yerni faqat ijaraga berish va undan foydalanish huquqi mavjud.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyoning aksariyat mamlakatlarida yer islohotlari va fermalarni qayta tuzish bosqichma-bosqich darajada olib borildi. Bunda sobiq davlat xo‘jaliklari (sovxozlar) va jamoa xo‘jaliklari (kolxozlar) dastlab aksiyadorlik jamoaviy yoki korporativ fermalar yohud aksiyadorlik holdinglarga aylantirildi. Aksiya egalari ushbu yirik fermalar yerlarini olib, o‘zlarining shaxsiy yerlarini tashkil qilish huquqiga ega bo‘ladilar. Shu bois, Mustaqil Davlatlar

Hamdo'stligidagi yer islohotlari jarayoni o'ziga yerni sobiq kolxozlar va sovxozlarga taqsimlashni ergashtirib boradi. Markaziy va Sharqiy Yevropadagi yer islohotlari boshqacha kechgan edi, unda yer oldingi egalariga qaytarilgan. Qayta tuzish natijasida, Markaziy Osiyoning barcha respublikalaridagi fermer xo'jaliklarining o'rtacha kattaligi biroz qisqartiriladi. Masalan, Qirg'iziston va Tojikistonda fermaning o'rtacha kattaligi besh gektarni; Qozog'istonda 300 gektardan ortiqroq maydonni tashkil etadi. O'zbekistonda 2008 – yilda olib borilgan fermer xo'jaliklarini birlashtirish siyosati natijasida, o'rtacha ferma kattaligi yana oshdi.

Uchinchidan, 1990–yillarda Markaziy Osiyoning barcha respublikalarida umumiy iqtisodiy inqiroz bilan birga qishloq xo'jaligi mahsulotlari ham qisqardi. 1990–yillarning oxirida ushbu mamlakatlarda (Qirg'izistonda 1995–yilda, O'zbekistonda esa 1996–yilda) tarmoqlarni tiklash holatlari yuz beradi. 1990–yillarning boshi barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun qiyin davr bo'lgan. O'sha davrlarda masalan, O'zbekiston va Tojikistonda hukumat qishloq aholisiga (yer uchastkasidan tashqari) qo'shimcha yer ham taqdim etgan. Umuman, mintaqada iqtisodiy qiyinchiliklarga nisbatan «qayta va pereorientatsiya demonetizatsiya» qilish hollari kuzatilgan. Mustaqillikdan keyingi og'ir davrlarda odamlar yashash uchun yerdan foydalana boshlaydi hamda barter – resurslar va oziq-ovqat mahsulotlarini olishda asosiy vositaga aylanadi.

To'rtinchidan, mintaqada qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiyotdagi ulushi ancha qisqardi. Masalan, 1995–yilda Tojikiston qishloq xo'jaligi tarmog'ining mamlakat YaIM dagi hissasi 35%dan ko'proq bo'lgan. 2015–yilda bu ko'rsatgich qariyb 22% ni tashkil etgan. Qirg'izistonda esa, agrar iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi 1995–yilda 40 % dan 2015 – yilda taxminan 15 % gacha pasaygan. 1995–yildagi 40% lik yuqori ko'rsatgich shu bilan izohlanadiki, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ancha qisqarishi natijasida, agrar iqtisodiyotning ahamiyati ortadi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi tarmog'ining mamlakat YaIMdagi hissasi 1995–yilda 28%dan 2015–yilga kelib 17 % gacha, Qozog'istonda esa, 12%dan 5% gacha, Turkmanistonda 16%dan 9 % gacha qisqaradi. Turkmaniston, O'zbekiston va Qozog'istonda tog'-kon tarmoqlari (neft, gaz, oltin va

b.sh) qishloq xo‘jaligining milliy iqtisodiyotdagi ulushida qisman o‘rinbosarlik qiladi.

Beshinchidan, Markaziy Osiyodagi barcha respublikalarda tijorat fermer xo‘jaliklaridan tashqari uy xo‘jaliklarida ham qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish muhimligicha qoladi. Yuqorida aytib o‘tganidek, 1990-yillarda odamlar hovli tomorqasida oziq-ovqat yetishtirgan, aslida esa, uy xo‘jaligida ishlab chiqarish sovet paytida ham eng hal qiluvchi rol o‘ynagan. Sovet ittifoqi davrida tomorqada oziq-ovqat ekinlarini yetishtirish, asosan, xo‘jalik ehtiyojlari uchun sarflangan, biroq mahsulotning ortiqcha qismi shahar bozorlarida sotilgan. Bu kolxozchilarga qo‘shimcha daromad keltirgan. Uy xo‘jaliklarining ish samaradorligi Sovet ittifoqidagi yirik xo‘jaliklar va sovet davridan keyingi mustaqil fermerlarning ishlab chiqarish unumdorligidan ancha yuqori bo‘lgan. Aksariyat qishloq aholisi o‘z hovlisida bir qancha sigir va yoki qo‘y boqadi. Qozog‘istondagi chorvachilik fermalarini hisobga olmaganda, Markaziy Osiyoda yirik sut fermalari deyarli yo‘q hisob. Bundan tashqari, mintaqadagi (yarim) ko‘chmanchi guruhlar ko‘p sonli qo‘y va ot boqish bilan shug‘ullanadi. Shunday bo‘lsada, Markaziy Osiyodagi yer islohotlari va fermer xo‘jaliklarini qayta tuzish ishlarining sur‘ati va miqyosini ko‘rib chiqish zarur. Qirg‘iziston 1990-yillarning boshida boshqa qo‘shni respublikalarga qaraganda birinchilardan bo‘lib, yerdan foydalanish bo‘yicha qator islohotlarni amalga oshirdi. Mamlakat iqtisodiy inqirozdan keyin kapitalga muhtoj va xalqaro donorlar bosimiga ta’sirchan bo‘lgan paytlarda hukumatning o‘sha paytdagi rahbari bo‘lgan Akayev g‘arb investitsiyasini jalb etish istagini bildiradi. Ko‘pqirrali institutlar agrar iqtisodiyotni xususiylashtirish va liberallashtirishni talab etishadi. Hukumat tez sur‘atlar bilan islohot olib borishga kirishadi va natijada, Qirg‘izistonda fermer xo‘jaliklarini qayta tuzish tez amalga oshiriladi. Qishloq xo‘jaligi daromadlari birgina qishloq xo‘jaligi tovarlari orqali ta’minlanmagan, ya’ni qishloq xo‘jaligi boyliklari yirik tuzilmalar orqali yig‘ilgan va bu Sovet davridan keyingi rejimning yirik xo‘jaliklarni chegaralashni istamaganini anglatadi. O‘zbekiston, Turkmaniston va Tojikistonda paxta iqtisodiyotda birinchi darajali bo‘lgani bois, vaziyat boshqacha bo‘lgan. Ya’ni Qirg‘izistonda qishloq xo‘jaligi boshqa respublikalarga qaraganda erta (1995–yilda) tiklangan. Shunga qaramasdan, 1990-yilarning boshlarida ko‘plab

mustaqil fermalar katta institut va infratuzilmalarning ko‘magiga muhtoj bo‘lgan. Fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash tashkilotlari samarasiz ishlar, qolgan institutlar esa (sobiq), yirik ishlab chiqarish tizimlariga moslashgan edi. Natijada, endigina tashkil etilgan fermalar ekin ekish va sotishda qiyinchilarga uchraydi. O‘zbekiston va Turkmanistonda Qirg‘iziston respublikasidan farqli o‘laroq, islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Bugungi kunda ushbu mamlakatlarda agrar sohada davlat nazorati saqlanib qolgan. O‘zbekiston va Turkmaniston tabiiy resurslarga boy bo‘lgani sababli Qirg‘izistonga o‘xshab xorij ko‘magiga muhtoj bo‘lmadi. Bundan tashqari, har ikki mamlakatda (Tojikistonda ham) paxtachilik sanoati mamlakatlar iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega edi. Daromadlar hukumat tomonidan qat’i nazorat qilinardi. Fermerlikning xususiylash-tirilishi va rejali iqtisodiyotning tugatilishi paxta ishlab chiqarishga sezilarli ta’sir ko‘rsata oldi.

Mazkur mamlakatlar iqtisodiyoti uchun ma’lum ekinlarning ahamiyati hamda yer fondining tarqoqligini hisobga olganda, O‘zbekiston hukumati aytish mumkinki, agrar tarmoqni hamda sobiq sovxoz va kolxozlarni avvaliga shirkatlar, so‘ngra tijorat firmalariga o‘zgartirgan holda, bosqichma-bosqich isloh qildi. O‘zbekistonda eng avvalo paxta va bug‘doyga nisbatan kvotalar tizimi avvalgidek faoliyat yuritadi. 2008–yilda O‘zbekiston hukumati yangi siyosatni qabul qiladi va qishloq xo‘jaligi yer-mulkini qayta birlashtiradi hamda shu orqali fermer xo‘jaliklarining o‘rtacha kattaligini oshiradi. Fermalar birlashtiriladi va shu jarayonda ayrim fermerlar qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanishni to‘xtatadi. Shu bois, O‘zbekistondagi islohotlar o‘ziga xos tarzda kechadi (Qozog‘istonda ham 2005–yilda kichik xo‘jaliklar birlashgan paytda, qisqa vaqt ichida islohotlar amalga oshirilgan edi).

Qozog‘iston fermer xo‘jaliklarini qayta tashkil etishda boshqacha yondashuvni tanlaydi. Qozog‘istonning shimoliy hududlarida bug‘doy ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik kolxoz va sovxozlar quriladi va yirik agroholdinglar (10 000 gektardan ortiq), yakka tartibdagi fermer xo‘jaliklari (qariyb 500 gektar) va uy xo‘jaligidan iborat uchyoqlama tuzilma joriy etiladi. Shimoliy Qozog‘istonning bug‘doy tarmog‘ida yirik agroholdinglar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ular bajaradigan operatsiyalar Markaziy Osiyodagi boshqa ko‘pchilik mayda fermalardan farqli o‘laroq, o‘ta mexanizatsiyalashgan. Ushbu maskan

hududning gʻallaxonasi hisoblanadi. Qozogʻistonning janubida bugʻ-doyga qoʻshimcha ravishda turli qishloq xoʻjaligi ekinlari, xususan paxta, bogʻ ekinlari yetishtirishga ixtisoslashgan mayda fermer xoʻjaliklari juda koʻp.

Tojikistonda olib borilgan islohotlar boshqa respublikalarnikidan farq qiladi. Chunki mamlakat ikki gektar yoki undan kamroq maydonni egallagan yuqori togʻ xoʻjaliklari hamda past tekisliklarda joylashgan 300 gektar yoki undan koʻproq maydondan iborat boʻlgan diversifikatsiyali geografiyaga ega. Hozirgi kunda dehqon xoʻjaliklarining oʻrtacha kattaligi besh gektardan kichikroq. Tojikistonda ham Qirgʻizistondagi kabi agrar oʻzgarishlar jarayonini shakllantirishda xalqaro donorlar muhim rol oʻynadi. Sohaga oid qarorlar hali 1992-yillarda qabul qilingan boʻlsa-da, bu boradagi islohotlar mamlakatda yuz berayotgan fuqarolik urushi tufayli toʻxtab qolgan edi. 1990-yillarning oxirlarida xalqaro donorlar Tojikistonga agrar iqtisodiyotni isloh qilishi uchun katta bosim oʻtkaza boshlaydi. SHunday boʻlsada, hukumat individuallashtirish va davlatning bozorga aralashmay qoʻyishi paxta iqtisodiyotining yemirilishiga olib keladi, deb xavfsirardi. Bunga javoban hukumat paxtani davlat xarid qilish tizimidan xususiy xarid tizimiga oʻtdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishi va aholi farovonligini taʼminlashda agrosanoat majmuyining ulkan ahamiyati va bu sohada hukumat ishlab chiqib, amalga oshirayotgan chora-tadbirlar barchaga maʼlum. Biroq haligacha tarmoqda qator muammolar va uning rivojlanishidagi toʻsiqlar mavjud. Ayniqsa, qishloq xoʻjaligida fermer xoʻjaliklari ekinlarni joylashtirish va nima yetishtirishni mustaqil hal qila olmaydi. Ular samaradorligi past boʻlishiga qaramay, paxta va gʻalla yetishtirish bilan shugʻullanib kelmoqda. Masalan, Buxoro viloyatida ayrim fermer xoʻjaliklarida paxtaning hosildorligi 20 sentnerga ham yetmaydi, lekin ular davlat bilan shartnomasi borligi sabab zarariga boʻlsa ham, paxta yetishtirishga majbur. Buning ustiga, fermer oʻzi yetishtirgan paxta va gʻalladan toʻla foydalanish va ularni tasarruf etish huquqiga ega emas. Boshqacha aytganda, qishloq xoʻjaligida haligacha bozor iqtisodiyoti munosabatlari toʻliq shakllanmagan. Ushbu holat fermerlarni iqtisodiy erkinligini cheklash bilan bir qatorda yuqori samara berishi mumkin boʻlgan muqobil ekinni ekishiga toʻsqinlik qiladi.



Ayni paytda, fermerlarning kredit kafolati sifatida yerga bo'lgan huquqidan foydalanish mexanizmlari to'liq ishlab chiqilmagan. Bu o'z navbatida fermerning investitsion faolligi sustligi va pastligiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun yerga egalik huquqi bilan bog'liq munosabatlarni yanada takomillashtirish zarur. Hayot yer munosabatlarini haqiqiy bozor munosabatlari darajasiga yetkazishni taqozo etmoqda.

Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini shakllantirish bilan birga qishloq xo'jaligi korxonalari, xususiy mulk egalari, aholi va sanoat korxonalari integratsiyasini yanada kuchaytirish masalasi ham dolzarbligicha qolmoqda. Mamlakat qishloq xo'jaligida yuqori qo'shilgan qiymatga ega va raqobatbardosh bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish, ularni ichki va tashqi bozorlarda sotish jarayoni juda sust. Hozirgi davrda agrar sektorda o'z brendiga ega korxonalar soni va innovatsion jihatlari bilan raqobatbardosh bo'la oladigan va xalqaro standartlarga mos mahsulot turlari va eksport hajmi ham unchalik ko'p emas. Bunga yuqorida qayd etilgan muammolar bilan bir qatorda mamlakat qishloq hududlari va agrosanoat majmuyining barcha turdagi infratuzilma xizmatlari ko'rsatuvchi tizimi qoloqligi ham salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, mamlakatda o'simliklarning yangi unumdor navlarini, chorvachilikda mahalliy mahsuldor zotlarni va qishloq xo'jaligi hamda qayta ishlash sanoatida ilg'or texnologiyalarni yaratish va bunday texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish borasidagi muammolar sabab milliy agrosanoat majmuamizning potentsiali to'liq ishga tushirilmayapti. Eng achinarlisi, ishlab chiqarilayotgan yuqori sifatli meva va sabzavotlarimizning bir qismi saqlashni bilmaganimiz yoki qayta ishlash yo'lga qo'yilmaganligi sabab mollarga yem bo'lmoqda yoki butkul nobud bo'lmoqda. Boshqacha aytganda, mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, ishlov berish, qayta ishlash va sotish tizimi hozirgi davr talabiga javob bermaydi, ayrim hollarda ular barcha hududlarni qamrab olmagan. Yo'l-transport va kommunikatsiya hamda axborot tizimining ham rivojlanish darajasi, qamrovi va xizmatlar sifati qoniqarli emas.

Oxirgi yillarda qishloq xo'jaligida asosiy kapitalga investitsiya kiritish darajasi pastligi sabab qishloq va suv xo'jaligining moddiy-texnik bazasi yangilanish darajasi pasayib, ularning eskirish darajasi

yildan-yilga ortib borayotgani ko‘p hollarda ishlab chiqarishning texnologik amaliyotlarini to‘liq, o‘z vaqtida sifatli qilib bajarishga to‘sqinlik qilmoqda. Bunga yana moddiy-texnik ta‘minoti va qishloq xo‘jaligi texnikasi bozori tizimi yetarli darajada taraqqiy etmagani va qishloq xo‘jaligida qo‘llanadigan sanoat mahsulotlari narxi balandligi hamda o‘sha narx bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxi orasidagi mavjud nomutanosiblik sanoat korxonalariga foyda keltirayotgani o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda.

Shunday qilib, moddiy-texnika vositalari va infratuzilma xizmatlari narxi balandligi, yerga egalik huquqi ustuvor emasligi, irrigatsiya tizimi rivoji sustligi hamda melioratsiya ishlari va texnologik jarayonlar yetarli darajada bajarilmayotgani kabi omillar ta‘sirida ko‘p joylarda tuproq unumdorligi pasayishi, sho‘rlanishi, ikkilamchi sho‘rlanishi, yer osti suvlari sathi ko‘tarilishi, tuproq strukturasi buzilishi va undagi gumus miqdori pasayib borishi kabi holatlar kuzatilmoqda. Xullas, bu kabi muammolar agrosanoat majmuasi iqtisodiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu esa aholining oziq-ovqat ta‘minoti xavfsizligi, farovonligi va oziq-ovqat iste‘moli tarkibini yaxshilashdek muhim vazifalarni hal etish imkoniyatini cheklamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi va amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xarita”si tasdiqlandi. Strategiyaning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi, ular orasida:

- oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag‘batlantirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish;
- sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;

- qishloq xo‘jaligida davlat boshqaruvi tuzilmasini restrukturiatsiya qilish va yanada rivojlantirishni nazarda tutuvchi boshqaruvning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;

- fermer xo‘jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va bosqichma-bosqich qayta taqsimlash;

- ilm-fan, ta‘lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish va boshqalar.

Tashkil etilayotgan Strategiyani amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengashning vazifalari belgilandi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi uning ishchi organi bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligi vazirligida xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda Farmonda nazarda tutilgan vazifalarning to‘liq va o‘z muddatlarida bajarilishini ta‘minlaydigan boshqarma tashkil etiladi. Agrosanoat majmuyi va oziq-ovqat ta‘minoti sohasidagi loyihalarni amalga oshirish agentligi (Prezidentning 9.10.2019 yildagi PQ-4486-son qarori bilan tashkil etilgan) mavjud investitsiya loyihalari, loyihalarni amalga oshirish guruhlarini, shuningdek, huquqlar, majburiyatlar va shartnomalar saqlab qolingan holda Qishloq xo‘jaligi vazirligi tarkibiga o‘tkazildi.

### **15.3. Qishloq xo‘jaligiga bozorlar aralashish islohotlari iqtisodiyoti**

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ulkan salohiyatga ega. Bozorlarimiz to‘kin, xalqimiz rizqi mo‘l-ko‘l bo‘lishidan tortib eksportdan qo‘shimcha daromad topishgacha bo‘lgan juda ko‘p masalalar shu soha bilan bog‘liq. Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligini isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Davlat xarid narxlari qariyb 3 barobarga ko‘paytirilgani natijasida manfaatdorlik oshdi. Paxtachilik va g‘allachilik hashar emas, chinakam daromad manbayiga aylandi. Yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy qilish, mehnat unumdorligi va ish haqini oshirish maqsadida 76 ta paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkil etildi.

Joriy yilning o‘zida 25 ming gektar paxta maydonlarida suv tejoychi yangi sug‘orish tizimi joriy qilindi. Foydalanishdan chiqqan 1

million 100 ming gektar yerni qayta ishga kiritish bo'yicha sa'y-harakatlar boshlandi.<sup>68</sup>

Bular, albatta, yaxshi natijalar, lekin mazkur ishlar – islohotlarning birinchi bosqichi. Qishloq xo'jaligida suvdan to'g'ri foydalanish ham juda muhim masala. Tahlillarga ko'ra, yurtimizda ekin maydonlariga milliardlab kub metr suv yo'naltirilsa-da, uning faqat 60 foizi ekinlarga yetib boradi, 40 foizi sug'orish tizimlarida va sug'orish jarayonida yo'qotiladi. Jahon suv resurslari instituti taxminlariga ko'ra, 2040 –yilga borib O'zbekiston suv o'ta tanqis bo'lgan 33 mamlakat qatoridan joy olishi mumkin.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va davlat xaridlari tizimini takomillashtirish masalalari muhokama qilinar ekan, budget mablag'larining asosiy qismini yerlarning unumdorligini oshirish, suv tejavchi texnologiyalarni joriy qilish, ilm-fanni rivojlantirishga sarflash lozimligi ko'rsatib o'tildi. Sohaning eksport salohiyatini oshirish va qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish masalalariga alohida ahamiyat qaratilib, bu boradagi jahon tajribasi tahlil qilindi. Masalan, Turkiyada 1 gektar yerdan 2 ming dollarlik, Misrda 8 ming dollarlik, Isroilda 12 ming dollarlik mahsulot yetishtiriladi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 300 dollardan oshmayapti. Doim bir xil standartdagi tovar yetkazib berish yo'lga qo'yilmagani sababli mahsulotlarimiz tashqi bozorda raqobatlasha olmayapti.<sup>69</sup>

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi bo'yicha ulkan salohiyatga ega. Bozorlarimiz to'kin, xalqimiz rizqi mo'l-ko'l bo'lishidan tortib, eksportdan qo'shimcha daromad topishgacha bo'lgan juda ko'p masalalar shu yo'nalish rivojiga bog'liq.

Lekin uzoq yillar davomida agrar sohaga yetarlicha e'tibor berilmadi. Na bozor iqtisodiyoti, na yerga munosabat, na manfaatdorlik bor edi. Mablag', ilmiy innovatsiyalar jalb etilmadi. Oqibatda yerlar "charchab", unumdorlik pasayib ketdi. Mahsulotni qayta ishlash, qo'shimcha qiymat olish bo'yicha tizim yaratilmadi. So'nggi yillarda respublikada dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer

---

<sup>68</sup> <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/qishloq-xojaligidagi-islohotlarning-yangi-bosqichi-belgilandi.html>

<sup>69</sup> <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/qishloq-xojaligidagi-islohotlarning-yangi-bosqichi-belgilandi.html>

egalariga ajratilgan maydonlardan samarali foydalanish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq aholisining bandligi va turmush darajasini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, faoliyatini yanada kengaytirish va aholi tomorqalarini xizmatlari bilan qamrab olish darajasini oshirish, shuningdek, mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatlari yanada ko'paytirildi.

Prezidentimiz tomonidan Jahon banki ishtirokida o'tkazilgan "Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish" loyihasini amalga oshirish bo'yicha Jahon banki tomonidan 500 million dollar kredit mablag'lari ajratilgan. Ushbu loyiha mablag'larini ishlab chiqishda fanni rivojlantirishga, ilg'or texnologiyalarni joriy etishga ustuvor ahamiyat qaratilgan. Xususan, jalb qilinayotgan mablag'ning 87 million dollari qishloq xo'jaligi sohasidagi 10 ta ilmiy-tadqiqot muassasasi, 4 ta ixtisoslashgan markaz faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini yaxshilashga ajratiladi<sup>70</sup>.

Shuningdek, 70 million dollar ko'chatlar yetkazib berish, fitosanitariya, geoaxborot va sertifikatlash xizmatlarini ko'rsatadigan agroxizmat markazlarini tashkil etilishi, bundan tashqari, qishloq xo'jaligini raqamlashtirish uchun berilayotgan 10 million dollar hisobiga yerlarning hosildorligi, soliq, transport-logistika va mahsulotlar bozorlari haqida ham ma'lumotlar olish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish, qishloqda bozor prinsiplari va munosabatlarini keng joriy etish, qishloq xo'jaligi korxonalarini bozor shart-sharoitlari va talablariga jadal moslashtirish albatta tadbirkorlik, dehqonchilik va savdo-sotiq rivoji uchun munosib xizmat qiladi.

Yerni xususiylashtirish zamon talabi bo'lgan O'zbekiston qishloq xo'jaligini bozor munosabatlariga o'tkazishning eng avvalgi va eng muhim bosqichidir. Qishloq xo'jaligida zamonaviy ishlab chiqarish - yuqori hosildorlik va yuqori sifatli mahsulotlar yetishtirish bu sohada bozor munosabatlarini tiklamasdan amalga oshirish imkonsiz. Bozor munosabatlari esa, qachonki ishlab chiqaruvchi, ya'ni dehqon o'z

---

<sup>70</sup> <https://uzlidep.uz/news-of-party/6995>

mehnat faoliyatida erkin va u qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish vositalarining eng muhimi bo‘lgan Yerning va ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy mulkdori bo‘lsagina rivojlanadi.

Intensiv bog‘ maydonlarini kengaytirishga 65 million dollar yo‘naltirish belgilangan. Xususan, buning hisobidan Toshkent viloyatida 500 gektar, Andijon, Buxoro, Namangan, Farg‘ona va Samarqandda 300 gektardan, Jizzaxda 250 gektar, Qashqadaryo hamda Surxondaryoda 200 gektardan, Qoraqalpog‘istonda 100 gektar maydonda yangi usuldagi intensiv bog‘lar yaratilishi rejalashtirilgan.

Yuqoridagi islohotlarni amalga oshirish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy ahvolini mustahkamlash, yerlardan samarali foydalanishni rag‘batlantirish, shu jumladan meva-sabzavot va yem-xashak ekinlarini ko‘paytirish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining umumiy hajmini hamda agrar sektorning eksport salohiyatini oshirishga imkon beradi.

Mulkiy munosabatlar yangicha shakllangan muhitda o‘zining xususiy yerida hosilini kutayotgan o‘zbek dehqoniga, xususiy korxonasida buyurtmalarga mahsulotini o‘z vaqtida ishlab chiqarib berishga shoshilayotgan o‘zbek tadbirkoriga, chet elda sotishga molini xususiy omborlarida to‘plab, shaylayotgan o‘zbek tojiriga “O‘z Eringni, o‘z mulkingni, o‘z uyingni o‘zing asra!” deb xitob qilinishi juda mos va o‘rinli bo‘ladi.<sup>71</sup>

#### **15.4. Qishloq xo‘jaligidagi bozor islohotlarining foyda va xarajatlari**

O‘zbekiston YaIMning 32 foizini tashkil qilib, mehnatga layoqatli aholining 27 foizini ish bilan ta‘minlovchi qishloq xo‘jaligi samarali davlat siyosati sharoitida mamlakat iqtisodiy o‘shining asosiy omillaridan biri bo‘lishi mumkin. Mazkur siyosatning samarali amalga oshirilishi natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti hajmi hamda fermerlar va agrotashkilotlar daromadlari oshadi, qishloq joylarda minglab yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Bu yerlarda yashash darajasi ko‘tariladi, bir qator oziq-ovqat mahsulotlari aholi uchun

---

<sup>71</sup> <https://uzlidep.uz/news-of-party/6995>

arzonroq bo‘ladi va mamlakat ishonchli oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlay oladi.

Jahon banki hisob-kitoblariga ko‘ra, O‘zbekiston paxta va bug‘doy maydonlarini qisqartirish, masalan ularni 50 foizgacha kamaytirish qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining 51 foizga, qishloq xo‘jaligida bandlikning 16 foizga, suv tejamkorligining 11 foizga oshishiga olib keladi.

Mazkur yerlarni yanada daromadli ekinlar ekishga qanchalik tez o‘tkazish kerak? Bu jarayon bosqichma-bosqich bo‘lishi va qo‘shni tarmoqlardagi o‘zgarishlar bilan uyg‘unlashtirilishi lozim. Masalan, meva va sabzavot yetishtirish uchun yerni qayta taqsimlash davlatning ichida va uning bojxona chegaralarida agrologistikani takomillashtirish bilan bir vaqtda sodir bo‘lishi zarur. Bu, o‘z navbatida, tez ayniydigan meva-sabzavot mahsulotlarini fermerlardan mahalliy iste‘molchilarga va xalqaro bozorga tezkor ravishda yetkazishni ta‘minlaydi.

Aks holda meva va sabzavotlarni qayta ishlab chiqarishdan olingan foyda bug‘doy va paxta sotishdan olingan foydadan kam bo‘lib qoladi. 2018 – yilda O‘zbekiston agro oziq-ovqat mahsulotlari eksport qiymati bor-yo‘g‘i 1,3 mlrd dollarni yoki har gektar mahsuldor yerga nisbatan 330 dollarni tashkil qildi. Taqqoslash uchun, o‘sha yili Vetnam 40 mlrd dollarlik qishloq xo‘jalik mahsulotini eksport qilgan. Bu davlatning eksportdan olgan foydasi har bir gektar mahsuldor yerga 6100 dollarni tashkil qiladi.

Jahon savdo tashkiloti tarkibiga kirish uchun hukumat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohot va chora-tadbirlar O‘zbekiston uchun qishloq xo‘jalik mahsulotlari, xususan, meva-sabzavotlarni jahonning ko‘pchilik mamlakatlariga eksport qilish imkonini beradi.

Mamlakat qishloq xo‘jaligining asosiy masalalardan yana biri — eksport tomonidan taqdim etiladigan imkoniyatlarni amalga oshirishda mehnat resurslarining keng miqyosda ishtirok etishini ta‘minlash zaruriyatidir. Hozirgi kunda meva-sabzavot mahsulotlarining 60 foizi katta bo‘lmagan dehqonchilik xo‘jaliklari va uy-joy uchastkalarida yetishtirilmoqda. Lekin ularning eksportga yo‘naltirilgan qo‘shimcha daromadli mahsulot ishlab chiqarish zanjiridagi ishtiroki hozircha past bo‘lib qolmoqda. Qishloq xo‘jalik kooperativlarining agrobiznes va eksportchilar bilan kooperatsiyasi va hamkorligini rag‘batlantirish bo‘yicha davlat dasturlari yordamida yuqorida ko‘rsatilgan ishlab

chiqaruvchilarning mazkur zanjirlar bilan integratsiyalashuvi ishlab chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda kichik dehqon va xususiy mulkdorlar biznesining rentabelligini oshirishga yordam bergan bo‘lar edi.

Bugungi kunda, organik qishloq xo‘jaligi — jahon trendi hisoblanadi. 2019 – yilda organik qishloq xo‘jaligi bo‘yicha xalqaro bozorlardagi savdo aylanmasi 96,7 mlrd yevroni tashkil etib, 71,5 mln gektar maydonda 2,8 mln ishlab chiqaruvchi ushbu faoliyat turi bilan shug‘ullangan.

Ekspertlarning baholashiga ko‘ra, dunyo organik mahsulotlari bozorida so‘nggi 5 yil davomida yiliga o‘rtacha 15 foizdan o‘shishga erishilib, 2022 – yilda savdo aylanmasi 212 mlrd AQSH dollari (jahon qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi umumiy hajmining 20 foizi)ni tashkil etishi prognoz qilingan. Organik qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari instituti (FiBL) ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoning 103 ta mamlakatida organik qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida qonun qabul qilingan bo‘lib, 6 ta mamlakatda qonun ishlab chiqilmoqda. Organik qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari instituti (FiBL) va Organik qishloq xo‘jaligi harakati bo‘yicha Xalqaro Federatsiyasi (IFOAM)ning Jahon organik qishloq xo‘jaligi statistikasi bo‘yicha 2019 – yildagi nashrida O‘zbekiston Respublikasi meva yetishtirish bo‘yicha qulay sharoitga ega bo‘lgan dunyodagi 10 ta davlat qatoriga kiritilgan va respublikamiz organik meva ishlab chiqarish uchun qulay yer maydonlariga ega ekanligi qayd etilgan. Respublikamizdagi «Sunny Fruit Production» MCHJ tomonidan 2017–2019-yillarda jami 1 848 tonna organik mayiz yetishtirilib, Rossiya Federatsiyasi, Fransiya, Germaniya, Gollandiya, Italiya va Gretsiya mamlakatlariga mayizning an’anaviy turiga nisbatan 14,7 foizga yuqori narxlarda eksport qilingan va 4,1 barobar ko‘proq sof foyda olingan. 2019 – yilda AQSH bozorlarida 1 tonna organik paxta xomashyosi an’anaviy turiga nisbatan 155 dollardan 225 dollargacha yuqori narxlarda baholangan.<sup>72</sup>

O‘zbekiston agrar sektorining asosiy xususiyati shundaki, ikki qishloq xo‘jalik ekinlarini (paxta va bug‘doy) ishlab chiqarish, asosan, davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladi. So‘nggi yillarda majburiy

---

<sup>72</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 майдаги “Ўзбекистон Республикасида органик қишлоқ хўжалиги ва органик озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқаришни ривожлантириш” ПФ-5995-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/4815923>



ravishda paxta uchun ajratilgan yerlarning bir qismi meva va sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish foydasiga qisqardi. Shu bilan birga, 2017 – yilda ekin maydonlari, bog‘lar va tokzorlar uchun ajratilgan barcha yerlarning uchdan ikki qismidan ko‘pini paxta va bug‘doy ekinlari tashkil etdi. 2017 – yilda paxta va bug‘doy ekin yerlari barcha ekin uchun ajratilgan yerlarning (meva bog‘lari va uzumzorlarni hisobga olmaganda) 82,2 foizini tashkil etdi.

Davlat buyurtmasini shakllantirish va narxlash tizimining mavjud mexanizmlari fermerlarning ko‘pchiligiga paxta va g‘alla yetishtirish orqali foyda ko‘rishni qiyinlashtiradi<sup>73</sup>. Misol uchun, 2005–2013-yillarda davlat xaridlari va bug‘doyning ichki bozor bahosi o‘rtasidagi farq bir necha yillar mobaynida ushbu farq 3 martaga oshgan.

Bundan tashqari, fermerlar uchun majburiy bo‘lgan ekinlar uchun ajratilgan yer uchastkalari mavjud tizimda yerning tuproq xususiyatlari va iqlimi, suv mavjudligi, xodimlar malakasi va boshqalarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish tuzilmasini optimallashtirishga imkon bermaydi. Ko‘pincha boshqa yerlar paxta va bug‘doy uchun ajratilgan yerlardan samaraliroq bo‘ladi. Biroq, dehqon paxta va bug‘doy uchun ajratilgan yerga o‘xshab ishlab chiqarish tuzilmasini optimallashtirishga qodir emas, boshqa maqsadlarda foydalanish esa taqiqlanadi.

Misol uchun, mamlakatdagi iqlim sharoiti tufayli non mahsulotlari uchun mo‘ljallangan bug‘doyni yetishtirish qiyin. Davlat bu muammolarni mamlakat va hatto har bir mintaqaning tuproq va iqlim sharoitlariga moslashtirilgan yangi navlarini tanlashga sarflash orqali bu muammoni hal qilishga urinmoqda, ammo bu uzoq va ko‘p mablag‘ sarflanadigan jarayondir. Shu bilan birga, ko‘plab fermer xo‘jaliklari don ekinlariga nisbatan ko‘proq tabiiy, tarixiy, texnologik

---

<sup>73</sup> O‘zbekistonda bug‘doy yetishtirishda qishloq xo‘jaligi siyosati va o‘simlik mahsulotlarini diversifikatsiya qilish. Loyiha AGRIWANET, 2016, <http://ced.uz/issledovaniya/selskohozyajstvennaya-...> loyihasi bo‘yicha davlat hisoboti.

<sup>52</sup> 102. O‘zbekistonda bug‘doy yetishtirishda qishloq xo‘jaligi siyosati va o‘simlik mahsulotlarini diversifikatsiya qilish. Loyiha AGRIWANET, 2016, <http://ced.uz/issledovaniya/selskohozyajstvennaya-...> loyihasi bo‘yicha davlat hisoboti.

<sup>53</sup> Qo‘shimcha ma‘lumotlar: O‘zbekistonda chorvachilik: hozirgi holat, muammolar va rivojlanish istiqbollari. Tahliliy hisobot. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi, Toshkent, 2009, <http://ced.uz/issledovaniya/zhivotnovodstvo-v-uzbekistane-tekushheesostoyanie-problemy-i-perspektivy-razvitiya/>

va malakali afzalliklarga ega bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashishi ancha foydaliroq bo'lar edi<sup>74</sup>.

Yana bir misol. Chorvachilik mahsulotlari majburiy davlat buyurtmalari amaliyotidan zarar ko'radi: 1992–1997-yillarda chorva mollari sonining sezilarli darajada o'sishi bilan bir vaqtda yem-xashak ekiladigan yerlarning miqdori 3,7 marta kamaydi<sup>75</sup>.

Paxta va bug'doy uchun davlat buyurtmasi amaliyoti natijasida:

- ko'plab fermer xo'jaliklari achinarli moliyaviy ahvolda;
- fermerlar yangi axborot va agrotexnologiyalar, shu jumladan, suv tejashni joriy qilish uchun rag'batlantiruvchi va moliyaviy resurslarga ega emas;

- fermerlarning tuproq unumdorligini saqlab qolish va yaxshilash uchun rag'batlantiruvchi va moliyaviy resurslari yo'q (bu mulk huquqlarining zaif muhofazasi bilan ham bog'liq);

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining umumiy salohiyati potentsialdan past (mavjud tizim qiyosiy ustunliklarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish tarkibini optimallashtirishga imkon bermaydi).

Bularning barchasi tarmoqni rivojlantirish, qishloq aholisi va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Bundan tashqari, majburiy davlat buyrug'i tizimi – fermerlarning yerni ijaraga berish bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan huquqlarini doimiy ravishda buzishining asosiy sababidir. Davlat buyurtmasini bajarish uchun ko'pincha yerni yo'qotish va qayta taqsimlash amalga oshiriladi.<sup>76</sup>

Davlat xarajatlari yuqori darajali bo'lishiga qaramasdan, O'zbekistondagi qishloq xo'jaligi hali yuqori samaradorlikni namoyish eta olmaydi. Misol uchun, 2018 – yilda qishloq xo'jaligi noldan biroz yuqori o'sishni ko'rsatdi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun o'ta muhim bo'lgan ko'plab davlat dasturlari har doim mablag' bilan to'liq ta'minlanmay kelgan. Mazkur dasturlarga qishloq xo'jaligining amaliy tadqiqotlari, bilimlarni tarqatish, qishloq xo'jalik fanlaridan ta'lim olish, tuproq unumdorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligi tizimini rivojlantirish, veterinariya va fitosanitariya xizmatlari, tadbirkorlik faoliyatiga ko'maklashish (qishloq xo'jaligi

---

<sup>76</sup> <https://www.gazeta.uz/uz/2019/07/08/agriculture/>

kooperativlari, klasterlar, samarali sherikchilik munosabatlari), statistik va bozor ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilish, bozor infratuzilmasi va agrologistikasini rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, siyosatni tahlil qilish, xodimlar malakasini har qanday darajaga oshirish va monitoring qilish kabilar kiradi. Kelgusida ushbu dasturlar davlat mablag'larining katta miqdorini talab etishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xarajatlar alohida o'rin tutadi. Xarajatlar mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan sarflarning puldagi ifodasidir. Tannarx - muayyan miqdorda mahsulot yetishtirish uchun qilingan barcha xarajatlarning pul shaklidagi ifodasidir. Mahsulot tannarxini pasaytirish xo'jalik iqtisodiyotini mustahkamlaydi, yetishtirilayotgan mahsulotlarning rentabelligini yanada oshiradi. Demak, fermer xo'jaligining mahsulot tannarxini tahlil qilish uni ishlab chiqarish uchun sarflangan ishlab chiqarish vositalari hamda mehnat haqi sarfining puldagi ifodasini omilli tahlil qilish muhim va asosiy vazifalardan hisoblanadi. Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari va tannarxni tahlil qilish eng qiyin jarayonlardan hisoblanadi. Buning asosiy sabablaridan biri xarajatlarni juda chalkashib ketganligi va ularni hisobga olishning murakkabligi hisoblanadi.<sup>77</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida suv tejoychi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2019 – yil 25 – oktyabrdagi PQ-4499- son qarori ijrosini ta'minlash hamda suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suv tejoychi texnologiyalarni keng joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suv tejoychi sug'orish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha xarajatlarning bir qismini subsidiya asosida qoplab berish tartibi joriy qilindi.

Subsidiyalarning bazaviy hisoblash miqdorlari ekin maydonining har bir hektari uchun quyidagi miqdorlarda belgilanadi<sup>78</sup>:

---

<sup>77</sup> Mamajanov, A. (2018) "THEORETICAL BASES OF ANALYSIS COST OF PRODUCTION AND COST," International Finance and Accounting: Vol. 2018 : Iss. 3 , Article 3. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2018/iss3/3>

<sup>78</sup> <http://extwprlegs1.fao.org/docs/pdf/uzb196705.pdf>

- tomchilatib sugʻorish tizimlari uchun — 8 mln soʻm;
- yomgʻirli sugʻorish tizimlari uchun — 4 mln soʻm;
- diskret sugʻorish uchun — 1 mln soʻm.

Ushbu subsidiyalar miqdori uning bazaviy hisoblash miqdoriga qishloq xoʻjaligi ekin turi va yerlarning bonitet ballaridan kelib chiqadigan koeffitsiyentni koʻpaytirish yoʻli bilan aniqlanishi (1-jadval) mumkin.

### 1-jadval

## Qishloq xoʻjaligi ekinlari turlari va yerlarning bonitet ballaridan kelib chiqadigan koeffitsiyentlar MIQDORLARI

Sugʻorish turi	Yerlarning bonitet ballari hisob-kitobi boʻyicha koeffitsiyentlar				
	0-20	21-40	41-60	61-80	81-100
<b>Paxta</b>					
Tomchilatib sugʻorish	1,2	1,1	1,0	0,9	0,8
Keng qamrovli yomgʻirli sugʻorish tizimi	0,95	0,85	0,75	0,65	0,55
Diskret sugʻorish	1,2	1,1	1,0	0,9	0,8
<b>Donli ekinlar</b>					
Keng qamrovli yomgʻirli sugʻorish tizimi	1,2	1,1	1,0	0,9	0,8
“Sprinkler” tizimi	1,7	1,6	1,5	1,4	1,3
<b>Sabzavot ekinlari va kartoshka</b>					
Tomchilatib sugʻorish	0,15	0,14	0,13	0,12	0,11
Keng qamrovli yomgʻirli sugʻorish tizimi	0,35	0,3	0,25	0,2	0,15
“Sprinkler” tizimi	0,6	0,5	0,4	0,3	0,2
<b>Poliz ekinlari</b>					
Tomchilatib sugʻorish	0,15	0,14	0,13	0,12	0,11
<b>Ozuqabop ekinlar</b>					
Keng qamrovli yomgʻirli sugʻorish tizimi	0,7	0,6	0,5	0,4	0,3
“Sprinkler” tizimi	0,7	0,6	0,5	0,4	0,3

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar hisobi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Suv xo‘jaligi vazirligida ochiladigan maxsus shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida yuritiladi. Suv tejoychi sug‘orish texnologiyalarini joriy qilgan talabgorlar ularni foydalanishga qabul qilishni tashkil qilish va subsidiya ajratish uchun tuman ishchi komissiyasiga yozma yoki belgilangan tartibda elektron shaklda murojaat qiladi. Tuman ishchi komissiyasi murojaat kelib tushgan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida:

- Murojaat qilgan talabgorning tasdiqlangan hududiy manzilli ro‘yxatda borligini tekshiradi; hududiy manzilli ro‘yxatda bor talabgor tomonidan joriy qilingan suv tejoychi sug‘orish texnologiyalarini joyiga chiqib talabgor va pudrat tashkiloti vakili ishtirokida har tomonlama puxta o‘rganadi va ishlatib ko‘radi.

- Suv tejoychi sug‘orish texnologiyalari sifatli qurilib, foydalanishga to‘liq tayyor holda bo‘lsa tegishli dalolatnomani rasmiylashtiradi, aks holda dalolatnoma rasmiylashtirilmaydi; dalolatnoma rasmiylashtirilgan talabgorga belgilangan muvofiq shaklda subsidiya ajratish to‘g‘risida xulosa tayyorlaydi.

- Tuman ishchi komissiyasi rahbari va a‘zolari talabgorga subsidiya ajratish to‘g‘risidagi xulosasining haqqoniyligi uchun mas’ul hisoblanadi.

- Har bir tumanda suv tejoychi sug‘orish texnologiyalarini joriy etishga ko‘maklashish bo‘yicha tuman ishchi komissiyasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan namunaviy tarkibda tuziladi. Tuman irrigatsiya bo‘limi tuman ishchi komissiyasining ishchi organi hisoblanadi.

### **15.5. Qishloq xo‘jaligi bozorlarini erkinlashtirish**

Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab, qishloqda aholi uchun qulay va zamonoviy shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida qaraldi. O‘tgan vaqt ichida iqtisodiy islohotlar asosan quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirildi<sup>79</sup>.

***“Er islohoti” bo‘yicha:***

---

<sup>79</sup> [https://www.agro.uz/uz/information/about\\_agriculture/433/4381/](https://www.agro.uz/uz/information/about_agriculture/433/4381/)

- 2004 – yildan boshlab barcha qishloq xo‘jaligida yer uchastkalaridan foydalanishning ijara shakli joriy etildi;

- yer uchastkalari 30 yildan 50 yilgacha ijaraga berilishi belgilab qo‘yildi. Bunda paxta-g‘allachilik yo‘nalishidagi fermer xo‘jaliklarining eng kam maydoni 30 ga, sabzavotchilik, bog‘dorchilik yo‘nalishidagi fermer xo‘jaligining eng kichik hajmi 5 gektar qilib belgilandi;

- yer uchastkalaridan foydalanish huquqini meros qilib qoldirish tizimi joriy etildi;

- o‘z mablag‘i hisobidan qo‘shimcha yer o‘zlashtirilganda qo‘shimcha iqtisodiy rag‘batlantirish tizimi joriy etildi.

#### ***Suvdan foydalanish bo‘yicha:***

- irrigatsiya tizimlarini boshqarishning ma‘muriy hududiy prinsipidan havza prinsipiga o‘tkazildi, respublika bo‘yicha 10 ta irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari va 1 ta Farg‘ona vodiysi bo‘yicha birlashtirilgan dispetcherlik Markaziga ega bo‘lgan magistral kanallari tizimi boshqarmasi tashkil etildi;

- fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash uchun Suv iste‘molchilari uyushmalari tashkil etish yo‘lga qo‘yildi;

#### ***Moliya-kredit va soliq sohasida:***

- davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlarni yetishtirishni moliyalashtirishda imtiyozli kreditlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu kredit bugungi kunda fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy jihatdan “oyoqqa turib olishida” muhim omil bo‘lmoqda. Chunki qator yillarda beri Markaziy bank tomonidan qayta moliyalash stavkasi 14 foiz miqdorida belgilanayotgan (2011 – yil 1 – yanvardan boshlab 12.0%), yillik inflyasiya darajasi o‘rtacha 6,5-7 foiz darajasida bashorat qilinayotgan bir sharoitda 3 foizli kredit fermer xo‘jaliklari uchun juda qulay hisoblanadi.

- qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yerlarning sifati, ball-bonitetiga bog‘liq bo‘lgan yagona yer solig‘ini to‘lash tizimiga o‘tkazildi;

- respublikamizda ishlab chiqarilgan texnika vositalarini lizingga berish tizimi joriy etildi;

- fermer xo‘jaliklari uchun imtiyozli kredit tizimi yaratildi. Boshqa tadbirkorlik subyektlariga qayta moliyalash stavkasidan yuqori foiz stavkalarda kreditlar berilsa, fermer xo‘jaliklariga texnika sotib olish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish uchun

qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi (bugungi kunda 6 %), uchdan biri, ya'ni 4 %, oltidan biri, ya'ni 2.0% yillik stavka bilan kreditlar berish tartiblari ishlab chiqilgan.

***Narx-navo masalasida:***

- davlat tomonidan sotib olinadigan paxtaning narxini jahon bozoridagi narxdan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi;

- davlat tomonidan sotib olinayotgan g'alla narxini mintaqaviy bozorlardagi narxdan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi;

- boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini narxi bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda shartnoma asosida belgilanmoqda.

Amalga oshirilgan ana shunday keng miqyosdagi ishlar natijasida 260 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi va bu qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini, fermer hamda dehqon xo'jaliklarining daromadini oshirish uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

***G'allachilik.*** Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakat aholisini non va non mahsulotlari bilan ta'minlash masalasi ulkan, strategik vazifa sifatida qo'yildi. Hozirgi kunda paxtachilik bilan bir qatorda g'allachilik ham qishloq xo'jaligining yetakchi sohasiga aylanib borayotgani, ayniqsa, e'tiborga sazovor. O'tgan 20 yil davomida bug'doyning 27 ta, arpaning 12 ta mahalliy yangi navlari yaratilib, Qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reestriga kiritildi. Hozirgi kunda bug'doyning 28 ta mahalliy yangi navlari davlat nav sinovidan o'tmoqda.

Seleksiya va urug'chilik ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, jahon seleksiyasi yutuqlaridan keng foydalanish maqsadida Rossiyaning Krasnodar qishloq xo'jaligi ilmiy-tadqiqot institutidan hamda boshqa xorijiy ilmiy muassasalardan 60 dan ortiq yangi bug'doy navlari olib kelinib, mahalliy sharoitga moslashgan, serhosil, yuqori sifatli, kasallik va zararkunandalarga chidamli 29 ta yangi navlari tanlab olinib, ishlab chiqarishga joriy etildi.

Soha olimlari tomonidan qurg'oqchilikka chidamli ertapishar Chillaki, Jayhun (Zamin-1), Mars-1, Do'stlik, Bobir, Andijon-1, Andijon-2, Andijon-4, Durдона, Saidaziz, Matonat va boshqa mahalliy bug'doy navlari yaratilib ishlab chiqarishga joriy etildi.

G'allachilikda fermerlarga bugungi kunda asosiy o'rin berildi. Dehqonning yerga va mahsulotga nisbatan egalik hissining

uygʻotilishi, uning moddiy manfaatdorligiga qanchalik zamin yaratishini mahsulot yaratuvchi bugun toʻliq anglab yetdi.

Sifatli urugʻlik tayyorlash maqsadida respublika viloyatlarida 46 ta zamonaviy urugʻlikni tozalab, saralab, dorilab, qadoqlab beradigan sexlar qurilib, faoliyat koʻrsatmoqda.

Yuqori unumli kombaynlar sonining yildan yilga oʻsishi bilan gʻalla oʻrim-yigʻimini qisqa muddatlarda oʻtkazish imkonini yaratdi, natijada gʻalla hosilini yigʻishtirib olish davomiyligi har yili 4-5 kunga qisqarish, shuning hisobiga don nobudgarchiligining oldi olinmoqda. Navlarning biologik xususiyatlaridan kelib chiqib, har bir mintaqaning tabiiy iqlim sharoitiga mos navlarni toʻgʻri tanlash va joylashtirish hisobiga gektaridan 60-70 sentnerdan hosil yetishtirish boʻyicha aniq agrotexnik tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Paxtachilik.** Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida paxtachilikning oʻrni beqiyos. Davlat xazinasiga paxta tolasini sotishdan tushadigan valyuta miqdorini yanada oshirishda jahon bozorida xaridorgir, raqobatbardosh paxta xomashyosi yetishtirish muhim ahamiyatga ega. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin Prezidentimiz tomonidan gʻoʻza seleksiyasi va urugʻchiligiga alohida eʻtibor berilib, mazkur soha mutaxassislari oldiga 110-120 kunda pishadigan-ertapishar, tola chiqimi 38-40 foizli va uzunligi 33-34 millimetrli boʻlgan hamda tolasi toʻrtinchi tipga mansub dunyo bozori talablariga javob beradigan navlarni yaratish va amaliyotga toʻliq joriy etish vazifalari qoʻyilgan. Ushbu qoʻyilgan vazifalarni bajara borib gʻoʻza seleksiyasi va urugʻchiligida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Angliyaning “Cotton Outlook” jurnalida eʻtirof etilganidek: “Oʻzbekiston paxta etishtirish texnologiyasining ikki yoʻnalishida, yaʻni koʻsak qurtini keng qamrovli biologik nazorat qilish va ertapishar navlar seleksiyasi dasturi boʻyicha dunyoda peshqadam”dir. Oʻzbekiston jahon bozorida xaridorgir, raqobatbardosh paxta xomashyosi yetishtirishda dunyoda oltinchi, uni eksport qilish boʻyicha ikkinchi oʻrinni egallashi buning yorqin dalilidir.

Seleksiyachi olimlar oʻz ishlarini uzluksiz davom ettirishi, natijasida 1990 – yilda A. Batalov tomonidan Liverpool xalqaro bozorida etalon nav sifatida qabul qilingan oʻrta tolali, tolasi oq, IV-tip



talablariga to‘liq javob beradigan, turli ekstremal sharoitlarga chidamli Buxoro-6 g‘o‘za navi yaratildi.

Davlat nav sinovida sinalayotgan g‘o‘za navlari mavjud navlardan tezpisharligi, tola chiqimi, uzunligi, qurg‘oqchilikka, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi va hosildorligi va boshqa qimmatli xo‘jalik belgilari bilan ustun bo‘lib, uzoq yillardan beri ekilib kelinayotgan va navdorligi talab darajasidan pasaygan S-4727, AN-Boyavut-2, Oqdaryo-6, Omad, Termiz-31 g‘o‘za navlari o‘rnida ekilishi mumkin.

***Meva-sabzavotchilik va uzumchilik.*** Keyingi yillarda iqlimning butun jahonda keskin o‘zgarishi, dunyoda aholini oshib borishi hamda meva-sabzavot, kartoshka mahsulotlariga bo‘lgan talabning kundankunga ortib borishi kuzatilmoqda. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta‘minlash maqsadida ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish va ichki iste‘mol bozorini ular bilan to‘ldirish yuzasidan mustaqillik yillarida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

***Chorvachilik.*** Iqtisodiyotning barqaror rivojlantirishda qishloq xo‘jaligi, xususan, chorvachilik muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda aholining chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, bozorlarda go‘sht, sut, tuxum, baliq va boshqa mahsulotlar ko‘payishini ta‘minlashga ustivor vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23 – martda qabul qilingan “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2008 – yil 21 – apreldagi “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollar ko‘paytirishni rag‘batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Aholiga qulay bo‘lgan joylarda zooveterinariya, yem sotish va boshqa servis xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha infratuzilmalar tarmog‘i yangidan tashkil qilindi. Eng asosiysi, shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida chorvachilikni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va tijorat banklari tomonidan qoramol sotib olish uchun mikrokreditlar ajratish masalasi hal etildi.

Mollarning sifatini qisqa davr ichida yaxshilash va ularning mahsuldorlik ko'rsatgichini oshirish hisobiga chorvachilik mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada ko'paytirishda sun'iy urug'lantirishning ahamiyati beqiyosdir. Bu yo'nalishdagi ishlar yildan-yilga kuchayib bormoqda. 2008–2009-yillarda shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklaridagi sigir va qochirish yoshidagi tanalarning 30 foizini sun'iy urug'lantirish, sun'iy urug'lantirishning afzalliklari to'g'risida, aholi o'rtasida targ'ibot qilinishi natijasida, 2005 – yilda 32064 bosh mollar sun'iy urug'lantirilgan bo'lsa, 2010 – yilga kelib, 1300 ming bosh sigir va qochirish yoshidagi tanalar sun'iy urug'lantirildi.

### **Assosiy tayanch tushunchalar**

**Dehqon xo'jaligi** – oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

**Dehqon xo'jaligi boshlig'i** – 18 yoshga to'lgan, muomalaga layoqatli bo'lgan, o'ziga dehqon xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkasi berilgan O'zbekiston fuqarosi yoki respublika hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxs.

**Tomorqa yer uchastkasi** – qishloq xo'jalik mahsulotini erkin savdo hamda oila ehtiyojlari uchun yetishtirish, shuningdek yakka tartibdagi uy-joy qurilishi hamda uy-joyni obodonlashtirish maqsadida oila a'zolaridan biriga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va o'lchamlarda ajratib beriladigan yer uchastkasidir.

**Qishloq xo'jaligi kooperativi** – (shirkat xo'jaligi) tovar qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish uchun pay usuliga va, asosan, oila (jamo) pudratiga, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birlashishiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir.

**Tomchilatib sug'orish** – qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishning o'simliklar ildizi yonidagi zonaga kam miqdorda (tomchilatib) suv yetkazib beradigan usuli;

**Yomg'irlatib sug'orish** – qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishning tuproq va o'simliklar yuza qismiga suv tabiiy yomg'ir

suvi bilan sugʻorishga imkon qadar yaqinlashtirilgan yomgʻir latib sugʻorish orqali yetkazib beriladigan usuli;

**Keng qamrovli yomgʻir latib sugʻorish tizimi (keyingi oʻrinlarda keng qamrovli sugʻorish tizimi deb ataladi)** – keng maydonni qamrab oluvchi oʻzi yuruvchi agregatning aylanma yoki frontal harakatida suv yetkazib beriladigan yomgʻir latib sugʻorish tizimi;

**«Sprinkler» tizimi** – statsionar kalta purkovchi uskunalardan yordamida suv yetkazib beriladigan yomgʻir latib sugʻorish tizimi; erlarni lazer yordamida tekislagan holda diskret sugʻorish usuli (keyingi oʻrinlarda diskret sugʻorish deb ataladi) — qishloq xoʻjaligi ekinlarini sugʻorishning erlarni dastlab lazer qurilmali tekislagich agregat yordamida tekislab suv egiluvchan sugʻorish quvurlari orqali tanaffus bilan yetkazib beriladigan usuli.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Markaziy Osiyo mamlakatlarida qishloq xoʻjaligi qanday xususiyatlarga ega?

2. Markaziy Osiyo mamlakatlari qishloq xoʻjaligi maxsulotlarini eksport qilishda qaysi mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini oʻrnatishgan?

3. Markaziy Osiyo mamlakatlarida yetishtirilgan paxta qaysi mamlakatlarga eksport qilingan?

4. Tojikiston, Qirgʻiziston, Oʻzbekiston va Qozogʻiston mamlakatlarida qishloq xoʻjaligi YaIMdagi ulushlarini oʻzgarishiga qanday omillar taʼsir koʻrsatgan?

5. Tojikistonda olib borilgan qishloq xoʻjaligidagi islohotlarning qanday xususiyatlari mavjud?

6. Mamlakatimizda qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga moʻljallangan strategiyasining ustuvor yoʻnalishlari nimalardan iborat tavsiflab bering?

7. “Qishloq xoʻjaligini modernizatsiya qilish”da Jahon banki tomonidan qanday yordam koʻrsatilmoqda?

8. Mamlakatimizda qishloq xoʻjaligini rivojlantirish uchun davlat budjetidan mablagʻ ajratish boʻyicha qanday oʻzgarishlar boʻlmoqda.

9. Qishloq xo'jaligi bozorlarini erkinlashtirishda yer islohoti bo'yicha qanday ishlar amalga oshirildi?

10. Qishloq xo'jaligi bozorlarini erkinlashtirishda Suvdan foydalanish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirildi?

11. Qishloq xo'jaligi bozorlarini erkinlashtirishda Moliya-kredit va soliq sohasida qanday ishlar amalga oshirildi?

12. Qishloq xo'jaligi bozorlarini erkinlashtirishda Narx-navo masalasida qanday ishlar amalga oshirildi?

13. Qishloq xo'jaligi bozorlarini erkinlashtirishda G'allachilik sohasida qanday ishlar amalga oshirildi?

14. Qishloq xo'jaligi bozorlarini erkinlashtirishda Paxtachilik sohasida qanday ishlar amalga oshirildi?

15. Qishloq xo'jaligi bozorlarini erkinlashtirishda Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida qanday ishlar amalga oshirildi?

16. Qishloq xo'jaligi bozorlarini erkinlashtirishda Chorvachilik sohasida qanday ishlar amalga oshirildi?

## **16-BOB. INFRATUZILMA SIYOSATI VA DASTURLARI**

**16.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma.**

**16.2. Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda infratuzilma zaxiralari.**

**16.3. Infratuzilma xizmatlaridan foydalanish va yetkazib berish iqtisodiyoti.**

**16.4. Yangi infratuzilma xizmati foydalanish afzalliklari.**

**16.5. Infratuzilma dasturlari va dizayndagi o'zgarishlarni baholash.**

### **16.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma**

Infratuzilma (Infrastruktura) – bu, biznes, mintaqa yoki millatning asosiy jismoniy tizimlari uchun umumiy atama. Infratuzilmaning namunalari qatoriga transport tizimlari, aloqa tarmoqlari, kanalizatsiya, suv va elektr tizimlari kiradi. Ushbu tizimlar kapitalni talab qiladigan va yuqori xarajatli investitsiyalarga moyil bo'lib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishi va farovonligi uchun juda muhimdir.

Infratuzilmani takomillashtirish bilan bog'liq loyihalar davlat, xususiy yoki davlat-xususiy sheriklik orqali moliyalashtirilishi mumkin. Iqtisodiy nuqtai nazardan, infratuzilma ko'pincha jamoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni yoki tabiiy monopoliyalarni qo'llab-quvvatlaydigan ishlab chiqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Infratuzilma atamasi birinchi marta 1880-yillarning oxirlarida paydo bo'ldi. Bu so'z frantsuz tilidan kelib chiqqan bo'lib, infra-ma'nosi "pastda" va "qurilish" ma'nosini anglatadi. Infratuzilma – bu, tom ma'noda iqtisodiyotning tuzilishi asosdir. bo'lib, ko'pincha. 1987 –yilda AQSH Milliy Tadqiqot Kengashining kengashi "jamoat ishlari infratuzilmasi" atamasini qabul qildi, shu jumladan avtomagistral, aeroportlar, telekommunikatsiya va suv ta'minoti, shuningdek, ushbu elementlarning tarkibiga kiradigan birlashgan tizimlarga tegishli.

Katta va kichik miqyosdagi tashkiliy doiralarga tatbiq etiladigan infratuzilma turli xil tizimlar va tuzilmalarni o'z ichiga olishi mumkin, agar ular fizikaviy komponentlar zarur bo'lsa. Masalan, shahar, shtat yoki mamlakat bo'ylab elektr tarmog'i – bu, tegishli uskunalarga va u qo'llab-quvvatlaydigan hududlarga xizmat ko'rsatish niyatiga

asoslangan infratuzilma. Xuddi shunday, ma'lum bir joyda ishlaydigan kompaniyaning ma'lumotlar tarmog'ini tashkil etuvchi jismoniy kabel va tarkibiy qismlar ham ushbu biznes uchun infratuzilma hisoblanadi, chunki ular biznes operatsiyalarini qo'llab-quvvatlashi zarur.

Infratuzilma ko'pincha jamoat mollarini yoki tabiiy monopoliyalar tomonidan ishlab chiqarishga qarz beradigan tovarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga olganligi sababli, infratuzilmani davlat tomonidan moliyalashtirish, nazorat qilish, nazorat qilish yoki tartibga solishni ko'rish odatiy holdir. Bu odatda to'g'ridan to'g'ri davlat ishlab chiqarishi yoki yaqindan tartibga solinadigan, qonuniy ravishda sanksiyalangan va ko'pincha subsidiyalangan monopol tomonidan ishlab chiqarish shaklida bo'ladi. Kichikroq miqyosda infratuzilma ko'pincha klub tovarlari yoki mahalliy monopoliyalar tomonidan osonlikcha ishlab chiqariladigan tovarlarning xususiyatlarini qabul qilishi mumkin va firma ichida foydalanish uchun infratuzilma ishlab chiqaradigan, rasmiy yoki mahalliy kelishuvlar bilan ta'minlangan xususiy firma doirasida ta'minlanishi mumkin.

Infratuzilmani har xil turlarga kiritish mumkin, jumladan:

Yumshoq infratuzilma. Ushbu turdagi infratuzilma iqtisodiyotni saqlashga yordam beradigan institutlarni tashkil qiladi. Ular odatda inson kapitalini talab qiladi va aholiga ma'lum xizmatlarni ko'rsatishda yordam beradi. Bunga sog'liqni saqlash tizimi, moliya institutlari, hukumat tizimlari, huquqni muhofaza qilish organlari va ta'lim tizimlari kiradi.

Qattiq infratuzilma. Bular zamonaviy, sanoatlashgan xalqni boshqarishni talab qiladigan jismoniy tizimlarni tashkil etadi. Bunga yo'llar, magistral yo'llar, ko'priklar, shuningdek, ularni ishga tushirish uchun zarur bo'lgan kapital / aktivlar (tranzit avtobuslar, transport vositalari, neft qazib olish platformalari / qayta ishlash zavodlari) kiradi.

Muhim infratuzilma. Bular hukumat tomonidan jamiyat va iqtisodiyotning ishlashi uchun zarur bo'lgan mol-mulk, masalan, boshpana va issiqlik ta'minoti, telekommunikatsiya, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va hokazo. Qo'shma Shtatlarda ushbu muhim infratuzilmalar uchun mas'ul idoralar mavjud, ichki xavfsizlik (hukumat va favqulodda xizmatlar uchun), energetika vazirligi va transport vazirligi kabi.

Yuqorida aytib o‘tilgan tarmoqlar bilan bir qatorda, infratuzilma axlat yig‘ish va mahalliy chiqindilarni yig‘ish kabi chiqindilarni yo‘q qilish xizmatlarini o‘z ichiga oladi. Ko‘pincha turli xil davlat idoralari tomonidan qamrab olinadigan ma‘muriy funksiyalar infratuzilmaning bir qismi hisoblanadi. Ta‘lim va sog‘liqni saqlash muassasalari, shuningdek, aniq tadqiqot va rivojlantirish funksiyalari va zarur o‘quv binolari bilan bir qatorda kiritilishi mumkin.

IT infratuzilmasi. Ko‘pgina texnik tizimlar ma‘lum bir ishbilarmonlik muhitida ta‘minlaydigan muhim vazifalari tufayli ko‘pincha tarmoq uskunalari va serverlari kabi infratuzilmalar deb nomlanadi. Axborot texnologiyalari (IT) infratuzilmasi bo‘lmagan holda, ko‘plab korxonalar ma‘lumotlarni almashish va ish joyida samaradorlikni oshiradigan tarzda ko‘chirish uchun kurashadilar. Agar AT infratuzilmasi ishlamay qolsa, ko‘plab biznes funksiyalarini bajarish mumkin emas.

Ba‘zida xususiy kompaniyalar biznesni kengaytirish maqsadida mamlakat infratuzilmasini rivojlantirishga sarmoya kiritishni tanlaydilar. Masalan, energetika kompaniyasi neftni qayta ishlashni istagan mamlakatda quvur va temir yo‘llarni qurishi mumkin. Ushbu investitsiya kompaniyaga ham, mamlakatga ham foyda keltirishi mumkin.

2005 – yilda “Skyway Concession Company” Chikagodagi Skyway ko‘prigini boshqarish va texnik xizmat ko‘rsatish uchun Chikago Siti bilan 99 yillik ijaraga oldi. Shartnoma doirasida Skyway ko‘prik tomonidan ishlab chiqarilgan barcha to‘lovlarni va imtiyozli daromadlarni oladi, shahar esa 1,83 milliard dollar miqdorida naqd pul tushumidan foydalandi va endi ko‘prikni saqlash uchun javobgar emas.

Jismoniy shaxslar, shuningdek, ayrim davlat infratuzilmasini takomillashtirishni moliyalashtirishni tanlashi mumkin. Masalan, shaxs kasalxonalar, maktablar yoki mahalliy huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirishni moliyalashtirishi mumkin.

Infratuzilma, shuningdek, uzoq muddatli kapitalga qaraganda kamroq o‘zgaruvchan va yuqori rentabellikni ta‘minlaydigan aktivlar sinfidir. Natijada, ba‘zi kompaniyalar va shaxslar mudofaa xususiyatlari uchun infratuzilma fondlariga sarmoya kiritishni yaxshi ko‘radilar, masalan transport yoki suv infratuzilmasi bilan bog‘liq mablag‘lar.

Sanoat, innovatsiya va infratuzilma maqsadi “barqaror infratuzilmani barpo etish, qamrab oluvchi va barqaror sanoatlash-tirishni rivojlantirish va innovatsiyalarni rivojlantirish”ga qaratilgan. Infrastruktura har qanday mamlakatning tayanchidir, chunki u ish o‘rinlari yaratadi, iqtisodiy o‘shishni kuchaytiradi va kambag‘allarning hayot sifatini yaxshilaydi.

Masalan, Kongo Demokratik Respublikasidagi yangi tug‘ilgan chaqaloqni xavfsiz va sog‘lom tug‘ilishini ta’minlash uchun elektr energiyasiga muhtoj bo‘lgan kasalxonani olaylik. Kambojalik yosh qiz maktabga borish uchun xavfsiz yo‘lga ega bo‘lishi kerak va Bangladesh o‘z fuqarolarining hayoti uchun toza suvga muhtoj. Bu infratuzilma sarmoyalari qashshoqlikni yengillashtiradigan son-sanoqsiz usullarning bir nechtasi.

Biroq, hukumatlar ba’zi bir infratuzilma rejalarini orqaga qaytarishganda, bu juda katta ijtimoiy va iqtisodiy xarajatlarga olib keladi. Taxminan 663 million odam toza suvdan mahrum, 2,4 milliard odam yetarli darajada sanitariya sharoitiga ega emas, dunyo aholisining uchdan bir qismi ob-havo sharoitida xizmat ko‘rsatmaydi va 1,1 milliarddan ortiq odam, ya’ni dunyo aholisining deyarli 16 foizi, hali ham elektr energiyasidan foydalanish imkoniyati yo‘q.

Sanoat, innovatsiya va infratuzilma maqsadi ushbu muammolarni kamaytirishda va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda katta ta’sir ko‘rsatdi. Uyali aloqa xizmatlari tez tarqaldi va odamlarga global axborot asriga qo‘shilish imkonini berdi. 2016 – yilda eng kam rivojlangan mamlakatlarda odamlarning 85 foizi uyali signal bilan qamrab olingan. Transport xizmatlari, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiradi va boylik va ish bilan ta’minlaydi. 2015–yilda havo transportining global iqtisodiy ta’siri taxminan 2,7 trillion dollarni yoki global yalpi ichki mahsulotning taxminan 3,5 foizini tashkil etdi.

Global infratuzilmaning bir retsessiv nuqtasi 2008 – yildagi global inqirozdan keyin sodir bo‘ldi. G‘arb rivojlanayotgan bozorlarga qarzlarni eksport qilishni boshladi, shu bilan birga rivojlanayotgan bozorlardan qarz sotib oldi. G‘arbiy fond menejerlari rivojlanayotgan bozorlarga kredit shakllarini sotdilar va 2014 – yilda umumiy qarzdorlik 49 trln.ga yetdi.



Afsuski, ko‘pchilik qarzlarning cheksiz sikllarini sotish rivojlanayotgan davlatlar uchun o‘zlarining uylarida dollar ustunlik qilgan qarzlarni to‘lashni nihoyatda qiyinlashtirishi mumkinligini anglamaydilar. Ular ushbu kreditlarni to‘lay olmaydilar va o‘shirib oxir-oqibat to‘xtab qoladi. Yaxshiyamki, ko‘p tomonlama rivojlanish banklari mamlakatlarga ushbu uzoq muddatli moliyalashtirishdagi kamchiliklarni bartaraf etishda yordam berish uchun noyob joylashtirilgan. Ular muvaffaqiyatsiz bozor maydonlarini aniqlashga yordam berishi va xususiy sektor uchun imtiyozlarni yaratishi mumkin.

Infratuzilma sarmoyalari rivojlanayotgan mamlakatlarda ko‘priklar, yo‘llar, aloqa, kanalizatsiya va elektr energiyasi kabi loyihalarni qo‘llash orqali qashshoqlikni yengillashtiradi. Ushbu loyihalar ham davlat, ham xususiy investorlarga kapitalni oshirishga erishish imkoniyatini beradi. Ushbu mamlakatlar milliardlab odamlarning hayotiy infratuzilma ehtiyojlarini qondirish bilan birga, ko‘payib borayotgan populyatsiyalari bilan bir qatorda kelajak avlodlar uchun uzoq muddatli o‘shirib va foyda olish uchun muhim istiqbollarni yaratadilar.

## **16.2. Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda infratuzilma zaxiralari**

XX asr boshlarida bu atama orqali qurolli kuchlarning harakatini ta’minlovchi front orti inshootlar majmuyi ifodalangan (moddiy vositalar omborlari, harbiy bazalar, poligonlar va h.k.).40-yillarning o‘rtalaridan boshlab mazkur tushuncha g‘arb iqtisodiy faniga va amaliy iqtisodiyotga kirib keldi. U orqali sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi xo‘jalik tarmoqlari majmuyi tushunila boshlandi<sup>80</sup>.

Yuqorida aytilgan fikr, mulohazalardan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish infratuzilmasining mazmunini quyidagicha ta’riflash mumkin.

“Ishlab chiqarish infratuzilmasi asosiy ishlab chiqarish sohasiga xizmat qilib, uning normal holatda (bir maromda), uzluksiz amal

---

<sup>80</sup>Комаров М.П. Инфраструктура регионов мира. –М., 2006. –С.20.

qilishi uchun zarur bo'lgan umumiy shart sharoitlarni yaratuvchi va ta'minlovchi obyektlar majmuyidan iborat bo'lib, ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish bo'yicha turli kishilar, subyektlar (korxonalar va tashkilotlar) o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni namoyon etadi".

Ishlab chiqarish infratuzilmasi maxsus bir tizim bo'lib, uning markazida ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish bo'yicha turli iqtisodiy munosabatlar turadi. Ushbu iqtisodiy munosabatlar jahon va milliy iqtisodiyotning turli darajalarida ijtimoiy ishlab chiqarishni samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish, moddiy ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish kabi maqsadlarni namoyon etadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining bunday shaklda ifodalanishi, fikrimizcha, iqtisodiy fan oldida quyidagi imkoniyatlarni ochib beradi:

1) sohadagi iqtisodiy munosabatlarni maqsadga muvofiq yo'naltirish orqali jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish;

2) ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishdan davlatning iqtisodiyotni tartibga solish vosita va usullari sifatida foydalanish;

3) ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlari faoliyatini samarali tashkil etishda ularning muayyan turlari bo'yicha manfaatdor va mas'ul subyektlarni aniqlash;

4) ishlab chiqarish infratuzilmasi turli tarkibiy qismlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni moliyalashtirish manbalarini belgilash va h.k.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining iqtisodiy mazmunini ochib berishda uning o'ziga xos belgi va xususiyatlarini inobatga olish lozim. Chunki, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish infratuzilmasi faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishda aynan mana shu belgi va xususiyatlarning e'tiborga olinishi soha samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Quyida qator iqtisodiy manbalarda qayd etib o'tilgan asosiy belgi va xususiyatlarga to'xtalib o'tamiz.

1. Ishlab chiqarish infratuzilmasi faoliyatini yo'lga qo'yishning yirik hajmdagi boshlang'ich sarf-xarajatlarni taqozo etishi. Avtomobil va temir yo'llarini qurish, gaz va suv tarmoqlarini tortish va boshqa shu kabi jarayonlar katta hajmdagi moliyaviy xarajatlarni taqozo etadi. Bu esa, aksariyat ishlab chiqarish infratuzilma xizmatlarini

moliyalashtirishda davlatning yetakchilik rolini taqozo etadi. Bu borada K.R.Makkonell, S.L.Bryu quyidagilarni ta'kidlaydilar: "Iqtisodiyot uchun infratuzilma – bu fuqarolar va firmalar uchun foydalanish odatda davlat tomonidan ta'minlanuvchi kapital inshootlar (avtomagistrallar, ko'priklar, shahar transport tizimi, aeroportlar), firma uchun infratuzilma – bu mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xizmat va inshootlar bo'lib, ularni o'z kuchi bilan yaratish o'ta qimmatligi sababli davlat yoki boshqa firmalar tomonidan ta'minlanadi (suv ta'minoti, elektr energiyasi, sanoat chiqindilarini olib chiqish, yuk tashish, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishlari, moliya va bank muassasalari)"<sup>81</sup>.

2. Ishlab chiqarish infratuzilmasi sohasiga jalb etilgan kapitalni muomalada bo'lishi (aylanishi)ning uzoq muddatli davri. Bu, eng avvalo, ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlari qurilishining uzoq muddat vaqt taqozo etishi bilan bog'liq. Qolaversa, ishlab chiqarish infratuzilmasi faoliyatining ijtimoiy ahamiyat kasb etishi hamda ularga kapital sarfining yirik hajmi kapital aylanishini sekinlashtiradi. Bu esa, o'z-o'zidan mazkur sohaga xususiy investorlar tomonidan mablag' kiritish jozibadorligini pasaytiradi.

3. Ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlarini import qilib bo'lmaslik. Ya'ni, har bir milliy iqtisodiyot, u qanchalik samarali yoki samarasiz bo'lmasin, o'zining milliy infratuzilma xizmatlaridan foydalanishga majbur. Mazkur holat, ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlariga bo'lgan talabni qondirishda boshqa muqobil yo'llardan foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

4. Ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlarining mamlakat, mintaqa iqtisodiyotiga bilvosita ta'siri. Ya'ni, mazkur soha mamlakat yoki mintaqadagi ijtimoiy ishlab chiqarish natijalariga bevosita ta'siri bilan birga, ular faoliyat samaradorligi darajasini ta'minlash orqali bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holatning milliy iqtisodiyot darajasida e'tiborga olinmasligi mamlakat yoki mintaqaning uzoq davrdagi rivojlanishida jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

5. Ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlarining tarmoqlararo ahamiyat kasb etishi. Odatda ishlab chiqarish infratuzilmasi bir

---

<sup>81</sup>Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономика: Принципы, проблемы и политика. В 2 т.: Пер. с англ. 11-го изд. Т.1. – М.: Республика, 1992.

vaqtning o'zida bir necha tarmoq va sohalarga xizmat ko'rsatishi mumkin. Bunday holat, ishlab chiqarish infratuzilmasining ahamiyatini oshiradi.

6. Ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlari iste'molining ijtimoiy tavsifi. Bu xususiyat uning tarkibidagi ayrim xizmatlarning "ijtimoiy ne'mat" sifatida namoyon bo'lishi hamda buning oqibatida ulardan foydalanganlik uchun to'lovlarni amalga oshirmaslik muammosini keltirib chiqaradi. Ya'ni, ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatidan ko'plab iste'molchilarning erkin foydalangani holda, ulardan foydalanganlik uchun to'lov undirib bo'lmaydi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining mazmunini aniqroq tushunish uchun uning tarkibiy qismlarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Infratuzilma sohasini turli belgi va mezonlar bo'yicha turkumlash serqirra va munozarali jarayon hisoblanadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanish va amal qilishi muammolariga bag'ishlangan mavjud ilmiy manbalar tahlili asosida infratuzilmaning asosiy funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- milliy iqtisodiyot muayyan sohasi yoki hududidagi iqtisodiy faoliyatning ma'lum turlarini ta'minlash;

- hudud tarmoq va korxonalar uchun ishlab chiqarish sharoitlarini yaratish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning iste'moli va ayriboshlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratish.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlanganlik darajasining mukammal va yetarli bo'lmasligi mavjud iqtisodiy tizim doirasida korxonalar va tarmoqlarning faoliyatida qo'shimcha xarajatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibidagi turli tarkibiy qismlar majmuyi milliy iqtisodiyotdagi, ayrim hollarda, jahon iqtisodiyotidagi tashqi muhitning tartibsizligi, undagi turli-tuman kutilmagan o'zgarishlar salbiy ta'sirining oldini oladi yoki pasaytiradi, bozor munosabatlari sharoitida korxonalar va tarmoqlarning barqarorligini oshiradi. Natijada ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi ham oshadi. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibiy qismlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi oqibatida kelib chiqadigan xarajatlardan

taxminan mamlakat barcha tijorat korxonalari tomonidan qo‘shimcha to‘lanadigan 30% soliq miqdoriga teng bo‘ladi<sup>82</sup>.

Mamlakatimiz va jahon iqtisodiy adabiyotida ishlab chiqarish infratuzilmasining tarkibiy qismlarini turkumlash orqali muayyan tizimga solish doimiy bahs-munozaraga sabab bo‘lib keladi. Bu boradagi fikr-mulohazalar, yondashuv va qarashlarning qamrovi juda keng bo‘lib, ular infratuzilmaning asosiy belgilarini hisobga olishga asoslangan “klassik” yondashuvlardan tortib, infratuzilmaga xos bo‘lgan asosiy belgi va xususiyatlarni umuman e‘tiborga olmaydigan “intuitiv” yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasini turkumlashda uning asosiy belgilari bo‘yicha yondashuv katta ilmiy ahamiyat kasb etadi, biroq mazkur soha tarkibiy qismlarining ko‘p qirraliligi uni aniq belgilar bo‘yicha turkumlash jarayonlarini murakkablashtiradi.

16.1-jadvalda ishlab chiqarish infratuzilmasini tarkibini turkumlash bo‘yicha xorijiy va mamlakatimizdagi tadqiqotlar tahlili asosidagi infratuzilma tarmoqlarining tarkibiy tuzilmalari bo‘yicha turkumlanishi keltirilgan.

**16.1-jadval**

**Infratuzilmaning tarkibiy qismlarga turkumlanishi**

<b>Mualliflar</b>	<b>Infratuzilma tarkibiy qismlari</b>
S.Yano	Savdo; transport; axborot va bilimlar sanoati; aloqa; boshqaruv; istirohat sanoati; yurisprudensiya; tibbiyot; moliya; sug‘urta
R.Ioximsen	Moddiy (qurilishning barcha turlari, aloqa, energetika); institutsional (moliya-kredit tizimi, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyati bilan bog‘liq barcha sarf-xarajatlar); shaxsiy (ta’lim, sog‘liqni saqlash, aholiga xizmat ko‘rsatish, madaniyat, sport)
P.Rozenshteyn-Rodan, X.Zinger, P.Samuelson	Qo‘shimcha kapital: transport; aloqa; energetika

<sup>82</sup> Селезнев А.З. Становление рынка и его инфраструктуры / Экономист. 1993, №9.

## 16.1-jadval davomi

A.Pezenti	Yo'l tarmog'i; transport vositalari; yerdan foydalanish; melioratsiya, irrigatsiya; suv, energiya ta'minoti va boshq.
V.P.Oreshkin	Transport; ombor xo'jaligi; moddiy-texnika ta'minoti; aloqa; kommunikatsiya xo'jaligi; ish yuzasidan xizmat ko'rsatuvchi korxonalar
A.V.Kramar	Transport; aloqa; moddiy-texnika ta'minoti, sotish, tayyorlov; ombor xo'jaligi; energiya ta'minoti, elektr ta'minoti, suv ta'minoti; melioratsiya, irrigatsiya; ish bo'yicha xizmatlar
A.Y.Sharipov, T.G.Zotova	Barcha turdagi transportlar; aloqa vositasi; moddiy-texnika ta'minoti; qishloq xo'jaligi mahsulotini tayyorlash va sotish; elektr energetikasi obyektlari
V.A.Medvedev	Barcha turdagi transportlar; energiya tizimlari; axborot ta'minoti
K.Klark	Ulgurji va chakana savdo; davlat korxonalari; moliya va ko'chmas mulk; transport va aloqa; kommunal xo'jalik
K.Marks	Ishlab chiqarish umumiy sharoitlarini ta'minlovchi mehnat vositalari: moddiy sharoitlar – ish binolari, kanallar, yo'llar; Yashirin kapital: ishlab chiqarish zaxirasini saqlash vositalari; Kommunikatsion kapital: transport va aloqa vositalari
S.S.Nosova	Ijtimoiy-iqtisodiy; milliy; qo'llanish sohasi bo'yicha; tarmoq; mintaqaviy-hududiy; vaqt omili bo'yicha; iqtisodiy tizimni qamrab olish darajasiga ko'ra; moliyalashtirish manbalari bo'yicha; mulkchilik shakli bo'yicha
A.Karter, A.CHernok, D.Erlix	Umumiy ahamiyatdagi tarmoqlar: energiya tizimlari, transport, aloqa, savdo, uy-joy xo'jaligi xizmatlari

Yuqoridagi turkumlash tarkibiy qismlariga kiritilgan soha va faoliyatlar tavsifidan kelib chiqqan holda umumlashtirish mumkinki, ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlarning o'zaro kesishuvchi sohalarida harakat qilib, ishlab chiqarishni yaxlit holda bog'lash, ishlab chiqarish siklida vujudga keluvchi uzilishlarni bartaraf etish, ishlab chiqarish va muomala vaqtini qisqartirish hamda shu bilan fondlar aylanishini tezlashtirishga qaratilgan.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi – bu tarmoqlarga yaxlit yo'lga qo'yilgan mexanizm sifatida amal qilish imkonini beruvchi, ularni

o‘zaro bog‘lovchi bo‘g‘in. Bunday holat ishlab chiqarilgan mahsulotni iste‘mol qilishning o‘ziga xos tavsifi orqali kelib chiqadi.

Agar metallni mashinasozlik korxonalari, paxtani esa to‘qimachilik sanoati iste‘mol qilsa, u holda axborot, elektr energiyasi, aloqa va h.k.dan iborat ishlab chiqarish jarayonidagi barcha korxonalar hamda uy xo‘jaligida foydalaniladi. Bu o‘rinda ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlari faoliyatidan jamoa bo‘lib foydalanish yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bu, ayniqsa, milliy iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar natijasida alohida ishlab chiqarish birliklari o‘zlarini o‘zlariga tegishli infratuzilma bazasi bilan ta‘minlashga qodir bo‘lmagan, tarmoqlararo infratuzilma salohiyatini yaratish bo‘yicha turli idoralar va korxonalarining o‘zini xatti-harakatlarini birlashtirish taqozo etiluvchi tarmoqlar o‘zaro munosabatlarini murakkablashtirish sharoitida dolzarb hisoblanadi. Shu bilan bog‘liq holda ishlab chiqarish infratuzilmasi – bu yagona milliy iqtisodiyot tarmoqlar majmuyining uzviy tarkibiy qismidir. O‘z vaqtida ayrim iqtisodchilar injener-texnik infratuzilma tushunchasini ilgari surib, uning asosida muayyan hudud doirasidagi barcha majmuaning me‘yorda amal qilishini ta‘minlovchi injener, transport, energetik va boshqa h.k. inshootlarning majmuyini tushungan edilar. Bundan ko‘rinadiki, mazkur ta‘rif nisbatan keng tarqalgan “ishlab chiqarish infratuzilmasi” degan tushunchaga yaqindir.

Infratuzilma tarmoqlari tomonidan mahsulot muomalasi fazasi, ya‘ni tovar, ish, xizmatning ishlab chiqaruvchidan iste‘molchi tomon harakati ta‘minlanadi. Ilmiy manbalarda infratuzilmaning uch tushunchasi farqlanadi.

Birinchi tushuncha – bu mahsulot muomalasini, uning harakatini ta‘minlovchi faoliyatni ishga solish sohasini ifodalaydi.

Ikkinchi tushuncha infratuzilmani o‘zining funksiyasida mahsulotni bir joydan boshqa bir joyga tashish, saqlash va sotishni ko‘zda tutuvchi tarmoqlar yig‘indisi sifatida belgilaydi.

Uchinchi tushuncha – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining me‘yorda yuz berishini ta‘minlash uchun sharoitlar yaratuvchi moddiy obyektlar yig‘indisi sifatida belgilaydi. O‘z taraqqiyotida ishlab chiqarish infratuzilmasi ishlab chiqarish xizmati ko‘rsatish tizimi sifatida belgilash mumkin bo‘lgan holatga intiladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy vazifasi – korxonalar o‘rtasidagi aloqani ta’minlash, ishlab chiqarishning nisbatan yuqori samaradorligini ta’minlash maqsadida ularni yagona uzluksiz ishlab chiqarish sikliga birlashtirish uchun moddiy shart-sharoitlarni yaratish.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining funksional vazifasi bo‘lib ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining normal yuz berishini ta’minlash hisoblanadi. Bundan ko‘rinadiki, uning asosiy vazifasi – ishlab chiqarish vositalari muomalasini ta’minlashdir.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining alohida tarkibiy qismlari o‘rtasida yoki to‘ldiruvchi yoki kompensatsiyalovchi tavsifdagi mustahkam o‘zaro bog‘liqlik mavjud.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishini tizimli tahlil qilish va rejalashtirish maqsadida infratuzilma majmuasi tushunchasini keng qo‘llash zarur. Bu mazkur majmua tarkibiga kiruvchi elementlarning murakkabligi va o‘zaro mustahkam chatishib ketganligini ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasini tahlil qilish va rejalashtirishda uning funksional-tarmoq tuzilmasini, ya’ni tarmoqlarning uzviy qismi hisoblanuvchi va xususiyatlarini aks ettiruvchi bo‘linmalarini (transport-ombor bo‘g‘ini, axborot-kommunikatsiya bo‘g‘ini va b.) ajratib ko‘rsatish zarur.

Infratuzilmaning funksional-tarmoq jihatdan tarkibiy qismlari mahsulot muomalasi jarayonini ta’minlashda turlicha rol o‘ynaydi. Ulardan ayrimlari mazkur jarayonga bevosita va to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘lsa (masalan, transport-ombor xo‘jaligi), boshqalari bu jarayon bilan bilvosita bog‘liq (axborot va ish yuzasidan xizmat ko‘rsatish).

O‘z navbatida, infratuzilmaning har bir sanab o‘tilgan bo‘linmasi ichidan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida turlicha rol o‘ynovchi tarmoq elementlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Masalan, transport, ombor xo‘jaligi, yuklash-tushirish ishlarini bajarish uchun mexanizm va moslamalar o‘zaro mustahkam bog‘liq hamda mahsulotning ishlab chiqarish joyidan iste’mol joyiga qadar harakati yagona texnologik zanjiri bo‘g‘inlari bo‘lib hisoblanadi.

Infratuzilma transport-ombor bo‘g‘inining idishlar, konteynerlar, paketlash vositalari kabi boshqa elementlari alohida o‘rin tutadi, chunki texnologik zanjirning qandaydir alohida bo‘g‘inini tashkil



etmay, balki mahsulot transportirovkasi va saqlash jarayonlarini takomillashtirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining bunday turkumlanishi uni mintaqaviy iqtisodiyotning kompleks tarkibi sifatida tavsiflash imkonini beradi, bu uning amal qilishi va takror ishlab chiqarish jarayonlarini tartibga solish uchun ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarish infratuzilmasini turkumlash bo'yicha yuqoridagi turli mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqot xulosalarini hamda real iqtisodiy hayotni o'rganish asosida ishlab chiqarish infratuzilmasining tarkibiy qismlarini, asosan, quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz.

1. Temir yo'l transporti.
2. Avtomobil transporti.
3. Havо yo'llari transporti.
4. Quvur transporti.
5. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari.
6. Suv va kanalizatsiya ta'minoti.
7. Elektr energetikasi ta'minoti.
8. Gaz ta'minoti.
9. Ishlab chiqarish kompaniyalari va korxonalarining ichki infratuzilmasi (ichki yo'llar, ichki transport vositalari, ombor xo'jaligi, ta'mirlash ustaxonasi, kanalizatsiya va boshqa yo'nalishlar).

### **16.3. Infratuzilma xizmatlaridan foydalanish va yetkazib berish iqtisodiyoti**

Ishlab chiqarish infratuzilmasining amal qilish samaradorligini baholashda quyidagi xususiyatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, ishlab chiqarish infratuzilmasining turli bo'g'inlari ishlab chiqarishning mustaqil ko'rinishlari sifatida amal qiladi. Ikkinchidan esa, ishlab chiqarish infratuzilmasi ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish maqsadida uning barcha bo'g'inlarini birlashtiruvchi umumiy shart-sharoitlar sifatida namoyon bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, ishlab chiqarish infratuzilmasi alohida elementlarining olingan natijalarini (infratuzilmaviy xizmatlar ko'rinishidagi) ularni yaratishga qilingan xarajatlarga nisbati sifatidagi samaradorligini hisobga olish zarur. Ishlab chiqarish infratuzilmasi

samaradorligini bunday baholashning ahamiyatliligi sharoitida, uning amal qilishining oqilonaligi ko‘proq darajada uning xizmatlarining iste‘molchisi tomonidan olinadigan samara orqali aniqlanadi. Infratuzilma ishlab chiqarishning umumiy sharoitlarini yaratgan holda uning har bir tarmog‘i samaradorligiga faol ta‘sir ko‘rsatadi. Demak, ishlab chiqarish infratuzilmasining amal qilish samaradorligini to‘laqonli baholashda uning nafaqat to‘g‘ridan to‘g‘ri natijasini, balki iqtisodiyotning turli jabhalariga ta‘sirini ham hisobga olish zarur.

Infratuzilma tizimining rivojlanishi va samarali faoliyati mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga ta‘sirini bir necha jabhada kuzatish mumkin:

- bevosita ta‘siri – infratuzilma sohalari ishlab chiqargan xizmatlarning hajmi va ularning YaIM qo‘shgan hissasi;

- bilvosita ta‘siri – infratuzilma sohalari tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar foydalanuvchilari tomonidan ishlab chiqarish hajmining ortishi va ularning YaIMga qo‘shgan hissasi.


- multiplikativ ta‘siri – yangi infratuzilma obyektlarining yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lmay, mavjud infratuzilma obyektlaridan foydalanish darajasining ortishi, iqtisodiyot tarmoqlarining o‘zaro aloqalarining barqaror yo‘lga qo‘yilishi, va ularning uzluksizligini ta‘minlashi, hamda moddiy oqimlar aylanish tezligining oshirishi hisobiga yuzaga keluvchi samarasidir.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining iqtisodiyotga ta‘sirini quyidagi chizma orqali tasvirlash mumkin (16.1-rasm).

16.1-rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarining ishga tushirilishi ko‘pgina iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ijobiy ta‘sir etib, oxir oqibatda YaIMning barqaror o‘shishini ta‘minlaydi. Uning iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini uch yo‘nalishda kuzatish mumkin.

Birinchi yo‘nalishda (bevosita ta‘siri) ishga tushirilgan ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar hajmi to‘g‘ridan to‘g‘ri YaIM tarkibiga kiradi. Hozirda Xalqaro Valyuta fondi va Jahon banki tomonidan tavsiya etilgan Milliy hisoblar tizimi – 2008, asosan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy tarmoqlari 4 guruhga bo‘linib, ulardan enegiya, gaz va bug‘ ishlab chiqarish

tarmog‘i hamda suv, kanalizatsiya, chiqindi yig‘ish va utilizatsiya qilish tarmoqlari sanoat tarkibiga, yo‘l-transport hamda aloqa tarmoqlari esa xizmatlar tarkibida aks ettiriladi. Keyingi yillarda ana shu tarmoqlarning YaIMga to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘shgan umumiy hissasi baland bo‘lib, 20 foizdan 25 foizgacha o‘zgarmoqda. Lekin bu infratuzilma sohalarini iqtisodiyotga ta‘sirini to‘liq ifodalamaydi.



**16.1-rasm. Mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlashda ishlab chiqarish infratuzilmasining o‘rni.**

Ikkinchi yo‘nalishda (bilvosita), ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarining ishga tushirilishi iqtisodiyotdagi boshqa sohalarining infratuzilma xizmatlari bilan ta‘minlanganlik darajasini oshirishi orqali bilvosita YaIMning o‘shishiga olib keladi. Bunda, ishlab chiqarish infratuzilma xizmatlaridan foydalanish ishlab chiqarish tarmoqlarining

xarajatlarini kamaytiradi va korxonaning rentabelligini oshiradi, bu esa o'z o'rnida qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilishga va ishlab chiqarish hajmining oshishiga asos bo'ladi. Infratuzilma ishlab chiqarishning umumiy sharoitlarini yaratgan holda uning har bir tarmog'iga faol ta'sir ko'rsatadi. Bu o'rinda YaIMning o'sishi faqatgina iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalar hisobiga yuzaga keladi va bunda infratuzilma tarmoqlari yaratgan sharoitlarning ahamiyati yuq deb qabul qilinishi, albatta, noo'rindir.

Uchinchi yo'nalishda (multiplikativ ta'siri) ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlari bilan ta'minlanganlik darajasining oshishi iqtisodiyotda ko'pgina sifat ko'rsatkichlarga ta'sir etadi. Xususan, infratuzilma obyektlari iqtisodiyot tarmoqlarini bir-biriga bog'lovchi funksiyani bajarib, ular o'rtasida barqaror o'zaro aloqalarining kuchayishini va ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi hamda iqtisodiyotni yaxlit tizim sifatida shakllanishi va rivojlanishida ahamiyatli rol o'ynaydi. Bu esa tizimdagi ayrim bo'shliqlarni to'ldirishni rag'batlantiradi va iqtisodiyotning har tomonlama mutanosib rivojlanishiga olib keladi. Iqtisodiyotdagi bunday sifat o'zgarishlari iqtisodiyotning yaxlit tizim sifatida samaradorligini va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirib, oxir oqibatda YaIMning uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlaydi. O'z navbatida, barqaror iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish infratuzilmasining yanada rivojlanishiga sabab bo'ladi.

#### **16.4. Yangi infratuzilma xizmati foydalanish afzalliklari**

Bundan tashqari, ishlab chiqarish infratuzilmasi sohalari xizmatlari iste'moli ijtimoiy tavsifga ega bo'lganligi sababli u to'g'ridan to'g'ri aholi yashash farovonligining oshishi va ularning daromadlarini arzon infratuzilma hisobiga tejalishiga sababchi bo'ladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasining aholi ijtimoiy hayotiga bunday ta'siri YaIMning o'sishida bevosita aks etmasada, ijtimoiy ne'matlar narxlarining pasayishi va ixtiyordagi daromadlarning ortishi orqali bilvosita ta'sir etadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining amal qilish samaradorligini aniqlash bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlarning tahlili ishlab

chiqarish infratuzilmasi samaradorligini (natijasini) uslubiy jihatdan ushbu 3 yondashuv orqali baholash mumkinligini ko'rsatmoqda:

1) ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarining to'g'ridan to'g'ri xizmatlari hajmi orqali;

2) ishlab chiqaruvchilarning infratuzilma xizmatlari bilan ta'minlanganlik darajasi orqali;

3) ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlarining iste'molchisi tomonidan olinadigan samara orqali.

Birinchi yondashuvdagi ilmiy ishlarda mikro darajada har bir loyihaga ketgan sarf xarajatlar u to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqargan xizmatlari hajmiga solishtiriladi. Masalan, u quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin<sup>83</sup>:

$$\text{IchIS} = \frac{IX}{II}$$

Bu yerda,

IchIS - ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligi ko'rsatkichi.

IX – ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlaridan tushgan daromad hajmi.

II - ishlab chiqarish infratuzilmasiga kiritilgan investitsiya hajmi.

Ayrim hollarda, investitsiya qilingan vaqt va uning natijasi o'rtasidagi tafovutni hisobga olgan holda, ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlaridan tushgan daromad hajmi o'rniga keltirilgan daromadlar hajmi ham ishlatilishi mumkin. Bunday yondashuv ko'proq moliyaviy muassasalarda loyihalarning maqsadga muvofiqligini aniqlashda qo'llaniladi.

Qayd etib o'tish kerak, bunday yondashuvda ishlab chiqarish infratuzilmasining faqatgina to'g'ridan to'g'ri ishlab chiqargan xizmatlari hajmi yakuniy samara sifatida ko'riladi, ammo ularning boshqa sohalarga bilvosita ta'siri hisobga olinmaydi. Bunday yondashuvlar ko'pincha tashqi, bilvosita ta'sirga ega bo'lmagan loyihalar uchun qo'llash o'rindir. Bunda har bir loyiha darajasida uning xizmatlari hajmi va investitsiyasi o'rtasidagi aniq bog'liqlikni ko'rish mumkin. Ammo infratuzilma sohalari iqtisodiyotning o'zidan boshqa ko'pgina soha va jabhalariga kompleks tarzda, murakkab uzoq muddatli ta'sir yetar ekan, birgina bunday yondashuvlar bilan

---

<sup>83</sup> Edward M. Gramlich, "Infrastructure Investment: A Review Essay". Journal of Economic Literature, Vol. 32, No. 3. (Sep., 1994), pp. 1176-1196.

cheklanib qolish yetarli emas deb hisoblaymiz. Bunday yondashuvni har bir loyiha darajasida uning iqtisodiyot boshqa soha va jabhalariga bilvosita multiplikativ ta'sirini inobatga olgan holda qo'llanilishi mumkindir.

Ikkinchi yondashuvdagi ilmiy ishlar ishlab chiqarish infratuzilmasining amal qilish samaradorligiga uning ta'minlanganlik nuqtayi nazaridan yondashadilar. Jumladan, prof. K.O'ljaboyev transport jihatidan ta'minlanganlikni baholashda faqat hudud (mintaqa)nuqtayi nazaridan yondashadi. Mintaqalarning transport tarmog'i bilan ta'minlanganlik darajasining umumiy bahosi umumiy hududning har 1000 kv.km (L/S)hamda har 1000 nafar aholiga (L/N) to'g'ri keluvchi transport yo'llarining o'rtacha uzunligi (L) ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi. Mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha mintaqalar transport tarmog'i zichligini alohida ko'rib chiqilganda ularning transport jihatidan ta'minlanganligi to'g'risida ziddiyatli baholarga ega bo'lish mumkin.

Shu bilan birga, hudud va aholining soni umumiy holda mazkur belgilar bo'yicha har bir mintaqadagi davlatning milliy boyligini tavsiflasada, biroq uning iqtisodiy salohiyatini to'liq tavsiflay olmaydi. Shunga ko'ra, ishda mintaqalarning transport jihatidan ta'minlanganligi darajasi, bahosi, hududning maydoni, aholi soni va har bir mintaqqa iqtisodiyotining rivojlanganligidan kelib chiqqan holda transport tarmog'ining rivojlanganlik darajasini ifodalovchi integral ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshirilgan. Bu o'rinda mintaqaning transport jihatidan ta'minlanganlik darajasi ( $Y_{to}$ ) integral ko'rsatkichi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$Y_{to} = L/\sqrt[3]{SNB},$$

bu yerda V – yalpi ichki mahsulot, mlrd. so'm.

Fikrimizcha, ishlab chiqarish infratuzilmasi turli ishlab chiqarish korxonalarini va birlashmalariga xizmat qilar ekan, ular bilan ta'minlanganlikni faqat hudud jihatidan baholash masalani to'liq hal qilib berolmaydi. Shunga ko'ra, milliy iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish birliklarining har bir ishlab chiqarish infratuzilmasi turlari bo'yicha o'rtacha ta'minlanganlik darajasini baholash maqsadga muvofiq:

$$TD_{IX} = \frac{\sum_{i=1}^n IX_i}{S_{XB}},$$

Bu yerda:

$TD_{IX}$  – milliy iqtisodiyotdagi xo‘jalik birliklarini ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlari bilan ta‘minlanganligining o‘rtacha darajasi;

$IX$  – muayyan turdagi ishlab chiqarish infratuzilmasining xizmat ko‘rsatish hajmi;

$i$  – ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlari turi ( $i=1$  dan  $n$  gacha);

$S_{XB}$  – milliy iqtisodiyotdagi xo‘jalik birliklari soni.

Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, xo‘jalik birliklarini ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlari bilan ta‘minlanganligining o‘rtacha darajasi, bir tomondan, yuqorida ifodalanganidek, milliy iqtisodiyot uchun umumiy holda, ikkinchi tomondan esa, har bir alohida tarmoq yoki soha uchun alohida aniqlanishi mumkin. Shu bilan birga, infratuzilma xizmatlari bilan ta‘minlanganlik darajasining o‘zgarishi avvalgi yillarga nisbatan uning rivojlanishini ko‘rsatib bersa-da, ularga ketgan investitsiya xarajatlariga nisbatan qay darajada samarali ekanligini ko‘rsatib bera olmaydi. Bunday holat boshqa noinfratuzilmaviy sohalarga sarflangan investitsiyalarning samaradorligi bilan solishtirish imkonini bermaydi. Shuning uchun, fikrimizcha, ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlari bilan ta‘minlanganligining o‘rtacha darajasining o‘zgarishini unga sarflangan investitsiya hajmiga nisbati bizga investitsion samaradorlikni namoyon etishi mumkin.

$$IchIS. = \frac{\Delta TD_{IX}}{IchIInv},$$

Bu yerda:

$IchIS$  – ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligi ko‘rsatkichi;

$TD_{IX}$  – milliy iqtisodiyotdagi xo‘jalik birliklarini ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlari bilan ta‘minlanganligining o‘rtacha darajasi;

$IchIInv.$  – ishlab chiqarish infratuzilmasiga kiritilgan investitsiya hajmi;

Ushbu ko‘rinishdagi yondashuv avvalgi yo‘nalishga qaraganda infratuzilmaning iqtisodiyotga ta‘sirini mukammalroq aks ettirsada, infratuzilma sohasining uzoq muddatli kompleks ta‘sirini aks ettirib berolmaydi.

Fikrimizcha, ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishi hamda amal qilish samaradorligini baholashda ularning iqtisodiyotga yuqoridagi keltirilgan yo‘nalishlardagi, ya‘ni bevosita, bilvosita va

multiplikativ ta'sirlarini hisobga olish o'ta muhim uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga ishlab chiqarish infratuzilmasining amal qilish samaradorligini baholashda uning asosiy ustuvor maqsadlaridan kelib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Avval qayd etib o'tilganidek, ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir etadi, lekin bu ko'rsatkichlar oxir oqibatda barqaror YaIMning o'sishi va aholi farovonligining yaxshilanishiga olib kelishi zarur. Shuning uchun ishlab chiqarish infratuzilmasining amal qilish samaradorligini aniqlashda uning pirovard maqsadi, ya'ni uzoq muddatli barqaror YaIM o'sishining ta'minlanishi yoki aholi farovonligining barqaror oshishi kabi ko'rsatkichlarga bog'liq holda aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida keltirilgan yondashuvdagi infratuzilma bilan ta'minlanganlik darajasi YaIMning o'sishi yoki aholi farovonligining yaxshilanishini to'liq ifodalab berolmaydi, faqatgina ularga ta'sir etuvchi bitta omilni ifodalaydi xolos. Xuddi shunday tarzda, ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligi ko'rsatkichlarini infratuzilma xizmatlari hajmining oshishi, boshqa ishlab chiqarishlardagi xarajatlarning kamayishi, investitsiya hajmining oshishi, ishchi kuchi bandligining oshishi va shu kabi ayrim ko'rsatkichlar orqali ifodalanishi masalaning faqatgina bir tarafini ifodalaydi xolos, uning iqtisodiyotdagi to'laqonli natijasini (samaradorligini) ifodalay olmaydi.

Uchinchi yondashuvdagi ilmiy ishlar ishlab chiqarish infratuzilmasining iqtisodiyotdagi ko'p qirrali ta'sirini hisobga olishga harakat qilganlar va uning samaradorligini uning ta'sirida yaratilgan qo'shimcha yalpi mahsulot bilan bog'liq holda ifodalashga harakat qilganlar. Jumladan, M.A.Oripov tomonidan O'zbekiston dehqonchiligida ishlab chiqarish infratuzilma xizmatlari ko'rsatish samaradorligi masalasi ko'rib chiqilgan bo'lib, dissertatsiya ishida infratuzilma samaradorligini aniqlashda, uni xizmatlar ko'rsatish hajmini yalpi ishlab chiqarilgan yoki sotilgan yalpi tovar mahsulotlari hajmining o'sish nisbatlari bilan ifodalash tavsiya etilgan. Bu nisbatni boshqa barcha omillar doimiy (const.) bo'lganda quyidagicha ifoda etish mumkin:

$$IS = \frac{Q_{c.1} - Q_{c.0}}{Q_{i.x.1} - Q_{i.x.0}} = \frac{\Delta Q_c}{\Delta Q_{i.x.}}$$



bu yerda:

IS – infratuzilma xizmatlari marjinal samaradorligi;

$Q_{c.0}$  – boshlang'ich davrda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi;

$Q_{s.1}$  – keyingi davrda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;

$Q_{i.x.0}$  – boshlang'ich davrda ko'rsatilgan infratuzilma xizmatlari hajmi;

$Q_{i.x.1}$  – keyingi davrda ko'rsatilgan infratuzilma xizmatlari hajmi;

$\Delta$ –davr oxiridagi o'zgarish.

Shunday qilib, 1-formula orqali muayyan korxonada (xo'jalik), soha, mintaqada misolida infratuzilma xizmatlarining ishlab chiqarilgan yoki sotilgan tovar mahsulotlari hajmidagi ta'siri orqali infratuzilma majmuyi samaradorligini aniqlash mumkin. Agar natija musbat bo'lsa, bu ishlab chiqarish va infratuzilma xizmati ko'rsatuvchi sohalarning samarali ekanligini ifoda etadi. Shuningdek, infratuzilmaning rivojlanish darajasini barcha omillar doimiy (const.) bo'lganda yalpi mahsulot ishlab chiqarish (yoki mahsulot sotuvi) hamda ko'rsatilgan infratuzilma xizmatlari hajmining indeksi ( $J_{i.x.}$ ) orqali ham ifoda etsa bo'ladi:

$$J_{i.x.} = \frac{Q_{c.1}}{Q_{c.0}} : \frac{Q_{i.x.1}}{Q_{i.x.0}} = \frac{Q_{c.1} \times Q_{i.x.0}}{Q_{c.0} \times Q_{i.x.1}}$$

Mazkur indeksning qiymati:  $0 < J_{i.x.} < 1$  bo'lsa, infratuzilma xizmatlari ko'rsatish darajasi past bo'lganligini, agar  $J_{i.x.} = 1$  bo'lsa, mahsulot sotish hamda infratuzilma xizmatlari ko'rsatish hajmlari tahlil qilinayotgan davrda o'zgarmaganligini va  $J_{i.x.} > 1$  bo'lsa, infratuzilma xizmatlari ko'rsatish darajasi o'sganligini ifoda etadi<sup>84</sup>.

Ishlab chiqarish infratuzilma xizmatlari ko'rsatish samaradorligini baholashning ko'rib chiqilgan usuli bir qator kamchilik va munozarali jihatlardan holi emas. Jumladan:

- natija sifatida faqatgina shu davrdagi ishlab chiqarish umumiy hajmi o'zgarishining olinishi ishlab chiqarish infratuzilmasi faoliyat samaradorligini aniq ifodalay olmaydi. Chunki, avval aytib

---

<sup>84</sup>Oripov M.A. O'zbekiston dehqonchiligida ishlab chiqarish infratuzilma xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish. 08.00.04. – Agrosanoat majmui iqtisodiyoti. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoref. – T.: O'zR BMA, 2011, 13-14-b.

o‘tganimizdek infratuzilma xizmatlari faqatgina bir davrda emas, balki keyingi davrlarda ham ta’sir etishi mumkin.;

- infratuzilma xizmatlari ko‘rsatish hajmini yalpi ishlab chiqarilgan yoki sotilgan yalpi tovar mahsulotlari hajmining o‘shiga nisbatini hisoblashda boshqa barcha omillarni doimiy (const.) deb olinishi holatining hisoblash usuli tarkibiga kiritilmaganligi baholash natijalariga ta’sir ko‘rsatadi.

### **16.5. Infratuzilma dasturlari va dizayndagi o‘zgarishlarni baholash**

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlarida nafaqat tarkibiy o‘zgarishlar, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini amalga oshirish, balki ana shu jarayonlar bilan birga bozor mexanizmlarini kengroq tadbiq etishni, iqtisodiyot tarmoqlarini liberallashtirishni, xususiy mulk ishtirokini yanada kengaytirishni ko‘zda tutuvchi institutsional o‘zgarishlarni ham qamrab oluvchi keng islohot ko‘lamini o‘z ichiga oladi.

Malakatimizda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan 7 ta dastur va chora-tadbirlar, hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan 8 ta dastur ishlab chiqilgan. Dasturlarda ishlab chiqarish infratuzilmasi sohalarini rivojlantirish istiqbollari va yo‘nalishlari berilgan (16.2-jadval).

#### **16.2-jadval**

#### **2017–2022-yillarda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ro‘yxati**

<b>№</b>	<b>Dasturlar nomlari</b>	<b>Hujjatning raqami va qabul qilingan sanasi</b>	<b>Hujjat turi</b>	<b>Tarmoq nomi</b>
1.	2017–2021-yillarda gidroenergetikani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida	PQ-2947 02.05.2017	Prezident qarori	Energetika
2.	2018– 2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk	№PQ-3422 02.12.2017	Prezident qarori	Transport

## 16.2-jadvalning davomi

	tashishning tashqi savdo yoʻnalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari toʻgʻrisida			
3.	2017–2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi toʻgʻrisida	PQ-3012 26.05.2017	Prezident qarori	Energetika
4.	2017–2018-yillarda mintaqaviy avtomobil yoʻllarini rivojlantirish dasturi toʻgʻrisida	PQ-2775 14.02.2017	Prezident qarori	Transport
5.	2017–2021-yillarda past kuchlanishli elektr tarmoqlarini yanada modernizatsiya qilish va yangilash dasturi toʻgʻrisida	PQ-2661 23.11.2016	Prezident qarori	Energetika
6.	2017–2021-yillarda maishiy chiqindilar bilan bogʻliq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida	PQ-2916 21.04.2017	Prezident qarori	Suv taʼminoti va kanalizatsiya
7.	2017–2021-yillarda ichimlik suvi taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi toʻgʻrisida	PQ-2910 20.04.2017	Prezident qarori	Suv taʼminoti va kanalizatsiya

Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz) maʼlumotlari.

Ana shu dasturlarda infratuzilma sohalarini rivojlanishining istiqbol koʻrsatkichlari berilgan. Ularga koʻra, infratuzilma sohalariga 2017-2021 – yillarda umumiy qiymati 10,5 mlrd AQSH dollari ekvivalenti miqdorida investitsiya qilinishi koʻzda tutilgan. Ana shu investitsiyalarni oʻzlashtirish orqali 2021 – yilda 2017 – yil boshiga nisbatan transport xizmatlari hajmini 1,5 barobar, AKT sohasi xizmatlarini hajmini 3 barobar, elektroenergiya ishlab chiqarish quvvatlarini 1,7 barobar, suv taʼminoti va kanalizatsiya sohalarida esa 1,8 barobar oʻsishini taʼminlash rejalashtirilgan (16.3-jadval).

Keltirilgan dasturlarda har bir soha boʻyicha aniq rejalashtirilgan investitsiya loyihalari, uni moliyalashtirish manbaalari va amalga

oshirish muddatlari berilgan. Qayd etish kerakki, ushbu sohalarda davlatning ishtiroki yuqori bo‘lganligi sababli, ularda asosan davlat ishtirokidagi korxonalar bo‘yicha loyihalar berilgan.

### 16.3-jadval

#### Davlat dasturlari bo‘yicha ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning istiqbol ko‘rsatkichlari

	2017-2021 yillarda jami investitsiya miqdori (ekv. Mln. AQSH dollari)	Dasturlar bo‘yicha rejalashtirilgan o‘sish (o‘tgan yilga nisbatan %da):				
		2017	2018	2019	2020	2021
Transport xizmatlari	4221,1	107,5	108,2	108,9	109,4	108,2
jumladan: avtotransport xizmatlari	2746,7	108,2	108,4	109,0	109,5	108,6
AKT sohasi xizmatlari	317,8	121,8	123,8	125,9	127,8	123,8
Elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatining o‘sishi	3005,0	102,9	104,0	107,6	118,3	127,0
Suv ta’minoti, sanitariya va sanitar tozalash	267,7	113,5	119,8	110,6	110,6	110,5

Hozirgi kunda Respublikaning gidroenergetika sohasini uzoq muddatli 2029-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

### 16.4-jadval

#### Qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish bo‘yicha investitsion loyihalar (mln. AQSH dollari ekvivalentida)

Loyihalar	Loyihaning umumiy qiymati	Shu jumladan moliyalashtirish manbaalari bo‘yicha:			
		O‘zlik mablag‘lari	O‘zRTTF	Tijorat banklari kreditlari	CHet el investitsiyalari va kreditlari
Jami (810 ta loyiha)	5 338,9	2 634,1	389,0	139,0	2 176,8
Shu jumladan:					
Yangi quriladigan (778 ta loyiha)	4 260,1	2 222,5	389,0	139,0	1 509,7
Modernizatsiya qilinadigan (32 ta loyiha)	1 078,8	411,7	-	-	667,2

Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining texnik jihatdan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan gidroenergetika salohiyati yiliga taxminan 27,4 mlrd. kVt/soat elektr energiyasi miqdorida baholanadi. Unda 2018- yilda 37 ta gidroenergetika inshootlarida 7,93 mlrd. kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarganligi, ya’ni potensialning qariyb 29 foiz ishlatilganligi qayd etiladi. O‘zbekiston Respublikasidagi suv oqimlarining qolgan gidroenergetika resurslari yiliga 19,47 mlrd. kVt/soatni tashkil qiladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi sohasidagi e’tiborga molik davlat choralaridan yana biri transport infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan “2018–2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezidentimizning 2017 – yil 2 – dekabrda 3422-sonli qaroridir. Ushbu qarorda hozirgi vaqtdagi Respublikaning mavjud salmoqli tranzit salohiyati to‘liq darajada ishga tushirilmaganligi hamda vujudga kelgan tranzit va tarif siyosatidagi nomaqbullik qo‘shimcha ravishda tranzit yuk oqimini jalb etishga to‘sqinlik qilayotganligi muammolariga e’tibor qaratiladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining yana bir salmoqli sohasidan biri axborot kommunikatsion texnologiyalar sohasidir. Aytib o‘tish kerak, ushbu sohani rivojlantirish uchun bir qancha choralar amalga oshirilgan.

Ushbu sohani rivojlantirish maqsadida Prezidentimizning 2018–yilda “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5349-sonli Farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish va qo‘llash sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda munosabatlarni tartibga solish, elektron hukumatni joriy etish, axborot jamiyati va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish faoliyatini muvofiqlashtiruvchi asosiy organidir. Ayni paytda raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish sohasida, hamda uning ajralmas qismi bo‘lgan «Elektron hukumat» tizimini joriy etish sohasida vakolatli organ etib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi belgilangan. Shuning uchun davlat boshqaruvida axborot tizimlarini joriy etishda, yagona

davlat siyosatini ishlab chiqish, amalga oshirish hamda davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirishda agentlik vakolatli organ hisoblanadi.

Qayd etish kerak, ushbu sohani rivojlantirishning alohida dasturi ishlab chiqilmagan bo‘lib, sohani rivojlantirishning asosiy ko‘rsatkichlari Harakatlar strategiyasiga va Vazirlar Mahkamasi 2016–yilda “2016–2020-yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi 50-sonli qaroriga asoslanadi. Bu sohaning YaIMdagi salmog‘i boshqa infratuzilma sohalariga nisbatan past bo‘lsada, o‘shir sur‘ati yuqori ko‘rsatkichlarga erishib, 2010–2018-yillarda o‘rtacha 15-20%ni tashkil etmoqda. Shu bilan birga bu soha ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotning deyarli barcha jabhalariga o‘z ta‘sirini kuchaytirib bormoqda va iqtisodiyotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shuning uchun, fikrimizcha, ushbu sohani rivojlantirish axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish va joriy etish, davlat boshqaruvidagi axborot tizimlarini rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda elektron xukumat tizimlarini rivojlantirishni qamrab oluvchi yagona rivojlantirish dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunday dasturning ishlab chiqilishi sohadagi turli jarayonlarning uyg‘unligini ta‘minlab, yagona maqsadga tomon intilishini ta‘minlaydi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

**“Infratuzilma” tushunchasi** – fransuz tilidan olingan bo‘lib, “infra” – quyi, osti va “struktura” – tuzilma so‘zlarini anglatadi.

**Ishlab chiqarish infratuzilmasi** – asosiy ishlab chiqarish sohasiga xizmat qilib, uning normal holatda (bir maromda), uzluksiz amal qilishi uchun zarur bo‘lgan umumiy shart-sharoitlarni yaratuvchi va ta‘minlovchi obyektlar majmuyidan iborat.

**Infratuzilmaning birinchi tushunchasi** – bu mahsulot muomalasini, uning harakatini ta‘minlovchi faoliyatni ishga solish sohasini ifodalashi.

**Infratuzilmaning ikkinchi tushunchasi** – infratuzilmani o‘zining funksiyasida mahsulotni bir joydan boshqa bir joyga tashish, saqlash va sotishni ko‘zda tutuvchi tarmoqlar yig‘indisi sifatida belgilashi.

**Infratuzilmaning uchinchi tushunchasi** – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining me'yorda yuz berishini ta'minlash uchun sharoitlar yaratuvchi moddiy obyektlar yig'indisi sifatida belgilashi.

**Ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy vazifasi** – korxonalar o'rtasidagi aloqani ta'minlash, ishlab chiqarishning nisbatan yuqori samaradorligini ta'minlash maqsadida ularni yagona uzluksiz ishlab chiqarish sikliga birlashtirish uchun moddiy shart-sharoitlarni yaratish.

**Ishlab chiqarish infratuzilmasining funksional vazifasi** – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining normal yuz berishini ta'minlash.

**Infratuzilmaning iqtisodiyotga bevosita ta'siri** – infratuzilma sohalari ishlab chiqargan xizmatlarning hajmi va ularning YaIMga qo'shgan hissassi.

**Infratuzilmaning iqtisodiyotga bilvosita ta'siri** – infratuzilma sohalari tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar foydalanuvchilari tomonidan ishlab chiqarish hajmining ortishi va ularning YaIMga qo'shgan hissassi.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. "Infratuzilma" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Ishlab chiqarish infratuzilmasi nima?
3. Ishlab chiqarish infratuzilmasining iqtisodiyotdagi o'rnini izohlab bering.
4. Infratuzilmaning uch jihatdan tushunchasi nimani anglatadi?
5. Ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy vazifasi nimadan iborat?
6. Ishlab chiqarish infratuzilmasining funksional vazifasi nimadan iborat?
7. Infratuzilmaning iqtisodiyotga bevosita ta'siri qanday aniqlanadi?
8. Infratuzilmaning iqtisodiyotga bilvosita ta'siri qanday aniqlanadi?
9. Infratuzilmani rivojlantirish dasturi nima va qanday tarkibiy qismlardan iborat?
10. Infratuzilma dasturlarining amalga oshirilishi qanday baholanadi?

## **17-BOB. TA'LIM**

**17.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim.**

**17.2. Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sohasiga investitsiyalar.**

**17.3. Ta'lim siyosatidagi yakuniy va taxminiy vazifalar.**

**17.4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda boshlang'ich va o'rta ta'lim iqtisodiyoti.**

**17.5. Ta'lim sohasidagi islohotlarni baholash.**

### **17.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim**

Finlyandiyadagi ta'lim tizimi dunyodagi eng yaxshi tizimlardan biri hisoblanadi. Finlyandiya bolalari ta'limni boshqa mamlakatlarnikiga qaraganda kechroq boshlaydilar. Ular 7 yoshdan boshlab maktabga qabul qilinadi. «Bolalarni haddan ziyod erta maktabga berish ilmiy jihatdan foydali emasligi tasdiqlangan», deyiladi fin tizimida. 7 yoshgacha bo'lgan bolalar kunduzgi bolalar bog'chalariga qatnaydilar, ammo u yerda darslar o'rniga ijodiy o'yinlarga e'tibor berishadi. Bu yoshdagi bolalarga o'ynash va jismoniy faol bo'lish uchun vaqt kerak. O'qishning har 45-daqiqasida bolalar 15 daqiqa tanaffus qilib, turli o'yinlar o'ynashadi. Finlandiyada majburiy ta'lim 9 yil davom etadi, o'quvchilar 16 yoshdan o'qishni tark etishlari mumkin. Ushbu g'oya Finlyandiya bolalarini haqiqiy hayotga tayyorlashga qaratilgan. Finlyandiyada bolalar faqat 16 yoshida markazlashtirilgan imtihon (Milliy Matriculation Test) dan o'tishlari talab qilinadi. Finlyandiya talabalari rivojlangan mamlakatlar ichida eng kam dars soatlarini o'qiydilar (darslar 8-9 oralig'ida boshlanib, kunduzgi 2 gacha yakunlanadi), shunga qaramay juda yaxshi natijalar qayd etadilar. Finlyandiyadagi maktablar hech qanday tartibda joylashmagan, maktablar, mintaqalar, o'qituvchilar va hatto talabalar o'rtasida taqqoslashlar mavjud emas. Ular raqobat emas, aynan hamkorlik muvaffaqiyat kalitidir, deb hisoblashadi. Fin o'qituvchilari dunyodagi eng malakali mutaxassislardir. Finlyandiyada o'qituvchilikka bo'lgan talablar juda yuqori. Finlyandiya o'qituvchilari xuddi shifokorlar va yuristlar kabi maqomga ega. Ularning ijtimoiy mavqeyi ham juda yuqori. Fin o'qituvchilarining bu qadar ulkan



mavqega egaliklari o'qituvchi kasbiga bo'lgan talabning yuqoriligi hamda malaka imtihonlarining murakkabligi bilan izohlanadi. Shuning uchun Finlyandiyada ular o'z o'qituvchilarini doimiy ravishda baholash va baholab borish zaruratini sezmaydilar. Agar o'qituvchidan qandaydir xato yoki kamchilik o'tadigan bo'ls, u bilan maktab direktorining o'zi shug'ullanib qo'ya qoladi.<sup>85</sup>

Finlandiyada maktablar tekshirilmaydi. 1990-yillarning boshlarida Finlyandiyada maktablarni maxsus komissiyalar tomonidan tekshirilish amaliyoti bekor qilindi. Finlandiyaliklar o'qituvchilar va maktab rahbarlarining professionalligiga ishonadilar. Maktablar o'z-o'zini baholashga da'vat etiladi. Finlandiyada xususiy maktablar mavjud emas. Fin maktablari o'rtasida raqobat yo'qligining sabablaridan biri shundaki, barcha maktablar davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Shu bois qayerdadir yaxshi, qayerdadir sustroq ta'lim berilishiga yo'l qo'yilmaydi. Finlyandiya maktablarining barcha o'quvchilarining tushligi davlat tomonidan qoplab beriladi. 1943– yildan buyon mazkur amaliyotga amal qilib kelinmoqda. Finlyandiya ta'lim tizimi test natijalarini ko'paytirish va matematika, tabiiy fanlar va ingliz tillariga ustuvorlik berish o'rniga, o'qish uchun sog'lom va uyg'un muhit yaratishga e'tibor qaratildi. Bunda ta'lim «ijtimoiy tengsizlikni muvozanatlash vositasi bo'lishi kerak», degan mafkuraga amal qilinadi. Finlyandiya talabalari ko'proq tillarni o'rganishadi. Ular fin tilini maktabdagi birinchi kundan o'rganishadi. 9 yoshida ular shved tilini o'rganishni boshlaydilar. 11 yoshida ular uchinchi tilni (odatda ingliz tilini) o'rganish rag'batlantiriladi. Ko'plab o'quvchilar 13 yoshida to'rtinchi tilni o'rganayotgan bo'ladi. O'qituvchilar odatda kuniga 4 soatdan mashg'ulot o'tkazishadi va har hafta ularga kasbiy rivojlanish uchun 2 soat vaqt ajratiladi. Bu esa, o'z navbatida, muallimlarga tushadigan stressni kamaytiradi.

Finlyandiya milliy o'quv dasturi keng qo'llanma bo'lib, o'qituvchilarga o'z uslubi va fikrlarini sinfda ishlatishiga imkon beradi. Bu Finlyandiya ta'lim tizimining o'z o'qituvchilariga bo'lgan ishonchiga asoslanadi. O'rta maktab o'quvchilarining 66% qo'shimcha ta'limga (kollej yoki kasb-hunar kurslariga) qatnaydilar. Finlyandiya

---

<sup>85</sup> <https://tarjumon.uz/21264>

har bir talabaga AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Germaniyaga qaraganda taxminan 30% kamroq mablag' sarflaydi (OECD statistikasi).

**Ispaniya ta'lim tizimi.** Ispaniyada zamonaviy ta'lim 1964–yilda qabul qilingan qonun asosida tartibga solingan. 1996–2000-yillarda islohatlar amalga oshirilgan. Majburiy ta'lim 16 yoshgacha belgilangan. Ispaniya xalq ta'lim tizimi quyidagicha:

1. Bolalar ta'limi 0-6 yoshgacha (2 davrga bo'linadi 3 yoshgacha va 3 yoshdan-6 yoshgacha majburiy emas)

2. Boshlang'ich ta'lim 6-12 yoshgacha (3 darsga bo'linadi, har biri 2 kursdan iborat);

3. O'rta ta'lim 2 davrga bo'linadi: 12-14 yosh 1-kurs, 14-16 yosh – 2-kurs 14 yoshgacha bolalar uchun majburiy ta'lim bepul.

Mamlakatda 4 bosqichdan iborat kasbiy ta'lim tizimi shakllantirilgan 1-bosqich maktabning yuqori sinfiga to'g'ri keladi (16-18 yosh) maktabdan farqli kollejlarda barcha fanlar to'la hajmda o'qitilmaydi, ixtisoslik bo'yicha zarur deb topilgan predmetlar o'qitiladi, 2-bosqich 18 yoshdan boshlanadi. Kollej yoki o'rta maktabni tugallangan bo'lishi kerak:

1-yili tanlagan ixtisosligi bo'yicha 4 ta fan o'qitiladi yil oxirida ulardan biridan imtihon topshiriladi, 2-yili 3 ta fan o'qitiladi va har biridan sinov qo'yiladi. Ushbu 4 imtihon natijalariga ko'ra ixtisoslik bo'yicha ishlash imkonini beruvchi diplom olinadi. Lekin bu hujjat olgan mutaxassis boshqaruvchi bo'la olmaydi. Bitiruv imtihonlari natijalari universitetga kirishda inobatga olinadi. 3-bosqichda o'qish muddati 1 yil. Bu bosqich 1-bo'g'in rahbari bo'lishni istaganlar uchun mo'ljallangan. Shuningdek, malaka oshirmoqchi yoki turdosh soha bo'yicha kasbini o'zgartirmoqchi bo'lgan kishilar ham bu bosqichda ta'lim olishi talab etiladi. 4-bosqichda bakalavrluk diplomi beriladi o'rta bo'g'inda rahbarlik lovozimini egallash va kichik firmani boshqarish huquqini beradi.

Mamlakatda 13 ta davlat universiteti va cherkovga tegishli boshqa qator oliy ta'lim dargohlari, Qirollik tasviriy san'at akademiyasi, Tibbiyot va Ijtimoiy fanlar akademiyalari mavjud: Madrid avtonom universiteti, Barselona markaziy va avtonom universiteti, Santyago-de-Kompostea, Valensiyadagi Politexnika universiteti eng yirik universitetlar hisoblanadi. Mamlakatda so'nggi

yillarda yangi pedagogik kadrlarga nisbatan talab oshgan. O‘quv yili ta’lim muassasalarida oktyabrdan iyungacha davom etadi. 1999 – yil 19– iyunda Italiyaning Bolonya shahrida Yevropa mamlakatlari ta’lim vazirining uchrashuvi bo‘lgan va unda 2010 – yildan boshlab Yevropa ta’lim hududi yaratishga qaror qabul qilingan. Ishtirokchi mamlakatlar yagona ta’lim tizimiga (o‘quv dasturlari va kreditlarga qo‘yilgan talablar, yagona ta’lim darajalari)ega bo‘lishadi. 40dan ortiq mamlakat ushbu kelishuvni imzolagan. Ispaniya oliy ta’lim tizimida o‘qish 3 ta ketma-ket davrlarni o‘z ichiga oladi: 1-davr bakalavrluk bosqichi 4 yillik ta’limni o‘z ichiga olib, bitirgan talabaga bakalavr darajasi beriladi, 2-davrmagistrlik bosqichiga teng, bitiruvchiga —”Master” darajasi beriladi. 3-davr aspirantura bilan qiyoslash mumkin Ispaniya oliy ta’lim tizimida tadqiqotchi —”Doctor” darajasini oladi.

## **17.2. Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda ta’lim sohasiga investitsiyalar**

Jahon oliy ta’lim tizimni keyingi 30-40-yillar ichida ularning rivojlanishini moliyalashtirishni bir necha modellari tashkil topdi. Shulardan oliy ta’lim tizimini birinchi moliyalashtirish modeli neoliberalizm modeli bo‘lib, u M.Fidlin, F.Chaba va F.Xask tomonidan o‘rganilgan. Bu modelga asosan AQSH, Yaponiya, Avstraliya, Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya va Janubiy Afrika mamlakatlarida uni moliyalashtirish qo‘llanilgan. Misol uchun XXI asrda AQSH oliy ta’lim tizimi xarajatlarini 42,5%, budget mablag‘lari hisobiga, shu jumladan federal budget hisobiga 27,5 %, mahalliy shtat budjeti hisobiga 2,6% qoplangan. Davlat oliy o‘quv yurtlari 50% moliyaviy mablag‘larni shtat boshqaruvidan moliyalashtirilsa xususiy oliy o‘quv yurtlari bunday huquqga ega emaslar. Bu model vakillari oliy o‘quv yurtlari va shtatda joylashgan korxonalar hamkorligida oliy ta’lim tizimida mavjud muammolarni hal etadilar<sup>86</sup>. Ammo oliy o‘quv yurtlarini avtonom holda mustaqil bo‘lib faoliyat yuritishlari ularda shtat budjeti mablag‘larini ishlatishni nazorat qilishni talab etadi. Yevropaning g‘arb mamlakatlarida bozor iqtisodiyotini

<sup>86</sup> Другов А. Проблемы и направления модернизации высшего образования в Украине/ А.Другов /Вестник КНЕТУ-2007-№5- с 127-134

transformatsiyalanishi munosabati bilan oliy ta'lim xizmatlari o'rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish muammosini hal etish oliy ta'lim inson bilmini faoliyatida asosiy vositaga aylanishi bilan bog'liq. Bolon jarayoni umumiy muammo bo'lib, uni birgalikda hal etishni talab etadi<sup>87</sup>.

Yangi industrial jamiyatni nazariyasi vakili J. Gelbreyt o'z vaqtida industrial tizim sharoitida o'qitilgan va o'rgatilgan kadrlar ishlab chiqarishning hal qiluvchi omilligi aylangan va u yuqori rivojlangan ta'lim tizimiga bog'liq<sup>88</sup> deb hisoblangan.

Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning ikkinchi modeli oliy ta'lim sohasida ijtimoiy bozorni shakllanishi bo'lib, uning nazariy asosini gumonlashgan xalqparvar kapitalizm tashkil etadi.

Uning asoschilari H.Shumpetr, J. Giddens va X.Mayer hisoblanadi. Bu model Kanada, G'arbiy Yevropaning Angliya, Ispaniya va Italiyada qo'llaniladi.

Oliy ta'lim tizimining bu modeli davlatning faol yordamiga va shaxsning ta'lim olishdagi, karyera qilishdagi javobgarligiga asoslanadi.

Bu oliy ta'lim tizimi modeli qisman bozor munosabatlariga asoslangan bo'lib, davlat tomonidan moliyalashtirish darajasini kamayib borishiga va xususiy moliyalashtirishni o'sib borishiga asoslanadi<sup>89</sup>.

Bu usulga asoslangan holda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishdagi moliyalashtirish manbalarini o'zgarishini Angliya oliy o'quv yurtlari misolida ko'rish mumkin.

Hozirgi davrda moliyalashtirishning 33 % davlat budjeti hisobiga bo'lsa, qolgan 67 % xususiy manbalar hisobiga (fuqarolardan oliy ta'lim olish uchun tushgan tushumlardan, xususiy firmalar o'z xodimlarini o'qitish uchun to'lagan to'lovlaridan tashkil topmoqda)<sup>90</sup> to'g'ri keladi.

---

<sup>87</sup> Болонский процесс-структурная реформирование высшего образования на европейском уровне- (электронный ресурс)-режим доступа: <http://Кри.ua/bolona>.

<sup>88</sup> Антошкина Л.И. Высшее образование в системе общественных интересов /монография/ Л.И.Антошкина – Донецк: ООО «Юго-восток», ЛТД 2008 г. С 54

<sup>89</sup> Задумкин К.А. Региональная инновационная система: теория и практика формирования/ К.А. Задумкин, И.А. Кандаков; под. рук., проф. В.А. Ильина- Вологда: Вологодский научно – координационный центр ЦЭМИ РАН, 2008 г. с 45.

<sup>90</sup> Ржепишвского В.В, Проблемы и перспективы функционирования высших учебных

Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning uchinchi modeli bozor iqtisodiyotiga, oliy ta'lim tizimida bozor munosabatlariga qarshi model bo'lib, uni nazariy jihatdan Yevropa (Bryussel) va Germaniya (Frankfurt) ta'lim xodimlari ilmiy tadqiqot kasaba markazi tomonidan ishlab chiqilgan.

Bu ta'lim modeli G'arbiy Yevropaning Germaniya, Norvegiya, Daniya, Fransiya, Shvetsiya, Fillandiya va boshqa mamlakatlarda qo'llanilmoqda. Ushbu ta'lim tizimi modeli oliy o'quv yurtlarini xususiy lashtirishga qarshidir. Shuning uchun ham Germaniyada ko'pchilik oliy o'quv yurtlari davlatniki bo'lib, o'qitish va stipendiya to'lash davlat tomonidan amalga oshiriladi. Talabalarning 30 % yordam puli oladilar. U federal budjetdan 33 % ni, yer budjetidan 44,6 % ni va jamoadan 22,4 foizni tashkil etadi.

Yevropa mamlakatlarida oliy ta'limni moliyalashtirish YaIMga nisbatan eng past ko'rsatkich Bolgariyada bo'lib 0,7 foizni tashkil etadi, Latviyada 1,0 foiz, Germaniyada 1,3 foiz, Buyuk Britaniyada 1,4 foiz, Avstriyada 1,8 foiz, Shvetsiyada 2,0 foiz, Finlyandiyada 2,3 foizni, Daniyada 2,4 foizni tashkil etgan. Yevropa ittifoqi mamlakatlarida oliy ta'limni moliyalashtirish YaIMga nisbatan o'rtacha 1,3 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich Norvegiyada 2,3foiz, Islandiyada 1,5 foizni tashkil etgan.<sup>91</sup>

Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish ikki xususiyatga markaziy boshqaruvga va oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlashni bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqqan holda ularni diversifikatsiyalashtirishga asoslanadi.

Markazlashtirilgan holda oliy o'quv yurtlarini boshqarishni amalga oshirilishining sababi oliy ta'limni har bir mamlakat milliy iqtisodiyotini raqobatbardoshligini jahon bozorida ta'minlashdir.

Shu bilan birga oliy ta'lim tizimini bozor munosabatlari sharoitida markazdan boshqarish zarurligi shundan iboratki, ularda oliy ta'limni davlat budjeti hisobidan moliyalashtirilganligi sababli bu mablag'lardan foydalanishni nazorat qilishni zarurligidir.

---

заведений в региональной инновационной системе/ В.В. Ржепишвского – [электронный ресурс] – режим доступа. [www/old.niss.govvua/monitor/mat2wa/r/htm](http://www.old.niss.govvua/monitor/mat2wa/r/htm).

<sup>91</sup> Статистика высшего образования в Европе. [www.Eurostat](http://www.Eurostat) (educuofine06) and (educfigdp)

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqib, moliyalashtirishni yangi manbalarini izlab topish, jumladan "Endaument" yoki "Kraudfanding" fondlarini qo'llash mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda uzoq muddatli dasturlarni moliyalashtirish uchun "Endaument" fondi foydalaniladi, ammo qisqa muddatli va kichik dasturlarni moliyalashtirish uchun "Kraudfanding" fondidan ham keng foydalaniladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida innovatsiyani rivojlantirish uchun budjetdan mablag'larni ajratishni ko'paytirish va budjetdan tashqari tashkil topgan mablag'larini zamonaviy laboratoriyalarni jihozlashga yo'naltirish zarur.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalarini ko'rsatishicha, oliy ta'limni moliyalashtirishning "Endaument" fondlarini qo'llash AQSHda yaxshi rivojlangan. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasida ham "Endaument" fondlari rivojlanmoqda.

AQSH universitetlarining faoliyatini moliyalashtirishda "Endaument" fondiga yo'naltirilgan investitsiyalardan olinadigan daromadlar borgan sari salmoqli o'rinni egallamoqda va ular hisobidan olingan daromad o'rtacha oliy o'quv yurtlari budjetlari daromadlarini 25-45 foizini tashkil etmoqda.

AQSHning yetakchi oliy o'quv yurtlarining endaumentlari, universitetlarning yillik daromadining 40-50 foizini jumladan, Prinston universitetida 47%ni, Yel universitetida 35%ni, Garvard universitetida 33%ni, Stenford universiteti budjetlarining 23%ni shakllantirish imkonini bermoqda.<sup>92</sup>

Rossiya Federatsiyasida eng yirik "Endaument" fondi MGIMODA bo'lib, ushbu fond 2007 – yil 29 – martda ro'yxatdan o'tgan va bu fondning umumiy mablag'i 800 mln. rublni tashkil etadi. 2007– yilda Rossiya Federatsiyasida endaument fondlarning soni 13 bo'lgan bo'lsa, 2014 – yilga kelib 130 tani tashkil etdi. Ushbu fondlarning 71% ta'lim tizimida, 15% sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohasida, 11% madaniyat va san'at sohasida va 3% sport sohasida faoliyat olib bormoqdalar.

Dunyo bo'yicha "Kraudfanding" fondi bozori 2014 – yilda 167%ga ortdi yoki jalb qilingan mablag'larning qiymati 16,2 mlrd.

---

<sup>92</sup> [www.mgimo.ru](http://www.mgimo.ru)

dollarni tashkil etgan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha 2015 – yilda jalb qilinadigan mablag'lar qiymati ikki barovarga o'sib 34,4 mlrd. dollarga yetishi mumkin<sup>93</sup>.

Kraudfanding - (ingl. Crowd - olomon va Funding - moliyalashtirish) bu mahsulotni sotish muhtojlarga yordam qilish, biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida, ko'pchilik shaxslar tomonidan moliyalashtirish maqsadida jalb qilingan mablag'lardir<sup>94</sup>.

Fikrimizcha, avvalambor davlat tomonidan ta'limni va biznesni birlashtirib bo'lmaydi, balki davlat boshqaruvi asosida ta'lim va biznes hamkorlik asosida olib borish ilmiy tadqiqotlardan olingan natijalarini nafaqat kichik biznes sohasiga joriy etish, balki yirik sanoat korxonalari, agrar soha subyektlari faoliyatiga joriy etish ham maqsadga muvofiqdir.

Jahon banki 2016 – yilda Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA) tomonidan «O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish» loyihasini amalga oshirish uchun 42,2 mln AQSH dollari miqdorida kredit ajratilishi belgilandi.<sup>95</sup>

Nazariy jihatdan olib qaraganda, inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiyalar kelajakda inson daromadlarining ortishiga sabab bo'ladi. Jahon banki tomonidan tadqiqot ma'lumotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zbekistonda oliy ma'lumotli xodimning ish haqi o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan ishchining maoshiga nisbatan 55%ga yuqori hisoblanadi, bu ko'rsatkich Albaniyada va Makedoniyada 62%ga, Polshada 71%ga, Vengriyada 82%ga, Turkiyada 98%ga yuqori ekan.

Bozor munosabatlari sharoitlarga asoslangan O'zbekiston respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mehnat va oliy ta'lim xizmatlari bozorining samarali olib borilishi oliy ta'lim xizmatlari subyektlari bo'lgan oliy o'quv yurtlari tomonidan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq. Chunki bozor munosabatlari sharoitida erkin raqobatga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida innovatsiya

<sup>93</sup> <http://www.finextra.com/news/fullstory.aspx?newsitemid=27188>.

<sup>94</sup> Guseva D.E., Malyhin N. Kraudfanding: sushhnost', preimushhestva i riski // zhurnal «Sovremenna nauka: aktual'nye problemy teorii i praktiki. Seriya «Jekonomika i pravo», - № 9-10, 2014. - <http://www.nauteh-journal.ru/index.php/ru/---ep14-09/1278-a>.

<sup>95</sup> [www.vsemirnyjbank.org/ru/news/press-release/2016/04/27/the-world-bank-supports-quality-improvement-for-labor-force-in-uzbekistan](http://www.vsemirnyjbank.org/ru/news/press-release/2016/04/27/the-world-bank-supports-quality-improvement-for-labor-force-in-uzbekistan)

yangiliklarini kiritish asosidagina mamlakatning jahon xo‘jaligi bozorida raqobatbardoshligini ta’minlash mumkin. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi erkin raqobatga asoslanishi va ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish subyektlarining qanday mulkchilik shakllariga asoslanishidan qat’i nazar, har bir mamlakatning jahon bozorida raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlash maqsadida intellektual jarayonni rivojlantirish ularning asosiy muammolariga aylanishi kerak. Bu esa, o‘z navbatida, bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining intellektual darajalarini oshirishni ta’minlash uchun bozor talablariga asoslangan holda oliy ma’lumotli malakali mutaxassislarni tayyorlashni talab etadi.

### **17.3. Ta’lim siyosatidagi yakuniy va taxminiy vazifalar**

Prezidentimizning “2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida “Jamiyat va davlat hayotining barcha sohaları shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi etakchilari qatoriga kirish yo‘lda tez va sifatli ilgariylashini ta’minlaydigan zamonaviy innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi” deb alohida ta’kidlangan.

Harakatlar strategiyasida mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlash, mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash tizimini kengaytirish vazifalari belgilangan.

Shu asosda respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar fonida O‘zbekiston iqtisodiyotida sezilarli yuksalish kuza-tildi, ko‘lam va sifat jihatdan jiddiy tarkibiy o‘zgarishlar yuz berdi.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga zamonaviy innovatsion texnologiyalar jadallik bilan kirib kelmoqda. Sanoatda, qishloq xo‘jaligida, transport va xizmat ko‘rsatish sohalarida yuqori qiymat, yuqori hosildorlik, unumdorlik va tejamkorlikni ta’minlovchi intensiv texnologiyalar, ishlab chiqarish sohasida juda keng ko‘lamdagi zamonaviy innovatsiyalar joriy etilmoqda. Mazkur jarayonlarga



milliardlab AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilinmoqda va minglab yangi texnologik ish o‘rinlari yaratilmoqda.

Birgina 2019 – yilning o‘zida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan jami 220,7 trillion so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi, shundan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 189,9 trillion so‘m ekanligi va bu 2018 – yilgi ko‘rsatkichlariga nisbatan 1,3 barobar o‘sganligi yaqin kelajakda mazkur loyihalar yuqori malakali professional kadrlarning yangi avlodi yetishib chiqishi zarurligini belgilab bermoqda.<sup>96</sup>

Shu bilan birga, xalqaro mehnat bozori talablari, integratsion jarayonlarning jadallashuvi, raqamlashtirish, sanoatdagi texnologik inqiloblar davrida zamon talablariga mos malaka va ko‘nikmalarga ega raqobatbardosh o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlashni, kasb-hunar ta‘lim sohasida yangi tizimni — xalqaro andozalarga mos professional ta‘lim tizimini talab qildi. Natijada kasb-hunar ta‘limi sohasida ham davlat siyosati tubdan o‘zgardi. Prezidentimiz tomonidan sohada tub islohotlarni amalga oshirish va zamonaviy professional ta‘lim tizimini barpo etishning maqsad va ustuvor vazifalari, bir so‘z bilan aytganda, sohaning yangi missiyasi belgilab berildi. Ushbu missiya mohiyati yangi sifat va formatda inson resurlarini rivojlantirish, yoshlarda ichki va tashqi mehnat bozori talab qilayotgan amaliy kvalifikatsiyalarni shakllantirish, ularning Vatanga muhabbatini, xalqiga sadoqatini yuksaltirishdan iboratdir.

Shu tariqa tizim oldiga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

— hududlar va sohalar kesimida iqtisodiy taraqqiyotga munosib hissa qo‘sha oladigan o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash;

— yoshlarni malakali mehnat orqali o‘z hayot farovonligini ta‘minlashga o‘rgatish;

— o‘z mehnat faoliyatiga innovatsion va kreativ yondashish, yaratuvchanlik, intellektual, madaniy, ma‘naviy potensialni rivojlantirish kabi kompetensiyalarni shakllantirish metodologiyasini yaratish.

Ana shu missiya va maqsadlarni ko‘zlab, Prezidentimizning 2019– yil 6 – sentyabrda “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon O‘zbekiston tarixida yangi professional

<sup>96</sup> Холмухамедов М. Янги профессионал таълим — янги миссия <https://review.uz/oz/post/yangi-professional-talim-yangi-missiya>

ta'lim tizimini tashkil etishga asos bo'lgan bo'lsa, 2020 – yil 24 – yanvarda davlatimiz rahbari o'z Murojaatnomasida "Joriy o'quv yilidan boshlab, mutlaqo yangi professional ta'lim tizimi yo'lga qo'yilib, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar tashkil etiladi" deb mazkur tizimning ahamiyatini yana bir bor alohida ta'kidladi.

Bunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari barobarida tadbirkorlik, kichik biznes, oilaviy biznes, tomorqa biznesi, qurilish, xizmat ko'rsatish, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik kabi tez sur'atlarda ravnaq topayotgan sohalar uchun ishchi kasblar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlanishi ko'zda tutildi.

O'z navbatida, yangi tizimning barcha huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. Jumladan, yaqinda "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi hukumat qarori e'lon qilindi.

Qaror bilan uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi nizom, Boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar maktablarining namunaviy ustavi, O'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning namunaviy ustavi hamda O'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan texnikumlarning namunaviy ustavi tasdiqlandi.

Ushbu hujjatlar asosida o'quv jarayoni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan ta'lim dasturlari asosida tashkil etiladigan 3 ta toifadagi ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Yangi professional ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni, soni va sifati, ta'lim dasturlari, texnologiyalarining isloh qilinishi oqibatida quyidagi tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi<sup>97</sup>:

Birinchiidan, 2020/2021-o'quv yilida professional ta'lim tizimida respublika bo'yicha jami **725** ta ta'lim muassasasi, ya'ni **339** ta kasb-hunar maktabi, **200** ta kollej va **186** ta texnikum faoliyat ko'rsatishi belgilandi.

---

<sup>97</sup> Холмухамедов М. Янги профессионал таълим — янги миссия <https://review.uz/oz/post/yangi-professional-talim-yangi-missiya>

**1-toifa** — kasb-hunar maktablarida ta'limning xalqaro standart tasniflagichining 3-darajasiga mos keluvchi 2 yillik ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilari boshlang'ich professional ta'lim oladi.

Kasb-hunar maktablarida ustuvor yo'nalish sifatida oilaviy biznes, tomorqa biznesi, qurilish, xizmat ko'rsatish, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik kabi iqtisodiyotimizda muhim o'rin egallagan 200 dan ortiq ishchi-kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlanadi.

**2-toifa** — kollejlarda ta'limning xalqaro standart tasniflagichining 4-darajasiga mos keluvchi, kasblarning murakkablik darajasidan kelib chiqib, 2 yilgacha bo'lgan muddatlar davomida o'qitishga mo'ljallangan ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim mutaxassisleri tayyorlanadi. Vazirliklar, idoralar va tashkilotlar tasarrufida faoliyat ko'rsatadigan va shu sohadagi aniq ish o'rni uchun mutaxassislar tayyorlaydigan ushbu kollejlarga maktablarning 11-sinf bitiruvchilari qabul qilinadi

**3-toifa** — texnikumlarda ta'limning xalqaro standart tasniflagichining 5-darajasiga mos keluvchi, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bilan integratsiyalashgan, kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida kamida 2 yil muddatga mo'ljallangan ta'lim dasturlari asosida 11-sinfni tugatgan yoshlar o'qitiladi.

Ikkinchidan, kadrlar malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida milliy malaka tizimi ishlab chiqildi. O'zbekistonda ilk bor Milliy kvalifikatsiya ramkasi, tarmoq kvalifikatsiya ramkalari, kasb va mutaxassisliklar bo'yicha professional standartlar hamda tabaqalashtirilgan ta'lim standartlari va dasturlari tasdiqlanib, joriy etilmoqda.

Uchinchidan, o'qitish muddatlari o'zgardi. Xususan, ilgari 3 yillik bir xil qolipdagi standartdan to'liq voz kechildi. Mutaxassisliklarning murakkablik darajasidan kelib chiqib, tabaqalashtirilgan o'qitish muddatlari joriy qilindi. Qo'shimcha ravishda professional ta'lim muassasalarini tugatgan yoshlarimizga kelgusida oliy ta'limda o'qishini davom ettirish va butun umr davomida o'z malakasini oshirib borish imkoniyati berildi.

To'rtinchidan, ta'lim dasturlari va shakllari o'zgardi. Endi ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'un-

lashgan va mehnat bozori talablari asosida moslashuvchan kadrlar tayyorlash yangi professional ta'lim dasturlari asosida joriy etiladi.

O'z navbatida, ishchi kasblar bilan o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash tizimi bir-biridan to'liq ajratildi va alohida o'quv reja hamda dasturlar asosida o'qitilishi belgilandi. Kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shaklida 2 yilgacha muddatda o'qitish tizimi joriy etiladi. Misol uchun, oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bilan integratsiyalashgan xalqaro "Associate degree" darajasida mutaxassislar tayyorlash bo'yicha kamida 2 yil muddatga mo'ljallangan ta'lim dasturlari amaliyotga joriy etiladi. Ta'lim dasturlari yakunlari bo'yicha bitiruvchilarga razryad ko'rsatilgan sertifikat, guvohnoma va diplom beriladi.

Beshinchidan, ta'lim texnologiyalari o'zgaradi. Bunda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, avvalo, Germaniya tajribasida yaxshi samara bergan "dual" ta'lim prinsiplari joriy qilinadi.

Professional ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlash maqsadida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo'llashga o'rgatadigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim dasturlari yaratildi va yangi o'quv yilidan tadbiiq etish boshlanadi.

Oltinchidan, 2020–2021-o'quv yilidan boshlab, kollejlarda va texnikumlar mehnat bozorining xususiyatlari, ish beruvchilarning texnologik jarayonlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonida foydalaniladigan fan (modul) va amaliyot dasturlarini ish beruvchilar bilan birga mustaqil ishlab chiqadi hamda amaliyotga joriy etadi. Bu degani, endi o'rta bo'g'in mutaxassislari oldindan aniq ish o'rniga ish beruvchi qo'ygan malaka talablari asosida tayyorlanadi va kelgusida o'sha ish o'rniga borib joylashadi.

Shuningdek, O'zbekistonda ilk marta joriy o'quv yilidan boshlab, professional ta'lim muassasalarida tadbirkorlikka yo'naltirilgan o'quv rejalari tajriba sinov-tariqasida joriy etiladi.

Yettinchidan, davlatimiz rahbarining "Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi", degan so'zlaridan kelib chiqib, Kasb-hunar ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash institutida innovatsion muhit, yangi makon yaratildi.

Tizimda ishlaydigan xodimlarni islohotlar ijrosiga shay holatga keltirish, bilim, ong va tafakkurni rivojlantirish maqsadida innovatsion yondashuv asosida o‘quv kurslari tashkil etilmoqda. Ushbu yangi muhitda ta’lim muassasalari direktorlari va o‘rinbosarlari orasidan strategiya, innovatsiya va sifrovizatsiya mohiyatini anglagan, islohotlar ijrosini ta’minlashga, ongini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan zaxira kadrlar, kuchli metodist o‘qituvchilar ma’lumotlar banki, portfoliolar banki yaratilmoqda.

Sakkizinchidan, ta’lim tizimini jahon andozalariga to‘liq moslashtirish, ishchi kasblarning nufuzi va jozibadorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston **”WorldSkills”** xalqaro harakatiga qo‘shildi va ushbu tashkilotga a‘zo bo‘ldi. Ayni paytda “WorldSkills” O‘zbekiston assotsiatsiyasi faoliyatini yanada rivojlantirish choralari ko‘rilmoqda. Bu tashkilot bilan hamkorlik yoshlarimizda zamonaviy kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish hamda xalqaro mehnat bozorida tengdoshlari bilan barobar raqobat qilishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimida kutilayotgan o‘zgarishlar<sup>98</sup>:

-2021–yilda maktabgacha ta’lim qamrovi 65 foizga, 2023 – yil oxirida esa 75 foizga yetkaziladi. 600 milliard so‘m subsidiya berilib, 2 mingta xususiy bog‘cha ochiladi; xususiy sektor ulushi 25 foizga yetadi.

-6 yoshli bolalarni maktabga majburiy tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi. 2021 – yilda 6 yoshli bolalarning 82 foizi (560 ming nafar) maktabga bepul tayyorlovga jalb etiladi.

-Uzoq qishloqlarda maktabgacha ta’limni uyda berish modeli yo‘lga qo‘yiladi. YUNESKO va Jahon banki bilan hamkorlikda.

Maktablarda kutilayotgan o‘zgarishlar:

-Bolaning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini o‘stirishga mo‘ljallangan yangi darsliklar tayyorlash boshlanadi.

-Boshlang‘ich sinflarda DTS o‘rniga bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan «Milliy o‘quv dasturi» joriy etiladi.

---

<sup>98</sup> <https://kun.uz/news/2020/12/29/talim-tizimi-2021-yilda-qanday-yangiliklar-kutilyapti>

-Boshqa tumandagi oliy maktabga borib, dars beradigan o'qituvchilar oyligiga 50 foiz, boshqa viloyatga borib ishlasa 100 foiz ustama to'lanadi.

-Hududlarda xususiy maktablar faoliyatini rag'batlantirish uchun budjetdan subsidiyalar ajratiladi.

-10 ta prezident maktabi; kimyo-biologiya, matematika va ATga ixtisoslashgan 197 ta maktab ochiladi.

Oliy ta'lim tizimida kutilayotgan o'zgarishlar<sup>99</sup>:

-OTMlarda davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshiriladi.

-Xotin-qizlar uchun grantlar soni 2 barobarga oshirilib, 2 mingtaga etkaziladi. A'lo o'qiyotgan ehtiyojmand qizlar uchun stipendiyalar ta'sis etiladi.

-Davlat kadrlar tayyorlash bo'yicha xususiy OTMlarga ham buyurtma bera boshlaydi.

-30 ta OTMga o'quv dasturlarini ishlab chiqish, qabul kvotasi va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqi beriladi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim<sup>100</sup>:

-2021 – yilda «El-yurt umidi» jamg'armasi orqali yetakchi xorijiy OTMlarga magistratura va doktoranturaga o'qishga yuboriladigan yoshlar soni 5 barobarga oshiriladi.

-2021 – yilda ilm-fan sohasida oliygohlar va ilmiy tashkilotlardagi doktorantlar soni 2017 – yilga nisbatan 3 barobarga oshiriladi (4,5 ming nafarga yetadi).

-Ilmiy unvonlar va darajalar berish vakolati oliygohlarning ilmiy kengashlariga o'tkaziladi.

-Fizika va chet tillari keyingi yilga ilm-fanning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi.

O'zbekistonda davlatning ta'lim sohasi xarajatlari yildan yilga ortib bormoqda, ammo bu mablag'lar oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv va ilmiy-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, zamonvaviy texnoparklarni tashkil etishga, malakali va yetuk mutaxassislarni tayyorlashda mablag'larni yetishmasligi mamlakat oliy o'quv yurtlarida moliyalashtirish mexanizmini takomillashuvi va oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini yuritishda qo'shimcha

---

<sup>99</sup> <https://kun.uz/news/2020/12/29/talim-tizimi-2021-yilda-qanday-yangiliklar-kutilyapti>

<sup>100</sup> <https://kun.uz/news/2020/12/29/talim-tizimi-2021-yilda-qanday-yangiliklar-kutilyapti>

daromadlarni topishning muqobil variantlarini izlash vazifasini dolzarbligini kuchaytirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida tashkil topgan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga asoslangan kadrlar tayyorlash tizimi asosida oliy o‘quv yurtlarida olib borilayotgan kadrlar tayyorlash oliy ta’lim tizimining asosiy yo‘nalishi sifatida milliy iqtisodiyotimizni xarakterga keltiruvchi asosiy kuch bo‘lishi bilan birga, respublikamizda innovatsion madaniyati rivojlanishi ta’minlovchi asosiy kuchdir.

Demak, hozirgi jahon bozori talablariga javob bera oladigan milliy oliy malakali mutaxassislarni tayyorlash respublikada ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishni va oliy malakali mutaxassislarni bozor talablariga javob bera oladigan darajada tayyorlash, oliy o‘quv yurtlari bilan ilmiy muassasalarni hamkorlikda faoliyat olib borishini talab etadi. O‘zbekistonda innovatsiya va ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston fanlar akademiyasi, ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy laboratoriyalari va oliy o‘quv yurtlari yo‘nalishlari bo‘yicha universitetlar ixtiyorida ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari tashkil etish va rivojlantirish zarur.

Davlat tomonidan ta’lim xizmatlari tizimini bozor iqtisodiyoti talablari asosida rivojlantirishga davlat tomonidan katta e’tibor berilmoqda. Ammo aytish mumkinki, hozirgi bozor munosabatlari sharoitida oliy ta’lim xizmatlari tizimi oliy ta’lim xizmatlari va mehnat bozorlari talablariga moliyaviy samaradorlik jihatdan, uning ta’lim xizmatlari tizimini sifati jihatdan va undan foydalanish, oliy ma’lumot olishga intiluvchilar talablarini qondiradigan darajada bo‘lishi kerak. Buning uchun:

- milliy ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish iqtisodiy mintaqalar xususiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirish zarur;

- bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida jahon xo‘jaligi bozori talablari asosida uni o‘z navbatida tartibga solib turish;

- oliy ta’lim tizimini ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqlikda olib borishning tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarini doimiy ravishda bozor munosabatlari talablari asosida takomillashtirib borish zarur.

Oliy ma’lumotga ega malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabni aniqlashda respublikaning iqtisodiy mintaqalari talablariga asoslangan holda belgilash, milliy iqtisodiyotimizning bozor munosabatlariga

mos, maqsadli, tejamkor, takomillashtirish o‘zaro manfaatli iqtisodiy mexanizmni vujudga keltirgan bo‘lar edi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi oliy ta‘lim muassasalari va kollejlarga kiruvchilar sonini rejalashtirish va ular o‘qishni bitirgandan keyin qayerga ishga joylashtirish emas, balki O‘zbekiston hududida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonidagi davlat ta‘lim standartlarining bajarilayotganligini nazoratini kuchaytirishdek vazirlikka mos muhim vazifalarni bajarib, har besh yilda bir marotaba ta‘lim muassasalarini litsenziyadan o‘tkazib turishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Mamlakatimizda oliy ta‘lim xizmatlarini moliyalashtirish samaradorligini oshirish va takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqib oliy ta‘lim tizimini moliyalashtirishda “Endaument” yoki “Kraudfanding” fondlarini qo‘llash uchun huquqiy asoslarni ishlab chiqish va amaliyotga bosqichma bosqich joriy qilish;

- mamlakatimizda oliy va o‘rta maxsus ta‘lim sohasida tayyorlanadigan mutaxassislar mutanosibligini 2025 – yilga borib 1/13-18 ga yetkazish maqsadga muvofiq;

- oliy ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatuvchilar o‘rtasida raqobatni kuchaytirib, oliy ta‘lim xizmatlarini yangi modellarini joriy qilish;

- oliy ta‘lim uchun ajratilayotgan budjet xarajatlari miqdorini YaIMga nisbutan 2-4% ga yetkazishdan iborat.

#### **17.4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda boshlang‘ich va o‘rta ta‘lim iqtisodiyoti**

##### **Rossiya Federatsiyasi maktabgacha ta‘lim tizimi**

Ta‘lim doirasidagi davlat siyosati mamlakat konstitutsiyasi va ta‘lim to‘g‘risidagi qonunida o‘z aksini topgan gumanizm va demokratiya g‘oyalari asosida qurilgan. Bu hujjatlarda ta‘lim insonni davlat, jamiyat va shaxsning o‘z manfaatiga maqsadli yo‘naltirilgan o‘qitish va tarbiyalash jarayoni ekanligi to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Rossiya ta‘limining tarkibini o‘quv dasturlari va turli pog‘onali davlat standartlari hamda yo‘nalishlari, shuningdek, boshqaruvchi tashkilotlar



– ta’lim tizimidan tashqari va ta’lim tizimiga bo‘ysunuvchi muassasalar tashkil etadi. Maktabgacha ta’lim Rossiya Federatsiyasi o‘qitish tizimining birinchi pog‘onasidir. Eng kichik yoshdagi bolalar uchun ham ta’lim olish imkoniyatini berish g‘oyasi 1918 – yilda “Yagona mehnat maktabi to‘g‘risidagi Nizom” vujudga kelgandan so‘ng paydo bo‘lgan. Nizom qabul qilingan kundan boshlab har bir bola tug‘ilganidan boshlab o‘qish huquqiga ega bo‘lishi mumkinligi kafolatlangan.<sup>101</sup>

Bugungi kun ta’lim standartlari “Bolalar huquqlari xalqaro Konvensiya”sida ifodalanib, unda quyidagilar ta’kidlanadi:

– bolalar ta’lim olish maskanlariga qatnash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak;

– kattalar bolalarga o‘qish faoliyati uchun sharoit yaratib berishlari lozim;

– ta’lim o‘z ichiga kichik odamni jamiyat doirasida o‘z hayotini tushunib yetishga tayyorlash uchun barcha kerakli sharoitlarni qamrab olgan bo‘lishi zarur;

– o‘quv jarayoni qatnashchilarining o‘zaro harakatlari bolani hurmat qilishni ifodalashga asoslangan bo‘lishi kerak.

Rossiyadagi maktabgacha ta’lim tizimi doimo o‘zgaruvchan holatda bo‘lib, u muntazam ravishda yangilanadi, ko‘rinishini o‘zgartiradi va mukammallashib boradi. Bola uchun ilk ustozlar uning ota-onasi hisoblanadi. Ular bolalarni go‘dakligidan jismonan, intellektual va axloq masalalarida tarbiyalashlari lozim. Maktabgacha tarbiya tashkilotlari (MTT) faoliyati oilalarga bilim olish va tarbiyaning keyingi bosqichida yordam berishga qaratilgan. Ayrim mutaxassislar bolalar bog‘chalariga hojat yo‘q, maktabgacha tarbiya esa to‘liq otaonalar zimmasiga yuklatilsin va ularning o‘zlari bolani 1-sinfga qayerda va qanday qilib tayyorlash yo‘lni hal qilsinlar, deb ta’kidlaydilar. Lekin statistik ma’lumotlarga ko‘ra, MTTlar xizmatidan aksariyat ota-onalar foydalanadilar. Shuning uchun ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi kelajakda Rossiya maktabgacha tarbiya modernizatsiyasini birinchi darajali masalalaridan biri deb

---

<sup>101</sup> Абидов Б.К. Мактабгача таълим (хорижий мамлакатлар таърибаси). Замонавий таълим / Современное образование 2017, 11-сон. maktabgacha-talim-horizhiy-mamlakatlar-tazhibasi.pdf

belgilaydi<sup>102</sup>. Namunaviy nizomlarga binoan, bolalar ta'lim muassasalari besh turga bo'linadi:

– rivojlanishning bir-ikki yo'nalishini amalga oshirishni muhim deb bilgan bolalar bog'chalari;

– psixikasi normadan og'ib ketgan bolalarni malakali korreksiyalashga qaratilgan kompensatsiyalovchi turdagi bog'chalar;

– tarbiyachi nazorati ostida bolalar bilan sog'lomlashtirish mashqlari o'tkazib boriladigan bolalar bog'chalari;

– o'z hududida umumiy rivojlanish, sog'lomlashtirish va kompensatsiyalovchi guruhlar turli variantlarda jamlangan bolalar bog'chalari;

– bolalarni erta rivojlantirish markazlari;

– kichkintoylar sog'lomlashishi, yangi bilimlar va qobiliyatlarni egallashi, ruhiy madad olishi mumkin bo'lgan bolalar bog'chalari.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tizimi ko'p funktsionallik, rang-barang rejalashtirish, ustuvor rivojlantirish yo'nalishi va turli dasturlashni aniqlash erkinligi bilan ifodalanadi. Rossiyaning maktabgacha ta'lim tizimi «O'quv jarayoni modernizatsiyasi Konsepsiyasi»ga asoslangan. Bu konsepsiyada ta'limning sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashga muhim ahamiyat berilgan. Bu hujjat ta'lim to'g'risidagi qonunga, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga, MTT to'g'risidagi Namunaviy nizomlarga va Ta'lim vazirligining boshqa qarorlariga asoslangan. Bu konsepsiyada alohida tashkilotlarning foydali tajribasi asosida o'qitish mazmunini yangilash kerakligi haqida so'z yuritiladi.

Nazariy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabgacha ta'lim mazmunini to'ldirishga stereotip yondashishlarni o'zgartirish kerak, ta'lim berish jarayoni esa quyidagi tamoyillar ketma-ketligi asosida ko'rilishi lozim<sup>103</sup>:

– o'qitishning rivojlantiruvchi xarakteri asosida o'qitishni olib borish bolalarning yashirin va salohiyatli xislatlarini namoyon qiladi;

---

<sup>102</sup> Абидов Б.К. Мактабгача таълим (хорижий мамлакатлар тажрибаси). Замонавий таълим / Современное образование 2017, 11-сон. maktabgacha-talim-horizhiy-mamlakatlar-tazhribasi.pdf

<sup>103</sup> Абидов Б.К. Мактабгача таълим (хорижий мамлакатлар тажрибаси). Замонавий таълим / Современное образование 2017, 11-сон. maktabgacha-talim-horizhiy-mamlakatlar-tazhribasi.pdf

– tizimli ta’lim bolalarga hodisalar, o’rganilayotgan obyektlar va hayotiy qadriyatlarining o’zaro bog’liqligini aniqlashga yordam beradi;

– bolaning rivojlanishi uning his-tuyg’ulari va yoshiga mos bilim olishning ratsional shakllariga tayanadi;

– ko’p madaniyatli tarbiyaning mazmunan kichkintoylarni madaniyat va o’zining mahalliy hamda boshqa millat va elatlarning urf-odatlarining o’ziga xosligiga yaqinlashtirish, boshqalar fikriga chidamliroq bo’lish, o’zining noroziligi, g’azablanishi va xafaligini me’yorlangan holda ifodalashdan iborat;

– salomatligining sog’lom turmush tarzi, gigiyena qoidalariga amal qilish va sport bilan shug’ullanish ehtiyojiga asoslanadi.

Rossiya federatsiyasida o’rta va o’rta maxsus ta’lim tizimi mavjud bo’lib, bunda o’qish muddati 2-3 yil qilib belgilangan. O’qishni bitirishdan oldin barcha o’quvchilar yagona davlat imtihoni (EGE) topshirib ball to’plashadi, ushbu to’plagan ball natijasiga muvofiq oliy ta’lim muassasalariga o’qishga topshirishlari mumkin bo’ladi.

Oliy ta’lim tizimi Rossiya federatsiyasida 4-5 yil davom etadi, 4 yil o’qiganlar bakalavr darajasi beriladi, shundan so’ng 2 yil magistraturada o’qishlari mumkin. 5 yillik ta’lim tizimida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari oliy ma’lumot to’g’risida diplom beriladi.

### **Singapur ta’lim tizimi**

Singapurda umumiy ta’lim tizimi haqida to’xtalganda qo’yidagilarga e’tibor qaratish lozim. Singapur umumiy ta’lim tizimi uch bosqichdan iborat. Mamlakat ma’muriy jihatdan 4 ta ta’lim hududiga bo’lingan bo’lib, har bir hudud 7 ta maktab klasteridan iborat. Har bir klaster o’rtacha 12-14 boshlang’ich va o’rta maktabni o’z ichiga oladi. PIRLS tadqiqotida (Ifodali o’qish yutuqlarini o’rganuvchi xalqaro tadqiqot tashkiloti) Singapur aholisining savodxonligi dunyodagi eng yuqori ko’rsatkichlardan biri hisoblanadi. Singapur maktablarining o’quvchilari 1995 – yildan buyon matematika va tabiiy fanlar TIMSS (matematika va tabiiy fanlar bo’yicha tendensiyalar) bo’yicha xalqaro bilimlar imtihonlarida dunyodagi eng yaxshi natijalarni ko’rsatmoqda. Shu o’rinda, Singapur ta’lim tizimining taraqqiy etishida, davlat tomonidan mustaqillikka erishgan paytdan boshlab olib borilgan islohotlarni o’rni beqiyosligini ta’kidlab o’tish lozim.

Jumladan, 1961 – yildan 1991 – yilgacha Singapur hukumati maktab tizimining mustaqilligi va moslashuvchanligini oshirishga, shuningdek, ta’lim siyosatini mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasini oshirishga yo’naltirish, yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo’naltirilgan qator islohotlarni amalga oshirdi. Islohotlarning yana bir maqsadi, ta’lim jarayonining mohiyati nafaqat bolalar miyasini turli xil fan bilimlari bilan to’ldirish bo’lmay balki yoshlarni hayotiy ko’nikmalar- mas’uliyat, o’zaro yordam hissi, ishga muhabbat, qiziquvchanlik, jasorat va moslashuvchanlikni shakllantirish edi.<sup>104</sup>

Singapurda o’quvchilarni maktabga qabul qilish 6 yoshdan boshlanadi. Boshlang’ich maktabda o’quvchilar matematika, ingliz tili, etika, musiqa va jismoniy tarbiya kabi fanlardan asosiy bilimlarni oladi. 6-sinf oxirida ular o’rta maktabda o’qishni davom ettirishga ruxsat beruvchi PSLE yakuniy imtihonini topshiradilar. Ma’lumot o’rnida aytish kerakki, PSLE imtihonlari milliy imtihondir. Imtihon ingliz, ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo’yicha o’quvchilarning bilim darajasini tekshirishga qaratilgan.

O’rta umumiy ta’lim 4 yil davom etadi. Ushbu bosqichda talabalar texnik sohani, buxgalteriya hisobi, shuningdek davlat va xorijiy tillarini o’rganishga ixtisoslashgan yo’nalishlardan birini tanlashlari mumkin. Bu bosqichdan so’ng umumta’lim maktablari bitiruvchilari texnikumlarga (3 yillik) yoki texnik institutlarga (2 yil) o’qishga qabul qilinadi. Talabalar ushbu o’quv dargohlarida quyidagi sohalarda mutaxassisliklarni olishlari mumkin: muhandislik, aloqa, raqamli texnologiyalar, biotexnologiya va buxgalteriya hisobi. O’qishni tugatgan bitiruvchilarga ishga joylashish imkonini beradigan diplom beriladi. Shuningdek, bu bosqichdan so’ng bitiruvchilar Oliy ta’lim muassalarida ham o’qishlarini davom ettirishlari mumkin.

Singapur ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) muhim rol o’ynaydi. Bu talabalar o’rtasida innovatsion g’oyalarni rivojlantirishga va ular o’rtasida hamkorlikni kuchaytirishga

---

<sup>104</sup> Хўжаев А. Сингапур таълим тизими: жа=он брендига айланган // <http://isrs.uz/uz/maqolalar/singapur-talim-tizimi-zaon-maorifida-etakci-brendga-ajlangan>

yordam beradi. Singapur maktablarini kompyuter bilan jihozlash darajasi oʻrtacha 5 ta oʻquvchiga bitta kompyuterdan iborat. Shu bilan birga maktablarning 95% internet tarmogʻiga ulangan. Bu oʻqituvchilar va talabalar orasida tajribalar almashish imkoniyatini beradi.

Singapurda boshlangʻich maktab majburiy va pullik hisoblanib, taʼlim xarajati oyiga 9,4 AQSH dollar va yiliga bir marta toʻlanadigan 79,4 AQSH dollarni tashkil qiladi. Oʻrta taʼlim uchun ota-onalar har oyda 14,4 dollar va har yil uchun bir marta 115,5 dollar toʻlaydi. Universitetgacha boʻlgan davr taʼlimi uchun xarajat oyiga 19,5 dollarni va yiliga bir marta toʻlanadigan 158,8 dollarni tashkil etadi. Shu oʻrinda umumtaʼlim maktablarini moliyalashtirish masalasiga ham toʻxtalib oʻtsak, Singapurda davlat tomonidan ajratiladigan barcha mablagʻlar, shuningdek, oʻquv toʻlovlari maktab fondiga tushadi. Klaster rahbarlari muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari orqali kelib tushgan mablagʻlarni va barcha xarajatlarni nashr etadilar. Maktablarda oʻquvchilarning ota-onalari bilan faol hamkorlik yoʻlga qoʻyilgan. “Ota-ona va maktab hamkorligi” deb nomlangan maxsus dastur doirasida quyidagi ishlar amalga oshiriladi: a) oʻquvchilar uchun qulay sharoit yaratishda ota-onalarga yordam; b) maktab va ota-onalar oʻrtasida samarali maʼlumot almashish; v) turli xil tadbirlarni hamkorlikda tashkil etish, masalan, maktab nashrlari, ota-onalar ishtirokidagi konferensiyalar (“maktab-oʻquvchi-ota-ona” zanjiri); g) muntazam ravishda ota-onalarga oʻquvchilarning fanlarni oʻzlashtirganligi toʻgʻrisidagi axborotni, hisobotlarni taqdim etish. Bu esa oʻz navbatida oʻquvchini nazorat qilish imkonini beradi va uning oʻqishini yaxshilash uchun taʼsir oʻtkazadi (“qayta aloqa” tizimi); d) maktab qarorlarini qabul qilish jarayonida ota-onalarni jalb qilish. Singapur taʼlim tizimining asosiy afzalligi - oʻqituvchilar tarkibini tanlashdir. Mamlakatda oʻqituvchilar malakasini oshirish sohasida Milliy taʼlim instituti (MTI) faoliyat yuritmoqda. Ushbu institutda oʻqituvchilarni uchta yoʻnalish boʻyicha qayta tayyorlash kurslari mavjud: 1) professional oʻqituvchilik; 2) taʼlim vazirligida faoliyat yurituvchi mutaxassis; 3) maktab maʼmuriyati boshligʻi. Bundan tashqari, institut dunyodagi eng yaxshi pedagogik amaliyotlarni tahlil qilish boʻyicha faol tadqiqot ishlarini olib boradi. Taʼkidlash joizki, ushbu institut mamlakatdagi malakali pedagogik kadrlar tayyorlash boʻyicha yagona institutdir. Taʼlim vazirligi oʻrta

maktab bitiruvchilari orasidan eng iqtidorlarini o‘qituvchilik kasbi uchun tanlab oladi. Ular o‘qituvchi ish haqining 60 foiziga teng bo‘lgan stipendiya olishadi va kamida uch yil davomida pedagogik bilim beriladi. Bundan tashqari, Singapurning maktablarida tajribali o‘qituvchilar yangi kelgan o‘qituvchilarni “shogirdlikka”ga olish, murabbiylik tizimi tashkil etilgan. Shuni ta’kidlash joizki, Singapurda o‘qituvchilar davlat xizmatchilari hisoblanadi. Ta’lim vazirligi budjeti Mudofaa vazirligidan keyin ikkinchi o‘rinda (YaIMning 5%) turadi. Har yili ta’lim sohasiga taxminan 12,9 milliard dollar sarflanadi. Bu davlat umumiy budjetining (68,6 milliard dollar) 18,7% ini tashkil qiladi. Mamlakatda aholining savodxonlik darajasi 96% ni tashkil qiladi. Singapurdagi o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash tizimi ularga o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Jumladan, barcha o‘qituvchilarning 35 foizi har yili rahbar lavozimiga saylanadi. O‘qituvchilar orasidan yetakchilik qobiliyatiga ega bo‘lganlari har yili yangi rahbarlik lavozimi uchun qayta tayyorlov kurslarida o‘qish uchun jo‘natiladi. Maktab direktorlari lavozimiga tasdiqlanganidan so‘ng, ular Direktorlar Akademiyasida ikki yillik o‘quv dasturini yakunlashadi. Dastlabki o‘quv yilida yetakchilik fazilatlarini shakllantirish, ikkinchi yili, maktablarni boshqarishni o‘rganish uchun amaliyot o‘tashni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, bo‘lajak rahbarlar xorijiy davlatlarga 6 haftaga yuboriladi. Xorijga safar qilish bilan bog‘liq barcha xarajatlilar to‘liq davlat tomonidan qoplanadi. 2008 – yilda Akademiya (Maktab direktorlari akademiyasi) Singapur ta’lim vazirligi bilan birgalikda ta’lim muassasasining yangi tayinlangan rahbarlar uchun “murabbiylik” dasturini ishlab chiqdi.

### **Janubiy Koreya Respublikasi ta’lim tizimi**

Janubiy Koreya Respublikasi ko‘plab tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial sivilizatsiya yutuqlarini egallagan. Osiyo-Tinch okeani mintaqasining noyob davlatlaridan biridir. Koreyaliklar bajarilishi shart bo‘lgan asosiy vazifa - o‘z an’anaviy madaniyatini saqlash, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o‘z madaniy-siyosiy identivlik, Sharqning an’anaviy qadriyatlari va oriyentirlari bilan bog‘lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta’lim tizimi YUNISEF ekspertlari

xulosasiga ko‘ra, sanoati rivojlangan davlatlar ichida “eng samaralisi” deb tan olingan.<sup>105</sup>

**Maktabgacha ta’lim.** Janubiy Koreyada bolalar bog‘chasi umumta’lim turiga kirmaydi. Ota-onalar farzandlarini xususiy maktabgacha muassasalarga beradilar. Bu muassasalarda mashg‘ulotlar koreys tilida, ingliz tilida, ba’zilarida faqat ingliz tilida olib boriladi. Bolalar bog‘chasiga 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Bolalar bog‘chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bog‘chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o‘tiladi. Koreys bog‘chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e’tibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yilgacha bo‘lishi mumkin.

**Boshlang‘ich ta’lim.** Janubiy Koreyada bolalar (6 yoshdan oshgan) 7 yoshdan 13 yoshgacha boshlang‘ich maktabga boradilar. O‘qish muddati 6 yil, majburiy va bepul. Boshlang‘ich maktabda quyidagi 9 ta fanlar o‘qitiladi: Koreys tili, matematika, aniq fanlar, jamiyat haqidagi fanlar, chet tili, tasviriy san’at, musiqa. Odatda bu fanlar sinf rahbari tomonidan o‘qitiladi, faqatgina ba’zi fanlar uchun maxsus o‘qituvchilar tayinlanadi. Boshlang‘ich ta’limdan o‘rta ta’limga, undan yuqori ta’limga imtihonlar topshirish orqali emas, balki faqatgina yoshiga qarab o‘tiladi. XX asrning 80 – yillariga qadar ingliz tili o‘rta maktablarda o‘qitilgan, hozirda esa boshlang‘ich maktabning 3-sinfidan o‘qitilyapti. Koreys va ingliz tili grammatikasi farqi katta bo‘lganligi uchun ingliz tilini o‘rganish juda qiyin. Shu bois, ota-onalar o‘z farzandlarini xususiy o‘quv muassasalariga qo‘shimcha o‘qishga jo‘natadilar. Xususiy o‘quv muassasalari, ya’ni “xagvonlar” bolalarga til o‘rganishda individual yondashadilar. Shu maqsadda ingliz tilida gaplashuvchi chet elliklarni boshlang‘ich maktabga jalb qilish yo‘lga qo‘yilgan.

Janubiy Koreyada maktab tizimi: o‘rta va yuqori maktablar. Koreys tilida o‘rta maktab “chunxakyo” deb nomlanadi va “o‘rta maktab” ma’nosini beradi. O‘rta maktabda ta’lim majburiy, bepul va 3 yil o‘qitiladi. O‘rta maktabga 11 yoshdan oshgan, 12 yoshdagilar qabul qilinadi. Boshlang‘ich maktabga nisbatan o‘rta maktabda o‘quvchilarga ancha yuqori talablar qo‘yiladi. Sinf rahbarlari-xangllar

---

<sup>105</sup> Муталипова М., М.Имомов М. “Таълимда илғор хорижий тажрибалар”  
<https://tmetod.uz/wp-content/uploads/umk/2.2.-Talimda-ilgor-xorijiy-tajribalar.pdf>

o‘quvchilar hayotida muhim o‘ringa ega, o‘quvchilar ularni qattiq hurmat qilishadi. O‘rta maktabda bir kunda 6 ta fan o‘qitiladi, shuningdek, alohida maxsus 7-dars ham bor. O‘quv dasturining negizini quyidagi fanlar tashkil etadi: matematika, koreys va ingliz tili, qator aniq fanlar, “qo‘shimcha” fanlar: san‘at sohalari bo‘yicha, jismoniy tarbiya, tarix, xancha (xitoy peroglifi), etika, uy iqtisodini yuritish, kompyuter savodxonligi. Mashg‘ulotlar 45 daqiqa davom etadi. Boshlang‘ich sinfdagi 9 ta fanga, o‘rta maktabda yana 4 ta fan qo‘shilib, jami 13 ta fan o‘qitiladi. Maktabda chet tillariga e‘tibor kuchli. Ko‘pchilik ingliz tilida bemalol gaplasha oladi.

Yuqori maktab koreyschasiga “кодынхаккыо” deb nomlanadi. Koreyalik bolalar yuqori maktabga o‘rta maktabdan keyin 17 yoshdan 1-kursga qabul qilinadi va 19 yoshgacha tahsil oladi. Yuqori maktablar bir necha turlarga ajratiladi: - Davlat yuqori maktablari: Koreya Ta‘lim va texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi; Umumiy yuqori maktablar: har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi; Xususiy yuqori maktablar. Shuningdek, yuqori maktablar o‘qitish fanlariga ko‘ra ham bir qancha turlarga bo‘linadi: Ixtisoslashtirilgan maktablar (qishloq xo‘jaligi, sanoat, dengiz xo‘jaligi, axborot); Umumiy maktablar; Maxsus maktablar (litsey shaklidagi maktab); Texnika maktablari; Chet tili maktablari; Jismoniy tarbiya maktablari; San‘at maktablari va h. Janubiy Koreya Respublikasida ta‘lim vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq xo‘jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo‘ladi. Yuqori maktab o‘rta maktab kabi majburiy emas. Biroq keyingi yillarning barchasida statistik ma‘lumotlarga qaraganda 97-98 % koreys yoshlari yuqori maktabni tamomlaganlar.<sup>106</sup>

“Ilmiy” yuqori maktablar, chet tillar va san‘atshunoslik maktablariga kirish ancha murakkab imtihonlarni topshirishni talab etadi. Yuqori maktablar xususiy va davlat tasarrufida bo‘lishi mumkin, bu maktablarda mutaxassislik berilmaydi, balki ularni keyingi ta‘lim bosqichiga tayyorlaydi. Kollejda tahsil olishni istamagan o‘quvchilar kasbiy bilim yurtlariga kirib o‘qishlari mumkin. Bu bilim yurtlari texnologiya, agrokultura yoki moliya yo‘nalishlariga ixtisoslashgan.

---

<sup>106</sup> Муталипова М., М.Имомов М. “Таълимда илғор хорижий тажрибалар”  
<https://tmetod.uz/wp-content/uploads/umk/2.2.-Talimda-ilgor-xorijiy-tajribalar.pdf>



Yuqori maktablarning jadvali haqida gapiriladigan bo'lsa, har bir o'quvchi uchun kun yarmida qaytib kelish odatdagi holatga aylangan. Janubiy Koreyada hunar maktablari 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45% bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23% da texnik kasb egalari yetishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo'jalik ixtisosliklari o'zlashtiriladi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar otaliq qiladilar. Janubiy Koreya "Ta'lim haqidagi qonun" talablaridan biri ham shudir. Bizning Respublikamizdagi kabi Janubiy Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor juda kuchli. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan. Rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun maxsus maktablar mavjud. Bu maktablarning aksariyati xususiy yoki diniy tashkilotlarning xayriya mablag'lari hisobiga qurilgan.

Maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor beriladi. Koreyadagi barcha talabalarning 6.5% bo'lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta o'qituvchilar tayyorlaydigan kollejlari mavjud har bir provinsiya (viloyat) o'z kollejiga ega. Yuqori maktab bitiruvchilari "susen" deb nomlanuvchi standart test topshiradilar. Maktab o'quv dasturlari kirish testlari-imtixonlari mazmunini qamrab olgan. Susen 3 ta asosiy seksiya fanlardan iborat: koreys tili, matematika va ingliz tili. Undan tashqari tabiiy va ijtimoiy fanlardan tanlov asosida qator fanlar kiritiladi. Bunday test 1 yilda 1 marta topshiriladi, u intensiv tayyorgarlikni talab etadi. Bu testga bo'lajak OO'YU talabalari bog'cha yoshidan tayyorlanishni boshlashadi. Testni topshirolmagan va kollejga kirish 1 yilga surilgan o'quvchilarni "chesusenlar" deb atashadi.

**Janubiy Koreyada kasb-hunar ta'limi<sup>107</sup>.** Janubiy Koreyada oliy ma'lumotga ega bo'lish har bir koreys fuqarosining keyingi mavqeyi muvaffaqiyati uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bu martabali ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga bo'lgan ehtiyoj ham katta. Janubiy Koreyada e'tibor ko'proq matematika, koreys tili va ingliz tillariga, aniq fanlarga va jamiyat bilan bog'liq fanlarga qaratiladi. Janubiy Koreyada quyidagi ta'lim muassasalari turlari mavjud:

---

<sup>107</sup> Муталипова М., М.Имомов М. "Таълимда илғор хорижий тажрибалар"  
<https://tmetod.uz/wp-content/uploads/umk/2.2.-Talimda-ilgor-xorijiy-tajribalar.pdf>

- Kollej va universitetlar (xususiy va milliy, davlat tasarrufida);
- Industrial universitetlar;
- Pedagogika institutlari;
- Sirtqi universitetlar;
- Ochiq universitetlar.

Janubiy Koreya ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida bo'lganidek, oliy ta'lim sohasida ham chuqur islohotlar olib borilgan. Mamlakatda ta'limni isloh qilish va rivojlantirishga oid qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlarni oliy ta'limni raqobatga tayyorlash, universitet ta'limini rivojlantirishda tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, bitiruv maktab ta'limi va amaliy mutaxassisliklarni kuchaytirish, universitetlarning mahalliy sanoat bilan aloqadorligini yaxshilash, sanoat talablariga javob beradigan kasbiy ta'limni rivojlantirish, maktab bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ijtimoiy kam ta'minlangan oilalar va ishchilar uchun kasbiy ta'limni kuchaytirish, oliy ta'lim uchun o'smirlar imkoniyatlarini yaxshilash, axborot asrida ta'lim boshqaruvi va uni moliyalashtirish xalqaro ta'lim almashinuvini mustahkamlash kabi dolzarb masalalarga katta e'tibor qaratildi.

### **Belgiya ta'lim tizimi**

Belgiyada maktabgacha ta'lim (MT) 2,5 yoshdan boshlanadi. Ushbu belgilangan yoshga yetganda bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga berishadi, shu sababli guruhdagi bolalar soni yil davomida o'zgarib boradi. Maktabgacha ta'lim guruhlarining asosiy maqsadi: bolalarning bilish, bilim orttirish (kognitiv), kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Mashg'ulotlar o'yin shaklida olib boriladi. Maktabgacha ta'lim majburiy ta'lim dasturiga kiritilmagan bo'lsada, Belgiyada taxminan 90%gacha bo'lgan bolalar unga qatnashadi. Ko'p hollarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshlang'ich maktablarga uyg'unlashgan bo'ladi. Bolalar 6 yoshga yetganda boshlang'ich maktabning birinchi sinfiga o'qishga kiradi.

Maktab ta'limi davri 2 ta–boshlang'ich va o'rta maktab bosqichiga bo'linadi. Boshlang'ich maktab, o'z navbatida, 3 ta va 2 ta sinfli bosqichdan iborat. Bu davrda bolalar arifmetika, o'qish, yozish, musiqa, tarix va ba'zi boshqa fanlardan ta'lim olishadi. Darslar 8.30 da

boshlanib, 15.30 gacha davom etadi. Soat 12.00 dan 13.00 gacha tushlik uchun tanaffus beriladi. Chorshanba kuni tushlikdan so'ng, shanba va yakshanba kunlari dam olish kunlari hisoblanadi. Bryusseldagi flamand maktab dasturiga birinchi yoki ikkinchi sinfdan boshlab, fransuz tilini o'qitish kiritilgan. Qolgan flamand maktablarining ko'p qismida bu fan boshlang'ich maktabning 3-bosqichida o'rgatiladi. Mamlakatning fransuz tilida so'zlashuvchi qismida o'quvchining xohishiga ko'ra, ingliz yoki niderland tillari ham o'rgatiladi. German tilida so'zlashuvchi qismida fransuz tili majburiy tarzda o'qitiladi. Shuningdek, Belgiyada, belgilangan ijtimoiy guruh (dengizchi va diplomatlar bolalari)ga yo'naltirilgan qator xususiy maktablar ham faoliyat ko'rsatadi. O'quvchilar boshlang'ich maktabni tugatib, xuddi shunday 3 ta 2 yillik bosqichdan iborat o'rta maktabga o'tadilar. Bu bosqichda o'quvchilar fanlarni ma'lum guruhlar orasidan tanlashlari shart bo'ladi va bu tanlov ma'lum darajada ularning dars jadvalini aniqlab berishga asos bo'ladi. Dars jadvalidan bu tanlangan fanlardan tashqari hamma uchun majburiy fanlar ham joy olgan. Masalan, davlat tili va jismoniy tarbiya fanlari va hokazo.

Belgiya hududida 4 tipdagi o'rta maktablar faoliyat yuritadi:

Umumiy ta'lim beruvchi o'rta maktab (Algemeen Secundair Onderwijs, (ASO)). Mazkur tipdagi muassasalar o'quv dasturida maktab bitiruvchisi 6 yil to'liq ta'lim olib, o'qishni oliy o'quv yurtida davom ettirishi ko'zda tutilgan. Mehnat bozorida ASOni tugatganlik to'g'risidagi diplomli shaxslarga ehtiyoj mavjud emas, chunki mazkur tipdagi muassasalarda ta'lim ko'p hajmli nazariy bilimlar beruvchi fanlarga qaratilgan bo'lib, amaliy va kasbiy tayyorgarlik ko'zda tutilmagan.

Texnik o'rta maktablar (Technisch Secundair Onderwijs, (TSO)) ikkita: TTK va STK kabi "tipchalar"ga bo'linadi. 1- "tipcha"dagi maktablarda ta'lim texnik jihati tomoniga yo'naltirilgan, 2- "tipcha" - amaliy muassasalarga ixtisoslashgan. Mazkur ta'lim muassasalarida matematika, tillar, tarix, tabiiy fanlarga urg'u beriladi, lekin ASOga nisbatan bilim hajmi kamroqdir. STK bitiruvchilari mehnat bozoriga chiqishga tayyor, TTK bitiruvchilari esa, odatda, o'qishni davom ettirishni: ixtisosi bo'yicha bir yil qo'shimcha tahsil olish, turizm, savdo, sog'liqni saqlash kabi sohalar bo'yicha bakalavr, hattoki, magistr darajasini olishni afzal ko'rishadi.

Kasbiy-texnik o‘quv yurtlari (Beroeps secundair ondwerwijs (VSO)) duradgor, zargar, g‘isht teruvchi (quruvchi) usta kabi o‘ziga xos mutaxassisliklar bo‘yicha ta‘lim taklif etishadi. VSO — faqat Belgiya o‘rta ta‘limida mavjud bo‘lgan ta‘lim muassasasi tipidir, bundan keyin oliy ta‘lim olish imkoniyati ko‘zda tutilmagan. Agarda ushbu ta‘lim muassasasi bitiruvchisi qo‘shimcha (7 yoki 8 yil) o‘qish istagini bildirsa, bu qo‘shimcha o‘quv yilidan keyin bitiruvchiga TSO diplomiga ekvivalent bo‘ladigan diplom berishadi.

O‘rta badiiy ta‘lim muassasalari (Kunst secundair onderwijs (KSO)). Ushbu o‘quv yurtlar san‘at sohasi boyicha oliy ma‘lumotga ega bo‘lish uchun universitet yoki kollejga o‘qishga kirish uchun talabalarni tayyorlaydi. Tanlagan yo‘nalishiga qarab, aktyorlik mahorati, xoreografiya, musiqa yoki tasviriy san‘at ustuvor bo‘lishi mumkin.

### **17.5. Ta‘lim sohasidagi islohotlarni baholash**

2019 – yilda YUNICEF O‘zbekistonda maktabgacha ta‘limni kengaytirish uchun resurslarni jalb qilishda katta hissa qo‘shdi va 2019–2023-yillarda O‘zbekistonning ikkinchi Ta‘lim sektori rejasi (TSR) ishlab chiqilishini qo‘llab-quvvatladi. Ta‘lim bo‘yicha Global SHERIKLIK (TGSH) tomonidan tasdiqlangan TSR ta‘lim sohasiga 70 million AQSH dollaridan ko‘proq tashqi yordam olish imkoniyatini yaratdi: TGSHning 10 million AQSH dollari miqdoridagi granti multiplikatsiya samarasini berdi va Jahon bankining 60 million AQSH dollaridan ortiq miqdordagi loyihasi bilan to‘ldirildi. Boshqa rivojlanish agentliklari va donorlar, masalan, Osiyo Taraqqiyot Banki, YUNESKO va YUSAID ham ta‘lim sohasini qo‘llab-quvvatlash uchun TSRdan foydalanmoqdalar. 2019 –yil dekabr oyida Senat “Maktabgacha ta‘lim to‘g‘risida” gi qonunni ma‘qulladi. Qonunda bolalarning erta yoshdan boshlab ta‘lim olish (EYOT) huquqlari belgilangan va EYOT bo‘yicha davlat siyosatining yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan. Ushbu hujjatda har bir bolaning davlat maktabgacha ta‘lim muassasalarida bir yillik majburiy maktabgacha ta‘lim olish huquqi kafolatlangan. Bu muhim yutuq, chunki hozirga qadar

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim ixtiyoriy va pullik asosda amalga oshiriladi.<sup>108</sup>

Mamlakat tarixida birinchi bor MTD ta’limdan kutilayotgan asosiy natijalarga urg‘u berish bilangina cheklanib qolmay, ularni yillik kompetensiyaviy natijalarga taqsimlab chiqadi. Shu bilan birga, MTD dars berish va bilimlarni baholashga bo‘lgan yondashuvlarni belgilaydi. Bu maktablarda bilim berish va o‘qish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shuningdek, YUNISEF mamlakatda darsliklarga oid qonun-qoidalarini ko‘rib chiqish tashabbusi bilan chiqdi va ularni MTD bilan moslashtirish hamda ularning sifatini oshirishga oid tavsiyalarni ishlab chiqdi. Maktabgacha ta’lim uchun o‘quv dasturiga kelsak, YUNISEF yetakchi milliy o‘qituvchilar va instruktorlar guruhiga maktabgacha o‘quv dasturi va Bolalarni erta yoshda o‘qitish va rivojlantirish standartlaridan (BEYOO‘RS) foydalanish uchun o‘qitishda yordam berdi. O‘z navbatida, mazkur jamoa turkum treninglar o‘tkazish yo‘l bilan hozirga qadar 38 400 nafar maktabgacha ta’lim tashkilotlar o‘qituvchilarini tayorlashga muvaffaq bo‘ldi.<sup>109</sup>

2019 – yilda o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha yangi tizimlarni va o‘qituvchilarning kasbiy standartlarini ishlab chiqildi. Bu o‘qituvchilardan kutilayotgan natijalarga aniqlik kiratadi va ularning malakasini ta’lim islohotlariga moslashtiradi. Mazkur hujjat o‘qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash standartlarini belgilab beradi. Shuningdek, Ta’lim sifatini ta’minlash (TST) tizimini, shu jumladan, uning vositalari va ko‘rsatmalarini ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu tizim Hukumatga ta’lim sifatini yanada yaxshilash uchun uning turli jihatlarni o‘lchashda yordam beradi.

Bugungi kunda universitetlarning ta’lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo‘lmoqda. Yoshlarimiz sog‘lom hamda go‘zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo‘yicha doimiy ish o‘rniga ega bo‘lish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta’lim olishni eng asosiy shart sifatida ko‘rmoqda.

---

<sup>108</sup> <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/2806/file/coar%20report%20uzb.pdf>

<sup>109</sup> <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/2806/file/coar%20report%20uzb.pdf>

Mamlakatimizda 2019 – yilning oktyabrida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 – yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o‘quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta’lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlash, xalqaro e’tirofga erishish hamda boshqa ko‘plab aniq yo‘nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta’lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2021 – yil yakuni bilan maktabgacha ta’lim qamrovini 65 foizga, 2023 – yil oxirida esa 75 foizga yetkazish, bu ishlarga budjetdan 600 milliard so‘m subsidiya berish hisobidan qo‘shimcha ravishda 2 mingta nodavlat bog‘cha tashkil etilib, xususiy sektor ulushi 25 foizga yetkaziladi. Shuningdek, 2021 – yilda maktabga tayyorlashning bepul tizimi bilan 560 ming nafar 6 yoshli bolalar yoki ularning 82 foizi qamrab olinadi. 2021 – yili 30 ta yangi maktab qurish, 320 ta maktabni ta’mirlesh va moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida budjetdan 2 trillion so‘m ajratiladi. Sohada yagona “elektron ta’lim” tizimini joriy etishga kelgusi 2 yilda 250 milliard so‘m yo‘naltiriladi. Bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur. Bu borada kelgusi o‘quv yilida boshlang‘ich sinflarda davlat ta’lim standarti o‘rniga, ilg‘or xorijiy tajriba asosida, bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan “Milliy o‘quv dasturi” joriy etilishi kutilmoqda. Oliy ta’limning qamrovi va sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, 2021 – yildan boshlab oliy ta’limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilishi, oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun

grantlar sonini 2 barobarga ko‘paytirib, 2 mingtaga”<sup>110</sup> yetkazash ta’kidlab o‘tgan.

Joriy yilda yurtimizdagi 30 ta yetakchi oliygohga o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, qabul kvotasi va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqi beriladi. Ilm-fan sohasida oliygohlar va ilmiy tashkilotlardagi doktorantlar soni 4,5 mingtaga yetkaziladi yoki 2017– yilga nisbatan 3 barobarga oshiriladi. Ushbu maqsadlar uchun budjetdan qo‘shimcha 240 milliard so‘m mablag‘ ajratilishi belgilangan.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

**Davlat ta’lim muassasasi** — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta’lim standartlariga va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim beradigan muassasa.

**Davlat ta’lim standartlari** — davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmuyi.

**Davlat ta’lim talablari** — ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek, ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar.

**Malaka** — shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma’lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko‘nikmalar darajasi.

**Mutaxassislik** — malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi.

**Nodavlat ta’lim tashkiloti** — davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs.

**Tarbiya** — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini,

---

<sup>110</sup> <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

**Ta'lim** — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

**Ta'lim kampusi** — yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarini), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuyidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti.

**Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari** — ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Finlyandiya ta'lim tizimi xususiyatlarini gapirib bering.
2. Ispaniya ta'lim tizimi xususiyatlarini gapirib bering.
3. Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish modellarini tavsiflab bering.
4. Rossiya federatsiyasi maktabgacha, o'rta ta'limini Janubiy Koreyada maktabgacha, o'rta ta'lim tizimi bilan o'xshashlik va farqli jihatlarini qanday?
5. Singapurda o'rta ta'lim tizimi xususiyatlarini tavsiflab bering.
6. Janubiy Koreyada maktabgacha, boshlang'ich, o'rta ta'lim haqidagi bilimlarinigizni gapirib bering.
7. Janubiy Koreyada kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim haqida gapiring.
8. Belgiyada maktabgacha va maktab ta'limini tavsiflab bering.
9. Belgiya ta'lim tizimida 4 tipdagi o'rta maktablarning farqli jihatlarini qanday?
10. Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar yo'nalishlarini yoritib bering.



## **18-MAVZU: QISHLOQ XO‘JALIGINI TADQIQ QILISH VA KENGAYTIRISH**

**18.1. Rivojlanayotgan mamlakatda qishloq xo‘jaligidagi texnik o‘zgarishlar.**

**18.2. Qishloq xo‘jaligini texnik o‘zgartirish va rivojlantirish.**

**18.3. Qishloq xo‘jaligidagi texnik o‘zgarishlarning iqtisodiyoti**

**18.4. Qishloq xo‘jaligini tadqiq qilish va kengaytirish siyosati.**

### **18.1. Rivojlanayotgan mamlakatda qishloq xo‘jaligidagi texnik o‘zgarishlar**

Koreya Respublikasida davlat tomonidan tartibga solish iqtisodiyot va hayotning barcha sohalariga innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga har tomonlama yordam berishga qaratilgan. Koreya Respublikasidagi qishloq xo‘jaligi ham yuqori texnologiyali sohadir. Koreya Respublikasida qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish tajribasi noyobdir va rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va innovatsion agrar tizimni shakllantirishda foydalanish mumkin. 2018 – yilda Koreya Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi butun mamlakat bo‘ylab “aqli” fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishga mablag‘ ajratish va ularning umumiy maydonini hozirgi 4,01 gektardan 7 ming gektarga oshirish niyatida ekanligini ma‘lum qildi. Tayvanda so‘nggi 5-10 yil ichida innovatsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun davlat 100 million dollargacha mablag ajratdi, shu jumladan, tadqiqot markazlarini yaratish, dasturiy ta‘minot va mobil ilovalarni ishlab chiqish va fermerlar uchun katta o‘quv dasturi ishlab chiqildi. Iloji boricha ko‘proq vositachilarni bozordan chiqarish va fermerlar, qayta ishlovchilar va chakana savdo tarmoqlarining daromadlilikini oshirish uchun davlat Internet-portallarni yaratishni buyurdi, ularda fermerlar o‘z sahifalarini saqlab turishlari va shu tariqa o‘zlarini bozorda ilgari surishlari mumkin. Portalda yangi organik mahsulot

sotib olishga qiziqqan shaharlardagi xususiy xaridorlarga va ulgurji xaridorlarga, protsessorlarga kirish imkoniyati mavjud<sup>111</sup>.

Argentinada davlat darajasida ekinlarning holatini kuzatish, tuproqlarning holatini kuzatish, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish tizimi joriy etilmoqda. Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari doimiy ravishda sotib olinadi, analitik ma'lumotlar umumiy Internet portalida joylashgan ob-havo stansiyalari, korxonalar, ilmiy-tadqiqot markazlari, laboratoriyalardan olinadi va ular fermerlarga o'z maydonlarida ma'lumotlarni olish uchun xizmat vazifasini o'taydi<sup>112</sup>.

Hindiston fermerlarning bilimini oshirishga, xususan, fermerlarga ob-havo, mahsulot narxi, ekinlarni yetishtirish uchun eng yaxshi texnologiyalar va boshqa narsalar to'g'risida ma'lumot beradigan "Agri Value Added Services" mobil ilovalarini joriy etishga e'tibor qaratilgan. Har bir hududda qishloq xo'jaligidagi innovatsion va ilmiy markazlar tashkil etilgan.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, Rossiyada qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi bugungi kunda, masalan, Germaniya unumdorligidan uch baravar orqada qolmoqda va hosildorlik Germaniya va AQSHdagi ish haqidan 2,5-3 baravar past. Rossiyada qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalardan foydalanishning asosiy jihatlari sifatida qishloq xo'jaligining mahsuldorligini oshirish va yo'qotishlarni pasayishtirish bo'lib hisoblanadi.

Qozog'istonda Qishloq xo'jaligi vazirligi 2025 – yilga kelib qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning iqtisodiy samarasi taxminan 40 milliard tengge (105,5 million dollar) ni tashkil etadi, deb taxmin qilmoqda.

Qozog'istonda qishloq xo'jaligi texnikasi parki 143 ming traktor va 37,6 ming kombaynni tashkil etadi, deb xabar beradi Kazinform QR Industriya va infratuzilmalarni rivojlantirish vazirligiga asoslanib.<sup>113</sup> Vazirlik ma'lumotlariga ko'ra, 2019 –yilda taxminan 3,4 ming dona traktor va 1,2 ming kombayn sotib olingan. 2020 –yilda taxminan 4,8 ming dona traktor va 1,2 ming kombayn sotib olindi. Umuman

---

<sup>111</sup> Лapidус Л.В. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией. – М.: ИНФРА-М, 2018. -381 с.

<sup>112</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.// «Xalq so'zi», 2020 y., 25 yanvar.

<sup>113</sup> [https://www.inform.kz/oz/kozogistonda-kishlok-h-zhaligi-tehnikasini-ishlab-chikarish-98-foizga-sdi\\_a3772987](https://www.inform.kz/oz/kozogistonda-kishlok-h-zhaligi-tehnikasini-ishlab-chikarish-98-foizga-sdi_a3772987)

olganda, mahalliy fabrikalarda 932 milliard tengge evaziga 6272 dona uskunarlar ishlab chiqarildi. Jismoniy jihatdan yillik ishlab chiqarish o'sishi 98,2% ni tashkil etdi, qiymat jihatidan mahsulot bir vaqtning o'zida 2,5 baravarga o'sdi. Qozog'istonda traktorlarni «Agromash Xolding KZ», «Qostanay traktor zavodi» (Lovol va Kirovets) zavodlari, «KAIK» zavodi («Belarus» va RSM rusumli) Aqmola viloyatida va «SemAZ» («Belarus» rusumli) Sharqiy Qozog'iston viloyati tomonidan ishlab chiqariladi.

Dunyoning ko'pgina qismida, qolaversa, mintaqamizda, jumladan, mamlakatimizda ham suv resurslariga bo'lgan talab ortayotganligi bilan birga, suvning taqchilligi ham yildan yilga oshib bormoqda. 2000- yilgacha kam suvli mavsum har 6-8 yilda bir marta kuzatilgan bo'lsa, oxirgi yillarda bu jarayon har 3-4 yilda takrorlanmoqda. Bunda suv taqchilligini, ayniqsa, daryolarning quyi qismida hamda kanal va boshqa suv manbalaridan uzoqda joylashgan iste'molchilari chuqur his etmoqdalar.

Respublikamizda suv resurslaridan tejamli va samarali foydalanish asosida sug'oriladigan maydonlardan olinadigan hosil miqdorini oshirish, bu borada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish, sifatini yaxshilash hamda ichki bozorni to'ldirish orqali mamlakat aholisining turmush darajasini yanada yaxshilash borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda suvdan samarali va maqsadli foydalanish bo'yicha keyingi yillarda keng ko'lamda ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda suvni tejashning bir qancha turlari yordamida bosqichma-bosqich zarur bo'lgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, har yili 5 ming km. dan ortiq sug'orish, 12 ming km kollektor-drenaj, 50 ming km ariq tarmoqlari tozalanayotgan bo'lsa, 200 km. dan ortiq kanallar, 30 km lotok va 500 km kollektor tarmoqlari, 400 dan ortiq gidrotexnik inshootlar va boshqa ko'pgina obyektlar rekonstruksiya qilinmoqda va qurilmoqda.

Shu bilan birgalikda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilinishi ham suvni tejashiga ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Mustaqillik yillarida paxta, sholi kabi suvni ko'p talab qiluvchi ekinlar qisqartirilib, o'rniga boshoqli don, sabzavot-poliz ekinlari va bog'-uzumzorlar maydoni kengaytirildi. Jumladan, 80-

yillarga nisbatan paxta maydonlari qariyb 50 foizga, sholi maydonlari esa 75 foizga qisqartirildi.

Bajarilgan ishlar natijasida suvni tezkor boshqarish va iste'molchilarga o'z vaqtida kafolatli yetkazib berish imkoniyati yaratilmoqda hamda sug'orish tarmoqlaridagi texnik ushutilishi va filtratsiyasi kamayishiga erishilmoqda.

Jumladan, bugungi kunga kelib O'zbekistonda suv resurslaridan tejamli foydalanish yo'nalishidagi davlat siyosatining natijasi o'laroq foydalanilayotgan suvlarning umumiy miqdori 80-yillarga nisbatan 20 foizga kamayishiga erishildi.

Suv manbalaridan 1 gektar sug'oriladigan maydonga 90-yillarda 18 ming m<sup>3</sup>/ ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 40 foizga kamaydi.

Ekinlarni sug'orishda suvdan tejamli foydalanish tadbirlari orasida bir qator tashkiliy jihatlari borki, ularga amal qilish suvdan foydalanish samaradorligini oshirishga bevosita xizmat qiladi.

Jumladan, fermerlar orasida suvni navbatma-navbat ishlatishni tashkil qilish, bunda suvni avval bitta dalaga, keyin esa boshqasiga uzatilishi natijasida kanaldagi suv isrofi 10-20 % ga, dala o'qariqlaridagi suv isrofi esa 30-35% gacha kamayadi;

- sug'orish ariqlarini loyqa va begona o'tlardan tozalash, beton va nov ariqlarning singan, yorilgan va teshilgan joylarini ta'mirlash tadbirlari ham dalada suv ta'minotini yaxshilaydi;

- fermer xo'jaliklarining suv olish quloqlarini suvni boshqarish va o'lchash inshootlari bilan jihozlash ishlari suvni adolatli taqsimlash imkonini beradi;

- erta bahorda yoki ekish oldidan o'tkazilgan nam to'plovchi sug'orishlar g'o'zalarni birinchi sug'orishsiz bir tekis undirib olishga to'liq imkon beradi;

- suvning qat'i hisob-kitobining joriy etilishi undan maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga:

- sug'oriladigan yerlarni tekislash, yer maydonining nishabligiga qarab egatlarni qisqa olish (50-60 m);

- egat oralatib sug'orish (20-25 foiz suv tejaladi);

- suvchilar sonini ko'paytirish va har 8-10 l/s suvga bittadan suvchi jalb etish, tungi sug'orish ishlarini tashkil etish;

• Sugʻorishni sharbat oqizib tashkil etish va qator orasiga oʻz vaqtida ishlov berish, suvni tashlama va zovurga behuda tashlab qoʻyish, koʻllatib va zaxlatib sugʻorishga yoʻl qoʻymaslik ham oʻz samarasini beradi.

Mamlakatimizda suv tejevchi texnologiyalarning bir qancha turlari qoʻllanilib, ular quyidagilar:

1. Egatga plynka toʻshab sugʻorish.
2. Oʻqariqlar oʻrniga egiluvchan plenkali quvurlardan foydalanish.
3. Tuproq ostidan sugʻorish texnologiyasini qoʻllash, dalaga suv berish miqdori 25–30 foizgacha kamayadi, egat olinmaydi.
4. Yomgʻirlatib sugʻorish (bunda asosan bir yillik ekinlar sugʻoriladi).
5. Tomchilatib sugʻorish.

Ushbu suv tejevchi texnologiyalar ichida tomchilatib sugʻorish alohida ahamiyatga ega.

Ushbu texnologiya boshqa sugʻorish usullaridan farqli jihatlari:

- yuqori samaradorligi, yaʼni suv resurslari tanqisligi sharoitida kam suv sarflab barqaror yuqori hosil olish imkonini berishi;
- tuproqning namligi va uni yaratish uchun berilayotgan suvni boshqarish mumkinligi, yaʼni suv har bir ekinning maʼlum davrdagi ehtiyojiga mos ravishda dala boʻylab bir tekis taqsimlanishi;
- ekin ildizi rivojlanadigan tuproq qatlamida oʻsimlik uchun maqbul boʻlgan suv-fizik muhit yaratilishi.

Tomchilatib sugʻorishda quyidagilar hisobiga suv tejiladi:

- sugʻorish rejimini oʻsimlikning suvga boʻlgan talabiga mosligi;
- tuproqdan bugʻlanadigan suvning kamligi;
- suvning dala boʻylab tarqalmasligi va tuproqqa singib ketmasligi;
- suv oqavaga tashlanmasligi.

Tomchilatib sugʻorish natijasida boshqa sugʻorish usullariga nisbatan 20 foizdan 60 foizgacha suv tejiladi.

Tomchilatib sugʻorishda suv oʻsimlikka shlanglar vositasida yetkazib berilganligi uchun dala tuprogʻi qotmaydi, natijada tuproqni yumshatishga (kultivatsiya) va ariq olishga hojat qolmaydi. Tuprogʻi qotmagan maydon esa mavsum oxirida oson haydaladi.

Oʻgʻit suv bilan birga berilganligi bois, oʻgʻitlash uchun texnika ishlatishning zaruriyati yoʻqoladi.

Tomchilatib sugʻorish tizimini qurish uchun suv nasosi, filtr hovuz-tindirgich, oʻgʻitlovchi moslama, magistral va tarqatuvchi quvurlar, sugʻorish shlanglari, tomizgichlar, yordamchi va oʻlovchi qismlar kerak boʻladi. Bundan tashqari, qurilish ishlari va loyihani tuzish xarajatlari kiritiladi.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda qishloq xoʻjaligini rivojlantirish, qishloq xoʻjaligiga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish boʻyicha juda jiddiy va samarali choralar koʻrilmoqda. Ushbu yoʻnalishdagi keyingi yutuqlar sektorning raqobatbardoshligini oshiradi va mavjud muammolarni yangi imkoniyatlarga aylantiradi. Ammo bu hozirda dunyoning boshqa mamlakatlarida qoʻllanilayotgan qishloq xoʻjaligi texnologiyalari va innovatsiyalarini ishlab chiqish va joriy etishni talab qiladi. Quyida ushbu yoʻnalishdagi xorijiy tajribasi taqdim etiladi. “Aqlli” qishloq xoʻjaligi texnologiyalari.”Internet buyumlari” - bu turli xil “aqlli qurilmalar” orqali boshqaruv va nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish va ularda odamlarning ishtirokini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradigan turli xil qurilmalar va mashinalar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir va maʼlumot almashish tizimidir. IoT texnologiyalarini qishloq xoʻjaligida qoʻllash sohalariga quyidagilar kiradi: Aqlli dehqonchilik; Aqlli fermalar; Aqlli issiqxonalar; xomashyoni boshqarish; qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini saqlash; qishloq xoʻjaligi transportini boshqarish; “Big Data” va boshqalar<sup>114</sup>.

“Aqlli” texnik qurilmalar. Uchuvchisiz samolyotlar (dronlar) va multikopterlar (quadro-, hexa-, octocopters), shuningdek, qanotli dronlar keng foydalaniladi. Dronlardan koʻpincha katta maydonlarni xaritalash maqsadida foydalaniladi. Shuningdek, ular maydonlarning elektron 3D xaritalarini yaratishga, oʻgʻitlash koʻrsatkichlarini hisoblash, dalalarni tekshirish va hosilning holatini kuzatish, transport va qishloq xoʻjaligi texnikalarining ishlashini kuzatish, yerlarni himoya qilish, dalalarga oʻsimliklarni himoya qilish vositalari va oʻgʻitlarni qoʻllash va hokazolarni bajarish mumkin. Dronlar tomonidan olib borilgan monitoring nafaqat ekinlar, balki begona oʻtlar toʻgʻrisida ham maʼlumot berishi mumkin, masalan, ularning turgʻunligi va turlarning tarkibi kabilar. Uchuvchisiz samolyotlardan

---

<sup>114</sup> . Ходиев Б. Ю. Цифровая экономика в Узбекистане // Мировая экономика, 2017. №12.

suratga olish orqali termogrammalar tuzish mumkin, ular o‘simliklar harorati, ayniqsa, qurg‘oqchilikda qurish darajasini aniqlashda kerak bo‘ladi. Shu bilan birga, mutaxassislarning fikriga ko‘ra, uchuvchisiz samolyotlar kamida 10 ming gektar yerga xizmat qilishi mumkin. Shu sababli, kichik fermerlar uchun ushbu turdagi xizmatlarni ko‘rsatishga ixtisoslashgan autsorsing kompaniyalari xizmatlaridan foydalanish foydaliroq. Dronlar AQSH, Yevropa, Braziliya, Argentina va boshqa mamlakatlar qishloq xo‘jaligida faol qo‘llaniladi, ammo ular Xitoyda eng ko‘p ishlatiladi va dronlar ishlab chiqarishda yetakchi o‘rinni egallaydi. Masalan, Hito kompaniyasi DJI bo‘yicha 2015-yilda global dron bozorining 2/3 qismini egallab olgan. Nazorat punktlarida yerga o‘rnatilgan datchiklar (sensorlar) tuproqning xususiyatlarini aniqlash tizimining asosi bo‘lib, masalan, relef geterogenligini, tuproq turlarini, yoritishni, ob-havoni, begona o‘tlar, parazitlarni aniqlash va qaror qabul qilish uchun foydalanuvchiga bu haqda darhol ma‘lumot berish. Shunday qilib, dala ichiga sezilarli masofada joylashtirilgan va tarmoqqa birlashtirilgan datchiklari ekinlar holati, xususan, namlik, harorat, begona o‘tlarning tarqalish darajasi, o‘simliklarning o‘sishi fazalari va hokazolarni saytdan chiqmasdan olish imkonini beradi. Yer usti moslamalari bilan birgalikda tuproqning fizik va kimyoviy xususiyatlarini o‘lchaydigan simsiz aloqa bilan ta‘minlangan datchiklar, shuningdek avtonom ob-havo stansiyalari fermerni yoki agronomni hamda zamonaviy “aqlli” mashinalarni to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarning to‘liq to‘plamlari bilan ta‘minlaydigan tizimni yaratishi mumkin. Ko‘p vazifalarni bajaradigan robotlar (robot mashinalari) qishloq xo‘jaligida tez sur‘atlar bilan ommalashmoqda. “Tractica konsalting” kompaniyasining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024– yilga kelib qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan robotlarni yetkazib berish 2016 – yil oxiridagi 32 mingdan oshib, 594 ming donaga yetadi. 2017 – yil boshiga kelib, dunyoda agrosanoat majmuasi uchun 150 dan ortiq robot yetkazib beruvchilar bor edi. Shu bilan birga, agrosanoat majmuasida robotlarni qo‘llashning quyidagi asosiy yo‘nalishlari qayd etilgan: uchuvchisiz traktorlar va avialaynerlar; ekinlarni yetishtirishning avtomatlashtirilgan tizimlari; sut fermalarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari va shu bilan bir qatorda, “aqlli” traktorlar va kombaynlar avtonom ishlashi mumkin, bunda odamning ishtirokini talab etmaydi, bu ularni kunning istalgan vaqtida

ishlatishga imkon beradi. Bundan tashqari, ular ko‘plab qo‘shimcha funksiyalar bilan jihozlanishi mumkin, masalan, zararkunandalarga qarshi o‘rnatilgan tizimlar bilan. Masalan, Amerikaning “Blue River Technology” kompaniyasi daladagi ekinlarni begona o‘tlardan ajratish uchun kompyuter ko‘rish qobiliyatidan foydalanadigan va uni faqat kimyoviy moddalar bilan tanlab sepadigan robotlarni yaratdi, yana Yaponiyada esa odam o‘rniga qulupnay teradigan robot yaratildi. Olimlarning fikriga ko‘ra, bir necha yillardan keyin barcha oddiy dala ishlari, masalan, ekish, terish va sug‘orish qishloq xo‘jaligidagi robotlar tomonidan amalga oshiriladi.<sup>115</sup>

## 18.2. Qishloq xo‘jaligini texnik o‘zgartirish va rivojlantirish

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yanada takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish doirasida mahalliy qishloq xo‘jaligi mashinasozligini rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu maqsadlarda qishloq xo‘jaligi mashinasozligi tizimi qayta tashkil qilindi. Natijada birgina 2017 – yilda qishloq xo‘jaligi texnikasini ishlab chiqarish va lizing bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish hajmi 1,7 baravar, mexanizatsiya xizmatlari hajmi 2,5 baravar oshdi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni mamlakatimizda ishlab chiqarilgan sifatli va arzon texnika bilan ta‘minlash, texnika parkini yangilash, shuningdek, ularga o‘z vaqtida servis xizmatini ko‘rsatish ishlarida jiddiy kamchiliklar saqlanib qolmoqda, xususan:

**birinchidan**, real ehtiyoj, agrotexnika tadbirlarini o‘tkazish muddatlari va moliyalashtirish manbalaridan kelib chiqib, mashina-traktor parklari, tegishli xizmatlar ko‘rsatuvchi xususiy tashkilotlar, shuningdek, fermer xo‘jaliklariga qishloq xo‘jaligi texnikasini yetkazib berish bo‘yicha buyurtmalarni shakllantirish, shartnomalar tuzishning bozor mexanizmlari mavjud emas;

**ikkinchidan**, eng maqbul agrotexnik muddatlarda ommaviy qishloq xo‘jaligi ishlarini amalga oshirish uchun o‘ziyurar qishloq xo‘jaligi texnikasi yetarli emas, o‘z vaqtida ishlab chiqarishni

---

<sup>115</sup> [http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/20\\_Abdullayeva\\_I.pdf](http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/20_Abdullayeva_I.pdf)



rejalashtirish va tashkil etish bo'yicha ishlar tizimli yo'lga qo'yilmagan;

**uchinchidan**, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasining pastligi, oqibatda, ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi texnikasi tannarxining raqobatbardosh emasligi mexanizatsiya xizmatlari va ishlab chiqarilayotgan yakuniy mahsulot narxining oshib ketishiga olib kelmoqda;

**to'rtinchidan**, qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarishni moliyalashtirish mexanizmi mukammal emas, lizing mexanizmlari, xususiy servis tashkilotlari va fermer xo'jaliklari mablag'larini jalb etishdan yetarli darajada foydalanilmayapti.

Qishloq xo'jaligi texnikasi parkini yangilash va modernizatsiya qilish hisobidan qishloq xo'jaligini texnik jihatdan jihozlash darajasini yanada oshirish, agrotexnika ishlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va "O'zagrotexsanoatxolding" AJ tomonidan shakllantirilgan 2018 – yilda hududlar kesimida, jumladan, lizing asosida qishloq xo'jaligi texnikasini yetkazib berishning qo'shimcha hajmlari parametrlari ishlab chiqilib tasdiqlandi.

Shunga muvofiq, quyidagi ishlar amalga oshirilishi belgilandi:

- qishloq xo'jaligi texnikasini yetkazib berish uchun buyurtmalar portfelini shakllantirish ustuvor ravishda bir yilda ikki marta – fevral-mart va sentabr-oktabr oylarida mahalliy va jahonning yetakchi ishlab chiqaruvchilari ishtirokida o'tkaziladigan hududiy yarmarkalar davomida amalga oshiriladi. Bunda fevral-mart oylarida qishloq xo'jaligi texnikasini joriy yil uchun, sentabr-oktabr oylarida – kelgusi yil uchun yetkazib berish bo'yicha qo'shimcha shartnomalar tuzish;

- ishlab chiqaruvchilarga qishloq xo'jaligi texnikasi uchun oldindan to'lov yetkazib berilayotgan texnika narxining 80 foizidan kam bo'lmagan miqdorda texnikani yetkazib berish boshlanishidan 120 kundan kam bo'lmagan muddatda, yakuniy hisob-kitob esa yetkazib berilgan texnika qabul qilingandan keyin 10 ish kuni davomida amalga oshirish;

- "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUK yetkazib beriladigan qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarish uchun

tovarlarni sotib olish bo'yicha import kontraktlarining kompleks ekspertizasini amalga oshirishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 – yil 10 – maydagi “Qishloq xo'jaligini o'z vaqtida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qaroriga asosan:

- 2018 – yilda tumanlar kesimida qishloq xo'jaligi texnikasini yetkazib berishning qo'shimcha hajmlari parametrlarini, shuningdek, ushbu qarorni inobatga olgan holda, ularni moliyalashtirish va yetkazib berishning oyma-oy grafiklari;

- buyurtmalar portfelini shakllantirish va shartnomalar tuzish, qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarish va yetkazib berishni moliyalashtirish, shuningdek, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga mexanizatsiyalashgan xizmat ko'rsatish ishlarini tashkil etish sxemalarini tasdiqlanishi;

- qishloq xo'jaligi texnikasining mahalliy brendini ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy etishni nazarda tutgan holda, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mashinasozligini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish;

- 2018–2020-yillarda qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarining yangi ishlab chiqarishlarini yaratish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash yuzasidan investitsiya loyihalari ro'yxati bilan birga qishloq xo'jaligi texnikasining har bir turi bo'yicha ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini ishlab chiqish;

- 2018–2020-yillarda ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan tarmoq kooperatsiyasi doirasida ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi texnikasi va uning komponentlari tannarxini pasaytirish dasturini ishlab chiqish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 18-martdagi 80-sonli Qarori bilan “Qishloq xo'jaligi texnikalari konstruksiyasining xavfsizligi to'g'risida”gi Umumiy texnik reglamenti tasdiqlandi.

Texnik reglament qishloq xo'jaligi texnikalari konstruksiyasiga xavfsizlik talablarini belgilaydi, yangi va modernizatsiya qilingan

traktorlar, traktor tirkamalari, yarim tirkamalar va qishloq xo‘jaligi uchun mashinalarga taalluqlidir.

Texnik reglament quyidagi qishloq xo‘jaligi texnikasi uchun taalluqli hisoblanmaydi:

- ushbu texnik reglament kuchga kirishdan avval ishlatish uchun chiqarilgan;
- avvaldan ishlatilgan;
- O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalanishda bo‘lgan;
- yakka holda donalab ishlab chiqariladigan, shuningdek yakka ijodiy tartibda ishlab chiqariladigan.

Texnik reglament, rasmiy chop etilgan kundan boshlab, olti oydan so‘ng kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi “Texnik tartibda solish to‘g‘risida”gi Qonunining talablariga asosan, ushbu texnik reglament amalga kiritilishi bilan, standartlashtirish bo‘yicha Texnik reglamentda ko‘rsatilgan mahsulotlar, ishlar va xizmatlarga doir ilgari qabul qilingan tegishli normativ hujjatlar majburiylik xususiyatini yo‘qotadi hamda belgilangan tartibda qo‘llanilishda ixtiyoriylik kasb etadi.

### **18.3. Qishloq xo‘jaligidagi texnik o‘zgarishlarning iqtisodiyoti**

AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi va unga bog‘liq tarmoqlarda xususiy sektorning o‘rishiga ko‘mak beruvchi yangi loyihasi haqida xabar bergan edi. Agrobiznes rivojiga xizmat qiluvchi mazkur loyihaning umumiy qiymati **18,9 million AQSH dollariga** teng bo‘lib, u mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish va shu orqali yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha USAID ko‘p yillik hamkorlik tarixiga ega. Zero, tashkilot so‘nggi o‘n yil ichida bog‘dorchilikning takomillashuviga munosib hissa qo‘shdi. Sovuqxona saqlash sig‘imlarini, shuningdek, turli saqlash hajmlari va ehtiyojlari uchun butun mamlakat bo‘ylab keng ko‘lamli takliflar taqdim etuvchi kichik, o‘rta va yirik omborxonalarining muvaffaqiyatli faoliyatini ta‘minlash kabi sa‘y-harakatlar shular jumlasidandir.

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tayanchi sanaladi. Mamlakatda mavjud ishchi kuchining chorak qismidan

ko‘prog‘i bugun ushbu sektorda faoliyat yuritadi. Shu bois ham sohani rivojlantirish va diversifikatsiya qilish USAIDning O‘zbekistondagi ustuvor yo‘nalishidir. Bugun mazkur tashkilot o‘zbekistonlik fermerlarga rivojlangan qishloq xo‘jaligi korxonalarini yaratishda ko‘mak bermoqda. Chunki ushbu ixtisoslikdagi korxonalar takomillashgan texnologiyalarni qo‘llash orqali sektor rivojiga katta hissa qo‘shadi. USAID mamlakatning qishloq xo‘jaligi sohasini qo‘llab-quvvatlash borasida boy tarixga ega. Tashkilot so‘nggi 10 yil ichida mamlakatning bog‘dorchilik sub-sektorini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Mahsulotlarni sovutgich xonalarda saqlash, shuningdek, turli xil saqlash hajmi va ehtiyojlari uchun takliflar taqdim etuvchi kichik, o‘rta va keng ko‘lamli obyektlarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi sa’y-harakatlar shular jumlasidandir.

USAIDning O‘zbekiston bilan hamkorligi mamlakat mustaqillikka erishgandan keyin ko‘p o‘tmay boshlandi. Mana, yigirma yetti yildirki, O‘zbekiston bilan mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, mintaqaviy savdo hajmini oshirish va sog‘liqqa tahdidlarni bartaraf etish borasida hamkorlik qilib kelmoqdamiz. Bundan tashqari, talabalar uchun ta‘lim olish imkoniyatlarini yaxshilash va hukumatning aholi ehtiyojlarini qondirish salohiyatini oshirish yo‘nalishi bo‘yicha ham bir qancha ishlar olib borilmoqda. Shu paytga qadar USAID O‘zbekistonning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar uchun taxminan **402 million AQSH dollari** miqdorida mablag‘ ajratdi.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish dasturlari yangi texnologiyalar va innovatsion tajribalarni joriy etish, xalqaro bozorga mahsulot eksport qilish orqali qishloq xo‘jaligi sektorini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Bizning 2020 – yildagi ko‘magimiz bilan xususiy sektorga yangi bog‘lar barpo etish, “aqlli” qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini joriy qilish, logistika markazlarini modernizatsiyalash va sovutgich xonalar tarmog‘ini kengaytirish uchun 5,7 million AQSH dollarilik sarmoyalar kiritildi. Umuman, xususiy sektorga yo‘naltirilgan jami investitsiya hajmi 22 million AQSH dollaridan oshgan.

O‘zbekiston hukumati va xususiy sektori bilan birgalikda erishgan yutuqlarimiz ko‘p. Shu bois ham, qishloq xo‘jaligi va unga tegishli tarmoqlarda xususiy sektorni o‘shishini astoydil qo‘llab-

quvvatlaymiz. Zero, bu iqtisodiyotda muhim ish o‘rinlarini yaratishga imkon beradi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirish, aholining kam ta‘minlangan qatlamlarini, shu jumladan, yoshlar va ayollarni ishga jalb qilish, qishloq xo‘jaligida qulay muhit yaratishga qaratilgan loyihalar davom etmoqda. USAIDning agrobiznesni rivojlantirish bo‘yicha faoliyati O‘zbekistonning 2020–2030-yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasini to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. Fermerlar, ishlab chiqaruvchilar, eksportyorlar, tadbirkorlar va tabiiy resurslardan oqilona foydalangan holda O‘zbekistonda yangi ish o‘rinlari yaratilishiga erishish mumkin. Bu, tabiiyki, o‘sib kelayotgan yosh ishchi kuchi qatlamining bandligini ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi texnikalarini ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish, eksportga mo‘ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek, aholini mahalliy ishlab chiqarilgan texnikalar bilan ta‘minlash bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, mahalliy qishloq xo‘jaligi texnikalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘rtasida kooperatsiya tizimi yo‘lga qo‘yilmaganligi, ishlab chiqarilayotgan texnikalarda import qismlari ulushining yuqoriligi, agrar sektorni texnika bilan ta‘minlashning barqaror tizimi mavjud emasligi, texnikalarga servis xizmati ko‘rsatishning to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi hamda ilm-fan bilan ishlab chiqarishning uyg‘unlashmaganligi ushbu sohaga alohida e‘tibor qaratishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 31 – iyuldagi “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4410-sonli qaroriga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, «O‘zagrotexsanoatxolding» AJ bilan birgalikda uch oy muddatda yetakchi xorijiy konsalting kompaniyasini jalb etgan holda, jumladan quyidagilarni nazarda tutuvchi qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sohasini 2025 – yilga qadar rivojlantirish dasturini ishlab chiqish belgilangan bo‘lib unda:

- ishlab chiqarilayotgan mavjud texnika turlarini optimallashtirish va yangi turdagi qishloq xo‘jaligi texnikalarining budjet modelini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish hamda respublikada ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi texnikalari uchun yangi milliy «brend»ni yaratish;

- bog‘dorchilik, meva-sabzavotchilik va chorvachilik yo‘nalishida texnika turlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va umumiy ishlab chiqarish hajmini oshirish;

- o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan eksport ulushini oshirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi»ni tasdiqlash va tayyor mahsulot eksportini ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan 2022 – yilda 20 foizga, 2025–yilda esa 30 foizga yetkazish;

- zamonaviy korporativ boshqarish usullarini, xususan, «ERP» avtomatlashtirilgan hisobga olish, «GMS» ishlab chiqarishni boshqarish va «BIQ» sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish;

- qishloq xo‘jaligi uchun kichik mexanizatsiya texnikalarini ishlab chiqarishni tashkil etish;

- mashina-traktor parklarining mavjud texnikalari va bo‘sh turgan yer maydonlarini optimallashtirish hamda ularni asosan ta‘mirlash va servis xizmatlari ko‘rsatishga ixtisoslashtirish belgilangan.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning quyidagi tartibi joriy qilish belgilangan:

- 2019–2021-yillarda qishloq xo‘jaligi korxonalarini tomonidan mahalliy lashtirish darajasi 20 foizdan kam bo‘lmagan holda respublikada ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi texnikalari xarid qilinganida texnika narxining 15 foizi miqdorida subsidiya berish;

- kombaynlarni xorijda xizmat ko‘rsatish (xizmatlar eksporti) uchun tashish transport xarajatlarining 80 foizini kompensatsiya qilish.

#### **18.4. Qishloq xo‘jaligini tadqiq qilish va kengaytirish siyosati**

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining rivojlanishi raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda va mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan raqobatbardoshlikni oshirishning bozor mexanizmlari va

dastaklarini shakllantirish zaruratini keltirib chiqarmokda. Shu nuqtayi nazardan milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarida, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida raqobatbardoshlikni oshirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Respublika iqtisodiyotini erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida agrar sektorni tizimli va uzluksiz taraqqiyotini ta‘minlash uchun uning tarmoqlarida innovatsion faollikni jadallashtirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni izchillik bilan joriy etish asosida samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘lga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”, deb ta‘kidlaganlar.<sup>116</sup> Darhaqiqat, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “... tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini muttasil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish” lozimligi qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish borasida ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.

Iqtisodiyotning agrar sektorida tarkibiy o‘zgarishlar va diversifikatsiyalash, shuningdek, resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish evaziga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 2017–yilda 2016–yilga nisbatan 2,0 % foizga oshib, 69 504,2 mlrd so‘mni tashkil qildi. Yakunlangan yilda boshqoli don ishlab chiqarish 8 mln. 116 ming tonnani (2016 –yilga nisbatan 98,2%), sabzavot ishlab chiqarish 11 mln. 434 ming tonnani (101,4 %), kartoshka 3 mln. 15 ming tonnani (101,9 %), poliz 2 mln. 95 ming tonnani, meva 3 mln. 76 ming

---

<sup>116</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr.

tonnani, uzum yetishtirish 1 mln. 749 ming tonnani tashkil etdi. Chorvachilik sohasida ham barqaror o'sish ko'rsatkichlari ta'minlandi. Jumladan, go'sht yetishtirish 2 mln. 281 ming tonnani, sut yetishtirish 10 mln. 83 ming tonnani, tuxum ishlab chiqarish 6 mlrd. 605 ming donani tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 132 ming tonnasi qayta ishlanib, 100 million AQSH dollarilik tayyor mahsulot eksport qilingan, 856 million AQSH dollarilik 724 ming tonna ho'l meva chetga sotilgan. Ushbu yuqori ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni kengaytirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va eksport qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi borasida qabul qilinayotgan qarorlardan samarali foydalanish ta'minlanayotganligidan dalolat beradi. Ammo bu sohada ishga solinmagan imkoniyatlar, o'z yechimini kutayotgan muammo va kamchiliklar hali ko'pligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda innovatsion texnologiya va texnikalarning hamda ishlab chiqarish va mahsulot yetkazib berish jarayonlarini boshqarishning zamonaviy uslublarini jadal ravishda joriy yetishni talab qilmoqda.

Qishloq xo'jaligida innovatsion, resurs-tejamkor texnologiyalardan foydalanishning baholash mezonlari va ko'rsatkichlar tizimining uslubiy asoslarini o'rganish va tahlil qilish o'simlikchilik tarmog'ida innovatsion jarayonni baholash uslubiyatini shakllantirishda qo'llanishi mumkin bo'lgan quyidagi baholash ko'rsatkichlari tizimini taklif qilish imkonini berdi. Ushbu tizimni qurishning negizida ikki guruh ko'rsatkichlari bo'yicha baholashni o'tkazish, ya'ni tarmoqda innovatsion texnologiyalardan foydalanganda natijaviylikning dinamik holda oshishini baholash (natija/samara) va innovatsion muhitni baholash (olingan natijalar samaraga bevosita ta'sir o'tkazuvchi ko'rsatkichlar bo'yicha) g'oyasi etadi.<sup>117</sup>

Mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan muhim strategik dasturlar ishlab chiqilib, hayotga izchil tatbiq etilayotganligi o'zining yuksak samarasini bermoqda. Buni qishloq xo'jaligida erishilayotgan salmoqli natijalar va yillik barqaror o'sish sur'atlarida ham yaqqol ko'rish mumkin.

---

<sup>117</sup> Рябова А.И. Оценка результатов использования инновационных технологий в отрасли растениеводства в условиях импортозамещения. //Управление экономическими системами: электронный научный журнал. (108) УЭКС, 2/2018.



Ayni paytda dunyoning barcha davlatlarida oziq-ovqat ta'minoti masalasi ustuvor vazifalardan biri bo'lib turibdi. Xususan, sayyoramizda ro'y berayotgan global isish jarayoni tufayli ba'zi hududlarda suv toshqinlari, ba'zi hududlarda esa haddan ziyod suv tanqisligi yuz berayotganligi, turli tabiiy ofatlarning ko'payishi birinchi navbatda qishloq xo'jaligi sohasiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Shunday murakkab vaziyatlar kuzatilayotgan bir paytda mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdagi barqarorlik, bozorlarimizdagi mo'l-ko'lchilik amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasi sifati baholansa aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Dunyo shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda agrar ilm-fani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligi, soha olimlariga keng imkoniyatlar yaratib berilayotganligi, kadrlar tayyorlash tizimida joriy etilgan ilg'or zamonaviy usullar erishilayotgan natijalarning asosini tashkil etmoqda.

Jumladan, mustaqillik yillarida O'zbekiston Qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari tomonidan sohani rivojlantirish bilan bog'liq yaratilgan ilmiy natijalar sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tish joiz:

- qishloq xo'jaligida foydalaniladigan ekin maydonlari tuproq unumdorligi va yerdan foydalanish samaradorligi oshishini ta'minlaydigan va chorva mollarini parvarishlashning istiqbolli texnologiyalari ishlab chiqilgan;

- yangi dehqonchilik tizimiga mos, sohani modernizatsiyalashga asoslangan, tuproq unumdorligini oshiradigan va qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishni ta'minlaydigan qisqa navbatlab ekish tizimlari ishlab chiqilgan;

- g'o'zaning – 20, bug'doyning – 30, arpa va tretikalining – 10, makkajo'xorining – 5, sholining – 10, moyli ekinlarning – 10, mevali daraxtlarning – 25, uzumning – 10, ozuqabop ekinlarning – 10, kartoshka va sabzavotning – 40, poliz ekinlarining – 15 ta nav va duragaylari, qorako'l qo'ylarining 5 ta zavod tiplari, parrandalarning 5 ta krosslari yaratilgan;

- o'simliklarni himoya qilishning biologik va uyg'unlashgan usullari amaliyotga joriy etilgan;

- soha uchun yuqori unumli mexanizm va qurilmalarning 40 dan ortiq turlari hamda maket nusxalari yaratildi va ularning parametrlari asoslangan;

- mahalliy xomashyolar asosida tayyorlanadigan samarali, arzon veterinariya preparatlari va davolash-profilaktika usullari yaratilgan va h.k.

Shu bilan birgalikda dunyo olimlari tomonidan yaratilayotgan samarali ilmiy natijalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish yo‘nalishida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bugungi kunda vazirlik tizimidagi oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan FAO, ICARDA, CIP, CIMMIT, IAEA, IWMI, ICRISAT, Koreyaning KOICA, Yaponiyaning JAICA, Rossiyaning VIM, GOSNITI, Krasnodar va Saratov Qishloq xo‘jalik institutlari, Serbiyaning Noviy sad ilmiy-tadqiqot instituti, Pekin Qishloq xo‘jaligi akademiyasi kabi yana bir qator xalqaro markazlar, institutlar va tashkilotlar bilan manfaatli hamkorlik olib borilmoqda.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

**Tomchilatib sug‘orish** — qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishning o‘simliklar ildizi yonidagi zonaga kam miqdorda (tomchilatib) suv yetkazib beradigan usuli;

**Yomg‘irlatib sug‘orish** — qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishning tuproq va o‘simliklar yuza qismiga suv tabiiy yomg‘ir suvi bilan sug‘orishga imkon qadar yaqinlashtirilgan yomg‘irlatib sug‘orish orqali yetkazib beriladigan usuli;

**Keng qamrovli yomg‘irlatib sug‘orish tizimi** — keng maydonni qamrab oluvchi o‘zi yuruvchi agregatning aylanma yoki frontal harakatida suv yetkazib beriladigan yomg‘irlatib sug‘orish tizimi;

**«Sprinkler» tizimi** — statsionar kalta purkovchi uskunalar yordamida suv yetkazib beriladigan yomg‘irlatib sug‘orish tizimi; yerlarni lazer yordamida tekislagan holda diskret sug‘orish usuli — qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishning yerlarni dastlab lazer qurilmali tekislagich agregat yordamida tekislab suv egiluvchan sug‘orish quvurlari orqali tanaffus bilan yetkazib beradigan usuli.

## **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Koreya Respublikasida qishloq xo'jaligini raqamlashtirish qanday samara bergan?
2. Argentina davlatida qishloq xo'jaligini raqamlashtirish qanday samara bergan?
3. Qozog'istonda qishloq xo'jaligini raqamlashtirish qanday samara bergan?
4. Respublikamizda suvdan samarali va maqsadli foydalanish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
5. Mamlakatimizda suv tejavchi texnologiyalarning qanday turlaridan foydalanilmoqda?
6. Qishloq xo'jaligida qanday "Aqlli" texnik qurilmalardan foydalanib kelinmoqda?
7. "Qishloq xo'jaligi texnikalari konstruksiyasining xavfsizligi to'g'risida"gi Umumiy texnik reglamenti mohiyatini yoritib bering?
8. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qanday tartibi joriy qilinishi belgilangan?

## **19-BOB. MIKROMOLIYA**

- 19.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda mikromoliyalash.**
- 19.2. Mikromoliyaning farovonlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘siri.**
- 19.3. Mikrokreditlash xarajatlari va moliyaviy barqarorlik.**
- 19.4. Mikrokredit dasturlarini baholash va loyihalash.**

### **19.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda mikromoliyalash**

Mikromoliyalashtirish - mikrokredit deb ham ataladi - bu kichik biznes egalari va tadbirkorlarga kapitaldan foydalanish imkoniyatini beradi. Ko‘pincha bu kichik va yakka tartibdagi biznes yirik muassasalarning an‘anaviy moliyaviy manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Bu shuni anglatadiki, o‘z biznesini rivojlantirishga yordam beradigan kreditlar, sug‘urta va sarmoyalardan foydalanish qiyinroq.

Mikromoliyalashtirishning asosiy printsiplari:

1. Kambag‘allarga nafaqat kreditlar, balki turli xil moliyaviy xizmatlar kerak. Xuddi hamma kabi, kambag‘al odamlar qulay, moslashuvchan va maqbul narxdagi moliyaviy xizmatlarning keng doirasiga muhtoj. Ularning sharoitlariga ko‘ra, kambag‘al odamlar nafaqat kreditga, balki jamg‘armalarga, pul o‘tkazmalariga ham muhtoj.

2. Mikromoliyalashtirish qashshoqlikka qarshi kuchli vosita. Barqaror moliyaviy imkoniyatlardan foydalanish xizmatlar kambag‘allarga daromadlarini oshirish, aktivlarni yaratish va ularning zaifligini kamaytirishga imkon beradi. Mikromoliyalashtirish kambag‘al uy xo‘jaliklariga kundalik hayotdan rejalashtirishga o‘tishga imkon beradi.

3. Mikromoliyalashtirish - kambag‘allarga xizmat ko‘rsatadigan moliyaviy tizimlarni qurish demakdir. Kambag‘al odamlar aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining katta qismi. Shunga qaramay, ularning aksariyati kambag‘allar asosiy moliyaviy xizmatlardan foydalanishda davom etishmayapti. Ko‘pgina mamlakatlarda mikromoliyalashtirish davom etmoqda, marginal sektor sifatida qaralishi va birinchi navbatda donorlar, hukumatlar va ijtimoiy

mas'uliyatli investorlar. Ko'p sonli potentsialga erishish uchun kambag'al, mikromoliyalash moliya sektorining ajralmas qismiga aylanishi kerak.

4. Qashshoq odamlarning katta soniga erishish uchun moliyaviy barqarorlik zarur. Eng qashshoqlar kuchli chakana moliyaviy yetishmasligi sababli odamlar moliyaviy xizmatlardan foydalana olmaydilar. Moliyaviy jihatdan barqaror institutlarni yaratish o'z-o'zidan maqsad emas. Bu yagona donorlik agentliklari mablag'lari jalb qila olmaydigan darajada katta miqyosga va ta'sirga erishish usuli. Barqarorlik bu mikromoliyaviy ta'minotchining barcha xarajatlarini qoplash qobiliyatidir. Mikromoliya provayderi va kambag'allarga doimiy ravishda moliyaviy xizmatlar ko'rsatishga imkon beradi.

5. Mikromoliyalash doimiy mahalliy moliya institutlarini qurish bilan bog'liq. Moliyaviy qurilish kambag'allar uchun tizimlar - bu taqdim etishi mumkin bo'lgan ishonchli mahalliy moliyaviy vositachilarni yaratish kambag'al odamlarga doimiy ravishda moliyaviy xizmatlar. Bunday muassasalar ichki jamg'armalarni qayta ishlash, kredit berish va turli xil xizmatlarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Asosan, mikromoliyalashtirish kichik biznes egasi va tadbirkorga kreditlar, jamg'arma hisob varaqlariga, hatto sug'urta polisi va pul o'tkazmalariga kirishni ta'minlaydi. Rivojlanayotgan dunyoda bunday korxonalar juda ko'p.

Nobel mukofoti sovrindori Muhammad Yunus tomonidan asos solingan mikromoliyalashtirish, moliyaviy jihatdan cheklanganlarga biznesni boshlash va moliyaviy mustaqillikka erishish uchun zarur kapital bilan ta'minlash orqali yordam beradi. Biroq, ushbu mikrokreditlar uchun foiz stavkalari ko'pincha defolt xavfi tufayli juda yuqori.

Mikromoliyalash atamasi mikrokreditlar, mikrokassalar va mikro sug'urtalarni o'z ichiga oladi. Mikromoliyalash tashkilotlari kichik biznes subyektlari va tadbirkorlarga o'z bizneslarini yo'lga qo'yishda yordam berish uchun kichik kreditlar va boshqa manbalarni taqdim etadi. Qabul qiluvchilarning aksariyati rivojlanayotgan mamlakatlarda bo'lib, aks holda an'anaviy kredit ololmaydilar.

Mikro-jamg'arma hisobvaraqlari ham mikromoliyalash soyabonida. Ular tadbirkorlarga minimal qoldiqsiz omonat

hisobvarag'iga ega bo'lishlariga imkon beradi. Mikro sug'urtalash ushbu qarz oluvchilarga sug'urta, past stavka va kamroq mukofotlar bilan ta'minlaydi.

Ba'zan, mikro kredit olganlardan o'quv kurslarini o'tash talab etiladi. Ushbu kurslar buxgalteriya hisobi, pul oqimlarini boshqarish va boshqa tegishli ko'nikmalarni o'z ichiga oladi

Dunyo bo'ylab mobil telefonlar va simsiz Internetga kirish, shuningdek, mikromoliyalashtirishning keng tarqalishiga sabab bo'ldi, chunki potensial qarz oluvchilar o'zlarining mobil telefonlaridan bank kanallari sifatida foydalanishlari mumkin.

Mikromoliyalashtirish muhim ahamiyatga ega, chunki u cheklangan hisobvaraqlar, kredit liniyalari yoki an'anaviy banklardan kredit ololmaydiganlar kabi moliyaviy jihatdan kam ta'minlanganlarga resurslar va kapitaldan foydalanish imkoniyatini beradi.

Mikromoliyasiz ushbu guruhlar juda yuqori foizli stavkalar bilan kreditlar yoki ish haqi avanslarini ishlatishga yoki, hatto, oila va do'stlaridan pul qarz olishga majbur bo'lishlari mumkin. Mikromoliyalashtirish ularga o'z bizneslariga mablag' kiritishda yordam beradi va natijada o'zlariga mablag' sarflaydi.

Mikromoliyalash, albatta, ushbu davlatlarga foyda keltirishi mumkin bo'lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Masalan, Keniyada yashovchilarga mikro kredit berish kabi moliyaviy xizmatlarni taqdim etishning bir usuli sifatida uyali telefonlardan foydalanilmoqda.

Bu Qo'shma Shtatlarda ham muvaffaqiyatga erishdi, u yerda garovga ega bo'lmagan rivojlanayotgan tadbirkorlar o'z bizneslarini boshlash uchun 50 ming dollardan kam kredit olishga qodir.

Mikromoliyalash ham ayollarga qashshoqlik siklini yengishga yordam beradi. Ko'pincha, ushbu kreditlar 60 dollargacha bo'lishi mumkin. Masalan, Paragvaydan kelgan yosh yolg'iz ona, empanada va atıştırimaliklar stendini boshlash uchun 60 dollarlik kichik sarmoyani oldi. U o'z biznesini qurishda davom etdi, ushbu kreditni to'ladi va o'z stendiga bino sotib olish uchun katta miqdordagi kreditlar oldi, muzlatgich bilan jihozlangan va oilasi uchun uy bilan birlashtirilgan. Bu eng yaxshi mikromoliyalashtirish.

Darhaqiqat, ayollar mikromoliyalashtirishning asosiy qarzdorlari bo'lib, 2019 – yilgi mikromoliyalash barometriga ko'ra, 2018 – yilda

kreditlarning 80 foizini tashkil etadi. Qarz oluvchilarning 65 foizga yaqini qishloqlarda yashaydi, demak, mikromoliyalashtiruvchi ko‘plab ayol qarzdorlar qishloq joylarida cheklangan resurslarga ega.

Mikromoliyalash sohasi ham jadal rivojlanmoqda. 2018 – yilda 139,9 million mikromoliyaviy qarz oluvchilar, jami 124 milliard dollarlik kreditlar mavjud edi. Ushbu qarzlarning katta qismi Hindistonga, Bangladesh va Vetnamga to‘g‘ri keladi

Ba‘zilar mikromoliyalashtirishni qashshoqlik siklini tugatish, ishsizlikni kamaytirish, ish haqini ko‘paytirish va moddiy jihatdan cheklanganlarga yordam berishning bir usuli deb maqtashgan bo‘lsa-da, ba‘zi ekspertlar, bu kerakli darajada ishlamasligi hatto buni aytishga qadar davom etish mumkin degan fikrni bildirgan.

Boshqalar ta‘kidlashlaricha, mikromoliyalash shunchaki qashshoqlikni yanada kuchaytiradi, chunki ko‘plab qarz oluvchilar mikro kreditlardan asosiy ehtiyojlar uchun to‘laydilar yoki ularning bizneslari muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, bu esa ularni qarzga botiradi.

Masalan, Janubiy Afrikada barcha mikromoliyaviy kreditlarning 94% iste‘mol uchun sarflanadi, ya‘ni mablag‘lar eng zarur ehtiyojlar uchun to‘lanadi. Bu shuni anglatadiki, qarz oluvchilar dastlabki kredit bilan yangi daromad keltirmaydilar, demak, ular ushbu qarzni to‘lash uchun boshqa kredit olishlari kerak va hokazo va hokazo. Bu juda ko‘p qarzga aylanadi

Ammo boshqa mutaxassislarining ta‘kidlashicha, mikromoliyalashtirish to‘g‘ri ishlatilganda moliyaviy jihatdan kam ta‘minlanganlar uchun qimmatli vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ular, shuningdek, ushbu sohaning samaradorligini isbotlash uchun sanoatning yuqori to‘lov stavkasini keltirmoqdalar.

## **19.2. Mikromoliyaning farovonlikka to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘siri**

Qishloq ayollari, kam ta‘minlangan uy xo‘jaliklari va ko‘pincha ular boshqaradigan kichik biznes Osiyo va Tinch okeanida ko‘pincha moliyaviy ochlikdan aziyat chekmoqda. Ko‘pgina rasmiy moliya institutlari ularni katta xavf va yuqori narx deb bilishadi, chunki operatsiyalar ko‘pincha kichik va mijozlar yetib borish qiyin bo‘lgan joylarda.

Mikromoliyalash ushbu to‘siqlarni buzishi mumkin. Bu kam daromadli uy xo‘jaliklariga daromadlar oqimini barqarorlashtirishga va kelajakdagi ehtiyojlar uchun mablag‘ to‘plashga yordam beradi. Yaxshi paytlarda mikromoliyalashtirish oilalar va kichik korxonalarining rivojlanishiga yordam beradi, inqirozli vaziyatlarda esa ularni yengish va tiklashga yordam beradi.

OTB mintaqadagi kambag‘al jamoalar uchun moliyaviy sharoitlarni tenglashtirish uchun mikromoliyalashtirish imkoniyatlaridan foydalanishning oltita usuli:

### **1. Kam daromadli qarz oluvchilar uchun mablag‘larni ta‘minlash uchun mikromoliya tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash.**

Osiyo va Tinch okeani bo‘ylab mikromoliya tashkilotlari (MFI) qarz oluvchilarga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish uchun tijorat mablag‘larini olish uchun kurashmoqdalar. OTB xalqaro va mahalliy moliya institutlari bilan mikromoliyalashtirish tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlashda hamkorlik qiladi. OTBning Mikromoliyalashtirish xavfida ishtirok etish va kafolatlash dasturi mikromoliyalashtirish sektoriga mahalliy valyutada kredit berishni osonlashtiradi. 2010 – yildan beri dastur Bangladesh, Kamboja, Hindiston, Indoneziya va Myanmadagi olti milliondan ziyod qarz oluvchilarga mikromoliyaviy xizmat ko‘rsatgan 35 ta MMTga yordam berdi. Osiyo taraqqiyot bankining COVID-19 pandemiyasini bartaraf etish va tiklash choralarining bir qismi sifatida, qiyin sharoitlarda mikromoliyalashni qo‘llab-quvvatlashga yordam beradigan dastur hajmi oshirildi.

### **2. Mikro, kichik va o‘rta korxonalarini moliyalashtirish orqali ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish.**

Ko‘pgina mikro, kichik va o‘rta korxonalar (KO‘Klar) ayollar tomonidan boshqariladi, shuning uchun ularga yaxshi moliyaviy imkoniyatlar berish ayollarning turmush darajasi va daromadlarini yaxshilaydi. Pokistonda MSME barcha korxonalarining 90% dan ortig‘ini tashkil etadi. OTB mamlakatdagi yetakchi mikromoliyaviy xizmat ko‘rsatuvchi provayderlardan biri bilan, ayniqsa, qarz oluvchi ayollar uchun kredit operatsiyalarini kengaytirish uchun hamkorlik qiladi. Yordam Pokiston ayollari va ayollar boshchiligidagi KO‘Klar o‘zlarining yashash sharoitlari va daromadlarini rivojlantirish uchun juda zarur bo‘lgan uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatini beradi.



### **3. Qishloq ayollari uchun ta'lim va moliyaviy imkoniyatlarni taqdim etish.**

Mikromoliyalash xizmatlari qishloq ayollariga moliyaviy mustaqillikka erishishda yordam beradi va ularga yaxshi qarorlar qabul qilish huquqini beradi. Xitoy Xalq Respublikasida (XXR), qishloq aholisining 45 foizga yaqini kredit olish imkoniyatidan mahrum, ayniqsa, odatda na jismoniy garovga ega, na o'z mablag'larini tashkil qilish uchun zarur ma'lumotga ega bo'lmagan ayollar. OTBning CD Finance Management (ilgari CFPA Microminance Management deb nomlangan) bilan hamkorligi kambag'al qishloq uy xo'jaliklariga mikrokreditlar berib, kamida 121000 nafar qarz oluvchi ayollarga yo'naltirilgan bo'lib, ularning moliyaviy rejalashtirish ko'nikmalari va savodxonligini oshirish choralari o'z ichiga oladi.

### **4. Mojarodan keyingi jamoalarni tiklash va ayollarning turmushini tiklashga yordam berish.**

Jamiyatni qurolli to'qnashuvlar va doimiy mintaqaviy iqtisodiy nomutanosibliklar buzganida, ayollar ko'pincha jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Filippinlarning markaziy va janubiy hududlari bo'lgan Visayas va Mindanaoning ayrim qismlarida o'n yillab davom etgan iqtisodiy o'sish va ziddiyatlar rivojlanishni to'xtatib qo'ydi va daromad darajasini milliy o'rtacha ko'rsatkichdan past darajaga tushirdi. OTB mamlakatning eng yirik mikromoliyaviy ta'minotchilaridan biri – "ASA Foundation Philippines Inc."ni moliyalashtirmoqda, u ushbu qiyin mintaqalardagi mikro-korxonalar egalariga ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish va ularning iqtisodiy bazasini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu loyiha orqali ayollar o'zlarining yashash sharoitlarini yaxshilashga va o'z jamiyatlarini tiklashda yordam berishga imkon berib, kredit olish imkoniyatini yaxshilaydilar. Moliyalashtirish COVID-19 pandemiyasi davrida chiqarilgan bo'lib, ushbu mo'rt mintaqalarda og'ir iqtisodiy muammolarga duch kelgan ayollarga qarz berish uchun juda muhim davrda ASA resurslarini kuchaytirdi.

### **5. Poytaxt shaharlaridan tashqarida biznes va tirikchilikda yordam berish uchun mikromoliyalashtirishdan foydalanish.**

Mintaqaviy shaharlardagi kichik korxonalar o'z faoliyatini davom ettirish, texnologiyalarga sarmoya kiritish va biznesni rivojlantirishga yordam beradigan moliyaviy manbalarga muhtoj. Gurjistonda

odamlarning 60% dan ortig'i ikkilamchi shaharlarda va qishloq joylarda yashaydilar, u yerda kichik biznes va qishloq xo'jaligi ta'minoti ish joylarini yaratishi va daromadlarini oshirishi mumkin. OTB Gruziyadagi birinchi navbatda Tbilisidan tashqarida biznesni rivojlantirishga yordam berish uchun mikromoliyaviy xizmatlarni ko'rsatadigan banklarni qo'llab-quvvatlaydi.

#### **6. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga yordam beradigan kichik biznesni tarbiyalash.**

Mo'g'ulistonda tabiiy resurslar yalpi ichki mahsulotning 20 foizini va eksport daromadining 80 foizini tashkil etadi. Hali ham MSMElar mamlakatdagi ro'yxatdan o'tgan korxonalarining 90 foizini tashkil qiladi va barcha ish o'rinlarining yarmini tashkil qiladi. Ushbu biznesni kengaytirishga yordam berish uchun OTB MSMEni moliyalashtirish bo'yicha Mo'g'ulistonning yetakchisi XacBankni uzoq muddatli barqaror moliyaviy ko'mak bilan ta'minlaydi. Ko'proq moliyalashtirish biznes va yangi ish o'rinlari uchun o'sish imkoniyatlarini yaratishga yordam beradi, tog'-kon sanoatidan tashqari Mo'g'uliston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish bo'yicha harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

#### **19.3. Mikroreditlash xarajatlari va moliyaviy barqarorlik.**

Mikromoliyalash mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan oshmaydigan summada mikroredit, mikroqarz, mikroleasing berish, shuningdek, mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa xizmatlar ko'rsatish borasidagi faoliyatidir.

Mikroredit qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun 300 million so'mdan oshmaydigan summada to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'laridir. Mikroredit qarz oluvchiga pul mablag'larini shartnomaga muvofiq muayyan maqsadlar uchun ishlatish shartlari asosida (maqsadli mikroredit) berilishi mumkin. Mikroqarz banklar va mikroredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxs bo'lgan qarz oluvchiga 50 million so'mdan oshmaydigan summada to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'laridir.

Mikrolizing mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan lizing oluvchining topshirig'iga binoan uchinchi tarafdin mol-mulk olish hamda uni egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga shartnomada belgilangan shartlar asosida haq evaziga berish nazarda tutiladigan xizmatdir. Mikrolizing tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun lizing to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq 600 million so'mdan oshmaydigan summada beriladi.

Banklar, mikro kredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlardir. Mikromoliyaviy xizmatlar mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish qoidalariga muvofiq ko'rsatiladi.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish qoidalari barchaning tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lishi va bu qoidalarda quyidagilar bo'lishi kerak:

- mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish shartlari;
- mikromoliyaviy xizmatlarning miqdori, muddatlari, to'lovi va to'liq qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish shartnomalari bo'yicha yillik qarz miqdorining yarmidan ko'pini tashkil etadigan summada foizlar hisoblash, vositachilik haqlari va (jarima) undirish, javobgarlikning boshqa choralari qo'llash taqiqlanadi.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar o'z mablag'lari, shu jumladan, olgan daromadlari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatadi.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish qoidalariga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslar mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotga mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish uchun buyurtma (bundan buyon matnda buyurtma deb yuritiladi) hamda o'z faoliyati va daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan boshqa hujjatlar taqdim etadi.

Buyurtmada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

- yuridik shaxs uchun — uning to'liq nomi, joylashgan yeri (pochta manzili), soliq to'lovchining identifikatsiya raqami va bank rekvizitlari;

- jismoniy shaxs uchun — uning familiyasi, ismi, otasining ismi, pasporti (yoki pasport o'rni bosuvchi boshqa hujjati) seriyasi va

raqami, doimiy yashash joyining manzili, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkor uchun — qo‘shimcha ravishda soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami va bank rekvizitlari;

- mikromoliyaviy xizmatlarning summasi, turi, maqsadi, bunday xizmatlar ko‘rsatish muddatlari va obykti;

- buyurtma beruvchining faoliyat turi va daromadlari.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilot buyurtmani olganidan so‘ng uch ish kuni ichida uni ko‘rib chiqishi va mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risida yoki mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatishni asoslantirilgan holda rad etish haqida qaror qabul qilishi shart.

Buyurtma mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilot tomonidan ko‘rib chiqilayotganda quyidagilarning tahlili amalga oshiriladi:

- buyurtma beruvchining daromadlari yetarliligini aniqlash;

- buyurtmada bayon etilgan ma‘lumotlarning bir-biriga zid bo‘lmasligi;

- mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilot oldidagi majburiyatlarni buyurtma beruvchi tomonidan o‘z vaqtida bajarish imkoniyatining mavjudligi.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish asoslantirilgan holda rad etilgan taqdirda, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilot buyurtma beruvchiga bu haqda yozma shaklda ma‘lum qilishi shart.

Buyurtmani ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilot va qarz oluvchi o‘rtasida shartnoma tuziladi.

Shartnomada quyidagilar nazarda tutilgan bo‘lishi kerak:

- mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotning tashkiliy-huquqiy shakli ko‘rsatilgan to‘liq nomi, joylashgan yeri (pochta manzili), soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami va bank rekvizitlari;

- jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, pasporti (yoki pasport o‘rnini bosuvchi hujjati) seriyasi va raqami, doimiy yashash joyi manzili (yakka tartibdagi tadbirkor uchun qo‘shimcha ravishda soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami va bank rekvizitlari ko‘rsatiladi) yoki yuridik shaxsning to‘liq nomi, joylashgan yeri

(pochta manzili), soliq to'lovchining identifikatsiya raqami va bank rekvizitlari;

- mikromoliyaviy xizmatning umumiy summasi, maqsadi va obyekti;

- foizlar yoki lizing to'lovlari miqdori;

- mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish shartnomalari bo'yicha yillik qarz miqdorining yarmidan ko'pini tashkil etadigan summada foizlar hisoblashni, vositachilik haqlari va (jarima) undirishni, javobgarlikning boshqa choralari qo'llashni taqiqlash sharti;

- mikromoliyaviy xizmat ko'rsatish, mikromoliyaviy xizmat bo'yicha asosiy qarzni qaytarish, shuningdek, foizlar va lizing to'lovlarini to'lash tartibi va muddatlari;

- taraflarning huquq va majburiyatlari;

- shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligi;

- shartnomaning amal qilish muddati;

- shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi.

Shartnoma shartlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, taraflarning kelishuviga binoan o'zgartirilishi mumkin.

Qarz oluvchi foydalanilmagan mikromoliyaviy xizmat summasidan voz kechish haqida mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotni shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran ikki hafta ichida yozma ravishda xabardor etish orqali mazkur summadan voz kechishga haqli.

Qarz oluvchi ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatdan shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran bir oy ichida foydalanmagan taqdirda, mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot shartnomani bekor qilish haqida qarz oluvchini yozma ravishda xabardor etish orqali shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli.

Qarz oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

- mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish qoidalari bilan tanishib chiqish;

- o'z huquq va majburiyatlari to'g'risida, shu jumladan mikromoliyaviy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to'liq axborot olish;

- shartnoma shartlarining shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda bajarilishini talab qilish;

- shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplashni talab qilish.

Qarz oluvchi:

- mikromoliyaviy xizmatdan foydalanish va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etishi;

- olingan maqsadli mikrocreditdan shartnomaga muvofiq belgilangan maqsadda foydalanishi;

- majburiyatlarni shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda bajarishi shart.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

- shartnomaga muvofiq majburiyatlarning qarz oluvchi tomonidan bajarilishini ta'minlash sharti asosida yoki shunday shartsiz mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish;

- buyurtma beruvchiga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishni asoslantirilgan holda rad etish;

- mikromoliyaviy xizmat ko'rsatish va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni buyurtma beruvchidan so'rab olish;

- to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmagan yoxud maqsadli mikrocreditdan belgilangan maqsadda foydalanilmagan taqdirda, majburiyatlarning qarz oluvchi tomonidan muddatidan ilgari bajarilishini talab qilish.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot:

- buyurtma beruvchining huquq va majburiyatlari to'g'risida, shu jumladan, mikromoliyaviy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida buyurtma beruvchiga ishonchli hamda to'liq axborotni ma'lum qilishi;

- shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishi;

- shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararlarning o'rnini qarz oluvchiga qoplashi shart.

Qarz oluvchi tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi:

- bank yoki sug'urta tashkilotining kafolati;
- uchinchi shaxslarning kafilligi;
- mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi, shu jumladan, garov depoziti, banklarning omonat sertifikatlari hamda qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ta'minlanadi.

Qarz oluvchining daromadlari hajmi, shuningdek, shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishining qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ta'minoti olingan mikromoliyaviy xizmat summasini qaytarish va mazkur xizmat bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lash uchun yetarli bo'lishi kerak.

Qarz oluvchi olingan mikro kredit, mikroqarz summasini muddatidan ilgari qaytarishga yoki mikrolizing obyektining qiymatini muddatidan ilgari to'lashga, shuningdek, ulardan foydalanilgan muddat uchun hisoblangan foizlarni (lizing beruvchining foizli daromadini) to'lashga haqli.

Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, kafolat beruvchi yoki kafil qarzni qaytarish muddati tugagach, mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotning birinchi talabiga binoan shartnomaga muvofiq qarz oluvchining qarzini to'lashi shart.

#### **19.4. Mikro kredit dasturlarini baholash va loyihalash.**

Mikro kreditlar konsepsiyasi rivojlanmagan mamlakatlarda an'anaviy bank va pul tizimlaridan tashqarida yashovchi malakali odamlar kichik kredit yordamida iqtisodiyotga kira olishlari mumkin degan g'oyaga asoslangan edi. Bunday mikro kreditlar beriladigan odamlar haqiqiy valyuta almashinmaydigan barter tizimida yashashlari mumkin.

Zamonaviy mikro kredit odatda iqtisodchi Muhammad Yunus tomonidan ishlab chiqilgan Grameen Bank modeliga tegishli. Ushbu tizim 1976 – yilda Bangladeshda boshlangan, bir guruh ayollar o'zlarining kichik bizneslarini moliyalashtirish uchun 27 dollar qarz olishgan. Ayollar kreditni to'lashdi va biznesni davom ettirishga muvaffaq bo'lishdi.

Mikrokredit “juda kambag‘al odamlarga o‘zlari va oilalari haqida g‘amxo‘rlik qilishlariga imkon beradigan, o‘zlarini ish bilan ta‘minlash loyihalari uchun kichik kreditlar beradigan dasturlardan’ iborat.

Muhammad Yunus konsepsiyani ishlab chiqishda va “mikrokreditni ijtimoiy mas‘uliyatli va hayotga layoqatli biznes modeliga aylantirishda” xizmat qilmoqda. Yunus Bangladeshning qishloq joylarida guvoh bo‘lgan o‘ta qashshoqlikka qarshi kurashish maqsadida 1983 – yilda Grameen Bankini tashkil etdi. Gramin banki faqat kambag‘allarga kredit berishga e‘tibor qaratdi, ular ilgari ushbu guruhga kredit olish huquqidan mahrum bo‘lgan edilar, chunki ular “yuqori xavfli qarz oluvchilar deb hisoblanar edi, chunki ular defolt ehtimoli yuqori”. 80 dollar atrofida qarzlarni odamlarga daromad olish uchun berildi. Har qanday garov yoki shartnomalarni talab qilmasdan, faoliyat va uy-joylarni yaratish. Buning o‘rniga, bank har bir shaxsning moliyaviy mas‘uliyat bilan harakat qilishini ta‘minlash uchun tengdoshlar guruhining bosim shaklidan foydalangan. Har bir qarz oluvchidan jamiyatdagi boshqa odamlar bilan birgalikda besh kishilik guruhning bir qismi bo‘lishi kerak edi, ular ham kredit olishni xohlashdi. Ushbu qarz oluvchi guruhlar ijtimoiy kapital g‘oyasi va ushbu kambag‘al jamoalarning har birida odamlarning qarzlarni to‘lashga undaydigan muayyan aloqalar, tarmoqlar va xulq-atvor usullari bo‘lgan degan tushunchadan foydalanadilar. Kreditlar ketma-ketlikda berildi va odatda haftalik yoki ikki haftalik jadvalda qaytarildi. Bankning barqarorligini ta‘minlashda foiz stavkalari iloji boricha past darajada ushlab turildi. 2006 – yilda Yunus va Gramin banki mikrokreditlar bilan ish olib borganligi uchun Nobel mukofotiga sazovor bo‘lishdi.

Bugungi kunda dunyoda 16000 dan ortiq qarz oluvchilarga qariyb 2,5 milliard dollar qarz beradigan 7000 dan ortiq mikromoliya tashkilotlari mavjud. Ushbu muassasalarning 1200 ga yaqini faqat Bangladeshda ishlaydi. Gramin banki, BRAC, ASA va Prosaic to‘tta yirik mikromoliyaviy kreditorlar bo‘lib, ular mamlakatdagi qarz oluvchilarning 90 foiziga xizmat ko‘rsatadilar. Grameen banking hozirda Bangladeshda 1500 dan ortiq filiallari mavjud va 52000 dan ortiq qishloqlarda olti million qarz oluvchiga qarz beradi.



Bangladeshda mikro kredit olgan ayollarda, o'z navbatida, sotadigan bambuk najasni tayyorlash uchun zarur bo'lgan materiallarni sotib olish uchun mablag' yo'q edi va shu bilan birga har bir qarz oluvchi o'z-o'zidan qarz berish uchun juda xavfli edi. Guruh sifatida qarz olish orqali dastlabki moliyalashtirish ularga daromad keltirganda kredit vaqt o'tishi bilan to'lanishini tushunib, ishlab chiqarishni boshlash uchun resurslarni berdi.

Mikro kreditlar 10 dan 100 dollargacha bo'lishi mumkin va kamdan-kam hollarda 2000 dollardan oshadi.

Mikro kreditlar tuzilmasi an'anaviy banklardan farq qiladi, bunda garov ta'minoti talab qilinishi mumkin yoki qaytarib berishni kafolatlash uchun boshqa shartlar belgilanadi. Hech qanday yozma kelishuv bo'lmasligi mumkin.

Ba'zi hollarda, mikro kredit qarz oluvchi hamjamiyati a'zolari bilan tuzilgan bitim bilan kafolatlangan bo'lib, ular qarzdorni qarzni to'lash bo'yicha ishlashga majbur qilishi kutilmoqda. Qarz oluvchilar o'zlarining mikro kreditlarini muvaffaqiyatli to'lashlari bilan, ular katta va katta miqdordagi kreditlarga ega bo'lishlari mumkin.

Oddiy kreditorlar singari, mikro-moliyachilar ham kreditlar uchun foizlar olishlari kerak va ular belgilangan muddatlarda to'lanadigan to'lovlar bilan to'lashning aniq rejalarini belgilaydilar. Ba'zi qarz beruvchilar kredit oluvchilardan o'zlarining daromadlarining bir qismini omonat hisobvarag'ida saqlashlarini talab qilishadi, agar mijoz majburiyatlarini bajarmagan bo'lsa, bu sug'urta sifatida ishlatilishi mumkin. Agar qarz oluvchi kreditni muvaffaqiyatli qaytarsa, demak ular shunchaki qo'shimcha mablag'larni yig'ib oldilar.

Ko'plab ariza beruvchilar garov ta'minlay olmasliklari sababli, mikro kreditlar ko'pincha qarz oluvchilarni bufer sifatida to'plashadi. Kredit olgandan so'ng, oluvchilar qarzlarini birgalikda to'laydilar. Dasturning muvaffaqiyati har kimning hissasiga bog'liq bo'lgani uchun bu to'lovni ta'minlashga yordam beradigan tengdoshlarning bosimini shakllantiradi.

Masalan, agar biror kishi o'z pulini biznesni boshlash uchun ishlatishda muammolarga duch kelsa, u kishi boshqa guruh a'zolaridan yoki kredit bo'yicha mutaxassisdan yordam so'rashi mumkin. To'lov orqali kredit oluvchilar kelajakda katta miqdordagi kreditlar olishlariga imkon beradigan yaxshi kredit tarixini rivojlantira boshlaydilar.

Qizig'i shundaki, ushbu qarz oluvchilar ko'pincha juda kambag'al deb tan olinsa ham, mikrokreditlar bo'yicha to'lovlar miqdori odatda an'anaviy moliyalashtirish shakllari bo'yicha o'rtacha to'lov stavkasidan yuqori. Masalan, "Opportunity International" mikromoliya tashkiloti 2016 – yilda qarzni to'lash darajasi taxminan 98,9 foizni tashkil etganligini xabar qildi.

Mikrokreditlar va uni suiste'mol qilish usullari haqida tanqidlar bo'lgan. Masalan, Janubiy Afrikada ba'zi kambag'al jamoalarda odamlarni o'zini o'zi ish bilan ta'minlashga undash uchun mikrokreditlar berildi. Biroq uni joriy etish usuli, ayrim hollarda, har qanday biznes yoki ish faoliyatining shakllanishini yoki rivojlanishini emas, balki iste'mol xarajatlari orqali sarflanadigan mablag'larni keltirib chiqardi.

Shuningdek, qarz oluvchilar, hatto mikrokreditlar orqali beriladigan kichik hajmdagi kreditlar bilan ham, o'zlari to'lay olmaydigan qarzdorlik bilan duch kelishlari mumkin. Muammo shundaki, qarz oluvchilar doimiy daromad manbayiga ega bo'lmasligi mumkin yoki ular mikrokreditni o'zlari uchun moliyalashtirishni to'lashga imkon beradigan daromad manbayi yaratishda foydalanishni rejalashtirishmoqda. Natijada, ba'zi qarz oluvchilar shaxsiy mulklarini sotish va avvalgi mikrokreditlarini qoplash uchun yangi moliya izlashga murojaat qilishdi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

**Mikromoliyalash** – mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan oshmaydigan summada mikrokredit, mikroqarz, mikrolozing berish, shuningdek, mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa xizmatlar ko'rsatish borasidagi faoliyatidir.

**Mikrokredit** – qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun 300 million so'mdan oshmaydigan summada to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'laridir.

**Mikroqarz** – banklar va mikrokredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxs bo'lgan qarz oluvchiga 50 million so'mdan

oshmaydigan summada to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'laridir.

**Mikrolizing** – mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan lizing oluvchining topshirig'iga binoan uchinchi tarafdin mol-mulk olish hamda uni egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga shartnomada belgilangan shartlar asosida haq evaziga berish nazarda tutiladigan xizmatdir.

**Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar** – banklar, mikro kredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Mikromoliyalash nima va uning iqtisodiy ahamiyati qanday?
2. Mikromoliyalash o'z ichiga qanday turdagi moliyaviy xizmatlarni oladi?
3. Mikro kredit nima va uning qanday shartlari mavjud?
4. Mikroqarzning berilish shartlarini izohlang.
5. Mikrolizingning lizing munosabatlaridan farqli jihatlarini ko'rsating.
6. Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar tarkibiga qanday moliyaviy muassasalar kiradi?
7. Mikromoliyalashning rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'rni qanday?
8. Mikro kreditlash dasturlari nima?
9. Mikro kreditlash loyihalari nimani anglatadi?
10. Mikromoliyalashning iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri qanday?

## **20-BOB. JAMOAT SALOMATLIGI, SOG‘LIQNI SAQLASH**

**20.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sog‘liqni saqlash va sog‘liqni saqlash sohasidagi siyosat.**

**20.2. Sog‘liqni saqlash sohasidagi siyosatning keng imkoniyatlari.**

**20.3. Sog‘liqni saqlash tizimidan foydalanish imkoniyatlari.**

**20.4. Uy xo‘jaliklarining sog‘liq uchun sarf-xarajatlarni sotib olishlari.**

**20.5. Tibbiy sug‘urta, tibbiy xizmat sifati va samaradorligi**

### **20.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sog‘liqni saqlash va sog‘liqni saqlash sohasidagi siyosat**

Koreya Respublikasi Shimoliy Koreya, Yaponiya va Xitoy bilan chegaradosh davlat hisoblanadi. Janubiy Koreyaning poytaxti Seul shaxri bo‘lib, 14 million aholisi bor. Janubiy Koreya 9 ta provinsiyaga bo‘lingan bo‘lib, 6 ta yirik shaxarlari asosiy shaharlar hisoblanadi: Pusan, Tegu, Inchon, Kvanju, Tejon va Ulsan. Hozirgi kunda Janubiy Koreya davlati tibbiy turizm rivojlangan 10 ta davlatlar qatoridan joy olgan. Janubiy Koreyadagi qariyb barcha klinikalar va tibbiyot muassasalari eng so‘nggi tibbiy asbob uskunalari bilan jihozlangan, shu bilan birga bu klinikalar xalqaro akkreditatsiya sertifikatlariga ega. SHuning uchun Janubiy Koreya tibbiyot bo‘yicha yetakchi davlatlardan biridir.

Janubiy Koreyadagi birinchi shifoxonalar amerikaliklar ko‘magida ochilgani uchun ham, bu davlatning sog‘liqni saqlash tizimi ham amerika sog‘liqni saqlash tizimiga juda o‘xshaydi. Koreyada sog‘liqni saqlash tizimi tibbiy sug‘urtaga asoslangan. Tibbiy sug‘urtaning 3 ta turi bor:

1. Davlat sug‘urta dasturi;
2. Xayriya sug‘urta dasturi;
3. Oldindan va uzoq muddatga sug‘urtalash dasturi.

Koreyaning hamma fuqarolari davlat sug‘urta dasturida ishtirok etadilar. Bu sug‘urta turi bilan aholining 95-96% qismi qamrab olingan. Xayriya sug‘urta dasturida esa aholining 3-4% qismi bo‘lib,

asosan, kam taminlangan va ishsizlardan tashkil topgan. Tibbiy sugʻurta uchun ishlayotgan fuqaroning yillik yoki oylik maoshidan 5,08% qismi tibbiy sugʻurta uchun ushlab qolinadi.<sup>118</sup>

Globalizatsiya davri yangi texnologiyalar sohasida, dunyo miqyosidagi savdo va sarmoya harakatini rivojlantirishda katta ijobiy oʻzgarishlarni amalga oshirish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratdi. Bugun dunyoning qaysi mamlakatida yashayotgan boʻlmasin, har bir insonda oʻz ota-onasidan koʻra farovonroq, sogʻlomroq va bilimlir oq boʻlish umidi bor. Butun dunyoda umumiy boshlangʻich taʼlim, chaqaloqlar va bolalar oʻlimini kamaytirish borasidagi muammolar muvaffaqiyat bilan hal etilmoqda. Odamlarning umri uzaymoqda.

Mamlakatda sogʻliqni saqlashning u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy tizimining mavjudligi quyidagilarga bogʻliq:

- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning umumiy darajasi;
- aholi salomatligini muhofazalashga qaratilgan davlatning ijtimoiy siyosati;
- tarixiy va milliy anʼanalar, qadriyatlar.

Jahonning turli davlatlarida turlicha tarixiy va milliy urf-odatlar, anʼanalar, qadriyatlar mavjudligiga qaramasdan, sogʻliqni saqlashning 5 ta turgʻun modeli mavjud. Ushbu modellar bir-biridan quyidagilar boʻyicha prinsipial jihatdan farq qiladi: birinchidan<sup>119</sup>, davlatning ishtiroki darajasi; ikkinchidan tibbiy xizmatning xususiylashtirilganlik shakllari; uchinchidan, davlat dasturi boʻyicha aholi qatlamining qamrab olinganlik darajasi; toʻrtinchidan, sogʻliqni saqlashni moliyalashtirish manbalari.

Evolyusion taraqqiyot nuqtayi nazaridan sogʻliqni saqlashning quyidagi modellari farqlanadi<sup>120</sup>:

- davlat tomonidan boshqarilmaydigan xususiy sogʻliqni saqlash modeli;

---

<sup>118</sup> <http://tmatm.uz/site/wp-content/uploads/2015/09/II-or-rivozhlangan-horizhij-davlatlar-so-li-ni-sa-lash-tizimi-bujicha-horizhij-tazhriba.pdf>

<sup>119</sup> База данных ВОЗ. – Режим доступа: [http:// data.euro.who.int/hfad](http://data.euro.who.int/hfad). – Дата доступа: 16.12.2013

<sup>120</sup> Dadaxodjaeva M.E. Xorijiy davlatlarda sogʻliqni saqlashni boshqarishning turli modellariga tavsif va xalqaro amaliyot // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 yil.1-8 bet.

[http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/44\\_Dadaxodjayeva.pdf](http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/44_Dadaxodjayeva.pdf)

- aholining ayrim qatlamlari majburiy tibbiy sug'urta dasturining davlat tomonidan boshqariladigan xususiy sog'liqni saqlash modeli;
- barcha aholi majburiy tibbiy sug'urta dasturining davlat tomonidan boshqariladigan xususiy sog'liqni saqlash modeli;
- monopollashtirilgan davlat sog'liqni saqlash modeli;
- umumdavlat tibbiy sug'urta tizimiga asoslangan, davlat sog'liqni saqlash modeli.

Davlat tomonidan boshqarilmaydigan xususiy sog'liqni saqlash modeli oddiy ehtiyojlar bozori qonuniyatlariga asoslangan. Tibbiy yordamning hajmi to'lash imkoniyatiga ega bo'lgan talab va takliflar orqali shakllanadi. Kam ta'minlangan aholi qatlami malakali tibbiy yordam olamaydi. Bunday modelda davlat tomonidan aholining o'rtahol aholi qatlami qo'llab-quvvatlanmaydi. Tibbiy xizmatlar mustaqil xususiy tibbiyot amaliyoti bilan shug'ullanuvchi vrachlar tomonidan ko'rsatiladi. Davlat jamoat joylarida epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazish va eng minimal hajmdagi sanitariya sharoitlarini ta'minlash bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, davlat jamiyatga zarar keltiruvchi bemorlarni (yuqumli, ruhiy va boshqalar) davolash va izolyasiya qilish ishlarini amalga oshiradi. Xususiy sog'liqni saqlash tizimi tibbiy xizmatga talabgor shaxslarga ular tomonidan tegishli haq to'langanidan so'ng tibbiy yordam ko'rsatadi. Ularga quyidagi belgilar xos:

- tibbiy yordamni asosiy moliyalash manbasi fuqarolarning shaxsiy mablag'lari hisoblanadi;
- tibbiy xizmatga narx belgilanadi;
- vrach erkin tanlanadi;
- vrachlarning daromadi juda yuqori.

Rivojlangan mamlakatlarda ushbu model XIX asrning oxirlarigacha mavjud bo'lgan. Yuqoridagi model Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlarida mavjud<sup>121</sup>.

Aholi ayrim qatlamlarini majburiy tibbiy sug'urtalash dasturining davlat tomonidan boshqariladigan xususiy sog'liqni saqlash modeli. Sog'liqni saqlashning bu modeli kapitalizm endi boshlangan davrda yuzaga keldi. Uning yuzaga kelishi kompleks davolash uchun vrachlarning jamoa bo'lib ishlashini talab qilgan, murakkab tibbiy

<sup>121</sup> Вялков А.И. Теоретическое обоснование и разработка основ региональной политики в здравоохранении // Автореф. дисс. ... докт. мед.наук. – Москва, 1999. – 21с

texnologiyalar (jarrohlik, narkoz, rentgen va b.) rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Tibbiyot xodimlarining tor soha mutaxassisleri paydo bo‘la boshladi, xususiy shifoxonalar va gospitallar rivojlana boshladi. Bu ishlarning hammasi ko‘pchilik aholi oldiga davolanish uchun ketadigan xarajatlarni qoplash muammosini qo‘ydi<sup>122</sup>.

Muammoni hal qilish yo‘llaridan biri o‘zaro yordam kassasi, shifoxona kassasi va xususiy tibbiy sug‘urtani yaratish bo‘ldi. Sug‘urta kompaniyalari jamiyat birdamligi prinsipini ishlata boshladi, unda boylar – kambag‘allarga, yoshlar – qariyalarga, sog‘lom odamlar – kasallarga to‘laydi. Bu katta kapitalga ega bo‘lmagan, faqat ish haqiga yashaydiganlar uchun qulay. Sug‘urta ishi 10 yil davomida saqlanib keldi. Sug‘urtachilar (ish beruvchi, xususiy shaxslar), sug‘urta kompaniyalari, xususiy tibbiy xizmat ko‘rsatuvchilar, munozarali masalani tartibga soluvchi advokat firmalar orasidagi munosabatni huquqiy boshqarish uchun yuridik bazalar yuzaga keldi.

Aholining aksariyat qismi kafolatlangan tibbiy yordamga ega emas. Sog‘liqni saqlash bu modelning asosi – tibbiy yordamdan foydalanuvchilarning (pullik tibbiyot) ixtiyoriy ravishda tibbiy sug‘urtalash orqali pul to‘lashiga asoslangan. Unga quyidagi belgilar xos<sup>123</sup>:

- tibbiy yordamni moliyalashning asosiy manbasi fuqarolarning shaxsiy mablag‘lari va yuridik shaxslarning daromadlari hisoblanadi;
- xo‘jalik mexanizmi asosiy ishlovchi ko‘plab tibbiyot muassasalari va vrachlarni erkin tanlash;
- tibbiyot va boshqa tashkilotlar, asosan, nodavlat sug‘urtalash usuli orqali sog‘liqni saqlash moliyalashtirilib tibbiy yordam ko‘rsatiladi;
- tibbiy xizmatga narxlarning erkin belgilanishi;
- sog‘liqni saqlashga ajratiladigan mablag‘da milliy daromad ulushining yuqoriligi.

---

<sup>122</sup> Курманова Л.В. Опыт зарубежных стран в развитии здравоохранения в условиях рынка (проблемы финансирования). - Проблемы управления здравоохранением. – 2002. - №2. – С.34-56

<sup>123</sup> Шестакова Е.Е. Главные направления реформирования организации и финансирования медицинского обслуживания. // Труд за рубежом 1998. №2. С.57-78.

Sogʻliqni saqlash ushbu modelning ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat<sup>124</sup>:

- turli individual ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan tibbiy xizmatning narxi va sifat darajasi jihatidan koʻplab tibbiyot muassasalarining mavjudligi;

- tibbiy xizmatga navbatning yoʻqligi;

- isteʼmolchi huquqlari himoyasi, tibbiy yordam sifatiga alohida eʼtibor qaratilayotganligi;

- vrachlar va boshqa tibbiyot xodimlari daromadining yuqoriligi

Barcha aholini majburiy tibbiy sugʻurta dasturi davlat tomonidan boshqariladigan xususiy sogʻliqni saqlash modeli<sup>125</sup>. Umumiy majburiy tibbiy sugʻurtaning zamonaviyroq va mukammalroq modeli XIX asr oxirida Germaniyada yuzaga keldi va Birinchi Jahon urushidan keyin koʻpchilik Yevropa davlatlarida rivojlana boshladi. Bunday modelning asosiy tavsifi: davlat aholining (boylardan tashqari) asosiy qismini kafolatlangan tibbiy yordam bilan taʼminlash maqsadida hamma ish bilan taʼminlovchilar va fuqarolarning oʻziga daromadlaridan maʼlum qismini tibbiy sugʻurtaga ajratish majburiyatini yuklaydi. Davlat tibbiy xizmat koʻrsatuvchilarga, sugʻurta tashkilotlari bilan hamkorlikda majburiy sugʻurta dasturi boʻyicha davlat meʼyorlari doirasida barcha sugʻurtalanganlarni tibbiy yordam bilan taʼminlash majburiyatini yuklaydi.

Koʻpchilik rivojlangan mamlakatlarda majburiy tibbiy sugʻurta umummiy tizimini<sup>126</sup> qoʻllash ularning aholisini kafolatlangan tibbiy yordam bilan taʼminlashga, sogʻliqni saqlash samaradorligi oshishiga va sarf-xarajatlarni keskin kamaytirishga olib keldi. Samaradorligi boʻyicha majburiy tibbiy sugʻurta prinsipiga asoslangan sogʻliqni saqlash faqat davlat sogʻliqni saqlash tizimidan keyin turadi (davlat tibbiy-ijtimoiy sugʻurta va davlat sogʻliqni saqlash tizimi). Hozirgi

---

<sup>124</sup> Dadaxodjaeva M.E. Xorijiy davlatlarda sogʻliqni saqlashni boshqarishning turli modellariga tavsif va xalqaro amaliyot // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 yil.1-8 bet.

[http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/44\\_Dadaxodjayeva.pdf](http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/44_Dadaxodjayeva.pdf)

<sup>125</sup> Салтман Р.Б., Фигейрас Дж. Реформы системы здравоохранения в Европе. Анализ современных стратегий. Пер. с англ. М.: Гэотар Медицина, 2000.

<sup>126</sup> Кравченко Н.А. Проблемы методологии прогнозирования потребности в ресурсах здравоохранения в условиях перехода экономики к рынку // Экономика здравоохранения. – 1996. - №3. – С.23.



vaqtda bu model Germaniya va Fransiyada yaxshi rivojlangan. Bu tizim u yoki bu darajada davlat tomonidan boshqarilayotganligi sababli, u «boshqariladigan sog‘liqni sug‘urtalash tizimi»<sup>127</sup> - deb nomlanadi.

Sog‘liqni saqlashning monopollashgan davlat modeli. Sobiq Ittifoqqa kiruvchi mamlakatlarda sog‘liqni saqlashning monopollashgan davlat modeli yuzaga keldi. Keyin bu model Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida ham qo‘llanila boshlandi. Bu model tarmoqlar budjetini shakllantirishning markazlashgan mexanizmiga asoslangan. DPMLarni moddiy-texnik vositalar va dori-darmon bilan ta‘minlash davlat buyurtmasi va belgilangan narx asosida amalga oshiriladi. Davolash muassasalarining shakllanishi va rivojlanishi shtatlar, resurslar, oylik ish haqi va boshqalar bo‘yicha davlat me‘yorlariga mos ravishda amalga oshadi. Bu modelning xususiyatlari:

- davolash-profilaktika muassasalari tizimi monopollashgan tuzilishga ega;
- byurokratik boshqaruv tizimi;
- markaz va periferiyalar orasida aloqaning qat‘iligi;
- qo‘shimcha pullik va servis xizmatlarning yo‘qligi;
- raqobatning yo‘qligi;
- vrachlarning mehnat haqi tarif usulida to‘lanadi, yollash qoidasi va mehnat haqi davlat tomonidan belgilanadi;
- tibbiyot xodimlari ish haqining pastligi;
- tibbiyot xodimlarining qo‘nimsizligi;
- tibbiyot kadrlarining bir ishda doim ishlamasligi;
- birlamchi tibbiy–sanitariya yordamining rivojlanishiga bo‘lgan ahamiyatning pastligi;
- statsionarda davolashning ustuvorligi rejali gospitalizatsiyada navbatga turishga olib kelishi;
- tibbiy yordam sifatini nazorat qilishda ma‘muriy usullarning ustuvorligi.

---

<sup>127</sup> Кучеренко В.З., Данишевский К.Д. Наиболее известные системы здравоохранения развитых стран // Экономика здравоохранения. – 2000. - №7. – С.5-26.

Sog'liqni saqlashning monopollashgan davlat modeli quyidagi afzalliklarga ega<sup>128</sup>:

- bepul tibbiy yordam ko'rsatishni kafolatlash yo'l bilan fuqarolarning yuqori darajada ijtimoiy himoyalash;
- tibbiy yordam ko'rsatish ustidan davlat nazorati;
- o'ta xavfli, infeksiyon kasalliklarga ma'muriy usulda samarali ta'sir etish;
- favqulodda holatlarda uyushgan holdagi harakatlarning yuqori darajadali.

Sog'liqni saqlashning monopollashgan davlat modelining asosiy salbiy omillari: tibbiy yordam faoliyatini davlat budjetidan qoldiq prinsipiga asosan moliyalashtirish; budjet soliqlardan tushgan va har bir hududdan yig'iladigan real badallarga bog'liq bo'lmagan; davlat tibbiy yordamning yagona buyurtmachisi hisoblangan; yuqoridan pastga qarab boshqarilganlik.

Umumdavlat tibbiy sug'urtasiga asoslangan davlat sog'liqni saqlash modeli. Ikkinchi Jahon urushidan keyin dunyoning yetakchi davlatlari (Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya, Yaponiya, Kanada) sobiq Ittifoqdan davlat tomonidan boshqariladigan sog'liqni saqlashning samarali prinsipini o'zlashtirib, davlat tibbiy sug'urtasi modeli deb tavsiflansa bo'ladigan, majburiy tibbiy sug'urta sxemasidan keskin farq qiladigan yangi model ishlab chiqishdi. Shu bilan birga, qo'shimcha xizmat va xususiy sektor tizimlari ham saqlanib qoldi. Davlat tibbiy sug'urta modelida barcha tibbiy muassasalar faoliyatini davlat boshqaradi va aholining barcha qatlamini tibbiy xizmat bilan o'zi ta'minlaydi. Davlat sug'urta modeli eng tejamkor va ratsional model hisoblanadi. Bu sifat va samaradorlikni yo'qotmasdan xarajatlarni kamaytirishga intiluvchi mamlakatlar uchun XXI asr modeli. Sog'liqni saqlash tizimining davlat boshqaruvida xarajatlar va tibbiy xizmatning rejalashtirilganligi sog'liqni saqlashning yagona modeliga xos bo'lgan qator bozor tamoyillaridan foydalanishga yo'l qo'ymaydi. Davlat boshqaruv organlari xarajatlarni va tibbiy xizmatni rejalashtiradi.

---

<sup>128</sup> Dadaxodjaeva M.E. Xorijiy davlatlarda sog'liqni saqlashni boshqarishning turli modellariga tavsif va xalqaro amaliyot // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 yil.1-8 bet.

[http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/44\\_Dadaxodjayeva.pdf](http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/44_Dadaxodjayeva.pdf)

Ba'zi davlatlarda (Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya) bepul yordam faqat davolash kursining ma'lum bosqichlarida ko'rsatiladi, qulaylik kabi xizmatlar esa pul to'lovi asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun bunday davlatlarda davlat tibbiy sug'urta doirasidagi tibbiy xizmat tizimidan tashqari nodavlat davolash bazasiga ega, ixtiyoriy tibbiy sug'urta dasturlari keng tarqalgan. Boshqa davlatlarda ixtiyoriy tibbiy sug'urta (ITS) uncha keng rivojlanmagan (Kanada).

## **20.2. Sog'liqni saqlash sohasidagi siyosatning keng imkoniyatlari**

Mamlakatimizda aholi salomatligini saqlash va yaxshilash imkonini beradigan sifatli sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish, sog'lom avlod tarbiyasi uchun shart-sharoit yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Mamlakatimizda ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning samaradorligi, sifati va qulayligini oshirish ta'minlandi, BMT Ming yillik rivojlanish maqsadlarining asosiy parametrlariga erishildi.

Mustaqillik yillarida sog'liqni saqlash sohasida mamlakatimiz erishgan yutuqlarga xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baho berildi. Masalan, aholining umr ko'rishi 4,6 yoshga — 1995 – yildagi 69,1 yoshdan 2017 – yilda 73,7 – yoshga oshdi. Onalar o'limi ko'rsatkichi 3,1 baravarga kamayib, 100 ming nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan 21 ta holatni tashkil etdi, chaqaloqlar o'limi esa 3,1 baravarga kamayib, 1000 nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan 11,5 ta holatni tashkil etdi. Bolalarda eng ko'p uchraydigan kasalliklarga qarshi emlash va profilaktika tadbirlari bilan qamrab olish darajasi 96 — 98 foizda qat'i saqlanib turibdi.<sup>129</sup>

Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish bo'yicha kompleks profilaktika, epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyena tadbirlarining joriy etilishi o'ta xavfli yuqumli kasalliklar (o'lat, vabo), poliomielit, difteriya, chaqaloqlar qoqsholi, mahalliy kelib chiqqan bezgak, qizamiq va qizilcha yuzaga kelishidan to'liq himoya qilish imkonini berdi. Poliomielitning yovvoyi shtammi (2002 – yil), qizamiq va

---

<sup>129</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 декабрдаги “2019 — 2025 йилларда Ўзбекистон Республикасининг соғлиқни сақлаш тизimini ривожлантириш Концепцияси” ПФ-5590-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/4096197>

qizilcha (2017 – yil), bezgak (2018 – yil) yo‘q qilinganligi to‘g‘risida Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining sertifikatlari olindi.

Shu bilan birga, sog‘liqni saqlashni tashkil etishda fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash tizimini yanada takomillashtirishga oid vazifalarni samarali hal qilishga to‘sqinlik qilayotgan ayrim muammoli masalalar va salbiy holatlar saqlanib qolmoqda.

Xususan, tarmoqni kompleks huquqiy tartibga solishning mavjud emasligi, o‘lim va nogironlikni keltirib chiqarish ehtimoli katta bo‘lgan kasalliklarning oldini olish va ulardan aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonunosti va idoraviy hujjatlarning haddan ortiq ko‘pligi sog‘liqni saqlash tizimi barqarorligini ta‘minlash imkonini bermayapti. Transplantologiya, ko‘makchi reproduktiv texnologiyalar, teletibbiyot kabi talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarning tartibga solinmaganligi milliy sog‘liqni saqlash tizimi tibbiyot ilm-fani va amaliyotining zamonaviy yutuqlaridan ortda qolib ketishiga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi kunga qadar majburiy tibbiy sug‘urta tizimini joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratilmagan. Natijada hanuzgacha sog‘liqni saqlash sohasini moliyalashtirish, asosan, budjet mablag‘lari hisobiga amalga oshirilmoqda. Respublikada tibbiyot xizmatlarining klinik tavsiyalari (bayonnomalari) va standartlari bilan uzviy bog‘liq klinik-xarajat guruhlari (DRG tizimi) ishlab chiqilmagan.

Sog‘liqni saqlash birlamchi bo‘g‘inining profilaktika, patronaj va o‘z vaqtida davolash-tashxis qo‘yish ishlari, shu jumladan, ambulatoriyada davolashni oxirigacha yetkazish samaradorligi qoniqarsizligicha qolmoqda. Buning natijasida aholi sog‘lig‘ini saqlash tizimida qimmat turadigan statsionar yordam asosiy o‘rinni egallamoqda.

Aholiga, ayniqsa, bolalar va fertil yoshidagi ayollarga patronaj xizmati darajasi past ekanligi (72 — 77%) qayd etilmoqda, umumiy amaliyot shifokorlarining bilim va ko‘nikmalari darajasi onalar va bolalarga tibbiy yordamni to‘liq hajmda ta‘minlash imkonini bermayapti.

Sog‘liqni saqlashning jadal rivojlanayotgan xususiy sektorini davlat tibbiyot tashkilotlari bilan hamkorlikka faol jalb qilishga g‘ov bo‘layotgan to‘siqlar qo‘shimcha moliya resurslaridan sog‘liqni saqlash uchun samarali foydalanish imkonini bermayapti.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari klinikalari ekstensiv tarzda rivojlanmoqda, u yerda tibbiyot fanlari doktorlarining 70 foizi ishlasada, ularning salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayapti. Ixtisoslashgan markazlarning innovatsion salohiyati pastligi sharoitida tibbiyot amaliyotining ta'lim berish jarayoni va ilm-fan bilan sust integratsiyalashganligi tibbiyotning ilg'or yutuqlarini davolash-tashxis jarayoniga joriy etish qoniqarsiz darajada ekanidan darak bermoqda.

Shu bilan birga, tibbiyot kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlashning zamonaviy tizimlarini tatbiq etishdagi sustkashlik va buning oqibatida shifokorlar hamda o'rta tibbiyot xodimlari kasbiy bilimlari darajasining yetarli emasligi ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tibbiyot xodimlarini ijtimoiy-moddiy himoya qilish darajasi pastligi, ular ijtimoiy-huquqiy holatining o'z zimmasiga yuklanayotgan javobgarlik darajasiga mos kelmasligi malakali kadrlarning tizimdan chiqib ketishi va korrupsiya holatlari yuzaga kelishi uchun sharoit yaratmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yetarlicha joriy etilmaganligi, tibbiyot hujjatlarining juda katta hajmi qog'oz shaklida yuritilishi qabul qilinayotgan qarorlar ijrosini tezkor kuzatib borish va samarali ijrosini ta'minlash imkonini bermayapti, shuningdek, ortiqcha byurokratizm va katta xarajatlarga sabab bo'lmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklar sog'liqni saqlashning sifatiga bo'lgan aholining tobora ortib borayotgan talablarini qondirish, joylarda to'planib qolgan muammolarga tezkorlik bilan munosabat bildirish va tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida ijobiy o'zgarishlarga erishish imkonini bermayapti.

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari<sup>130</sup>:

1. Sog'liqni saqlash sohasidagi milliy qonunchilikni uni unifikatsiyalash hamda tibbiy xizmat sifatini oshirish va bemorlar huquqlarini himoya qilish, shuningdek, tibbiyot xodimlarining mas'uliyati va himoyalanganligini kuchaytirishga qaratilgan

---

<sup>130</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 декабрдаги “2019 — 2025 йилларда Ўзбекистон Республикасининг соғлиқни сақлаш тизimini ривожлантириш Концепцияси” ПФ-5590-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/4096197>

to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi qonunlarni qabul qilish orqali takomillashtirish;

2. Jahon standartlari asosida menejment va tibbiy xizmatlar sifatini boshqarishning eng namunali amaliyotlarini joriy etishni ta'minlaydigan zamonaviy boshqaruv tizimini va hududlarda sog'liqni saqlashni tashkil etishning «klaster» modelini shakllantirish, tibbiyot va farmasevtika muassasalarini akkreditatsiya qilish, shifokorlik va farmasevtik faoliyatni litsenziyalash tizimini joriy etish;

3. Tibbiyot sohasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam hajmini belgilash, tibbiy xizmatlar uchun klinik-xarajat guruhlari bo'yicha «har bir davolangan holat» uchun to'lash tizimini hamda kishi boshiga moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, majburiy tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy etish;

4. Tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashxis qo'yish va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy etish, patronaj xizmati va dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish orqali sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarni profilaktika qilish;

5. Tibbiy genetikani, ayollar va bolalarga shoshilinch va ixtisoslashgan tibbiy yordamni rivojlantirish asosida, zamonaviy skrining dasturlarini joriy etish, «Ona va bola» hududiy ko'p tarmoqli tibbiyot majmualari va ma'lumotlar tizimlarini shakllantirish asosida onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;

6. Xususiy sog'liqni saqlash tizimi, davlat-xususiy sherikligini va tibbiy turizmni rivojlantirish, sog'liqni saqlash sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va raqobat muhitini yaxshilash;

7. Farmasevtika tarmog'ini yanada rivojlantirish, narx shakllanishi mexanizmlarini takomillashtirish, dori vositalari, tibbiy texnika va buyumlar ishlab chiqarish hajmi va turlarini kengaytirish;

8. Tibbiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini shakllantirish, tibbiyot fanini rivojlantirish, shu jumladan, tibbiyot ilmiy va ta'lim muassasalarini xalqaro standartlar bo'yicha sertifikatlashtirish (akkreditatsiyadan

o'tkazish) zamonaviy ta'lim dasturlari, usul va texnologiyalarini joriy etish asosida;

9. «Elektron sog'liqni saqlash» tizimini keng joriy etish, yagona milliy standartlar asosida integratsiyalashgan axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasi majmuasini yaratish.

### **20.3. Sog'liqni saqlash tizimidan fo ydalanish imkoniyatlari**

Mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, eng avvalo, hayot tarzimiz, turmush darajamiz tobora yuksalayotganida, erishayotgan muvaffaqiyatlarimiz dunyo hamjamiyatida munosib e'tirof etilayotganida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xususan, mustabid tuzum davrida og'ir muammolar girdobida qolgan tibbiyot sohasida ham tub burilish va sifat o'zgarishlari ro'y berib, bu borada amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar aholining sog'lom turmush kechirishini ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishdek ezgu maqsadlar ro'yobiga zamin yaratdi. Darhaqiqat, mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq yurtimizda sog'liqni saqlash sohasini isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, ushbu yo'nalishda Davlat dasturi amaliyotga tatbiq etildi. So'ngra, uning mantiqiy davomi sifatida bir qancha umummilliy dastur va huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Boshqacha aytganda, O'zbekistonda tibbiy xizmat ko'rsatishning o'ziga xos milliy modeliga asos solindi.

Sifat jihatidan yangi, eng yuksak talablarga javob beradigan birlamchi tibbiyot, respublika hamda viloyatlar shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish, xirurgiya, kardiologiya, urologiya, terapiya, endokrinologiya, ko'z mikroxirurgiyasi kabi o'nlab yo'nalishlarga ixtisoslashtirilgan markazlarni o'z ichiga olgan tibbiyot muassasalarining mukammal va ishonchli tarmog'i vujudga keldi. Ayniqsa, sohada birlamchi bo'g'inning yangi, ixcham va zamonaviy tizimi shakllangani, qishloq vrachlik punktlari hamda oilaviy poliklinikalarda aholiga yuqori sifatli tibbiy xizmatning yo'lga qo'yilgani quvonarli. Yoki o'ta nozik va qiyin jarrohlik amaliyotlarining nafaqat poytaxtimiz, balki viloyatlardagi davolash muassasalarida ham muvaffaqiyatli bajarilayotgani soha moddiy-

texnik bazasi va tibbiy kadrlar salohiyati davr bilan mutanosib ravishda takomillashtirib borayotganini ko'rsatadi.

Prezidentimiz rahnamoligida sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida tibbiy muassasalar faoliyatini takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2011 – yil 28 – noyabrda qabul qilingan “Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori asosida joylarda tibbiyot muassasalari modernizatsiya qilinib, zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlanmoqda.

Mazkur qarorga ko'ra, 2012 – yilda Samarqand tumani tibbiyot birlashmasida ham qurilish-rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Markaziy shifoxona bo'limlari, poliklinika va qishloq vrachlik punktlarida aholiga zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatlari kengaydi. Bolalar va kattalar poliklinikalari birlashtirilib, ko'p tarmoqli markaziy poliklinikaga aylantirildi. Muassasa binosi rekonstruksiya qilindi, “Salomatlik-3” loyihasi asosida zamonaviy tashxis uskunalari bilan jihozlandi.

Ma'lumki, tez tibbiy yordam xizmatining asosiy vazifasi fuqaroning hayotiga xavf tug'diradigan holatlarda birinchi tibbiy yordamni ko'rsatishdir. Ushbu tibbiy yordam barcha holatlarda – bemor O'zbekiston fuqarosimi yoki chet ellik mehmonmi, bundan qat'i nazar bepul ko'rsatiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida ham “Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega”, deya qat'i belgilab qo'yilgan.

“Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 29-moddasiga ko'ra, eng ko'p tarqalgan kasalliklar, shikastlanish, zaharlanish va shoshilinch yordam talab etiladigan boshqa holatlarni davolash davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida bepul va har qanday cheklovlarsiz ko'rsatiladi. Hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli holatda bo'lgan shaxsga shoshilinch va (yoki) kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatishni asossiz ravishda rad etish O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 591-moddasiga muvofiq, tegishli ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradi.



Umumjahon sogʻliqni saqlash tashkiloti 1946 – yilda sogʻliq tushunchasiga quyidagi tarif bergan: “sogʻliq – bu insonda oddiygina ogʻriqlar va jismoniy nuqsonlarning yoʻqligi emas, balki insonning toʻlaqonli jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligi holatidir”. Sogʻliqni saqlashni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi tibbiy yordamga boʻlish mumkin. Birinchi tibbiy yordam tibbiy amaliyot, klinikalar va kasalxonalarda (jumladan mijozning uyida) umumamaliyot shifokorlari tomonidan koʻrsatiladi. Tibbiyot xodimlari va mijozlar oʻrtasidagi aloqalarning 90%i birinchi yordam shaklida amalga oshadi. Birinchi tibbiy yordam profilaktika xizmatlari (immunizasiya, skrining, sogʻlom turmush tarzini targʻib etish), kasallarga qarash (mijoz sogʻligʻini kuzatish) va davolash (dori-darmonlar tayinlash, kichik operasiyalar) dan iborat. Ikkinchi tibbiy yordam kasalxonalarda ixtisoslashtirilgan, maxsus tibbiy yordamdan iborat boʻladi. Tor sohada ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar uchinchi tibbiy xizmatlarga kiradi va maxsus murakkab sharoitlarda amalga oshiriladi<sup>131</sup>.

#### **20.4. Uy xoʻjaliklarining sogʻliq uchun sarf-xarajatlarni sotib olishlari**

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda uy xoʻjaliklarining sogʻliq uchun xarajatlari tur-tuman. Tadqiqotlar koʻrsatishicha AQSH aholisi oʻz daromadlarini 20,9 foizini sarflanishi, Yaponiyada 4,6 foiz, Yevropa ittifoqi mamlakatlari 3,9 foiz, Litvada 4,9 foiz, Hindistonda 3,7 foiz, Meksikada 4,1 foiz, Rossiya Federatsiyasida 3,7 foiz, Birlashgan Arab amirliklari 1,7 foizini salomatligini tiklash uchun sarf qilishadi<sup>132</sup>.

2020 – yilning soʻnggi oylarida tibbiy xizmatdan foydalanish va ulardan qoniqish sezilarli darajada yaxshilandi. Dori-darmonlarni olishdagi kechikishlar haqida xabar bergan uy xoʻjaliklarining ulushi iyul oyidagi 5 foizdan 2021 – yil yanvarida 2 foizgacha kamaygan. Tibbiy yordam sifati va ishonchliligidan norozilik iyuldagi 23 foizdan, 2021 – yil yanvar oyida 5 foizdan kamroqqacha tushgan. Birlamchi shifokorlarning qabuliga yozilish bilan bogʻliq kechikish shu davrda 2

---

<sup>131</sup> Social Policy an Introduction-Forth edition/ Ken Blakemore, Louis Warwick-Booth/Open University Press/UK 2013.

<sup>132</sup> <https://www.the-village.ru/business/figures/234691-world>

foizdan ahamiyatsiz darajaga tushgan. Uy xo‘jaliklari orasida xuddi shunday yaxshilanishlar davolanishni kutish vaqtida, tibbiy asbob-uskunalaridan foydalanish va tibbiy ko‘rikdan o‘tishda ham qayd etilgan. 2020 – yil noyabr oyiga kelib biron bir xonadonda bolalarga qarshi emlashlar kechiktirilgani haqida xabar berilmagan. Shunga qaramay, 2020 – yilning ikkinchi yarmida o‘rtacha 18 foiz uy xo‘jaliklarining kamida bitta a‘zosi davolanish xarajatlari sababli u yoki bu turdagi kasallikni davolash uchun murojaat qila olmagan. Sog‘liqni saqlash xizmatlari dolzarb mahalliy muammo ekanligi haqida xabar bergan mahalla raislarining ulushi avgust oyidagi 21 foizdan, 2020 – yil oxirida 39 foizga yoki undan ham ko‘proqqa ko‘tarilgan.<sup>133</sup>

COVID-19ning sog‘liqqa ta‘sir qilishi bilan bog‘liq xavotirlar yil oxirida pasaygan. Fuqarolar ham, mahalla raislari ham kamroq hollarda o‘zlariga yoki o‘z mahallalari a‘zolarining salomatligiga COVID-19ning ta‘siridan “juda xavotirda ekanliklarini” qayd etishgan. Bu ko‘rsatkich fuqarolar orasida avgust oyidagi 60 foizdan 2021 – yil yanvar oyida 20 foizgacha tushganligi kuzatilgan va shu davrda mahalla raislari o‘rtasida taxminan 50 foizdan shunga o‘xshash darajagacha tushgani aniqlangan.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, inqiroz davrida hayotdan qoniqish ko‘plab holatlarda barqaror bo‘lgan va ko‘pchilik odamlar o‘zlarining ruhiy salomatligini yaxshi yoki qoniqarli deb ta‘riflashgan. O‘zlarining hayotidan juda norozi bo‘lgan fuqarolarning ulushi pandemiya boshlanganidan keyin 2 foizdan kam o‘sgan va inqiroz davomida mo‘tadil darajada saqlanib qolgan. Avgust oyida, ularning taxminan 8 foizi o‘tgan oy ichida hech bo‘lmaganda qayg‘uga tushganini yoki depressiyaga tushganini qayd qilgan, 2021 – yil yanvarida esa bunday javoblar ulushi 3 foizgacha tushgan. Yil oxiriga kelib, kundalik hayotda va shaxsiy munosabatlarda muammolar tug‘diradigan ruhiy salomatlik haqida kamdan-kam hollarda qayd etilgan. Iyul oyida odamlarning qariyb 40 foizi COVID-19 bilan bog‘liq xavotirlarni so‘nggi ikki hafta ichida eng katta xavotir deb atashgan. Ammo yanvar oyiga kelib, bu ko‘rsatkich 11 foizga tushib ketgan, iqtisodiy

---

<sup>133</sup> <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/a141cb6bace3f340df173e75d4463970-0080062021/original/L2CU-COVID-19-Rev2020-Cleared-UZB.pdf>

muammolar tashvishi esa yuqoriga ko‘tarilgan (iyuldagi 13 foizdan 2021 – yil yanvar oyida 37 foizgacha ko‘tarilgan).

Biroq, nogironligi bor odamlar va ayollar boshqalarga qaraganda ruhiy salomatligi yomonlashgani haqida ko‘proq xabar berishgan. 2020 yil iyuldan dekabrgacha nogironligi bor odamlarning 51 foizi o‘zlarining ruhiy salomatligini “qoniqarli” yoki “yomon” deb baholagan bo‘lsa, nogironligi yo‘q odamlarning 43 foizi ruhiy salomatligini “yaxshi”, “juda yaxshi” yoki “a‘lo” deb tavsiflagan. Avgust oyida bu ko‘rsatkich eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi, o‘sha oyda nogironligi bor odamlarning 61 foizi o‘zlarining ruhiy salomatligini faqat “qoniqarli” yoki “yomon” deb baholagan. Xuddi shunday farq ayol respondent va erkak respondentlar o‘rtasida ham kuzatilgan: ayollarning taxminan 55 foizi avgust oyida o‘z ruhiy salomatligi haqida “qoniqarli” yoki “yomon” deb xabar berishgan.

Dunyo mamlakatlarining 88 tasida mamlakat aholisining 80%i sog‘liqni saqlash tizimi xizmatlari bilan to‘liq qamrab olingan. Ayrim mamlakatlarda ushbu ko‘rsatkichga iqtisodiy inqirozlar va milliy daromadlar darajasining pastligi davrida qisqa muddatda erishildi (Taylandda 10 yil ichida).

Sog‘liqni saqlash xarajatlarining 40%idan ortig‘i mijozlar zimmasiga tushmoqda. 2014 – yilda sog‘liqni saqlash sohasi xizmatlari bilan aholini naqd to‘lovlar shaklida qamrab olish darajasi 80%ni tashkil etdi<sup>134</sup>. Ushbu ko‘rsatkich naqd to‘lovlar shakli tibbiy xizmatlardan foydalanishda jiddiy to‘siqlarni yuzaga keltirishi, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi va kambag‘allik darajasining ortishiga olib kelishi mumkin. Naqd to‘lovlar shakli tibbiy xizmatlarni moliyalashtirishda birdamlik tamoyillariga mos kelmaydi.

Naqd to‘lovlar shakli kambag‘al mamlakatlarda sog‘liqni saqlash xizmatlarini moliyalashtirishda yetakchi o‘ringa ega. Jumladan, Afrikada tibbiy xizmatlar uchun amalga oshiriladigan xususiy xarajatlar davlat xarajatlaridan ortib ketadi va mintaqa yalpi ichki mahsulotiga nisbatan deyarli 3%ni tashkil etadi. Ushbu mamlakatlarda kambag‘allik darajasi va tibbiy xizmatlar uchun sarflanayogan xarajatlar tarkibida naqd to‘lovlar ulushi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud. Naqd to‘lovlar darajasi kambag‘allik chegarasidan

---

<sup>134</sup> World Social Protection Report 2014/15.

pastda yashayotgan aholi soni ortgani sari ko‘payib bormoqda. Bir kunda yashash uchun 2 dollar sarflayotgan aholi ulushi 2%dan kam bo‘lmagan mamlakatlarda tibbiy xizmatlar uchun sarflanayotgan xarajatlar tarkibida naqd to‘lovlar shaklidagi xarajatlar 20%ni, kambag‘allik chegarasidan pastda yashayotgan aholi ulushi 50%ni tashkil etayotgan mamlakatlarda esa ushbu ko‘rsatkich 50%ni tashkil etadi<sup>135</sup>. Demak, kambag‘allik chegarasidan pastda yashayotganlar tibbiy xizmatlarga muhtoj aholi hisoblanadi va tibbiy xizmatlardan ko‘proq naqd to‘lovlar shaklida foydalanishadi.

Sog‘liqni saqlash tizimi xizmatlaridan ijtimoiy himoya orqali foydalanishning zamonaviy konsepsiyasi sog‘liqni saqlash tizimini inson huquqlari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Xalqaro mehnat tashkilotining №202-tavsiyalari inson sog‘lig‘ini saqlash huquqini ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan bog‘laydi. Ushbu bog‘liqlikni sog‘liqni saqlash doirasida ko‘rib chiqadi. Bunday yondashuv ijtimoiy sog‘liqni saqlash institutlari va muassasalarini barqaror rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, aholini to‘liq tibbiy xizmatlar bilan qamrab olish va birlamchi sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratishni talab etadi. Sog‘liqni saqlash xizmatlarini ko‘rsatish turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida tenglikni, ijtimoiy jihatdan alohidalashib qolmaslik va kambag‘allik darajasining oshib ketmasligini ta‘minlashi zarur.

Aholini sog‘liqni saqlash tizimi xizmatlari bilan to‘liq qamrab olishning zamonaviy konsepsiyasi soliqqa tortish mexanizmidan foydalanish (milliy sog‘liqni saqlash xizmatlari) orqali xarajatlarni qayta taqsimlash, ish haqidan ajratiladigan sug‘urta badallari asosida moliyalashtirish (turli ijtimoiy, milliy yoki xususiy sug‘urta shakllari uchun) moliyalashtirishni ham o‘z ichiga oladi.

Naqd to‘lovlar shaklida tibbiy xizmatlardan foydalanish sog‘liqni saqlashni bevosita moliyalashtirish vositasi hisoblanmaydi, ammo minimal darajada, rag‘batlantirish omili sifatida qo‘llanilishi tavsiya etiladi. Tibbiy xizmatlar ko‘rsatish yordamida sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish huquqlariga rioya etish majburiyati sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish mexanizmiga bog‘liq bo‘lmasligi lozim.

---

<sup>135</sup> World Social Protection Report 2014/15.

Mamlakatda ilk bora, «Salomatlik-3» loyihasi doirasida aholining tibbiy xizmatlarga sarflaydigan xarajati va ularning ko‘proq foydalanadigan tibbiy xizmatlar ro‘yxatini tuzib chiqish maqsadida, shunday tadqiqot o‘tkaziladi. Bu sog‘liqni saqlash sohasini yanada rivojlantirishga doir choralarni qabul qilishda yordam beradi.

U mahallalarda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyasi asosida tuzilgan so‘rovnomani to‘ldirish orqali amalga oshiriladi. Tadqiqot davomida tibbiy xizmatlarning masofa jihatidan yaqinligi, oilaning ko‘proq qaysi tibbiy xizmat (qishloq vrachlik punktlari, shifoxonalar, davlat yoki xususiy tibbiyot muassasalari)dan foydalanishiga oydinlik kiritiladi.

Savollarga javob beruvchilar, shuningdek, oila a‘zolari so‘nggi vaqtlarda necha marta shifokor ko‘rigiga borgani yoxud shifoxonada davolanганиni ma‘lum qilishlari kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, ular tibbiy xizmatlar uchun norasmiy xarajatlar bilan hisoblaganda qancha mablag‘ sarflashiga oid bandni to‘ldirishadi.

Tadqiqotlar natijasi sog‘liqni saqlash sohasidagi muammolarni aniqlash va tibbiy xizmat sifatini oshirish, birmuncha keng tarqalgan kasallik turlarining profilaktikasi va davolashni yaxshilash bo‘yicha qaror qabul qilish imkonini beradi.

## **20.5. Tibbiy sug‘urta, tibbiy xizmat sifati va samaradorligi**

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotiga ko‘ra, dunyo aholisining deyarli yarmi eng kerakli tibbiy xizmatlar bilan to‘liq qamrab olinmagan. 800 milliondan ortiq aholi yoxud dunyo aholisining 12 foizi daromadlarining kamida 10 foizini sog‘liqni saqlash xarajatlariga sarflashadi<sup>136</sup>.

Rivojlangan 33 ta davlatdan 32 tasida umumiy majburiy tibbiy sug‘urta tizimi joriy qilingan bo‘lib, ular quyidagi 3 turdagi majburiy tibbiy sug‘urtadan birini qo‘llashadi:

1. Yagona to‘lov tizimi – davlat sog‘liqni saqlash tizim uchun fuqarolardan alohida soliq undiradi. 32 ta davlatdan 12 tasida bu tizim joriy etilgan (xususan Buyuk Britaniyada).

---

<sup>136</sup> <https://uzbekinvest.uz/news/tibbij-sugurta-soglik--kafolati-buloladimi>

2. 6 ta davlatda esa majburiy sugʻurta polisi (insurance mandate) sotib olinadi. Mazkur tizim barcha fuqarolardan ish beruvchi orqali yoki davlatdan majburiy tibbiy sugʻurta sotib olishni nazarda tutadi (Germaniyada kuzatiladi).

3. Qolgan 9 ta davlatda ikki pogʻonali tizim (davlat budjeti va xususiy sugʻurta kompaniyalari) joriy etilgan boʻlib, bu tizimda davlat eng asosiy tibbiy xizmatlar uchun fuqarolardan soliq undiradi va bu tibbiy xizmatlarni bepul taʼminlab beradi. Fuqarolar qoʻshimcha tibbiy xizmatlar uchun oʻzlari mustaqil toʻlovlarni amalga oshirishlari mumkin (Fransiya misolida).

Hozirgi kunda dunyoning koʻplab mamlakatlarida maxsus tibbiy sugʻurtalash jamgʻarmalari faoliyat olib bormoqda. Bunday jamgʻarmalarning asosiy maqsadi – bemorlarga sifatli tibbiy va profilaktik yordam koʻrsatilishini taʼminlash uchun majburiy tibbiy sugʻurtalash tizimini moliyalashtirishdir. Koʻp davlatlarda fuqarolar mehnatga layoqatli boʻlgan davrida davlat tomonidan belgilangan miqdordagi pulni Maxsus jamgʻarmaga toʻlab davolanish uchun kerakli mablagʻni yigʻib boradi. Zaruriyat tugʻilganda, fuqaroga sugʻurtalovchi tomonidan toʻplangan mablagʻlar hisobiga kafolatlangan tibbiy yordam olish imkoniyati beriladi. Mamlakatimizda sogʻliqni saqlashni moliyalashtirishning butun bir tizimi mavjud. Lekin tibbiy xizmatdan foydalanishning teng imkoniyatlari yaratilmaganligi, aholini moliyaviy muhofaza qilish yoʻlga qoʻyilmaganligi va mablagʻlarni taqsimlash jarayonining past samaradorligi tufayli bir qator muammolar oʻz yechimini topmay kelmoqda. Muammolarni samarali hal etish maqsadida “Majburiy tibbiy sugʻurtalash mexanizmlarini yaratish va ularni hayotga tatbiq etish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi ishlab chiqildi.

Mazkur loyiha muvofiq majburiy tibbiy sugʻurta tizimini bosqichma-bosqich tatbiq etish boʻyicha 4 bosqichli kompleks chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

### **I. Tayyorlov bosqichi: 2019–2020-yillar davomida majburiy tibbiy sugʻurtalash tizimini ishlab chiqish:**

Birinchi bosqichda ushbu qaror loyihasi bilan Majburiy tibbiy sugʻurta jamgʻarmasi (keyingi oʻrinlarda – Jamgʻarma deb yuritiladi) taʼsis etilmoqda. Jamgʻarma davlat moliyaviy tashkiloti boʻlib, uning

faoliyati majburiy tibbiy sug'urta tizimida qonunchilik normalarini tatbiq qilish, ushbu sug'urta bo'yicha sug'urta to'lovlarini akkumulyatsiya qilish va sug'urta badallarini to'lashga qaratilgan bo'ladi. Avvaliga Jamg'arma butun respublika bo'yicha majburiy tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy etishga mas'ul etib tayinlanadi.

Majburiy tibbiy sug'urta tizimini yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan minimal normativ-huquqiy baza to'g'risida ham esdan chiqarmaslik lozim. Bizning fikrimizcha, ularning ichida eng ahamiyatga moligi – “2019–2025-yillarga sog'liqni saqlashni moliyalashtirish Strategiyasi”ni ishlab chiqish va qabul qilishdir.

Bunda Strategiyaning asosiy maqsadi – butun aholiga sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatini yaratish bo'lib, buning uchun tibbiy sug'urtalash sohasida moliyalashtirish tizimini optimallashtirish va sug'urtalangan shaxslar tomonidan ma'lum sug'urta dasturlari orqali sifatli tibbiy xizmatlar olinishini ta'minlovchi munosabatlarni tizimli tartibga solishni tashkil qilish lozim. Keyingi unikal hujjat esa Davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlar paketining turlari, hajmi va narxini aniqlash metodologiyasi hisoblanadi. Davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlar paketiga bir qator xizmatlar kiritilgan bo'lib, ular o'z ichiga tez tibbiy yordam, sog'lom turmush tarzini ta'minlash choralari, kasalliklarni aniqlash va diagnostika qilish, ularning profilaktikasi, reabilitatsiya, davolash, palliativ parvarish va stomatologik yordam hamda xizmatlarni ko'rsatish uchun zarur bo'lgan dori vositalari va tibbiy uskunalarni oladi.

## **II. Boshlang'ich bosqich: majburiy tibbiy sug'urtani tatbiq etish (2020-2021 yy.)**

Ikkinchi bosqichda davlat statsionar davolash tashkilotlarida klinik-xarajat guruhlari bo'yicha “har bir davolangan holat” uchun haq to'lash va zamonaviy to'lov vositalariga o'tish hamda respublika bo'yicha barcha birlamchi tibbiy-sanitarlik yordam ko'rsatish, muassasalarida yagona jon boshiga moliyalashtirish normativlarini tatbiq qilish nazarda tutilgan. Shu bilan birga, ma'lumot almashinuvi samaradorligini ta'minlash maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ko'rsatilgan tibbiy yordamni ro'yxatga olishning yagona axborot tizimini shakllantirish taklif etilmoqda. Mutlaqo yangi axborot

tizimi yuzaga kelayotgan muammolarga tez va o‘rinli munosabat bildirish hamda axborot ko‘magini ta‘minlash imkoniyatini beradi.

Ikkinchi bosqichning yakuniy natijasi sifatida 2021 – yil 1 – yanvaridan Sirdaryo viloyatida majburiy tibbiy sug‘urtalash tartibi Majburiy tibbiy sug‘urta fondi mablag‘lari hisobidan tajriba tariqasida joriy etilib, unda quyidagilar nazarda tutiladi:

- aholi punktini sug‘urtalash;
- xarajatlarni qoplovchi kafolatlangan tibbiy-sanitarlik yordami hajmi;
- fuqarolarga majburiy tibbiy sug‘urtaning individual identifikatsiya raqamlari berish;
- bolalar, tug‘ilganidan 18 yoshga to‘lguniga qadar;
- 1941–1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar;
- 1941–1945-yillardagi urush orti mehnat fronti qatnashchilari;
- bola uch yoshga to‘lgunga qadar uning parvarishi bilan band bo‘lgan ota-onaning biri yoki uning vasiysi yoxud homiysi;
- boshqa odamning parvarishiga muhtoj bo‘lgan shaxslarga, shu jumladan, nogiron bolalar, I va II guruh nogironlari;
- homilador ayollar;
- Chernobil AESdagi avariya qurbonlari va uni bartaraf etishda qatnashgan shaxslar.

### **III. 3-bosqich: majburiy tibbiy sug‘urta tizimini tatbiq etish.**

Uchinchi bosqichda majburiy tibbiy sug‘urtalash dasturlarini amalga oshirishda qatnashuvchi tibbiyot muassasalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish hamda shifokorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi joriy etiladi. Ushbu tartib doirasida Sog‘liqni saqlash vazirligidan akkreditatsiya (litsenziya) olgan barcha muassasa va shifokorlar mulkchilik shaklidan qat‘i nazar majburiy tibbiy sug‘urta doirasida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish shartnomalari asosida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish huquqiga ega bo‘ladilar.

Shu o‘rinda fuqarolarning quyidagi ayrim toifalarini sug‘urta bilan qoplashni ta‘minlash haqida ham aytib o‘tish joiz: Ushbu toifalariga fuqarolar sug‘urtalangan shaxslarning alohida toifalarini bo‘lib, ular uchun belgilangan tibbiy xizmatlar majburiy tibbiy sug‘urtalash doirasida amalga oshiriladi.



#### **IV. Uzoq muddatli kengaytirilgan bosqich: majburiy tibbiy sug‘urtalashni keng tatbiq qilish (2023–2025-yy.)**

Majburiy tibbiy sug‘urtalash tizimini tatbiq qilishning oxirgi bosqichida respublikaning barcha hududlarida aholining barcha toifalari tizimga qo‘shilishi kutilmoqda. Bundan quyidagi natijalar erishish maqsad qilinmoqda:

- davlat tomonidan kafolatlangan yagona tibbiy xizmatlar hajmining bemorlar haq to‘lashi nazarda tutilgan xizmatlardan aniq ajratilishi, fuqarolarning tibbiy xizmatlarga ehtiyojini o‘z vaqtida va sifatli qondirishga yo‘naltirilgan sog‘liqni saqlash tizimini shakllantirish;

- salomatlikni mustahkamlash va o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini oshirish, tibbiy xizmatlar uchun norasmiy to‘lovlar darajasini kamaytirish;

- sog‘liqni saqlash ishida davlat va fuqarolarning solidar javobgarligini ta‘minlash, tibbiy xizmatlar hajmi, ta‘minoti sifatini oshirish va ularni moliyalashtirishga imkon beruvchi moliyaviy barqaror tizimni shakllantirish;

- tibbiy xizmatlar yetkazib beruvchilarining samarali faoliyatidan kelib chiqib barqaror moliyalashtirish;

- tibbiyot xizmatlarini yetkazib beruvchilar orasida sog‘lom raqobatni rivojlantirish uchun sharoit yaratish;

- yangi korporativ boshqaruv usullari joriy etilishini rag‘batlantirish va sog‘liqni saqlash tizimiga qo‘shimcha resurslarni jalb qilish.

Vazirlar Mahkamasi huzurida Majburiy tibbiy sug‘urta jamg‘armasi tashkil etiladi. Qoraqalpog‘iston, viloyatlar va Toshkent shahrida uning hududiy boshqarmalari barpo etiladi. Jamg‘armaning asosiy vazifasi mablag‘larni boshqarish va fuqarolarni majburiy sug‘urtalash, sug‘urtalangan shaxslarni hisobga olish va harakatlanish mexanizmlarini joriy qilishdan iborat<sup>137</sup>.

Jamg‘armaga quyidagi mablag‘lar kelib tushadi:

- bazaviy majburiy tibbiy sug‘urta uchun davlat budjetidan olingan mablag‘lar;

---

137

- tamaki mahsulotlari, alkogol, tarkibida shakar, transyogʻlar yuqori darajada boʻlgan mahsulotlar va sogʻliq uchun zararli boʻlgan boshqa mahsulotlarga aksiz soligʻidan maqsadli ajratmalar;
- sud qarorlari ijrosi boʻyicha kompensatsiya toʻlash uchun davlat budjetidan olingan mablagʻlar;
- ixtiyoriy badallar hamda yuridik va jismoniy shaxslarning hadya shartnomalari boʻyicha tushumlar;
- xalqaro tashkilotlar grantlari;
- xayriya jamgʻarmalaridan, xalqaro tashkilotlar va xorijiy fuqarolardan keladigan mablagʻlar;
- milliy qonunchiligimizga zid boʻlmagan boshqa daromadlar.

Bunda turli yordamlarni koʻrsatish uchun ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi toʻlov usullari joriy etiladi:

- birlamchi tibbiy-sanitariya yordami – hududlarning xususiyatlari, muassasalar turi, aholi zichligi va boshqa omillarni, koʻrsatilgan tibbiy xizmatlar sifati natijalarini hisobga oluvchi toifalangan tuzatish koeffitsiyentlariga ega yagona jon boshiga toʻgʻri keladigan normativiga asosan haq toʻlashning kombinatsiyalangan usuli;
- ixtisoslashtirilgan /ikkilamchi ambulatoriya yordami – ixtisoslashtirilgan ambulator xizmatlar uchun haq toʻlash usuli;
- statsionar yordam – respublika, viloyat va tuman (shahar) davolash-profilaktika muassasalarida hajm strategik cheklangan holda klinik-xarajat guruhlari boʻyicha «har bir davolangan holat» uchun haq toʻlash usuli.

Taqdim etilgan 2019–2025-yillarda Oʻzbekiston Respublikasida sogʻliqni saqlashni moliyalashtirish strategiyasi loyihasida majburiy tibbiy sugʻurtani joriy etishdan kutilayotgan natijalar keltirilgan (*quyidagi jadvalga qarang*).

## 1-jadval

### 2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish strategiyasi loyihasida majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etishdan kutilayotgan natijalar<sup>138</sup>

<b>Fuqarolar uchun</b>	<b>Jamiyat va davlat uchun</b>	<b>Tibbiy xizmatni yetkazib beruvchilar uchun</b>
tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyati darajasi va sifatini oshirish	aholini tibbiy yordam bilan har tomonlama qamrab olish	tibbiy xizmatlar yetkazib beruvchilarining samarali faoliyatidan kelib chiqib barqaror moliyalashtirish
davlat tomonidan kafolatlangan yagona tibbiy xizmatlar hajmini bemorlar haq to‘lashi nazarda tutilgan xizmatlardan aniq ajratilishi, fuqarolarning tibbiy xizmatlarga ehtiyojini o‘z vaqtida va sifatli qondirishga yo‘naltirilgan sog‘liqni saqlash tizimini shakllantirish	sog‘liqni saqlash xarajatlarini optimallashtirish, tibbiy xizmatlar turli yetkazib beruvchilar tomonidan takrorlanishini bartaraf etish, resurslardan foydalanish nuqtayi nazaridan sog‘liqni saqlash tizimining ochiq-oshkoraligi	yangi korporativ boshqaruv usullari joriy etilishini rag‘batlantirish va sog‘liqni saqlash tizimiga qo‘shimcha resurslarni jalb qilish
salomatlikni mustahkamlash va o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini oshirish	tibbiy xizmatlar hajmi, ta‘minoti sifatini oshirish va ularni moliyalashtirishga imkon beruvchi moliyaviy-barqaror tizimni shakllantirish	mazkur sohada sog‘lom raqobatni rivojlantirish uchun sharoit yaratish
tibbiy xizmatlar uchun norasmiy to‘lovlar darajasini kamaytirish	sog‘liqni saqlash ishida davlat va fuqarolarning solidari javobgarligini ta‘minlash	

138

Sogʻliqni saqlash masalalari jahon mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol oʻynaydi. Soliq toʻlovchilar mablagʻlarining katta qismi sogʻliqni saqlash tizimini rivojlantirishga sarflanmoqda. SHunga qaramasdan sogʻliqni saqlash sohasida tibbiy xizmatlarning qamrov darajasi pastligicha qolmoqda. Jumladan, past daromadli mamlakatlar aholisining 90%i tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqiga ega emas. Jahon aholisining bor-yoʻgʻi 39%i sogʻliqni saqlash tizimi xizmatlaridan foydala oladi. Natijada tibbiy xizmatlarga sarflanadigan xarajatlarning 40%i mijozlar zimmasiga tushmoqda<sup>139</sup>.

Davlat oʻz fuqarolarining sogʻligʻi uchun masʼul hisoblanadi. Ushbu holat aksariyat rivojlangan mamlakatlarda davlat xarajatlari tarkibida sogʻliqni saqlash xarajatlarining yuqori ulushga ega ekanligida namoyon boʻlmoqda.

Sogʻliqni saqlash tizimi xizmatlari boshqa tovarlar va xizmatlardan tubdan farq qiladi. Sogʻliqni saqlash xizmatlari talabni yuzaga keltiradi. Masalan, rak kasaliga qarshi ishlab chiqilgan yangi dori odamlarning hayotini saqlab qolmasa-da, yangi doriga boʻlgan ishonch talabni shakllantiradi. Tibbiy xizmatlar bozori xususiy toʻlov qobiliyatiga asoslanganligi bois davolanishga muhtoj kishilarning tabaqalanishiga olib keladi. Kam taʼminlangan kishilar, imkoniyati cheklanganlar, bolalar va keksa kishilar sogʻliqni saqlash xizmatlariga ehtiyojlari yuqori boʻlsa-da, ularda xususiy tibbiy sugʻurta yoki tibbiy xizmatlar uchun bevosita toʻlovlarni amalga oshirish imkoniyati past boʻladi.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda koʻpchilik sogʻliqni saqlash ijtimoiy birdamlikning asosi boʻlib, uni inson huquqlari sifatida koʻrib chiqish zarur, deb hisoblashadi. Jamiyatda sogʻliqni saqlash xizmatlaridan aholining barcha qatlamlari birday foydalanish imkoniyati yaratilishi zarur.

Hozirgi paytda aholi sogʻligʻini saqlash va tiklashda tibbiy xizmatlar bozori rivojlanishining samaradorligini oshirish vazifalari yuksak baholanib, uni yaqin kelajakda yuqori pogʻonalarga koʻtarish va tibbiy xizmatlar bozori rivojlangan xorijiy davlatlar bilan tenglashtirishning istiqbolli yoʻnalishlari belgilab olingan. Sogʻliqni saqlash samaradorligining quyidagi yoʻnalishlarini farqlash mumkin:

---

<sup>139</sup> World Social Protection Report 2014/15./15.

Birinchiidan, tibbiy samaradorlik - bu profilaktika, diagnostika, davolash va reabilitatsiya sohasida qo'yilgan vazifalarga erishish darajasi;

Ikkinchiidan, ijtimoiy samaradorlik - bu aholi sog'lig'ining yaxshilanishiga erishish;

Uchinchiidan, iqtisodiy samaradorlik - bu profilaktik tadbirlarni o'tkazish va aholi sog'lig'ining yaxshilash hisobiga mamlakat iqtisodiyotiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatilishi<sup>140</sup>.

Sog'liqni saqlash sohasida samarali xo'jalik yuritish omillari birinchi navbatda muassasada band bo'lgan shifokorlar mehnatidan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishga bog'liq. Shifokorlar mehnatining samaradorligi ko'rsatilayotgan xizmatlarning ishlab turgan bitta shifokor ulushiga to'g'ri keladigan hajmi bilan o'lchanadi. Masalan, ambulatoriya-poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlarining bir shifokoriga to'g'ri keladigan qatnovlar soni shunday ko'rsatkichlar jumlasiga kiradi. Shifokorlar mehnatidan unumli foydalanish, uning samaradorligini oshirish borasidagi jarayonlarni boshqarish ilmiy jihatdan asoslangan mehnat sarfi normativlarini ishlab chiqishga bog'liq. Ushbu normativlarni tibbiyot xodimlarining haqiqatda bajargan ish ko'rsatkichlarining nomativlari bilan solishtirib ko'rib, ularning mehnatidan qanchalik samarali foydalanilayotganligini aniqlash mumkin. Tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish dolzarb muammolardan biri bo'lib, uning hal etilishi tibbiy xizmatlar bozori rivojlanishining jadallashuvini va aholining sifatli xizmatlardan bahramand bo'lishining bundan keyingi imkoniyatlarini ochib beradi.<sup>141</sup>

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

**Sog'liq** – bu, insonda oddiygina og'riqlar va jismoniy nuqsonlarning yo'qligi emas, balki insonning to'laqonli jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligi holatidir.

**Sog'liqni saqlashning ijtimoiy-iqtisodiy modeli** – soha asosiy tomonlarining ko'rinishi, bosh xarakteristikasidir.

---

<sup>140</sup> Трушкина Л.Ю., Тлепцеришев Р.А., Трушкин А.Г., Демьянова Л.М. Экономика и управление здравоохранением – Ростов-на-Дону «Феникс», 2004, - с. 24 -25.

<sup>141</sup> 2. Rajabov O'. O'zbekistonda tibbiyot sohasini moliyalashtirish, tashkil qilish, mavjud imkonlardan kengroq foydalanish istiqbollari // Iqtisod VA Moliya / Ekonomika i finansы № 11, 2011. <http://uzscite.uz/wp-content/uploads/2020/07/54-59.pdf>

**Strategiya** – bu, kompleks chora-tadbirlar majmuyi bo‘lib, sog‘liqni saqlash tizimi salohiyatini va strategik rejalashtirish uchun budjetni shakllantirish jarayonlarini mustahkamlashga qaratilgan.

**Uy xo‘jaligi** – ma‘lum bir turar-joy manzilida birga yashovchi, daromadlari yoki mol-mulkini to‘liq yoki qisman birlashtirgan hamda ayrim turdagi tovarlar va xizmatlarni (asosan uy-joy xizmatlari va oziq-ovqat mahsulotlarini) birgalikda iste‘mol qiladigan shaxslar guruhi;

Uy xo‘jaligi pul xarajatlari iste‘mol va noiste‘mol xarajatlardan tarkib topadi. O‘z navbatida, uy xo‘jaligining iste‘mol xarajatlari, iste‘mol tovarlari va xizmatlarini xarid qilishga (ya‘ni, oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishga, uydan tashqarida ovqatlanishga, spirtli va spirtsiz ichimliklar, tamaki mahsulotlari, noziq-ovqat mahsulotlar sotib olishga va pullik xizmatlarga) yo‘naltirilgan xarajatlarini o‘z ichiga oladi. Noiste‘mol xarajatlarga soliqlar, yig‘imlar, to‘lovlar va iste‘mol bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa turdagi xarajatlar kiradi;

**Tibbiy samaradorlik** – bu, profilaktika, diagnostika, davolash va reabilitatsiya sohasida qo‘yilgan vazifalarga erishish darajasi;

**Ixtisoslashgan tibbiy yordam** – profilaktika, tashxis qo‘yish, davolashning va murakkab tibbiy texnologiyalardan foydalanishning maxsus usullarini taqozo etuvchi kasalliklarga chalingan fuqarolarga ko‘rsatiladi.

**Fuqaroning sog‘lig‘i haqidagi ma‘lumot** – fuqaro o‘ziga, o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan shaxslar hamda qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar sog‘lig‘i to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni esa ularning qonuniy vakillariga davolash-profilaktika muassasasining davolovchi shifokori, bo‘lim mudiri yoki tekshirish va davolashda bevosita qatnashayotgan boshqa mutaxassislar beradi.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Koreya Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimi xususiyatlari nimalardan iborat?

2. Koreya Respublikasida tibbiy sug‘urta turlarini tavsiflab bering.

3. Evolyusion taraqqiyot nuqtayi nazaridan sog‘liqni saqlashning qanday modellari mavjud?

4. Davlat tomonidan boshqarilmaydigan xususiy sog‘liqni saqlash modelini o‘ziga xos xususiyatlarini sanab bering?
5. Aholining ayrim qatlamlari majburiy tibbiy sug‘urta dasturining davlat tomonidan boshqariladigan xususiy sog‘liqni saqlash modelini o‘ziga xos xususiyatlarini sanab bering?
6. Sog‘liqni saqlashning monopollashgan davlat modelini o‘ziga xos xususiyatlarini sanab bering?
7. Sog‘liqni saqlashning monopollashgan davlat modeli qanday afzalliklari mavjud?
8. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish yo‘nalishlarini sanab bering?
9. Jahondagi uy xo‘jaliklarining sog‘liq uchun xarajatlari eng ko‘p va eng kam sarflaydigan mamlakatlar qaysilar?
10. Mamlakatimizda majburiy tibbiy sug‘urtalash tizimiga o‘tish nechta bosqichda amalga oshiriladi?
11. Majburiy tibbiy sug‘urtalash tizimini tatbiq qilish orqali qanday natijalarga erishish maqsad qilingan?
12. Vazirlar Mahkamasi huzurida Majburiy tibbiy sug‘urta jamg‘armasi qanday mablag‘ hisobidan shakllantiriladi?

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **I. O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoyalash to‘g‘risida”gi Qonuni. –T.: Adolat, 1996.
3. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: O‘zbekiston, 2008.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Valutani tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). -T., 2004.
5. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. O‘zR. 1995-yil 21-dekabrda Qonuni bilan tasdiqlangan va 1996-yil 1-apreldan amalga kiritilgan.

### **II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari**

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 – yil 1 – fevraldagi PQ–2750-sonli “Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 – yil 7 – fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 – yil 28 –iyul-dagi PQ-3157-sonli «Mahalliy eksport qiluvchi korxonalarini rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi Qarori
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 – yil 10 – avgustdagi 5147-son «O‘zbekiston Respublikasi hisob palatasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 – yil 10 – avgustdagi PF-5147-son farmoniga 4-ILOVA O‘zbekiston



Respublikasi hisob palatasi to‘g‘risida NIZOM.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta‘minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2008-yil 28-noyabr, PF-4058-son.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko‘rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to‘g‘risida”gi 2007 – yil 4 – apreldagi PQ-615-son Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida organik qishloq xo‘jaligi va organik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish” PF-5995-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/4815923>

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda “2019 — 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi” PF-5590-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/4096197>

### **III. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi vazirliklarining me‘yoriy-huquqiy hujjatlari**

15. Vazirlar Mahkamasining 2017 – yil 24 – oktyabrdagi 870-son qaroriga 1-ILOVA. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi to‘g‘risida Nizom.

16. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida NIZOM. 1999-yil 5-fevral. – T.: O‘zbekiston, 1999.

17. “Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarning ahamiyatini oshirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 – yil 22 – sentabrdagi 365-sonli qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 – yil 15 – noyabrdagi 393-son qaroriga 2-ILOVA «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi va uning hududiy moliyaviy nazorat boshqarmalari to‘g‘risida» NIZOM.

19. Inventarlash vaqtida aniqlangan mol-mulkning kamomadi va ortiqchasini buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish tartibi haqidagi Nizom. 2001-yil 20-iyunda 56/2001-38-son bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2001 – yil 23 – iyulda 1054-son bilan ro‘yxatga olingan.

20. Chet el valyutasida operatsiyalarning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risida Nizom. Adliya vazirligida 2013 – y. 1411-1-son bilan ro‘yxatga olingan.

21. O‘zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyatining milliy standartlari. -T.: O‘BAMA, 2016.

22. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari. -T.: O‘BAMA, 2016.

23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002-yil 3-apreldagi 111-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida atrof-tabiiy muhitning davlat monitoringi to‘g‘risidagi Nizom.

24. Auditorlik tashkilotlari to‘g‘risida Nizom (O‘zR Prezidentining 04.04.2007y. PQ-615-son Qaroriga ilova.

25. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvining 2015-yil 16-maydagi 12\17-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari».

26. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2013-yil 23-noyabrdagi 22/2-sonli qaroriga ILOVA. Kapital harakati bilan bog‘liq ayrim valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida NIZOM (AV 23.11.2017 y. 2536-1-son bilan ro‘yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori.

27. Chet el valyutasidagi operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risida NIZOM (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Markaziy banki, Davlat statistika qo‘mitasining 2004 yil 2 sentyabrdagi 98, 41, 2004-57, 257-V, 8-son qarori bilan TASDIQLANGAN. Mazkur Nizomga quyidagilarga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilgan AV 30.07.2013 y. 1411-1-son bilan ro‘yxatga olingan MV, IV, DSQ, MB Boshqaruvi, Davstatqo‘m Qarori; AV 12.01.2015-y. 1411-2-son bilan ro‘yxatga olingan MV, IV, DSQ, MB Boshqaruvi, Davstatqo‘m Qarori)

#### **IV. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. // «Xalq so‘zi», 2020-y., 25-yanvar.

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr.

30. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’i tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017.

31. Mirziyoyev Sh.M. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi. – T.: O‘zbekiston, 2010.

32. O‘zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlari. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga murojatnomasi. // Xalq so‘zi, 2017-yil 23-dekabr.

33. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2016.

34. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruza. 2016-yil 7-dekabr / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.

35. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: O‘zbekiston, 2009.

#### **V. Darsliklar**

36. Mc Connell, Brue. Economics. 17th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2014.

37. Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2015.
38. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Barkamol fayz media, 2017.
39. Shodmonov Sh.Sh., G‘ofurov Y.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – 728 bet.
40. O‘lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2014. – 480 bet.
41. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Mehnat, 2009. – 357 b.
42. Shodmonov Sh., G‘afurov Y. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. 154 b.
43. Дж.М.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. Избранное М.2008г. стр-194.
44. М.Блауг экономическая мысль в ретроспективе М.1996г. стр-543
45. Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2 т.: Пер. с англ. 11-го изд. Т.1. – М.: Республика, 1992.
46. Макконнелл Р.М. Экономикс: Принципы, проблемы и политика / Р.М. Макконнелл, С.Л. Брю : в 2 т. - М. : Прогресс, 1992. стр.936.
47. Макконнелл К. Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. — М.: Республика, 1992. — Т. 1. — С. 20—21. — 399 с. — ISBN 5-250-01534-4.
48. К.Р.Макконел, С.Л.Брю экономикс, принципы, проблемы и политики м.1992 стр ....
49. П.Самуэльсон экономики том 1 м.1992, стр...
50. Шодмонов Ш.Ш., Гофуров У.В. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. – Т.: Iqtisod-moliya, 2010. – 728 бет.
51. Экономическая теория (политэкономия) учебник “прома медия” м. 1995. стр-275
52. Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, стр-485-489
53. Я.С.Ядгаров История экономических учений. М.2006г. стр-337.

## VI. O'quv qo'llanmalar

54. A.Razzoqov, Sh.Toshmatov, N.O'rmonov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Toshkent, «Moliya» nashriyoti, 2002

55. Juravleva G.P.. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika-1, 2. Mezoekonomika: Uchebnik / MOSKVA: Dashkov i K, 2016. - 934 c.

56. Kochetkov A.A.. Ekonomicheskaya teoriya: Uchebnik dlya bakalavrov / Moskva.: Dashkov i K, 2016. - 696 c.

57. Kochetkov A.A.. Ekonomicheskaya teoriya: Uchebnik dlya bakalavrov / Moskva.: Dashkov i K, 2016. - 696 c.

58. Sh.Shodmonov, dots. G.Baubekova tomonidan chiqarilgan «Иновационные методы в преподавании экономической теории»

59. Borisov E.F. Экономическая теория: учеб. – 2-е изд., перераб. и доп. - - М.: ТК Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005, s.144.

60. Smit A. «Исследование о природе и причинах богатства народов».; Рикардо Д. «Начало политической экономии и налогового обложения». Анталогия экономической классики. М., 1993, с.46,199.

61. Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 469-б.

62. P.Xasanov Bozor daromadlari mo'xiyati, tarqibiy tuziliishi va ta'baqalari. T.: 2004 86-бет

63. Abdullayev Yo. Makroiqtisodiy statistika. O'quv qo'llanma. – T.: Mehnat, 1998. – 181 b.

64. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Aholi turmush tarsi va daromadlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011.

65. B.B. Berkinov, M.N. Sunnatov. Institutsional iqtisodiyot (Ma'ruzalar matni ) – T. TDIU, 2011. 138 b..

66. D.Tojiboyeva. Iqtisodiyot nazariyasi. To'ldirilgan, 2-nashri. O'quv qo'llanmasi. T.:TMI, 2005. 140 b.

67. A.Маршалл Основыэкономической науки. М.2008г. стр-166.

68. E.M. Майбурд в ведение в историю экономической мысли от пророков до профессоров. М.1996.г. стр-373.

69. Жеребин В.М. Классификация, функции и значение деятельности домашних хозяйств // Вопросы статистики. - 1997. - № 2. - С. 69.

70. Жеребин В.М. Экономика домашних хозяйств / В.М. Жеребин, А.Н. Романов. - М.: Финансы, 1998. - С. 62-63.

71. Задумкин К.А. Региональная инновационная система: теория и практика формирования/ К.А. Задумкин, И.А. Кандаков; под. рук., проф. В.А. Ильина- Вологда: Вологодский научно – координационный центр ЦЭМИ РАН, 2008 г. с 45.

72. Комаров М.П. Инфраструктура регионов мира. –М., 2006. –С.20.

73. Лapidус Л.В. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией. – М.: ИНФРА-М, 2018. -381 с.

74. Тихонова Н.Е., Горшкова М.К. Бедность и бедные в современной России. — Весь Мир, 2014. — 304 с.

75. Салтман Р.Б., Фигейрас Дж. Реформы системы здравоохранения в Европе. Анализ современных стратегий. Пер. с англ. М.: Гэотар Медицина, 2000.

76. Трушкина Л.Ю., Тлепцеришев Р.А., Трушкин А.Г., Демьянова Л.М. Экономика и управление здравоохранением – Ростов-на-Дону «Феникс», 2004, - с. 24 -25.

77. Шестакова Е.Е. Главные направления реформирования организации и финансирования медицинского обслуживания. // Труд за рубежом 1998. №2. С.57-78.

78. Кравченко Н.А. Проблемы методологии прогнозирования потребности в ресурсах здравоохранения в условиях перехода экономики к рынку // Экономика здравоохранения. – 1996. - №3. – С.23.

79. Курманова Л.В. Опыт зарубежных стран в развитии здравоохранения в условиях рынка (проблемы финансирования). - Проблемы управления здравоохранением. – 2002. - №2. – С.34-56

80. Кучеренко В.З., Данишевский К.Д. Наиболее известные системы здравоохранения развитых стран // Экономика здравоохранения. – 2000. - №7. – С.5-26.

## **VII. Statistika to‘plamlari ma’lumotlari**

81. O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining 2010-2018yildagi asosiy ko‘rsatkichlari. –T., 2019.

82. «Узбекистан: Рабочие места, профессиональные умения и миграция», Всемирный банк / GIZ, 2013 год. С.63

83. Edward M. Gramlich, “Infrastructure Investment: A Review Essay”. Journal of Economic Literature, Vol. 32, No. 3. (Sep., 1994), pp. 1176-1196.

84. Guseva D.E., Malyhin N. Kraudfanding: sushhnost’, preimushhestva i riski // zhurnal «Sovremenna nauka: aktual’nye problemy teorii i praktiki. Seriya «Jekonomika i pravo», - № 9-10, 2014. - <http://www.nauteh-journal.ru/index.php/ru/---ep14-09/1278-a>.

85. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash, hayotimizni yanada erkinlashtirish va obod bo‘lishiga erishish-bizning bosh maqsadimizdir. O‘quv qo‘llanma Toshkent-2013 yil. 75-bet.

86. Mamajanov, A. (2018) “THEORETICAL BASES OF ANALYSIS COST OF PRODUCTION AND COST,” International Finance and Accounting: Vol. 2018 : Iss. 3 , Article 3. Available at: <https://uzjournals.edy.uz/interfinance/vol2018/iss3/3>

87. Oripov M.A. O‘zbekiston dehqonchiligida ishlab chiqarish infratuzilma xizmatlari ko‘rsatishni rivojlantirish. 08.00.04. – Agrosanoat majmuyi iqtisodiyoti. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoref. – T.: O‘zR BMA, 2011, 13-14-b.

88. Абидов Б.К. Мактабгача таълим (хорижий мамлакатлар тажрибаси). Замонавий таълим / Современное образование 2017, 11-сон. maktabgacha-talim-horizhiy-mamlakatlar-tazhribasi.pdf

89. Dadaxojayeva M.E. Xorijiy davlatlarda sog‘liqni saqlashni boshqarishning turli modellariga tavsif va xalqaro amaliyot // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016-yil.1-8-bet. [http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/44\\_Dadaxodjayeva.pdf](http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/44_Dadaxodjayeva.pdf)

90. Rajabov O‘. O‘zbekistonda tibbiyot sohasini moliyalashtirish, tashkil qilish, mavjud imkonlardan kengroq foydalanish istiqbollari // Iqtisod VA Moliya / Ekonomika i finansы № 11, 2011. <http://uzscite.uz/wp-content/uploads/2020/07/54-59.pdf>

91. Алканова О.Н., Смирнова М.М. Маркетинг на развивающихся рынках: подходы к определению и направления исследований // 222-Текст%20статья-438-1-10-20171023.pdf

92. Антошкина Л.И. Высшее образование в системе общественных интересов /монография/ Л.И.Антошкина – Донецк: ООО «Юго-восток», ЛТД 2008 г. С 54

93. Болонский процесс-структурная реформирование высшего образования на европейском уровне- (электронный ресурс)-режим доступа: <http://Крі.ua/bolona>.

94. Другов А. Проблемы и направления модернизации высшего образования в Украине/ А.Другов /Вестник КНЕТУ-2007-№5- с 127-134

95. Муталипова М., М.Имомов М. “Таълимда илғор хорижий тажрибалар” <https://tmetod.uz/wp-content/uploads/umk/2.2.-Talimda-ilgor-horijiy-tajribalar.pdf>

96. Олейник А. Институциональная экономика : учеб.-метод. пособие. Тема 12. Домашнее хозяйство и другие организационные структуры // Вопросы экономики. - 1999. 127 б.

97. Райнер М.П. «Ўзбекистон евробондлар чиқарганидан сўнг ривожланаётган бозорлар инқирозига тушиб қолиши мумкин» <https://kun.uz/10346435?q=%2F10346435>

98. Ржепишвского В.В., Проблемы и перспективы функционирования высших учебных заведений в региональной инновационной системе/ В.В. Ржепишвского – [электронный ресурс] – режим доступа. [www/old.niss.govvua/ monitor/mat-2wa/r/htm](http://www.old.niss.govvua/monitor/mat-2wa/r/htm).

99. Рябова А.И. Оценка результатов использования инновационных технологий в отрасли растениеводства в условиях импортозамещения. //Управление экономическими системами: электронный научный журнал. (108) УЭКС, 2/2018.

100. Селезнев А.З. Становление рынка и его инфраструктуры / Экономист. 1993, №9.

101. Статистика высшего образования в Европе. [www.Eurostat](http://www.Eurostat) (educuofine06) and (educfigdp)

102. Ўзбекистонда бугдой етиштиришда қишлоқ хўжалиги сиёсати ва ўсимлик маҳсулотларини диверсификация қилиш. Лойиҳа AGRIWANET, 2016, <http://ced.uz/issledovaniya/selskohozyajstvennaya-...> лойиҳаси бўйича давлат ҳисоботи.



103. O‘zbekistonda bug‘doy yetishtirishda qishloq xo‘jaligi siyosati va o‘simlik mahsulotlarini diversifikatsiya qilish. Loyiha AGRIWANET, 2016, <http://ced.uz/issledovaniya/selskohozyajstvennaya-...> loyihasi bo‘yicha davlat hisoboti.

104. O‘zbekistonda chorvachilik: hozirgi holat, muammolar va rivojlanish istiqbollari. Tahliliy hisobot. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi, Toshkent, 2009, <http://ced.uz/issledovaniya/zhivotnovodstvo-v-uzbekistane-tekushheesostoyanie-problemy-i-perspektivy-razvitiya/>

105. Xodiev B. Yu. Sifrovaya ekonomika v Uzbekistane // Mirovaya ekonomika, 2017. №12.

106. Xolmuhamedov M. Yangi professional ta‘lim — yangi missiya <https://review.uz/oz/post/yangi-professional-talim-yangi-missiya>

107. Xo‘jaev A. Singapur ta‘lim tizimi: ja‘on brendiga aylangan // <http://isrs.uz/uz/maqolalar/singapur-talim-tizimi-zaon-maorifida-etakci-brendga-ajlangan>

108. Baza данных ВОЗ. – Rejim dostupa: <http://data.euro.who.int/hfadb>. – Data dostupa: 16.12.2013

109. Vyalkov A.I. Teoreticheskoe obosnovanie i razrabotka osnov regionalnoy politiki v zdravooxranenii // Avtoref. diss. ... dokt. med.nauk. – Moskva, 1999. – 21s

### **VIII. Интернет сайтлари**

110. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning matbuot xizmati

111. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali

112. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi

113. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

114. [www.cby.uz](http://www.cby.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.

115. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot

vazirligi rasmiy sayti

116. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti

117. [www.norma.uz](http://www.norma.uz) – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi sayti.

118. [www.tdiy.uz](http://www.tdiy.uz) – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rasmiy sayti.

119. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning matbuot xizmati

120. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali

121. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

122. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

123. [www.cby.uz](http://www.cby.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.

124. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi rasmiy sayti.

125. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

126. [www.norma.uz](http://www.norma.uz) – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi sayti.

127. [www.tsue.uz](http://www.tsue.uz) – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rasmiy sayti.

**128.** <http://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.KD.ZG>

129. <http://extwprlegs1.fao.org/docs/pdf/uzb196705.pdf>

130. [http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/20\\_Abdullayeva\\_I.pdf](http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/20_Abdullayeva_I.pdf)

131. <http://www.finextra.com/news/fullstory.aspx?newsitemid=27188>.

132. <https://bcs-express.ru/novosti-i-analitika/razvivaiushchiesia-rynki-glavnaia-torgovaia-ideia-na-2021>

133. <https://data.worldbank.org/indicator/SL.UEM.TOTL.ZS?view=chart>

134. <https://kun.uz/news/2020/12/29/talim-tizimi-2021-yilda-qanday-yangiliklar-kutilyapti>

135. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

136. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/induktsiya-uz/>
137. <https://review.uz/oz/post/> - R.R. Xasanov. O‘zbekistonda kambag‘allik va uni qisqartirish yo‘llari.
138. <https://sputniknews-uz.com/society/20200227/13557112/Mirzиеv-kambaallikni-isartirish-masalasida-videoselektor-tkazdi.html>
139. <https://tarjumon.uz>
140. <https://tass.ru/info/7525997>
141. <https://uzlidep.uz/news-of-party/6995>
142. <https://wfin.kz/novosti/ekonomika/item/30202-internet> sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
143. [https://www.agro.uz/uz/information/about\\_agriculture/433/4381/](https://www.agro.uz/uz/information/about_agriculture/433/4381/)
144. <https://www.gazeta.uz/uz/2019/07/08/agriculture/>
145. [https://www.inform.kz/oz/kozogistonda-kishlok-h-zhaligi-tehnikasini-ishlab-chikarish-98-foizga-sdi\\_a3772987](https://www.inform.kz/oz/kozogistonda-kishlok-h-zhaligi-tehnikasini-ishlab-chikarish-98-foizga-sdi_a3772987)
146. <https://www.kommersant.ru/doc/4349503>
147. <https://www.pv.uz/uz/news/tadbirkorlikni-rivozhlantirish-va-kasbga-tajerlash-orali-kambaallikni-kamajtirish-choralari-belgilandi>
148. <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/2806/file/coar%20report%20uzb.pdf>
149. <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/qishloq-xojaligidagi-islohotlarning-yangi-bosqichi-belgilandi.html>
150. [www.mgimo.ru](http://www.mgimo.ru)
151. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
152. [www.vsemirnyjbank.org/ru/news/press-release/2016/04/27/the-world-bank-supports-quality-improvement-for-labor-force-in-uzbekistan](http://www.vsemirnyjbank.org/ru/news/press-release/2016/04/27/the-world-bank-supports-quality-improvement-for-labor-force-in-uzbekistan)
153. [https://www.norma.uz/nhh\\_loyihalari/majburiy\\_tibbiy\\_sugurta\\_uch\\_bosqichda\\_joriy\\_etiladi](https://www.norma.uz/nhh_loyihalari/majburiy_tibbiy_sugurta_uch_bosqichda_joriy_etiladi)
154. <http://tmatm.uz/site/wp-content/uploads/2015/09/II-or-rivozhlangan-horizhij-davlatlar-so-li-ni-sa-lash-tizimi-bujicha-horizhij-tazhiba.pdf>
155. <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/a141cb6bace3f340df173e75d4463970-0080062021/original/L2CU-COVID-19-Rev2020-Cleared-UZB.pdf>

156. <https://uzbekinvest.uz/news/tibbij-sugurta-soglik--kafolati-buloladimi>
157. <https://www.the-village.ru/business/figures/234691-world>
158. Social Policy an Introduction-Forth edition/ Ken Blakemore, Louis Warwick-Booth/Open University Press/UK 2013.
159. World Social Protection Report 2014/15.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. FANGA KIRISH.....	5
1.1. Rivojlanish maqsadini aniqlash va jarayonini tushunish.....	5
1.2. Rivojlanish siyosatini tahlil qilish.....	9
1.3. Iqtisodiyot va siyosatning to'g'ri tahliliga ehtiyoj.....	16
2-BOB. IQTISODIY FAROVONLIK.....	20
2.1. Kambag'allar orasida hayot va obod turmush ta'rifi.....	20
2.2. Rivojlanayotgan mamlakatlarda uy xo'jaliklari farovonligi va uni empirik o'rganish.....	29
2.3. Uy xo'jaliklarining jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlari va real iste'mol xarajatlari.....	32
3-BOB. IQTISODIY O'SISH .....	41
3.1. Iqtisodiy o'sishning o'lchovlari.....	41
3.2. Iqtisodiy o'sishning manbalari va uni aniqlovchi omillari.....	48
3.3. Mamlakatlararo o'sishning regressiyasi bo'yicha tadqiqotlar.....	51
4-BOB. TARIXIY ISTIQBOLDA IQTISODIY O'SISH NAZARIYASI.....	59
4.1. Iqtisodiy rivojlanish modellari.....	59
4.2. Neoklassik istiqbollor.....	66
4.3. Iqtisodiy o'sishga texnologiyalar va inson kapitalining ta'siri.....	70
4.4. Bozorning nomukammalligi, daromadlarning oshishi va qashshoqlik tuzoqlari.....	72
5-BOB. QASHSHOQLIK, TENGSIZLIK VA ZAIFLIK .....	77
5.1. Qashshoqlik, tengsizlik, nochorlikning iqtisodiy o'sishga ta'siri.....	77
5.2. Qadriyatlar, e'tiqodlar va rivojlanish maqsadlari.....	81
5.3. O'sish, tengsizlik va qashshoqlikni bog'laydigan matematik munosabatlar.....	83
5.4. O'sish, tengsizlik va qashshoqlik ijtimoiy-iqtisodiy tizimning qo'shma natijalari sifatida.....	88
6-BOB. ISTE'MOL, VAQTNI TAQSIMLASH VA ISHLAB CHIQRISHNI TANLASH.....	97
6.1. Tanlash, rivojlantirish va rivojlanish iqtisodiyoti.....	97
6.2. Oziq-ovqat bilan ta'minlash siyosatining iste'mol qilishga ta'siri.....	102
6.3. Ish bilan ta'minlash, bolalar mehnatidan foydalanish motivatsiyasi... ..	104
6.4. Asosiy ishlab chiqaruvchilar nazariyasi: maksimal foyda, Yashil inqilobning qishloq mehnatiga ta'siri.....	113
7-BOB. UY XO'JALIGI.....	122
7.1. Rivojlanish va siyosat tahlilidagi xilma-xillik.....	122
7.2. Uy xo'jaligining yagona nazariyalari.....	125
7.3. Uy xo'jaligining yagona modellarida gender.....	134
7.4. Kooperativ savdolar va jamoaviy qarorlarni qabul qilish modellari.....	140

8-BOB. MAHALLIY TOVARLAR VA XIZMATLAR.....	148
8.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bozor.....	148
8.2. Transfer xarajatlarining bozor muvozanati modeli.....	151
8.3. Bozor rivojlanishi iqtisodiyoti.....	154
9-BOB. ISHCHI KUCHI BOZORI.....	158
9.1. Ishchi kuchi bozori rivojlanishi.....	158
9.2. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ishchi kuchi bozoridagi harakatchanlik	162
9.3. Rivojlanishdagi ishchi kuchi harakatchanligining oddiy modeli.....	168
10-BOB. INVESTITSIYA VA MOLIVAVIY BOZORLAR.....	173
10.1. Investitsiyalar va moliyaviy bozorlar rivojlanishi.....	173
10.2. Investorlar va investitsiya loyihalari.....	180
10.3. Moliyaviy bozorning asosiy funksiyalari.....	188
10.4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy bozorlar.....	192
11-BOB. XALQARO BOZORLAR VA UMUMIY MUVOZANAT.....	199
11.1. Xalqaro savdoning qisman muvozanat modeli.....	199
11.2. Savdo, ishlab chiqarish tarkibi va daromadlarni taqsimlashning umumiy muvozanat modellari.....	205
11.3. Savdo, investitsiya, innovatsiya va iqtisodiy o'sish.....	211
11.4. Savdo siyosati va so'nggi yillarda o'sishi.....	216
12-BOB. INSTITUT VA KORPORATSIYALAR.....	227
12.1. Institutlar, hamkorlik va rivojlanish, hamkorlik va institutlar.....	227
12.2. O'yin nazariyasi va xatti-harakatlar iqtisodiyotining asosiy tushunchalari.....	231
12.3. Jamiyat darajasidagi muassasalarning iqtisodiy tahlili.....	233
12.4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda jamoatchilik darajasidagi institutlarni tadqiq qilish.....	237
12.5. Sug'urta tashkilotlari va boshqa institutlar.....	240
13-BOB. SIYOSAT, BOSHQARUV VA SIYOSIY IQTISOD.....	246
13.1. Siyosat, boshqaruv, siyosat va rivojlanish.....	246
13.2. Aralashuvning asoslari va siyosatni tuzish, siyosatni amalga oshirishni samarali boshqarish.....	249
13.3. Boshqarishdagi muvaffaqiyatsizliklar.....	256
13.4. Rivojlanishning siyosiy iqtisodi.....	261
14-BOB. MAQSADLI UZATISH DASTURLARI.....	272
14.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda maqsadli uzatish dasturlari.....	272
14.2. Maqsadli transfertlar va rivojlanish.....	276
14.3. Maqsadli transfer dasturining amalga oshirilishi.....	277
14.4. Maqsadli transfer dasturlarini baholash.....	283
15-BOB. QISHLOQ XO'JALIGIGA BOZOR ARALASHUVI VA ISLOHOTLAR.....	287
15.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligidagi bozorga davlat aralashuvi.....	287

15.2.Qishloq xo‘jaligiga bozor aralashuvlari amalga oshirish islohotlari.....	291
15.3.Qishloq xo‘jaligiga bozorlar aralashish islohotlari iqtisodiyoti.....	298
15.4.Qishloq xo‘jaligidagi bozor islohotlarining foyda va xarajatlari.....	301
15.5. Qishloq xo‘jaligi bozorlarini erkinlashtirish.....	308
16-BOB. INFRATUZILMA SIYOSATI VA DASTURLARI.....	316
16.1.Rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma.....	316
16.2.Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda infratuzilma zaxiralari	320
16.3.Infratuzilma xizmatlaridan foydalanish va yetkazib berish iqtisodiyoti	328
16.4.Yangi infratuzilma xizmati foydalanish afzalliklari.....	331
16.5.Infratuzilma dasturlari va dizayndagi o‘zgarishlarni baholash.....	337
17-BOB. TA’LIM.....	343
17.1.Rivojlanayotgan mamlakatlarda ta’lim.....	343
17.2.Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda ta’lim sohasiga investitsiyalar.....	346
17.3.Ta’lim siyosatidagi yakuniy va taxminiy vazifalar.....	351
17.4.Rivojlanayotgan mamlakatlarda boshlang‘ich va o‘rta ta’lim iqtisodiyoti.....	359
17.5.Ta’lim sohasidagi islohotlarni baholash.....	371
18-BOB. Qishloq xo‘jaligini tadqiq qilish va kengaytirish.....	376
18.1.Rivojlanayotgan mamlakatda qishloq xo‘jaligidagi texnik o‘zgarishlar	376
18.2.Qishloq xo‘jaligini texnik o‘zgartirish va rivojlantirish.....	383
18.3.Qishloq xo‘jaligidagi texnik o‘zgarishlarning iqtisodiyoti.....	386
18.4.Qishloq xo‘jaligini tadqiq qilish va kengaytirish siyosati.....	389
19-BOB. MIKROMOLIYA.....	395
19.1.Rivojlanayotgan mamlakatlarda mikromoliyalash.....	395
19.2.Mikromoliyaning farovonlikka to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir.....	398
19.3.Mikrokreditlash xarajatlari va moliyaviy barqarorlik.....	401
19.4.Mikrokredit dasturlarini baholash va loyihalash.....	406
20-BOB. JAMOAT SALOMATLIGI, SOG‘LIQNI SAQLASH.....	411
20.1.Rivojlanayotgan mamlakatlarda sog‘liqni saqlash va sog‘liqni saqlash sohasidagi siyosat.....	411
20.2.Sog‘liqni saqlash sohasidagi siyosatning keng imkoniyatlari.....	418
20.3.Sog‘liqni saqlash tizimidan foydalanish imkoniyatlari.....	422
20.4.Uy xo‘jaliklarining sog‘liq uchun sarf-xarajatlarni sotib olishlari.....	424
20.5.Tibbiy sug‘urta, tibbiy xizmat sifati va samaradorligi.....	428
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....	439

**U.V.G‘AFUROV, Q.B.SHARIPOV, X.X.REJAPOV,  
D.S.SALAYEV**

## **EMPIRIK IQTISODIYOT**

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH  
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

<b>Muharrir:</b>	<b>N. Ibragimova</b>
<b>Tex. muharrir:</b>	<b>A. Moydinov</b>
<b>Musavvir:</b>	<b>A. Shushunov</b>
<b>Musahhih:</b>	<b>L. Ibragimov</b>
<b>Kompyuterda sahifalovchi:</b>	<b>M. Zoyirova</b>

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35  
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.**

**Bosishga ruxsat etildi 23.06.2021.**

**Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasini.**

**Ofset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog‘i: 29,0. Nashriyot bosma tabog‘i 28,5.**

**Tiraji 50. Buyurtma №82**



**«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»  
bosmaxonasida chop etildi.  
100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,  
Universitet ko‘chasi, 7-uy.**



ISBN 978-9943-7395-0-5

